3 O'ZBEKISTONNING YANGI TARIXI

MUSTAQIL O'ZBEKISTON TARIXI









CH0000014266

50

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTONNING YANGI TARIXI MARKAZI

Narzulla Jo‘rayev, Tursunboy Fayzullayev

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON TARIXI

O‘zbekistonning yangi tarixi
Uchinchi kitob

To‘ldirilgan, qayta nashr



922492

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2009

63.3(5O‘)64
J 96.

Ushbu kitob O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi O‘zbekistonning yangi tarixi markazi Ilmiy Kengashining 2009-yil 24-fevraldagi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tahrir hay’ati:

Anatoliy Sagdullayev, Najmiddin Komilov, Nazira Abduazizova, Anvar Yaxshiyev, Fatxulla Ergashev

Taqrizchilar:

Nazira Abduazizova, Rustam Jumayev, Sayfiddin Jo‘rayev, Tohir Malikov, Sultonmurod Olimov, Akmal Saidov, Ibrohim G‘afurov

Jo‘rayev,Narzulla.
Mustaqil O‘zbekiston tarixi/ N.Jo‘rayev, T. Fayzullayev; tahrir hay’ati A. Sagdullayev, N. Komilov, N. Abduazizova va boshq.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O‘zbekistonning yangi tarixi markazi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 664 b.
I.Fayzullayev, Tursunboy.

BBK 63.3(5O‘)64

j – f $\frac{0503000000 - 30}{M\ 352\ (04) - 2009}$ 2009

ISBN 978-9943-03-216-3

© Narzulla Jo‘rayev, Tursunboy Fayzullayev, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009-y.

KIRISH

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatliligi, olam-u odam taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar-u serqirra hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik, eng shaxsiy yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etadi.

Tabiiyki, bunday yalpi yangilanishlar jarayoni ijtimoiy-gumanitar fanlar qatorida tarix fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi asrlar osha olib borgan tinimsiz kurashini, uni qo'lga kiritish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, mustaqillikni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarini o'rganish va milliy g'oyani yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mushohada qilmoqlari lozim.

2000-yil 6-aprel kuni Oq saroyda mamlakat Prezidenti bir guruh olimlar, faylasuflar, tarixchilar va mutaxassislar bilan uchrashib, milliy g'oya, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va zarurati haqida batafsil gapirdi va «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», – degan qat'iy xulosaga keldi.

2007-yil 30-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devonining Mustaqillikning 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisida Prezident I.A.Karimov «O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» mavzuida ma'ruza qildi. Unda O'zbekiston mustaqilligi tasodifiy hodisa emasligi, u o'ziga xos kurashlar, ziddiyatlar, iztiroblar bilan birga juda katta tarixiy yutuq ekanligini alohida ta'kidladi. Shu bilan birga ushbu davr fanda butun ko'lami va salmog'i bilan yetarli darajada o'rganilmaganligini alohida ta'kidladi va **«mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlil-tadqiqot hozirgacha amalda yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi»** – dedi.

Mustaqillik davrining xalq, millat va mamlakat taqdiridagi buyuk voqelik, noyob qadriyat ekanligi xususidagi fikrlarini davom ettirib Prezident I.A.Karimov **«O'zbekiston mana shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirganini, bu harakatlarning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini va omillari, kerak bo'lsa, istiqlol o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani – bularning barchasi haqida har taraflama chuqur yoritib va isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganini qayd etishimiz zarur»**, degan talablarni qat'iy qilib qo'ydi.

Darhaqiqat, tarix xotirasi inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy g'oyaning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy ong, milliy tafakkur xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'li o'rganish, undan saboq chiqarish bilan bog'liq. Ulug' allomalar aytganidek, tarix insonni istiqbolga da'vat etadi, ulkan yaratuvchilikni rag'batlantiradi. Zotan, uning ulug' murabbiylik, tarbiyachilik, yo'naltiruvchilik qudrati ham xuddi ana shunda.

Shu ma'noda mamlakatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» Markazini tashkil qilish to'g'risida chiqargan Farmoyishi katta tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega. Unga javoban 2000-yili «Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida», «O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida» va «Mustaqil O'zbekiston tarixi» kitoblari nashr etilgan edi. 2003-yili esa Nukusda «Qoraqalpog'iston» nashriyotida «Qoraqalpog'istonning yangi tarixi» chop etildi. Oradan yillar o'tdi. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davrida ko'pdan ko'p tarixiy voqealar yuz berdi. Mualliflar keyingi yillar voqealari rivoji va mustaqillik davri yaxlit tarixiga ehtiyojning kattaligini nazarda tutib, kitobning to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashrini tayyorlashdi. Jumladan, unda quyidagilarga e'tibor berildi:

– kitob yangitdan to'la tahrir qilindi;

– birinchi bob, oltinchi paragrafga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilinganligiga doir alohida qism qo'shildi;

– sakkizinchi bobga «O'zbekiston – Rossiya munosabatlari», «O'zbekistonning SHHTdagi faoliyati», «Toshkent – Sharq darvozasi» deb nomlangan uchta yangi paragraf qo'shildi;

– barcha paragraflar 2008-yilgacha bo'lgan voqealar bilan to'ldirildi;

– kirish va xulosa qismi yangi tahrirda berilmoqda.

Kitobda O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining

shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi kabi masalalar mumkin qadar o'z ifodasini topgan.

Xullas, «Mustaqil O'zbekiston tarixi» kitobi ana shu tarixiy jarayonlarni to'laroq qamrab olish, uni jamlash, ma'lum bir tartibga solish, qolaversa, ana shu jarayonlarni iloji boricha ko'proq o'rganish orzu-istagida vujudga keldi. Darhaqiqat, mustaqillik davrida o'tgan kunlarimiz alohida o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy va nazariy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda. Buning o'ziga xos asoslari bor:

Birinchidan, O'zbekiston mustaqil suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. U o'zining katta ishlab chiqarish imkoniyatlari, boy aqliy va jismoniy salohiyati, tengsiz tabiiy boyliklari bilan dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari diqqatini tortdi va ular bilan tengma-teng turib hamkorlik qilish qudratiga ega ekanligini ko'rsata oldi.

Ikkinchidan, eng og'ir, mashaqqatli va ziddiyatli paytlarda, o'tish davrining o'ziga xos murakkabliklari mavjud bo'lgan bir vaqtda mamlakatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikning saqlab turilishi mamlakat hukumati siyosatining naqadar hayotiy va xalqchil ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yuzdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatda turli aqidalar va g'oyalar ta'sirida bo'lgan aholining talab-ehtiyojlarini o'z vaqtida qondirish, ularning qarashlarini bir nuqtada jamlash alohida uddaburonlikni va qat'iyatlilikni talab etadi. O'zbekiston hukumati xuddi ana shunday qat'iyatni ko'rsata bildi.

Uchinchidan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash tamoyillari vujudga keldi. Tub islohotlarning Prezident I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyili istiqlolning dastlabki yillaridayoq jahon hamjamiyatida yuqori baholandi va to'la tan olindi.

To'rtinchidan, xorijiy investitsiyani jalb etish, chet ellik ishbilarmonlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shu asosda mamlakat ishlab chiqarishini tubdan o'zgartirish, uni jahonning eng ilg'or texnologiyalari bilan qayta jihozlantirish yo'li tutildi. Bu O'zbekistonning jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazishda barcha yosh mustaqil mamlakatlar o'rtasida eng to'g'ri yo'l tanlaganini ko'rsatdi.

Beshinchidan, O'zbekiston hukumatining islohchilik siyosati bevosita xalq dunyoqarashi, uning ming yillar mobaynida shakllangan urf-odatlari, an'analari bilan uyg'un holda amalga oshirila boshlandi. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Sa-

vob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak», «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqlli, dono va, albatta, baxtli bo'lishi kerak» singari shiorlar xalqimizning orzu-istagi, umid va intilishlari bilan uyg'un holda dunyoga keldi. Bugungi kunda O'zbekistonning tom ma'noda ma'naviy tiklanish va ruhiy poklanish maydoniga aylanganligi ana shu eng ezgu niyatlar asosida davlat siyosati va xalq orzu-umidlarining uyg'unligi natijasidir.

O'zbekiston umumplanetar o'zgarishlar jarayonlari oqimida o'zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanishlari dasturiga ega bo'lgan mamlakat sifatida o'ziga xos va o'ziga mos mavqe egalladi. Yangi sivilizatsiya va insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan davlat sifatida o'zining keng imkoniyatlarini namoyon eta boshladi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan favqulodda keng ko'lamdagi ishlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi bilan mushtarak ekanligi alohida qayd etilishi lozim. O'zbekistonda milliy, regional va umumplanetar mo'ljallar doirasida izchil va tadrijiy kechayotgan yalpi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni baholash, tahlil etish, hamda ilmiy-nazariy umumlashmalar qilish asnosida bu jarayonlarni maqsadli boshqarish O'zbekistondagi yangilanishlar rivoji o'ziga xos kechayotganligini ifoda etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy tamoyillar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, siyosiy pluralizmga shart-sharoitlar yaratish, liberalizm muhitini har tomonlama kengaytirishga da'vat etish orqali mamlakatimizda yalpi yangilanishlar jarayonlari boshlanishiga nazariy poydevor qo'yildi. Davlat tuzumi, jamiyat qurilishi va shaxs ma'naviyati dunyosini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o'zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini berdi. Davlat, jamiyat va shaxsni yangilash jarayonlari, bu jarayonlarni maqsadli boshqarish nechog'li aqliy shijoat, dono siyosat hamda matonatni talab etganligiga bugungi kunda amin bo'lib turibmiz. Zero, bu boshqaruv sermashaqqat va murakkab kechuvchi ijtimoiy-siyosiy voqealar, mafkuraviy ta'sir va tazyiqlar, maxsus yuzaga keltirilgan moddiy-moliyaviy tangliklar holatlari sharoitida amalga oshirildi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida shaxsning roli benihoya katta. Ayniqsa, o'tish davrida davlat arbobining, siyosiy yetakchining o'rni yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Chunki, bu paytda ma'lum bir siyosiy tartibot ham, siyosiy qatlam ham, jamiyatni yo'naltiradigan oqim ham shakllanmagan, qarashlar bir o'zanga tushmagan, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud bo'lgan murakkab bir vaziyat vujudga keladi. Bunday paytda xalq o'z kelajagini asosan davlat rahbariga qarab belgilaydi. O'zining iymon-e'tiqodini, taqdirini u bilan bog'laydi.

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda mustaqillikning o'tgan davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar bevosita davlat rahbarining shaxsiyati, uning ish uslubi, voqea-hodisalarga yondashish usuli bilan bog'lanib ketgan. Davlat arbobining siyosiy qiyofasi o'tish davrining noyob mahsuli sifatida tarix sahifalarida bosh islohotchi qiyofasida mustahkam o'rnashgan bo'ladi.

Demak, mustaqillik davri tarixini o'rganar ekanmiz, bu jarayon bevosita mamlakat Prezidenti I.A.Karimov faoliyati bilan uzviy bog'langanligini yaqqol ko'ramiz va uni sahifalarga aynan ko'chirishga intildik. Zotan, ana shu yillarda **I.A.Karimov ismi sharifi bir shaxs nasl-nasabi doirasidan chiqib, ulkan ijtimoiy-siyosiy voqelik, millat mohiyatini o'zida mujassam etgan qadriyat maqomiga ega bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda «O'zbekiston – Mustaqillik – Islom Karimov» atamalari yaxlit, bir-birini to'ldirib boradigan tushunchaga aylandi.**

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni har tomonlama chuqur o'rganish, ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va mushohada qilish kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy g'oyani shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi.

Kitobni yozish jarayonida biz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mamlakat Tashqi Ishlar, Tashqi iqtisodiy aloqalar va Iqtisodiyot vazirliklari hamda bir qator tashkilot va muassasalarning joriy arxivlaridan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»dan foydalandik.

Kitobni tayyorlashda bir qator yirik olim va mutaxassislar o'z fikr-mulohazalari bilan qatnashdilar. Jumladan, professorlar O.Husanov, H.Odilqoriyev («Huquqiy davlat izlanishlari»), akademik S.Kamolov (III-bob, hammualliflikda), professor B.Qosimov («Qurolli Kuchlar – Xavfsizlik tayanchi»), S.Jo'rayev («O'zbekiston – Rossiya hamkorligi» hamda «O'zbekistonning SHHT doirasidagi faoliyati»), shuningdek, U. Mingboyev, iqtisod fanlari doktorlari V.Golishev, G.Saidova materiallaridan ham foydalanildi. Biz mualliflar amaliy va ma'naviy ko'mak bergan barcha mutaxassislarga samimiy minnatdorchilik izhor etamiz.

MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

1-§. Mustaqillik – o'zbek xalqining azaliy orzu-intilishi

Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, Yer yuziga hokimi mutloqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham «jar»ga quladi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar tom ma'nodagi mustaqil davlat maqomini oldilar.

Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o'tib, ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda.

Prezident I.A.Karimov «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida **«O'zbek millati azaldan o'z fikr-zikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz»**, – deganda xalqimiz tarixiy qismatidan saboq olishni, otalar tajribasini o'rganishni nazarda tutadi. Zotan, xalqimizning uzoq tarixi ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurash davridir.

Turkiston o'zining keyingi bir yarim ming yillik tarixida bor-yo'g'i 376 yil hur mamlakat rutbasida bo'lgan (B.Ahmedov). Boshqa paytlar esa bosqinchilar zulmi ostida kun kechirgan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, Turkiston tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida turli shaklda bo'linishlarga, uning xalqi o'zgalar tomonidan tahqirlanishga, kamsitilishlarga duchor bo'lgan. Xalqimizning grek, makedoniyaliklar zulmiga, arablar istilosiga, mo'g'ul bosqinchiligiga va nihoyat Chorizm mustamlakachiligiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari tarix sahifalarida abadiy qolgan. Ayni chog'da yaqin tariximizda, sovet

hokimiyati yillarida O'zbekistonning markazga tobeligiga qarshi, aniqrog'i, shu davrda O'zbekistonning milliy Mustaqillikka erishishi uchun tarixiy vaziyatga qarab goh oshkora, goh yashirin tarzda olib borgan kurashlarini qator manbalar orqali tobora chuqurroq bilib boryapmiz. Bir so'z bilan aytganda xalqimiz azal-azaldan o'z fikri-zikri bilan Mustaqil, Ozod, Erkin yashash uchun tinimsiz intilgan.

Xo'sh, Mustaqillikning o'zi nima? U nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

Eng avvalo shuni aytish kerakki, Mustaqillik tenglik sari qo'yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Natijada biz so'nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik dunyoga keladi. «Tenglik» so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib, davlatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki mantiqsiz ta'zim-tavozega chek qo'yadi.

Istiqlol – o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini e'zozlash orqali inson qadr-u qimmatini asrashdir. Demak, mustaqil – har bir shaxs, har bir inson mohiyatidan kelib chiqadigan butun jamiyat va insoniyatni baholaydigan umuminsoniy qadriyat!

Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.

Istiqlol – erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

Mustaqil yashashga, Mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan yengadi, dunyoning shiddatli muammolar bo'hronida dovdirab qolmaydi. Har bir inson ruhiyati, fe'l-atvori jihatidan qaraganda ana shu oddiy hayotiy haqiqatni keng ma'noda davlat mustaqilligiga ham qiyoslash mumkin.

Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqozo etadigan tazyiqlar, kamsitishlar va zo'ravonliklarni inkor etadi. Ayni paytda mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatidan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlarga mos keladigan andozasi asosida yashash demakdir. Agar u hamkorlik, o'zaro hamjihatlik, mamlakatlararo, davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirmasa o'z qobig'ida qolib ketishi, milliy mahdudlik doirasidan chiqolmasligi mumkin. Shuning uchun ham istiqlolning g'oyatda zalvorli tajribasidan o'tgan tamoyillari hamma vaqt

dolzarb bo'lib qolaveradi. Chunki u doimiy ravishda rivojlanib, o'z-o'zini boyitib, takomillashib, fuqarolar ongi va tafakkurini o'stirib borayotgan tarixiy voqelikdir.

Mustaqillik – tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezoni. Ayni paytda u harakatlarning, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishini, doimiy kamolotni taqozo etadigan ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy axloqiy hodisa. Bu, ayniqsa, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan, mustamlakachilik azobini ko'rgan mustaqil mamlakatlar, xususan O'zbekiston hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Nima uchun?

Totalitar tuzum davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan tortib alohida-alohida shaxslarning kundalik turmushiga va istiqboliga daxldor bo'lgan har qanday katta-kichik masalalarni hal etishni o'z zimmasiga olgani uchun mehnatkash xalq moddiy va fikriy boqimandalik kayfiyatiga duchor bo'lgan edi. U faqat ishlash huquqiga ega edi, xolos. Mehnat deb atalgan hissiz mashinaning murvatiga aylanib qolgan edi. Ertadan-kechgacha mehnat qilasan, mehnatingga yarasha ochdan o'lmaslikka yetadigan haqqingni olasan, tamom-vassalom. Bu – sobiq ittifoqda qonun kuchiga ega bo'lgan davlat siyosati edi. Odamzod shunchaki ishlar, shunchaki umr kechirardi, xolos. Tiriklik degan buyuk ne'matning, hayot degan oliy tushunchaning mag'zini chaqishga o'zida rag'bat ham, ehtiyoj ham sezmas edi. Binobarin, aql bilan ish tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish, ijodkorlik tuyg'ulari butunlay so'ndirilgan edi. Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi pasayib borardi.

Umuman olganda, har qanday faollik tamoyillari harakatlar erkinligiga zamin yaratishi, unga suyanishi kerak. Aks holda boqimandalik illatlari surunkali kasallikka aylanadi. Demak, har qanday xatti-harakat, har qanday intilish o'z-o'zidan bunyodkorlik, yaratuvchilik ruhi bilan yo'g'rilgan bo'lishi darkor. Ana shunda erkinlik samarasiz, faoliyatsiz hodisaga aylanmaydi.

Sobiq ittifoqda hukm surgan qayta qurish siyosati uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshirilgan, puxta o'ylangan voqelik edi. Davlat to'ntarishiga urinish, zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish siyosatini chuqurlashtirishga intilish GKCHP bu jarayonning yakuni bo'ldi. Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to'g'ri kuzatib, to'g'ri baholay bilgan O'zbekiston ittifoqdoshlari orasida birinchilardan bo'lib o'z tarixiy va buyuk niyatini e'lon qildi. 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. Bu tarixiy hujjatda quyidagi xulosalar ilgari surilgan edi:

• «O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib;

• xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib;

• O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab;

• shaxs huquq va erkinliklarining, Mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib;

• millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib;

• Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat Mustaqilligini va ozod suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, hududi bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir».

O'zbekiston parlamentining bu bayonoti o'zining qonun kuchi bilangina emas, siyosiy mantig'i, ma'naviy qudrati, xalqaro huquq normalariga mos kelishi va, eng muhimi, millat taqdirini hal etadigan tarixiy qadriyat ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu hujjat SSSRning 73 yillik hayoti naqadar ayanchli va fojiali kechganligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, bu mamlakatda inson huquqlari har tomonlama poymol etilganligini, endi bu tuzumda ortiq yashab bo'lmasligini hayotning o'zi tasdiqlab turardi. Biroq, mamlakat aholisining aksariyat qismi va ayrim milliy respublikalar rahbariyati ongiga singib qolgan tobelik va mutelik tuyg'ulari keskin harakat qilishga, o'z xalqi manfaatini mardona turib himoyalashga yo'l qo'ymas edi. Ammo, o'sha paytda O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat — O'sh, Farg'ona, Qo'qon, Guliston, Parkent va Bo'kada yuz bergan mash'um voqealar — millatlararo nizolarning yuz bergani, xalq hayotining tahlikali tus olgani ortiqcha kutib turishni taqozo etmas edi. Jarayonlarga o'z vaqtida yetarli baho berib, zarur xulosaga kelish kerak edi. Shuning uchun ham Farg'ona voqealari birmuncha izga tushgach, mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, turmush sharoiti va farovonligini oshirish borasida amaliy choralar ko'rildi. Jumladan:

— aholini qo'shimcha tomorqalar bilan ta'minlash, yakka tartibda uy-joy qurishga keng imkon berish, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish, chorvachilik va parrandachilikni taraqqiy toptirish;

– pensiyalar, talabalar stipendiyalari va o‘qituvchilarning maoshlarini oshirish, og‘ir ijtimoiy ahvol natijasida kamqonlik kasaliga uchragan homilador ayollarga imtiyozli ovqatlanish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bepul oziq-ovqat ajratish va shunga o‘xshagan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning markaz bilan hisoblashmay hal etilishi mamlakat aholisiga qanchalik ma’qul kelsa, ittifoq rahbariyatida shunchalik norozilik tug‘dirar edi.

– O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishi qator xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi u o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab olganini ko‘rsatar edi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda bu masalalarning hammasi mustaqil ravishda hal etila boshlandi, mavjud muammolarni yechishda ittifoq idoralaridan sezilarli ravishda oldinda borildi. Tabiiyki «markaz»dagilarning birortasi ham O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlarni olqishlab qabul qilmadi. Moskvadagi karomatgo‘ylar aksincha, go‘yo bu O‘zbekiston Prezidentining o‘zboshimchaligi, bularning hammasi ittifoq ko‘rsatmalariga muvofiq kelmaydi yoki sovet davlati siyosiy qarashlariga zid, deb baho bera boshlashdi.

Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekiston rahbariyati SSSRda mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini boshqalardan ko‘ra tezroq angladi, hozirjavoblik bilan baholadi va xulosaga keldi: 1991-yilning 31-avgustida «O‘zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun»ni qabul qildi. Ana shu qonun doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin O‘zbekiston SSRni O‘zbekiston Respublikasi deb atash, 1-sentabrni Mustaqillik kuni deb e’lon qilish, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e’lon qilingan hujjatini tan olishga da’vat etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu bevosita O‘zbekiston Mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

Darhaqiqat, biz ijtimoiy-siyosiy jarayonlar odamlar hayotini keskin tarzda bir o‘zandan ikkinchi o‘zanga burib yuborgan, hayotimiz butunlay boshqacha tus olgan va turmushimiz o‘zgacha mazmun kasb etgan murakkab ruhiy-ma’naviy holatni boshdan kechirdik. Natijada yillar mobaynida qotib qolgan tushunchalarimiz o‘zgarmoqda va mudrab qolgan ongimiz uyg‘onmoqda.

«Mustaqillik», «hurriyat» degan so‘zlar butun jozibasi bilan birga beqiyos qudratini, buyuk o‘zgartiruvchilik mo‘jizasini ko‘rsata boshladi. U dunyoqarashlarimizni tubdan o‘zgartirib, fikrimiz, tafakkurimizni

boyitmoqda. Voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglashni, dunyoga kengroq va tiyrakroq nazar bilan qarashni, bu ko'hna olamda sho'ro tuzumidan boshqa adolatli tuzumlar ham borligini, boshqacha yashash ham mumkin ekanligini, kommunistik mafkuradan bo'lak hayot lazzatini, inson qadr-u qimmatini himoya qiladigan g'oyalar ham mavjudligini ko'rsatib berdi. Zotan, mustaqillikning buyuk mohiyati, beqiyos qadriyati ana shunda. Mustamlakachilikning kishilik tarixida anduh va kulfatlar yog'dirgan beqiyos fojiasi – uning insonni mustaqil fikrlashdek ulkan iqtidoridan mahrum etganida! Mustaqillik ana shu insoniy fojianing achchiq mazmunini ochib berdi.

Istiqlol bizga o'zligimizni anglatdi. O'zini anglash – olamni anglash, olamni tushunish – odamni tushunish, demakki, hayotning mazmunini idrok etishdir. Inson o'zining butun mohiyatini, insonligini qanchalik chuqur tushunsa, yashash mazmun-mohiyatini ham shunchalik chuqur anglaydi.

O'zligini anglagan kishi olamning butun rang-barangligi bilan birga hayot mazmunini, o'zining shunchaki tiriklik va mavjudlik belgisi emas, aksincha, tabiatning betakror mo'jizasi ekanligini, shu asnoda inson qadr-u qimmatini tobora teranroq anglay boshlaydi. Ma'rifatga muhtojligiga, xurofot va jaholat hayot kushandasi, manqurtlik – o'zligini va olamni unutish ekanligiga tobora ko'proq ishona boshladi. Demak, anglash tuyg'usi bevosita ichki bir quvvat bilan ma'naviy yetuklikka, komillikka da'vat etadi.

Mustaqillikning asosiy qadriyatlaridan biri uning ijtimoiy, ma'naviy mohiyati bevosita omma fikrini uyg'otishdan, xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi xususida qayg'urish hissini kuchaytirishdan iborat. Aks holda tub islohotlarning umri qisqa, taqdiri esa fojia bilan tugashi mumkin.

Biz tarixning ayni burilish davrida yashamoqdamiz. Ana shu burilish nuqtasining o'ziyoq tafakkurimizni, tor dunyoqarashlarimizni, har tomonlama chegaralab qo'yilgan tushunchalarimizni o'zgartirishni taqozo etmoqda. Uzoq yillar mobaynida bir qolipdagi hayotdan so'ng beixtiyor olis o'tmishni eslashga, uni o'rganishga, o'zligimizni anglashga kuchli ehtiyoj tug'ildi. Ichki bir tabiiy kuch million-million kishilar qalbida mudrab yotgan tuyg'ularni harakatga keltirib yubordi. Natijada odamlarning hayotga munosabati o'zgarib, o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan zamin istiqbolini o'ylashga zarurat sezmoqda.

Butun borlig'idan, ma'naviy bisotidan judo qilingan xalq erkinlik tufayli katta tashnalik bilan o'z tarixini bilishga intila boshladi. Bu borada ming yillar davomida vujudga kelgan, xalqimizning daholik qudratini, quvvai hofizasini, shavq-u shuurini qolaversa, ma'naviy-ruhiy holatini belgilab beradigan xalq og'zaki ijodiga sho'ro hukumati davrida ongli ravishda yuz bergan munosabatnigina eslatish joizdir.

Sir emas. Sovet davrida asrlar mobaynida tildan-tilga ko'chib, avlodlar davomiyligi va vorisiyligini saqlashda oltin halqa bo'lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, topishmoqlar va latifalar zo'ravonlik bilan yo'q qilindi. «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Hasanxon», «Nurali», «Sherali» singari dostonlar, milliy qo'shiq va laparlar g'oyaviy nuqtai nazardan zararli deb topildi. Umuman, barcha milliy-madaniy yodgorliklar singari o'zbek xalq og'zaki ijodining yuksak namunalariga ham kommunistik mafkura nuqtai nazaridan qaraldi va ana shu o'lchov bilan baho berildi, degan edi kuyinib professor M. Murodov.

Birgina misol «Alpomish» dostonida go'yoki xonlar va beklar sha'niga hamd-u sanolar o'qilarmish, bosqinchilik va zo'ravonlik tashviq qilinar emish, diniy ohanglar, ilohiy kuchga ishonish, ilohiyatning mavjudligi kabi g'oyalar targ'ib qilinar emish... Aslini olganda ham shunday edi. Biroq, ular Diniy va Dunyoviy tafakkurning noyob sintezi sifatida umuminsoniy qadriyatga aylangan edi.

Darhaqiqat, o'zbek xalq dostonlarida diniy ohanglar, Allohning mavjudligi va uning irodasi xususidagi talqinlar azaldan bo'lgan. Biroq, Kommunistik partiyaning dahriylik mafkurasi dostonning ana shu jihatlariga yopishib olib, uni xudosizlik tashviqoti quroliga aylantirmoqchi bo'ldi. Mazkur mafkuraning qabih g'oyasi tufayli inson qalbidagi ishonch, e'tiqod tuyg'usi mahv etildi. Tabiiyki, xudodan qaytgan odam har qanday razolat va qabohatdan qaytmaydi. Xudobexabarlik iymonsizlik va diyonatsizlikni keltirib chiqaradi. Natijada na Vatanga, na millatga, na o'tmish, na istiqbolga e'tiqod qoladi. E'tiqodsizlik – xurofotga, xurofot jaholatga, jaholat esa halokatga olib keladi. Jaholat, nodonlik hukmron bo'lgan joyda tanazzul chuqurlashadi. Manqurtlik shaklidagi yovvoyi va ibtidoiy hayot vujudga keladi. Sovet tuzumining «ulug' mafkurachi»lariga ayni shu narsa kerak edi. Shuning uchun ham ezgulik himoyachisi sifatida xalqimizning ma'naviy qahramoniga aylangan Alpomish obrazi atay buzib tanqid etildi. Aniqrog'i, unga tuhmat qilindi.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining odamlarni insof va diyonatga, imon va e'tiqodga, mehnatsevarlik va yurtparvarlikka, odob-axloq va madaniyatga chorlovchi asosiy g'oyalaridan foydalanish o'rniga ular o'tmishni ideallashtiradi, pirlar, aziz avliyolar, podshohlar, muqaddas qadamjolar, maqbaralar-u madrasalarni ulug'laydi. Shu tariqa odamlar ongini eskilik sarqitlari bilan zaharlab, ular e'tiborini sovet tuzumidan chetga tortadi, deb qoralandi. Xalq ijodiyotining ko'plab asarlari, masalan, mashhur xalq kuychisi O'tar shoir Safarov aytgan «Oyparcha» dostoni qayta ishlanib, xohlagancha qisqartirilib, «zamonaviy»lashtirilganidan, undagi asl g'oyalar tushirilib qoldirilganidan keyingina nashr etildi. O'tar shoir Safarov o'g'li Qorabaxshiga kitobni o'qitib o'ksigan, bu men aytgan doston emas, deb yig'lagan ekan.

30-yillardagi qatag'onda o'zbek xalqining eng iste'dodli namoyandalari yo'q qilindi. Ularga turli ayblar qo'yilib, har xil bahonalar bilan qatl etildi. Biroq, sho'ro tuzumini maqtab, «xalqlar otasi»ni kuylagan ayrim shoirlarga ham kun berilmadi. Sababi, ularning beqiyos iste'dod ekanligi. Bir kun kelib baribir o'z xalqiga yon bosishini oldindan payqagan qizil imperiyachilar ularni ham otib tashladi. Xususan, dehqonobodlik Farmon baxshi quloq qilinishini sezib qolgach, goh Surxondaryo, goh Tojikiston, goh Qashqadaryoda qishloqma-qishloq, ovulma-ovul darbadar bo'lib yashashga majbur bo'ldi. Ham o'zbek, ham tojik tilida dostonlar kuylagan Farmon baxshining bebaho merosi yozib olinmadi. Bedodlik shu darajaga yetdiki, unga o'z qishlog'iga kelib o'lishga ham ruxsat berishmadi, xoki o'zga joylarda qolib ketdi.

Bunday hodisalar qariyb 130 yillik mustamlakachilik yillarida turli sohalarda, turli shakllarda yuz bergan. Qatag'onlar, mahv etishlar, otib tashlashlar xalq ruhiyatini sindirdi. Odamlar bu mislsiz qirg'inlar natijasida bir umr tahlika va qo'rquv bilan yashadi. Ana shu hadiksirash millat hayotini zaharladi. Turmush lazzatini, yashash zavqini zaqqumga aylantirdi.

Jadidchilik harakatining faollari, ma'rifatparvarlar, xalqimizning chin farzandlari ona yurt istiqloli, millat istiqboli yo'lida tinimsiz kurashdilar. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning fig'on va dard to'la quyidagi satrlariga befarq qarab bo'lmaydi: «Xonumoni xarob, boyqushlarga hamdam, farzandlari haykaldek jonsiz, vayrona Turkiston! Yo'q, yo'q sahni jonlik janoza birla to'lgan buyuk mozor! Unga o'lik kimsalar – madfun zindalar qo'yilgan. Bu tirik o'liklar edi. Turkistonning bu kungi noqobil avlodlaridir. Uning ahvoliga Yer ham, Osmon ham yig'laydi. U ham faqir, ham haqir. Uning ahvoli chindan-da og'ir. Bir tarafdan behad yomon dardga giriftorlik, ikkinchi tomondan xorlik.

Marizing bir tarafdan, bir tarafdan xorsan – millat,
Badandan doimo qon oldurar bemorsan – millat!

Uning na tili, na qulog'i bor. U – surat, devor! Mudhish hol!»

Bu satrlar bezovta yurak qoni bilan, millat dardiga darmon bo'lish ilinjida to'kilgan achchiq ko'z yoshlari bilan yozilgan. Mustamlakachilik dardi, tobelik va mutelik, xorlik va zorlik suyak-suyagidan o'tib ketgan kishigina milliy ozodlik, hurriyat va erkinlik xususida ana shunday kuyib aytadi, kuyib so'zlaydi, yonib kuylaydi.

Ulug' bobokalonimiz Abdulla Avloniy **«Ma'rifat – shijoatdir»** degan edi. Darhaqiqat, ma'rifatli kishigina shijoatli bo'ladi. U o'zini himoya qilishga, o'z qadr-u qimmatini o'rniga qo'yishga qodir bo'ladi. Afsuski chorizm va undan keyingi qizil imperiya davri bizni ayni ana shu qalb shijoatidan, yurak da'vatidan, dil charog'idan mahrum etdi, ma'rifatsizlikka mahkum qildi. Ulkan olim, taniqli adib va yirik jamoat arbobi

Abdurauf Fitrat hurriyat damlarini orziqib kutdi. Uning umri faryod va alam bilan o'tdi:

«Ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?

Ey, Temurlarning, O'g'uzlar oilalarining shonli beshiklari! Qani uchiqdiqing yuksak o'rinlar? Qullik chuqurlarig'a nedan tushding?!

Dunyoni «urho»lari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydi?

Yer tuprog'ini ko'klarga uchiraturg'on tog' gavdali o'g'lonlaring qani?

Yer yuzining bir necha polvonlari bo'lgan botir turklaring qani? Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarin o'zgalarga nechun qo'ydilar? Nechun... nechun...nechun?

Gapir menga, ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?

Yer yuzining buyuk saltanatlarini sen qurmadingmi? Hindiston-ning, Eronning, Ovruponing ulug' xoqonlarini sen yubormadingmi? Ey, xoqonlar o'chog'i? Ey, qahramonlar to'g'oyi! Qani u chaqmoq chopishli botir xoqonlaring? Qani avval – o'q yurishli otli beklaring? Nechuk «urho»lari eshitilmaydur?

Dunyo xalqini bo'ysundirgan saltanatlaring nechun buzuldi?

Insonlik olamini qanotlari ostida olgan xoqonliging nechun kuchi o'ldi. Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi?

Yo'q... yo'q... Tangri haqqi uchun, yo'q? Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun Yer yuzida sakson million bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon Chingizlarning, Temurlarning qonidir.

Bularning kuchlari sening kuchingdir!

Ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdur.»

Va nihoyat mustaqillik ana shunday iztiroblar, qon yutishlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umidlariga qanot, dardlariga malham bo'lib keldi. Mustaqillikning ma'naviy-ijtimoiy mazmuni, uning beqiyos mohiyati ana shunda. Mazkur xulosalardan kelib chiqib Prezident Islom Karimov **«Mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutug'idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam Mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi – biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir»,** deganida butun xalqimizning orzu-umidini, maqsad va intilishlarini ifoda etgan edi.

Mustaqillikning mohiyati, uning tarixiy ahamiyati milliy uyg'onish va milliy tiklanish jarayoni bilan bog'liq. Xalqimiz millat sifatidagi beqiyos qadriyatlarini, asrlar mobaynida shakllangan ma'naviy-ruhiy boyliklarni

qanchalik chuqur anglasa, milliy uyg'onish hissi shunchalik kuchayadi. Qalbidan millat, vatan, ajdodlar oldidagi burch tuyg'ulari qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, o'zligini anglashga, o'z milliy qadriyatlarini tiklashga shunchalik ko'proq ehtiyoj sezadi. Bunday odamda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini, demakki, millatini va vatanini himoya qilish qudrati beqiyos bo'ladi. Shuning uchun ham biz mustaqillik uchun kurashning butun mazmun-mohiyatini shaxs ma'naviy barkamolligi, uning har tomonlama yetukligi bilan bog'liq holda tushunmog'imiz kerak. Ana shunda mustaqillikning taraqqiyot yo'llari, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-axloqiy asoslari mustahkam bo'ladi.

Milliy tiklanish, uyg'onish hodisasi juda keng, murakkab tarixiy jarayondir. U xalqimiz hayotining hamma sohalarini qamrab oladi. Iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, ma'naviyat, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilik barcha-barchasini inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo'lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni qamrab oladigan murakkab jarayon.

Biz ana shunday mashaqqatli va sharafli jarayonni boshdan kechirmoqdamiz. Butun O'zbekiston – ulkan xonadonimiz ana shunday yangilanish va poklanish yo'lidan bormoqda. Bizning ruhiyatimiz, tuyg'ularimiz, eng nozik hissiyotlarimiz tiniqlashmoqda, ravshanlashmoqda, turli chang-u g'uborlardan tozalanmoqda.

Istiqlol mohiyati, uning millat va mamlakat taqdirida tutgan o'rni, ulug' ajdodlarimiz, boy va noyob tariximiz hamda istiqboldagi vazifalarimiz xususida gapirar ekan, Prezident Islom Karimov buni muxtasar qilib shunday tushuntiradi: **«Biz uchun Mustaqillik – eng avvalo o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo'tabar shu vatanda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz vatanimizda adolat, insof, din-u diyonat, mehr-u oqibatni qaror toptirishdir.**

Biz uchun Mustaqillik – Allohning o'zi el-yurtimizga in'om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimiz qudrati, salohiyati, aql-u zakovatiga tayanib, O'zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir.

Biz uchun istiqlol – millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro'-e'tibori, shon-shavkatini ko'taradigan sog'lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o'g'il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko'rishdir. Har bir fuqaro uchun – millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar – erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berishdir».

922492

Biz bugun dunyoni yangi ko'z bilan ko'rish, uni yangicha tafakkur bilan idrok qilish jarayonlarida ulg'ayib, shakllanib borayapmiz. Bugun barcha yo'qotilgan qadriyatlarni, boy berilgan madaniy va ma'naviy boyliklarni qaytadan to'plash, qadimiy Turkiston an'analarini tiklash, o'z milliy qiyofasi bilan jahon xalqlari safidan munosib o'rin olishdek g'oyat murakkab va mashaqqatli vazifalar qarshisida turibmiz. Zimmamizda yillar davomida yo'l qo'yilgan xatoliklar va kelajak oldidagi qarzdorlikning ulkan, zalvorli yuki bor. Biroq, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni qayta tiklash, o'zligimizni, insoniy his-tuyg'ularimizni, sha'nimiz va oriyatimizni himoya qilishga, uni hamisha baland tutishga imkoniyat tug'ilganining o'zi barcha mashaqqatlardan ko'ra huzurbaxshroqdir. Ana shu imkoniyatning o'ziyoq kishiga beqiyos kuch-g'ayrat, qudrat va jur'at baxsh etadi.

2-§. O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan ulkan hududda sotsialistik tuzum barbod etildi. Ayni chog'da sobiq SSSR parchalanib, uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi.

Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib ko'pgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan tarixiy jarayonga aylandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. **«Xalqlarning ozodlik, Mustaqillik, baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azm-u qarori hayotdagi chuqur o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir»,** – degan edi Islom Abdug'aniyevich Karimov.

XX asr 90-yillarining boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan: zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar sovereniteti ta'minlanadimi? – degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan,

o'sha davrdagi SSSR rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilishning tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroziy holatdan chiqishning yo'lini topa olmay qoldi. Xullas, 90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh jumhuriyatlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

Qisqa qilib aytganda, shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi.

Buni birgina sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham ko'rsa bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoqda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga o'tkazish masalasi 1987-yili xalq deputatlari II syezdi qarori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan Hukumat Dasturida tilga olingan, u 1990-yil may oyida Oliy Sovet III sessiyasida muhokama qilingan edi.

Xalq deputatlari Hukumat Dasturini muhokama qilar ekanlar, bozor iqtisodiga o'tish obyektiv zaruriyat, bundan boshqa yo'l yo'q, degan xulosaga keldilar. SSSR Oliy Soveti III sessiyasining «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tish haqida»gi qarorida bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy islohotlarning asosiy mazmunini tashkil qiladi, deb qayd etildi. Shu bois bu boradagi Hukumat konsepsiyasini deputatlar fikr-mulohazalari asosida qayta ishlash va 1990-yil 1-sentabriga tayyorlash belgilandi.

SSSR Rahbariyatida shu yo'nalishdagi amaliy ishlar qizg'in tus oldi. 1990-yil 25-iyulda SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministrning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yuzasidan qo'shimcha choralar haqidagi axboroti tinglandi. 1990-yil 27-iyuli va 30-avgustida SSSR Prezidentining olimlar, mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan iqtisodiy islohotlar mavzuidagi uchrashuvi bo'ldi.

6-avgustda esa mamlakat Prezidenti M.Gorbachyovning «Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida» Farmoni e'lon qilindi. Bu vazifani bajarish uchun SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan S.Shatalin, I.Petrakov, L.Abalkin, G.Yavlinskiy, S.Aleksenko, V.Vavilov, A.Grigoryev, M.Zadorniy, V.Martinov, V. Mashchits,

A.Mixaylov, B.Fedorov, T.Yarigina va Y.Yasinlardan iborat komissiya tuzildi. Komissiyaga 1990-yil sentabridan kechikmasdan Hukumat Dasturini ishlab chiqish topshirildi.

1990-yil sentabri boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida» ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsa-da, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yo'qola borgan edi. Ayni chog'da Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S.Shatalinning «500 kun» Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan edi:

– Fuqarolarni mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narx;

– korxonaning mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqi;

– ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suvereniteti;

– aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

SSSR Oliy Sovetining 21-sentabrda bo'lib o'tgan IV sessiyasida bu Dastur ham qabul qilinmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qildi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi», – deb xulosa berdi.

Demak, 80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Shunday bo'lsa-da, 1990-1991-yillarda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshladi.

Mutaxassislar ana shunday tisarilish hodisasini mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga uchta yo'nalishdagi kuchlar manfaatlari to'qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan:

Birinchi kuchlar – N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

Ikkinchi kuchlar – S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar – bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlik hokimiyatini yo'qotmaslik, «шоковая терапия» («falaj qilib davolash») usulidan foydalanish g'oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to'g'risidagi takliflar ham o'rtaga tashlana boshladi.

Shunday qilib, sobiq SSSR ijtimoiy taraqqiyotida uchta yo'nalish– totalitarizmga qaytish, jahon tajribasiga xos transformatsiya va sotsialistik yo'nalishdagi demokratik kuchlar to'qnashib qolgan edi. Tabiiyki, bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tanazzulni vujudga keltirgan edi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda O'zbekiston rahbariyati bu yo'nalishlarning nomaqbul ekanligini aniq-ravshan ko'rdi va respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini Mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi. Avvalo, «O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini» tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika Davlat Reja qo'mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga ko'ra, «O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi vau 1990-yil 17-oktabrida umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi.

1990-yil oktabri oxirida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi IV sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi.

Oliy Kengash sessiyasi «vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yo'lini... respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat» deb hisobladi.

Shuning uchun ham sessiya respublika Hukumati Dasturini ma'qulladi va O'zbekiston Ministrlar Sovetiga «O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo'yicha asoslangan takliflar

tayyorlash, shuningdek, 1-iyungacha O'zbekiston Oliy Sovetiga iqtisodiy tizim masalalari va yer, yer osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini O'zbekiston SSR mulkiga o'tkazish bo'yicha O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida Qonun loyihasi kiritishni topshirdi.

Hukumat Dasturiga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy yo'nalishlari qilib belgilandi:

Mustaqil davlat bo'lmish O'zbekiston:

– boshqa respublikalar bilan muvofiqlashtirilgan mustaqil ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni xalq xo'jaligini o'zi boshqarish va o'zini o'zi pul bilan ta'minlash sohasida suveren huquqlarini amalga oshiradi, xo'jalik turmushi va madaniy turmushdagi milliy o'ziga xoslik saqlanib qolishini ta'minlaydi;

– boshqa respublikalar bilan o'z iqtisodiy aloqalarini ekvivalentlik va o'zaro manfaatdorlik asosida mustaqil hal etadi, bu aloqalarni mamlakatning yaxlit xalq xo'jalik kompleksi doirasida o'zaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga soladi;

– mahalliy Sovetlarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishni keng rivojlantirish, uning mulkiy va moliyaviy negizini mustahkamlash huquqlariga kafolat beradi;

– o'z ixtiyorida bo'lgan hamma vositalar bilan mehnat jamoalarining va fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlashga ko'maklashadi, shu huquqlarning har tomonlama himoya qilinishini ta'minlaydi.

Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekiston SSR iqtisodiy Mustaqilligini kengaytirishning bosh maqsadi iqtisodiyotning jo'shqin, yuksak samarali, ekologik jihatdan xatarsiz rivojlanishini, aholining hozirgi zamon turmush standartlari darajasidagi farovonligini, ijtimoiy adolat va himoyalanishni ta'minlaydigan yangi xo'jalik-huquqiy sharoitlarni shakllantirishdan iborat qilib belgilandi.

Ayni vaqtda Konsepsiyada maqsadga erishish yo'lidagi vazifalarni hal etish, jumladan, respublika bilan Ittifoqning o'zaro majburiyatlari va o'zaro mas'uliyati asosida O'zbekiston SSR bilan SSR Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslariga aniqlik kiritish;

– davlat mulkining haddan tashqari markazlashuvini va byurokratik tashkil etilishini bartaraf qilish;

– mulkchilikning xilma-xil shakllarini rivojlantirish, bu shakllarning teng huquqliligi va musobaqalashuvini ta'minlash;

– asosan, iqtisodiy usullar negizida respublikaning xalq xo'jaligi davlat boshqaruviga o'tish, rejalashtirish, moliya-budjet, bank tizimini sifat jihatidan o'zgartirish, mehnat munosabatlarini va tabiatdan foydalanishni tartibga solish;

– bozor mexanizmlarini vujudga keltirish, tovarlar, xizmatlar, moliya-kredit resurslariga talab va taklifni tartibga soladigan narx va boshqa vositalarning ahamiyatini oshirish, O'zbekiston SSRning ichki, O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston mintaqa bozorini rivojlantirish;

– barcha fuqarolarning qobiliyatlaridan to'la-to'kis foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining kam daromadli tabaqalarini qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni tarbiyalash, sog'liqni saqlash, maorif, fan, madaniyat va san'atni rivojlantirishni ta'minlaydigan ijtimoiy kafolatlarning ta'sirchan tizimini vujudga keltirish;

– respublika tashqi iqtisodiy faoliyati mexanizmini sifat jihatdan o'zgartirish, shu jumladan, eksport, import operatsiyalari sohasidagi huquqlar va imkoniyatlarni kengaytirish;

– xorijiy sarmoyalar O'zbekiston SSR iqtisodiyotiga investitsiya kiritishi, chet el sayyohligini rivojlantirish va hokazo;

– respublika va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv idoralarining vakolatlari va mas'uliyatini ajratib qo'yish, xalq deputatlari mahalliy sovetlarining to'la hokimiyati tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarini ta'minlash;

– respublikadagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda qatnashuvchi demokratik jamoat muassasalari iste'molchilar jamiyatlari, ishlab chiqaruvchilar uyushmalari, ekologiya va fan-texnika jamiyatlari, xayriya jamg'armalari va shu kabilarni vujudga keltirishga ko'maklashish nazarda tutildi.

Umuman, O'zbekiston rahbariyati SSSR Hukumatiga O'zbekiston-ning shoshilinch bozor iqtisodiyotiga o'tish to'g'risidagi ko'rsatmasiga e'tiroz bildirib, bu respublika sharoiti uchun birdaniga to'g'ri kelmasligini va bozor iqtisodiyotiga avvalo aholini, birinchi navbatda, uning kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy kafolatlab, so'ng o'tish borasida O'zbekiston o'zi mustaqil harakat qilishini ma'lum qildi.

1990-yil 29-avgustida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi «Ittifoqning yangi shartnomasi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish programmasining asosiy qoidalari va yo'l-yo'riqlariga nisbatan respublikaning tutgan o'rni to'g'risida»gi masalani ko'rib chiqib, bu borada shoshilmaslik joizligini yana bir bor ta'kidladi. Oliy Sovet Prezidiumi Ittifoqning yangi shartnomasini tuzish hamda boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi bo'yicha tayyorlangan takliflar birinchi turkumini chuqur o'rganib chiqish va muhokama qilish uchun O'zbekiston Oliy Soveti, Kompartiya Markaziy Qo'mitasi, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarga yubordi.

Ko'rinib turibdiki, yangi Ittifoq Shartnomasi loyihasi avvalgi yillardagidek darhol O'zbekiston tomonidan quvvatlanmadi, bu yerda

birinchi navbatda O'zbekistonning milliy manfaatlari himoya qilinishi nazarda tutildi. Yangi Ittifoq Shartnomasini: «U O'zbekistonning siyosiy suverenitetiga zarar yetkazmaydimi?» — degan nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda imzolash ko'zda tutildi.

Shunga muvofiq respublika hukumati iqtisodiy Mustaqillikni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadigan muayyan dastur ham ishlab chiqdi. Jumladan, uning **birinchi bosqichi** 1990 — 1992 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda esa 1990-yil alohida o'rin tutadi. Chunki ayni ana shu yilda tang ahvolni bartaraf etishning negizlari bunyod etilishi kerak edi.

Shu uch yil mobaynida yangi xo'jalik mexanizmining barcha asosiy unsurlari uzil-kesil harakatga kelishi, davlat budjeti kamomadiga, aholining pul daromadlari hamda uni tovar bilan ta'minlash o'rtasidagi nomutanosiblikka barham berilishi, pulning qadrsizlanishi kuchayib borishini to'xtatish, mazkur bosqichda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mulk munosabatlarini tubdan o'zgartirish, zarar ko'rib ishlaydigan korxonalar zimmasiga o'z ishini o'nglab olishi vazifasini yuklash ko'zda tutildi.

Ikkinchi bosqich 1993 — 1995-yillarni o'z ichiga olishi mo'ljallandi. Bu davrga kelib iqtisodiyotni sog'lomlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi, ichki iste'mol bozoridagi, pul muomalasi va budjetdagi kamomadlarga asosan barham berilishi, yangi iqtisodiy qonunlar joriy etilishi, ya'ni bozor munosabatlarini me'yoriy rivojlantirish uchun amalda zarur iqtisodiy sharoitlar yaratilishi, bu davrda davlat ixtiyorida bo'lmagan sektorning hissasi oshishi ko'zda tutildi.

Xullas, Konsepsiyadan ma'lum bo'lyaptiki, SSSR markaziy idoralaridan farqli o'laroq, 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. Ayni chog'da O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun ham konkret choralar ko'rildi. Bu borada xalqning xohish irodasi hisobga olindi.

Masalan, O'zbekiston rahbariyati va xalqining O'zbekistonning mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganligini 1991-yil 17-martidagi umumxalq referendumi yakunlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. 1991-yil 20-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining yig'ilishi bo'lib, unda SSSR Oliy Kengashi tomonidan belgilangan referendumda ovoz berishga mo'ljallangan asosiy byulleten bilan birga «O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi. Byulletendagi ushbu matn o'zgartirilishi mumkin emas, deb belgilandi.

Oliy Kengash Rayosati viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklariga bo'lajak referendumda O'zbekistonning mustaqil bo'lishiga munosabat bildiruvchi ushbu byulleten matni yuzasidan mehnatkashlar ommasi o'rtasida tushuntirish olib borishni topshirdi. Bu ishlarga huquqshunoslar, mutaxassislar, ziyolilar vakillarini keng jalb qilish tavsiya qilindi.

Referendum yakuni shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishiga doir qo'shimcha byulleten bo'yicha 9 million 215 ming 571 nafar kishi yoki ovoz beruvchilarning – 93,9 foizi ovoz berdi.

Shunday qilib, bu referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi edi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab yuborildi.

1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

«Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O'zbekiston SSRning Yangi Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko'rsin.

2. Bu boradagi takliflar matbuotda e'lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin».

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan Qonunlar, O'zbekiston Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo'liga bevosita qaratila boshladi.

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, jumhuriyatda qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga nechog'li moslashtirilganiga qarab emas, balki respublika manfaati qay darajada ifoda etilganligiga jiddiy e'tibor berildi.

Masalan, 1989-yil 20-oktabrida o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish»

to'g'risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada shu masala yuzasidan respublika Oliy Soveti Raisi doklad qildi. Ma'ruzada O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo'g'inlari Oliy Sovetga bo'ysunishini nazarda tutishi alohida ta'kidlandi. Respublika Oliy Sovetiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O'zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarini, shu jumladan, Oliy Sovet Raisini saylash, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a'zolari va boshqa rahbar lavozimdagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo'lganda ularni muddatidan oldin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta Oliy Sovet oldida hisobot berishi majburiy qilib qo'yildi. Shuningdek, Oliy Sovet budjetni nazorat qilish, ministrlik va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so'rovini muhokama qilish masalalarini ham ko'rib chiqadigan bo'ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlar respublika davlat hokimiyatining oliy idorasiga mustaqil davlat oliy idorasiga xos zarur vakolatlarni berdi. Ayni chog'da bu vakolatlar uning ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan hamma joyda zudlik bilan uni tiklashi, jamiyat turmushida yuz berishi mumkin bo'lgan noxush hodisalarning oldini olish imkoniyatini ham berdi.

Qonun yana shunisi bilan ahamiyatli ediki, O'zbekiston SSR Oliy Sovetini respublikaning Sovet Federatsiyasida erkin, har tomonlama rivojlanishi uchun kafolat beradigan vakolatlar bilan ham ta'minladi. Ilgari bu vakolatlarning ko'pchiligi faqat ittifoq idoralarining huquqi hisoblanar edi. Masalan, 102-moddada ko'zda tutilgan «mulkchilik munosabatlarini, xalq xo'jaligini va sotsial-madaniy qurilishni, budjet-moliya sistemasini, mehnatga haq to'lashni, narx belgilashni, soliq, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni, shuningdek, bir qancha boshqa ijtimoiy munosabatlarni qonun yo'li bilan respublikada tartibga solish» shular jumlasidandir.

Shuning uchun ham Konstitutsiyaga kiritilgan bu qo'shimchalar deputatlar tomonidan yakdillik bilan kutib olindi. Jumladan, sessiyada so'z olgan Farg'ona viloyatidagi «Rishton» sovxozining brigada boshlig'i, deputat Saodatxon Yoqubova «Ushbu sessiyada muhokama qilinayotgan masala g'oyat muhim bo'lib, davlatni boshqarishda oshkoralik, demokratiya, inson manfaatlarini to'la himoya qilish, davlatning fuqaro oldidagi, fuqaroning davlat oldidagi huquqiy javobgarliklarini ta'minlashga olib keladi», — deb barcha sessiya qatnashchilari fikrini ifodaladi. Shu boisdan sessiyada O'zbekiston Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qabul qilingan Qonunning 101-moddasida «O'zbekiston SSR Davlat hokimiyatining oliy organi doimiy ishlaydigan

O'zbekiston SSR Oliy Soveti bo'lib, u o'z faoliyatiga qonun chiqarish, farmoyish berish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti «O'zbekiston SSR ixtiyoriga berib qo'yilgan har qanday masalani qarab chiqish uchun qabul qilish va hal etishga haqlidir», ayni chog'da u milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlar qabul qiladi, — deb alohida ta'kidlab qo'yildi.

Aytish kerakki, respublika rahbariyatining O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiyasi I.A.Karimov tomonidan bir necha marta ko'ndalang qilib qo'yildi. Jumladan, u KPSS Markaziy Komitetining 1989-yil 20-sentabrida Moskvada bo'lib o'tgan Plenumida dadil tarzda: **«Biz ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz»,** — deb ta'kidladi. Oradan biroz o'tgandan so'ng — O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1990-yil 23-martidagi Plenumida u O'zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishishning asosiy yo'llarini ko'rsatib: **«Siyosiy sistemani yangilash masalalarini O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkin emas. Bizda bunday mustaqillik uchun shart-sharoit bor»,** — degan fikrni bildiradi.

Darhaqiqat, 1980-yillarning oxirlaridan boshlab respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadam-baqadam chora-tadbirlar ko'rildi. Masalan, O'zbekiston SSR Oliy Soveti 1989-yil 25-noyabrida bo'lgan «O'zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990-yilgi Davlat plani to'g'risida»gi masalani muhokama qilar ekan, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi. «1990-yilga mo'ljallangan plan, — deb ta'kidlanadi sessiyada, — respublikaning o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsiplariga o'tish arafasida uning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish talablarini hisobga olgan holda tuzilgan edi... Eng asosiysi respublikaning sharoiti, o'ziga xos xususiyati, an'anaviy marosimlari va manbalaridan kelib chiqqan holda territorial xo'jalik hisobining o'z konsepsiyasini ishlab chiqishdir».

Sessiya 1990-yil plani budjet loyihalarida hukumatning o'zlashtirilgan kapital mablag'lari sotsial ehtiyojlarga sarf qilinishini qonunan to'g'ri va asosli deb hisobladi hamda «respublikaning suvereniteti ayni shunda yaqqol ko'rinadi», — deb ta'kidladi.

Sessiyada respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan quyidagicha qaror qabul qilindi:

«1990-yilda sovet va xo'jalik organlari, ilmiy muassasalar ishining muhim yo'nalishi respublikani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsipiga o'tishga tayyorlash yuzasidan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, deb hisoblansin.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti bu ish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning real resurslarini hamda amal qilish imkoniyatlari – strukturani tubdan takomillashtirish va uning ilmiy-texnikaviy hamda tashkiliy darajasini oshirish imkoniyatlarini har tomonlama qarab chiqsin... amalga oshirilayotgan siyosiy sistema islohotini, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishni hisobga olgan holda respublikaning iqtisodiy suverenitetini kengaytirishning asosiy yo'llarini belgilasin».

1990-yil 23-martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'rni va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarini muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. Shu bilan birga Plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganligini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari Sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi», – deb ta'kidladi.

O'zbekistonda **Prezidentlik boshqaruvi masalasining ko'tarilishi** shunchaki SSR Ittifoqi yangi tartibiga taqlid qilish emas, balki **prinsipial amaliy va tarixiy hodisa** bo'ldi. Respublikada boshqaruvning ayni ana shunday shakli joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi shundan iboratki, Prezident muassasasining joriy etilishi – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayni shu paytda keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarida ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat qilish ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Ana shu obyektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martida XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti

etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlardan dastlabkisi edi.

Chunki uzoq yillar mobaynida yig'ilib qolgan milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanish muammolari bu vaqtga kelib nihoyatda keskin tus olgan edi. Hayot respublikaning kelajagi, xalq taqdiri va turmushining, O'zbekiston fuqarolari kelajak avlodlari hayotining to'kisligi, tinchlik, osoyishtalik muammolarini izchil hal etishni ko'rsata boshladi. O'zbekiston oldidagi mana shu dolzarb muammolarni hal etishda Prezident lavozimi keng imkoniyat ochar edi.

Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov sessiyada **«Bu katta ishonch uchun o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, jumhuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar taqdiri uchun o'z zimmamga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutsion huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman»,** – dedi.

O'z fikrini davom ettirib, I.A.Karimov Prezident vazifasiga to'xtalib: **«O'zbekiston Prezidenti sifatidagi o'zimning asosiy vazifalarimni nimadan iborat deb bilaman? O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, shuningdek, «Prezident boshqaruvi»ning muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga o'tishini ta'minlashdir. Ayni chog'da mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – respublika davlat hokimiyati organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR Prezidentidan doimiy e'tibor talab qiladigan vazifadir»**. Shu tariqa Prezident eng qiyin, ziddiyatli, tahlikali bir paytda qonli to'qnashuvlarni boshdan kechirgan xalq oldida butun mas'uliyatni ochiq-oydin o'z zimmasiga oldi.

Shu bilan birga Prezident o'z faoliyatining markazida xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va jismoniy takomilga erishtirish turganligini ham alohida uqtirdi.

Gap O'zbekiston mustaqilligi haqida borganda, shubhasiz, O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtash lozim. Zero, bu muhim hujjat O'zbekistonning Mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko'rsatdilar. O'zbekis-

tondagi tarixiy shart-sharoit va vaziyatni hisobga olgan 200 dan ortiq deputat XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi (1990-yil 18-iyunda) boshlanishidayoq Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat'iy talab etdilar.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Rayosati a'zolari, komissiya raislari va muovinlari «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xususida fikrlashib, deputatlar fikrini olish va so'ng uni sessiyaga olib chiqish lozim, deb topdilar. 19-iyun kuni 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matnini batafsil ko'rib chiqdi. Natijada bu masala 20- iyun kuni sessiyada kun tartibiga kiritildi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

Natijada sessiyada qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» kirish qismiga quyidagicha yozib qo'yildi:

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Shuningdek, birinchi moddada: «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir», – deb belgilab qo'yildi. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Surxondaryo viloyati, Kuybishev saylov okrugidan saylangan deputat I.Fayzullayev o'z his-tuyg'ularini ifodalab: «Xalqimiz qarsak chalib, joyimizdan turib, butun vujudimiz bilan berilib, Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildik. Butun O'zbekiston xalqi ko'rib turdi. 70 yil davomida O'zbekiston ishlab topgan mahsulotlarini, bor xom-ashyosini o'zi yemay boshqa respublikalarga berib keldi. Endi mustaqillikni qo'lga kiritay deganda... orqaga qaytmaslik lozim».

Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Bu borada ba'zi misollarni keltirish o'rinli. Jumladan, 1991-yil 22-yulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi «O'zbekiston SSR

hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini «O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilib, jumladan, unda «O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tadi», – deb qayd qilindi.

Shuningdek, ushbu qarorda «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi».

Yana bir misol: respublika Oliy Soveti Prezidiumi «Chakana narxlar amalga oshirilayotgan bir davrda mehnatni rag'batlantirishni kuchaytirish va mehnatkashlarning ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga hamda «O'zbekiston SSRdagi korxonalar to'g'risida»gi qonunga muvofiq «1991-yilgi Ittifoq budjeti» to'g'risidagi SSSR Qonuni 8-moddasining «korxonalar iste'mol fondini ko'paytirishni cheklashga oid qismi amal qilishini O'zbekiston hududida to'xtatishi» to'g'risida ham qaror qabul qildi. Shunday qilib, 90-yillarning dastlabki davrlarida O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va Hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar qo'ydilar. Bu keng jamoatchilik tomonidan ham qoniqish bilan kutib olina boshladi. Masalan, Toshkent siyosatshunoslik va boshqaruv instituti 1991-yili fevral oyida Toshkent, Samarqand, Farg'ona shaharlarida 10 ta sanoat korxonasida 400 ishchi bilan sotsiologik so'rov o'tkazdi. So'ralganlarning 67,8 foizi mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yaxshilanmaydi, deb, 72 foizdan ortig'i esa hayotdan qoniqmayotganini aytdi. Ishchilarda sobiq markazning sotsial-siyosiy tartibotlariga ishonmaslik vujudga keldi. Masalan: «Umumittifoq va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlariga sizning munosabatingiz qanday?», – deb berilgan savolga 4,5 foiz kishi «O'z umidimni umumittifoq davlat idoralari bilan bog'layman», 32,5 foiz ishchi esa «Respublika davlat organlari bilan bog'layman», – deb javob berdi. Ushbu javoblardan ham ko'rinib turibdiki, fuqarolarda umumittifoq idoralariga emas, balki respublika davlat idoralariga, tabiiyki, respublikaning mustaqil rivojlanishiga ishonchi tobora orta boshladi. I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq oltinchi sessiyasida (1991-yil) jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni ta'riflab shunday fikr bildirgan edi: **«Mamlakatda bugun mavjud bo'lgan keskin qarama-qarshilik vaziyati**

bir kunda paydo bo'lgani yo'q. Novo-Ogorevoda Ittifoq shartnomasi ustida ish olib borilayotgan bir paytda SSSR Oliy Kengashining rahbarlari pozitsiyasi ma'lum bo'ldi.

Ular har xil siyosiy niqoblar ostida davlatni, markaziy boshqaruvni eski holicha saqlab qolishga, Ittifoq shartnomasini tayyorlash va imzolashda esa Ittifoq Oliy Kengashiga eng oliy, ya'ni hal qiluvchi huquqlar berilishiga harakat qildilar. Jumhuriyatlar o'zlari xohlagan vakolatlarini Ittifoqqa emas, balki Ittifoq xohlagan vakolatlarini jumhuriyatlarga berar emish. Biz esa Ittifoqni faqat uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning to'liq mustaqilligi va teng huquqliligi bilan yangilash mumkin, degan fikrda qat'iy turdik. Asosiy kelishmovchilik ana shundan iborat edi».

Sobiq Markazni kuchaytirish, hokimiyatni yana markazda to'plash tarafdorlari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va sessiya minbarlaridan keng foydalandilar. Masalan, akademik V.Kudryavsev «Pravda» gazetasida «Suverenitet haqida Deklaratsiyalar va Ittifoq Shartnomasi» deb nomlangan maqola bilan chiqib, Ittifoqni respublikalar suverenitetini toraytirish hisobiga yangi Ittifoq Shartnomasi tuzish g'oyasini ilgari suradi. Jumladan, uning fikricha: «Markaz ixtiyorida mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni belgilash, moliya, bank, bojxona tizimini nazorat qilish huquqlari qolishi kerak. Umumittifoq qonunlari respublikalar qonunlaridan ustun turmog'i lozim». Bunday qarashlar I.A.Karimov boshchiligida O'zbekistonda vujudga kelayotgan siyosiy tamoyillarga mos kelmas edi. O'zbekistonning yetakchi olimlari V.Kudryavsevning milliy respublikalar suverenitetini cheklash g'oyasiga qarama-qarshi mamlakatda milliy masalani hal qilishning uch oqilona yo'li, ya'ni demokratiyalashtirish, desentralizatsiya, deideologizatsiyani amalga oshirishni taklif qildilar.

Biroq, markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o'tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto, g'ayri konstitutsion yo'llar bilan davlat to'ntarishi qilish bilan bo'lsa-da, barcha huquqni Markazda to'plash, avvalgi buyruqbozlik usulini qaror toptirishga harakat qilaverdilar.

1991-yil 19 – 21 avgustida Moskvada davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rildi. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirlarini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

Shuni ham aytish kerakki, to'ntarishni uyushtirgan kishilar mamlakatda yuz bergan boshboshdoqlik va parokandalik cho'qqisiga chiqqan bir paytdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Ammo qayta qurish yillarida ko'zi ochilgan xalqni endi eski tuzum doirasiga kiritishga, unga eskicha buyruqbozlik qilishga urinish behuda edi. Butun mamlakat uchun

fojiali bo'lgan o'sha kunlarda O'zbekiston rahbariyati korxona va xo'jaliklarning rahbarlari xalq saylagan deputatlar, barcha sofdil kishilar, xalqni sabr-toqat va osoyishtalikka da'vat qildilar. Ular barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, jumhuriyat hududida favqulodda holat joriy etilishiga yo'l qo'ymaslik, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vogarona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar.

Faollar bilan uchrashuvlarda, O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya va konstitutsion tuzum qoidalariga rioya qilinajagi aytildi. Xalqqa markazdan har qanday ko'rsatmalar, turli va'dalar berilishi, dag'dag'alar qilinishiga qaramay, respublika o'z siyosiy yo'lidan qaytmasligi aytildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Hindiston safaridan qaytgani hamonoq – 19-avgust kuni kechqurun respublika rahbarlari va Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtayi nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: **«Markazdan, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas»**, – deb hisobladi. 20-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

Shu kuni O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Ushbu murojaatda O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirildi. Jumladan, unda **«O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Bu yo'l bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir»**, – deb qat'iy ta'kidlandi. Shuningdek, turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ixtiloflarni hal etish uchun kuch ishlatish, eng avvalo, harbiy kuch ishlatish ochiq-oydin qoralandi.

O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda Holat Davlat Komitetining g'ayri konstitutsiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy deb e'lon qilindi.

Ana shunday sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlab

qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish masalasini keskin qo'ydi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, har bir respublika so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasi tinglandi. U o'z nutqida 1991-yil o'rtalarida markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19 – 21-avgust kunlari Moskvada Favqulodda Holat Davlat Komiteti a'zolarining fuqarolar boshiga azob-uqubatlar solishga intilishganini, butun-butun xalqlarning ozodligini, respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi bo'lganliklarini ro'yirost ochib tashladi. Alg'ov-dalg'ovli kunlarda ham O'zbekistonning o'z yo'li va maqsadi borligini, bu xalq manfaatiga mos yo'l ekanligini, qanday qilib bo'lmasin, undan qaytmaslik lozimligini aytdi. Shuningdek, ma'ruzada mustaqil davlatlar maqomiga to'xtalib: **«Bo'lajak Mustaqil davlatlar... erkin, mustaqil va teng huquqli bo'lib qolishlari, o'zlarining milliy davlat tuzish, tashqi bozorga chiqish, o'zi ma'qul topgan barcha mamlakatlar bilan xalqaro munosabat o'rnatish, diplomatik va konsullik aloqalari masalalarini mustaqil hal etishlari kerak. Yana ta'kidlab aytaman, bu hech kimning buyrug'isiz va aralashuvisiz mustaqil amalga oshirilishi kerak. Mana shu sharoitga, sabablarga asoslanib, xalqimiz xohish-irodasini bajo keltirib, Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymoqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi Qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyorimizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-irodasi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdir»,**– degan fikr bildirildi.

Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi qonunni qabul qildilar. So'ngra Respublika Davlat Mustaqilligi

to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik e'lon qilingan kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil to'xtash lozim. Mazkur qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

1-moddada O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat, deb e'lon qilinadi.

2-moddada O'zbekiston Respublikasining xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi haqida gapiriladi.

3-moddada O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi.

5-moddada O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida ko'rilganligi haqida gapirildi.

8 – 12 – 14-moddalar O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslarini izohlab berdi.

13-14-moddalarda O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalaridagi mustaqilligi sharhlandi.

15-moddada O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda respublika fuqaroligi joriy etilishi, u fuqarolar millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular respublika Konstitutsiyasi va qonunlari himoyasida bo'lishlari qonunlashtirilgan.

16-moddada davlat ramzi bo'lgan gerb, bayroq va madhiya hamda davlat tili haqida gapirilsa, 17-moddada esa O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi (bu moddada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'zaro munosabatlari ikki tomonlama tenglik asosida tarkib topishi kerakligi qonunlashtirilgan). Shuningdek,

bu moddada Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida chiqib ketishi mumkinligi ham e'tirof etilgan.

Bunday Qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, ushbu Qonunga O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabr qarori bilan Konstitutsiyaviy maqom berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida» 1991-yil, 31-avgustida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi amaldagi Konstitutsiya moddalari «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin.

3. Konstitutsiya komissiyasi tayyorlanayotgan «Respublika Konstitutsiyasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga amal qilinsin.

Shu tariqa qonun tarzida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan O'zbekiston mustaqilligi barchaning dilini quvonchlarga to'ldirdi. Toshkentdagi Podyomnik ishlab chiqarish birlashmasining ishchisi, 21-saylov okrugidan O'zbekiston xalq deputati Botir Qosimov sessiya yakunida so'zga chiqib, shunday dedi:

«Yashirmayman, mustaqillik haqida gap-so'z ko'p edi-ku, lekin ishning amaliy qismiga kelganda siljish yo'q edi. Nihoyat respublikamiz Oliy davlat hokimiyati juda muhim qonun, davlat mustaqilligi to'g'risidagi hujjatni qabul qildi. Endi mana shu har birimizga quvonch va iftixor tuyg'ularini olib kelgan qarorni amalda quvvatlashimiz zarur».

Shu tariqa xalqimizning uzoq yillar kurashib, intilib qo'lga kiritgan mustaqillik erki qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

3-§. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma'qullanishi

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyingi tarixiy vaziyat shunday ediki, endi davlat, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi, deb e'lon qilish yetarli emas edi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. Ayni paytda mustaqillik g'oyasini ham faqat bir tomonlama – havoyi va yuzaki talqin qilib bo'lmas edi. Binobarin, erishilgan mustaqillikni sobitqadamlik bilan mustahkamlash, buning uchun izchil kurashish lozim edi.

O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlashda xalq tomonidan uning ma'qullanishini hisobga olib, mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabrida Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda: «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?» – degan masalada referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. Referendumni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalarini tuzdi. Ular joylarda referendum o'tkazish haqidagi Qonunning so'zsiz bajarilishini ta'minlash borasida katta tashkiliy ishlarni olib bordilar. Umumxalq referendumiga 10 millionga yaqin kishi, yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat, deb e'lon qilinishini yoqlab ovoz berdi. Shuni aytish kerakki, referendum butun respublika hududida qonun asosida tashkiliy jihatdan uyushqoqlik, fuqarolarning yuksak siyosiy faolligi bilan o'tdi. Buni referendumda AQSH, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

O'zbekistonning mustaqil respublika, deb e'lon qilinishi faqat mamlakat xalqi emas, balki jahon jamoatchiligi tomonidan ham qoniqish bilan kutib olindi. Buni mustaqillik kunlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga kelgan tabriklardan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining o'sha paytdagi Prezidenti Jorj Bush I. Karimov nomiga yuborgan telegrammada shunday deydi:

«Qadrli janob Prezident. SSSR tarqatilgandan so'ng, Sizning mamlakatingizda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar munosabati bilan shuni ma'lum qilish menga qoniqish beradiki, Amerika Qo'shma Shtatlari Hukumati O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan oldi».

Shuningdek, Shvetsiya Bosh vaziri Karl Bilodt o'z telegrammasida:

«Shvetsiya hukumati nomidan Shvetsiya hukumati O'zbekiston Respublikasini suveren va mustaqil davlat sifatida tan olish haqida qaror qilganligini ma'lum qilishdan baxtiyorman.

Shu munosabat bilan Shvetsiya hukumati nomidan O'zbekiston xalqiga ezgu ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman», – degan iliq istaklar bildiradi.

O'zbekiston mustaqil davlat, deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy

Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o'zining xalqaro talablar va me'yorlar doirasida qiyofasini ko'rsatmog'i, buning uchun esa o'zining butun imkoniyatlarini, o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlariga ega bo'lmog'i lozim edi. Odatda ramzlar shunchaki ranglar yig'indisidan iborat bo'lgan shakllar emas, ular ayni ana shu davlatning va shu mamlakat fuqarolarining o'zligidan kelib chiqmog'i, qolaversa, davlat siyosatining mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etmog'i kerak.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq ana shu muhim siyosiy hodisaga alohida e'tibor bilan qaradi. Chunki juda qisqa fursatda o'z mustaqilligini qonun bilan mustahkamlab, uning jahon hamjamiyatida tan olinishini, shunday mamlakat borligi e'tirof etilishining muhim yo'llaridan biri sifatida qaradi. Bir qator yosh mustaqil mamlakatlarda turli siyosiy qarashlar jazavaga kelib, fikrlar chuvalashib, «kalavaning uchi topilmay qolgan» bir paytda O'zbekiston o'zining har bir kuniga va olis istiqboliga qat'iy ishonch bilan qaradi. Shuning uchun ham u, eng avvalo, davlat ramzlarini qabul qilib, dunyoga ko'z-ko'z etib, uni tan oldirish yo'lidan bordi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo'lib o'tgan VIII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» qonunni qabul qildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar an'analariga mos keladigan ularning tug'lari ifoda etgan g'oyalarni davom ettiradigan, ulug' ajdodlarimizning aqida va maslaklariga va qarashlariga mos keladigan holda millat tabiati va xalqimiz ruhiyatidan kelib chiqib, uning milliy va ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi.

Bayroqdagi **havorang** zangori osmon va musaffo suv ramzi. **Moviy** rang – lojuvard – sharqda azaldan qadrlangan. Amur Temur ham o'z bayrog'iga shu rangni tanlagan.

Oq rang – tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat yo'lining oq va beg'ubor bo'lishi uchun yaxshi niyat ifodasi.

Qizil chiziqlar – bu har bir tirik jonning qon tomiri, unda jo'sh urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzi.

Yashil rang – O'zbekistonning saxovatli va tabarruk tuprog'i, go'zal tabiati timsoli.

Yarim oy – o'zbek xalqining ko'p asrlik an'analariga mos keladi. Yarim oy va yulduzlar musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir.

12 ta yulduz tasviri – qadimdan mukammallik, barkamollik timsoli.

Xullas mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi» to'g'risida qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega.

Gerb markazidagi **humo qushi** – baxt-saodat va erksevarlik ramzi.

Gerbning yuqori qismidagi **sakkiz qirrali yulduz** respublikamizning sobit va barqarorligi timsoli sifatida tasvirlangan.

Quyosh – davlatimizning yo'li hamisha nurafshon bo'lishi bildirilgan yaxshi niyat, ayni paytda u O'zbekistonning noyob iqlimga ega mamlakat, serquyosh o'lka ekanligini bildiradi.

Boshoq – rizq-ro'zimiz timsoli, to'kin-sochinlik ifodasi.

Oppoq paxta – O'zbekiston dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz ramzi.

Bug'doy va paxta chanoqlarini Davlat bayrog'i lenta bo'lib o'raganligi O'zbekistonda yashayotgan xalqlar do'stligi va yakdilligi ifodasi hisoblanadi.

Gerb rangli tasvirda bo'lib, humo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog'i va **«O'zbekiston»** degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog'lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda, O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan quyidagi madhiya varianti tasdiqlandi:

Serquyosh hur o'lkam, elga baxt najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Xalq sevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgan kundanoq dastlab mustaqillikka erishgan Boltiqbo'yi respublikalari bilan teng huquqli davlat sifatida munosabat o'rnatish uchun harakat boshladi. 1991-yilning 30-sentabrida respublika Oliy Kengashi Latviya, Litva va Estoniya respublikalari mustaqilligini e'tirof etish to'g'risida qaror va shu respublikalar Oliy Kengashlariga Murojaatnoma qabul qildi. Jumladan, Latviya Respublikasining Oliy Kengashini, butun xalqini Latviya to'la davlat mustaqilligiga erishganligi, u xalqaro ko'lamda keng tanilganligi va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilinganligi bilan tabrikladi. Tabriknomada, jumladan, shunday so'zlar bitilgan edi:

«Latviya bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar an'anaviy do'stlik ruhida bo'lib, xayrixohlik va ikkala respublikaning suverenitetini tan olish prinsiplariga asoslanadi. Mustaqil O'zbekiston bundan buyon teng huquqlilik va o'zaro hurmat asosida har tomonlama iqtisodiy va madaniy aloqalarni sifat jihatidan yangi darajada davom ettirish niyatida.

Latviya xalqiga mustaqil demokratik davlat qurilishida katta muvaffaqiyatlar, baxt va ravnaq tilaymiz».

Xuddi shu mazmundagi murojaatnomalar Litva va Estoniya Respublikalari Oliy Kengashlari nomiga ham yuborildi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan davrdan boshlab O'zbekiston tarixida mutlaqo yangi davr boshlandi.

O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan so'ng bu haqda respublika ichkarisida ham, uning tashqarisida ham ayrim kishilar turlicha qarashlarni ilgari surdilar. Jumladan: «O'zbekiston osongina, kurashsiz mustaqil bo'lib oldi», – degan fikrlar paydo bo'ldi. To'g'ri, 1991-yilning o'rtalariga kelib sobiq SSSRning yemirilishi, Ittifoq hukumati esa boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarib yuborganligi tufayli mustaqillikka erishish uchun qulay tarixiy shart-sharoit paydo bo'ldi. Biroq, tarixiy tajriba shuni isbotladiki, o'ta murakkab rahbarlik siyosatining muhim jihatlaridan biri hal qiluvchi qadamni to'g'ri belgilash va qat'iy harakat boshlashdan iborat.

O'zbekiston rahbariyati ana shunday donolik bilan harakat qildi, eng qulay paytdan dadillik bilan foydalanib, respublikaning davlat mustaqilligini e'lon qildi.

Mustaqillik bu in'om emas, balki butun xalqning, millionlarning uzoq yillik intilishi tufayli qo'lga kiritilgan tarixiy kurashning natijasi –

buyuk g'alaba. Zotan, O'zbekistonning davlat mustaqilligiga ega bo'lganligi buyuk tarixiy ahamiyatga ega voqea hisoblanadi. Chunonchi:

Birinchidan, shuni uqtirish lozimki, o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi, egasi, xo'jayini bo'lib qoldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqilligi respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish uchun yo'l ochib berdi, o'z milliy davlatchiligini barpo qilishga imkoniyat yaratdi.

Uchinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

To'rtinchidan, iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi. Ya'ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit barpo etdi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi.

Beshinchidan, mustaqillik xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqning azaliy urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlari unga qaytarib berildi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi.

Shunday qilib, qo'lga kiritilgan mustaqillik o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq yengil nafas olish imkoniyatiga ega bo'ldi. U endi kelajakka ishonch bilan qaray boshladi. O'z yurtining to'la xo'jayini ekanligini, o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatini qo'lga kiritganligini his qila boshladi.

Bu buyuk olamshumul va abadiyat bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqelikdir!

4-§. Islom Karimov – mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshlandi. Boshqaruvning Prezidentlik shakli mazkur tizim o'zagini tashkil etdi.

1991-yil oxirida O'zbekiston hayotida tom ma'noda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi. 29-dekabrda xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so'ng tom ma'nodagi mustaqillik ramzi sifatida birinchi bor umumxalq xohish irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi. O'zbekistonda demokratik jarayonlarning yangi bosqichi shu sanadan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu tarixiy voqea juda katta mehnat, siyosiy faollik, milliy birlik, g'oyalar va maqsadlar mushtarakligi mahsuli bo'ldi. Bu sharafli ishni Markaziy saylov komissiyasi, 13 saylov okrugi va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyasi amalga oshirdi. Asosiy vazifa O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risidagi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash haqidagi qonunlar talablarini og'ishmay amalga oshirish – bir tomondan millionlab fuqarolarga o'z konstitutsion huquqidan foydalanishda, xohish-irodalarini erkin bildirishda, ikkinchi tomondan prezidentlikka nomzodlarga ularning saylovoldi kurashida teng sharoit yaratib berishdan iborat edi.

Referendum va saylovga tayyorgarlik jarayonida Markaziy saylov komissiyasi eng avvalo saylovga doir barcha hujjatlarni markazlashtirilgan holda tayyorlash va joylarga o'z vaqtida yetkazish choralarini ko'rdi. Bu vazifa muvaffaqiyatli hal etildi. Xususan referendum va Prezident sayloviga doir byulletenlar barcha saylovchilarga yetadigan miqdorda – o'n bir million nusxada chop etildi.

Prezidentlikka nomzodlar har birining saylovoldi dasturlari aks ettirilgan 301 ming nusxadan iborat plakat, nomzodlar har birining 40 ming nusxadan saylovchilarga murojaatnomalari chop etildi.

Markaziy saylov komissiyasi saylovoldi kompaniyasida nomzodlar uchun teng sharoit yaratish, ularga o'z saylovoldi dasturlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishga bir xil imkon yaratish masalalariga Prezident saylovi haqidagi qonun talablaridan kelib chiqqan holda alohida e'tibor berdi.

Umumxalq Prezident saylovlari mamlakat tarixida ilk bor o'tayotganini, saylovchilarimizda hali yetarli tajriba va ko'nikma yo'qligini inobatga olib, bu tadbirni uyushqoqlik bilan ko'tarinki ruhda o'tkazish maqsadida faollar keng ko'lamda jalb qilindi. Saylov komissiyalari ishida 75 mingdan ziyod kishi qatnashdi. Saylov komissiyalariga yordam tariqasida Oliy Kengash va mahalliy kengashlar deputatlari samarali faoliyat ko'rsatishdi.

O'zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va «Erk» demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikaning barcha hududlarida saylov uyushqoqlik bilan, qonunlarga qat'iy amal qilingani holda saylovchilarning yuksak faolligida o'tdi. Saylov puxta tashkil etilgani, saylovlarning o'tkazilishi va uning natijalarini hisoblab chiqish qonun asosida adolatli tashkil etilgani MDH mamlakatlari, shuningdek, AQSH, Turkiya va Malayziyadan hamda bir qator xalqaro tashkilotlardan kelgan betaraf kuzatuvchilar tomonidan e'tirof etildi.

Saylovlar natijalari o'zbek xalqining mustaqil taraqqiyot va rivojlanishning yutuqlarini I.A.Karimov shaxsi, uning dono siyosati, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan bog'lashining yaqqol dalili edi.

* * *

ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV

Davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti. 1938-yilda Samarqandda tug'ilgan. O'rta Osiyo politexnika instituti va Toshkent xalq xo'jaligi institutini tugatgan. 1960-yildan «Tashselmash» zavodida avval master yordamchisi, so'ng master, texnolog, 1961-yildan V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor, 1966-yildan O'zbekiston Davlat plan komitetida fan va yangi texnikani joriy etish bo'limining bosh mutaxassisligidan respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

1983-yildan O'zbekiston moliya vaziri, 1986-yildan O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari – respublika Davlat plan komitetining raisi.

1986-yil dekabridan O'zbekiston Kompartiyasi Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi. 1989-yil iyunidan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi. 1990-yil 24-martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.

I.A.Karimov 1991-yil 29-dekabrda birinchi bor muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq, u ayni vaqtda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

I.A.Karimov 1991-yil 31-avgustda Toshkentda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. I.A.Karimov O'zbekistonda davlat tuzumini mustahkamlashda, respublikaning ichki va tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatmoqda.

1995-yil 26-martda umumxalq ovozi (referendum) bilan I.A.Karimovning Prezidentlik vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi.

2000-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 91,90 foizi Islom Karimov nomzodini qo'llab-quvvatladi va Markaziy saylov komissiyasining qaroriga muvofiq Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

2007-yil 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi.

Saylov muqobillik asosida demokratik tamoyillar va O'zbekistonda saylov o'tkazish tajribalariga tayanib, muqobillik tarzida o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasining xulosalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlariga ko'ra Islom Karimov o'n uch milliondan ortiq saylovchilarning yoki saylovda qatnashganlar umumiy sonining 92,1 foizi ovozini oldi.

Ushbu saylov O'zbekistonda umumxalq saylovini o'tkazishning o'ziga xos tajribasi mavjudligini, fuqarolar jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashning, saylash, saylanish tartibotining demokratik tamoyillarga asoslangan tajribalar to'planganligining yaqqol namunasi bo'ldi.

To'rtta siyosiy partiyadan ko'rsatilgan to'rt nomzod orasidan amaldagi Prezidentning mutlaq ko'pchilik ovoz bilan qayta tanlanishi va saylanishi O'zbekistonda davlat va jamiyat, davlat siyosati va fuqarolar maqsad-intilishlarining mushtarakligidan dalolat beradi.

I.A.Karimovning eng muhim asarlari ingliz, fransuz, ispan, nemis, hind, xitoy, arab kabi o'nlab turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bir necha bor nashr qilingan. Respublikamizda esa I.A.Karimov asarlarining 15 jildlik to'plami quyidagi nomlarda nashr qilingan:

1-jild. I. Karimov, «O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», Toshkent, «O'zbekiston», 1996-yil;

2-jild. I. Karimov, «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», Toshkent, «O'zbekiston», 1996-yil;

3-jild. I. Karimov, «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», Toshkent, «O'zbekiston», 1996-yil;

4-jild. I. Karimov, «Bunyodkorlik yo'lidan», Toshkent, «O'zbekiston», 1996-yil;

5-jild. I. Karimov, «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi», Toshkent, «O'zbekiston», 1997-yil;

6-jild. I. Karimov, «Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida», Toshkent, «O'zbekiston», 1998-yil;

7-jild. I. Karimov, «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz», Toshkent, «O'zbekiston», 1999-yil;

8-jild. I. Karimov «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz». Toshkent, «O'zbekiston», 2000-yil;

9-jild. I. Karimov «Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz». Toshkent, «O'zbekiston», 2001-yil;

10-jild. I.Karimov «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak». Toshkent, «O'zbekiston», 2002-yil;

11-jild. I.Karimov «Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li». Toshkent, «O'zbekiston», 2003-yil;

12-jild. I.Karimov «Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq». Toshkent, «O'zbekiston», 2004-yil;

13-jild. I.Karimov «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi». Toshkent, «O'zbekiston», 2005-yil;

14-jild. I.Karimov «Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat». Toshkent, «O'zbekiston», 2006-yil;

15-jild. I.Karimov «Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir». Toshkent, «O'zbekiston», 2007-yil;

I.A.Karimov O'zbekiston Qahramoni unvoni (1994-y.), «Mustaqillik» (1996-y.)., «Amur Temur» (1998-y.) ordenlari sohibi. I.A.Karimov xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdagi salmoqli hissasi uchun bir qator xorijiy davlatlarning va nufuzli xalqaro tashkilotlarning orden va medallari bilan mukofotlangan. U O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi (1994-y.), nufuzli xalqaro akademiyalarning faxriy a'zosi.

* * *

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 5-bo'limining XIX bobida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomi belgilab berildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzodlar soni

cheklanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida saylovchilarning kamida 50 foizi qatnashgan taqdirda saylov haqiqiy deb hisoblanadi. Umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ovoz berishda qatnashgan saylovchilar ovozlarining yarmidan ko'pini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonuni bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat qurilishi sohasidagi tajribasidan unumli foydalanish maqsadida vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Oliy Majlis yuqori Palatasi– Senati a'zosi lavozimini egallashi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimni ijro etishga kirishish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qasamyod qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya tomonidan davlat, xo'jalik, ijtimoiy-madaniy qurilish, xalqaro munosabatlar sohasida unga berilgan vakolatlarini amalga oshirish maqsadida Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi Oliy Majlis tuzgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o'n kun muddat ichida Oliy Majlisning favqulodda yig'ilishida deputatlar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o'tkazilishi shart.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning natijasini, davlatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, jahon taraqqiyotiga qo'shayotgan munosib hissasini mamlakat fuqarolari ham xorijdagi siyosatdonlar va davlat arboblari ham tan olmoqdalar.

Tarixan g'oyat qisqa muddatda qo'lga kiritilgan yutuqlar mazmun-mohiyati va butun ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng. Zotan, qisqa fursatda jamiyatni tubdan o'zgartirish, huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish turmushimizga demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatni takomillashtirish, aholi dunyoqarashi va tushunchalarini yangi g'oyalar bilan boyitish uzoq muddatli jarayon. Yoki boshqacha qilib aytganda O'zbekistonning yangi asrdagi dasturiy faoliyatidir. O'tish davridek hozirgi murakkab, ziddiyatli,

keng miqyosli islohotlar avj olgan bir paytda esa Davlat boshqaruvidagi izchillikning saqlab turilishi, boshlangan og'ir va xayrli ishlarni bir me'yorda olib borish va oxiriga yetkazish jamiyat hayotida ham, fuqarolar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Oliy Majlisning mamlakatda Prezident vakolatini 2000-yilgacha cho'zish yuzasidan umumxalq referendumini o'tkazish to'g'risida qabul qilingan qarori shu qaror asosida o'tkazilgan referendum katta siyosiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Qolaversa, mazkur qaror va uning sharhlarida boshqa yana bir qator o'ta muhim, har bir fuqaro hayotiga daxldor masalalar aniq ko'rsatib berilgan.

Shu yerda kitobxon e'tiborini bir narsaga tortmoqchimiz. Rivojlangan mamlakatlarda (deylik, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Koreya va boshqalar) Prezident almashinuvi yoki saylovlari va boshqa siyosiy hodisalar oddiy fuqarolar yoki umuman jamiyat hayotida keskin burilishlarga sabab bo'lmaydi. Chunki, ular uchun aniq qonunlar asosida o'zlarini o'zlari boshqarish hayot tarziga aylanib qolgan. Demak, amaldagi qonunlar bo'yicha faoliyatlarini davom ettiraveradilar. Prezident esa jamiyat taraqqiyotining umumiy yo'nalishlarini, davlat siyosatining asosiy tamoyillarini yangi tarixiy sharoitlarda, yangicha ehtiyojlar nuqtai nazaridan boyitib boradi, xolos.

O'tish davrida esa vaziyat boshqacha — ancha murakkab. Har qanday davlat siyosatida, endigina shakllanayotgan boshqaruv tizimi va qonunchilikda izchillikning saqlab turilishi tabiiy va samarali hodisa sifatida baholanadi. Qolaversa, ta'bir joiz bo'lsa, xalq iborasi bilan aytganda, «kechuvda otlar almashtirilmaydi». Chunonchi, qo'shni mamlakatlarda yuz berayotgan noxush voqealar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, shundoq ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat chigal bo'lgan Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikistonda davlat rahbarlari to'rt marta, Ukraina, Belorus, Moldova, Boltiq bo'yi mamlakatlarida 3-4 martadan almashdi. Har qanday mamlakatda siyosiy barqarorlik mavjud bo'lgan sharoitdagina ishlab chiqarishdagi muvozanat, iqtisodiy va ijtimoiy, umuman har tomonlama barqarorlik to'la saqlanishi mumkin.

Majlisda qayd etilganidek, 2000-yilning 9-yanvari mustaqil O'zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo'lgan, davlatimizning XXI asrdagi taqdiriga va taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida muhrlanib qoladi. O'zbekiston fuqarolarining aksariyati hozirgi davlat boshlig'ining rahbarligi ostida va tashabbusiga ko'ra amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlagan holda Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi. Bo'lib o'tgan saylovning ahamiyati uning muqobillik va demokratik tamoyillar asosida o'tganligidadir. Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular o'z xohish-irodasiga binoan, o'zi tanlagan nomzod uchun ovoz

berdi. Shak-shubhasiz, bu hol jamiyatimizda fikrlar xilma-xilligi va qarashlarning turlicha bo'lishi uchun katta turtki beradi, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining yanada erkinlashtirilishiga zamin hozirlaydi.

2000-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlis kun tartibi bitta masalaga – 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalariga bag'ishlandi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelib tushgan bayonnomalar asosida shuni aniqladiki, 9-yanvarda bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan 12 million 746 ming 903 saylovchidan, 12 million 123 ming 199 saylovchi ishtirok etdi. Bu esa ro'yxatga olingan saylovchilarning umumiy miqdorining 95,10 foizini tashkil etadi. Fidokorlar milliy demokratik partiyasining nomzodi ko'rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

2007-yil 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi.

Saylov muqobillik asosida mamlakatimiz Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligida belgilangan demokratik tamoyillarga to'la muvofiq tarzda o'tdi. Unda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-dekmokratik partiyasi, shuningdek, saylovchilar tashabbuskor guruhidan nomzodlar ishtirok etdi.

14 ta saylov okrugi, 8266 ta saylov uchastkasi aloqa vositalari, kompyuter va orgtexnika, saylov qonunchiligi me'yorlariga oid adabiyotlar bilan ta'minlandi. Mamlakatimizning barcha hududlarida okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zolari uchun o'quv seminarlari tashkil etildi. Saylovchilar, avvalo, birinchi marta ovoz berayotgan saylovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida saylov komissiyalari tomonidan ko'plab uchrashuvlar, seminarlar, jumladan, televideniye va bosma ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda o'tkazildi.

Shuningdek, saylov jarayonining qariyb 23 ming 300 nafar kuzatuvchi ishtirokida kuzatib borilishi ham saylovning ochiq va oshkora o'tishini ta'minladi. Beshta xalqaro tashkilot – MDH, EXHT, SHHT, YevrAzES, IKT, 30 dan ortiq xorijiy mamlakatlardan kelgan

kuzatuvchilar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruh vakillari saylovni kuzatib bordi. Bundan tashqari, saylov jarayonini yoritishda 300 nafarga yaqin mamlakatimiz va xorijiy jurnalistlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlariga ko'ra, Islom Karimov 13 million 8 ming 357 yoki saylovda qatnashgan saylovchilar umumiy sonining 92,1 foizi ovozini oldi. Asliddin Rustamov 468 ming 64 ovoz – ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 3,17 foizi, Akmal Saidov 420 ming 815 ovoz – 2,85 foizi, Dilorom Toshmuhamedova 434 ming 111 ovoz – 2,94 foizi miqdorida ovozga ega bo'ldi. Bunda byulletenlarning 2,94 foizi haqiqiy emas, deb topildi.

O'zbekiston mustaqilligining tarixan qisqa davri mobaynida erishilgan yutuqlar bevosita Islom Abdug'aniyevich Karimov nomi bilan bog'liq. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, I.A.Karimov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub burilishlar va tarixiy o'zgarishlarning rahnamosi, O'zbekiston mustaqilligining tashabbuskori va milliy davlatchiligimizning asoschisidir.

Ikkinchidan, I.A.Karimov demokratik talablar va xalqaro mezonlarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy muallifi va uni hayotga tatbiq etishning kafolati sifatida markaziy hokimiyat va uning joylardagi bo'g'inlarini isloh qilish, davlat, jamiyat va inson manfaatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan butunlay yangi siyosat ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq etmoqda.

Uchinchidan, I.A.Karimov xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini umumlashtirish asosida yangi iqtisodiy islohotlar modelini ishlab chiqdi. Bu rivojlanish yo'li iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, Qonun ustuvorligi, o'tish davrida davlatning bosh islohotchilik roli, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya kabi mashhur besh tamoyilni o'z ichiga oldi va u dunyoda «O'zbek modeli» sifatida tan olindi.

To'rtinchidan, O'zbekiston davlatining hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini himoya qilishga qodir Qurolli Kuchlar, Chegara va Ichki Qo'shinlarni Oliy Bosh qo'mondoni va davlat rahbari sifatida tubdan islohot etdi va unga boshchilik qilmoqda.

Beshinchidan, o'tgan yillar mobaynida I.A.Karimov KPSS Markaziy Komiteti boshchiligidagi kuchlar O'zbekistonda adolatsizlik va tazyiqlarni avj oldirgan davrda o'zbek nomini nohaq kamsitishlardan, tahqirlardan himoya qilish va xalqimizning milliy g'ururini tiklashda fidoyilik namunasini ko'rsatdi, o'zbek nomini dunyoga tanitdi.

Oltinchidan, xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish,

muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni hayotga qaytarishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi va odamlar ongida yangi milliy g'oya, milliy mafkura asoslarini shakllantirish va mustahkamlash ishiga rahnamolik qilmoqda.

Yettinchidan, mohiyat – e'tiboriga ko'ra mutlaqo yangi ta'lim tizimini, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini yaratish va uni amalga oshirishda bevosita yetakchilik qilmoqda.

Sakkizinchidan, mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvining nufuzini oshirish, vakolatlarini kengaytirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tashabbuskori bo'ldi. Shu bilan fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam zamin yaratilmoqda.

To'qqizinchidan, yurtimizning barcha shahar-qishloqlarida qad rostlayotgan noyob inshootlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, ulug' ajdodlarimiz nomi bilan bog'liq bo'lgan me'moriy majmualar bevosita I.A.Karimov nomi bilan bog'liq.

Muxtasar qilib aytganda, I. A. Karimov O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi. Yangi asrda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Yurtimizning yorug' istiqboli yo'lida ko'pmillatli xalqimizni birlashtirib, uni ulug' maqsadlar sari boshlab bormoqda.

5-§. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistonday qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham **«Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi»**.

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto sobiq markazdagi ayrim «bashorat»lar O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni Mustaqil boshqarishga, Mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram xalqsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, sizlar esa bajarasizlar, xolos» deb shovinistlarcha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadimi?» – qabilidagi savollar paydo bo'lgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi.

Tabiiyki, ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andozasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etardi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analariga ham tayanish lozim edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, **«jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi»**.

Albatta, mamlakat hayot-mamot bosqichida turgan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarni bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qiladi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalar tizimini yaratishni talab etardi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda shakllandi. Mamlakat mustaqilligining tashabbuskori va rahnamosi sifatida Prezident xuddi ana shunday paytda o'zining qat'iy, ilmiy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan yashovchan xulosalarini o'rtaga tashladi.

Hali sobiq ittifoq mavjud bo'lgan davrda I.A.Karimov respublika rahbarligiga kelgan vaqtdan boshlab respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy ravishda yangilanishni, tub o'zgarishlarni boshlab yuborgan edi.

1990-yil mart oyidayoq sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining tashkil etilishi, g'oyaviy qarashlari, siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos

bo'lmayotgan O'zbekiston Kompartiyasini Xalq demokratik partiyasiga aylantirilishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'liga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarning tiklana boshlagani O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li shakllanayotganini ko'rsatar edi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, I.Karimovning respublika rahbari sifatida xalq oldidagi mas'uliyati yana ham oshdi. U endi markazga bog'liq bo'lmagan holda, butun muammolarni o'zi hal qilishga, har qanday ziddiyatlarga yuzma-yuz turib, faoliyat ko'rsatishga majbur edi. Ana shunday qarama-qarshiliklar qurshovida uning katta siyosatchi sifatidagi rahbarlik mahorati kun sayin shakllanib, yangi mazmun kasb eta bordi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov umumxalq ovoz berish yo'li bilan mamlakat Prezidenti etib saylanganidanoq o'zining butun amaliy faoliyatida xalq va vatan manfaatini nazarda tutib faoliyat ko'rsatdi. U Oliy Kengashning 1992-yil 4-yanvarda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari IX sessiyasida shunday degan edi: **«Menga qanday yuksak mas'uliyat yuklanganini his qilgan holda xalqning munosib turmush kechirishi uchun qanday yo'llar tanlaganimiz haqida ba'zi fikrlar bilan o'rtoqlashmoqchiman.**

Xalq iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun qat'iy harakatlar qilishni kutyapti. O'tmish qoldiqlari xalq yelkasiga og'ir yuk bo'lib qolgan. Eng muhim vazifalardan biri xalqning baxtli hayotini ta'minlashdir. Prezident shiddat bilan kirib kelayotgan bozor zarbalariga bardosh beruvchi, yordamga muhtoj kishilarni o'z homiyligiga olishi kerak. Bular— ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar...

Bundan keyin ham biz uchun shu tamoyil qat'iy bo'lib qolaveradi».

Prezident Oliy Kengashning mazkur sessiyasida Dastur ahamiyatiga molik bo'lgan davlat siyosatining strategiyasini aniq-ravshan ko'rsatib berdi. Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, fuqarolarga erkinlik berish, jamiyatda ma'naviy yangilanish uchun barcha sharoitlar yaratish lozimligini, yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berish kerakligini, huquqiy davlatda qonun ustuvor bo'lishini alohida ta'kidladi.

Tabiiyki, ushbu qoidalar O'zbekiston istiqloli va taraqqiyotining asosiy yo'llarini belgilab berish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Masalaga ana shunday yondashish — mustaqillikning ilk kunlaridanoq aniq tartib-intizomga rioya qilish, qonun ustuvorligiga intilish mamlakatda eng murakkab paytlarda barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Davlat O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. Ayni chog'da 90-yillar boshlarida, ya'ni mustaqil taraqqiyotning dastlabki yilida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy

islohotlarni chuqur tahlil qildi. Shu asosda soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan dinamik taraqqiyot yo'liga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir, – degan xulosaga keldi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib, uyushib yashashga odatlangan, to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda bir-biriga ko'maklashgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir.

Shuning uchun ham I.Karimov 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida «Istiqlol yo'llari va muammolari» mavzuida nutq so'zlar ekan, **«Biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor, deb e'lon qildik. Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz»,** – dedi va tub islohotlarni amalga oshirish borasida dastlabki tamoyilini belgilab berdi.

Ikkinchidan, respublikadagi o'ziga xos ma'naviy-ruhiy vaziyatdan kelib chiqib ish tutildi. Chunki O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari yildan-yilga o'sib boruvchi mintaqa hisoblanadi. Ushbu omilning ahamiyatiga e'tibor berar ekan, Prezident shunday dedi: «Xalqimizning 60 va hatto, undan ko'proq foizi qishloq joylarida istiqomat qiladi va ularning asosiy qismi dehqonchilik sohasida ishlaydi. O'zbek zoti borki, o'tirgan joyini sovitgisi kelmaydi. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga xushi yo'q. Mehnat resurslari va ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda xuddi shu vaziyatni ham e'tiborda tutish kerak.

Xulosa shuki, qishloq joyda va rayon markazlarida mavjud bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini shaharga olib kelish shart emas, balki yangi, ixcham, zamonaviy korxonalarni qishloq joylariga, rayon markazlariga olib borib qurishimiz zarur. Sodda qilib aytganda, odamlarni ishxonaga emas, ishxonani odamlarga yaqinlashtirish lozim».

Uchinchidan, O'zbekiston taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda respublikaning qulay jug'rofiy-siyosiy imkoniyati hisobga olindi.

Darhaqiqat, tarixan O'zbekistonning hozirgi hududi juda ko'hna savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li tutashgan, mag'rib-u mashriqni bir-biriga bog'lab turgan, turli qarashlardagi xalqlarni yaqinlashtirgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan hududdir. Ana shu boy, tarix sinovlaridan o'tgan tajribalarni davom ettirish, undan samarali foydalanish yo'li tutildi. Demakki, mintaqalararo aloqalar, dunyoviy integratsiyani yo'lga qo'yishga kirishildi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligi ham ko'rsatib berildi.

Chunki, sho'rolar davrida kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat bari bir boqadi, degan fikr shakllanib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan, mulkka egalik tuyg'usidan uzoqlashgan edi. Bu, albatta, kishilarning mehnatga intilishini so'ndirar, ish natijasi uchun mas'uliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ularda boqimandalik, tekinxo'rlik illatlarini chuqurlashtirar edi. Shuning uchun, bozor munosabatlariga o'tishda odamlardagi mana shu kayfiyatni e'tiborga olish kerak, deb hisoblandi. Islohotlar davrida xususiylashtirish jarayonining chuqurlashishi, mamlakatda mulkdorlar sinfini shakllantirish sari dadil qadamlar qo'yilishi mana shu omildan kelib chiqqan xulosadir.

Beshinchidan, hukumat mustaqil O'zbekiston siyosatini belgilashda islom diniga munosabatni tubdan o'zgartirish lozimligini qayta-qayta uqtirdi. Chunki din turmush tarzimizga o'chmas muhrini bosgan. Dinga nisbatan ijobiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa, musulmon davlatlari bilan o'zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyatga ega, – deb ko'rsatadi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta'minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma'naviy hamda ishlab chiqarish potensialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligidir. Endi hamma gap ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishda edi.

Ushbu xulosalar I.A.Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadam-baqadam yangi qoida va yo'l-yo'riqlar bilan boyitib borildi. Xususan, 1992-yil avgust oyi oxirida O'zbekiston Mustaqilligining bir yilligi tantanalari arafasida Prezidentning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli O'zbekiston mustaqilligining nazariy asoslari chuqur tahlil etilgan asari nashrdan chiqdi. Ushbu risola keng jamoatchilik tomonidan ma'naviy hayotdagi yangilik va muhim qo'llanma sifatida kutib olindi. Unda O'zbekiston istiqlolining ham nazariy, ham amaliy muammolari ilmiy jihatdan o'rganilib, jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, ma'naviy poklanishining asosiy yo'l-yo'riqlari yangicha mushohada va yondashuv bilan ko'rsatib berildi.

Ma'lumki, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida jamiyatning bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish jarayoni bir necha muhim ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liq.

Bular:

– davlatning islohotlarni o'tkazishdagi rahnamolik roli;

– jamiyatning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy imkoniyatlarini safarbar etish;

– o'rta hol sinfni shakllantirish;

– xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalaridir.

Ta'bir joiz bo'lsa, bu omillarning bosqichma-bosqichligi, ularning ahamiyati, shuningdek, ulardan alohida, har birining va barchasi bir butun bo'lgan holatda beradigan samaradorligi har xil sabablarga bog'liq.

Lekin, o'tish davrining eng muhim omili, bu kuchli davlatni barpo etishdir. Bunday davlatsiz mavjud ijtimoiy imkoniyatlarni safarbar etish ham, o'rta hol sinfni shakllantirish ham, xalqaro munosabatlarda muvaffaqiyatlarga erishish ham mumkin emas.

I. Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor berdi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha «izm»lardan va u qanday nomlanishidan qat'i nazar adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim edi.

Shuning uchun ham, respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. **«Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish – bosh vazifadir, – deb uqtiradi Prezident. Bu boradagi fikrini davom ettirib u «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbayidir»,** – degan qoidani ilgari surdi. Bu Mustaqillikning bir yilligi arafasidayoq qat'iy qilib o'rtaga tashlangan davlat siyosati edi. Shuningdek, yangilangan jamiyat har bir a'zosining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llarni ham ko'rsatib berdi. Jumladan,

siyosiy sohada bu:

– xalq, ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirok etishi lozimligini;

– hokimiyat bo'linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;

– jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;

– barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta'minlashni;

– bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

– demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni shakllantirishni;

– O'zbekistonda tug'ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga erishishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada esa bu:

– milliy boylikning ko'payishini ta'minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

– ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni;

– mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

– iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning Mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

ijtimoiy va ma'naviy sohada bu:

– insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;

– ma'naviyatni qayta tiklashni;

– o'zbek tilini rivojlantirishni;

– hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;

– ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari – keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;

– odamlarning iste'dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi, deb ta'kidlandi «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli kitobda.

Prezident I. Karimovning O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat sifatida qaror toptirishning yuqoridagidek dasturiy qoidalari, mamlakatning bozor munosabatlariga o'tishi, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari jahon tajribasini yanada rivojlantirdi va ularni yangi qoidalar bilan boyitdi.

Prezident yangilanayotgan jamiyat mazmun-mohiyatini ko'rsatish bilan birga dolzarb vazifa qilib, eng avvalo ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiga o'tish masalasini qo'ydi. Faqat iqtisodiy baquvvat davlatgina kuchli bo'ladi va u har qanday islohotlarga qodir bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi.

Shuning uchun ham I.A.Karimov «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida (1993-yil.) **«O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.**

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin», – deb qat'iy ko'rsatib bergan edi.

I.A.Karimov mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rtaga tashladi:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak.

Ikkinchidan, o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

Uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish.

Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlar talablarini hisobga olgan holda, yaqin o'tmishimizdagi «inqilobiy sakrash»larsiz, ya'ni evolutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Ana shu muhim qoidalar O'zbekistonning Mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi, yangi jamiyatga o'tish davrining negizini tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minladi.

O'zbekiston hukumatining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish haqidagi tamoyili vaqt o'tgani sayin o'zining hayotiy qiymatini, siyosiy kuchini ko'rsatdi. Binobarin, bular yetakchi tamoyillar sifatida tan olindi. Chunki ular iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanish yo'lini va xarakterini belgilab berdi.

Darhaqiqat, O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha

ijobiy tajribalarni chuqur o'zlashtirish imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi. Aniqrog'i, bu tamoyil «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» haqidagi xalqning dono fikriga asoslanganini ko'rsatadi.

Xususan, jahon jamoatchiligi tomonidan atroflicha o'rganilayotgan «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga doir beshta tamoyil ahamiyatiga yana bir bor to'xtaladi. Xususan, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning O'zbekiston uchun naqadar afzalliklariga alohida urg'u beradi. Jumladan, «bir bosqichni tamomlagandan keyingina, zarur shart-sharoitlarni yaratib, yangi bosqichga o'tish mumkin, – deydi I.A.Karimov. Har bir bosqichda tafakkurimizni o'stirib, erishilgan real natijalar bilan odamlarni yangi tuzumning afzalligiga ishontiribgina islohotlarni oxirigacha amalga oshira olamiz. Iqtisodiy strukturasi rivojlangan, samarali ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lgan jamiyatni qura olamiz.

Hozir biz kerakli yondashuvlarni, zarur ish maromini topdik, muayyan foydali tajriba orttirdik.

Dastlabki yakunlarni chiqarish, navbatdagi bosqichning vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash zarur». Shuning uchun I.A.Karimov ushbu kitobning ikkinchi qismida mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar – xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalarini belgilab beradi.

Jumladan, uning fikricha, mazkur masalaning ustuvor yo'nalishlari quyidagicha bo'lmog'i lozim:

birinchidan, iqtisodiy siyosatda dehqonchilikka, umuman qishloq hayotiga yetakchi tarmoq sifatida qarash;

ikkinchidan, milliy valyutani joriy qilish, uning qadrini muttasil oshirib borish;

uchinchidan, mulkchilikning barcha shakllariga erk berish, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka yo'l ochish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchidan, iqtisodni jonlashtirish uchun korxonalarni xususiylashtirish, bu jarayonni tobora chuqurlashtirish;

beshinchidan, o'tish madaniyati va qadriyatlarini tiklash ishlarini yo'lga qo'yish va bu borada izchil tadbirlarni amalga oshirish Mustaqil O'zbekistonda davlat Mustaqilligini amalga oshirishning jamiyat rivojining hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlaridir.

O'zbekiston davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan yosh milliy Mustaqil davlatlar taraqqiyotiga doir ham nazariy, ham amaliy yo'nalishlar,

ilmiy qoidalar, yo'l-yo'riqlar O'zbekiston Mustaqil rivojlanishining o'n besh yili davomida hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, mustaqillikka erishilgandan keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar izchillik bilan o'z samarasini bermoqda. Buni jahon siyosatchilari va davlat arboblari ham tan olmoqdalar. Jumladan, AQSH Prezidentining milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi taniqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy O'zbekistonda bo'ldi va mamlakatimiz aholisi bilan yaqindan tanishdi. U garchi 90-yillar boshida yozgan maqolalaridan birida «Keyingi 10 – 15 yil ichida O'zbekiston rivojlanishi qanday bo'ladi bilib bo'lmaydi, deb «bashorat» qilgan bo'lsa-da, qariyb 12 yildan keyin O'zbekistonda bo'lib yurtimizda amalga oshirilgan ishlarni yuqori baholadi va O'zbekistonning mintaqamizda muhim o'rin tutishini ta'kidlab, O'zbekiston bilan hamkorlik AQSH manfaatlari uchun muhim ahamiyatga egaligini asoslab berdi.

«Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti» deb nomlangan teran tahlil va mazmunga ega kitob mualliflari doktor Levitin va doktor Karlayl ko'p yillar Markaziy Osiyo respublikalarida bo'lgan, mintaqadagi siyosiy vaziyat va iqtisodiy islohotlarning borishiga guvoh bo'lgan, mintaqaning o'ziga xos jihatlarini atroflicha o'rgangan kishilar sifatida o'z asarlarida O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasiga yuksak baho beradilar.

«Tasavvurimcha, – deb yozadi L.Levitin – dunyoda O'zbekiston misolida alohida sivilizatsiyaviy qiyofa kuchayishi bilan, o'ziga xos sivilizatsiyaviy o'z-o'zini anglashning o'sishi bilan ish ko'rayotir».

Ko'rinib turibdiki, Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni chuqur tadqiq etib, har ikki xorijiy muallif «Islom Karimov o'tish davrining obyektiv omillarini inobatga olib, o'zbek xalqi sivilizatsiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutdi, islohotlar o'zining ijobiy samarasini bera boshladi. Oqibatda bu holni mustaqil davlatlar taraqqiyoti uchun xos bo'lgan rivojlanishning «o'zbek modeli» degan jahon tan olgan yo'lga olib keldi», deb baholaydi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida O'zbekistonda jamiyatni rivojlantirish va uni ijtimoiy taraqqiy ettirishning o'tgan davriga nazar tashlar ekanmiz, bu davr mobaynida erishilgan har bir natija va yutuq haqli ravishda **«buguni va kelajagini o'z qo'li bilan bunyod etayotgan millionlab vatandoshlarimizning irodasi, aql-zakovati va fidokorona mehnati»** bilan bog'lash mumkin. Jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, hududiy daxlsizlik va milliy xavfsizlik, tarixiy, milliy va axloqiy qadriyatlar hamda an'analarning tiklanishi, iqtisodiy taraqqiyot, shaharsozlik sohasidagi olamshumul o'zgarishlar, siyosiy hayotning erkinlashuvi, mamlakatimizning jahon hamjamiyati

bilan integratsiyasidagi amaliy qadamlar islohotlardagi izchillik samarasi deyish mumkin. Ushbu fikrning tasdig'i sifatida Prezident I.A.Karimovning 2003-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2004-yil iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida qilgan ma'ruzasidagi quyidagi xulosani keltirish o'rinlidir: «O'tgan yil yakunlarining asosiy ko'rsatkichlarini chuqur va atroflicha tahlil qilar ekanmiz, quyidagi mulohaza va xulosalarni chiqarishimiz zarur, deb o'ylayman.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarining izchilligi ta'minlanmoqda. Keyingi olti yil davomida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari har yili muntazam ravishda 4 foizdan ko'proq oshmoqda.

O'tgan yili bu ko'rsatkich 4,4 foizni tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida 2001-yildayoq islohotlar boshlangan 1990-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishga erishgan yagona mamlakatdir».

Ma'lumki, har qanday jamiyat hayotida ro'y beradigan tub o'zgarishlar eng avvalo uning iqtisodiy jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki iqtisodiy munosabatlar jamiyatdagi siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy jarayonlar va voqeliklarning uzviyligini, aloqadorligini ta'minlaydi. Tom ma'nodagi iqtisodiy taraqqiyotga erishish pirovardda jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikning shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda ham O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moddiy farovonlikka erishish masalalari har doim ustuvor jabha sifatida qaralib kelinmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi davrida iqtisodiy barqarorlikka erishish, mamlakat iste'mol bozorlarini to'ldirish, milliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilib kelingan bo'lsa, 1995–2000-yillarga kelib import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarini keng jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilish bilan bog'liq tadbirlar asosiy o'rinni egalladi.

2000–2006-yillarda esa iqtisodiyotdagi umumiy holatning keskin o'zgarganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Chunonchi, endi asosiy e'tibor milliy eksport salohiyatini oshirish, mahalliy resurslarga tayangan holda ishlab chiqarish pirovardini tashqi va ichki bozorlarga yo'naltirish kabilarga qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, kichik va o'rta biznes tuzilmalari iqtisodiyotning eng harakatchan, faol, shu bilan birga istiqbolli qatlamlari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni paytda O'zbekiston taraqqiyotining asosi bo'lmish xususiy va milliy investitsiya oqimlarining vujudga kelishi kichik va o'rta biznes tuzilmalarining bundan keyingi faoliyatiga bevosita bog'liq sanaladi. Shu jihatdan ham Prezident I.A.Karimov

2006-yil yakuniga bag'ishlangan ma'ruzasida muhim ustuvor yo'nalish sifatida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uni erkinlashtirish, xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, xorijiy sarmoyalarning faol ishtirokini ta'minlash, kichik va o'rta biznesga aholi farovonligi va daromadlari o'sishining, mamlakatda ishsizlik muammosini kamaytirishning yechimi sifatida qarash, boshlangan islohotlarni rivojlantirish, ularni mantiqiy davom ettirish ekanligiga alohida e'tibor berdi.

Chunonchi, Prezident I.Karimovning **1999-yil birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasidagi** «O'zbekiston XX asrga intilmoqda» nomli tarixiy ma'ruzasida yigirma birinchi asr arafasi va uning dastlabki davrida mamlakat rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi oltita muhim va dolzarb xarakterga ega bo'lgan yangi yo'nalish va vazifalarni ilgari surdi. Chunonchi, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bunda siyosiy sohani erkinlashtirish tushunchasini aholining siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi siyosiy qatlamlar manfaatlari va qarashlari o'rtasidagi muvozanatni shakllantiruvchi izchil mexanizmlarni barpo qilish, barcha turdagi saylovlarda ko'ppartiyaviylik tamoyillarini takomillashtirishga qaratilgan muhim siyosiy-ijtimoiy tadbirlar bilan izohlash mumkin.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish bilan bog'liq ko'zda tutilgan vazifalar pirovardini davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari va tuzilmalarini (qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati), qolaversa, munitsipal hokimiyat tuzilmalarini demokratlashtirish, ularning bir-biridan mustaqil holda ish tutishi tamoyillarini yanada takomillashtirish, davlat hokimiyati vakolatlarini bosqichma-bosqich munitsipal organlarga va nodavlat hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tuzilmalariga o'tkazib borish kabilar tashkil qiladi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyatini barpo qilish g'oyasi Prezident tomonidan O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki yillardanoq rivojlantirilib kelinganligini aytish joiz. Xususan, Yurtboshimiz o'zining birinchi chaqiriq Oliy Majlisning 1-sessiyasidagi «Demokratiya – bosh yo'limiz» nomli ma'ruzalarida bu masalaga keng urg'u berib, **«Bugun biz qanday davlat qurayapmiz? Uning siyosiy va ijtimoiy negizi, uning qiyofasi qanday bo'lishi kerak? Yangi demokratik jamiyat shakllanishida uning ta'siri qanday bo'ladi?» – degan savollarga javob topish, bu xususda atroflicha fikr yuritish fursati yetdi»** – deya alohida ta'kidlagan edilar. Va ayni chog'da bu savollarni mushohada qilishni davom ettirib, jamiyatimiz kelajagini quyidagicha bayon qildilar: **«Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini**

bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir».

Shu o'rinda jamiyat siyosiy hayotini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo qilish vazifasining Prezident tomonidan keyingi 3–4 yil davomida ilgari surilgan ustuvor vazifalardan keng o'rin egallashi kishini chuqurroq mulohaza yuritishga undaydi. Darhaqiqat, ushbu ustuvor yo'nalish Yurtboshimizning 1999-yildagi o'n to'rtinchi sessiyadagi ma'ruzalarida ham, 2000-yil yanvar oyidagi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida ham, qolaversa, 2002-yildagi 9-sessiyadagi ma'ruzalarida ham eng asosiy vazifa sifatida e'tirof etildi. Bu o'rinda Prezident quyidagilarga asoslandi:

Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat hayotini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Balki, bu g'oyaning vujudga kelishi mustaqillikning ilk g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, shu jihatdan ham adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyasini O'zbekistonning davlat mustaqilligi bilan bir xil siyosiy ma'no kasb etadi, deb qarash mumkin. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatini qurish, uning siyosiy hayotini erkinlashtirish O'zbekiston kabi yosh mustaqil mamlakatlar uchun bir yoki bir necha yillik jarayon emas. Lekin shu o'rinda tarixan qisqa davr mobaynida O'zbekistonning misli ko'rilmagan taraqqiyot darajasiga erishganligi nafaqat vatandoshlarimizda faxr hissini, balki jahonning ko'plab siyosiy doiralarida O'zbekistonga nisbatan katta qiziqishni ham uyg'ota olganligini alohida ta'kidlash adolatdan bo'lur edi.

Ikkinchidan. O'zbekistonda jamiyat hayotini isloh qilish tamoyillaridan biri bu – islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iboratligini e'tiborga olgan holda ta'kidlash lozimki, siyosiy hayotni erkinlashtirish va jamiyatning turli qatlamlari siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog'liq erishilgan natijalar bosh maqsad yo'lidagi muhim qadam, bosqich sifatida baholanib kelinadi. Bu haqda Prezident I.Karimov 1999-yildayoq: **«Biz bugungi erkinlashtirish jarayonlariga, jamiyatimizni demokratiyalashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz»,** – degan fikrni ilgari surgan edi.

Shu ma'noda ham agar e'tibor berilsa, 14-sessiyada ilgari surilgan ustuvor vazifaga mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish sifatida qaralgan bo'lsa, 2000-yildagi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida belgilangan vazifa mohiyatan ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi demokratlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, yangicha ma'no-mazmun bilan boyitish, bu boradagi qo'llanilayotgan tadbirlarning izchilligini, samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Prezident I.A.Karimovning 2002-yil avgust sessiyasidagi ma'ruzasida esa bu jabhaga yanada kengroq va chuqurroq

e'tibor qaratilib, bu masalalar bir yo'la uchta: ya'ni, birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarining, so'z va matbuot erkinligining, bir so'z bilan aytganda demokratik tamoyillarning realligini ta'minlash; ikkinchidan, nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatiga fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosi sifatida qaralishi; uchinchidan, markaziy va yuqori davlat boshqaruv organlari vakolatlarini asta-sekinlik bilan quyi tuzilmalarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalariga berib borish bilan bog'liq bo'lgan ustuvor yo'nalishlarda o'z aksini topgan.

Qolaversa, bu ustuvor jihat O'zbekiston davlat siyosatida izchillik va uzluksizlik mohiyatiga egaki, bu mamlakatni modernizatsiyalash, jamiyatni yangilash jarayonini bir me'yorda tashkil etish imkonini beradi.

2002-yili bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida Prezident I.A.Karimov ayni ana shu ko'p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o'rtaga tashladi. **«O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»** deb atalgan ushbu ma'ruzasi, aytish mumkinki, katta konseptual ahamiyatga ega bo'ldi. Unda islohotlarga doir yettita masala– ustuvor yo'nalish belgilab berildi. Chunonchi:

Birinchi ustuvor yo'nalish – mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash. Uni har bir fuqaro qadr-u qimmati, shaxsiyati, oriyati darajasida anglash.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, davlatimizni hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash.

Uchinchi ustuvor yo'nalish – bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish – inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni amalda joriy etish.

Beshinchi ustuvor yo'nalish – jamiyat hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'rni va rolini oshirish, ularning faoliyat doirasini kengaytirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini chuqurlashtirish, **«Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari»** tamoyilini amalga oshirish.

Oltinchi ustuvor yo'nalish – sud-huquq sohasini isloh qilish, sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini ta'minlash, qonun ustuvorligini, inson haq-huquqlarini, erkinliklarini himoya qilish, huquq organlarini «jazolovchi» organlardan fuqaro manfaatini

himoya qiladigan, uni erkin yashashiga kafolat beradigan organlarga aylantirish.

Yettinchi ustuvor yo'nalish – islohotlarning samaradorligini belgilab beradigan asosiy tayanch – inson omilini kuchaytirish demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olib kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, ijtimoiy infratuzilmani, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, ekologik va boshqa xavf-xatarlardan himoya qilish.

Bular jamiyatni yalpi yangilash ijtimoiy hayotni tubdan isloh qilish butunlay yangi tafakkurdagi mustaqillik davri fuqarosini shakllantirish kabi uzoq muddatli, izchil davom etadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy hodisadir.

O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning izchil mexanizmi yaratildi. Buyuk kelajakka qaratilgan yalpi yangilanishlar konsepsiyasi vaqt o'tgani sayin shakllantirib, rivojlantirib borilmoqda. Buni Prezident I.A.Karimov 2005-yil 28-yanvar kuni Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida **«Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir»** mavzuida ma'ruza qildi. Unda ko'p qirrali islohlarni amalga oshirish tamoyillarini yana ham chuqurlashtirdi. Jumladan, quyidagilarni alohida ta'kidladi:

Birinchidan, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat.

Shu borada

– Prezident vakolatlarining bir qismini Parlamentning yuqori palatasi – Senatga va hukumatga o'tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi – Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish;

– Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish;

– sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Biz oldimizga qo'ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo'lsak – har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi – bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya'ni, har qaysi o'z vazifasini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi, o'z yukini ko'tarishi va ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor.

Ikki palatali parlamentni barpo etishdan maqsad:

– parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish;

– Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish;

– Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish;

– aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish.

Ikkinchidan, Biz hokimiyatning uchinchi tarmog'i – sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat beramiz.

Sud – odil sudlovning oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon. Shu munosabat bilan prokuratura vakolatlarining bir qismini sudlarga o'tkazish hozirgi zamonning mantiqiy talabidir. Va bu, eng avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini cheklash bilan aloqador masalalarga tegishlidir.

Bugungi kunda jinoiy va protsessual qonunchiligimizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim qoidalarni qaytadan ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi.

Boshqa demokratik davlatlar kabi **O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak,** deb o'ylayman.

Biroq ushbu jarayon tashkiliy - huquqiy masalalarini puxta va jiddiy tarzda ishlab chiqishni hamda sud tizimida va u bilan bog'liq boshqa huquq-tartibot va prokuratura organlarining ushbu o'zgartirishlarni kiritish uchun zarur tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etadi.

Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir.

Bu o'rinda gap, ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, o'lim jazosiga moratoriy qo'llash, ya'ni mahkum yillar davomida ushbu jazo chorasi qachon ijro etilishini kutib yotishi to'g'risida emas, balki uni butunlay bekor qilish haqida bormoqda.

Biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu masalani hal qilish ustida ish olib bormoqdamiz. O'tgan o'n yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi.

Endilikda faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi vaziyatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchungina o'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan. Ayni vaqtda qonunchiligimiz o'lim jazosining xotin-qizlarga, voyaga yetmaganlar va oltmish yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini man etadi.

Uchinchidan, O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir.

Bu boradagi asosiy vazifa – mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidan ilgari borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar xususida oshkor, professional tahliliy materiallarni kutadi.

Shuni tan olish kerakki, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma'muriy nazorati va senzurasidan juda katta qiyinchilik bilan xalos bo'lyapmiz.

Haligacha jurnalistlar faoliyatida o'z-o'zini senzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatlari sezilib turibdi.

Ayni paytda shuni ham qayd etish zarurki, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to'g'risida so'z yuritib bo'lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o'rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda.

To'rtinchidan: navbatdagi o'ta muhim masala – davlat tashqi siyosati ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish.

O'zbekiston tarixan qisqa davr – 1991 – 2009-yillar ichida dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning faol subyektiga aylandi.

O'zbekistonning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani eng avvalo:

– yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda,

ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'lmoqda;

— bu — davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasida o'z ifodasini topmoqda;

— va nihoyat, bu — mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o'ylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston bugun keyingi yillar uchun mo'ljallangan tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan murakkab va ziddiyatli vaziyatni inobatga olib, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan milliy manfaatlarimiz va mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan yondashmoqda.

6-§. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi

a) Huquqiy davlat izlanishlari

Har bir suveren davlatning huquqiy asoslaridan biri — uning asosiy Qonuni — Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Tarixiy rivojlanish ko'rsatganidek, har qaysi jamiyat kelajakni ko'zlab yashaydi va uning poydevorini imkon qadar mustahkamroq qurishga harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda mustaqillik yillarida davlatimiz, jamiyatimiz erishgan buyuk yutuq — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'ldi.

Darhaqiqat, Konstitutsiya tushunchasida davlatni boshqarish, mamlakat yaxlitligini ta'minlash, uning mustaqil davlat sifatida e'tirof etilishining asosi ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish yo'l-yo'riqlari to'la mujassamlangan.

Turkistonda inqilobdan keyingi yillarda jahon tajribalariga muvofiq tarzda Konstitutsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, Turkiston ASSRning 1918, 1920-yillarda, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining 1920-1921-yil, shuningdek, O'zbekiston SSRning 1927, 1937, 1978-yillarda qabul qilingan Konstitutsiyalari shaklan respublikaning Asosiy qonunlari edi. Lekin ular mazmun-mohiyatiga ko'ra haqiqiy mustaqil davlatning Asosiy Qonuni emas edi. To'g'rirog'i ular avval RSFSR, keyinchalik SSSR Konstitutsiyalarining milliy respublikalar sharoitiga muvofiqlashtirib ko'chirilgan, hayotiy kuchga ega bo'lmagan nusxasi edi. Shu nuqtayi nazardan ko'rsatib o'tilgan Asosiy Qonunlarni O'zbekiston davlati mustaqilligini huquqiy asoslovchi Konstitutsiya deb qarab bo'lmasdi.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyunda «Mustaqillik deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi bilan bevosita

bog'liq. Mazkur Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida bu hujjatdagi muhim tamoyillar asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya Prezident I. A. Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlarining, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasida Komissiya tarkibi qisman yangilandi.

Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekistonda konstitutsiyaviy ahamiyatga molik islohotlar Konstitutsiyaviy komissiya tuzilishidan ancha avvalroq boshlangan edi. Ma'lumki, 1990-yil 24-martida respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi muhim tarixiy qaror qabul qilib, O'zbekiston Prezidenti lavozimini ta'sis etgan edi. Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi sovetlar hukmron bo'lgan davlat boshqaruv shakliga barham berib, amalda davlatimizning prezidentlik respublikasi shakliga o'tishini anglatardi. Prezidentlik institutining kiritilishi davlat hokimiyati vakolatlarining yangicha taqsimlanishini taqozo etar edi. Shu munosabat bilan ijroiya-boshqaruv hokimiyatining tizimi takomillashtirildi.

1990-yil 1-noyabrda «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, Prezidentlik hokimiyati bilan Respublika Ministrlar Soveti qo'shilib, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. Ijroiya hokimiyat Prezident qo'lida birlashtirildi. U ham hukumat rahbari, ham davlat boshlig'i vazifasini zimmasiga oldi. Navbatdagi konstitutsiyaviy islohot qadami viloyatlar, shaharlar va tumanlarda davlat hokimiyatining vakillik hamda ijroiya idoralariga rahbarlik qiluvchi hokimlar lavozimini ta'sis etishdan iborat bo'ldi.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotimizda hayotiy ehtiyoj tarzida ro'y berayotgan real o'zgarishlar o'z navbatida siyosiy va huquqiy tafakkurni shakllantirib bordi. Konstitutsiya loyihasi ustida bevosita ishlashni faollashtirishga vaziyat yetilgach, Konstitutsiyaviy komissiya 1991-yil 12-aprelda I.A.Karimov raisligida o'zining birinchi majlisiga to'plandi. Konstitutsiya loyihasini yaratish bilan bog'liq barcha tashkiliy va ijodiy jarayonni muvofiqlashtirib borish uchun Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tashkil etildi. Uning tarkibiga qonun chiqaruvchi idora, bir necha qo'mitalarning raislari, vazirliklar, sud, prokuratura idoralarining rahbarlari, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengashning mas'ul

xodimlari kirdi. Shuningdek, Konstitutsiya loyihasi mo'ljallanayotgan bo'limlarini tayyorlash uchun 6 ta kichik guruhlar tashkil etildi. Kichik guruhlar tarkibiga 50 nafar ilmiy xodim va mutaxassis jalb qilindi.

Konstitutsiyaviy komissiya Raisi ishchi guruh oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydi:

– konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganib chiqilsin,

– boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari hisobga olinsin,

– keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo'lgan siyosiy-yuridik hujjatlar yaratilsin.

Mazkur topshiriqqa muvofiq, AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Misr, Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining konstitutsiyalari chuqur o'rganildi, qiyosiy tahlil etildi. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi Rossiya Federatsiyasi, Belorus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarining Asosiy qonunlari hamda konstitutsiya loyihalari diqqat bilan ko'rib chiqildi.

Yuqorida keltirilgan manbalarni tahlil etish asosida xorijiy davlatlar konstitutsiyalari mazmuni va tuzilishini tavsiflovchi kattagina hajmli qiyosiy jadval tayyorlandi. Ushbu tahliliy jadvalni jahon konstitutsiyashunosligi tajribasi namunalari umumlashmasi sifatida Respublikamiz Prezidenti o'rganib chiqdi.

Yana shuni ham aytish kerakki, o'zbek xalqi ajdodlarining davlatchilikni mustahkamlash yo'lidagi g'oya va fikrlari ham bo'lajak Asosiy Qonunga tayanch manba qilib olindi. Jumladan, Amur Temurning «Temur tuzuklari»dagi davlatni idora qilishga doir muhim qoidalari ham e'tiborga olindi.

Xususan, Amur Temur umrining oxirida farzandlariga shunday vasiyat qilgan: «millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang, adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz o'lsun...». Bu fikrlar o'sha davrda davlat yuritishning asosi bo'lib xizmat qilgan. Turonzamin xoqoni uchun asosiy g'oya hisoblangan adolat va ozodlik bugungi kunda ijtimoiy adolatni himoya qilishda asosiy mezon hisoblanmoqda.

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasini yaratish salmoqli nazariy, konseptual zaminga tayandi. Konstitutsiyaviy komissiya Raisining topshirig'i bilan 1991-yil boshlaridayoq bo'lg'usi konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada uchta muqobil konsepsiya yaratildi. Respublika Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi guruh majlisida uchinchi konsepsiya asos

uchun qabul qilindi. U qolgan ikki konsepsiyaning diqqatga sazovor g'oyalari bilan boyitilib, umumlashgan, puxta, yagona g'oyaviy asos shakliga keltirildi. Konstitutsiyaviy komissiya va uning Raisi tomonidan ma'qullangan ana shu konsepsiya asosida bo'lajak Konstitutsiya loyihasini yaratishga kirishildi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga bo'lingan 158 moddadan iborat edi. Ushbu loyiha yuzaga kelayotgan paytda mamlakatimiz tarixida tub burilish yuz berdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy Qonunni va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonotini qabul qildi. Bu bilan respublika parlamenti mustaqil O'zbekiston Respublikasi, suveren davlat qaror topganligini butun dunyoga e'lon qildi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, demokratik davlatchilik, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu ilg'or demokratik g'oya va prinsiplar Konstitutsiya loyihasi mazmuniga ham singdirildi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash lozim edi.

1992-yil bahorida loyihaning 149-moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risidagi axborot tinglandi. Ta'kidlanishicha, ishchi guruh O'zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari rahbarlari, olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda loyihaning beshinchi ko'rinishini tayyorladi. Unda o'zbek xalqining tarixiy, milliy va ma'naviy xususiyatlarini imkon qadar to'laroq aks ettirishga harakat qilindi. Majlisda Konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun 25 kishidan iborat ishchi guruh (komissiya) tuzishga qaror qilindi va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

– huquqiy demokratik davlat barpo etish tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasida hisobga olish;

– O'zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, uning taraqqiyoti tajribasini hamda deputatlarning, turli ijtimoiy guruhlarning milliy-madaniy markazlarning mulohazalari va takliflarini umumlashtirish;

– Konstitutsiyaviy komissiya a'zolaridan tushgan takliflarni ko'rib chiqish va loyihaga tegishli o'zgarishlar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Mustaqil davlatimizning har bir fuqarosi, butun xalq ommasi Konstitutsiya loyihasini katta qiziqish va ozod Vatan uchun cheksiz iftixor tuyg'ulari bilan kutib oldi. Bu o'z-o'zidan tushunarli holat. Zero, davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq. Aniqrog'i har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko'lamli bo'lib, yuksak ijodiy ko'tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o'tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo'ldi. Loyihaning qizg'in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o'zi Mustaqil O'zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo'lganligini ko'rsatadi.

Umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Shu davrda O'zbekiston Respublikasi davlat-huquqiy tajribasida muhim bir yangilik bo'ldi. Uning mazmuni shundaki, Konstitutsiya komissiyasi dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida (1992-yil 26-sentabrdan boshlab) loyiha mehnatkashlar takliflari asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun yana ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. Shunday qilib, huquqiy pretsendent ro'y berdi — umumxalq muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu hol muhokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faollashtiruvchi qudratli turtki bo'ldi. Uning maqsadi fuqarolarga ularning muhokamadagi jonbozligi mahsuli va samaralarini aniq ko'rsatishdan iborat edi.

Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Faqatgina Konstitusion komissiyaga mingdan ziyod xatlar tushdi. Ularda loyihaning ixcham, lo'nda, chuqur ma'noli va barchaga tushunarliligiga yordam beruvchi mulohazalar bildirildi. Taklif va mulohazalar Konstitutsiya loyihasining hamma moddalariga daxldor bo'lib, matnning deyarli yarmiga tuzatishlar qilindi. Loyihadagi 127 moddadan 60 tasiga tuzatish va aniqliklar kiritildi. Dastlabki variantdan 4 ta modda chiqarilib, matnga bir necha yangi modda kiritildi.

Taklif va mulohazalarning aksariyati fuqarolar huquqi va burchlari, shaxs daxlsizligi, dinning jamiyatdagi o'rni va roli, iqtisodiy huquqlar, jumladan, mulk huquqi, bozor munosabatlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, huquqiy tartibot va qonuniylikning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan moddalar, boblar va bo'limlarga taalluqli bo'ldi.

Masalan, Konstitutsiya loyihasining «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» degan bo'limi bo'yicha 1978 ta taklif va mulohazalar tushgan. Shulardan Shaxsiy huquqlar va erkinliklar, Siyosiy huquqlar, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari degan VII—XI

boblaridagi 29 ta modda yuzasidan 1656 ta taklif va mulohaza bildirilgan. Bular ichida qizg'in muhokama va munozaraga sabab bo'lgan o'n bitta moddani ya'ni insonning yashash huquqi, fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi, shaxs daxlsizligi, fikr, so'z va e'tiqod erkinligi, har kimning istalgan axborotni olishi va uni tarqatish huquqi, din erkinligi va diniy tashkilotlarning siyosiy maqomi, fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida faollik ko'rsatish huquqi, mulkdor bo'lish va mulkni meros qoldirish huquqi, mehnat qilish va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqi, bilim olish huquqi, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati, Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash majburiyati kabi masalalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Mazkur dolzarb masalalar bo'yicha tushgan takliflar soni 1050 ta bo'lib, ular Konstitutsiyaviy komissiya nomiga kelgan takliflarning salkam 20% ini tashkil etdi. Bu raqam VII–XI boblardagi moddalarga oid takliflar miqdoriga nisbatan esa 63% tashkil qiladi.

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O'zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdek, muhokama davomida to'plangan boy materialni har tomonlama va chuqur o'rganib, umumlashtirib, uni yaxlit davlat irodasi tarzida Asosiy Qonunda ifodalash imkonini berdi. Konstitutsiya xalqimizning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsuli bo'ldi.

Umumxalq muhokamasi davom etayotgan davrda ham Konstitutsiya komissiyasi Raisi loyihani takomillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Fuqarolar va mehnat jamoalaridan tushayotgan taklif-mulohazalar jamlanib, Rais e'tiboriga havola etib turildi. Mamlakat Prezidenti Konstitutsiya loyihasi ustida ishlar ekan, uning ortida millionlab fuqarolarning taqdiri turganligini qayta-qayta ta'kidladi.

Prezident ishlagan loyihalar nusxasidan ayrimlarini misol tariqasida keltiramiz:

Loyihaning 1-moddasida «O'zbekiston – demokratik respublika» deb yozilgan edi. Prezident bunga aniqlik kiritib, «suveren» so'zini qo'shib qo'ygan. Natijada bu modda «O'zbekiston – suveren demokratik respublika» tarzida bo'ldi. Ma'lumki, suverenitet – har qanday davlatning muhim belgisidir. Konstitutsiyada bu jihatga urg'u berilishi O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki, O'zbekiston endi ilgarigidek ittifoq davlatining tarkibida emas. Ikkinchi tarafdan, uning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga qo'shilganligi mustaqillikni va davlat suverenitetini yo'qotdi, degan ma'noni anglatmaydi. Bu MDH shakllanayotgan va uning atrofida turli qarama-qarshi mulohazalar bildirilayotgan bir paytda katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

Dastlabki loyihaning 7-moddasi, 2-qismi quyidagicha edi: «O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati Konstitutsiya... vakolat

bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi». Prezident nihoyatda muhim tuzatish kiritdi. Ya'ni, respublikada davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab... amalga oshiriladi. Bu bilan Konstitutsiyaning «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir» (7-m., 1-qism) degan qoidasi bilan yuqorida keltirilgan qoidasi o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik kuchaydi.

Loyihaning 17-moddasi, 2-qismida quyidagi me'yor mustahkamlangan edi: «respublika o'zining suveren huquqlarini boshqa davlatlar bilan birgalikda amalga oshirishi sharti asosida umumiy farovonlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida hamdo'stlik va boshqa davlatlararo birikmalarga kirishi, ittifoqlar tuzishi hamda ittifoqlardan, hamdo'stlik va boshqa davlatlararo birikmalardan chiqishi mumkin». Prezident matndan «o'zining suveren huquqlarni boshqa davlatlar bilan birgalikda amalga oshirishi» so'zlarini chiqarib tashladi va loyihaning quyidagi tahririni bayon qildi: «Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».

Inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlovchi qoidalar alohida diqqat-e'tiborga molik bo'ldi. Bu masala dastavval loyihada quyidagicha edi: «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tabiiy, ajralmas, buzilmas huquq va erkinliklarga ega. Ular daxlsiz va hech kim sudsiz ulardan mahrum etishga va ularni cheklashga haqli emas» (19-modda). Bir qarashda hammasi xalqaro huquq mezonlariga muvofiqdek ko'rinadi. Ammo Konstitutsiyaviy komissiya Raisi bu moddani chiqarib tashlab, uni 20-moddaning ikkinchi jumlasi oxiriga qo'shishni taklif etdi. Natijada modda quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi: «...Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas».

Kiritilgan tuzatish – ijodiy tafakkur va donishmandlik mahsulidir. Uning to'g'riligi loyihadagi 19-modda mazmunini qo'shimcha tahlil etganda ayon bo'ladi. Ilgarigi ma'noga ko'ra: shaxsning barcha tabiiy huquq va erkinliklari daxlsiz deb tanilib, ular sud muhofazasiga da'vogarlik qilar edi. Mazkur normaning yuridik jihatdan noaniq va bo'shligi ko'rinib turibdi. Aks holda inson va fuqaroning barcha tabiiy huquqlari to'la ro'yxatini qanday aniqlash mumkin? Bu noaniqlik sharoitida hamma huquq va erkinliklar sud himoyasi bilan ta'minlanishi aqlga sig'adimi? Albatta, yo'q.

Konstitutsiya loyihasidagi «fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari ularning o'z majburiyatlarini bajarishlaridan ajralmasdir» – degan so'zlarni Prezident quyidagi aniq ifodalar bilan almashtirdi: «Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan

burchlarini bajaradilar» (Konstitutsiyaning 47-moddasi). Endi bu me'yor huquqiy jihatdan sodda, tushunarli, lo'nda va aniq ko'rinishga ega bo'ldi.

Konstitutsiyaviy komissiya Raisining tashabbusi bilan loyihaga shaxsning daxlsizligi, aybsizlik prezumpsiyasi, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi to'g'risidagi moddalar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning 1992-yil 7-dekabrda bo'lib o'tgan majlisida Prezident Konstitutsiya loyihasini xotin-qizlar bilan erkaklar teng huquqli ekanligi haqidagi, shuningdek, madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilinishi haqidagi moddalar bilan to'ldirishni taklif etdi. Mazkur majlis ishtirokchilaridan biri prezidentlik boshqaruvi shaklini mustahkamlashni, «Davlat hokimiyatining tashkil etilishi» degan bo'limni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti to'g'risidagi bob bilan boshlashni taklif qildi. Konstitutsiyaviy komissiya Raisi bunga e'tiroz bildirib: «Avallo Parlament haqidagi, so'ngra Prezident haqidagi bob bayon etiladi. Konstitutsiyamizda birinchi navbatda xalq demokratiyasi ustuvorlik qilishi lozim», dedi.

1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida»gi masala ko'rildi. Bu xususda Konstitutsiya komissiyasi Raisi, Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada sessiya muhokamasiga havola qilingan O'zbekistonning asosiy Qonuni respublikada avvalgi yillarda qabul qilgan qonunlardan farqli o'laroq, demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligi, u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning Konstitutsiyasi bilan bahslasha olishi mumkin», – deb ta'kidlandi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgarish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Jumladan, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarining vakolat muddati o'n yildan besh yilgacha tushirildi. Oliy Kengash 84-moddani quyidagi yangi qism bilan to'ldirdi: «Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili hisobot berib turadilar». 78-moddaning 8-bandiga esa yangi jumla qo'shildi: «Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish» va hokazo.

Albatta, deputatlar takliflarining rad etilganlari, loyihaga qo'shilmaganlari ham bo'ldi. Masalan, deputat V.A.Kozlov Oliy Majlis ikki palatadan iborat bo'lishini taklif etdi. Biroq, bu taklif qabul qilinmadi, tajribada sinalgan bir palatalik tizim saqlab qolindi.

Sababi, O'zbekistonda hali ikki palatali parlamenti sharoit, tajriba va ko'nikma yetarli emas edi. Shuningdek, mamlakatda xalqlar o'rtasida barqarorlik, millatlararo munosabatlar, milliy totuvlik yo'lga qo'yilgani bilan ajralib turadi. Gap ko'p pog'onali parlament tuzishda emas, balki davlatning dono, puxta o'ylangan milliy siyosatida, asrash va rivojlantirish zarur bo'lgan xalq an'analarida edi. Shuning uchun O'zbekistonda tuzilajak parlament bir palatali, deb lozim topildi.

Viloyatlarda, shaharlar va tumanlarda hokimlar va sudyalarni tayinlash emas, balki saylash to'g'risida ham takliflar tushdi. Sudyalarni va mahalliy hokimiyat organlarini saylash haqidagi qonun uzoq vaqt ishlab keldi, ammo bu amalda hech narsa bermadi. Konstitutsiya komissiyasi boshqa mamlakatlar tajribasiga suyangan holda o'zga yo'lni tanladi. Mansabdor shaxslarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish maqsadida ularni tayinlashga va ulardan zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishni talab qilishga qodir bo'lgan tayinlash tamoyilini maqbul ko'rdi.

Sog'lom, oqilona fikrlar aytilgan ko'plab boshqa takliflar ham tushdi. Biroq, konstitutsiya xarakteridagi hujjatni qabul qilishda ularning barchasini inobatga olish mumkin emas edi. Shu bois ba'zi takliflar Oliy Kengashning komitetlari va komissiyalariga o'rganib chiqish va tegishli qonun hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish uchun yuborildi. Xullas, ikki yil tayyorgarlik va ikki yarim oy umumxalq muhokamasidan so'ng Konstitutsiya loyihasi sessiya tasdig'iga havola qilindi.

Ba'zi deputatlar loyihaning 58-moddasida kasaba uyushmalariga a'zolik majburiy ravishda bo'lishi haqidagi qoida mustahkamlansin, degan takliflarni ilgari surdilar. Ushbu fikr ham qo'llab-quvvatlanmadi. Chunki bu jamoat birlashmalarining ixtiyoriylik asosida tuzilishi prinsipiga zid edi.

Deputat M.Yusupov 118-moddaning 3-qismida «viloyat, shahar va tuman prokurorlari tegishli ma'muriy-hududiy birlikning hokimi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar», degan qoida yozilishini taklif etdi. Bu taklifga Oliy Kengash deputatlarining ko'pchiligi qo'shilmadi. Sababi amaldagi qonunchilik va tajribaga muvofiq, prokuratura organlari yakkahokimlik tamoyili asosida tuziladi va faoliyat yuritadi. Shu bois barcha bo'g'indagi prokurorlar Respublika Bosh Prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar. Bundan tashqari, prokuratura organlari xuddi sudlar singari mahalliy hokimiyat organlari ta'siri ostida bo'lishi mumkin emas. Boz ustiga prokuratura tegishli hududdagi hokimlar faoliyatining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Deputatlarning bir qator taklif va mulohazalari Konstitutsiya loyihasining tahririni, uslubiy ravonligini barkamollashtirishga ko'mak berdi.

Shunday qilib, suveren demokratik O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Asosiy Qomusimiz davlat

mustaqilligimizning mevasi, samarador mahsuli sifatida dunyoga keldi va hurligimiz, ozod-erkinligimiz qalqoni sifatida yashamoqda. Konstitutsiya kelajagi buyuk O'zbekistonning qad rostlashi uchun, adolatli huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi I.A.Karimov Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so'zlagan nutqida shunday deb ta'kidladi: **Hur O'zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish – jumhuriyatimizning yangidan tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir... Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar... Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafiy g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda «fuqaro – jamiyat – davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.**

O'zbekiston Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik tamoyillarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, hamda, ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi.

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan 6 bo'lim, 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi tarixida birinchi marta xalqaro huquqning hamma tomonidan e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlariga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga asoslangan real, tub ma'nodagi demokratik Konstitutsiya yaratildi va kuchga kiritildi. Bu Konstitutsiya 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiya»si va «O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda mustahkamlangan prinsiplar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi, ularni rivojlantirdi. Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilishi jarayonida ishchi guruhi BMTning xalqaro huquqiy hujjatlariga, ayniqsa, 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga, Siyosiy va fuqarolik huquqlari to'g'risidagi Bitimga (1966), Xelsinkida imzolangan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (OBSE) yakunlovchi hujjatiga asoslanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O'zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini

yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrdagi o'n birinchi sessiyasi tomonidan O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea edi.

b) Konstitutsiya sabog'i

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Birinchidan, shuni ta'kidlash joizki, ushbu hujjatda huquqiy va siyosiy tafakkurning eng yuksak yutuqlarini, hozirgi zamon konstitutsiyaviylik ilmini mujassam etgani, o'zbek xalqi madaniyati va milliy an'analarining chuqur ildizlariga suyanilganligi ham Konstitutsiyaning o'ziga xos muhim xususiyatidir.

Ikkinchidan, ushbu hujjat, O'zbekiston Respublikasidagi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, davlat siyosiy tizimini amalda boshqa tizimga aylanganini, tubdan yangilanish ro'y berganini konstitutsiyaviy rasmiylashtirish lozim edi. Masalan «sotsialistik» o'tmishdan, ayni vaqtda sovet namunasidagi tizimdan ham voz kechgan holda ijtimoiy ong «davlatlashib ketgan umumxalq mulkchiligini» ijtimoiy taraqqiyotiga to'g'anoq sifatida inkor etib, xususiy mulkni, iqtisodiy erkinlik va yakka tartibdagi tadbirkorlarni tan oldi. Yangi Konstitutsiya mohiyatining o'ziga xos tomoni ana shu omillar bilan belgilanadi. Demak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mazmunan yangi, prinsipal siyosiy hujjatdir. Unda ijtimoiy-siyosiy xususiyati, uni rivojlantirishning asosiy g'oyalari, respublika ichki va tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Konstitutsiya jahonning siyosiy xaritasida yangi suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini qonuniy tasdiqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yuridik hujjat. Uning qoidalari hamisha hukmronlik, birinchilik, ta'sis kuchiga egadir. Boshqa qonunlarning hammasi u yoki bu tarzda Konstitutsiyaviy me'yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro'yobga chiqaradi. Uning asosida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qudratli axloqiy kuchga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g'oyalari mustahkamlab berilgan. Konstitutsiyaning «insonga qaratilganligi» xususiyatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Konstitutsiya maqsadining cho'qqisida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlari turadi. **«Endilikda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi»,**— deb ta'kidladi Respublika Prezidenti I.A.Karimov Konstitutsiyaning bir yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda.

Konstitutsiyaga asos qilib olingan prinsiplar o'z mohiyatiga ko'ra huquqiy davlatning eng asosiy talablarini aks ettiradi. To'g'ri, bunday prinsiplarning ayrimlari — «suverenitet», «xalq hokimiyati», «ijtimoiy adolat», «qonuniylik» avvalgi sovet konstitutsiyalarida ham uchraydi. Biroq, yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida bu prinsiplar tub, asl ma'no kasb etgan.

Davlat suvereniteti prinsipi — respublikada davlat hokimiyatini tashkil etishning muhim prinsipidir. Hokimiyat suverenitetining mazmuni shundaki, bunda hokimiyat bir tomondan mamlakat ichida ustunlik va mustaqillikka ega bo'lsa, ikkinchi tomondan tashqi siyosat, boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatda o'zi erkin, mustaqil ish ko'radi.

Davlat suverenitetining ichki jihatlari mazmuni Konstitutsiyaning I-bobida juda aniq ochib berilgan. Chunonchi, «O'zbekiston suveren demokratik respublika» ekanligi bayon etilgan, demakki, qonun bilan mustahkamlab berilgan. Davlat o'z hududi va milliy boyliklariga nisbatan eng oliy huquqqa egadir. «O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir», (3-modda). O'zbekiston Respublikasi mustaqil ravishda o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyatni va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi, respublika Konstitutsiyasi o'z hududida ustunlikka ega bo'lgan qonunlar qabul qiladi.

Davlat suverenitetining beistisno barcha ijtimoiy hokimiyat vakolatlari faqat konstitutsiyaga binoan tuzilib, amalda bo'lgan davlat institutlaridagiga to'la va so'zsiz jamlanishini taqozo qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan 10-modda mantiqan juda katta ahamiyatga ega. «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Parlamenti ish olib borishi mumkin». O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati faqatgina O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida berilgan vakolat idoralarda amalga oshirishi ham nazarda tutilgan. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tizimlarini yaratish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi» (7-modda).

Xalqaro doirada O'zbekiston Respublikasining ustunligi va mustahkamligi uning davlatlararo muloqotlarning to'laqonli va teng huquqli subyekti sifatidagi maqomiga asoslanadi. Konstitutsiyada O'zbekiston davlatining alomatlari qayd etilgan bo'lib, ular davlatimiz xalqaro munosabatlarining teng huquqli subyekti ekanligini ta'minlaydi.

Ushbu Konstitutsiyada xalq azaldan orzu qilgan, o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasi mukammal tarzda o'rin olgan. Shu bois yangi Konstitutsiya xalq hokimiyati prinsipiga asoslanadi va uni mustahkamlaydi. Xalq hokimiyati degan ibora butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan

xalqniki ekanligini anglatadi. Xalq hokimiyati o'z vazifalarini ham bevosita, ham o'zi saylagan davlat organlari orqali amalga oshiradi. Konstitutsiyaning 7-moddasiga muvofiq xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir». U xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi.

Asosiy Qonunda xalq hokimiyatining real omillari ko'rsatib berilgan. Xalq saylov yo'li bilan vakillik hokimiyati organlarini tuzadi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumi orqali jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, qarorlar (qonunlar) qabul qilinishida ishtirok etadi (9-modda). Shu tarzda xalqning suveren xohish-irodasi, uning o'z davlat hokimiyatini ro'yobga chiqarish usullari konstitutsiyaviy yo'l bilan mustahkamlanadi. Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki demokratizm – yangi Konstitutsiyaning asosiy prinsipi hisoblanadi. Chunki, xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish yangi demokratik, adolatli jamiyat qurishda o'ta muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir.

Shu bois ham Konstitutsiyaning muqaddimasida xalqning demokratiya g'oyalariga, inson huquqlari va ijtimoiy adolatga sadoqatli ekanligi rasman e'lon qilingan. «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», – deb bayon etilgan. 13-moddada «Konstitutsiyada davlat xalqning irodasini ifoda etishi, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishi ta'kidlangan. Umumxalq muhokamasi va umumxalq ovoz berishi (referendum) tartibotlari demokratik vositalar hisoblanadi. Xalq qonun chiqaruvchi organni shakllantirishda va respublika Prezidenti saylovida bevosita qatnashadi».

Shuningdek, Yangi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi ham asoslab berilgan. Ya'ni Qonunda qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatining o'zaro hamjihatligi va mustaqil ravishda amal qilishining o'ta maqbul mexanizmlari mustahkamlab berilgan. Hokimiyatning uchta tarmog'i o'rtasida muvozanat saqlashning oqilona tizimi yaratilgan. Chunonchi, qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijroiya hokimiyati esa O'zbekiston Repsublikasi Prezidenti va uning rahbarligi ostida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati – Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda respublikaning yagona tizimini tashkil etadi. Oliy Majlis tarkibida uning normal faoliyatini tartibga soladigan, hal etib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, yoxud u bir necha marta Konsti-

tutsiyaga zid qarorlar qabul qilsa, Prezident Konstitutsiyaviy sud bilan kelishgan holda qabul qilgan o'z qarori bilan Oliy Majlisni tarqatib yuborishi mumkin (95-modda). Konstitutsion sud respublika qonunlari va Prezidentning Farmonlari Konstitutsiyaga qanchalik mos kelishini aniqlaydi. Uning Konstitutsiyada o'ziga berilgan vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari uzil-kesil hisoblanadi va bu qarorlarning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Konstitutsiyada kuchli va layoqatli ijroiya hokimiyati rivojlantirilgan. Bir tizimdan boshqa tizimga o'tish davrida kuchli ijroiya hokimiyati zarurdir. Uni mustahkamlash qonun chiqaruvchi hokimiyat mavqeini pasaytirish hisobiga yuz berishi kerak emas. Prezidentga avval berilgan vakolatlarni aniqlash va to'ldirish ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rtasidagi muvozanatga rioya qilingan.

Chunonchi, Konstitutsiyaning 89-moddasiga muvofiq Prezident O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i va ijro hokimiyatining boshlig'idir. U ayni bir vaqtda Vazirlar Mahkamasining ham Raisi hisoblanadi. Prezident vakolatlari to'g'risidagi modda uning huquqlarini sanab o'tishda emas, balki uning zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklashdan boshlanadi. Xususan, Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va huquqiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi (93-moddaning 1;2-qismlari).

Prezident mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda respublika nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi. Respublikaning shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Prezident davlat boshlig'i sifatida hokimiyat va davlat boshqaruvi oliy organlarining hamjihatligini ta'minlaydi. U ijroiya hokimiyati devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, vazirliklarni, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. Bosh Vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasi a'zolarini lavozimiga tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi (93-moddaning 8, 9-bandlari).

Prokurorlik nazorati ijroiya hokimiyati strukturasiga kiritildi. Shu vaqtga qadar prokurorlik nazorati go'yoki «To'rtinchi hokimiyat» bo'lib kelar edi. Endi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari Prezident Farmoni bilan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, bu masala Oliy Majlis tasdig'iga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi

prokurorlar respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar (118-modda).

Prezidentning viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlari sudyalarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etishga doir vakolatlarini o'ziga xos rag'batlantiruvchi omil, deb qarash mumkin. Bu esa ularga odil sudlovni, hukm chiqarish va hal qiluvchi qarorlar qabul qilishni davlat nomidan amalga oshirish imkonini beradi. Eng muhimi shundaki, sudyalar ishini ko'rishdagi mustaqilligi va erkinligi Prezident nufuzi bilan mustahkamlanadi. Shu bilan birga tasdiqlash kerakki, na Prezident, na davlat boshqaruvining boshqa organlari sudlarning harakatdagi faoliyatlariga aralashmaydi. «O'zbekistonning sud hokimiyati, – deyiladi 106-moddada, – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi».

Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. Basharti, mamlakatga hujum qilingan taqdirda urush holati e'lon qilib, bu qarorini uch kecha-kunduz ichida Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi faol tashqi siyosat o'tkazish tarafdori ekanligini bayon etilishi Konstitutsiyaning butunlay yangi prinsiplaridan biridir. Bunda Respublikaning o'z milliy davlat manfaatlarining ustuvor ekanligini belgilovchi omildir. O'zbekiston tashqi siyosat sohasida xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida Konstitutsiyada belgilab berilgan davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalariga va normalariga asoslanadi(17-modda).

Konstitutsiyaning maxsus bobi (XXI-bob) joylardagi davlat hokimiyati organlariga bag'ishlangan. Bu bobda o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini mustahkamlash bilan bir qatorda mahalliy hokimiyatning boshlig'i bo'lgan hokim tartiboti joriy etiladi. Tegishli huquqlardagi mahalliy vakillik hokimiyati – xalq Kengashlariga, shuningdek, ijroiya hokimiyatiga viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladilar.

Viloyat hokimlari va Toshkent shahrining hokimi Prezident tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman, shahar va shaharlardagi tumanlar hokimlari tegishli yuqori turuvchi hokimlar tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi (102-modda).

Hokim o'z vakolatlarini yakka boshchilik asosida amalga oshiradi va o'zi rahbarlik qilayotgan idoralarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan

javobgar bo'ladi. Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda mahalliy hokimiyat o'z-o'zini boshqarish jamoat organlari shaklida amalga oshiriladi. Fuqarolarning yig'inlari bunday o'zini o'zi boshqarishning organlari hisoblanadi. Fuqarolar ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylaydilar. O'zini-o'zi boshqarishning bunday shakli shahardagi mahallalar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarda ham amalga oshiriladi (105-modda).

Bizning Konstitutsiyamizda birinchi marta O'zbekiston Respublikasidagi sud hokimiyatiga doir maxsus bob paydo bo'ldi. Qonuniy va huquqiy tartibotni ta'minlash manfaatlariga asoslanib, Konstitutsiyada prokuratura idoralarining maqomi va tashkiliy asoslariga alohida e'tibor berilgan. Prokuraturaning yagona markazlashgan tizimi respublika Bosh prokurori tomonidan boshqariladi (119-120-moddalar).

O'zbekiston Respublikasining moliya va kreditlari, mudofaa va xavfsizligi to'g'risidagi qoidalarning birinchi marta aks ettirilganligi Konstitutsiyada bizga tamoyilga aylanmagan butunlay yangi hodisadir.

d) Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish – islohotlar ehtiyoji

Konstitutsiyaning barqarorligini va uzoq muddat amal qilishini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Bu tabiiy va o'tish davriga xos hodisa. Islohotlar chuqurlashib, jamiyatni modernizatsiyalash, butun ijtimoiy hayotni yangilash jarayoni ko'lami va miqyosi kengaygani sayin, ular butun salmog'i bilan Asosiy Qonunda o'z ifodasini topishi va huquqiy asosiga ega bo'lishi lozim.

2002-yil 27-yanvarda umumxalq Referendumi o'tkazildi. Referendum yakunlariga ko'ra 2003-yil aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning o'n birinchi sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun qabul qildi.

Ushbu qonun asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalariga kiritilgan o'zgartirishlar asosan uning beshinchi bo'limi XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga taalluqli bo'ldi.

Ma'lumki, 2002-yil 27-yanvarda umumxalq Referendumi O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartish to'g'risidagi masalalarga bag'ishlangan edi.

Referendum qarorlariga muvofiq, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi

to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish uchun asos bo‘lib hisoblandi. Shunga muvofiq XVIII bob quyidagi tahrirda bayon etildi:

«76-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati besh yil».

Shunga ko‘ra, 2004-yil 25-dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida bir yuz yigirma deputatdan iborat tarzda shakllantirildi. Konstitutsiyaga muvofiq 2005 yil, yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida teng miqdorda – olti kishidan saylandi. Ayni chog‘da O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

Yana shuni aytish joizki, Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muhim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a’zosi bo‘lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar qonun bilan kafolatlandi.

Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib qo‘yildi.

«79-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi mutloq vakolatlariga:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

3) O'z faoliyatini tashkil etish va palatani ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) Siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratiga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

85-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

86-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi».

89-modda quyidagi tahrirda bayon etildi:

«O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir.

90-modda quyidagi tahrirda bayon etilgan: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga say-

lanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi».

97-modda quyidagi tahrirda bayon etiladi: «Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi». Istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq hayotining demokratik huquqiy asoslarini yaratish, jamiyat boshqaruvning ma'muriy – buyruqbozlik tizimiga barham berish maqsadida davlat hokimiyatini tarmoqlarga bo'linishi asosida milliy davlatchiligimizning poydevorini barpo etishga katta e'tibor qaratildi.

Konstitutsiyamizda jamiyat va davlat qurilishining asosiy tamoyillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy asoslari va strategik yo'nalishlari mustahkamlanib qo'yildi.

Haqiqiy demokratik me'yor va tartiblar asosida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslandi. Vazirlar Mahkamasi, ya'ni Hukumat ijroiya hokimiyati tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

98-modda quyidagi tahrirda bayon etildi: «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqolpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarlishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, ushbu Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O'zbekiston respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli».

Mustaqillikning o'tgan davri shuni ko'rsatdiki, Konstitutsiya mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilgan ishlarning huquqiy asosi sifatida o'zini namoyon qildi. Xalqimiz shu bois ham uni muhim hayotiy qo'llanma deb hisoblaydi. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, dini va tilidan qat'i nazar barcha fuqaro uchun mustahkam qalqon bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni, uning mohiyatini chuqurroq o'zlashtirishni hayot taqozo qila boshladi.

Shu nuqtai nazardan Prezident 2001-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida» farmoyish chiqardi. Ushbu farmoyishga asosan, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongini yuksaltirish, talaba va o'quvchi yoshlarda mustahkam bilimlarni shakllantirish talablari qo'yildi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida, maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'limning yuqori bosqichi – magistraturagacha, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishning yaxlit va izchil tizimi vujudga keldi. Ushbu tizimga fan sohasidagi doktoranturagacha bo'lgan bosqich ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi mamlakat Prezidenti bir paytning o'zida ijro etuvchi hokimiyat rahbari ham ekanini belgilaydigan normalarning o'zgartirilishi muhim siyosiy-huquqiy qadam bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat rahbari bo'lib, davlat hokimiyati organlarining o'zaro uyg'un va hamjihat faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi, hech shubhasiz, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasida asosiy va hal etuvchi rol o'ynadi.

Hozirgi sharoitda siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining ayniqsa saylov jarayonlarida xohish-iro-

dasi va fikrni ifodalash, markazda va joylarda davlat hokimiyati organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani hal etish maqsadida parlamentdagi ko'pchilik parlamentdagi muxolafat maqomini qonuniy tarzda belgilash, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarini Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari etib saylash bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralar ko'rildi.

Qabul qilingan ushbu huquqiy mexanizmlar siyosiy partiyalarning mamlakat parlamenti faoliyatini tashkil etishda, shuningdek, vakillik va ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishdagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirdi.

Xususan, Bosh vazir lavozimiga nomzod bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishining qat'iy belgilangan tartib va mexanizmining joriy etilgani davlat qurilishi sohasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasidagi fraksiyalariga Bosh vazirni iste'foga chiqarish, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlariga esa viloyat hokimlarini iste'foga chiqarish to'g'risida tashabbus bilan chiqish huquqining berilishi ham mutlaqo muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning mamlakat hayotidagi o'rni va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

Davlat hokimiyati markaziy organlarining bir qator vakolat va vazifalarini, avvalambor iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish, budjet tashkilotlarini, kommunal xo'jalik va obodonlashtirish ishlarini moliyalashtirish, odamlarni ish bilan ta'minlash va aholi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlarini mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalarga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayoni amalga oshirilmoqda.

JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH DAVRIDA SIYOSIY ISLOHOTLAR

1-§. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi

O'zbekiston tarixida birinchi marta butunlay yangi sharoitlarda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar keng qamrovli yangilanishlar amalga oshirilishi yirik tarixiy va ijtimoiy hodisa. Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar bu ishlarning eng muhimi hisoblanadi.

O'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib yosh mustaqil davlatlardagi siyosiy vaziyat shunday ediki, ular oldida ijtimoiy rivojlanishning ikki yo'li turar edi. **Birinchisi**, xalq xo'jaligini avvalgidek sotsialistik yo'nalishda rivojlantirish. **Ikkinchisi**, taraqqiyotning sotsialistik ham, kapitalistik ham emas, balki jahon amaliyoti sinovidan o'tgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli, demokratik jamiyat qurish yo'lidan borish edi.

Ma'lum bo'ldiki, tuzumning sotsialistik taraqqiyot yo'li sovet jamiyati misolida mutlaqo o'zini oqlamadi. U ma'muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan bo'lib, xalqning ijodiy, erkin mehnatiga qulay sharoit yaratmas edi. Ikkinchisi esa rivojlangan mamlakatlar sinoviga bardosh bergan, xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan yo'l edi. O'zbekiston shuni tanladi, shu yo'lning siyosiy va huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga dadillik bilan kirishdi. Shu tariqa O'zbekiston mustaqil, huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'liga kirdi, bozor iqtisodiyotiga o'tish, xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga kirish yo'lini tutdi. Prezident I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida **«Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak»**, – deb ko'rsatgan edi. Ayni chog'da siyosiy sohada bu **«...Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini davlat idoralarining tuzilishini tubdan yaxshilash, respublika hukumati hamda mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirishi mumkin»**, – deb ta'kidlagan edi. Ana shu yo'l-yo'riqlar va ko'rsatmalar asosida mamlakatda keng miqyosli ishlar amalga oshirildi.

1990-yilning 18-fevralida O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdagi yangi tarkibi saylandi. U o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq sho'ro

tuzumining qonunlari amalda edi. Mustaqil O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti endi yangi tipdagi qonunchilik tizimini taqozo etar edi. Shuning uchun ham Oliy Kengash O'zbekiston mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadam-baqadam shakllantira boshladi. 1990–1994-yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi, mamlakatimiz tarixida birinchi marta mamlakat Prezidentini sayladi, Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi, Oliy Kengashning O'zbekiston mustaqilligi haqidagi tarixiy qonunlarni, xususan, Asosiy qonun – Konstitutsiyani qabul qilganligi ham yurtimiz tarixidagi ulkan hodisalar hisoblanadi.

Oliy Kengash shu va shu kabi boshqa qonun hujjatlari bilan mamlakatda siyosiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning huquqiy asosini yaratib berdi.

Ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning o'ziga xos rivojlanish yo'lidan qat'iy borish, avvalo, O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyatlarini tashkil etishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etardi. Ma'lumki, yangi Konstitutsiyaning V bo'limi davlat hokimiyatini tashkil qilish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shu bo'limning XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», – deb mustahkamlandi.

O'zbekistonda Konstitutsiya talablari asosida izchil ravishda siyosiy islohotlar amalga oshirilar ekan, 1993-yil 28-dekabrida bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining XIV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida», 1994-yil 22-sentabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyada «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida» qonun qabul qilindi. Bular demokratik tamoyillarga asoslangan hokimiyat bo'linishining eng xalqchil va zamonaviy shakllari hisoblanadi. Ayni paytda bu sohada tub islohotlarni amalga oshirish zarurati borligini ham ko'rsatadi.

Birinchidan, shu vaqtga qadar O'zbekistonda sobiq ittifoq davrida qabul qilingan ayrim qonun va me'yoriy hujjatlar hamon amalda bo'lib, ulardan butunlay voz kechish vaqti yetgan edi. Chunki, ular mazmun va mohiyati yangilanayotgan davlat va jamiyat uchun mutlaqo mos kelmas va hatto, yangi jamiyat oldida turgan tub maqsadlarni amalga oshirishga monelik qilar edi.

Ikkinchidan, O'zbekiston o'z oldiga adolatli huquqiy demokratik davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lidan borish va insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini maqsad qilib qo'ygan edi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar, shuningdek,

milliy ozodlik harakatlari orqali mustaqillikka erishgan va taraqqiyot yo'liga kirgan boshqa qator davlatlar qonunchilik tajribasidan foydalanish lozim edi.

Uchinchidan, mustaqil taraqqiyot yo'lida vujudga kelayotgan milliy davlatchilik tizimi har qanday mafkuraviy ta'sirdan xoli, xalqning o'ziga xos tarixiy, axloqiy-ma'naviy va ruhiy qadriyatlariga mos bo'lmog'i lozim edi.

Bunday vazifani Konstitutsiyada belgilanganidek, qonun chiqaruvchi vakillik hokimiyati – Oliy Majlis uddalamog'i kerak edi. Shuning uchun ham Oliy Kengash XVI sessiyasidan (1994-yil, sentabr) so'ng O'zbekistonda yangi qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlisni shakllantirish uchun amaliy choralar ko'rila boshladi. Sessiya qaroriga muvofiq 1994-yil 25-dekabrida Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar belgilandi.

Saylov kompaniyasini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda saylov kompaniyasi qonunchilikka qat'iy rioya qilingan, ijtimoiy barqarorlik va osoyishtalik to'la saqlangan holda olib borildi. Birgina misol: 1994-yil 14-15-noyabrida Toshkentda Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari raislarining uch kunlik seminari bo'lib o'tdi. Seminar-kengashda mamlakat hayotida ham, fuqarolar hayotida ham ulkan ahamiyatga molik yangilanishlar olib kirilishi zarurligi ta'kidlandi.

O'zbekistonda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, xususan ko'p partiyalilikka asoslangan saylov kompaniyasi jahon hamjamiyatida ham katta qiziqish uyg'otdi. Shu bois yuqorida tilga olingan seminar-kengashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakili Xolid Malik, AQSHning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Genri Li Klark, Rossiya elchisi F.F.Sidorskiy, Turkiya elchisi Erdugan Aytun va boshqalar ishtirok etib, saylovga taalluqli qimmatli tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Jumladan, Xolid Malik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Okrug saylov komissiyalari raislari bilan seminar-kengash ishida uchrashish o'zi uchun yuqori martaba ekanini ta'kidladi. U seminar-kengashni tarixiy sana – saylovlar oldidan O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo qilish yo'lida oldinga bosilgan qadam bo'ladi, deb baholadi.

Saylovlarni qonun talablari asosida o'tkazish uchun mamlakat bo'yicha 250 okrug va 7192 uchastka saylov komissiyasi tuzildi. Ular tarkibiga mehnat jamoalarida obro'-e'tibor va hurmat qozongan, partiyasiz bo'lgan munosib kishilar kiritildi. Saylovni ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tkazishni ta'minlash uchun qonunda belgilangan muddatlarda tadbirlar belgilandi. 139 saylov okrugida uchtadan, 106 saylov okrugida ikkitadan nomzod ovozga qo'yildi. Saylovda ro'yxatga olingan 17 million 248 ming 464 saylovchining 93,6 foizi, ya'ni 10 million 526 ming 654 kishi o'z konstitutsion huquqidan foydalandi.

Vakillik hokimiyati organlari tomonidan Oliy Majlis deputatlariga 2 ming 850 nomzod hamda viloyatlar, Toshkent shahri kengashlarining, Qoraqalpog'iston Jo'qarg'i Kengesining deputatligiga salkam 2 ming nomzod ko'rsatildi.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari shahar va tuman kengashlari deputatligiga salkam 6 ming, siyosiy partiyalardan deputatlikka jami 6 ming 110, jumladan, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga Xalq demokratik partiyasidan 247, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 146, hokimiyatning vakillik organlaridan 250 nomzod ko'rsatildi. Hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. 1994-yil 25-dekabrida, 1995-yil 8 hamda 25-yanvarda bo'lib o'tgan saylovlarda saylovchilar xalqning munosib farzandlari uchun yakdillik bilan ovoz berdilar. Bu Oliy Majlis – yangi Parlamentni demokratik yo'l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi bo'ldi.

1995-yil 23-fevralida o'z ishini boshlagan yangi tarkibdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida o'ziga xos sahifa ochdi. Sessiyada I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi.

«Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti– Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi», – dedi Prezident.

Ko'ppartiyaviylik tamoyili asosida tashkil topganligi va shu tamoyil asosida faoliyat ko'rsatayotganligi Oliy Majlisning jamiyat taraqqiyoti keyingi bosqichidagi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Birinchi sessiyada O'zbekiston parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasini, 14 deputat ishtirokidagi «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi.

Ko'ppartiyaviylikni qaror toptirar ekan, Oliy Majlis parlamentda barcha masalalar turli blok va fraksiyalarning g'oyalari hamda fikrlarini taqqoslab ko'rish negizida hal etilajagiga, siyosiy jihatdan o'zaro murosaga kelib ishlash esa tamoyil bo'lajagiga asoslandi. Shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti joriy etildi.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun, «O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida»gi Qonun, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizom hamda parlamentning reglamentiga muvofiq parlament ishini

tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Kengashi tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarning rahbarlari kirdi.

Oliy Majlis faoliyatini zamon talablari asosida tashkil qilishga yo'naltirilgan mana shu tadbirlarning barchasi parlament ishini yanada rejali, tashkiliy jihatdan puxta uyushtirish imkonini berdi. Shuningdek, sessiyalarning kun tartibini Oliy Majlis Kengashi majlislarida oldindan muhokama qilish, sessiyalarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha deputatlar ishchi guruhlari tashkil etish tajribasi qo'mitalar va komissiyalar faoliyatini takomillashtirish va qonunlarni tayyorlash ishining sifatini oshirishga xizmat qildi.

Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida amalda qo'mitalarning butun tarkibi ishtirok etadi. Qonun loyihalarini tayyorlash bo'yicha maxsus ishchi guruhlari tuzilib, ularga tegishli loyihaga doir olimlar va mutaxassislarni kengroq jalb etish kabi xalqaro tajriba ham qo'llana boshlandi.

O'tgan davr shuni ko'rsatdiki, Oliy Majlis qabul qilayotgan qonunlar sifatini oshirishda ularning loyihalarini oldindan matbuotda chop etib, umumxalq muhokamasidan o'tkazish ijobiy samara berdi. Qonunlar loyihalarini deputatlarga oldindan yuborish tartibi joriy qilindi hamda ularning takliflari va fikr-mulohazalari har bir qonunni uzil-kesil ishlab chiqish chog'ida, albatta, e'tiborga olinadigan bo'ldi. Qonunlar loyihalarini nazariy va amaliy jihatdan yanada teranroq, puxtaroq ishlab chiqish maqsadida ular tegishli vazirliklar va idoralar, konsernlar, uyushmalar va mehnat jamoalariga yuboriladigan bo'ldi. Xalqaro tashkilotlarning ekspertizasidan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Sessiya muhokamasiga kiritiladigan barcha qonun loyihalarini Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari huzurida tegishli qo'mitalar, Kotibiyat bo'limlari rahbarlari, ishchi guruhlarining a'zolari va ekspertlar ishtirokida oldindan sinchkovlik bilan puxta va atroflicha muhokama etish qonunchilik ishidagi maqbul jihat ekanligini ko'rsatdi. Ishning bu tarzda yo'lga qo'yilishi qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatiga ijobiy ta'sir eta boshladi.

Ana shunday tadbirlar natijasida O'zbekistonni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga, yuz berayotgan yangilanish va rivojlanish jarayonlari voqeligiga, mamlakatni yanada taraqqiy ettirishning barcha ichki va tashqi vazifalariga monand qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishda deputatlarning faolligi va mas'uliyati kuchaydi.

Sessiyalar ishida O'zbekiston Prezidentining bevosita ishtiroki, uning qonunlarni ishlab chiqish jarayonini yanada takomillashtirishga muttasil

e'tibor berishi O'zbekiston parlamenti faoliyatining ko'ngildagidek bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ma'lumki, Oliy Majlisning birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» mavzuida keng qamrovli ma'ruza qilib, unda mamlakat bosib o'tgan o'zgarishlar yo'lini har tomonlama tahlil etdi va «O'zbekiston yangi asr boshida» degan uzoq muddatga mo'ljallangan Dasturni ishlab chiqish vazifasini qo'ydi va uning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Prezident keyingi sessiyalardagi nutqlarida jamiyat rivojiga doir muhim qoidalarni yanada chuqurlashtirdi va aniqlashtirdi, yangi mazmun bilan boyitdi. Jumladan, u Oliy Majlisning VI sessiyasida «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari» mavzuida nutq so'zlar ekan: **«Demokratlashtirish va turmushimizning barcha sohalarida tub islohotlar o'tkazish jarayoni uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini aniq bilib olishimiz kerak... Bugungi kunda gap, eng avvalo, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirishning vazifalari va Dasturi to'g'risida borishi kerak»**, – deb ta'kidladi. Shuning uchun ham Oliy Majlisning navbatdagi vazifasi – qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq holatga keltirish, deb uqtirdi.

Ana shu ko'rsatmalar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvning hamma organlari tomonidan katta-katta chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, Oliy Majlis Kengashi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996–1999-yillarga mo'ljallangan faoliyat dasturi» va respublika parlamenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunda belgilangan chora-tadbirlar Oliy Majlis faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab olishga, qonunchilikni yangi pog'onaga ko'tarishga qaratilgan.

O'zbekiston parlamentining birinchi sessiyasida ta'sis etilgan Oliy Majlis huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha Vakil institutining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan inson huquqlari va erkinligiga so'zsiz rioya etilishini, bu me'yorlar muqarrar amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat qilib ko'rsatildi.

Vakil huzurida tuzilgan maxsus komissiya, Inson huquqlari bo'yicha milliy Markaz Prezident nutqida aytib o'tilgan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini, yuksak vakolatlarga ega bo'lgan yaxlit tizimini vujudga keltiradi. Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti hozirga qadar xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ishlab chiqilib, – Oliy Majlis Kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bormoqda. Parlamentning yettinchi sessiyasida birinchi o'qishda kiritilgan va ma'qullangan «Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) to'g'risida»gi Qonun loyihasi – Oliy Majlisning faoliyat

Dasturida mo'ljallangan g'oyat muhim hujjatlardan biri. U mamlakatda insonning siyosiy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy huquqlari puxta himoya qilinishini ta'minlaydigan institutning qonuniy asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va uning rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish Oliy Majlisdan bu jarayonni zarur qonunlar bilan ta'minlashni talab etadi. Shunga ko'ra Dasturda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar me'yoriy rivoj topishini, markazlashtirilgan boshqaruvga asta-sekin barham berilishini, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonda va davlat ishlarida bevosita qatnashishini ta'minlovchi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish vazifasi qo'yildi.

Oliy Majlis o'zining ikki yildan ortiq faoliyati davomida yettita sessiya o'tkazdi. Ularda 70 ga yaqin qonun va 100 dan ortiq qaror qabul qildi. Bular, shubhasiz, jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim qadamlar bo'ldi. Umuman, qonunlarni ishlab chiqish bevosita iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini takomillashtirish va bozor munosabatlariga o'tishni jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, va milliy davlatchilikni mustahkamlashga qaratilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari muddatini 2000-yilga qadar uzaytirish to'g'risida referendum o'tkazish yuzasidan 1995-yil 23-fevralida qabul qilingan qaror va deputatlarning referendumga tayyorgarlik ko'rishdagi faol ishtiroki mamlakatimizdagi barcha ijtimoiy kuchlarni jipslashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur qaror mehnat jamoalari va aholining istiqomat joylarida o'tkazilgan, olti milliondan ortiq fuqaro ishtirok etgan 22 mingdan ortiq yig'ilishda qizg'in qo'llab-quvvatlanganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda sud organlari tizimini yanada takomillashtirish masalalari ham parlamentning doimiy diqqat markazida turibdi. Oliy Majlis «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilib, Konstitutsiyaviy sud Oliy va Oliy xo'jalik sudi tarkiblarini saylab, respublikada mustahkam sud tizimini vujudga keltirish jarayonini asosan nihoyasiga yetkazdi.

Parlament mamlakatning davlat milliy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni hal etishga ham doimiy e'tibor berib kelmoqda. Shu ma'noda 1995-yili qabul qilingan harbiy doktrina davlatimizning tinchliksevar tashqi siyosiy yo'lini yana bir bor namoyon etdi. U O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tibori va jahon maydonidagi mavqeini oshirdi. Oliy Majlisning 1996-yil aprel oyida bo'lib o'tgan V sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to'g'risida»gi qonun qabul qilinganligi bu borada muhim qadam bo'ldi. Oliy Majlisning VII sessiyasida (1996-yil, dekabr) qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi

tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Qonun mamlakatimizning tinchliksevar siyosatini belgilovchi, Xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan muhim hujjat hisoblanadi. U O'zbekiston Prezidenti rahbarligida mamlakatimiz tutayotgan mustaqil, odil yo'lning ifodasi sifatida jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etildi.

Oliy majlisda Mehnat kodeksi (1995) va Fuqarolik kodeksi (1996) birinchi va ikkinchi qismlarining qabul qilinishi O'zbekistonning demokratiya yo'lidan yanada dadil borayotganidan, inson huquqlarini himoya qilish va kafolatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlayotganidan dalolat edi. Bu kodekslar – fuqarolar uchun hayotiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan, mehnatga, mol-mulkka doir va boshqa muammolarning keng doirasini qamrab oluvchi murakkab, ko'p qirrali, jamlama qonun hujjatlar hisoblanadi. Bu Kodekslarning markazida inson, uning huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish masalalari turadi. Oliy Majlis qabul qilgan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonun ham shu maqsadga yo'naltirilgan.

Mazkur qonunlarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan hamda ishlab chiqarishdagi ko'p qirrali munosabatlarda insonning ustuvorligi huquq amaliyotiga singdirilgan. Qonunlar hokimiyatning barcha institutlari insonni himoya qilish, uning huquqlarini muhofaza etish va kafolatlashdan iborat asosiy maqsadga bo'ysunishi tezisini amalda ro'yobga chiqarmoqda.

Ko'ppartiyaviylik jamiyatimiz hayotida, parlamentchilikning demokratik asoslarini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli siyosiy partiyalarning huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni tayyorlanib, Oliy Majlisning 1996-yil 26-dekabrida bo'lgan VII sessiyasida qabul qilindi. Qonun jamiyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan hamda kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan siyosiy partiyalarning o'rnini belgilab, ularning o'zaro munosabatlari, yangilanayotgan jamiyatda tutgan mavqeyi, vazifalari va huquqlarini kafolatlaydi.

Oliy Majlis tomonidan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi (1995, dekabr), «Konsessiyalar to'g'risida» (1995, dekabr), «Erkin iqtisodiy zonalar» (1996, aprel) «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi iqtisodiy islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash yo'lidagi jiddiy hodisa bo'ldi. Mazkur hujjat, shuningdek, Oliy Majlisning «Ayrim korxonalar va mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba'zi masalalari

to'g'risida»gi qarori mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish ko'lamlarini kengaytirdi, bu jarayonga amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga qarashli o'rta va yirik korxonalarni ham kiritishni tezlashtirdi, monopol ishlab chiqarish va xo'jalik tuzumlarini maydalashtirish, raqobatli bozor muhitini yaratish uchun huquqiy shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Shu maqsadda «Mulk to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Garov to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi.

Oliy Majlis qo'mitalari Vazirlar Mahkamasi bilan hamkorlikda amaldagi qonun hujjatlarini ijtimoiy rivojlanish voqeligiga va iqtisodiy islohotlarning ehtiyojlariga muvofiqlashtirish borasida aniq maqsadga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirdi.

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buyuk ajdodlardan bizga asrlar osha yetib kelgan bebaho ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tabiiyki, ma'naviy merosni avaylab-asrash, uni yanada ko'paytirib, milliy va umuminsoniy madaniyatning yangi yutuqlari bilan boyitishni taqozo etadi.

Oliy Majlis «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritdi, «Davlat tili haqida»gi qonunni (1995, dekabr) yangi tahrirda qabul qildi. Til amaliyotidagi mavjud jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishni 2005-yilga borib uzil-kesil yakunlashga qaror qilindi. Qonunning yangi qoidalari davlat tilining maqomini shak-shubhasiz mustahkamlashga, respublikaning jahon kommunikatsiya tizimiga kirishiga, mamlakatning barcha fuqarolari o'zbek tilini yanada chuqur, puxta tayyorgarlik ko'rgan holda, asta-sekinlik bilan egallab olishlarini ta'minlashga, ayni chog'da O'zbekistonda g'uj bo'lib yashayotgan boshqa millatlarning o'z tillaridan erkin foydalanishiga ham qaratilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng dastlabki odimlardanoq o'z eshiklari butun dunyo uchun ochiqligini, jahon xo'jalik munosabatlariga teng huquqli sherik sifatida kirish istagini, xalqaro me'yorlar va qoidalarni ro'yobga chiqarish yo'lidagi amaliy harakatlarni kuchaytirishini e'lon qildi. 1995-yili parlament o'n sakkiz shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. O'zbekistonning yigirma besh konvensiyaga qo'shilishi haqidagi qarorlar qabul qilindi, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. U mamlakatimizning xalqaro shartnomalarni tuzish, bajarish, bekor qilish, to'xtatib qo'yish hamda denonsatsiya qilish tartibini belgilaydi.

Respublika parlamentining faoliyati jahon hamjamiyatida borgan sari keng qiziqish uyg'ota bordi. Oliy Majlis sessiyalarida diplomatiya korpuslarining, xalqaro tashkilotlarning vakillari, chet el axborot vositalarining O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan jurnalistlari qatnashmoqdalar.

Mustaqillik yillarida Oliy Majlisning xalqaro parlament tashkilotlari bilan aloqalari kengaydi va chuqurlashdi. O'zbekiston Milliy parlament guruhi tuzildi, respublikaning Parlamentlararo Ittifoqdagi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament Assambleyasidagi va Yevroparlament bilan aloqalar bo'yicha parlament guruhlarining rahbarlari tasdiqlandi. Oliy Majlis vakillari Parlamentlararo Ittifoq 93 va 94-konferensiyalarida ishtirok etdi.

Oliy Majlis Kotibiyati va uning bo'limlari ishi Oliy Majlisning Kengashi, qo'mitalari, komissiyalari faoliyatining samaradorligini oshirishga, parlament sessiyalarini puxta va tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan o'tkazishga muayyan darajada xizmat qilmoqda. Ular qo'mitalar bilan hamkorlikda, olimlar, amaliyotchilarni, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ekspertlarini jalb qilib, qonun loyihalarini tayyorlash va oldindan ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Fuqarolarning so'rovlarini ko'rib chiqish hamda fuqarolar qabulini tashkil etish masalalari ham parlament ishida muhim o'rin tutadi. Birgina 1995-yilning o'zida Oliy Majlis rahbarlari, qo'mitalar raislari va Kotibiyat xodimlari tomonidan ikki yarim mingdan ortiq fuqaro qabul qilindi. Oliy Majlis nomiga kelgan qariyb ikki ming xat, ariza va murojaat ko'rib chiqildi. Ular Oliy Majlis rahbarligida, qo'mitalar va Kotibiyatda har tamonlama tahlil etildi, taklif va mulohazalar normativ hujjatlarni ishlab chiqishda hisobga olindi. Fuqarolar tomonidan qo'yilgan asosli masalalarning aksariyat qismi ijobiy hal qilindi.

Shu tariqa, demokratik yo'l bilan saylangan Oliy Majlis – yangi parlament o'z faoliyatining ikki yili mobaynida qonun ishlab chiqish va nazorat qilish faoliyatini izchillik bilan takomillashtirdi, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarining O'zbekiston demokratik islohotlar yo'lidan yanada dadil olg'a borishida o'zaro ijobiy hamkorlik olib borishlariga yaqindan faol ko'maklashdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi shu davr mobaynida o'z faoliyati davomida mazmun mohiyati bilan avvalgi Oliy Kengashdan butunlay farq qiluvchi oliy vakillik davlat organiga aylanib bordi. **Birinchi** farq shundaki, avval ko'rganimizdek, Oliy Majlisga saylov ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazildi. Har bir saylov okrugida 2-3 nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilarga amalda ana shu nomzodlardan tanlab olish huquqi berildi. Shunday ko'ppartiyaviylik tamoyili Oliy Majlis ishida ham joriy etildi.

Ikkinchidan, Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat vakillik organlariga saylovlarni tashkil qilishda sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi.

Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o'rni va soni oldindan belgilab qo'yilar edi. Buning ustiga, Parlamentda va Mahalliy Kengashlarda vazifasi bo'yicha, albatta, deputat bo'luvchi o'rinlar ham mavjud edi. Keyingi saylovlarda bunday yondashuvdan voz kechildi.

Oliy Majlis deputatlari turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobillik asosida saylandi. Respublika fuqarolari saylovlarda, eng avvalo, nomzodlarning ijtimoiy kelib chiqishiga emas, aksincha, ularning ishchanlik va axloqiy sifatlariga, eng muhim dasturlarining mazmun-mohiyatiga katta e'tibor berdilar.

Uchinchidan, Parlamentning kuchi deputatlarning o'z saylovchilari bilan kundalik munosabatida, yaqin muloqotida ekanligidan kelib chiqib, Oliy Majlis saylovchilar bilan uzviy aloqada bo'ldi. Avvalgi Parlamentda bu masalaga uncha e'tibor berilmagan edi. Hayot shuni ko'rsatdiki, saylovchilar Oliy Majlisda qanday qonunlar muhokama qilinayotgani va qabul etilayotganidan xabardor bo'lib turishi, deputat esa hayotning eng dolzarb, qaynoq nuqtalarida aholi bilan birga bo'lishi kerak. Shuning uchun ham muhim davlat ahamiyatiga ega masalalar muhokama qilinayotganda Oliy Majlis deputatlari o'z saylovchilari huzurida bo'ldilar. Masalan, 1996-yil 25-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashi «Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 1996-yil 15-martidagi qarori to'g'risida»gi masalani ko'rib, unga o'z munosabatini bildirdi va: «Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 1996-yil 15-martida qabul qilgan sobiq SSSRni qayta tiklashga qaratilgan qarori muhokamaga loyiq emas», «Davlatlar ustida turuvchi har qanday tuzilmalar tashkil qilishni nazarda tutadigan integratsiya jarayoni O'zbekiston uchun maqbul bo'la olmaydi», – deb qaror qabul qildi.

Mana shunday o'ta dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining qarorini saylovchilarga tushuntirish uchun har bir deputat o'z okrugida bo'ldi, mehnatkashlar bilan uchrashdi, ularning fikr-mulohazalarini o'rgandi. Xalqning Rossiya davlat Dumasi qaroriga munosabati shunday bo'ldiki, O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyot yo'lidan, dono Prezidenti I.Karimov rahnamoligida dadil, sobitqadamlik bilan bormoqda, uning mustaqillik yo'lidagi ishlariga hech kim to'siq bo'lmasligi, biron-bir tashqi yoki boshqa kuch xalaqit bermasligi kerak.

Oliy Majlis faoliyatidagi mana shunday izchillik, yangilik, shubhasiz, xalqning huquqiy madaniyatini o'stirish, demokratik ongini yuksaltirish

imkonini bera boshladi, islohotlarning izchil va sobitqadamlik bilan amalga oshishiga hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qila bordi.

Oliy Majlis faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri Davlat mukofotlarini ta'sis etish bo'ldi. Ma'lumki, har bir mustaqil davlatning o'ziga xos davlat ramzlari bo'lganidek, uning o'ziga mos mukofotlari ham bo'lishi lozim. Shuning uchun 1995-yil 22-dekabrida birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida «Davlat mukofotlari to'g'risida» qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra, respublika fuqarolari mehnat va jangovar xizmatlari, samarali, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlanadigan bo'ldilar. Ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi uchun xizmat ko'rsatgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlanishlari mumkin. Davlat mukofotlari Oliy Majlis tomonidan ta'sis etiladi. Mukofotlarga doir nizomlar va ularning tavsiflari Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Davlat mukofotlari bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti taqdirlaydi. Davlat mukofotlari guvohnomalarining namunalari, mukofotlarga taqdim etish va ularni topshirish tartibi ham Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

Bir shaxs ayni bir orden, medal yoki Faxriy yorliq bilan, qoida tariqasida, bir marta taqdirlanadi. Faxriy unvonlar takroran berilmaydi.

Shaxslarni vafotidan keyin ham davlat mukofotlari bilan taqdirlash mumkin. Fuqarolar navbatdagi mukofotga avval mukofot bilan taqdirlangan vaqtidan keyin kamida 3 yil o'tganidan keyin taqdim etiladilar. Favqulodda hollarda fuqarolar avval taqdirlangan vaqtidan qat'i nazar navbatdagi mukofotga taqdim etiladi.

Davlat mukofotlarining nishonlarini taqib yurish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mukofotlar bilan taqdirlangan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlardan foydalanadilar hamda pul mukofotini oladilar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida Oliy darajadagi mukofot sifatida 1994-yil may oyida «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali ta'sis etildi.

Ayni chog'da O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida faollik ko'rsatgan fuqarolar «Mustaqillik», «Amur Temur», «Buyuk xizmatlari uchun», «El-yurt hurmati», I-II darajali «Sog'lom avlod uchun», «Mehnat shuhrati», I-II darajali «Shon-sharaf» va «Do'stlik» ordenlari bilan, «Jasorat» hamda «Shuhrat» medallari bilan mukofotlanadigan bo'ldilar.

Shuningdek, quyidagi faxriy unvonlar ham ta'sis etildi:

«O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi»,

«O'zbekiston Respublikasi fan arbobi»,

«O'zbekiston Respublikasi xalq artisti»,

«O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi»,

«O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi»,
«O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri»,
«O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi»,
«O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi»,
«O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi»,
«O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi»,
«O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi»,
«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi» va boshqalar.

Bundan tashqari 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularning adabiyot, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi hamda jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlarini munosib taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi maxsus farmoni bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulida qabul qilingan «Bayram kunlari haqida»gi Qonunga va O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi 1995-yil 21-dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksini 131-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram (dam olish) kunlari deb belgilandi:

1 yanvar – **Yangi yil.**

8 mart – **Xalqaro xotin-qizlar kuni.**

21 mart – **Navro'z bayrami.**

9 may – **Xotira va qadrlash kuni.**

1 sentabr – **Mustaqillik kuni.**

1 oktabr – **O'qituvchilar va murabbiylar kuni.**

8 dekabr – **Konstitutsiya kuni.**

Ro'za Hayiti (Iyd al-Fitr) – Diniy bayramning birinchi kuni.

Qurbon Hayiti (Iyd al-Adha) – Diniy bayramning birinchi kuni.

Ko'ppartiyaviylik negizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlatimizning jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilish strategiyasidan kelib chiqib, demokratik o'zgarishlarning huquqiy bazasini izchillik bilan mustahkamlay bordi. Shunday qilib Oliy Majlisning 1995–1999-yillarda 15 ta sessiyasi bo'lib, ularda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 460 dan ortiq qaror qabul qilindi, amaldagi deyarli barcha qonun hujjatlarining qo'llanish amaliyoti o'rganildi, qonunlarga 200 dan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni tezlashtirish tarafdori ekanligini tasdiqlab, parlament 95 ta xalqaro bitim va shartnomani ratifikatsiya qildi, 43 ta xalqaro konvensiyaga qo'shilish to'g'risida qaror qabul qildi.

Chaqiriq mobaynida Oliy Majlisning xalqaro aloqalari anchagina kengaydi, parlamentlarda delegatsiyalarining almashinuvi o'sdi. O'zbekistonga 200 dan ortiq chet el delegatsiyasi, shu jumladan Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Rossiya, AQSH, Turkiya, Xitoy, Shveysariya, Yaponiya va boshqa qator mamlakatlarning delegatsiyalari tashrif buyurdi.

O'zbekiston parlamentida Germaniya, Turkiya, Latviya, Pokiston, Italiya, Vengriya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldova va Bolgariya davlatlarining boshliqlari, Litva, Ukraina, Qozog'iston, Turkiya va Belgiya hukumatlarining rahbarlari, Gruziya, Latviya, Rossiya Federatsiyasi parlamentlarining spikerlari, shuningdek, Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarining 50 dan ortiq mamlakatlaridan taniqli jamoat va siyosat arboblari qabul qilindi.

Oliy Majlis deputatlari xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda qatnashdilar, Oliy Majlis delegatsiyalari 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan Germaniya, Daniya, Hindiston, Polsha,

AQSH, Fransiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarning parlamentlari ishi bilan tanishdilar.

Chaqiriq mobaynida parlamentda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish yuzasidan katta ish olib borildi. Hisobot davrida Oliy Majlisga jami 18 mingdan ortiq ariza va shikoyatlar tushdi. Chaqiriq mobaynida e'lon qilingan har bir qonun loyihasi yuzasidan 500 tadan 2000 ga qadar taklif kelib tushdi va ular o'rganib chiqildi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputatlar saylandi. Saylangan deputatlardan O'zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi. Ma'lumki, jahon miqyosida qaror topgan xalqaro andozalarga ko'ra, Parlamentda o'rin olish uchun kurash olib borgan siyosiy partiyalar va boshqa manfaatdor tashkilotlar saylovlardan so'ng mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organida o'z g'oyalari hamda maqsadlarini ifoda etuvchi va yoqlovchi deputatlik fraksiyalarini tuzadilar.

2000-yil 11-yanvar kuni bir qator siyosiy partiyalardan saylangan deputatlar o'z yig'ilishlarini o'tkazdilar.

Markaziy saylov komissiyasi raisi N.Komilov boshqarib borgan bu yig'ilishlarda siyosiy partiyalarning Oliy Majlisdagi deputatlik fraksiyalarini tuzish va ularning rahbarlarini saylash masalalari ko'rib chiqildi.

O'n bir kishidan iborat «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasiga deputat T.Daminov, yigirma kishidan iborat «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasiga deputat A.Tursunov, o'n kishidan iborat «Milliy tiklanish» partiyasi fraksiyasiga deputat I.G'afurov, o'ttiz to'rt kishidan iborat «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi fraksiyasiga deputat E.Norbo'tayev rahbar etib saylandi.

2000-yil 11-fevral kuni Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. 25-26-may kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyada «Vatan taraqqiyoti» MD partiyasi va Fidokorlar partiyasi fraksiyalari birlashtirildi, fraksiya raisi etib esa A.Tursunov tasdiqlandi.

O'zbekiston XXI asrga jamiyat rivojida tez sur'atlar bilan o'zgarishlar yuz berayotgan, odamlarning siyosiy ongi va dunyoqarashi o'sib borayotgan, mamlakatimiz jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olib borayotgan davrda qadam qo'ydi.

Mana shu jarayonlarni chuqur tahlil qilgan davlatimiz rahbari 2000-yil II chaqiriq Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasida qilgan «O'zgarish va yangilanish – hayot talabi» nomli ma'ruzasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. Bu mamlakatimizda demokratik islohotlarni bosqichma - bosqich amalga oshirish tamoyiliga to'la mos edi.

Shu bois ham 2001-yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasi

muhokama qilindi va buning uchun zarur omillar – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanganligini, shuningdek, ko'ppartiyaviylik tizimi qaror topganligini hisobga olib mamlakatda ikki palatali parlament tuzish zarur, degan xulosaga keldi. Oliy Majlisning yettinchi sessiyasi 2002-yil 27-yanvar kuni keyingi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Referendumda ovoz berish byulleteniga «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan savol kiritildi.

Referendum 2002-yil 27-yanvar kuni demokratik asosda, ochiq va oshkora, keng jamoatchilik vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 13266602 nafar fuqarolarning 12113070 nafari yoki 91,58 foizi ishtirok etdi.

«Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan masala yuzasidan ovoz berishda qatnashganlarning 11344242 nafari yoki 93,65 foizi yoqlab ovoz berdi.Saylovchilar ikki palatali parlament tuzish masalasini qo'llab - quvvatladilar.

Referendum yakunlari xalqimizning, bir tomondan, damokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat O'zbekiston yo'lini qo'llab - quvvatlayotganini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, islohotlarni izchil va qat'iylik bilan davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni katta umid bilan kutayotganligini bildirdi.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonun va «2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organi – parlamentining nomi Oliy Majlis deb atalaveradi. Uning tarkibida ikki palata tuziladi. Quyi palata – qonunchilik palatasi, yuqori palata – Senat deb ataladi. Biroq ikki palatali parlament darhol tuzilmaydi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi bir palatali parlament sifatida u saylangan muddatda 2000–2004-yillarda faoliyat yuritadi. Natijada ikki palatali parlament 2004-yilning dekabr oyida o'tkaziladigan saylovlar asosida shakllantiriladi. Quyi palataga 120 deputat saylandi. Senat 100 ta

senatordan iborat bo'ldi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan, jami 84 kishi saylandi. Prezident tomonidan tayinlanadigan 16 nafar el-yurtda obro' - e'tibor qozongan kishilar Senatning a'zosi bo'lishadi. Bu mamlakatimizda milliy davlatchiligimiz taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganini bildirar edi.

2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari I.A.Karimov **«Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir»,** degan mavzuda ma'ruza qildi va O'zbekistonning bundan buyon mustaqil, o'ziga mos va xos taraqqiyot yo'lidan borishi bilan bog'liq ham nazariy, ham amaliy yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib berdi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz rahbari ushbu ma'ruzasida 2004-yil dekabr oyida o'tkazilgan saylovlar yakuni bo'yicha o'z xulosalarini bildirar ekan, jamiyat hayotini isloh qilish tizimining bugungi holatiga alohida e'tibor qaratib, **«mamlakatimizning demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tuzumga xos bo'lgan barcha asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi bosqichma-bosqich, izchil harakati hozirgi kunda hech qanday kuch to'xtata olmaydigan muqarrar, qonuniy jarayonga aylandi»,** – deya baho berdi.

Darhaqiqat, istiqlolning o'tgan davri mobaynida mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilib kelinayotgan jamiyat hayotini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo qilish, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy hayotni tubdan yangilash jarayonlarining tadrijiy rivojlanishi bugungi kunda o'zining shunday bir bosqichiga erishdiki, endilikda bu jarayonga ta'sir ko'rsatish tom ma'noda faqat shu jamiyat a'zolari, ya'ni O'zbekiston xalqi xohish-istagi orqaligina amalga oshishi mumkin. Buni O'zbekistonning o'tgan davri tarixida qo'lga kiritilgan natijalar yaqqol isbotlaydi.

O'tish davri va milliy davlatchilikni barpo etish sharoitida obyektiv zarurat bo'lgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tishga erishish ushbu davrda davlat tizimini isloh etishning asosiy va hal qiluvchi vazifasi bo'lishi darkor. Bu davrda davlat va jamiyat qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar natijasida mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentga aylantirildi.

Bu boradagi asosiy vazifa quyi palata – Qonunchilik palatasini muntazam faoliyat ko'rsatadigan professional organga aylantirish, yuqori palata – Senatni hududlar manfaatlarini ifoda qiladigan vakillik organi sifatida shakllantirishdan iborat edi. Shu tariqa qabul qilinayotgan qonun

hujjatlarining sifatli va asosli bo'lishiga erishish bilan bir qatorda, o'zaro mutanosiblik va muvozanatni saqlash bo'yicha samarali tizimi yaratilmoqda, umumdavlat va hududlar manfaatlarining o'zaro muvozanati ta'minlanmoqda, aholining mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish imkoni tug'ilmoqda.

Ikki palatali parlamentimizning huquq va vakolatlarini kengaytirish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi vakolatlarning yanada muvofiqlashuvini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etishda Prezident vakolatlarining bir qismini yuqori palata – Senatga o'tkazish, shuningdek, Bosh vazir huquq va vakolatlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etdi.

2-§. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv, o'sha davlat konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, uning tub maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Buni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi ijtimoiy hayot ham taqozo qila boshladi.

1991-yil sentabr oyidayoq Prezident I.A.Karimov: **«Biz O'zbekiston davlati milliy siyosatining aslida barcha yo'nalishlarini va strategiyasini qamrab oluvchi keng ko'lamdagi va istiqbolga mo'ljallangan dasturini ishlab chiqdik va amalga oshira boshladik. Bu siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri boshqarishning demokratik shakliga, umuminsoniy qadriyatlariga asoslanuvchi real mustaqil milliy davlatchilikni qaror toptirish»,** – deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 89-moddasida qayd qilinganidek, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir».

Konstitutsiyada ko'zda tutilganidek, O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati oliy idoralari tizimiga respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi.

Ma'lumki, O'zbekiston Prezidenti lavozimining ta'sis etilishi 1985-yil aprelida sobiq Ittifoqda boshlangan qayta qurish jarayonlari bilan, ayniqsa, 1988-89-yillardayoq avj olib ketgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan bog'liq.

Shu yillarda «yuqori»ning ko'rsatmalariga o'rganib qolgan markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari qayta qurish jarayonida avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik ish uslubi uchun qattiq tanqidga uchradi, ular yangi

sharoitga mos ish uslubini topishga qiynaldilar. Natijada davlat hokimiyati birmuncha kuchsizlandi. Belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy rejalar bajarilmay qolaverdi. Ishlab chiqarishga davlat rahbarligi bo'shashib, xalqning moddiy va madaniy turmush darajasi tobora pasaya bordi. Qonunlar va hukumat hujjatlarining ijrosi ustidan nazorat kamaydi. Xullas, mamlakatda boshboshdoqlik xavfi orta borib, davlat hokimiyatini markazda ham, joylarda ham kuchaytirishga jiddiy ehtiyoj tug'ildi. 1990-yillar boshlarida iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda ijtimoiy va milliy muammolar ham kuchaydi, boshqacha qilib aytganda «markazdan qochirma kuchlar» faollashdi, natijada qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatini birlashtiruvchi, ularning jamiyat uchun nafini oshiruvchi yangi institutga ehtiyoj tobora sezila bordi.

Bu ehtiyoj 1990-yil mart oyida SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi Syezdida atroflicha muhokama qilindi va SSSR Konstitutsiyasiga SSR Ittifoqi Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda uning vakolatlarini belgilash haqida muayyan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'shanda ba'zilarda ushbu lavozimning joriy etilishi yakka shaxsning diktaturasini keltirib chiqarishi mumkin, degan xavf va cho'chishlar ham mavjud edi. Hatto, unga ko'r-ko'rona qarshi chiqqanlar ham bo'ldi. Masalan, o'sha syezdda xalq deputati Y.N.Afanasyev «Regionlararo deputatlar gruppasining a'zolari prezidentlik lavozimining joriy etilishiga salbiy munosabat bildirdilar va syezdda Prezident saylanishiga qat'iy qarshi chiqmoqdalar», – dedi.

Ittifoq Konstitutsiyasiga SSSR Prezidentining huquqiy maqomini belgilash yuzasidan kiritilgan qoidalarda bu lavozimning demokratik tabiatini belgilash yuzasidan qator kafolatlar ham mustahkamlab qo'yildi. Jumladan: Prezidentning xalq tomonidan saylab qo'yilishi, uning ko'pi bilan ikki muddatga saylanishi, qonun chiqaruvchi idora nazorati ostida bo'lishi va vaqti-vaqti bilan ichki hamda tashqi ahvol haqida unga axborot berib turishi, Prezident vakolatlarining Konstitutsiya va qonunlar bilan aniq belgilanishi, uning qoshida maxsus kengashning mavjud bo'lishi va boshqalar ko'zda tutildi. Bu kafolatlar Prezident yakka hokimligining kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun muhim vositalar bo'ladi, deb hisoblandi. Albatta, sobiq mamlakatda prezidentlik lavozimining kelib chiqishi haqida bayon etilgan yuqoridagi fikrlar O'zbekistonda shu institutning vujudga kelishiga ham bevosita va to'liq taalluqli.

Ma'lumki, 1990-yil 24-martida O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra respublikada Prezident lavozimi ta'sis qilindi. Bunda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni

chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarining o'zaro aloqasini takomillashtirish ko'zda tutildi. Shu munosabat bilan respublika Konstitutsiyasi respublika Prezidenti haqidagi yangi — 12-bob bilan to'ldirildi.

Ushbu bobda Prezidentlik boshqaruvi ta'sis etilishiga bog'liq quyidagi qoidalar belgilandi.

Dastlabki konstitutsion qoidada Prezident faoliyatining demokratik taomillari ko'rsatib berildi. Uning huzurida Prezidentlik Kengashi ishlaydi. Kengashning vazifasi davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash choralarini ishlab chiqishdan iborat edi. Kengash tarkibiga Vazirlar Kengashi Raisi ham kiradi, uning ishida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Oliy Kengashlarining Raislari ham qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Prezident Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish yuzasidan farmonlar chiqaradi. O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar orttirilishi bilan Prezidentlik boshqaruvi tobora takomillasha boradi. Jumladan, 1990—1992-yillarda Prezidentlik Hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib Vazirlar Kengashi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. 1990-yil 15-noyabrida Prezident I.Karimov «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Farmon chiqardi.

Prezidentning ushbu farmoni asosida dehqonchilik sanoati, xalq iste'moli mollari, qurilish-naqliyot, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, umumiqtisodiyot, moddiy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi. Prezident ayni bir paytda Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lib qoldi. Shunday qilib, Prezident ikkinchi bosqichda respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi va ayni bir paytda davlat boshlig'i ham hisoblandi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qarorlar va farmoyishlar ham qabul etadigan bo'ldi.

Vitse-Prezident lavozimi ham ta'sis etilib, u Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi, uning ishini uyushtiruvchi shaxsga aylangan edi. Biroq, ikkinchi bosqichda joriy etilgan Vitse-Prezident lavozimi o'zini oqlamadi. Shu boisdan 1992-yil 4-yanvardagi Qonun bilan u tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri lavozimi ta'sis etildi. U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi, deb belgilandi. Prezident ayni paytda Vazirlar Mahkamasiga Rais hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-

moddasi birinchi qismiga quyidagi qoida kiritildi. «O'zbekiston Respublikasining hukumati Bosh Vazirdan, Bosh Vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlaridan, mamlakat vazirlaridan, davlat qo'mitalarining raislaridan, yirik konsernlarning va birlashmalarning rahbarlaridan iborat bo'ladi».

O'zbekistonda prezidentlik institutining yuzaga kelishi va takomillashuvida 1991-yil 18-noyabrida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda fuqarolarning shu sohadagi saylov huquqi, saylovni o'tkazish, prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish va ularni ro'yxatga olish, ovoz berish va saylov yakunlarini chiqarish tartibi o'z ifodasini topdi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining yanada takomillashuvida «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki yangi Asosiy Qonunga muvofiq, Prezidentning huquqiy maqomi yanada takomillashdi va ma'lum darajada kengaydi. Chunonchi, Prezident lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekistonda muqim yashagan respublika fuqarosi saylanishi mumkin, deb belgilandi.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda siyosiy partiyaga a'zoligini to'xtatib turadi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, deb ko'rsatildi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, Prezident vakolatlarining kengaytirilishi O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi tufayli sodir bo'ldi. Yangi Konstitutsiyada belgilab qo'yildiki, Prezident mustaqil davlat rahbari sifatida muzokaralar olib boradi va respublika shartnomalarini imzolaydi, ularning bajarilishini ta'minlaydi, o'z huzuridagi akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillarining ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi, viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi, lavozimidan ozod etadi, o'z vakolatiga berilgan boshqa ichki va tashqi siyosatga doir masalalarni hal qiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi, fuqarolarni himoya qiluvchi oliy darajadagi ijroiya hokimiyati vujudga keltirildi, milliy davlatchilikda jahon tan olgan o'ziga xos tajriba to'plandi.

Ma'lumki, I.A.Karimov milliy davlatchilikni shakllantirishga doir barcha nutq va asarlarida kuchli ijroiya hokimiyatining jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlar, yangicha tafakkur, tashabbus va islohotchilik faoliyatini o'tmish illatlaridan, boqimandalik, tekinxo'rlik kasalligidan asrash, qonunning to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash zarurati deb, hisoblaydi. Shuning uchun ham u «Ozodlik» radiostansiyasi muxbiri

bilan suhbatda: «**Har qanday qonun faqat ijro qilingan taqdirdagina qonundir. Qonunning amalda ishlashi uchun esa unga yordamchi aktlar tuzish, eng asosiysi esa, uni hayotga tatbiq etish kerak. Chunki hayotimizda parokandalik, tushunmovchilik va hatto, ushbu parokandalik va xaosni qo'llab-quvvatlab, loyqalatilgan suvdan o'z manfaatiga mos ko'p narsalarni olishni ko'zlovchi juda ko'p kuchlar mavjud.**

Endi siz ayting-chi, kuchli bo'lmagan hokimiyat qonunlarning, ba'zida unchalik ommalashmagan qonunlarning hayotga tatbiq qilinishini ta'minlashi mumkinmi? Axir, qonun xo'jalik iqtisodiy sohasiga tatbiq qilinishidan ilgari odamlarning ongiga yetib borishi shart emasmi? Faqat hayotning o'zigina odamlar tafakkurini o'zgartirishi mumkin. Biz bu bosqichni bosib o'tishimiz kerak. Bunday davrda agar muhim yo'nalishlarni belgilab beruvchi, fuqarolarni himoya qiluvchi, oddiy odamlar va ularning bolalarini himoya qiluvchi, ularning eng muhim kafolat — mehnat kafolati bilan ta'minlaydigan kuchli hokimiyat bo'lmasa qanaqasiga inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash haqida gap bo'lishi mumkin», — deb ta'kidlagan edi.

Mavzuga doir material

O'zbekistonning maqsadlari va ustunliklari

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida zimmasiga quyidagi maqsadlar va ustunliklar haqida majburiyat oldi:

– insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini ta'minlash, madaniyatlarning xilma-xilligini hurmat qilish, etnik va diniy negizdagi biron-bir ziddiyatga yo'l qo'ymaslik;

– tinchlik va o'z fuqarolari xavfsizligi manfaatlarini, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni har qanday boshqa – iqtisodiy, mafkuraviy, siyosiy manfaatlardan yuqori qo'yish;

– odamning yashash muhiti sifatida atrof-muhit holatini saqlash va yaxshilashga alohida ahamiyat berish. Mamlakat bundan keyin ham eng mushkul ulkan ekologik muammolaridan biri – qurib borayotgan Orol dengizi muammosini hal etishga katta miqdordagi mablag'lar ajrataveradi;

– fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyati, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga, kasb tanlashga va o'z mehnati bilan qatnashishga kafolatli konstitutsion huquqlarni ta'minlash;

– aholi salomatligini saqlash, umumiy o'rta ta'limni ta'minlash, oliy kasb ma'lumotini oshirishda faol ishtirok etish, jamiyatning ta'limiy va intellektual potensialini oshirish uchun sharoitlar yaratish;

– bozorga o'tish davrida va shundan keyingi davrlarda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha oldindan ko'riladigan choralar shaklidagi kuchli ijtimoiy siyosatni ta'minlash;

– o'zbek xalqining fuqarolarning ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organlari – mahalla yig'inlarini jalb etish shaklidagi odamlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi bo'yicha asriy an'analarini tiklash.

* * *

Ayrim muxoliflarimiz Prezident Islom Karimovni yakkahokimlikda, boshqaruv idoralarining asosiy bo'g'inlarini o'z vakolatiga olganlikda ayblashardi va dalil sifatida uning mamlakat Prezidenti va ayni paytda Vazirlar Mahkamasining raisi ham ekanligini vaj qilib ko'rsatishardi.

Prezidentlik – respublika boshqaruvida eng muhimi – hokimiyat bo'linishini adolatli tarzda amalga oshirish imkoni bor. Ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati bir-biriga daxlsiz holda ish olib boradi. Prezidentlik – respublika boshqaruvida ijro hokimiyati Prezident qo'lida bo'ladi. Bu usul imkoniyatlarini dunyo tan olgan.

Haqli savol tug'iladi: nima uchun Prezident Islom Karimov boshqaruvning ayni shu usulini tanladi? Masalaning ikki jihati bor:

Birinchidan, Sharqda azaldan davlat demokratiyaga qanchalik keng imkoniyat yaratib bergan bo'lmasin, kuchli hokimiyat mavjud bo'lgan. Eng ulug' va adolatpesha davlat boshlig'i qat'iyatli, talabchan va, ayni paytda, mehr-muruvvatli bo'lishi bilan hammaga o'rnak bo'lgan, hamisha tinchlik, adolat va haqiqatga xizmat qilgan. Aks holda har qanday hokimiyat anarxiyaga aylanib ketishi hech gap emas.

Ikkinchidan, boshqaruvning parlamentar – respublika usulida Prezident parlament yig'ilishida uning a'zolari tomonidan saylanadi. Prezidentlik – respublika boshqaruvida esa u umumxalq saylovi yo'li bilan barcha fuqarolarning ovoz berishi asosida saylanadi. Bunda Prezident o'z vakolatini parlamentning sanoqli a'zolaridangina emas, keng xalq ommasidan oladi. Qolaversa, buning siyosiy, huquqiy, ma'naviy va demokratik mazmuni ham bor.

Umuman olganda, jamiyatni boshqarishda davlat boshliqlarini saylash tartibi ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Parlamentar – respublika boshqaruvi shaklidagi davlatda Prezident parlament ovozi bilan saylanadi. Prezidentlik – Respublika boshqaruvi shaklidagi mamlakat prezidenti esa parlament ishtirokisiz bevosita xalq tomonidan saylanadi, u o'z vakolatlarini xalqdan olgan hisoblanadi. Hozirgi zamon davlatchiligi tajribasiga tayanib shuni alohida ta'kidlash mumkinki, boshqaruvning

Prezidentlik – respublika shakli davlat boshqaruvining eng maqbul shaklidir.

Darhaqiqat, tarixiy tajriba, yon atrofimizda yuz berayotgan turli xildagi bo'hronlar, ayrim mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tahlikali tus olishi shundan dalolat bermoqda.

Prezident Islom Karimov ishlab chiqqan mashhur besh tamoyilning biri – o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lib qolishi zarurligining mohiyati shunday paytda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ijro hokimiyati bilan davlatning jilovi bir kishining qo'lida bo'lgan taqdirda va uni parlament qonun bilan himoyalab turgan bir sharoitda mamlakatda sog'lom ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy vaziyat barqaror bo'ladi. Demak, tub islohotlarning samaradorligi, har bir fuqaro hayoti va istiqboli kafolatlangan hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, keyingi yillarda davlat boshqaruvining parlamentar – respublika va monarxiya shakli o'rnatilgan mamlakatlarda ham hukumat – oliy ijro idorasi asosiy o'rinni egallamoqda. Masalan, Olmoniya, Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ana shunday hodisa yuz bermoqda.

Umuman olganda, Prezident Islom Karimov faoliyatidagi qat'iylik, qat'iy intizom, yuksak talabchanlik ulkan mas'uliyatni chuqur his etish ifodasidir. Buni «Комсомольская правда» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, u **«Muxoliflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman: ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonalari bordir. Ammo, men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa, bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida, har holda kuchli hokimiyat zarur. Qon to'kilishiga va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolar totuvligi, tinchligi va barqarorlikni saqlash uchun shunday bo'lishi zarur. Bu yo'lda men jonimni fido qilishga tayyorman»,** deya o'z nuqtayi nazarini ochiq-oydin bayon etgan edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston davlatchiligida qat'iy intizom bor. Uni nazorat qilib boruvchi Konstitutsiyaviy sud mavjud. Dastlab mamlakatda Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tashkil etildi. Ma'lum muddat o'tgach bu qo'mita Konstitutsiyaviy sudga aylantirildi. Chunki, nazorat qo'mitasining mazmun-mohiyatida voqea-hodisalarni ko'zdan kechirib qo'yish, ularga nazar solib turish ma'nosi yotadi. Sudda esa qat'iy talab va hukm mavjud. Bunda talab ham, mas'uliyat ham oshadi.

Ijro hokimiyati haqida gapirganda yana shuni ham ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida ilgarigi ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini boshqaradigan avvalgi vazirlik va idoralar

bekor qilindi. Ular bozor munosabatlariga muvofiq holda korporatsiyalar, konsernlar, assotsiatsiyalar va davlat tasarrufida bo'lmagan xo'jalik yurituvchi boshqa idoralarga aylantirildi.

Bu o'rinda umumdavlat ahamiyatiga molik strategik vazifalarni hal etish, rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish, o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun turdosh tarmoqlarni yirik xalq xo'jaligi komplekslariga aylantirish tajribasidan foydalanildi. Shuning uchun ham yangi hukumat tarkibiga Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi va shu kabi boshqa faoliyati asosan aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashga, ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirishga, tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashga yo'naltirilgan vazirliklar va davlat qo'mitalari kiritildi.

Albatta, bozor munosabatlariga o'tish davrida boshqaruv tizimida bunday islohotni taqozo etgan o'ziga xos omillari bor edi.

Birinchidan, yangi jamiyatga o'tishda boshqaruv tizimida jiddiy buzilishlarga yo'l qo'ymasdan, MDHga a'zo ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, iqtisodiyotni boshqarishning real dastaklarini qo'ldan chiqarib yubormaslik kerak edi. Chunki yangi tuzilayotgan idoralar tajribaga va bozor sharoitlarida o'zini o'zi boshqarish mexanizmiga ega edi.

Ikkinchidan, o'tish davrida yetuk bozor munosabatlari va mexanizmlari ham uzil-kesil shakllanmagan edi. Shuning uchun bozor munosabatlari tarkib topgan va bu yo'nalishda endigina qadamlar tashlayotgan mamlakatlardagi boshqaruvni tashkil etishning turli tizimlari o'rganildi. Shu asnoda butun xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi sharoitlarga mos tuzilmalari topildi. Buning mohiyati ishlab chiqarishning markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va tashkil etishdan moliyani, moddiy xomashyo boyliklarini davlat tomonidan boshqarish tizimidan voz kechishni bildirar edi.

Yana shuni aytish kerakki, O'zbekistondagi boshqaruvni izchil, bosqichma-bosqich tashkil etish modeli keng jamoatchilik tomonidan ma'qul deb hisoblandi.

1991-yil 6-sentabrida respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi brigadasini ham barpo etish lozim topildi. 1992-yil iyulidan u Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

Mudofaa tizimidagi bunday o'zgartirishlarning sababi nimada?

Buni shunday izohlash mumkin: mamlakat mustaqilligining dastlabki (Farmon oltinchi kundayoq e'lon qilindi) kunlaridanoq uning mudofaasini ta'minlashga kirishish, SSSRning jazavasi tutgan, o'zining so'nggi nafasini olayotgan bir paytida uning dunyoni zir titratgan qurolli kuchlari tarkibidan asta-sekinlik bilan, shovqin ko'tarmasdan chiqib olish uchun avval Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish zarur edi. Chunki, Mudofaa vazirligi iborasida aniq maqsad va qat'iy harakat mazmuni bor. Shuning uchun dastlab shunchaki mudofaa ishlari bilan shug'ullanuvchi mahkama tuzilganini ma'lum qilish, so'ng esa haqiqiy maqsadga bexavotir intilish kerak edi.

Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etilganidan so'ng milliy gvardiya brigadasi tuzildi. Bu strategik maqsadga erishish yo'lidagi taktika edi. Bir hovuchgina sanoqli askarlar brigadasini tuzishdan hech kim shubhaga bormas va unga monelik qilmas edi. Milliy gvardiya, aytish mumkinki, har tomonlama qurollangan, huquqiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlangan milliy armiyaning debochasidir.

Ana shunday murakkab, ziddiyatli va, hatto, tahlikali bir sharoitda O'zbekiston Mudofaa vazirligi va uning qurolli kuchlari tizimi vujudga keldi.

O'zbekistonda Adliya idoralarining mavqeyi va mas'uliyatini oshirish, aholiga huquqiy xizmatni yaxshilash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish tadbirlari belgilandi. Vazirlik mamlakatda huquqqa doir siyosatni o'tkazishda davlat idoralarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, boshqa markaziy idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi hamda uning fuqarolari huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar qilindi. Mamlakatda 1990-yil dekabrida Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yilda shu komissiya negizida Vazirlar Mahkamasi huzurida respublikaning Taraqqiyot istiqbolini belgilash qo'mitasi tashkil etildi, uning avvalgi vazifalari yanada kengaytirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi va joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. Qo'mita vazifalariga O'zbekistonni taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlari va tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasini ishlab chiqish, aholi moddiy farovonligini oshirish va uni ijtimoiy muhofaza etish, yagona statistika siyosatini o'tkazish kabilar kiritildi.

1997-yildan ushbu Qo'mita Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi. O'zbekistonda moliya idoralarini boshqarish tashkiliy tuzilmasini va narx

belgilash tizimini takomillashtirish tadbirlari belgilandi. Shu boisdan narxlarga doir davlat siyosatini o'tkazish vazifalari Moliya vazirligiga topshirilib, u Davlat narxlar qo'mitasi bilan birlashtirildi.

Xalq xo'jaligini xomashyo, yoqilg'i va boshqa moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga ham jiddiy e'tibor berildi. Bu sohaga rahbarlik qiluvchi idoralar takomillashtirildi. 1991-yil fevralida xalq xo'jaligining mineral-xomashyo zaxiralariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida geologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish va boshqaruv idoralari negizida O'zbekiston SSR Davlat geologiya va meniralogiya qo'mitasi tashkil etilib, uning vakolatlari belgilandi.

1992-yil may oyida neft va gaz konlarini har tomonlama va samarali o'zlashtirish, xalq xo'jaligi va aholini gaz, gaz kondensati, neft hamda ularni qayta ishlash mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, neft va gaz sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida shu sohada mavjud bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalari asosida O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni — «O'zbekneftgaz» tashkil etildi va uning vazifalari tayin etildi.

Konsernlar xalq xo'jaligiga davlat rahbarligi tizimidagi yangi shakl edi. U sanoat sohasida bundan ilgari ham barpo etilgan edi. Bu O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishishi, ittifoq tobeligidagi sanoat tarmoqlarining ham respublikaga berilishi, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, ma'muriy buyruqbozlik usulining cheklana borishi bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, 1990-yil oktabrida O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi sanoat tarmoqlari bo'yicha o'zbek davlat konsernlarini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga binoan, O'zbekiston Davlat kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va avtomobil mashinasozligi, radio elektronika (elektro- texnika va asbobsozlik bilan birga), paxta tozalash sanoati ilmiy-texnikaviy ta'minlash konsernlari tuzildi.

Prezidentning 1992-yil 27-oktabrdagi Farmoni bilan ijara kollektiv, hissadorlik tashkilotlarini hamda mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan montaj, ixtisoslashtirilgan qurilish, sozlash, ilmiy-tadqiqot va loyiha tashkilotlarini sanoat va naqliyot korxonalarini ixtiyoriy paychilik asosida birlashtiruvchi «O'zmontajmaxsusqurilish» ishlarni xo'jalik assotsiatsiyasi tashkil etilib, shunday vazirlik esa tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari vazirligi negizida Don mahsulotlari («O'zdonmahsulot») davlat konserni tashkil etilib, uning zimmasiga xalq xo'jaligini va aholini ovqatbop don, un va non, qandolat mahsulotlari, omixta yem bilan ta'minlash, nonvoyxona, makaron tegirmonyorma va omixta yem sanoati korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vazifalari yuklandi.

Bozor munosabatlarini joriy etish jarayonida O'zbekistonda dehqonchilik sanoat kompleksi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish,

respublika o'rmon xo'jaligi boshqaruv ishini yaxshilash, milliy aviakompaniyani tashkil qilish to'g'risida ham Farmonlar qabul qilinib, ularda sanoat, qishloq xo'jaligi va naqliyotga davlat rahbarligining navbatdagi muammolari hal etib berildi. Masalan, Prezidentning 1990-yil 8-dekabrida imzolagan Farmonida shunday deyiladi: «Dehqonchilik-sanoat kompleksida davlat va xo'jalik boshqaruv vazifalarini farqlab qo'yishga oid aniq tadbirlarni amalga oshirish, jamoa xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini rivojlantirish, bozor munosabatlarini joriy etish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida qaror qilaman:

O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi davlat kooperativ qo'mitasi kengashi va hay'atining O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi davlat kooperativ qo'mitasini O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi jumhuriyat vazirligiga aylantirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin». Shuningdek, Paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish davlat hissadorlik assotsiatsiyasi ham tashkil etildi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishda fan va texnikaning ahamiyati katta. Shu sababdan ularni ravnaq toptirish, erishilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etish sohasidagi ishlarga ham jiddiy e'tibor berildi. Maxsus Farmonlar bilan O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzurida esa Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tashkil qilindi. Mamlakat Fanlar akademiyasiga o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil tashkilot sifatidagi maqom berildi.

Iqtisodiy hayotda bozor munosabatlariga o'tish aholining ijtimoiy himoyalanishini, davlat mustaqilligiga erishish esa milliy va madaniy qadriyatlar ahamiyatini oshirishni talab etadi. Shunday sharoitda ijtimoiy-madaniy qurilish sohasida davlat rahbarligini takomillashtirish ham jiddiy ahamiyatga ega. Chunonchi, 1992-yil 5-mayda aholiga savdo xizmatini tubdan yaxshilash, iste'mol bozorini kengaytirish maqsadida respublika savdo vazirligi «O'zbeksavdo» O'zbekiston davlat hissadorlik uyushmasiga aylantirildi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni va bu sohani boshqarishni yaxshilash dolzarb masaladir. Ana shu maqsadlarni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish davlat kooperativ markazi va uning joylardagi idoralari o'rniga maishiy xizmat korxonalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi va hududiy uyushmalari tashkil etildi, ularning vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

Ommaviy axborot vositalari va targ'ibot-tashviqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi televideniye va radio eshittirishlari davlat qo'mitasi 1992-yil yanvar oyidan O'zbekiston davlat teleradio eshittirishlar kompaniyasiga aylantirildi. Madaniyat va

san'atni rivojlantirish hamda ularning ma'naviy va axloqiy tarbiyadagi mavqeini oshirish maqsadida 1992-yil mart oyida qabul etilgan Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish va uning faoliyatini yaxshilash tadbirlari belgilandi. Shu vazirlik negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat kino kompaniyasi tashkil qilindi. Xususan, Madaniyat ishlari vazirligi, milliy madaniyat sohasida davlat siyosatini amalda ro'yobga chiqarish, xalq boy an'analarini tiklash va ularni yanada takomillashtirish, mamlakat ijodiy uyushmalari bilan uzviy hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish kabi vazifalarni bajaradigan bo'ldi.

Respublikaning tashqi faoliyati masalalari bo'yicha shug'ullanadigan idoralari tizimi ham takomillashtirildi. Jumladan, 1991-yil 7-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

1992-yil 21-fevralida Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi, o'sha yili 10 avgustda esa O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi barpo etildi, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va himoya qilish choralari belgilandi. O'zbekiston hududida sayohat sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirishni ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh idora sifatida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ham barpo etildi.

1992-yil oxiri va 1993-yil boshida ham bir necha markaziy boshqaruv idoralari tashkil etildi. Ular qatoriga O'zbekiston sanoat va xo'jalik qurilishi davlat korporatsiyasi, O'zbekiston avtomobil naqliyoti davlat hissadorlik korporatsiyasi, O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat hissadorlik konserni kabilar kiradi.

Markaziy boshqaruv idoralari tizimining takomillashuvi va ayrimlarining yangidan tashkil etilishi, shuningdek, Prezidentlik lavozimining yuzaga kelishi Vazirlar Mahkamasi huquqiy maqomining o'zgarishi, asosan, ikki holat bilan izohlanishi, ya'ni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi va uning bozor iqtisodiga o'ta boshlashi bilan chambarchas bog'liq ekanligidir.

Xulosa sifatida ikki muhim jihatni alohida ta'kidlash lozim.

Birinchidan, ilgari davlat boshqaruvi sohasida juda katta va hal qiluvchi masalalar Ittifoq idoralari vakolatida edi. Mustaqillik sharoitida bu vakolatlar to'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi tegishli markaziy idoralariga – Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va boshqa mahkamalarga o'tdi.

Avval respublika hukumati, vazirliklari va davlat qo'mitalarining 80-90 foizi markazning tegishli idoralariga itoat etgan bo'lsa, endilikda

ular mustaqil davlat idoralariga aylandi. Demak, respublikada markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi vazifasi nihoyatda kengaydi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi sharoitda O'zbekistonda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lishida Prezident, Vazirlar Mahkamasi olib borayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib boryapti, ular faoliyatida avvalgi ma'muriyatchilik uslublari kamayib, yangi sharoit talablariga ko'ra ishlash ustun kelayapti. Ilgari vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa markaziy mahkamalar faqat davlat korxonalari va tashkilotlariga rahbarlik qilgan bo'lsa, endilikda ular o'rniga barpo etilayotgan konsern, assotsiatsiya, kompaniya, uyushma va korporatsiyalar ham davlat, ham mulkchilikning boshqa shakllari asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarga rahbarlik qilyapti, yoki ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turyapti.

Shunday qilib, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning yangi shakli vujudga kelgan paytda dadillik bilan boshqaruv tizimini o'z milliy taraqqiyotiga mos tarzda o'zgartira bordi.

Umuman olganda 1991–1996-yillar yosh Mustaqil mamlakatimizda davlat tizimini takomillashtirish va uni butunlay yangi shaklda barpo etish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ayrim tashkilot va muassasalar nomi ikki-uch yil orasida bir necha marta o'zgartirildi. Ba'zi turdosh tarmoqlar birlashtirildi, bir qismi bo'lib yuborilib, yangitdan tuzildi. Bir qator sohalar, ayniqsa, bank, pul-kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, sobiq SSSR markaziy organlari va qator idoralar bilan bog'liq bo'lgan sohalarda butunlay yangi vazirliklar va boshqa shakldagi muassasalar tashkil etildi.

Tarixan juda qisqa davrda tub islohotlarni amalga oshiradigan, aholi ongi va dunyoqarashini butunlay o'zgartira oladigan davlat tizimini mustahkamlash, keng tarmoqli xalq xo'jaligini boshqarishga qodir bo'lgan, eng samarali va eng zamonaviy usullarni qidirib topish zarur edi. Mamlakatimiz hukumati aholi turmush darajasi va iqtisodiy-ijtimoiy hayotida barqarorlikni saqlab turish, o'tish davrida jiddiy qiyinchiliklarga yo'l qo'ymaslik, ma'naviy-ruhiy ozurdalik, tushkunlik va qashshoqlikning oldini olish maqsadida eng avvalo boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat apparatining har qanday tanglik sharoitida ham barqaror ishlashini ta'minlash ishiga jiddiy e'tibor berdi.

Milliy davlatchilikda yangicha boshqaruv usullari haqida gap ketganda O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning ikki muhim yo'nalishi haqida fikr yuritish joiz.

Birinchidan, mustaqillikning keyingi yillarida davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan islohotlardan ko'zlangan asosiy

maqsad hokimiyat barcha tarmoqlari, xususan ijro hokimiyati bo'lmish hukumat faoliyatining mas'uliyati va samarasini oshirishga qaratildi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi usuli Prezidentlik boshqaruv shakliga asoslanadi va bu qoida Konstitutsiyada belgilab berilgan.

Ayni vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Senatining 2005-yil 28-yanvardagi Qo'shma Majlisida Prezident ma'ruzalarida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar bo'yicha Prezident zimmasidagi ayrim vazifalar nafaqat Senatga, balki hukumatga ham berildi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasiga yuklangan vazifalar yanada aniqlashtirildi.

Jumladan, hamma masalalar, vazifalar soha-soha qilib, ya'ni komplekslar bo'yicha bo'lib berildi. Bundan maqsad ishda qat'iy, aniq tartib-intizom va natija bo'lishi ko'zda tutildi.

Binobarin, Bosh vazir o'rinbosarlari o'z komplekslari bo'yicha ishni boshqarib, javobgarlikni oxirigacha o'z zimmalariga olishi, har qaysi hukumat a'zosi, har qaysi vazir o'z sohasiga mas'ul bo'lib Prezident oldida javob berishi, Parlament oldida hisob berishi belgilandi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz davlat mustaqilligining keyingi yillarida ma'muriy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tufayli bir-birini takrorlovchi vazirliklar, idoralar va davlat tashkilotlarini, resurslarini taqsimlash vazifalari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarga rahbarlik qilishni tugallash orqali davlat va xo'jalik boshqaruvining tarkibini optimallashtirish amalga oshirildi. Natijada respublikada 13 ta vazirlik, 11 ta davlat qo'mitasi, 9 ta agentlik va 3 ta qo'mita saqlanib qolindi, ularning vazifalariga umuman iqtisodiyotni va uning sohalarini boshqarishning strategik masalalarini ishlab chiqish kiradigan bo'ldi.

Xo'jalik birlashmalari endilikda ishlab chiqaruvchilar uyushmalari shaklida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. Bu boradagi islohotlar izchil davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004 yil 5 yanvarda «Hududiy davlat boshqaruv organlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga muvofiq barcha hokimliklar yangi boshqaruv tarkibiga o'tadi. Viloyat, shahar, tuman hokimlarining o'rinbosarlari qisqartirildi hamda hokimliklar mahkamasidagi shtatlar ham qisqartirildi. Beshta shahar, 8 ta shahar ichki tumanlari qisqartirilishi natijasida budjet hisobidan moliyalashtiriladigan hududiy boshqaruv organlari xodimlarining soni 500 birlikka qisqartirildi. Shu jumladan boshqaruv xodimlari soni 331 birlikka qisqardi va ularni saqlashga ketadigan xarajatlar 312 million so'mga kamaytirish imkonini berdi.

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida boshqaruv xodimlar sonini optimallashtirish natijasida O'zbekistonda ming nafar kishiga amaldorlar

soni 6,1 kishini yoki aholining 1,6 foizini tashkil etdi. Qozog'istonda ushbu ko'rsatkich tegishli ravishda 19,2 va 3,4 ni, Ukrainada – 20 va 4,5 ni, Rossiyada 22,1 va 3,9 ni tashkil etdi.

Boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari davlat budjetining 1,9 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Masalan AQSHda bu ko'rsatkich 1,1 ni tashkil etadi.

Bundan tashqari boshqaruv xodimlari sonini optimallashtirilishi natijasida boshqaruv xodimlari soni 40 ming kishiga qisqartirildi, bu esa 40,5 milliard so'mlik budjet mablag'larini tejash imkonini berdi.

3-§. Mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar

O'zbekiston mustaqilligi yillarida markaziy ijro hokimiyati tizimida o'zgarishlar bo'libgina qolmasdan, mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatida ham yangi tizim talablariga mos tarzda muhim amaliy ishlar qilinganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqaruvning bu tizimida islohot o'tkazishni taqozo qilgan omil nimadan iborat edi? Avvalo shuni aytish kerakki, bu tizim o'z tarkibiga viloyat, tuman, shahar, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka Kengashlarini oluvchi davlat muassasalari majmuini tashkil etadi.

Ma'lumki, 80-90-yillarning boshlariga kelganda bu muassasalar o'zlarining demokratik xususiyatlarini yo'qotgan edi. Mahalliy kengashlar o'ziga xos ravishda KPSS siyosatini hayotga tatbiq etish quroliga, aniqrog'i partiya tashkilotlari rahbarlik qiladigan bir muassasaga aylangan edi. Bu – **birinchidan**.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni Mahalliy Kengashlar mustaqilligini kengaytirish, hududlar tizimida tub o'zgarishlar yasashni ham talab qila boshladi. Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida hududiy taraqqiyot ko'pincha markazlashtirilgan tarzda qayta taqsim qilinadigan davlat ajratmalari hisobiga amalga oshirilar edi. Endilikda yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita mas'ul qilib belgilanishi kerak edi. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikada bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Asosiy Qonuni, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (1993, sentabr), «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish idoralari haqidagi Qonun (1993, sentabr), «Xalq deputatlari

viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (1994, may) kabilar muhim o'rin egallaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasida ta'kidlanganidek, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga muvofiq esa mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga: «Qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash; budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; – atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish» berilgan.

«Mahalliy hokimiyat organlari, – deyiladi Konstitutsiyaning 101-moddasida, – O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasidagi qabul qilgan qarorlarni quyi organlar ijro etishi majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolatlari muddati – 5 yil».

Ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladilar. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hududlar bo'yicha tuziladi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari saylovi» haqidagi Qonun bilan belgilanadi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga shaharlardagi tuman, shahar, tuman va viloyat Kengashlari kiradi.

1994-yil 25-dekabrdagi Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari saylovlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari katta tayyorgarlik ko'rdilar.

Toshkent shahrida Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ta okrug, Xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta okrug tuzildi.

Qonunda belgilangan tartibda va tavsiya etilgan vaqtda kalendar rejasiga asosan Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi 30 ta saylov Komissiyasi va shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi 60 ta saylov komissiyasi tashkil etildi.

Saylov komissiyalari tarkibiga sanoat korxonalari, jamoat tashkilotlari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash xodimlari va mahalla yig'inlari vakillaridan iborat 810 kishi jalb etildi.

Bunday ishlar mamlakatning barcha hududlarida amalga oshirildi. Jumladan, Andijon viloyatida ham qonunlarga to'la rioya qilingan holda saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. Oliy Majlisga viloyat, tuman, shahar kengashlariga munosib nomzodlar ko'rsatiladi. Ular orasida olimlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar, vrachlar, o'qituvchilar, ishchi-xizmatchilar bor edi. Namangan viloyatida ham boshqa joylarda bo'lganidek, deputatlikka nomzodlar ko'rsatish demokratik prinsi plarga amal qilingan holda olib borildi. Bu jarayon siyosiy partiyalar, hokimiyat vakillik organlari ishtirokida, muqobillik asosida amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, viloyat hokimligi siyosiy partiyalar hamda hokimiyat organlari o'rtasida o'zaro hurmat va ijodiy fikrlashuvlar bo'lishiga katta e'tibor berdi. Siyosiy partiyalarning saylovlarda teng huquqli asoslarda ishtirok etishini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berildi.

Natijada viloyatlar, tumanlar va shaharlarda mahalliy vakillik organlari bo'lmish Xalq deputatlari Kengashlariga xalqning munosib farzandlari saylandilar. Yana shuni qayd qilish lozimki, mustaqillik yillarida mahalliy ijroiya hokimiyat tuzilishidagi muhim o'zgarish hokimlik institutining tashkil qilinishidir.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan Qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya Hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimliklar joriy etildi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi boshqaruv tizimi tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va Qoraqalpog'iston respublikasining Qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'lindi.

Shuningdek, 163 qishloq tumanlari, 18 shahar tumanlarida, 120 shaharlarda hokimlik idoralari tashkil qilindi.

Albatta, qisqa vaqt ichida hokimliklar o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirishda, joylarda Oliy Majlis Qonunlari,

Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosini ta'minlashda, aholining ijtimoiy himoyasini tashkil qilishda muayyan tajriba to'pladi.

Hokimlik oldingi xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisligidan yoki partiya komitetlari birinchi kotibligidan lavozim va huquqiy maqomi bilan ancha farq qiluvchi institutdir. Hokimlikda endi ko'proq mustaqillik, o'z hududida o'z hukmi va so'zining salmog'ini oshirish, xo'jalik va iqtisodiy boshqaruvda qat'iyat bilan ishlash imkoniyati kengaydi. Hokimlik usulining ixchamligi, buyruqbozlik va qog'ozbozlikning kamayishi, hayotga va ishlab chiqarishga yaqinligi bilan oldingi boshqaruv tizimi an'analari va usullaridan ancha afzalliklarga ega bo'ldi.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatdiki, hokimliklar hamma joyda ham butun imkoniyatlari va iqtidorlarini ko'rsata olmadilar. Ularning ayrimlari yangicha tizimda eskicha usul bilan ishladilar. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi kamchiliklar islohotlarni izchil amalga oshirishga to'sqinlik qila boshladi. Joylarda odamlar rasmiyatchilik, poraxo'rlik, «sendan ugina, mendan bugina» qabilida ishlash, tamagirlik, qonunbuzarlik – holatlaridan aziyat cheka boshladi. Bunday salbiy hodisalarni Prezident Islom Karimov bir qator viloyat kengashlari sessiyalarida, xususan, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Namangan viloyatlaridagi sessiyalarda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida ochiqdan-ochiq tanqid qildi. Qonun ustuvorligiga erishish borasidagi qat'iy mulohazalarini o'rtaga tashladi.

Jumladan, xalq depupatlari Sirdaryo viloyati kengashining 1993-yil 9-oktabrda bo'lib o'tgan sessiyasida I. Karimov shunday degan edi: **«Viloyatda kadrlarni tanlash, ularni o'rganish jarayonlari xalq deputatlari, faollardan sir tutilgan. Kadrlarni tanlashda ularning malakasi, qat'iyatliligi, qobiliyati emas, aksincha, ularni ishga tayinlashda viloyat rahbariga nisbatan shaxsiy e'tiqodi, sadoqati inobatga olingan. Lavozimlarni tanish-bilishchilik, oshna-og'aynigarchilik asosida taqsimlashga yo'l ochilgan. Bu yo'l bilan tayinlangan rahbarlardan yurt, Vatan, istiqlol manfaati uchun nima kutish mumkin?»**

Darhaqiqat, jamiyat hayotidagi tub burilish odamlar tafakkurida, jumladan, rahbar kadrlar dunyoqarashida keskin o'zgarish yasashni taqozo qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillari aytish mumkinki, ana shunday fikriy o'zgarishlarni, jiddiy islohotlarga alohida tayyorgarlikni boshlash lozim edi. Yangi davrning yangi talablari asosida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi barbod etilsada, totalitar tuzum yo'q qilingach, tabiiyki, uning illatlaridan batamom qutulib bo'lmaydi. Jumladan, talon-tarojlik, odamlar haqiga xiyonat qilish, qonunsizlik, ma'muriyatchilik va to'rachilik illatlari yangi tuzum ma'naviy qiyofasiga putur yetkazar edi. Jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq

bo'lar edi. Shuning uchun ham mamlakatda mahalliy davlat hokimiyati idoralari tizimini takomillashtirishda uning ham shaklan, ham mazmunan o'zgartirishga jiddiy e'tibor berildi. Eng avvalo islohotlarni qonun bilan mustahkamlash davlat boshqaruvi yangi tizimining huquqiy negizlarini yaratish borasida qator ishlarni amalga oshirdi.

Qonun ustuvorligi, boshqaruvning ham, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini ham butunlay qamrab olmog'i, jamiyat hayotining barcha qirralarida o'zini namoyon etish choralari ko'rildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi mas'ul shaxslar kayfiyatini o'zgartirish, ularning ma'naviy-ruhiy qiyofasini takomillashtirish, loqaydlik, sansalorlik, o'zi bo'larchilik va boqimandalik kayfiyatlarini yo'qotish zarur edi. Har bir davlat hokimiyati organi joylarda o'zining nufuziga, obro'-e'tiboriga ega bo'lmog'i, u xalq ustidan hukmron guruh emas, aksincha xalq uchun yashayotganligi singari ijobiy fazilatlarini chuqurlashtirish kerak edi. Chunki ayni ana shunday fazilat butunlay yangi tarixiy sharoitlarda shakllanayotgan yangi davlatning, fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillari turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, iqtisodiy tanglik, asab tarangligi davri bo'ldi. Ana shunday paytda mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga nihoyatda og'ir mas'uliyat tushdi. Aniq ish maromi, yetilib chiqayotgan muammolarni o'z vaqtida anglash va o'z vaqtida hal etish, kundan kunga yangidan yangi yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni boshqarib turish nihoyatda katta iste'dodni, hozirjavoblikni taqozo etadi. Prezident I.A.Karimov ana shularni nazarda tutib: **«Xalq vaqtincha davom etayotgan qiyinchiliklarga chidashi mumkin. Lekin bilib qo'yaylik, takroran aytaman: adolatsizlikka chidamaydi! Buni unutish mas'ul lavozimdagi shaxsni bamisoli ustunlari chirib qolgan binoga o'xshatib qo'yadi.**

Xalq qallob va yulg'ichlarni ko'rib, bilib turibdi va hech qachon kechirmaydi. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas».

Darhaqiqat, oziq-ovqat tanqisligi yuz bergan, do'konlar peshtaxtalari bo'shab qolgan, pulning qadrsizlanishi keskin oshib turgan bir paytda xudbinlik va tamagirlik domiga tushganlar ham yo'q emas edi. Shuning uchun Prezident ana shunday shaxslar basharasini ochib tashlash lozimligini qayta-qayta uqtirdi. Bu bilan bir tomondan davlatning nimalarga qodir ekanligi ko'rsatilsa, ikkinchi tomondan xalqni mahalliy hokimiyat organlari orqali davlat atrofida jipslashtirish masalalari hal qilinar edi.

Prezident siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, hamma narsadan qonunni ustun qo'yish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro – jamiyat – davlat» prinsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish. Bu prinsipga zid bo'lgan barcha harakatlarga qarshi mamlakatda qat'iylik

bilan kurash olib borildi. Joylarda qonunni hurmat qilmaslik, uquvsizlik va boshqa illatlar tufayli mavqeyini yo'qotib qo'ygan ayrim viloyatlar va o'nlab tuman hokimlari, mahalliy huquq organlari, savdo, tabobat, maishiy xizmat tarmoqlarining rahbarlari xizmat vazifalaridan ozod etildi. Bu tuzumni illatlardan tozalash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, insonga buyuk ne'mat sifatida qarash kabi xalqchil siyosatning amaldagi ko'rinishi edi.

Shunday qilib, 1991–2006-yillar mobaynida respublikada davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv vazifalarini aniq belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biri edi.

4-§. O'zini o'zi boshqarish organlarining yanada rivojlantirilishi

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosida huquqiy demokratik davlatni barpo etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Uning 7-moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir», – deyilgan. Konstitutsiyaning 2-moddasida esa «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi», deb ta'kidlangan.

Hozirgi zamon jahon davlatchiligi tajribasida davlat zimmasidagi vazifalar ancha o'zgardi. Bu, ayniqsa, totalitar tuzum iskanjasidan chiqqan xalqlar uchun butunlay yangilik edi. Jumladan, endi u ko'proq iqtisodiy asoslarni mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarni chuqurlashtirish, odamlar madaniy va moddiy turmush darajasini oshirishning strategik tamoyillarini ishlab chiqish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tinchligini mustahkamlash va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

«Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar – tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta-sekin o'z-o'zini boshqarish jamoatchilik tashkilotlariga ham yetib boradi», degan edi Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-24-fevral kunlari bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyati shakllanishi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi.

Davlat o'z vazifalarini bajarishda hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha demokratik omillarni kengaytirish, keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo'li bilan amalga oshirishi lozim. Buning uchun jamiyatda keng miqyosli demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish,

Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolar haq-huquqlarini kengaytirish, jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlash, jamiyatda siyosiy va mafkuraviy xilma-xillikka erishish asosida davlat monopoliyasini yo'qotish kerak. Boshqacha qilib aytganda, davlat endi ko'proq fuqarolar haq-huquqini kafolatlaydigan mexanizmga aylanishi kerak. Buning uchun quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1. Milliy an'analarga, aholi barcha qatlamlari va ijtimoiy guruhlari ehtiyojlariga, xalq hayotining tarixiy tajribalariga tayangan holda demokratik asoslarni mustahkamlash.

2. Hokimiyat bo'linishining eng demokratik, eng xalqchil shakllarini yanada chuqur va faolroq joriy etish.

3. Boshqaruvni markazlashtirmaslik, respublika va mahalliy hokimiyatlar vazifalarini aniq belgilash, Markaziy organning ko'pgina vakolatlarini joylarga – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar, tuman hokimiyatlari zimmasiga yuklash, biroq bu markazdan uzoqlashish, har qanday muammoni o'z xohishicha hal etish imkonini bermaydi.

Ma'lumki, jamiyatni demokratlashtirishning yana bir muhim sharti odamlarning ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar sur'atlari bir-biriga qanchalik mos bo'lishidir. Shuning uchun ham demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni, ularni hayotga tatbiq qilishni, avvalambor, jamiyatning o'zi anglamog'i va hal qilmog'i darkor. Bu o'rinda mahallalarning o'rni va o'z-o'zini boshqarish tartibotini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib, ko'r-ko'rona ko'chirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Unga tinimsiz intilish bilan hayotning og'ir sinovlariga bardosh berib erishish mumkin.

Osiyo mintaqasi va musulmon sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. **«Bizning mamlakatimizda,** – deb ko'rsatgan edi I.A.Karimov, – **demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etishi kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor.»** Bunday qadriyatlar respublikamiz sharoitida avvalo aholi zich yashaydigan mahallalarda shakllanadi. Shuning uchun respublikamizda mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy hayotda, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda mahallalar rolini oshirishga katta e'tibor berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida ta'kidlanishicha, «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular

tarkibidagi mahallalar hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi».

Darhaqiqat, mahalla – O'rta Osiyoda shaharlar ichidagi hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo'lgan mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik rishtalari bilan emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan belgilangan. Shuning uchun ham undan minglab kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etishning samarali vositasi sifatida foydalanish lozim.

Ong va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar hamisha qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Jumladan, yillar mobaynida ongimiz va tafakkurimizga singib ketgan tanballik, imon-ixtiyorimizni «yuqori»ga topshirib qo'yish illatlari bugungi demokratik jarayonlarga to'siq bo'lmoqda. Uning salbiy oqibatlari chuqurlashib borayotgan yangilanishlar mohiyatini anglashga, butunlay yangi turmush tarzining shakllanishiga, inson haq-huquqlarining kengayishiga va jamiyatda shaxs rolining oshib borishiga monelik qilmoqda.

Ijtimoiy turmushning hamma sohalarini demokratiyalash, o'zini o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirish, o'z hayotini o'zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirish nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. U siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy-axloqiy sohalarda yangicha tafakkur tarzini talab etadi. Bu jarayon chin ma'noda har bir fuqaro mehnati, yaratuvchilik qobiliyati orqali o'z turmushini izga solishi asosida butun jamiyat hayotini mazmunan yangilash, unga butunlay yangi qiyofa baxsh etish bilan bog'liq. Bu o'z navbatida jamiyatni tubdan isloh qilish jarayonida fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish mahalliy organlari faoliyatini tubdan o'zgartirishni, uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida qaytadan tashkil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini uchta hududiy bo'g'inga bo'lish mumkin. Birinchi hududiy bo'g'inga xalq deputatlari shahar, tumanga bo'ysunadigan shaharlar, shaharlardagi tuman kengashlari kiradi. Ikkinchi hududiy bo'g'inga xalq deputatlari tuman, Toshkent shahridagi tuman, shahar kengashlari kiradi. Uchinchi hududiy bo'g'inga esa xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashlari kiradi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining barcha bo'g'inlari huquqiy shaxs hisoblanadilar va ular qonun bilan o'z ixtiyoriga berilgan istalgan

masalalarni mustaqil hal qilishga haqlidirlar. Mahalla o'zini o'zi boshqarishning asosiy bo'g'ini. Bu aholining ijtimoiy masalalarini hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Mahalla O'rta Osiyoda qadimdan hududiy-ma'muriy birlik hisoblanadi. Bu yerda har bir yashovchi taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat'iy nazoratda turgan. Bir-biri bilan hisoblashib yashagan. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an'analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma'naviy-axloqiy udumlariga bog'liq bo'lgan ulkan hayot maktabi.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini takomillashtirish asosida mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish maqsadida Oliy Kengashning 1993-yil sentabrda qabul qilgan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun, alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Tub islohotlar davrining eng muhim va dolzarb talablariga muvofiq tarzda yuzaga kelgan ushbu qonun ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish va uni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida ta'kidlangan. Uning 105-moddasida «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari, o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi» deyilgan. Bu bilan mamlakatimiz birinchi marta fuqarolar yig'ini o'zini o'zi boshqarish organi sifatida e'tirof etildi va ularning huquqiy maqomi, vakolatlari qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini bajarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik masalalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, mamlakat hukumatining qarorlarini bajarishda yordamlashadi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni ifodalovchi muhim belgilardan biri o'z faoliyatini hududiy tamoyil asosida tashkil etishdir.

Ma'lum bir hudud birlashgan jamoa o'zini o'zi boshqarish idoralarini ma'lum turarjoy mavzesi, qishloq, posyolka, ko'cha hududida tashkil etadi.

Mazkur qonunning 2-moddasida hududiy yondashishning o'ziga xos xususiyatlari alohida belgilangan. Jumladan, mahallalar faoliyat ko'rsatayotgan hududlar fuqarolarining taklifiga ko'ra tuman, shahar hokimi tomonidan belgilanib, qabul qilingan qaror tegishli hokimliklar tomonidan tasdiqlanadi.

Qonun fuqarolar yig'inida yoki majlisida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy me'yorlar va imtiyozlarni ko'rsatib berdi. Fuqarolar yig'ini unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarmi, vakillar majlisi esa delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga kiradi. Yig'inni rais yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va u hokimga yuboriladi.

Bularning hammasi mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralari faoliyatining demokratik asoslari mahalliy sharoitga yaqinlashtirilganini, ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berilganini va aholining jamiyatni boshqarishda mumkin qadar ko'proq ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular qonunning 17-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqarolar faolligini oshirish, shu asosda o'z turmushini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat «Mahalla» xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda mamlakat «Mahalla» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ayni paytda mahalla qo'mitalari o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kambag'al oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarni olib bormoqda.

Hukumat dastlab budjet hisobidan 25 million so'm mablag' ajratdi. Bu joylarda mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatdir. Keyingi yillarda ham fuqarolarning turmush tarziga, ularning xulqi va kayfiyatiga odatda qishloq va mahalla qo'mitalariga saylanadigan hurmatli oqsoqollar ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kuch ekanligini hisobga olib qishloq va mahalla komitetlarining roli va obro'sini yanada mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Mamlakatda mahalla qo'mitalari raislari hamda kotiblariga oylik ish haqi belgilandi. Qisqa vaqtda bu maqsadlarga mahalliy budjetdan 10 million so'mga yaqin mablag' ajratildi. 1994-yil oxirlariga kelib respublikada 12,4 ming mahalla shakllantirildi. Ular o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, o'zlari haqidagi Nizomga, mahalliy hokimiyatning mahalla fuqarolarining yig'ilishi haqidagi qarorlariga amal qilib ish tuta boshladilar.

O'zbekistonda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini takomillashtirish kundalik hayotimizda demokratiyani chuqurlashtiradi, davlat rolini asta-sekinlik bilan mahalliy organlar zimmasiga yuklaydi. Bu hozirgi zamon jahon ilg'or tajribalariga mos keladi va dunyoviy davlat tamoyillarini boyitadi.

Yuqorida o'zbekning mahalla-mahalla bo'lib birlashib, o'zini o'zi idora qilib yashash tarzining ildizlari g'oyat chuqur ekanligi ta'kidlandi. Endi ular faoliyatini yangi sharoitlarda, yangicha mazmun bilan boyitish ham hayotiy zaruriyat bo'lib qoldi. Bu borada keyingi yillarda Chilonzor tuman hokimligi va xalq deputatlari tuman Kengashi ibratli ishlarni amalga oshirdi. Ular mahalla ahlining ko'p asrlik tajribalaridan va eng odilona boshqaruv usulidan samarali foydalanish maqsadida mavzelarni ham mahallalarga aylantirishga qaror qildilar. Tuman hududida avvaldan mavjud bo'lgan 19 ta mahallalar qatoriga mavzelar va bir qator turarjoylarda yangitdan tashkil etilgan 25 ta mahalla qo'shildi. Ular soni 44 taga yetdi. Ayni paytda bu yerlarda keng miqyosli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy tadbirlar amalga oshirildi. Bular aholini o'z o'zini boshqarishdagi ishtirokini yanada kengaytirmoqda.

Shunday qilib, 90-yillarning o'rtalariga kelib, mustaqil O'zbekistonning viloyat va shaharlari hududlarida ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lgan mahallalar soni, ularning aholi o'rtasidagi roli ortib borishi ham respublikada ijtimoiy hayotning yanada demokratlashib borayotganini ko'rsatadi.

Albatta, keyingi yillarda istiqlol tufayli yangidan qaddini ko'tarayotgan mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berganini o'z-o'zini boshqarish organlariga bo'lib o'tgan saylovlar ham ko'rsatdi. Buni 1996 yil may-iyun oylarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar yakunlaridan ham bilish mumkin.

1996-yil 2-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar yakunlari» ko'rib chiqildi. Ushbu qarorda ko'rsatib o'tilishicha respublikada bu muhim siyosiy tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rildi.

Avvalo shuni aytish kerakki, Oliy Majlis Kengashi 1996-yil 13-mart kuni fuqarolar yig'inlari raislari va ularning maslahatchilari saylovini o'tkazish masalasini maxsus muhokama qildi va shu asosda zarur tashkilotchilik ishlari olib borildi. Fuqarolar yig'inlari va ularning raislari saylovini o'tkazish haqidagi qonun matni 4 ming nusxa atrofida ko'paytirilib, Qoraqalpog'iston Juqarg'i Kengesi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklariga amalda foydalanish uchun yetkazib berildi. Shuningdek, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazishga doir tavsiyanomalar

ishlab chiqildi. Bu «Mahalla» gazetasida e'lon qilindi. Viloyat, shahar va tumanlarda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish yig'inlari raislari, ular maslahatchilari saylovini o'tkazishga doir amaliy seminarlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, viloyat hokimlari o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kotibiyati mas'ul xodimlari ishtirok etdilar.

Seminar-kengashlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hokimiyat vakillik organlarining ishonchli yordamchisi tariqasida o'zini ko'rsatib, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlashga ko'maklashayotgani alohida ta'kidlandi. Kam daromad oilalarga va muhtoj kishilarga yordam ko'rsatmoqda, hududlarni obodonlashtirish yuzasidan keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat qishloqlari va ovullarida fuqarolarning 1436, shaharlarida 117, mahallalarda 5402, shu jumladan qishloq mahallalarida 3305 o'zini o'zi boshqarish organi bo'lib, ularning raislari jamoatchilik asosida ish olib bora boshladilar.

Samarqand, Namangan va Toshkent viloyatlarida qishloqlar kattagina hududni egallaganliklarini inobatga olgan holda ana shu viloyatlar qishloq mahallalarida o'zini o'zi boshqarish organlari tuzildi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish paytida yig'inlarning amaldagi raislari faoliyati tahlil etildi. Bu ish xususan Samarqand, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida namunali o'tkazildi. Hammasi bo'lib mamlakatda 6 ming 955 yig'in raisi va 60 mingdan ortiq maslahatchi saylandi. Qishloq, ovul va shaharlarning, shaharlardagi mahallalarning yig'inlari raislarining 84 foizidan ortig'i shu lavozimiga ikkinchi muddatga saylandi, bu ko'rsatkich maslahatchilar orasida 65 foizdan ortiqrog'ini tashkil qildi.

O'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining umumiy ma'lumot darajasi ancha oshdi. Oliy ma'lumotli yig'in raislari Qoraqalpog'iston respublikasida 68,6 foizni, Toshkent shahrida 68,7 foizni, Navoiy viloyatida 87,5 foizni tashkil etdi.

1993-yilgi saylovga nisbatan 1996-yilgi saylov kompaniyasida xotin-qizlarni yig'in raisligi va yig'in maslahatchilari tarkibiga saylashga e'tibor berildi. Jumladan, yig'in rahbarlari orasida xotin-qizlar miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Buxoro va Namangan viloyatlarida 20 foizdan ko'proqqa, Toshkent shahrida esa qariyb 2 barobarga oshdi.

Bo'lib o'tgan saylov saylovchilarning yuksak faolligi bilan ajralib turdi. Yig'inlar ishchanlik vaziyatida o'tdi. So'zga chiqqan kishilar bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich o'tkazilayotganligi, kuchli ijtimoiy himoya siyosati yuritilayotganligi, ma'naviy qadriyatlar va xalq an'analari tiklanayotganligi, barqarorlik, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy totuvlik ta'minlanganligi uchun Hukumatga minnatdorchilik so'zlarini bayon etdilar.

Mamlakatimizda 1993–2007-yillar mobaynida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy asosini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 10 ta farmoni, Vazirlar Mahkamasining 11 ta qarori, Parlamentning 30 dan ortiq Qonunlari qabul qilindi.

Jumladan, Prezident I.Karimovning «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi (1998-yil 23-aprel), farmoni va O'zbekiston Respublikasining 10 yilligi tantanasida Prezidentimiz tomonidan 2003-yilni «Obod mahalla yili» deb e'lon qilinishi va Prezident Farmoyishi asosida Vazirlar Mahkamasining «Obod mahalla yili» Dasturi to'g'risida»gi (2003-yil 7-fevral) qarori mahallaning fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatidagi roli va ahamiyatini oshirish, milliy qadriyat va an'analari, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlashdagi nufuzini ko'tarish, aholini moddiy va ma'naviy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Prezident Farmoyishi bilan «Obod mahalla yili» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya davlat, nodavlat hamda jamoat tashkilotlari, shuningdek, mahallalar vakillarini keng jalb etgan holda mahallalarimizdagi mavjud muammolar, qilinishi lozim bo'lgan ishlarni atroflicha o'rganib, yil davomida amalga oshirilishi zarur. Tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarning kompleks dasturini ishlab chiqdi. Mazkur dastur yetti yo'nalishdagi hayotiy muhim masalalarni o'z ichiga qamragan. Ular qatoriga, jumladan:

– mahalla faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

– mahallaning moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlash;

– mahallalarda tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va savdoni, kichik biznes sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini barpo etish;

– mahallaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish va ko'kalamzorlashtirish, bolalar sport maydonlarini jihozlash, yo'llar, ko'chalar va kommunal tarmoqlarni yaroqli holatda saqlanishini ta'minlash;

– mahalla tomonidan kam ta'minlangan oilalarga aniq yo'nalishli moddiy yordam ko'rsatish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash;

– keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish;

– mahallalar aholisiga tibbiy va sanatoriy – kurort xizmati ko'rsatishni yaxshilash, bolalar sportini rivojlantirish;

– ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarida mahalla faolligini oshirish vazifalari kiradi.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar va milliy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, 1999-yilning 14-aprelida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonun 29 moddadan iborat bo'lib, unga uch marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Qonunga ko'ra shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Hozirgi kunda respublikamizda 8794 ta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mavjud bo'lib, ularning 1629 tasini shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig'ini, 4887 tasini ular tarkibidagi mahallalar fuqarolar yig'ini hamda 2278 tasini shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig'ini tashkil etadi.

Yangi tahrirdagi qonunda avvalgisidan farqli ravishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mustaqilligiga oid muhim normalar o'z aksini topdi. Xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi ko'rsatildi va ular faoliyatining asosiy prinsiplari belgilandi.O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida respublika oqsoqollari Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi mumkinligi nazarda tutildi.

2003-2004-yillarda qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomi yanada aniqlashtirildi. Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar bilan fuqarolar yig'ini tushunchasi,tuzilishi, fuqarolar yig'inining Nizomi, respublika oqsoqollar Kengashi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha viloyat, tuman, shahar muvofiqlashtirish kengashlari tuzilishi, vakillik normasi hokimlar tomonidan emas, balki tegishli muvofiqlashtiruvchi kengashlar tomonidan belgilanishiga oid va boshqa normalar, shuningdek, fuqarolar yig'inining o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruv komissiyasini tuzish, «mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasining rahbarini tayinlash va tuzilmaga a'zolar qabul qilish, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy – axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisini tayinlash vakolatlari qonun bilan mustahkamlandi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida amalga oshirilayotgan izchil yangilanish va o'zgarishlar jarayoni «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu o'z navbatida, mazkur qonunning islohotlar talablariga qanchalik javob bera olishini o'rganish, tizimli tahlil qilish, shuningdek, qonunda belgilangan normalarning qo'llanish darajasini, holatini aniqlash, baholash, istiqbolini prognoz qilish maqsadida uning monitoringini o'tkazish zaruratini vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi **«Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish**

Dasturi to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan davlat qurilishi va boshqaruvi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning roli va ta'sirini kuchaytirish sohasida islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish konsepsiyasiga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va vakolatlarini kuchaytirish maqsadida ularga davlat tomonidan yordam berish shakllarini tartibga solish, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa muammolarni hal qilish uchun ularning huquq va vakolatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi takliflarini ishlab chiqish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat yordamini ko'chaytirishga doir tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining jamiyatdagi roli va o'rnining oshib borishini 2006-yil may-iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolar yig'ini raisi va maslahatchilari saylovi natijalaridan ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda 2006-yil 4-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi may-iyun oylarida «Fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida» qaror qabul qildi. Ushbu qarorni amalga oshirish maqsadida mamlakatda juda katta tayyorgarlik ko'rildi. Avvalgi yillarda o'tkazilgan saylovlardan farqli o'laroq ushbu saylov birinchi marta 2004-yilda qabul qilingan «Fuqarolar raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq o'tkazildi.

Saylovni tashkil etish va o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun davlat idoralari tomonidan joylarda 199 ta tuman hamda shahar komissiyalari tuzildi, 8843 ta ishchi guruh tashkil etildi. Ular tarkibiga «Mahalla» jamg'armasi, O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston ijtimoiy harakati hududiy bo'linmalarining vakillari kiritildi. Komissiyalar va ishchi guruhlarga ishda foydalanish uchun 12 ming nusxadan ortiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining matnlari maxsus nashr etilgan risolalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar o'tkazish masalalariga doir bir qancha qo'llanma va risolalar yuborildi.

Saylovlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatlari faol ishtirok etdilar.

Shuni aytish joizki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar keng oshkoralik va ochiqlik vaziyatida o'tdi. Ommaviy axborot vositalari saylovning borishini keng yoritdilar.

Umuman olganda, saylov tadbirlarida 12 million 315 ming 818 saylovchi nomidan 574687 nafar vakil ishtirok etdi. Ular 27715 nomzod orasida 8843 nafar fuqarolar yig'inlari raislarini muqobillik asosida sayladilar. Ular orasida 2895 nafar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) yoki ular umumiy sonining 32,7 foizi ilk bor saylandi. Shuningdek, 84375 nafar fuqarolar yig'inlari raislarining maslahatchilari ham saylandi.

Fuqarolar yig'ini majlislarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidagi, davlat hokimiyatining mahalliy ijro organlarining muhim ijtimoiy, uy-joy-kommunal va boshqa masalalarni hal etishdagi mavjud kamchiliklar tanqidiy va ochiq muhokama etildi. Xususan, joylarda mavjud bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda muhtoj oilalarning bolalariga nafaqalar tayinlash masalasini adolat bilan hal qilmaslik hollari, fuqarolar yig'inlari bilan uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik yetarli emasligi va boshqa aholi e'tiroziga sabab bo'layotgan muammolar qayd etildi.

143 ta fuqarolar yig'inlarida ular rahbarlarining o'tgan davrdagi ishi qoniqarsiz deb topildi, oqsoqollarga ishonchsizlik bildirildi va ular qayta saylanmadilar.

Umuman, fuqarolar yig'inlari saylovi kompaniyasi yakunlarini tahlil qilib aytish mumkinki, yig'inlar raislari va maslahatchilarining bo'lib o'tgan saylovi, shuningdek, kelgusi davrga mo'ljallangan faoliyat dasturlari keng muhokama etilib qabul qilinganligi jamiyatimizni demokratiyalashtirish, mamlakatni modirnizatsiya qilish yo'lida muhim qadam, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish shaklini qaror toptirish va mustahkamlashning eng muhimi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning navbatdagi bosqichi bo'lib qoldi.

2008-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining «Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovi to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga ko'ra shu yilning noyabr-dekabr oylarida barcha mahallalarda saylovlar oshkoralik va yakdillik bilan o'tkazildi.

5-§. Kadrlar siyosatida yangicha yo'l tutilishi

Jamiyatni modernizatsiyalash, ijtimoiy hayotni tubdan yangilash bevosita yangicha tafakkurga ega kadrlarni tayyorlash siyosati bilan bog'liq. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki odimlaridanoq «nomenklatura» so'zi va shu so'z bilan bog'liq kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechildi. Darhaqiqat, yangi sharoitda kadrlar siyosatida yangicha yo'l tutilishini taqozo qilgan muhim omillardan biri davlatni boshqarishda mamlakatda

yuqoridan pastga qarab milliy-davlatchilik tizimiga xos yangi boshqaruv tizimi vujudga kelganligi edi. Bu, albatta, hayotiy zaruriyat sifatida namoyon bo'lgan hol. Zotan, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv, mamlakat Konstitutsiyasida ko'rsatilganidek, uning o'z tabiatiga mos bo'lmog'i lozim. Bu – boshqaruv tizimining milliy xususiyati. Uning umumjahon tamoyillari ham bor. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatda kuchli davlat hokimiyati, yuqoridan quyiga qadar mustahkam boshqaruv bo'lmasa tinchlik ham, osoyishtalik ham, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqarorlik ham, taraqqiyot va rivojlanish ham bo'lmaydi.

Ana shu qoidalardan kelib chiqib, O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridanoq sobiq boshqaruv tizimlarini milliy-davlat hokimiyati idoralari bilan almashtirish, ularni zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi. Bu – **birinchidan.**

Ikkinchidan, mustaqillikni mustahkamlash tabiiy ravishda kadrlar siyosatida avvalda yo'l qo'yilgan kamchiliklardan saboq chiqarmoqni, kadrlar tayyorlash va tarbiyalashni mustaqillik talablari asosida amalga oshirishni taqozo qilar edi. Chunki, mustaqillikka erishilgunga qadar kadrlar siyosatida nazariya bilan amaliyot o'rtasida nomutanosiblik mavjud edi. Bir tomondan rasmiy yig'ilishlarda mahalliy kadrlar tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilsa-da, ikkinchi tomondan, amalda uning teskarisi bo'ldi. Mahalliy kadrlarga ishonmaslikka, ularni badnom qilishga harakat qilindi va bunga ma'lum darajada erishildi ham.

Qariyb 74 yil davomida jamiyat boshqaruvida shunday uslub qaror topdiki, mamlakatda siyosiy hokimiyat tepasiga yangi rahbar kelishi bilan o'z faoliyatini, albatta, avvalgisini tanqid qilishdan boshlardi. Shu asosda begunoh, halol, vijdonan mehnat qilgan, siyosat bilan shug'ullanish uchun vaqti bo'lmagan mehnatkash xalq aziyat chekardi. Hokimiyat tepasiga kelgan kishi xoh partiya, xoh davlat rahbari bo'lsin, uning aytgani davlat va partiya siyosatida asosiy yo'l-yo'riq sifatida qabul qilinar edi. Bu oqibatda hamma darajada boshliq gapini asoslashga xizmat qiluvchi mafkuraning vujudga kelishiga olib keldiki, bu holat jamiyatdagi demokratik jarayonlarning rivojiga to'siq bo'ldi. Oqibatda ma'naviy qashshoqlik, ba'zan siyosiy madaniyatsizlik, hatto g'oyaviy beburdlikyuz berdi, bir qolipdagi yagona mafkura hukmronligi qaror topdi. Bunday salbiy hodisa ayniqsa 50-yillarning ikkinchi yarmidan keyin an'anaga aylanib ketgan edi. 1956-yili KPSS XX syezdida shaxsga sig'inish va uning salbiy oqibatlarini tugatish haqida maxsus qaror qabul qilindi. Shaxsga sig'inishga qarshi kurasha turib, amalda shaxsga sig'inish hollari kelib chiqdi.

1985-yili bo'lib o'tgan KPSSning aprel Plenumida qariyb avvalgi 30 yillik tarix «turg'unlik yillari» deb tanqid ostiga olindi. Butun tarixiy

davr ana shu tamg'a bilan ommaviy ravishda inkor qilindi. Achinarlisi shundaki, tuzumga, markaziy boshqaruvga xos bo'lgan mana shunday noxush hol O'zbekiston hayotida ham takrorlana boshlandi. Masalan, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining XVI Plenumida (1984-yil 24-iyul) respublikaning sobiq birinchi kotibi Sh. Rashidov asossiz tarzda tanqid ostiga olindi. Bunday nomaqbul ish uslubi quyi bo'g'in idoralarida ham yuz berdi.

Joylarda yuz bergan mana shunday bir-birini noxolis tarzda inkor qilish oqibatda siyosatda davomiylikning buzilishiga olib keldi. Hamma darajada birinchi shaxs faoliyatini tanqid qilish orqali mehnatkash xalqning vijdonan, halol mehnati inkor qilindi. Muhimi kadrlar qo'nimsizligini vujudga keltirdi. Bu mutlaqo noto'g'ri yo'l edi.

Avvalgi yillarda kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan ikkinchi xatolik kadrlarning nazariy tayyorgarligi, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga yetarli e'tibor berilmaganlikda ko'rindi. Bu partiya tashkilotlari faoliyatida juda jiddiy qusurga aylanib ketgan edi. Kadr tanlashda xodimning odamlar bilan ishlash qobiliyati, kasb mahorati emas, ko'proq shaxsiy sadoqati birinchi o'ringa qo'yildi. Natijada rahbarlarning zamonaviy bilim saviyasi, siyosiy yetukligi, ma'naviy barkamolligi, odamlarni ishontirish va ergashtira olish fazilatlari e'tibordan chetga surilgan edi.

Uchinchidan, shuni ham ta'kidlash kerakki, kadrlar siyosatida 1970–80-yillarda bir-biriga qarama-qarshi ikki tendensiya namoyon bo'ldi. Bir tomondan kadrlar korpusida turg'unlik holati ancha kuchli namoyon bo'ldi. Bir qancha partiya komitetlari tarkibiga, respublika ministrliklari rahbariyatida, sho'ro va xo'jalik organlari xodimlari orasida ba'zida o'n yillab zarur kadrlar o'zgarishi ro'y bermadi. Masalan, O'zbekistonda 10–15 yillab viloyatlarning birinchi rahbarligi lavozimida ishlagan kishilar bo'ldi. Faqat bu hol respublika viloyat va tuman darajasida emas, korxona va xo'jalik rahbarligida ham yuz berdiki, oqibatda bunday sun'iy turg'unlik xizmat mansabini suiiste'mol qilishlarga olib keldi. Bundan tashqari, xalq xo'jaligi boshlang'ich darajasida yana noxush hol, rahbar kadrlarni tez-tez almashtirish uchray boshladi. Kadrlar bilan jonli ish olib borish o'rniga, ularning professional o'sishida amaliy yordam berish o'rniga, faoliyatlari va imkoniyatlari to'g'risida shoshmashosharlik bilan xulosalar chiqarildi.

Kadrlar siyosatidagi yana bir jiddiy kamchilik – rahbarlikning barcha darajalarida kadrlarda markaz buyrug'iga so'zsiz itoat qilish tuyg'usi tarbiyalandi. Xavfli kasallikka aylangan bunday holat, xususan, 80-yillar boshiga kelganda g'oyat kuchaydi. Bu davrda markazdan bo'lgan har bir qo'ng'iroq, markazning «otalarcha g'amxo'rliklari», «amaliy yordami» sifatida qabul qilinadigan, ayni chog'da markazdan bo'lgan asossiz ko'rsatmalar esa so'zsiz bajariladigan holat vujudga keldi.

To'rtinchidan, kadrlar siyosatidagi jiddiy xatolik markaz tomonidan milliy respublikalarga, jumladan O'zbekistonga mahalliy sharoitni bilmagan kadrlarning yuborilishi bo'ldi. Masalan, 1988-yil boshlariga kelib O'zbekistonga Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa mintaqalaridan 400 dan ortiq kishi partiya, kasaba uyushmasi va komsomol tashkilotlarida, shuningdek, ma'muriy organlarda ishlash uchun yuborildi. Natijada mahalliy xalq hayoti bilan, mahalliy kadrlarni ishchanlik qobiliyati, tashkilotchiligi, bilim darajasi, odamlar bilan ishlash malakasi bilan mutlaqo tanish bo'lmagan kishilar ko'payib ketdi. Ular respublikada aholi milliy ongini o'stirishga oid har bir chiqishni millatchilik, deb qabul qildilar. Bu oxir-oqibat yomon ahvolga olib keldi.

Endilikda, aniqrog'i mamlakat mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgandan keyin, O'zbekistonda qurilajak huquqiy demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyat talablariga mos kadrlar siyosati ishlab chiqilishi lozim edi. O'zbekiston Prezidenti o'z harakat Dasturida hozirgi zamon kadrlar siyosatidagi asosiy yo'nalishni belgilab, **«biz endi o'z-o'zini boshqaruv usulini keng joriy qilamiz. Mahalla, qishloqqacha o'zini o'zi boshqarishi, mustaqil bo'lishi zarur. Bu beboshlik, bo'ysunmaslik degani emas. Bunda har qanday rahbar... xalq oldida, yurt oldida mas'ul va javobgardir, degan qoidadan kelib chiqishi shart»**, — deb uqtirdi. Bunday ko'rsatma respublikada amalga oshiriladigan kadrlar siyosati uchun asos qilib olindi, qator chora-tadbirlar ko'rildi.

Mamlakatda eng avvalo, quyi boshqaruv organlari kadrlarini davr talabiga mos darajada mustahkamlashga kirishildi. Chunki 1980-yillar oxirlarida sobiq markazning safsata aralash ko'rsatmalari va tavsiyalari bilan boshqaruv tizimida boshboshdoqlik yuzaga kelgan edi. O'shanda ko'p yillik partiya hukmronligi yoniga sho'rolar, ya'ni Kengashlar hukmronligi qo'shildi. Ular esa ayni paytda xalq deputatlari ijroiya qo'mitalari vazifasini ham bajara boshladi. Shu bilan birga, hokimiyat tarkibida ijroiya qo'mitalar ham saqlab qolindi. Natijada qo'sh hokimiyatchilik yuzaga keldi. Bu ma'lum darajada bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida boshqaruvda bir-birini takrorlash, ayni chog'da bir-biriga xalaqit berish kabi illatlarni keltirib chiqardi. Boshqacha qilib aytganda joylarda boshqaruvchi ko'p bo'lib, javobgar shaxs, mas'uliyatni o'z bo'yniga oladigan rahbar kadr topilmay qoldi.

Bu hol tabiiy ravishda joylarda hokimlik boshqaruvini tashkil qilishni talab qila boshladi. Shuning uchun 1994-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekiston respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida» qonun qabul qilindi.

Oliy Kengash «Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sharoitida ijroiya hokimiyatini mustahkamlash zarurligi munosabati bilan:

1. O'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik hokimiyatiga hamda ijroiya-boshqaruv hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimi ta'sis etilsin:

2. Belgilab qo'yilsinki:

– viloyatlarning hokimlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga va Xalq deputatlari tegishli kengashlariga hisob beradilar. Prezidentning joylardagi rasmiy vakillari bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadilar va lavozimidan ozod qilinadilar. Hamda shundan so'ng tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadilar;

– tumanlar va shaharlarning (Toshkent shahri bundan mustasno) hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanib, xalq deputatlari tegishli tuman, shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadilar», – degan mazmunda qaror qabul qildi.

Shuningdek, ushbu hujjatda hokimlar boshchiligida xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni umumdavlat manfaatlariga mos tarzda, Kengash hududida yashayotgan fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qiladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlarini, yuqori davlat idoralarining qarorlarini amalga oshiradilar, – deyiladi.

Shundan keyin, qonun talablari asosida joylarda viloyat, shahar va tuman hokimlarini tanlash, tayinlash ishini amalga oshirish uchun tashkilotchilik ishlari amalga oshirildi. Avvalo bo'lajak yangi hokimlarning bilim darajasi, tashkilotchilik va tadbirkorlik fazilatlari, xalq ichida obro'-e'tiborga ega bo'lish, ishni uddaburonlik bilan olib borish fazilatlari hisobga olindi. Shu ma'noda Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasining mas'ul xodimlari, viloyatlarda, shahar va tumanlarda deputatlar va mahalliy faollar bilan jonli, oshkora suhbat, maslahatlashuv olib bordilar.

Hokimlarning ko'pchiligi rahbarlik ishida va katta hayot tajribasiga ega kishilarni tashkil qilar edi. Ayni paytda hokimlar safiga yangi kuchlar ham kelib qo'shildi. Masalan, 50 dan ortiq hokimlar birinchi marta tuman va shahar rahbarligiga kelgan kishilar edilar. Ular respublikada yashovchi turli millatlarning vakillari edi. Jumladan 7 millat vakili hokim – ya'ni birinchi rahbar qilib tasdiqlandi.

Yangi sharoitda rahbarlik lavozimlariga ko'plab yangi, yosh kadrlar qo'shildi. Bu hol mustaqillik sharoitida rahbarlikning yangicha ish uslubini ularga o'rgatishni taqozo qila boshladi. Shu maqsadda 1992-yil 3-aprelda Toshkentda viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning birinchi uchrashuvi bo'ldi. Ushbu uchrashuvda mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyingi davrdagi dastlabki yutuqlar, kadrlar siyosatining shakllanishi va uning strategiyasi

atroflicha tahlil qilindi. Mavjud kamchiliklar va galdagi vazifalar ko'rib chiqildi. Chunki, ayrim joylarda avvalgi partiya va sovet tashkilotlaridagi eskicha uslubdan hamon voz kechilmagan edi. Masalan, fuqarolar bilan ishlash, ularning talab va istaklarini qondirish borasida joylarda jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilayotgani uchrashuvda tashvish bilan qayd qilindi. Masalan, 1992-yilning yanvar – mart oylarida mamlakat Prezidenti qabuliga 5000 ga yaqin kishi murojaat qilgani, bu avvalgi yilga nisbatan ancha ko'p ekanligi aytildi. Eng ko'p shikoyat va arizalar bilan murojaat qiluvchilar Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari fuqarolari edi. Xatlar mazmunini o'rganish Prezidentning nomiga kelgan umumiy shikoyat va arizalarining 80 foizini joylarning o'zida hal qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Masalan, Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidan yo'llangan xatda bir guruh o'qituvchilar 1989-yildan buyon yer uchastkasi olisholmayotganligi haqida Prezidentga shikoyat qilingan. Bu masala tuman va viloyat rahbarlari huzurida hal bo'lmagan. Oqibatda Prezident devoni aralashuvi bilan masala ijobiy hal qilindi. Ikkinchi jahon urushining nogironi farg'onalik M.Yo'ldoshev uy-joy sharoitini yaxshilash yuzasidan 1991-yil oxirida Prezidentga xat bilan murojaat qiladi. Biroq, Farg'ona viloyati ijroiya qo'mitasi bu masalaga mas'uliyatsizlik bilan qarab «arizachining urush nogironi ekanligini inobatga olib tegishli hujjatlar bilan yashash joyidan imtiyozli navbatga olinishi taklif qilindi», degan mazmunda javob xati yo'llagan. Vaholanki, M.Yo'ldoshev 1988-yildan buyon imtiyozli navbatda turgan. Ushbu ikki misol jamiyatda tub yangilanish jarayoni boshlanganiga qaramasdan, joylardagi hokimliklarda fuqarolarning talab va ehtiyojlariga e'tiborsizlik bilan qaralayotganini ko'rsatadi. Boshqaruv shakli o'zgarsada, eski uslub o'zgarmagani, bu natijada mahalliy hokimiyat tasarrufiga tegishli bo'lgan ko'pdan-ko'p masalalar idorama-idora o'tib yurishiga olib kelmoqda edi. Bunday uslubdan yangi sharoitda mutlaqo voz kechish yangi jamiyatning qat'iy talabi ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Uchrashuvda Prezident I.A.Karimov qanday tamoyillar va talablar asosida kadrlar tanlash lozimligi haqida fikr yuritib, quyidagi holatlarga alohida urg'u berdi:

«**Birinchidan:** kadrlar masalalarini hal qilishga daxldor kishilar, ayniqsa, bizning xalqlarimizning ko'p millatli xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Kadrlarning tarkibi ustida ham, biz milliy va mahalliy cheklanishlardan ustun turish uchun ham barcha choralarni ko'rishimiz lozim. Bu o'rinda respublikaning ko'p yillik shakllangan hayot tarzini, ko'p millatlilik xususiyatlarini, o'zaro hurmat va do'stlik rishtalarini saqlab qolish maqsadlaridan kelib chiqib, ish tutishimiz lozim.

Ikkinchidan: biz kadrlarni ishbilarmonlik fazilatlarini yetarlicha qadrlay bilishimiz kerak.

Uchinchidan: Hokim mahkamasida har bir fuqaro uchun eshik ochiq bo'lishi shart... Odamlarni arzimas sabablarga ko'ra sarson-sargardon qilishga, bevosita o'z zimmasidagi ish uchun javobgarlikni o'zidan soqit qilishga urinishiga chek qo'yish payti keldi».

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotganiga o'n besh yil bo'ldi. O'tgan 1991–2006-yillarda ko'plab murakkab va jiddiy iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga to'g'ri keldi. Mavjud muammolarni hal qilishga kirishilar ekan, ayni chog'da, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasida ham qator qiyinchiliklarga duch kelindi. Shuning uchun ham hukumat mamlakatda kadrlar siyosatini zamon talabiga mos ravishda ishlab chiqish, bu boradagi ko'rsatmalarni hayotga izchil tatbiq etish lozimligini dolzarb masala qilib qo'ymoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida kadrlar yetishtirish va tarbiyalash borasida, ular bilan ishlashdagi dastlabki tajribani tahlil qilar ekan, Prezident I.A.Karimov kadrlarni uch toifaga bo'ladi.

Birinchi toifa – bu hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'ami, tashvishidan begona kishilar.

Ikkinchi toifa – befarq, loqayd odamlar bo'lib, ular hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni xohlamaydigan kimsalar.

Uchinchi toifa – yosh, tashabbuskor, kuch-g'ayratga to'la, Vatan ravnaqi uchun fidoiylik bilan xizmat qiluvchi kadrlar.

Mana shu tahlilning o'zi ko'rsatib turibdiki, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish istiqlolni mustahkamlash, mamlakatni yanada rivojlantirish manfaatlari nuqtayi nazaridan g'oyat dolzarb masaladir.

Amaliyot kadrlar siyosatida konkret lavozimlarga kishilarni tanlashning asosiy mezonlarini aniqlab olishni, umuman bu borada davlat dasturi va strategik yo'lini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Chunki kadr tanlashdek nozik va mas'uliyatli vazifa har narsadan og'ir va u mamlakat taqdirini, xalq kelajagini, istiqlol istiqbolini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatda iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida tadbir va dasturlarni amalga oshirilishi mana shu o'rta pog'ona rahbar kadrlar faolligiga bog'liqdir.

Hokimlar odamlarning tashvishlaridan, kundalik yumushlaridan xabardor bo'lib, ularni o'zaro birlashtirib, ruhlantirib, zarur sharoitlar va ma'naviy iqlim yaratib, xalq oldida turgan vazifalar ijrosiga tayyor turmoqlari lozim. **Bu – birinchidan**.

Ikkinchidan, islohotlarning taqdiri, ularning samarasi, avvalambor kadrlarning malakasiga, ularni o'z ishini qay darajada o'zlashtirib olganligiga, yurtparvarligi va fidoyiligiga bog'liqdir. Bugungi o'tish davrida

bu muammo eng dolzarb va murakkab masalaga aylanib qoldi. Bu masalani to'g'ri yechishga erishilsa, xalq g'amini, tashvishini o'z dardidek his qiladigan bilimdon, insofli, diyonatli, elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan odamlarni joy-joyiga qo'yish masalasi hal etilsa, shubhasiz, taraqqiyotimiz yana ham tezlashadi. Rahbarlik lavozimi mansab emas, avvalo odamlarga xizmat qilish mas'uliyati ekanligini barcha to'g'ri tushunib olmog'i zarur. Rahbarlik degani, hammadan ko'ra ko'proq ishlab, fuqaro saodati va yurti ravnaqi uchun yelib-yuguradigan fidoyi inson bo'lishi kerak.

Uchinchidan, har bir kadrdagi yuksak axloqiylik, halollik, vijdoniy poklik, kamtarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar eng muhim talab ekanligini ta'kidlash joizdir.

Gap kadrlar tanlovi va ularni joy-joyiga qo'yish haqida ketar ekan, ularni muntazam ravishda tarbiyalash, boshqarishga o'rgatish xususida ham borishi kerak. Chunki, hech kim tayyor rahbar bo'lib tug'ilmaydi. Uni qat'iyat va bardosh bilan tarbiyalash, o'stirmoq kerak. Har bir hayot sabog'idan to'g'ri, odil xulosa chiqarishga, xalqdan ajralmasdan, uning dardi, o'y-fikriga doimo sherik bo'lish ruhida tarbiyalamoq lozim. Bir so'z bilan aytganda har bir kadrda odamlarga etakchi bo'lish malakasini izchillik bilan shakllantirib borish lozim.

Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun 1995-yil sentabr oyida mamlakat Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tashkil qilindi. Akademiyaning ochilish marosimida nutq so'zlar ekan, I.A.Karimov shunday degan edi: **«Akademiya tashkil qilish, bu shunchaki orzu ketidan quvish, yangi bir institut tashkil etishga intilish emas, balki tabiiy zaruriyat, qonuniyat taqozosi va hayotiy ehtiyojdir... Islohotlarni amalga oshirish borasidagi bundan buyongi olg'a siljishlarimiz tobora qiyin muammoga borib taqalishi mumkin. U ham bo'lsa yuksak malakali xodimlarning eng avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat idoralari, bank va moliya tizimini boshqaradigan darajadagi rahbarlarning yetishmasligidir...**

Akademiyaning vazifasi faqatgina muayyan soha uchun kadr tayyorlab berishdangina iborat emas, balki u o'zining ilmiy, pedagogik salohiyati asosida butun maorif tizimini islohot qilish uchun yangi muhit, yangi sharoit yaratib berishi lozim».

Hukumat ko'rsatmalari asosida Akademiya qisqa vaqt ichida xalq xo'jaligining turli sohalari uchun zarur kadrlar tayyorlashda katta ishlarni amalga oshirdi. Keyingi ikki yil mobaynida 300 dan ortiq yosh mutaxassis 10 oylik kurslarda o'qib, boshqaruv sirlarini jahon amaliyoti andozalari darajasida egallab qaytdilar va turli sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shu davrda Akademiyaning malaka oshirish kurslarida bir necha yuzlab shahar va tuman hokimlari, vazirlik va davlat idoralari xodimlari

zamonaviy boshqaruv san'atining yangi qirralari bilan tanishib amaliyotda qo'llamoqdalar.

Hozirgi zamon kadrlar siyosatiga doir yana bir jihatga, ya'ni kadrlar zaxirasi, uni shakllantirish, undan foydalanishga ham e'tibor kuchaydi.

Kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yish yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shakllanib borayotgan, tuzum boshqacha mohiyat kasb etayotgan paytda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Prezidentlik devonida, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasida, viloyat va tuman hokimliklarida ishlayotganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil etmoqda. Xususan 2001—2007-yillarda vazirliklar, konsernlar, aksionerlik birlashmalari rahbarligiga yosh, navqiron, hozirgi siyosiy o'zgarishlar va islohotlarning tub mohiyatini to'g'ri anglaydigan, o'z vazifasi va burchini aniq tushunadigan yoshlar tayinlandi. Bu mamlakatni boshqarishda yangi avlodning kirib kelayotganidan, sog'lom ma'naviy-siyosiy muhit shakllanayotganidan dalolat beradi.

Boshboshdoqlik, o'zibo'larchilik, turli xildagi jinoyatchilik avj olib ketganligi sababli bir qator viloyatlar va tumanlarda, vazirliklar va yirik idoralarda rahbarlarning o'zgartirilishi bunday salbiy hodisalarga qat'iy chek qo'yish, har qanday sharoitda ham mustaqillikni mustahkamlash va mamlakat ravnaqini ta'minlash imkoniyatini bermoqda.

Mahalliychilik, urug'-aymoqchilik illatlari bilan kelisha olmaslik, barcha shaxsiy adovat va manfaatlardan umumxalq manfaatini ustun qo'yishni qat'iy talab qilish kadrlar siyosatida muhim o'rin tutadi. Rahbar eng avvalo millat ramzi, mamlakat obro'-e'tiboridir. U ana shunday yuksak unvonga munosib bo'lishi uchun Xalq, Vatan, Millat tushunchalarini hammadan chuqurroq anglashi, hammadan ko'ra ko'proq fidoyi bo'lmog'i lozim. Buning uchun unda, qalbining tub-tubida sadoqat, qat'iyat bo'lmog'i kerak. Rahbar ma'naviyati, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni xususida gapirar ekan, Islom Karimov kuyinib bunday deydi: **«Sadoqatli odam boshiga qilich kelganda ham so'zidan, ahd-u qaroridan qaytmaydi. Inson avvalo oilasiga, xalqiga, vataniga sadoqatli, vafodor bo'lishi zarur. Bugungi zamonda sadoqatli bo'lish qiyin. Oqim u tomonga tortadi, nafs bu tomonga, «o'yinchilik» boshqa tomonga. Shunday paytda odam agar mard bo'lsa, irodasi baquvvat bo'lsa, u yoq, bu yoqqa og'ib yurmaydi.**

Nima uchun bizlarda o'yin bo'layapti? Nima uchun har ehtimolga qarshi goh unisi bilan o'ynaymiz, goh bunisi bilan? Sabab shuki, ko'pchilik mas'ul rahbarlarda izchil, hayotiy pozitsiya, fuqarolik burchini teran anglash, bugungi davlat siyosatiga aniq munosabat yetishmaydi... Rahbar bo'lish uchun avvalambor kurashchi bo'lish kerak, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lishi darkor». Bu shunchaki oddiy bir gap

emas. Mahalliychilik, tor tushunchalar qobig'idan chiqolmaslik illatlariga burkalib qolish hollari bor. Bu so'zning tagida mustaqillik mohiyatini pasaytirishga, taraqqiyotimizni ataylab orqaga tortishga intilayotganlar, turli xildagi nayrangbozlar-u firibgarlardan xalos bo'lish, qat'iyat va sabot bilan haq yo'ldan to'g'ri borish va bu yo'lda birlashib harakat qilish orzu-istagi turibdi. Uning zamirida hamon joylarda amalparastlik, buyruqbozlik, tamagirlik va munofiqlik yo'qolmayotgani, hokimlar va tashkilot rahbarlari hali to'la quvvat bilan ishlamayotganligi masalasi yotibdi.

Bir qism kadrlar zamon shiddatiga bardosh berolmayaptilar. Bu toifadagi odamlarning aksariyati ko'p yillik boqimandalik, sansolarlik kayfiyatidan chiqolmayapti, hozirjavoblik, masalani o'z vaqtida to'g'ri hal etish qobiliyatiga ega emas. Iloji boricha ishni orqaga surish, xodimlarni esa o'z fe'l-atvoriga mos ravishda o'rtamiyona, «qulluqchi», «labbaychi» xillaridan tanlashga intiladi. Yana bir guruhlari esa yangilik bilan eskilik orasida chindan ham dovdirab qolgan. Eskicha ishlolmaydi, yangilikning esa mohiyatini tushunmaydi.

Bunday kadrlar haqida 2001–2007-yillarda Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi xalq deputatlari, Toshkent, Sirdaryo, Namangan, Farg'ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlari sessiyalarida ro'yirost gapirildi. Rahbar kadrlarning yana bir turi ham borki, ular haqiqatan ham mustaqillik fidoyilari. Yangicha fikrlash va yangicha ishlash uchun o'zlarida qobiliyat ham, g'ayrat va rag'bat ham sezadilar. Biroq, ular ba'zan turli xildagi to'siqlarga uchrab qoladilar. Natijada bor imkoniyatlarini ko'rsata olmaydilar. Bu tabiiy hol, o'tish davrining tabiiy qiyinchiligi.

Mustaqillikning o'tgan davri mobaynida bir necha viloyat, shahar va tuman hokimlari, vazirliklar, birlashma va konsernlar rahbarlari almashtirildi. Shu yo'l bilan davlat boshqaruv tizimi mustahkamlanmoqda. Joylarda zamonaviy fikrlaydigan, tub islohotlar mohiyatini tushunadigan va ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlar tanlanmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda kadrlarning ijtimoiy bazasi har qachongidan ko'ra kengaydi. Ma'lumki, 70-80-yillarda rahbarlik lavozimlariga ko'plab mutaxassis deb hisoblangan injener, agronom, iqtisodchilar tavsiya qilinar edilar. Qog'ozda mavjud bo'lgan rezerv kadrlar ham asosan shu toifa mutaxassislar hisobiga shakllantirilar edi. Endilikda bu tamoyil to'g'ri kelmaydi. U respublika mustaqillikka erishgandan keyin vatan ravnaqi, el-yurt farovonligi yo'lida fidoiylik bilan mehnat qiluvchi barcha tabaqa mutaxassisliklarning eng yaxshi vakillari turli darajadagi rahbarlik lavozimida samarali faoliyat ko'rsata boshladi. Shu bois, rezerv kadr shakllantirishda turli kasb va mutaxassisliklar vakillarining eng yaxshilarini hisobga olib, ularni mustaqillik

ehtiyojiga mos tarzda tarbiyalab, turli rahbarlik lavozimlariga tortish dolzarb masalaga aylandi.

Bundan tashqari erkin fuqarolik jamiyatiga, bozor iqtisodiyotiga va mulkchilikning turli-tuman shakllariga o'tish sharoitida rahbarlarning sifat tarkibini yaxshilash uchun yana bir imkoniyat paydo bo'ldi. Gap jamiyatda yuzaga kelgan yangi toifa kishilar – ishbilarmonlar, tadbirkorlar xususida bormoqda. Ular jamiyat ravnaqi uchun butun kuch-g'ayratini sarflashga qodir, hayot tajribasiga va kasb mahoratiga ega bo'lgan beqiyos tayanchdir.

Kadrlar zaxirasi shakllantirilayotganda yosh, g'ayratli, tashabbuskor xodimlarni hisobga olish bilan, ayni chog'da ma'lum darajada tajriba orttirgan kishilardan ham oqilona foydalaniladigan bo'ldi.

1997-yil 10-martda Vazirlar Mahkamasi demokratiya va bozor islohotlari talablaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan Milliy dastur tuzish maqsadida «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur tuzish to'g'risida» qaror qabul qildi. Unda butun ta'lim tizimini isloh qilish, ishlab turgan o'quv yurtlarini yangi yo'nalishga solish hamda zamonaviy texnologiyalarda ishlay oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

1997-yil, avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni yangi tahrirda va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy Dastur» qabul qilindi.

Ushbu qonunda yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish asosida Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish vazifalari ham belgilab berildi.

Kadrlar tanlovida mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik illatlaridan qutulib bo'lmayotganligiga davlatimiz rahbari 2004–2009-yillarda Surxandaryo, Toshkent, Navoiy, Andijon, Farg'ona viloyatlarida xalq deputatlari viloyat Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalaridagi ma'ruzalarida alohida e'tibor bergandi.

Shu bilan birga Oqsaroy qarorgohida Prezident Islom Karimov 2005-yil 7-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan bo'lgan uchrashuvda «Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi» mavzuida ma'ruza qilib, bu masalaga alohida urg'u berib shunday deydi. **«Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bu davlat xodimlarini lavozimga tanlash va tayinlash bilan bog'liq. Bu haqda gapirganda ko'p uchraydigan bir holatni taassuf bilan aytishga majburman. Masalan bir nomzodga ishonch bildirib, uni vazirlik lavozimiga qo'yamiz. Yarim yil, bir yil o'tgach, qani ishlaringizni bir ko'raylik, deb u boshqarayotgan sohaning ahvoli bilan qiziqsangiz,**

har qaysi bo'lim yoki tarmoqqa boshqaruv ishiga o'zining tanish-bilishlari, qarindoshlarini, bir paytlar G'allaoroldami, yoki boshqa joydami, birga ishlagan og'aynisini qo'ygan bo'lib chiqadi. Ya'ni mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik kasaliga duchor bo'ladi. Qachonki, biz kadrlar masalasining ishimizga eng katta ziyon yetkazadigan mana shunday salbiy tomonlarini bartaraf etolsak, ko'p muammolarni yechishga imkon tug'iladi».

Prezident I.Karimov kadrlar siyosatidagi yangicha talablarni o'rtaga qo'yar ekan, muhim bir talabni ilgari surdi. Hukumatning yangi a'zolariga murojaat qila turib shunday dedi: **«Hammangizga ma'lumki, bizda davlat bosh islohotchi degan tamoyil bor. Bugun shu iborani yangicha mazmunda qo'llab aytadigan bo'lsak, asosiy islohotchi davlat xodimi bo'lishi kerak.**

Hozirgi kunda islohotlar taqdirini eng avvalo davlat va hukumat idoralarida mas'ul lavozimlarda o'tirgan odamlar hal qilishini, binobarin ular shu masalaga bevosita javobgar ekanini barchamiz chuqur anglab olishimiz shart».

Shunday qilib, mamlakatda rivojlanishning keyingi yillarida shakllangan kadrlar quvvatiga tayangan holda mustaqillik sharoitida yangicha kadrlar siyosati ishlab chiqildi. Chunonchi, siyosiy yetuklik, axloqiy fazilatlar, tashkilotchilik qobiliyati bilan birga bozor iqtisodiga o'tish jarayonida ishbilarmonlik, tadbirkorlik, xalq bilan uzviy bog'liqlik, uning ijtimoiy kafolatini ta'minlashga qodirlik birinchi va asosiy mezon hisoblanadigan bo'ldi. Shubhasiz, kadrlar siyosatidagi bu yo'l mustaqillikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri edi.

MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARKIBIDA SUVEREN QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

1-§. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti

XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. 1924-yili Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati va Xiva xonligining Xo'jayli hamda Qo'ng'irot tumanlari hududida Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpog'iston Avtonom viloyati tashkil etildi. U 1930-yildan RSFSR tarkibiga kirdi. 1932-yilda Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasiga aylantirildi.

Qoraqalpoqlar tarixida 1936-yil muhim siyosiy voqealar yili sifatida abadiy qoladi. Chunki, shu yili ular o'z taqdirlarini O'zbekiston SSR tarkibiga kirish bilan belgiladi va o'z tanlagan yo'lining istiqbolli ekanligini ko'rsata oldi.

SSSR tarqalib ketganidan so'ng mustaqil O'zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi. Chunki, asrlar mobaynida qoraqalpoqlar bilan o'zbek xalqi o'rtasida do'stlik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan, turmush tarzlari va dunyoqarashlarida mushtaraklik vujudga kelgan edi. Orolbo'yi kenglik-larida qadimiy o'zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab, mehnat qilishdi. O'zlarining mushtarak taraqqiyot yo'llarini bosib o'tishdi.

Qadimiy turkiy qavmning ikki shajarasi yillar mobaynida haqiqiy og'a-inichilik fazilatlarini ko'rsatdilar, o'zaro munosabatlarni chuqur-lashtirdilar. Bu ikki qavm ma'naviy-ruhiy yaqinligini belgilaydigan asosiy omil va madaniyatlar mushtarakligi, ularning o'zaro yaqinligi edi. Darhaqiqat, tillar yaqinligi dillar yaqinligiga olib keldi. Madaniyatlar bir-birini boyitdi. Qadimiy madaniyat namunalari, umummilliy qadriyatlar, jondosh-u qondosh bo'lgan har ikki millat uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan an'analar shakllandi. Shu asosda iqtisodiy hamkorlik, yagona iqtisodiy makon vujudga keldi.

O'zbekiston tarkibida o'tgan 60 yillik tarix qoraqalpoq xalqi uchun jiddiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Madaniy va ma'naviy ravnaq, san'at va adabiyotdagi yuksalish, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishidagi katta yutuqlar bevosita qardosh o'zbek xalqining beg'araz yordami, og'alarcha ko'magi bilan dunyoga keldi.

Qardoshlik va yaqin qo'shnichilik singari yuksak insoniy fazilatlar asrlar sinovidan o'tib, og'ir kunlarda eng ishonchli qurol bo'lib xizmat

qildi. Natijada, Sovet hokimiyati yillaridagi ma'muriy-buyruqbozlik usuli, soxta va asossiz milliy siyosat, «ulug' og'a»larga xos soxta va yuzaki «millatparvarlik» bu makon xalqlarining munosabatlariga rahna sololmadi.

Qoraqalpoq va o'zbek xalqi bir necha o'n yilliklar mobaynida to'planib qolgan muammolarni hal etishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada chuqurlashtirishda o'z an'analaridan unumli foydalanish yo'lini tanladilar. Har ikki xalq taqdiri, istiqboli bir ekanligini, ularni mushtarak orzular, yagona intilish birlashtirib turganligini ochiq-oydin ko'rsatdilar. Tarixan turli davrlarda turli siyosiy o'zgarishlar va qiyinchiliklarda toblangan do'stlik va qardoshlik munosabatlari bunga asos bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sobiq SSSR davrida milliy masaladagi yuzaki yondashuvlar, balandparvoz shiorlar, asossiz chaqiriqlar faqat «ulug' og'a»lar manfaatiga xizmat qilardi, xolos. Bu shiorlar milliy ravnaq, kichik xalqlarning milliy taraqqiyoti, ittifoqdosh respublikalar xalqlarining milliy ehtiyojlarini qondirishdan uzoq edi. Totalitar davlatchilik paytida birinchi rahbar biron marta ham Qoraqalpog'istondan bo'lmagan, uning xalqi hayoti bilan tanishmagan, unga yaqindan yordam bermagan edi.

Yuqoridan amalga oshirilgan bir yoqlama rejalashtirish, kichik xalqlarga bo'lgan e'tiborning sustligi tufayli Qoraqalpog'iston sobiq ittifoq tarkibida taraqqiyot darajasi eng past bo'lgan o'lkaga aylandi. Ittifoq hukumatining aybi bilan qiyinchiliklar chuqurlashdi, muammolar ustiga muammolar to'plandi. Ekologik halokat yuzaga keldi. Amudaryo suvining ifloslanishi va Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar paydo bo'ldi.

To'planib qolgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot borasidagi muammolar tizimini hal etishda eng adolatli yo'l tanlandi: yagona zamin, yagona makon birlashtirib turgan, umumiy taqdirini mushtarak etgan O'zbek va Qoraqalpoq xalqlari o'z taqdirlarini abadiy birlikda ko'rishdi. Qoraqalpoq xalqi milliy davlatchilik asoslarini qurishda hamda tom ma'nodagi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka o'zbek xalqi ko'magida erishdi va o'zining porloq kelajagini yaratishga kirishdi. Uning ulkan orzu-umidi bekam-u ko'st amalga oshadigan bo'ldi.

Qoraqalpog'iston jamoatchiligining O'zbekiston tarkibida davlat mustaqilligi va respublika maqomining huquqiy asosiga ega bo'lishga intilishi Prezident Islom Karimov tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Natijada 1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risidagi» Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari

to‘g‘risida»gi Qonunda o‘zining huquqiy maqomiga ega bo‘ldi. Unda Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi to‘la e’tirof etildi. Qonunda Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar teng huquqlilik, ikkitomonlama shartnomalar, bitimlar va boshqa qonun aktlari asosida mustahkamlanishi ko‘rsatib berildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70—75-moddalar) o‘z aksini topdi. Natijada ikkitomonlama hurmat asosida qoraqalpoq xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat’iy ishonch bilan qaraydigan, olis istiqbolni yaratishning kafolatini beradigan huquqiy maqomga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek (70-modda) Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarosi ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Bu qoraqalpoq xalqiga O‘zbekiston xalqlarining barcha huquqlardan foydalanish imkonini beradi. Ularning haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi taraqqiyoti uchun qator imkoniyatlar beradi. Masalan, Oliy Majlis va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida uning huquqiy vakilligi mavjud. 86-moddada mustahkamlab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili bo‘ladi.

Konstitutsiyaning 98-moddasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. 107-moddaga binoan esa O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining xuddi shunday huquq organlari kiradi. Sud hujjatlari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq tilida ham olib boriladi (115-modda).

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 71-moddasida belgilab qo‘yilganidek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘lmog‘i kerak. Ana shu huquqiy asosga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993-yil 9-aprel) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hech qanday monelik qilmaydi, aksincha uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog‘iston hududida to‘la amal qilishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘istonning butun hududida majburiy ekanligi e’tirof etilgan.

Qoraqalpoq milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta ana shunday insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i, 1993-yil 9-aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat tamg'asi, 1993-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 1994-yil 25-dekabrda Oliy Kengashning 86 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobillik asosida saylandi. Ayni paytda parlament Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi deb ataladi. Jo'qarg'i Kengesning 1995 yil 11 yanvarda, Nukus shahrida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Jo'qarg'i Kenges Raisi, uning o'rinbosarlari, mandat komissiyasi, 8-qo'mita raislari va uning a'zolarini sayladi. Ayni paytda deputatlar qo'mitalar raislari rahbarligida respublika qonunchilik tizimini yaratishda faol ishtirok etmoqdalar.

Xususan, demokratik jamiyat qurish, erkin bozor munosabatlarini shakllantirishga mo'ljallangan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi. Jo'qarg'i Kenges Raisi qoshida doimiy harakatdagi Kengash tashkil qilingan bo'lib, uning tarkibiga Jo'qarg'i Kenges Raisi, rais o'rinbosarlari, Ministrlar Kengashi raisi, mandat komissiyasi va qo'mitalar raislari kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya organi Ministrlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibiga rais, ikkita birinchi o'rinbosar va 4 ta tarmoq o'rinbosarlari kiradi. Shuningdek, ijroiya hokimiyat tarkibini Vazirliklar va qator tarmoq qo'mitalari rahbarlari tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ministrlar Kengashi Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida o'zining ish olib boruvchi doimiy vakiliga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qator jamoat tashkilotlari bu yerda demokratik jarayonlarning tobora qaror topayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda Respublika hududida hukumatga qarashli bo'lmagan qator tashkilotlar, jumladan, «Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi» «EKOSAN» «Aralsos», «Sog'lom avlod uchun» singari bir qator xalqaro tashkilotlarning bo'limlari ish olib bormoqda.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatining zamonaviy tizimini vujudga keltirishda dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, hali bu borada qator muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

1997-yil 17-iyul kuni Nukusda bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesining navbatdan tashqari sessiyasi qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati faoliyatlarida davom etib kelayotgan

kamchiliklarni chuqur tahlil qildi. Xususan, qabul qilingan qonun va qarorlarni hayotga to'la tatbiq qilinishida, ijroiya intizomini qaror topdirishda hali jiddiy kamchiliklar borligi qayd qilindi.

Shu bois sessiyada nutq so'zlar ekan, Prezident I.Karimov «**... Har bir boshqaruv tizimi, har bir rahbar organ, avvalo o'z tasarrufida belgilangan, topshirilgan ishlar bilan shug'ullanishini ta'minlash zarur**», – deb ko'rsatma berdi.

Sessiyada Qoraqalpog'iston boshqaruv tizimida bir qator kamchiliklar mavjudligi ro'yirost ko'rsatib o'tildi. Jumladan, Jo'qarg'i Kenges va Ministrlar Kengashi faoliyatlaridagi bir-birini takrorlash hollari tanqid qilindi. Amaliy faoliyatga xalaqit berayotgan rasmiyatchilik, hujjatbozlik, bo'lar-bo'lmas ma'lumotlar to'plash kabi nuqsonlar tilga olindi.

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi rasmiyatchilik va to'rachilik illatlariga barham berish alohida ta'kidlandi. Jo'qarg'i Kenges amalda tarixga aylanib qolgan va o'tmish sarqiti hisoblangan– sho'rolar davridagi «Oliy Sovet Prezidiumi» rolini bajarayotgani ko'rsatib o'tildi.

Jo'qarg'i Kenges qo'mitalari faoliyati o'z maqomiga va o'z oldiga qo'ygan vazifalarga mos kelmaydi. Jumladan, ular muhokama qilayotgan masalalarning aksariyati ishlab chiqarishga doir muammolardir. Aksincha, qonunchilik bilan shug'ullanish, har bir qo'mita o'z sohasi bo'yicha qonunlar tizimini yaratish lozim.

Qonunchilik hokimiyati – Jo'qarg'i Kenges o'z vazifasi, Ijro hokimiyati – Ministrlar kengashi va sud hokimiyatlari o'z maqomi doirasida ish olib bormog'i lozim. Ana shunda haqiqiy demokratik jamiyat shakllanadi.

1991–2008-yillar, aytish mumkinki, Qoraqalpog'iston davlatchiligi shakllanish davri bo'ldi. Ayni paytda bu o'lkada hozirgi zamon davlatchiligi ilg'or tajribalari asosida, O'zbekiston davlatining ko'magi va yordami bilan amaldagi konstitutsiyalar doirasida har tomonlama rivojlanmoqda. Fuqarolik jamiyati tamoyillari tobora chiqurlashmoqda.

2-§. Iqtisodiy taraqqiyot

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ko'p millatli Qoraqalpog'iston xalqining, ana shu mo'tabar yurt kishilarining ham munosib hissasi bor.

Shu bois mamlakat hukumati bu masalada Qoraqalpog'iston Respublikasini har tomonlama qo'llab-quvvatlamoqdaki, 1996-yili ushbu maqsadlar uchun 10 milliard so'm mablag' ajratildi. Bu Qoraqalpog'iston milliy daromadining 55 foizini tashkil qilardi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istonga berilayotgan moliyaviy yordam miqdori 1994-yilga nisbatan 18 barobar ko'paydi.

2006-yilga kelib O'zbekiston markaziy budjetidan Qoraqalpog'istonga berilayotgan subvensiya, ya'ni moliyaviy yordam miqdori yana ham ko'paydi, yoki butun Qoraqalpog'iston budjeti xarajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O'zbekiston hukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoyi mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissasi oshib bordi. 2006-yilga kelib sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo'nalishlarida ham modernizatsiyalash jarayoni tobora chuqurlashmoqda.

Jumladan, bank tizimida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu yerda davlat banklari bilan birga tijorat va xususiy banklar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. Qoraqalpog'iston tarixida birinchi marta tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

Qoraqalpog'istonda ulgurji va birja savdosi bilan shug'ullanuvchi hissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqliligini ta'minlash choralari ko'rildi.

Qoraqalpog'istonda 1996-yili 51 ta ulgurji tizim, shu jumladan 2 ta savdo uyi, 13 ta ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozor hamda O'zbekiston tovar xomashyo birjasi Qoraqalpog'iston bo'limi 19 ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi. 1997-yilning birinchi yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy hajmi 330 million so'mni tashkil etdi. Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi.

Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 1996-yilda respublika fond birjalari filiallarida 191,6 million so'mlik aksiyalar sotildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirishga oid farmonlarini bajarish amalda o'z samaralarini bera boshladi.

1997-yil 1-yanvar holatiga qaraganda respublikada soliq idoralari tomonidan 318 ta aksionerlik jamiyatlari ro'yxatga olindi. 1996-yil yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 10355,7 mln. so'mlikni tashkil etdi, bu 1995-yilga nisbatan 2,2 marta ko'pdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o'sdi. 144 ta sanoat korxonalari va birlashmalaridan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi, jumladan, xususiy korxonalar 20, jamoa korxonalari 50, davlat aksionerlik jamiyatlari 41, qo'shma korxonalar 2 ta bo'ldi. Kichik va xususiy korxonalar, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar rivojlandi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslasha boshladilar. Mehnat unumdorligi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10754,4 mln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi, bu solishtirma narxlarda olganda 1995-yildagiga nisbatan 101,5 foizni tashkil etadi.

1991–1996-yillarda natura ko'rinishida mahsulot ishlab chiqarish ham ko'paydi, xususan past voltli apparaturalar, yo'l qurilishi mashinalari ehtiyot qismlari, yengil sanoat texnologik uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, mebellar va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suv va boshqa salqin ichimliklar ishlab chiqarish ko'paydi.

1996-yilda yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar va osh tuzi ishlab chiqarish hajmi va turi o'sdi.

Sanoatda bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi, natijada respublikaga chetdan shisha idishlarni tashib keltirish sezilarli darajada kamaydi.

1996-yilda Qo'ng'irotdagi «Urga» gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi keskin oshdi. «Qoraqalpoqqurilish» aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv. m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi marmar sexi ochildi. «Nukusun» zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sex qurildi.

Yengil sanoat ishlab chiqarishining bazasi kengaya bordi. 1993-yilda Nukus shahrida «Kateks» to'qimachilik majmuasi, 1995-yilda Ellikqal'a tumanida ham «Elteks» nomli xuddi shunday to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nukus va

Qo'ng'irot un kombinatlari, To'rtko'lda 3 million shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal'a tumanida esa shunday quvvatga ega bo'lgan konserva sexi foydalanishga topshirildi.

1995-yilda Qo'ng'irot tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan, yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilib ishga tushirildi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasidan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o'tib ishlay boshladi. Nodavlat shakliga o'tib ishlayotgan korxonalarning rivojlanish darajasi oshdi. Shuningdek, korxonalar iqtisodiy samaradorligi, foyda olish borasida ham sezilarli yutuqqa erishdi. Bu borada xususiy korxonalar ayniqsa, peshqadamlik qila boshladi.

Lekin shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ayrim sanoat korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (dastgohlar, mexanizmlar) ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgani sezilib qoldi. Ularning eskirish darajasi 35 foizdan yuqori. Eng avvalo yigiruv-to'quv fabrikalari, go'sht-sut va oziq-ovqat sanoati korxonalari (konserva zavodi, vino zavodi) ishlab chiqarish parklarini yangilash talab etiladi.

Qoraqalpog'istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatorida agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o'tish ro'y berdi. Qishloq xo'jaligi ilgarigidek, respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lib qoldi. 1997-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 263 ta qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi. Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarning hissasi 97,9 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 95,1 foizni, bog'dorchilikda 98,5 foizni, pillachilikda 100 foizni, go'sht yetishtirishda 98,9 foizni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorako'l teri va jun yetishtirishda 100 foizni tashkil etdi.

Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o'zgardi. Agar 1991-yilda g'alla maydonlari ekin maydonlarining 27,1 foizini (jumladan, bug'doy 1,9) tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilning oxirida bu 35,8 foizga yetdi (bug'doy maydonlari 8,3 foiz). Shu davr mobaynida bug'doy yetishtirish 13,6 ming tonna, ya'ni 3 marta, kartoshka 6,7 ming tonna yoki 2,3 marta, sabzavot 11,4 ming tonna, uzum yetishtirish 4 martaga ko'paydi. Respublika oziq-ovqat majmuasida shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning hissasi tobora ko'paydi.

Paxtachilik keskin rivojlandi. Xususan, 2005-2006-yillarda paxta yetishtirish va uni eksport qilish rejalari oshirib bajarildi.

Shu bilan birga chorvachilikda ahvol ancha mushkullashdi. Murakkab iqlim sharoiti tufayli respublikada mustaqillikning dastlabki yillarida hayvonlar soni kamaydi. Jumladan, 1991–1996-yillarda xo'jaliklar, davlat xo'jaliklari, ijara korxonalari, kooperativlarda va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida 22 ming 588 bosh yirik shoxli qoramol, 23 ming 236 cho'chqa, 176 ming 603 bosh qo'y va echkilar yo'qotildi.

Qoraqalpog'istonda dehqon fermer xo'jaliklari tashkil etish bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Masalan, Ellikqal'a tumanida dehqonlarga yer, ishlab chiqarish vositalari va yetishtirilgan mahsulotlarga egalik qilish imkonini berish maqsadida mavjud 14 ta jamoa xo'jaliklari dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Ana shu tajribani ma'qullab, O'zbekiston hukumati maxsus qaror qabul qildi. Xo'jalik yuritishning bu yangi usuli boshqa viloyatlarda yaxshi natija berdi. Lekin, Qoraqalpog'istonning o'zida ana shu tajribani ommalashtirishga jiddiy e'tibor berilmadi. Oqibatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida ularning hissasi nihoyatda kam bo'ldi. Buning asosiy sababi fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar yaxshi ishlamadi, bo'rdoqichilik bazasi sust rivojlandi, zotdor hayvonlarni ko'paytirish qoniqarsiz ahvolda, moddiy-texnika va pul mablag'lari bilan ta'minlash past darajada, agrotexnik va zooveterinariya xizmati ko'rsatish juda bo'sh tashkil etildi. Biroq, tajribalar o'z samarasini berdi. 2000-yildan boshlab bu sohada katta siljishlar yuz berdi. 2006-yilga kelib, dehqonchilik qilinadigan yerlarning asosiy qismi o'z egalarini topdi, mulkchilikning fermerlik shakli rivojlandi.

Keyingi yillar ichida investitsiya faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Kapital qurilishda korxonalarning mablag'lari hisobidagi qurilishlar hajmi ko'payib, budjet mablag'ining hissasi kamaydi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarish korxonalari qurilishiga ajratilgan mablag'lar noishlab chiqarish obyektlariga ajratilgan mablag'ga nisbatan ancha ko'p bo'ldi. Masalan, 1995-yilda ishlab chiqarish korxonalari qurilishiga ajratilgan mablag' 61,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, birgina 1996-yilda bu 78 foizga yetdi. Bir vaqtning o'zida noishlab chiqarish obyektlari uchun ajratilgan mablag'lar miqdori 38,8 foizdan 22 foizgacha kamaydi.

Respublikada xususan 2000–2006-yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarga ham katta e'tibor berildi. 1996-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari hissasi Rossiya 11,4 foiz, AQSH 14,1 foiz, Janubiy Koreya 11,1 foiz, Shveysariya 9,4 foiz, Niderlandiya

7,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilga kelib bu ko'rsatkichlar ancha oshdi.

Eksport qilingan tovarlar hajmi 122,9 million dollarga teng bo'ldi. Uning tashqi savdo oborotidagi ulushi 53,8 foizni tashkil etdi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xomashyo 113,6 million AQSH dollarini, yaqin g'arb mamlakatlariga jo'natilganlari esa 9,3 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Uzoq g'arbga asosan paxta tolasi, toladan olingan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotildi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi.

Tashqi savdo oborotida importning salmog'i 1996-yilda 46,2 foizni tashkil qildi. Uning hajmi 1995-yildagiga nisbatan 3,4 marta ko'paydi. Import mahsulotlari tarkibida asosan xalq iste'mol mollari 60,9 foiz, qora va rangli metallar 18,9 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 13,1 foizni tashkil etdi.

Uzoq g'arb mamlakatlaridan keltirilgan mahsulotlar 70,1 million AQSH dollariga teng bo'lib, bu jami importning 66,4 foizini tashkil qildi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan respublikaning 130 korxonalari orqali 35,4 million dollarlik mahsulotlar olib kelindi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug'doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar va boshqa turdagi mahsulotlar keltirildi.

Bular Mustaqillikning o'tgan davrida qo'lga kiritilgan dastlabki yutuqlar. Biroq, respublikaning hali foydalanilmagan, iqtisodiyotni rivojlantirishga muhim omil bo'lgan imkoniyatlari to'la ishga solinmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasini 2006-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish makroiqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, xalq xo'jaligini modernizatsiya qilish borasida salmoqli qadamlar qo'yildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berildi. Xususan, 2006-yilda Qoraqalpog'istonning yalpi hududiy mahsuloti avvalgi yildagiga nisbatan 106,3 foiz o'sdi.

Agar sektorda erishilgan bu yutuqlarning bosh omili qishloq mulkdorlari sinfi, mamlakat iqtisodiyotining tayanchi va suyanchi – fermerlar mavqeyi yanada mustahkamlandi. Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining o'zak tarmoqlaridan biri hisoblangan sanoatda 175 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2005-yildagiga nisbatan 110 foiz o'sishga erishildi. Biroq, sanoatdagi bugungi o'sish – o'zgarishlarni yuksak talablar darajasida, deb bo'lmaydi.

2007-yilda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko'paytirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etishni tubdan chuqurlashtirish vazifalari belgilandi. Yog'-moy sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar sust, yangi texnologiyalar bilan jihozlash orqada qolgan.

Qoraqalpog'istonning yerosti boyliklarini o'zlashtirish, xususan, uglevodorod zaxiralarini mamlakat manfaatlariga bo'ysundirishda ilg'or xorij sarmoya va texnologiyalaridan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

2008-yili Qoraqalpog'istonda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga jami 250 milliard so'mlik investitsiyalar kiritildi. Natijada yangi maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qad rostladi.

3-§. Ijtimoiy sohaning rivojlanishi

Mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. 1991–1996-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida ma'lum demografik o'zgarishlar ro'y berdi. Tug'ilish (ming kishi hisobida) 1991-yildagi 36,4 dan 1996-yilda 25,0 kishiga qisqardi. Tug'ilishning kamayishi o'z o'rnida respublika aholisining o'sish darajasiga ta'sir etdi. Jumladan, O'zbekistonning viloyatlar ichida aholi o'sishi eng past bo'lgan Toshkent viloyatidan (23,4) pasayib ketdi (18,6). Demografik o'zgarishning asosiy sabablaridan biri tug'ilishning kamayishiga, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yashash sharoitlariga bog'liqdir. 1991–1996-yillarda respublikadan (kelganlarni chiqarib tashlaganda) 26,7 ming kishi ko'chib ketgan. 1997-yil 1-yanvar holati bo'yicha respublika aholisi 143 ming 764 kishini, shundan shahar aholisi 694,1 ming kishini, qishloq aholisi 74 ming 363 kishini tashkil etdi. 1996-yilda aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,36 foizga teng bo'ldi.

Ishsizlar soni har yili o'zgarib turibdi, 1996-yil oxirida ular 4,2 ming kishiga yetdi. 1996-yilda 16 ming ishchi o'rinlari yaratildi, jumladan, qishloq joylarida 8,5 mingta. Bu esa shahar va tuman mehnat birjalariga murojaat qilgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash imkonini berdi.

1996-yilda aholi jon boshiga pul daromadlari 9628,8 so'mni, xarajatlar esa 6300 so'mni tashkil etdi yoki 1995-yilga nisbatan 2,2 va 2,3 marta ko'paydi.

Daromadlarning ko'payishi iste'mol bozoridagi vaziyatni jonlantirdi. Aholi jon boshiga tovar aylanishi hajmi amaldagi narxlarda 5 ming 36 so'mlikni tashkil qildi va 2,1 martaga, solishtirma narxlarda esa 8,8 foizga o'sdi. Pullik xizmat 2,8 marta, maishiy xizmat 2,7 martaga ko'payib jon boshiga 679 va 108 so'mni tashkil etdi. Lekin shunga qaramasdan aholi jon boshiga xizmat ko'rsatish hajmi O'zbekiston Respublikasi ko'rsatkichidan 2,2 marta kam bo'ldi.

1996-yilda aholiga 7,2 milliard so'mlik iste'mol mollari sotilgan. Bu amaldagi narxlarda 1995-yildagiga nisbatan 2,1 marta ko'p. Tovar aylanishining jami hajmi 10,3 foizga yoki 350,5 million so'mlikka ko'paydi. Tovar oborot hajmida davlat sektorining ulushi pasayib, nodavlat sektoriniki o'sib bordi. Rasmiy savdo tarmoqlariga nisbatan iste'mol va

buyum bozorlarida holat ancha yaxshilandi, jami tovar oborotida ularning ulushi 20 foizga yetdi.

Ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqi izchil o'sib bordi. 1996-yilda u 1409 so'mdan 2761,1 so'mga yetdi yoki 1,96 marta ko'paydi.

Respublika tibbiyoti erishgan natijalardan eng muhimi — onalar o'limi soni kamaydi. «Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha milliy Dastur»i hamda «Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks Dasturi»ning ishlab chiqilganligi va amalga oshirilganligi natijasida 1996-yilda onalar o'limi 1991-yildagiga nisbatan 4,4 marta, chaqaloqlar o'limi esa 1,8 martaga kamaydi. Homilador ayollarning 56 foizi statsionarlarda tug'ishgacha bo'lgan davolanishdan o'tkazildi.

Respublikada jarrohlik, maxsus davolash ambulatoriya markazlari tashkil topdi.

Tarmoqni moliyalashtirishda davlat mablag'lari bilan birga nodavlat manbalaridan ham foydalanilmoqda. Xo'jalik hisobida, yakka tartibda, kooperativ usulda ishlaydigan tibbiyot tarmoqlari kengayib bormoqda. «Medtexnika», «Optika», «Tibta'minot» dorixona muassasalari to'la davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirildi.

Lekin shu bilan birga respublikadagi ekologik tanglik tufayli aholining kasallanishi kamaymadi. Masalan, bu ko'rsatkich 1996-yilda 1991-yilga nisbatan 26,3 foizga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1992-yilda Nukusda Orol muammosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya bo'ldi. Bu konferensiya qarorlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 2-sentabrda «Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 405-sonli qaror qabul qildi. Bu qarorning bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati katta kuch sarfladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to'la hal qilindi. 1992—1996-yillarda Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 kilometr vodoprovod tarmog'i olib kelindi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 59,5 foizga yetdi. Shu yillarda 16,3 kilometr kanalizatsiya va 4057,5 kilometr gaz tarmoqlari yotqizildi. Respublika aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 85,4 foizni, shu jumladan, shaharda 100 foizni, qishloqda 72,4 foizni tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston xalqi I.A.Karimovning BMT minbaridan turib dunyo mamlakatlarini Orol dengizini saqlab qolishga qarata chaqirig'ini katta qoniqish bilan kutib oldi. Uning tashabbusi bilan 1994-yil (14-yanvar) Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda

Orolga va Orolbo'yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi. 1995-yil sentabrda I.A.Karimov tashabbusi bilan Nukusda o'tkazilgan xalqaro konferensiya esa tarixiy voqea bo'ldi. Bu anjumanning asosiy hujjatlaridan biri – Nukus Deklaratsiyasi bo'lib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi.

1997-yil mart oyida Almatida Markaziy Osiyo respublikalari Kengashi yig'ilishi bo'ldi. Bu yig'ilishda ham I.A.Karimov tashabbusi bilan Orolbo'yi xalqlariga ijtimoiy muammolarini yechishda amaliy yordam berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston hukumatining Orolbo'yi muammolari to'g'risidagi tashabbuslari yerlik xalqlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Amudaryo bo'yidagi mehnatkashlar ekologik vaziyatning yaxshilanishiga, xalqaro forumlarda Orol dengizi muammolarini hal qilishga doir qabul qilingan qarorlar o'z samarasini berishiga qat'iy ishonch bildirmoqdalar. Belgilangan chora-tadbirlarni tezda amalga oshirish natijasida qishloq joylarida, sanoatda mehnat unumdorligi o'sayapti, ishlab chiqarish rivojlanyapti, aholining ish bilan bandligi oshmoqda.

2000–2007-yillar Qoraqalpog'iston uchun ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos davri bo'ldi. Shu yillar mobaynida sog'liqni saqlash, ekologik muammolarni hal etish, fuqarolarni mehnat bilan bandligini ta'minlash, qo'shimcha ish joylarini tashkil etish borasida izchil ish olib borildi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi ancha oshdi. Chunonchi 2002-yilda Respublikada eng zamonaviy meditsina asbob-uskunalari va dori-darmonlar bilan ta'minlangan 95 ta qishloq vrachlik punkti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2008-yilga kelib ular soni 171 taga yetdi.

Aholini ish bilan ta'minlash, ularning foydali mehnat bilan shug'ullanishi borasida qator chora-tadbirlar majmui amalga oshirildi. Natijada quyidagi yutuqlarga erishildi: 2002-yilda 22000 ta, 2003-yilda 21000 ta, 2004-yilda ham 21000 ta, 2005-yilda 23000 taga yaqin, 2006-yilda 22000 ta, jami 109000 ta ish joyi tashkil etildi. Shulardan 79000 taga yaqini qishloq joylarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarishning kasanachilik usuliga ham katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, ayni paytda o'lkada 650 ta xonadonda aholi kasanachilik bilan shug'ullanmoqda.

Respublika aholisining o'rtacha oylik ish haqi 2002-yildagi 17,5 ming so'mdan 2006-yilga kelib 96 ming 300 so'mga yetdi. O'qituvchilar maoshi ham keskin oshdi. Bu sohada 2008-yil yakunlariga ko'ra ko'rsatkich qariyb 2 baravarga yetdi.

4-§. Xalq ta'limi, fan va madaniyat

Qoraqalpoq xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali san'ati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlari, udum va an'analari olamga mashhurdir.

Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda ko'p qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Ernazar Olako'z, Ollayor Do'stnazarov singari xalq qahramonlarining – jasoratli, o't yurakli Qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi.

Milliy madaniyat va ma'naviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq, Ajiniyoz bobolar ijodiy meroslarining to'la tiklanishiga, aziz xotiralarining ulug'lanishiga yo'l ochib berdi.

Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, To'lepbergen Qaipbergenov, Tilovbergen Jumamuratov kabi qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz ma'naviy xazinasidan munosib joy oldi.

Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar O'zbekiston fani rivojiga juda katta hissa qo'shdilar.

Bugungi kunda respublika xalq ta'limi tizimi milliy uyg'onish, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojiga xizmat qilishda yetakchi rol o'ynamoqda.

Respublikadayangi tipdagi o'rtaumumta'lim muassasalari – litseylar, gimnaziyalar va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar tez rivojlanmoqda. 1996-yil oxirida respublikada 743 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi, shu jumladan, ayrim fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar 1991-yilda 31 ta bo'lgan bo'lsa, 1996-yilda 169 taga yetdi, litsey va gimnaziyalar 19 taga yetdi. O'tgan yilning o'zida o'quvchilar soni 1743 nafarga ko'paydi.

Barcha qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida traktorchi-mashinistlar tayyorlash chegaralanib, o'rniga turli mintaqalar uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, gilam to'qish, keramik buyumlar tayyorlash, ganchkorlar va boshqa shu kabi hunar egalarini tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi.

Respublikadagi 22 ta o'rta maxsus o'quv yurtlarida, shu jumladan, kunduzgi bo'limda 11,8 ming o'quvchi ta'lim olmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universiteti hamda Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida 9 ming nafar talaba o'qimoqda. Universitetda qishloq xo'jaligi va tibbiyot ixtisosligi bo'yicha fakultetlar ham mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qiyinchiliklariga qaramay respublika hukumati xalq ta'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choratadbirlarini ko'rmoqda. Keyingi 6 yilda 42 ming 778 o'rinli maktab, 6 ming 660 o'rinli bog'cha, 6 ming 840 o'rinli kasb-hunar kollejlari binolari qurilib foydalanishga topshirildi. Birgina 1996-yilning o'zida esa 3126 o'rinli maktab qurib ishga tushirildi.

1991–1996-yillarda fan sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialiga Qoraqalpoq bo'limi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bo'lgan bo'lsa, yana ikkita institut qo'shildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya hamda bioekologiya institutlari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi. Botanika bog'i bo'linmasiga esa bo'lim maqomi berildi. 1994-yilda esa Fanlar Akademiyasi tarkibiga O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

Fanlar Akademiyasida tashkil etilgan bunday tadbirlar olimlarga tabiiy va ijtimoiy fanlarni yanada rivojlantirish, xalq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirishda muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga yordam berdi. Qoraqalpoq fanida erishilgan yutuqlar hamda to'rt jildlik «Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati»ni yaratishdagi xizmatlari uchun fanlar akademiyasi bo'limining 4 nafar ilmiy xodimlari (M.Qalandarov, R.Yesemuratova, A.To'raboyev, D.Qozoqboyev) 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi tashkil etildi. Uning tarkibiga Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti hamda sholichilik va chorvachilik institutlarining filiallari kiritildi.

Nukusda SANIIRIning bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Toshkent olimlari ko'magida katta miqdordagi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi. Respublikadagi 60 nafar fan doktorlari va 600 nafar fan nomzodlaridan deyarli 30 foizi O'zbekiston Mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar. Ilgari fanlar akademiyasi haqiqiy a'zoligiga saylangan Ch.A.Abdirov, S.K.Kamolov, A.B.Baxiyevlar qatoriga 1994–2000-yillarda T.Yeshanov, A.Dauletov, U.Hamidov va J.Bozorboyev ham qabul qilindilar. 1997-yilda esa ikki nafar rassom (J.Izentayev va J.Quttimuratov) O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandilar.

Respublikada yuqori malakali kadrlar o'sishida ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tarix va arxeologiya, etnografiya, til va adabiyot bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining himoya qiluvchi ixtisoslashgan Kengashlarning tashkil etilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublika olimlari keyingi yillarda chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi bioekologiya instituti xodimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993-yildan beri Orolbo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamda

fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib bormoqdalar. 1995-yilda Mo'ynoqda Germaniya Federativ Respublikasi yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi.

Mustaqil O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o'rin egallaydi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergan Qaipbergenovlar qatoriga yangi nomlar kelib qo'shildi. Saginbay Ibrohimov, Kenesboy Rahmonov kabi shoirlar, Guloysha Yesemuratova, O'zarboy Abdurahmonov, Muratboy Nizanovlar ana shular jumlasidandir.

Xalq ta'limi, fan, madaniyat ravnaqini ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning xalqi uchun muhim vazifalardan hisoblanadi. 2007-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, o'lkada 761 ta umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Eng zamonaviy o'quv qurollari bilan jihozlangan 76 ta kasb-hunar kollejlari, 7 ta akademik litsey yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan shug'ullanmoqda.

San'at va madaniyatning boshqa sohalari rivojiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Ayni paytda Respublikada 3 ta teatr, 4 ta konsert muassasalari, 3 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Muzeylar eksponatlari yangidan yangi asarlar va jihozlar bilan boyib bormoqda. Ular soni 2002-yilda 78 mingta bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 82 ming 600 tadan oshdi. Badiiy adabiyot milliy madaniyatining muhim bo'g'ini sifatida rivojlanmoqda.

2002–2007-yillar mobaynida ikki atoqli qoraqalpoq adiblari – To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupovlarga milliy madaniyatning rivojlanishidagi g'oyatda katta xizmatlari uchun davlatimizning oliy mukofoti – «O'zbekiston qahramoni» unvoni berildi. Bir qator san'atkorlarga «O'zbekiston xalq artisti», «O'zbekiston xalq rassomi», «O'zbekiston san'at arbobi» unvonlari berildi.

Ayni paytda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi o'lkada fan taraqqiyotining asosiy tayanchi vazifasini bajarmoqda. 2002-yilda 3 ta oliy o'quv yurti ishlagan bo'lsa, 2007-yilga kelib ular soni yana ikkitaga ko'payib, jami 5 taga yetdi. Ularda zamonaviy kadrlar tayyorlash, o'quv-pedagogik ishlar bilan birga fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan keng miqyosli ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda.

1993-yil yanvarda Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari, noyabr oyida esa Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari o'tkazildi. Bu tadbirlar Nukus va Toshkent madaniyat xodimlari faoliyatini bir-birlariga yaqinlashtirdi. 1996-yilda Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta «Oyjamol» nomli qoraqalpoq baleti (N.Muxammedinova musiqasi, T.Xodjayev asari) sahnalashtirildi. 1996-yilda O'zbekiston Mustaqilligining 5 yilligi oldidan o'tkazilgan «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq-tanlovida yosh qo'shiqchi Roza Kutekeyeva «Mustaqillik

gullari» qo'shig'i bilan ishtirok etib, faxrli ikkinchi o'rinni oldi. Shu yili yana Amir Temur rolining eng yaxshi ijrosi uchun konkursida Berdaq nomidagi drama teatri artisti Bozorboy Uzoqberganov qatnashib, birinchi o'rinni oldi. Bu misollar Qoraqalpog'iston san'atkorlari Mustaqillik yillarida erishgan muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

Qoraqalpog'iston san'atida erishilgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib etishda Rassomlar uyushmasi, I.V.Savitskiy nomidagi san'at muzeyi, tarix-o'lkashunoslik muzeyi katta targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bormoqda.

Moliyaviy qiyinchiliklarga, qog'oz taqchilligiga qaramay Qoraqalpog'iston Jo'qarg'i Kenges, Ministrlar Kengashining «Yorqin Qoraqalpog'iston», «Qoraqalpog'iston xabarlari» gazetalari, yozuvchilar uyushmasining «Amudaryo» jurnali, «Respublika Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi xabarlari» ilgarigidek muntazam chiqarilmoqda. 1991-yildan respublikada hukumatga qarashli bo'lmagan «Orol qizlari» jurnali chop etila boshladi.

1991–1996-yillarda Nukus shahrining 60 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining 170 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi keng nishonlandi. Bular o'zbek va qoraqalpoq xalqlari do'stligining ramziy belgilaridir. Bular O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixidagi eng muhim voqealar, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi do'stlik ramzidir.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Nukus shahri 60 yilligi bayramida: «O'zbekiston taqdiri bu – Qoraqalpog'iston taqdiridir, o'zbek xalqining taqdiri bu – qoraqalpoq xalqining kelajagidir» degan otashnafas so'zlari qoraqalpoq xalqi xotirasida abadiy saqlanib qoladi.

Bugun Qoraqalpoq xalqi shuni yaxshi biladiki, uning amaldagi suvereniteti, Mustaqilligi faqat O'zbekiston bilan birga bo'lgandagina ta'mirlanishi mumkin. Shuning uchun ham qoraqalpoq xalqi o'z taqdirini o'zbek xalqi va O'zbekiston bilan abadiy bog'lagan. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari buning yorqin kafolatidir.

O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURILISHI. FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANTIRILISHI

1-§. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish. Ko‘ppartiyaviylik

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan keng qamrovli o‘zgarishlarni mushohada qilar ekanmiz, mamlakatda yangi demokratik qadriyatlar ildiz otganini, inson haq-huquqlari va uning erki asosi bo‘lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos zamonaviy tuzilmalar shakllanganini qayd qilmoq lozim.

Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, eng avvalo demokratiya, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, hozirgi zamon jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishi va demokratik tamoyillar xususida fikrlashib olmoq lozim.

Demokratiya kishilik tarixida insonning ongli hayoti boshlangan davrdan boshlab uning erk-u irodasini, xohish-istagini belgilaydigan mezon bo‘lib kelmoqda. Albatta, bu borada kishilik jamiyati shakllanish davridan tortib to sivilizatsiyalashgan turmush tarzi, har jihatdan chuqur ildiz otgan davlatchilik va shu asosda ma’lum tartib-qoidaga kirib qolgan aniq yo‘nalishlar o‘rtasida katta farq bor.

Chunki, asrlar mobaynida vaqt o‘tgani sayin odamlar dunyoqarashi o‘zgarib, talab-ehtiyojlari tabiiy ravishda oshib bordi. Bu insonning erkin va ozod yashash kabi ehtiyojining mahsulidir.

Demokratiya bevosita jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy, huquqiy, ma’naviy va boshqa jihatlari bilan birga ana shu jamiyatni tashkil etgan aholi umumiy dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. Har qanday davlat o‘z huquqiy asosiga, siyosiy rejimiga, boshqaruvidagi aniq tamoyillariga ega bo‘lmasa, fuqarolar esa o‘z haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi, o‘z mamlakati istiqboli yo‘lidagi vazifalari va burchlarini to‘la anglab olmagan taqdirda demokratiya tom ma’nodagi mazmuniga va jahon tajribasida isbot qilingan mohiyatiga ega bo‘la olmaydi.

Jahon davlatchiligi tajribalari tobora boyib, xalqning o‘zligini anglash jarayoni tezlashib borgani sayin demokratiyaning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni xususidagi munozaralar keskin avj oldi. Ayniqsa, XX asr kishilik tarixida keskin burilish yasadi. Yer kurrasida ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy tuzumning paydo bo‘lishi dunyo davlatchiligi tajribasida va jahon xalqlari tafakkurida keskin burilish yasadi. Ikki lager o‘rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va mafkuraviy raqobat tufayli bir qator

xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga, inson haq-huquqlarini ma'lum bir tartibga solib turishga, uni himoya qilishga ehtiyoj sezildi.

Totalitar tuzum sharoitida inson huquqlarining cheklanganligi, mafkuraviy yakkahokimlik jamiyat ma'naviy taraqqiyotini cheklab qo'ydi. Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ozodlik uchun kurash, milliy davlatchilikka zamin yaratish va shu asosda inson huquqlarini himoya qilish, har tomonlama barkamol demokratik jamiyatni vujudga keltirishga intilish kuchaydi. Natijada ana shu qit'alarda milliy ozodlik harakatlari avj oldi. Bu harakatlar zaminida insoniyatning azaliy orzu-umidi – ozodlik va hurriyatga erishish, erkin yashash ehtiyoji yotardi.

Qadim Sharqda azaldan huquqiy demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyatining turli elementlari mavjud edi. Bunga uzoq o'tmishimizda bir qator sulolalar davlatchiligini misol keltirish mumkin. Bu davrlarda haqiqat va adolat g'oyasi nihoyatda baland ko'tarilgani va butun mamlakatda aniq tartib-intizom o'rnatilgani natijasida inson hayoti, aholi turmushi kafolatlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Agar ana shu davrlarda so'z va fikr erkinligi, g'oyalar qarama-qarshiligi mavjud bo'lmaganda edi, bu qadimiy makonda fan, madaniyat va ma'naviyat jahon taraqqiyotida bu darajada kuchli ta'sir ko'rsatmagan bo'lur edi. Sharq uyg'onish davri va keskin yuksalish paytlarida dunyoviy ilmlar bilan Islom madaniyati nazariyasi va falsafasi uyg'un holda taraqqiy topdi, turmush tarzimizga aylanib qoldi. Aks holda Islom dinining buyuk namoyandalari, ulamolari va fuzalolarining dunyo tan olgan asosiy ko'pchiligi qadimiy Turon zaminida yetishib chiqmas edi. Bu bizga «din afyundir» deb o'rgatib kelingan, bizni xudosizlikka – imonsizlikka va e'tiqodsizlikka da'vat etgan yolg'on mafkuraning yolg'on umridan darak berganidek, Islom dini va Sharq turmushi falsafasining abadiyatini, haqiqati va qadriyatini belgilaydi. Sohibqiron Amir Temurning birgina «kuch– adolatda» degan so'zida huquqiy demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham insonning yashash huquqi va uning barcha erkinliklari hamda hozirgi zamon demokratik harakatlarning eng ilg'or tajribalari mujassam bo'lgan.

Albatta, bu ancha-muncha munozarali masala. Mamlakatimizda yangi tarixiy sharoitlarda yangicha davlatchilik qaror topayotgan bir paytda demokratiya, fuqarolik jamiyati, aholi va jamiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlar turli soha mutaxassislari o'rtasida turlicha talqin etilmoqda. Biroq, har qanday xulosalardan qat'i nazar qadimiy Sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan hamda o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib inson ozodligi va xatti-harakatlar erkinligi ta'min etilgan edi. Bu ayni demokratik jamiyatning muhim va asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Biz bugun yangi tarixiy sharoitlarda yashayapmiz. Jahon demokratik jarayonlari tobora chuqurlashgan, uning imkoniyatlari ancha kengaygan, odamlarning onglilik darajasi birmuncha oshgan bir paytda yashayapmiz. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo ta'siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda kun kechirayapmiz. Bularning barchasi inson ongi, tafakkuri va qalbini hech qachon chetlab o'tmaydi. Endi demokratiyaning shunchaki oddiy erkinlik, hurriyat, ozodlik degan tushunchalari va ayni paytda xalq hokimiyati degan mazmuni ham birmuncha o'zgarmoqda. Jumladan, demokratiyaning madaniyati, ma'rifati odamlar o'rtasidagi munosabatlardan tortib dunyoviy muammolarni hal etishgacha bo'lgan nizo, murosa va yakdillik, uning iqtisod, siyosat va fikrlar xilma-xilligi sharoitidagi vazifalari ancha kengaydi.

Bizning yaqin o'tmishimiz jahon demokratik me'yorlariga mos keladigan inson erki va yashash huquqini chegaralab qo'ygan edi. Mislsiz zo'ravonlikka tayangan kommunistik siyosat tabiatan ozodlikni yoqtirmas va tom ma'nodagi demokratiyani tan olmas edi. Amerikalik siyosatchi Diana Revich ta'biri bilan aytganda, «Totalitar siyosiy tuzumlar sustlik va loqaydlik kayfiyatini rivojlantiradi. Tuzum itoatkor va labbaygo'y fuqarolarni shakllantirishga intiladi. Bundan farqli o'laroq demokratik jamiyatning fuqarolik madaniyati alohida shaxslar va guruhlarning erkin ravishda ixtiyor etgan faoliyati tufayli shakllanadi. Ozod jamiyat fuqarolari o'z manfaatlari yo'lida harakat qiladilar, o'z huquqlaridan foydalanadilar va o'z hayotlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar». Ana shu mas'uliyat odamning jamiyat oldidagi burchini ham, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni ham belgilaydi.

O'tish davrida, ayniqsa, totalitar tuzumdan erkin fuqarolik tuzumiga o'tayotgan bir sharoitda demokratiyani anglash, uning butun mohiyatini tushunish va mas'uliyatini zimmaga olish ancha qiyin ish. Ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar va inson hayotining daxlsizligi bevosita yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa ana shu muammolarni birin-ketin hal etish jarayonida o'z erki va haq-huquqlarini himoya qilib boraveradi. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholi «tarbiyalanib», shakllanib, barkamollashib boradi. Ayni paytda biz xuddi ana shunday jarayonlarni boshdan kechiryapmiz.

Demokratiyaning murosachilik va yakdillik madaniyati mamlakat ichki hayotida ham, tashqi siyosatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, odamlar – mamlakat fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik iliq bo'lsa, umumxalq va umumdavlat manfaatlari yo'lida birlashib, muammolarni hal etishda oqilona faoliyat ko'rsatilsa, barcha uchun umumiy bo'lgan vazifalar oldida mas'uliyat chuqur his qilinsa – bu demokratiyaning mamlakat ichki hayotidagi madaniyatini belgilaydi.

Demokratiyaning tashqi siyosatdagi ko'rinishi bu bevosita davlat rahbarining dunyo muammolarini hal etishdagi faoliyatida aks etadi. Prezident Islom Karimovning bu boradagi faoliyatida, ayniqsa, ushbu jihatlar e'tiborni tortadi:

– har qanday mojaroli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, muzokaralar yo'li bilan fikr almashish va eng to'g'ri, hamma uchun birday manfaatli bo'lgan xulosalarga kelish;

– har qanday zo'ravonliklarga, tazyiq va kuch ishlatishlarga qarshi ravishda sharqona munosabatlar ilmini egallash – demakki, sharqona demokratiya tamoyillari asosida ish yuritish. Darhaqiqat, Sharqda, Sharq davlatchiligida har qanday zo'ravonliklardan xoli yo'sinda masalalarni aql-idrok bilan, ro'yirost va oshkora muloqot qilish asosida hal etish tamoyillari mavjud.

O'zbekiston rahbarining xalqaro siyosati hozirgi zamon jahon demokratik harakatlarining ilg'or tajribalariga mos keladi. Bu yo'l har qanday zo'ravonlik va kuch ishlatishni rad etish bilan birga, jahon siyosati madaniyatini oshirishga da'vat etish orqali siyosatga demokratik tamoyillarni olib kirishning o'zbekona yo'lidir.

Demokratiya doimiy harakatdagi hodisadir. Ayni paytda u jamiyat taraqqiyoti va mavjud siyosiy rejim ta'sirida o'zini o'zi to'ldirib, boyitib, yangi tarixiy sharoitlarda yangicha mazmun kasb etib boruvchi voqelikdir. Muxtasar qilib aytganda demokratiya tajribaga asoslangan va doimiy ravishda mazmunan boyib, barkamollashib, mohiyati chuqurlashib boradigan faoliyatdir.

Endi haqli ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, O'zbekiston demokratiyaning qaysi yo'nalishlaridan bormoqda? Huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish oliy maqsad ekan, unga erishishning yagona yo'li demokratiyani chuqurlashtirishdir. Ayni paytda O'zbekistonda davlatchilikning bu jihatiga qanday qaralmoqda?

Birinchidan, demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati e'tirof etgan yo'riqlari mavjud. Bu bevosita fuqaroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylov va saylanish huquqi va boshqalardir. Bular qariyb barcha mamlakatlar konstitutsiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan tartib-qoidalardir. Biroq, ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Faqat shuning o'zi aholi barcha ehtiyojlarini, ma'naviy-ruhiy olamini qamrab ola oladimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashish usuli bor.

Shu ma'noda Prezident I.A.Karimov «**Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi»**, deganida demokratiyani joriy etishning yurtimizda o'zbekona tamoyillari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bir qator mamlakatlar – jumladan, Turkiya, Olmoniya, Angliya, Fransiya va boshqa davlatlarning demokratik taraqqiyot yo'llari bilan yaqindan tanishdi. Bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o'rganishga arzirli tajribalari mavjud. Biroq, O'zbekiston Prezidenti bu masalada o'zining munosabatini aniq va ravshan bayon etdi. Har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi zarur. Ayniqsa, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga ega xalq ehtiyojlarini hisobga olmaslik og'ir natijalarga olib kelishi mumkinligini uqtirdi va «**odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir.**

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona ko'chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin»ligini (I. Karimov) ko'rsatib berdi.

Uchinchidan, hurriyatga munosabatda ham boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. G'arb demokratiyasini Sharq mamlakatlarida ko'r-ko'rona joriy etish mumkin emas. Unga taqlid qilish kutilmagan fojialarga olib kelishi mumkin. Buning achchiq natijalarini Tojikiston misolida ko'rdik. Erkinlik niqobidagi boshboshdoqlikka yo'l berish, davlat va boshqaruv apparatining behad kuchsizlanishi va bo'shashib ketishi, hokimiyat jilovining o'z holiga tashlab qo'yilishi ming-minglab xonadonlar boshiga kulfat keltirdi.

To'rtinchidan, odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, xatti-harakatlari va fe'l-atvoridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Mustaqillik hayotimizga tobora chuqurroq kirib borayotgan, yangicha ma'naviy, siyosiy muhit shakllanayotgan bir paytda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Endi har galgidan ham hushyorroq bo'lishimiz, qo'lga kiritgan buyuk ne'matni asray olishimiz kerak.

Xatti-harakatlar, intilishlar har qanday sharoitda ham umumxalq manfaatini hisobga olib, unga tayansagina qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa bebaho mulk. Ularni xalq yaratadi, xalq baholaydi,

o'zi asrab-avaylaydi. Demokratiya xuddi ana shunday buyuk ne'mat. Uni oliy qadriyat sifatida tushunish, unga bo'lgan munosabat har bir fuqaroning ichki madaniyatidan, ma'naviy-axloqiy qiyofasidan, demakki, butun millatning umumiy madaniy saviyasidan, siyosiy va ijtimoiy faolligidan dalolat beradi.

Muxoliflarimiz so'z va fikr erkinligi zarur, deb da'vo qiladilar, uzoq-yaqindan ayyuhannos solishadi. Biroq, ular hech narsa bilan chegaralanmagan so'z va fikr erkinligi noo'rin va beo'xshovgina bo'lib qolmay, balki u xalq boshiga cheksiz kulfatlar keltirishi ham mumkinligini tushunmaydilar yoki tushunishni istamaydilar. Bu haqda o'ylaganda beixtiyor atoqli faylasuf Andre Jidning «Erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'lish uchun eng avvalo xatti-harakatlarimiz og'ir oqibatlarga olib kelmasligi kafolatiga ega bo'lmoq lozim», – degan so'zlari yodga tushadi.

Demokratiyani Prezident yoki hukumat bir farmon yo qaror bilan, parlament bir qonun bilan o'rnatib bermaydi. Uni xalq o'zi uchun o'z aql-idroki va zakovati bilan yaratadi.

Demokratiyani anglash – shaxsning hamma uchun birday zarur bo'lgan qonunlarga to'la rioya etish, aniq tartib-intizomga tayanib yashash salohiyati. Demokratiya bizni inson haq-huquqlarini himoya qiladigan, umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga bo'ysunib yashashni o'rgatadi.

Demokratiya faqatgina siyosiy, huquqiy yoki ijtimoiy kategoriya emas. Ayni paytda u ma'naviy-axloqiy kategoriyadir. Demokratiya – bu hokimiyatsizlik yoki separatizm emas! U davlat birligi va Konstitutsiya asosidagi qat'iy tartib-intizomdir.

Erkinlik, demokratiya o'ziga hammani bo'ysundirmasligi, hammani zabt etmasligi, balki u aql-idrokka bosh egishi, uning yo'rig'ida yurishi lozim. Binobarin, biz eng avvalo erkinlikni, demokratiyani tarbiyalashimiz kerak. Chunki, u sog'lom fikrlar va shakllangan aql-idrok ta'sirida bo'lsagina bizni tarbiyalashi, jamiyatni sog'lomlashtirishi mumkin.

Qolaversa, har bir xalqning fikrlash darajasi voqea va hodisalarga munosabati, uni baholash tarzi, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. Qarb demokratiyasida ochiqdan-ochiq munosabat, Sharq demokratiyasida esa aksincha – andishalilik, G'arbda ota-onasini sensirash, Sharqda esa o'zidan kattalarga, rahbarga hurmat bilan qarash, aql bilan ish tutish an'analari mavjud. Umuman, hayot tarzi, an'analar hamma vaqt har bir mamlakat xalqlarining xulq-atvorini shakllantiradi. Xatti-harakatini, voqealarga munosabatini odatga aylantiradi, millatning qon-qoniga singib ketadi, ming bir hujayrasidan joy oladi. Demak, Mag'ribdagi turmush tarzini zo'rlab Mashriqqa tiqishtirish, Mashriq hayotini Mag'ribga ko'chirish mumkin emas.

Ayrimlar O'zbekistonni Amerika Qo'shma Shtatlari, Olmoniya, Fransiya, Angliya va boshqa bir qator mamlakatlardagi ahvol bilan solishtiradilar. Bu unchalik to'g'ri muqoyasa emas. Birinchidan, mazkur mamlakatlarda chinakam, risoladagidek demokratiya mavjudligiga hech kim kafolat bermaydi. Sababi, hayot borki, qaysidir darajada «tartibbuzarlik» sodir bo'ladi. Insonning tabiati shunday. Bunday holat fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda ham, fuqarolarning o'zaro munosabatlarida ham yuz bermoqda. Qolaversa, bu mamlakatlarda inson huquqlari, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar borasida to'plangan tajribalar, amalga oshirilgan ishlar ikki yuz va undan ortiq yillar mahsuli ekanligi hammaga ayon. Mustaqil O'zbekistondan tarixan juda qisqa vaqt ichida G'arb davlatlaridagidek keng miqyosli tadbirlarni amalga oshirishni talab etish aqlga sig'maydi. Odamlar dunyoqarashi, fikrlash tarzi va onglilik darajasini bir kun yo bir yilda o'zgartirish sira mumkin emas.

Biroq, masalaning boshqa tomoni ham bor. Bu rivojlangan mamlakatlar mustaqillikka erishgan davr bilan bugungi kun ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining turlichaligi, odamlar dunyoqarashi va onglilik darajasidagi o'zgarishlarni taqqoslaganda yaqqolroq ko'rinadi. Mazkur rivojlangan mamlakatlarga nisbatan O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish jarayoni ancha tez, shiddatliroq tarzda bormoqda.

Ana shundan kelib chiqib Prezident Islom Karimov «**...demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdon totib, qiyin, aytish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin**», degan edi. Zero, ana shu juda murakkab jarayonga hamma va har bir kishi alohida tayyorgarlik ko'rishi, o'zini tayyorlab borishi, eng muhimi, o'zini o'zi ichki bir ma'naviy qudrat bilan tarbiyalab borishi kerak. Demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni va hayotga tatbiq qilishni hamda ularni himoyalash zarurligini avvalambor jamiyatning o'zi anglamog'i darkor. Ana shuning o'zi bizning jamiyat oldidagi, yangilanayotgan hayot oldidagi va kelajak oldidagi vazifalarimizni belgilaydi.

Mustaqillik yillarida davlat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi. Davlat tushunchasi, uning ma'no, mohiyati tubdan o'zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Davlat bozor munosabatlariga vazminlik bilan, puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirmoqda.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida xalqimizning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta'minlovchi saylov tizimi shakllandi va qonun bilan mustahkamlandi. Jumladan, dunyoda eng

rivojlangan demokratik davlatlarda ham O'zbekistonda qabul qilingan «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga o'xshash qonunlar yo'q.

1994-yil oxiri, 1995-yil yanvarida O'zbekiston tarixida birinchi marta mamlakat Parlamenti — Oliy Majlisga, mahalliy vakillik organlariga ochiq, demokratik saylovlar o'tkazildi.

Saylovlar xalqimizning siyosiy saviyasi faolligi yuksalib borayotganini namoyish etdi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, xalqning hayotiy tajribalariga, milliy va madaniy an'analariga mos tushadigan haqiqiy demokratiya tamoyillari qaror topmoqda. Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tobora mustahkamlanmoqda, yangi demokratik mezonlar hayotga tobora chuqurroq kirib bormoqda, inson haq-huquqlari va erki Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Millati, dini, siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, har bir fuqaro teng huquqqa egadir. Respublikada yashovchi aholi O'zbekistonni o'zining umumiy xonadoni ekanini tobora teran anglamoqda.

O'zbekiston hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va ahil yashayotgani quvonarli. Yoshlar Oliy o'quv yurtlarida, maktablarda 8 tilda ta'lim olishmoqda, ko'plab tillarda gazetalar chop etilmoqda, teleko'rsatuvlar va radio eshittirishlar olib borilmoqda. 2007-yilga kelib respublikada yashovchi millat va elatlarning manfaatini ifoda etuvchi 180 ga yaqin milliy madaniy markazlar ishlab turibdi.

Fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqiga amal qilinmoqda, respublikada yigirmaga yaqin diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilar shubhasiz islohotlar jarayonida respublikada yangi demokratik siyosiy tizimning asoslari yaratilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, jamiyatni modernizatsiyalash va erkinlashtirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarning roli katta. 2007-yil 4-yanvar kuni kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi qonun katta tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qonun jahon jamoatchiligida ham qiziqish uyg'otdi. Jumladan, **«Fridrix Shpeye Akademiyasi» jamoat tashkiloti direktori o'rinbosari doktor Y.Lyuk (GFR)** jumladan bunday deydi: «Yangi qonunning asosiy ustunliklariga uning sakkizinchi moddasida aks ettirilgan qoidalarni kiritish mumkin. Ularda, xususan davlat tomonidan nodavlat va notijorat tashkilotlarining (NNT) axborot izlash, olish, tadqiq etish, undan foydalanish va saqlash huquqining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Qonun davlat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning nodavlat tashkilotlari (NDT) va ularning xodimlariga faoliyat yuritishga ko'maklashish borasidagi majburiyatlarini aniq belgilab bergan. Ushbu hujjat davlat va nodavlat sektori o'rtasida aloqalarni yanada

yaxshilashga qaratilgan. Subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar berish kabi mexanizmlar davlat muassasalari bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik samarasini oshirishga xizmat qiladi».

Fransiyadagi eng nufuzli advokatlik kompaniyalaridan birining huquqni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yuridik boshqarmasi direktori A.Buana quyidagilarga e'tibor qaratdi: «Har qanday davlatda demokratik institutlarni rivojlantirish jarayoni nodavlat tashkilotlarining mamlakat ijtimoiy institutlari tizimidagi o'rni va ahamiyatini qayta idrok etishga xizmat qilishi kerak. Shu bois qabul qilingan mazkur qonun huquqiy davlatning muhim institutlari bo'lgan nodavlat va notijorat tashkilotlari huquqlarini himoyalashning ishonchli vositasiga aylanadi. Bu hujjatning qabul qilinishi, shubhasiz, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi islohotlarni amalga oshirishi va umuman jamiyatni modernizatsiyalashdagi bosqichma-bosqich va oqilona yondashuv natijasidir. Davlat tomonidan NDT huquqlarini ijroiya hokimiyati organlarining noqonuniy xatti-harakatlaridan himoyalashning barcha kafolatlari yaratilgan. Bu esa o'z navbatida jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi».

Ispaniya qirolligining Fransiyadagi elchixonasi siyosiy masalalar bo'yicha maslahatchisi K.Ruiz de Velaskoning ta'kidlashicha, O'zbekistonda qabul qilingan «Nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonun davlat tomonidan NNTga ko'rsatilayotgan ko'makning ajralmas qismi va mamlakat demokratik taraqqiyotining muhim omilidir. U NNTlar faoliyatini ijtimoiy yo'naltirilganligini rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi. Aytish joizki, mazkur qonun moddalariga yetarli darajada amal qilinishi ushbu tashkilotlarning ijtimoiy faoliyatini erkinlashtirib, ularning huquqlarini ta'minlash va himoyalashning qonuniy kafolatlarini yaratadi. Mamlakat hukumati tomonidan ko'rsatiladigan bunday yordam huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi.»

Xitoy Xalq Respublikasi ijtimoiy fanlar akademiyasining Sharqiy Yevropa, Rossiya va Markaziy Osiyo instituti Markaziy Osiyo sektori mudiri Sun Chjuanchji:

«Nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston Respublikasining siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi muhim hujjatdir. Ushbu hujjat mamlakat millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi islohotlarni amalga oshirishning o'z yo'lini tanladi. Yangi qonun buning yorqin tasdig'i bo'lib, men uning quyidagi jihatlarini alohida qayd etishni istardim.

Birinchidan: davlat qonunchilikka muvofiq nodavlat va notijorat tashkilotlarining axborot izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish va saqlash huquqini ta'minlaydi. Bundan tashqari, intellektual

faoliyatning obyektiv aks etgan natijalari va uni individuallashtirish vositalariga egalik qilish huquqini ham kafolatlaydiki, bu yuqorida aytib o'tilgan tashkilotlar erkin va mustaqil ravishda ishlashi uchun imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan: davlat subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar shaklida nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatiga ko'maklashishi mumkin. Qator mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ko'plab bunday tuzilmalar xorijiy tashkilotlardan moliyaviy yordam olib, asosan hukumatga qarshi qaratilgan faoliyat bilan mashg'ul bo'lib turgan bir paytda O'zbekistonda qabul qilingan qonun NNTlarning rivojlanishi uchun asos va imkon yaratib, ular bilan hukumat o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilishiga xizmat qiladi».

«Onnuri» nohukumat jamg'armasi (Koreya Respublikasi) raisi Pak Yong Sunning fikricha, yangi qonun O'zbekiston rahbariyatining demokratik qadriyatlarga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi: «Nohukumat tashkilotlari faoliyatining subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar vositasida har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi davlat tomonidan bu tuzilmalarning bir maromda faoliyat yuritishini ta'minlashdagi juda muhim omilidir. Bu esa ularga o'zlari belgilagan maqsadlarga bevosita e'tibor qaratish va yordamga muhtoj bo'lganlarga ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatish imkonini beradi. O'zbekistonda «Ijtimoiy himoya yili», deb e'lon qilingan 2007 yilda esa bu ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega».

Ma'lumki, demokratik tartibot siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning keng tarqalgan zamonaviy shaklidir. Unda demokratik institutlar, siyosiy erkinliklar bo'lishiga, mehnatkashlarning turli tashkilotlar atrofida birlashishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Parlamenti fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida mamlakatda avvalo ko'ppartiyaviylik, oshkoralikni fuqarolarning jamoat tashkilotlari orqali huquqlarini ta'minlashga qaratilgan muhim qonunlar qabul qildi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (1991-yil 14-iyun), «Jamoat tashkilotlari to'g'risida» (1991-yil 15-fevral), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» (1991-yil 14-iyun), «Kasaba uyushmalari» ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida» (1992-yil 2-iyul) qonunlari ana shular jumlasidandir.

Oliy Majlisning 1996-yil dekabrda bo'lgan VII sessiyasida «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qilindi. Jumladan, qonunda: «Siyosiy partiya – qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir», – deyiladi.

Bugungi kunda respublikada aholining turli toifalarini birlashtirgan 5 ta siyosiy partiya va «Xalq birligi» (1995) jamoatchilik harakati faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, **O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP)** O'zbekiston mustaqilligi yillarida shakllandi. Bu partiya 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. XDP O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1991 yil 15 noyabrda ro'yxatga olingan.

Partiya mamlakatda adolatli jamiyat qurish, uning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini ta'minlash, har bir mehnatkashning moddiy va ma'naviy turmushini yaxshilash, fuqarolarning teng konstitutsiyaviy haq-huquqlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston XDPsining oliy organi – qurultoy 5 yilda bir marta chaqiriladi. Unda partiyaning rahbar organlari saylanadi.

O'zbekiston XDP parlament partiyasidir. O'z a'zolaridan Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar paytida nomzodlar ko'rsatib davlat hokimiyati organlarining barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi qarori bilan partiyaning 69 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylangan deputatlardan 48 nafari Xalq Demokratik partiyasiga mansub a'zolardir.

Hozirda O'zbekiston XDPsi tarkibida 218 viloyat, shahar va tuman kengashlari, 13 ming 665 boshlang'ich, jumladan, 3952 hududiy tashkilotlar ish olib bormoqda. Uning 420 mingga yaqin a'zosi bor.

O'zbekiston XDPsining «O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari nashr etilmoqda.

XDP V qurultoyi qarori bilan 2006-yil yanvar-iyun oylarida partiya a'zolari qayta ro'yxatdan o'tkazildi. 2007-yil 1 yanvariga ko'ra uning safida 344 mingga yaqin a'zo bor. Ayni paytda XDPning barcha viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar tashkilotlari mavjud. Ular tarkibida jami 11576 ta boshlang'ich partiya tashkiloti faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston istiqloli yillarida siyosiy kuch sifatida shakllangan partiyalardan yana biri **«Vatan taraqqiyoti» (VTP)** partiyasidir. U 1992-yil 24-mayda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi, Nizomi qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1992-yil 10-iyulda ro'yxatga olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi mustaqil O'zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy demokratiya prinsiplariga

asoslangan, yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topgan adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdir. Partiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, o'z Nizomi va respublikaning boshqa amaldagi qonunlariga muvofiq amalga oshiradi. Partiya faoliyati o'z-o'zini boshqarish, oshkoralik, qonuniylik, xayrixohlik, partiya hayotida faol qatnashish, partiya a'zolarining teng huquqlilik tamoyillariga asoslanadi.

Uning ijtimoiy qatlami ziyolilar, tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlar o'rta tabaqa mulkdorlardir. Partiyaning oliy organi Qurultoy, quyi organi esa boshlang'ich partiya tashkiloti yig'ilishi.

Partiya o'zining a'zolarini Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar vaqtida nomzod etib ko'rsatadi va davlat hokimiyati organining faoliyatida ishtirok etadi.

1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida partiyaning 14 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi. Partiya fraksiyasi partiya Markaziy Kengashi Plenumlari, Qurultoylari qarorlariga amal qiladi, ular oldida o'z ishi yuzasidan belgilangan tartibda hisob beradi.

Boshqa siyosiy partiyalarning fraksiyalari bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmagan masalalar yuzasidan hamkorlikda ish olib boradi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 20 nafari «Vatan taraqqiyoti» partiyasiga mansub a'zolardir.

O'zbekiston **«Adolat» sotsial demokratik partiyasi (SDP)** 1995-yil 18-fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1995-yil 18-fevralda ro'yxatga olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi mustaqil O'zbekiston Respublikasida barcha millat va elatlarning umumiy manfaatiga mos keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yetuk, demokratiya tamoyillariga asoslangan adolatli, fuqarolik jamiyat qurishda faol ishtirok etish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 24-fevraldagi qarori bilan ushbu partiyaning 47 kishidan iborat Oliy Majlis deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olindi. Partiya fraksiyasi «Adolat» SDP majlislari, kengashlari va qurultoylari qarorlariga amal qilib, ular oldida o'z ishlari yuzasidan belgilangan tartibda hisobot beradi. Boshqa siyosiy partiyalarning fraksiyalari bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamkorlik qilishlari mumkin.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 11 nafari «Adolat» sotsial-demokratik partiyasiga mansub a'zolardir.

O'zbekiston «Adolat» SDPsi safida 30 mingdan ortiq a'zo bor. Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlarda, shuningdek, 175 shahar va tumanlarda partiya Kengashlari tuzilgan. Joylarda 1000 dan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari ish olib bormoqda.

2007-yil 1-yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra uni a'zolari 50 ming nafardan oshgan. 170 dan ortiq tuman va shaharlarda 3120 ta boshlang'ich tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda.

Ayni paytda partiyaning 2 vakili senator, 10 ta vakili qonunchilik palatasi deputati, 172 ta vakili esa mahalliy kengashlar deputatidir.

O'zbekistonda shakllangan yosh partiyalardan biri – O'zbekiston **Milliy tiklanish demokratik partiyasidir (MTDP)**. U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ushbu qurultoyda partiya Dasturi va Nizomi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1995-yil 9-iyunda ro'yxatga olgan.

Partiyaning bosh maqsadi milliy manfaatlar milliy yakdillikni ta'minlash, huquqiy davlatni barpo etish va O'zbekistonni jahonning yetakchi davlatlari safiga olib kirish uchun xalqni safarbar qilish. MTDP millatning o'z-o'zini anglashi, fuqarolarda Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini to'la shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat qurish, milliy tiklanish yo'lidan rivojlanishga erishish, milliy meros va an'analarni ro'yobga chiqarish, millatni ilmiy, texnikaviy salohiyatini yuksaltirish va demokratik jamiyat qurish uchun kurashadi.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylangan deputatlardan 10 nafari Milliy tiklanish demokratik partiyasiga mansub a'zolardir.

O'zbekiston MTDPsining oliy organi 5 yilda chaqiriladigan qurultoy bo'lib, unda rahbar organlar saylandi. Hozirda joylarda partiya tashkilotlari va bo'g'inlari ish olib bormoqda. Uning 6 mingga yaqin a'zosi bor. O'zbekiston MTDPsining «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'ziga xos alohida nufuzga va betakror mavqega ega bo'lgan partiyalardan biri **Fidokorlar milliy-demokratik partiyasidir.** U mazkur partiyaning 1998-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan 1-ta'sis Qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilingan. Unga O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan siyosiy partiya sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida 1999-yil 4-yanvar kuni 354-raqamli guvohnoma berilgan. **«Partiyaning vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishidan bosh maqsad** – deb ta'kidlanadi partiya Nizomida – **partiya dasturida belgilanganidek, ko'p ukladli iqtisodiyotga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan fuqarolik jamiyatini qurish jarayoniga hamda unga xizmat qiladigan demokratik-**

huquqiy davlatni barpo etish ishiga amaliy hissa qo'shishdir». Ushbu bosh maqsadni ro'yobga chiqarish uchun hozirgi vaqtda joylarda mazkur partiyaning 2000 boshlang'ich hududiy tashkilotlari, 202 ta tuman va shahar partiya tashkilotlari hamda 14 viloyat maqomiga ega partiya tashkilotlari faoliyat ko'rsatayapti. Partiyaning «Fidokor» nomli ijtimoiy-siyosiy gazetasi mavjud.

1999-yil 5 va 19-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylangan deputatlardan 34 nafari Fidokorlar milliy demokratik partiyasi a'zolaridir. 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovida Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodi ham aynan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasidan ko'rsatildi. Ma'lumki, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi ham o'z vakili Abdulhafiz Marahimovich Jalolovni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod qilib ko'rsatgan edi. Xalqaro miqyosda umum e'tirof etilgan demokratik tamoyillarga to'liq rioya qilingan holda xorijiy va mahalliy kuzatuvchilarning nazorati ostida odilona tarzda, muqobillik asosida o'tkazilgan mazkur saylovda Fidokorlar partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi respublika tarixida muhim voqea bo'ldi. Bu bir tomondan, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasining respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi nufuzi kun sayin oshib borayotganligini bildirsa, ikkinchi tomondan, respublika mustaqilligining poydevori va ishonchli tayanchi hisoblanmish yosh, iqtidorli kadrlarning siyosiy kuch sifatida birlashib, ko'pfikrlilik, ko'ppartiyaviylik mavjud bo'lgan sharoitda xalqaro andozalarga mos keladigan demokratik tamoyillarga to'liq rioya qilgan holda o'zining bosh maqsadini ro'yobga chiqarishga, kelajagi buyuk davlat qurishga qodir ekanligidan dalolat beradi.

2000-yil 14-aprel kuni **«Vatan taraqqiyoti partiyasi» va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining qo'shma qurultoyi bo'ldi.** Unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi va ular birlashib ishlash maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldilar. Partiyalar birlashib, Vatan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishga qaror qilindi. FMDP bosh kotibi qilib Axtam Tursunov saylandi.

Partiyalarning Oliy Majlisdagi fraksiyalari ham birlashib, deputatlar soni 54 taga yetdi.

2004-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan saylovlarda FMDPdan jami 616 deputat saylandi. Shundan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 18 kishi, senatiga 6 kishi, qolganlari esa mahalliy kengashlarga saylanishdi, 2007-yilga kelib partiya a'zolari soni 60 mingdan oshdi.

2008-yil 26-iyul kuni O'zbekiston milliy tiklanish demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining qurultoylari bo'lib o'tdi.

Unda har ikki partiya dasturlari va siyosiy qarashlarida mushtaraklik borligini nazarda tutib, birlashishga qaror qilishdi.

Mamlakatda ko'ppartiyaviylik tobora takomillashib bordi. Ular erkin va ozod hayot, demokratik davlat, fuqarolik jamiyat qurish borasida ma'lum ishlarni amalga oshirmoqdalar. Biroq, hayot shuni ko'rsata boshladiki, har bir partiyaning aniq, faqat o'ziga xos qiyofaga, o'z saylovchilari va tarafdorlariga ega bo'lishi borasida sustkashlik sezila boshlandi.

Masalan, dehqon-fermerlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar, ular qaysi soha va yo'nalishda faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar partiyalarning e'tiboridan chetda qola boshladi. Shu nuqtayi nazardan jamiyatimizning iqtisodiy hayotida tobora kengayib, kuchga to'lib borayotgan tadbirkor va ishbilarmonlar, kichik va o'rta biznes, fermerlar harakati el-yurt taraqqiyotiga, mamlakatimizning hal qiluvchi sohalarida to'siq bo'lib turgan muammolarni bartaraf qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olish uchun ularga siyosiy maydonni ochib berishni hayot taqozo qila boshladi.

Shu maqsadda, 2003-yil oktabr oyida **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasi** o'zining ta'sis qurultoyiga to'plandi va mamlakat siyosiy hayotida yangi siyosiy kuch sifatida vujudga keldi. Uning raisi etib Muhammadyusuf Teshaboyev saylandi. O'zLiDeP o'z dasturida siyosiy kuch sifatida tadbirkorlarning yo'lini ochib, ularning istiqbolini ham g'oyaviy, ham amaliy sohalarda isbotlab berish, manfaatini himoyalash, ertangi kunini ta'minlashni ko'rsatib bergan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan muhim qoida siyosiy institutlarning, mafkuralar, fikrlar xilma-xilligi va ularning o'zaro raqobat asosida rivojlanishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi va siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog'liq bir qator qonunlari qabul qilindi. Mazkur davrda siyosiy partiyalar turli siyosiy tabaqa va guruhlarning irodasini ifoda etishi, demokratik yo'l bilan saylab qo'yiladigan vakillik organlari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etishi qonun bilan mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonuni siyosiy partiyalar faoliyatining umumiy tavsifini shakllantirib berdi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunlarining qabul qilinishi va amalga tatbiq etilishi mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan zarur demokratik islohotlardan biri bo'ldi.

Ko'ppartiyaviylik asosida saylangan yangi vakillik organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi siyosiy partiyalar faoliyatini yanada jadallashtirish borasida o'ziga xos ishlarni olib bordi. «Siyosiy partiyalar

to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Vakillik organida siyosiy partiyalarning faoliyatini va qonun qabul qilishda ishtirokini oshirish maqsadida fraksiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bir qator qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Qabul qilingan qonunlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga, jamiyatni demokratlashtirishga, bozor islohotlarini sakrashlar va falaj qiluvchi holatlarsiz tezlashtirishga qaratildi.

Siyosiy partiyalarning aholi va o'z saylovchilari o'rtasida obro'-e'tiborini oshirish, ularning iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ta'minlash bilan bir qatorda moliyaviy manbalarini muvofiqlashtirish maqsadida 2004 yili O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalash to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida to'plangan tajriba va ko'nikmalarga tayangan holda O'zbekiston Respublikasida 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi O'zbekistonda siyosiy partiyalarning faoliyat yo'nalishini yangi bosqichga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini ikki palatali qilib shakllantirish va uning quyi palatasini doimiy asosda faoliyat ko'rsatishi siyosiy partiya respublika parlamentida ko'proq o'rin egallashini, ular o'rtasidagi o'zaro raqobat yuzaga kelishini ta'minlab berdi. «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va boshqa bir qator qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari yangidan qabul qilindi.

Ikki palatali parlament tizimida nafaqat respublika vakillik organlarida siyosiy partiyalarning faoliyati samaraliroq kuzatildi, balki joylardagi vakillik organlarida ham ular avvalgiga qaraganda ancha faolroq ishtirok etadilar. Chunki parlamentning yuqori palatasi – Senat aynan joylardagi vakillik asosida shakllantirilishi qonunchilikda belgilab qo'yildi.

Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi siyosiy partiyalar faoliyatidagi yana bir yangi bosqich bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi **«Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish»** nomli ma'ruzasi va u asosda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi faoliyatining keyingi ustuvor vazifa hamda yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ushbu qarorda siyosiy partiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat hayotidagi masalalarni hal etishdagi ularning ta'siri va

ishtirokini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar mustaqillik davrida amalga oshirib kelingan ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Dastavval siyosiy partiyalar vakillik organlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatlarini saylash jarayonlarida qatnashishi, ular o'rtasida raqobat muhitining yuzaga kelishi, ular o'rtasidagi kurash mustaqillikning dastlabki yillarida erishilgan yutuqlardan biri bo'ldi. Chunki, davlat va jamiyat hayotida yakkahokimlik qilgan partiyadan bir necha partiyaviy tizimga o'tildi. Xalq o'zining partiyalarga bo'lgan ishonchini o'tkazilgan saylovlar orqali ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi fraksiyalarini tashkil etish va ular faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat masalalarini hal etishda o'rni va rolini yana bir bosqich yuqoriga ko'tardi. Chunki, qonunchilik organida siyosiy partiyaning o'z oldiga qo'ygan saylovoldi dasturlarini amalga oshirish borasidagi sharoit yaratib berildi.

Ikki palatali parlament sharoitida siyosiy partiyalarni moliyalashtirish masalalarining yo'lga qo'yilishi va qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini tasdiqlanishi siyosiy partiyalarning jamiyatidagi mavqeini yana bir pog'ona ko'tarishga xizmat qildi desak xato bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, maqsad va vazifalarni amalga oshirish Dasturi to'g'risida»gi qarori ilovasiga asosan siyosiy partiyalarga davlat tomonidan berilayotgan subsidiya, grant va boshqa tartibdagi yordamlarni huquqiy jihatdan kafolatlash, davlat hokimiyatining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga topshirish Konsepsiyasini ishlab chiqish, joylardagi davlat hokimiyati organlari faoliyatida siyosiy partiyalarning ishtirokini yanada kuchaytirish maqsadida ular ishtirokida ijtimoiy sherikchilik bo'yicha jamoatchilik komissiyalarini tashkil qilish kabi tadbirlarni amalga oshirishning belgilanganligi siyosiy partiyalarga yaratilayotgan imkoniyatlarni yaqqol namoyon qiladi.

Yuqorida nazarda tutilgan siyosiy partiyalar faoliyatini isloh qilish bosqichma-bosqich, turli xil sakrash va inqiloblarsiz, yuqorida ta'kidlaganimizdek, barqaror amalga oshirilib kelinmoqda. Bu o'z navbatida ularning davlat boshqaruv tizimidagi rolini oshib borishiga xizmat qilayapti.

Shu ma'noda Prezident I.A.Karimov tomonidan parlament quyi palatasiga Qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi

Konstitutsiyaviy Qonun va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining 2-qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi Qonunlar loyihalarida ilgari surilgan yangicha qoidalarga ham to'xtash joiz. Chunki ushbu qonunlar mamlakatni modernizatsiya qilishda uzoqni ko'zlovchi «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini ifodalaydi. Ushbu Qonun loyihalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qabul qilinib Oliy Majlis Senatining IX (2007-yil mart) yalpi sessiyasida ma'qullandi. Shu bilan birga siyosiy partiyalarning sa'y-harakatlari orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida faol qatnashishining huquqiy asosini ta'minlaydi.

Shubhasiz, qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentning samarali faoliyati siyosiy partiyalar faolligiga bog'liq bo'lgani bois, ushbu qonunlar siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini ko'chaytirishga qaratilgan. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun turli xil siyosiy maqsadlarini ko'zlaydigan, saylovlardan so'ng shakllantirilgan hukumatning tutadigan va dasturiga o'z munosabatini belgilab oladigan siyosiy partiyalar fraksiyalarining huquqiy maqomi aniq ta'riflangan. Unga muvofiq, yangidan shakllantiriladigan hukumatning tutgan yo'li va dasturi yoki uning ayrim yo'nalishlari borasida o'zgacha fikri bo'lgan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. Bu parlament muxolifati institutining shakllanishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarini yaratadi.

Qonundagi siyosiy partiyalar fraksiyalari va ularga qo'shilgan mustaqil deputatlar faoliyatini baholash prinsiplari va mezonlari esa demokratik davlatlarning umume'tirof etilgan tajribasidan kelib chiqadi.

Bu boradagi yana bir yangilik shuki, siyosiy partiyaning Qonunchilik palatasida tuzilgan fraksiyasi o'z vakilini mazkur palata Spikeri o'rinbosari lavozimlaridan birini egallashiga kafolatli huquq berayotgani sababli Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari o'z vazifasini bajarish paytida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turishi hamda fraksiya va boshqa deputatlar birlashmasi tarkibiga kirishi mumkin emasligi bo'yicha amaldagi tartib tubdan o'zgartirildi.

O'zbekiston Bosh vaziri nomzodini tasdiqlash borasida partiyalarga muayyan huquqlar berildi. Chunonchi, Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazadi. Shundan so'ng Bosh vazir nomzodi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

va Senatiga tasdiqlash uchun kiritiladi va qonunda belgilangan ovoz berish amaliyoti o'tkaziladi.

Mazkur amaliyot ko'plab demokratik mamlakatlarda, xususan, Germaniya, Finlyandiya, Ispaniya, Chexiya, Slovakiya va Gretsiya davlatlarida mavjud.

Siyosiy partiyalarning joylardagi rolini, hokimiyatning mahalliy vakillik organlarini shakllantirishdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng tegishli xalq deputatlari Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, yangi qonunda partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi bilan chiqish huquqini berish nazarda tutilgan. Agar mazkur tashabbus yetakchi partiya guruhlari tomonidan qo'llab-quvvatlansa, O'zbekiston Prezidenti uni xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritadi va muhokama natijalariga muvofiq ushbu masala yuzasidan qaror qabul qiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'zgartirishlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga tuzatishlar kiritildi. Masalan, Konstitutsiyaning 89-moddasi yangi tahririda berilmoqdaki, unda «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi», deb belgilab qo'yilgan.

Oliy Majlis tomonidan 2007-yil 28-martda ma'qullangan har ikkala qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning davomi, huquqiy va siyosiy tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirishning samarasi, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari qo'yilgan muhim qadamdir.

Mamlakatda **«Xalq birligi»** harakati ham 1995-yil iyundan faoliyat ko'rsatmoqda. Uni Adliya vazirligi 1995-yil 9-iyunda ro'yxatga olgan.

Harakatning asosiy maqsadi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan barcha fuqarolarning huquq va kafolatlarini to'la-to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining oliy organi – qurultoy 4 yilda bir marta chaqiriladi. Unda rahbar organlar saylanadi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakati tarkibida viloyat, shahar va tuman kengashlari, 165 ta boshlang'ich tashkilotlari ish olib boradi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Единство» haftalik gazetalari mavjud.

Shuningdek, istiqlol yillarida O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, shu kunlarda **O'zbekiston kasaba uyushmalari** turli kasb egalari bo'lgan mehnatkashlarning jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy mansubliklaridan qat'i nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda.

Kasaba uyushmalarining tashkiliy tuzilishi o'zgardi. Uning asosini jahon kasaba uyushmalari amaliyoti andozalariga mos keladigan federalizm, demokratiya, mustaqillik va ixtiyoriylik tamoyillari tashkil eta boshladi. Kasaba uyushmalarining tuzilishi federalizmga asoslangan. Quyidan yuqorigacha barcha kasaba organlari kasaba uyushmalari a'zolari tomonidan saylangan vakillarning yig'ilishlari, konferensiyalari va qurultoylarida saylanadi va ular oldida hisob beradi. Kasaba uyushmalarining har bir a'zosi saylash va saylanish, yig'ilishlar, matbuot va boshqa vositalar orqali kasaba uyushmalari hamda ma'muriy organlar faoliyatiga taalluqli masalalarni qo'yishi mumkin.

O'zbekiston kasaba uyushmalarining 2006-yilgi ma'lumotlariga ko'ra 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotga birlashgan 7,5 milliondan ziyod a'zosi bor. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tarkibida 21 tarmoq kasaba uyushmalaridan tashqari hududiy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat hamda bitta shahar kasaba uyushmalari kengashlari mavjud.

Mustaqillik sharoitida ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarni bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda faol qatnashishga keng safarbar etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 1-martdagi O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi to'g'risidagi farmoyishi bilan Xotin-qizlar qo'mitasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi **Xotin-qizlar qo'mitasi** tarkibiga hammasi bo'lib bitta respublika (Qoraqalpog'iston Respublikasi), 12 ta viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, Toshkent shahar Xotin-qizlar qo'mitasi, 38 shahar, 170 tuman, 14 mingdan ortiqroq mehnat jamoalari va turarjoylarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari kiradi. Qo'mita qoshida xotin-qizlar toifalariga qarab turli-tuman professional, ijodiy va boshqa uyushmalar tuzilgan.

Qo'mita jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning qiziqishlarini himoya qilish, turli-tuman ma'naviy va madaniy talablarini qondirish, ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy yordam berish, oilani, onalik va bolalikni, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni va o'zaro

hamkorlikni muhofaza qilish, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ayollarning xalqaro demokratik harakatiga O'zbekiston ayollarining ishtirok etishlarini ta'minlash kabi vazifalarni bajara boshladi. Biroq, keyingi yillar shuni ko'rsata boshladiki, xotin-qizlar qo'mitasi uning joylardagi tashkilotlari faoliyatida jiddiy kamchiliklar sezila boshlandi. Xususan, ular ko'proq davlat hisobidan moliyalashtiradigan yuqoridan buyruq beruvchi davlat tuzilmasi sifatida ish ko'rish uslublari sezila boshlandi. Oqibatda bunday yondashuv bilan ayollar ahvoli va kayfiyati chetga surilib qolish hollari yuz bera boshladi.

Xotin-qizlar qo'mitalari garchi davlat tomonidan moliyalashtirilsa-da, aslida ular jamiyatda fuqarolik instituti sifatida ish ko'rishlarini hayot talab qila boshladi.

Shuning uchun ham 2004-yil 25-mayda Prezident I.Karimov «O'zbekiston xotin-qizlari qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» farmon qabul qildi. Farmondan maqsad O'zbekiston xotin-qizlar Qo'mitasining Respublika xotin-qizlar tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy holatidagi sotsial-madaniy yo'nalishlardagi faol ishtirokini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning intellektual va ma'naviy saviyasini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirishdir. Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida o'z faoliyatini jamoat tashkilotlari, partiyalar va harakatlar bilan hamkorlikda olib bormoqda. Qo'mitaga Respublika Bosh Vaziri o'rinbosari F.Akbarova boshchilik qilmoqda.

2-§. Soxta demokratlarning ekstremistik yo'l bilan hokimiyat uchun kurashi, ularning xalq tomonidan badnom qilinishi

Inson hayot ekan, u hamisha ikki kuch – yovuzlik va ezgulik o'rtasida yashaydi. Ana shu tuyg'ular kishi qalbining tub-tubiga o'rnashib olib, turli davrlarda, turli holatlarda o'zini ko'rsatib turadi. Bu tabiiy hodisa.

Biroq, ma'naviyat, ma'naviy yetuklik va komillik singari tushunchalar ham borki, u hamisha kishini hushyorlikka, o'zini o'zi boshqarib turishga, atrofidagilarga e'tibor bilan qarashga da'vat etib turadi. Ana shunday paytda shaxsning beqiyos imkoniyatlari, o'zini o'zi idora qilish salohiyati ko'zga yaqqolroq tashlanadi. Agar kishi siyosiy arbob, davlat boshqaruvchisi yoki bunday nufuzlarga da'vogar bo'lsa, undan yana ham ko'proq mas'uliyat talab etiladi. Zotan, jamiyat taraqqiyoti, kishilik hayotidagi barqarorlik, mamlakatda shakllanadigan ma'naviy-ruhiy muhit bevosita ana shu fazilat bilan bog'liq.

Fikrlar xilma-xilligi, so'z va fikr erkinligi jamiyatni sog'lomlashtiruvchi, uni barkamol qiluvchi noyob voqelik. Biroq, bu xayolga

kelgan gapni aytish, ko'ngil tusagan ishni qilish, o'z manfaati uchun hamma narsaga tayyor turish degani emas. Aksincha, umummanfaat, umumjamiyat taraqqiyoti yo'lidagi sog'lom harakat, sog'lom fikr yuritish, imon-e'tiqod yuzasidan ish tutish demakdir. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Farobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan ozod qilish kerak», deya bejiz aytmagan edi. Bir necha ming yillar mobaynida milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribalarida sinovlardan o'tgan bunday xulosalar hozir ham o'z qiymatini yo'qotgan emas.

Ma'naviy yetuklik, ma'naviy barkamollik rahbarning beqiyos fazilati. Zotan, Sharqda azaldan rahbar kishi yurt otasi, xalq yo'lboshchisi sifatida tan olingan. Yurtboshi o'z xalqini farzandi kabi ulug'lagan, uning kundalik tashvishi, orzu-armonlari, sevinch-u quvonchlaridan har doim xabardor bo'lgan. Fuqarolar esa o'z davlatboshchisini padari buzrukvori darajasida ko'rgan. Unga ergashgan. Jahon siyosatdonlari Sharqda bunday munosabatni yuksak ma'naviyat va komillik mahsuli, deb talqin etishadi.

Darhaqiqat, xalq tashvishi, yurt istiqboli siyosiy yetakchining maqsad va g'oyasi bilan qorishib ketgan taqdirda u o'z davrining yo'lchi yulduziga, haqiqat timsoliga aylanadi. Natijada hamisha odamlar ko'ksidagi ezgulik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi, hayot baxsh etadi. O'z mamlakati fuqarolarini yaxshilikka undaydi. Yaratishga, yashnatishga, bunyod etishga, o'zidan kelgusi avlodlarga munosib meros qoldirishga da'vat etadi.

G'oyalari va maqsadlari shaxsiy manfaat atrofida o'ralashib qolgan «arbob»lar ham tarixda ko'p uchraydi. Ular hamisha o'z mamlakati va xalqi manfaatini shaxsiy shon-shuhrat, soxta obro'-e'tibor va manfaat yo'lida qurbon qiladi. Mustaqillikning o'tgan qisqa davri, xususan, uning dastlabki yillari xalqimizni ana shunday «arbob»larga ham ro'baro' qildi...

Turli qarama-qarshi g'oyalar bilan yashayotgan siyosiy guruhlar va partiyalar agar chindan ham xalq va mamlakat manfaatini ko'zlaydigan bo'lishsa, ular o'tish davrida, jamiyat tubdan yangilanayotgan bir sharoitda birlashib faoliyat ko'rsatadilar. Chunki eng avvalo jamiyatni sifat jihatidan sog'lomlashtirish, uning har tomonlama taraqqiyotiga zamin yaratish umumiy manfaatlar mazmunini belgilaydi va ana shu maqsad ularni birlashib harakat qilishga da'vat etadi.

Chinakam yangilanishlar butun jamiyat hayotida ham, odamlar ongi va tafakkurida ham, ularning turmush tarzida ham tub burilishlar yasaydi. Yangicha yashash va yangicha fikrlash tarzi shakllangunga qadar har qanday g'oyaviy po'rtanalar va siyosiy bo'hronlarga erk bermaslik, og'ir-vazminlik, qat'iy iroda va siyosiy yetuklik namunasini ko'rsatish katta ahamiyatga ega ekanligini hayot ko'rsatmoqda.

Yurt farovonligi, Vatan ravnaqi, til, matbuot va vijdon erkinligi kabi xalqimizning azaliy orzu-umidlarini o'ziga shior qilib olgan «Birlik» harakati ma'lum bir muddat turli nomaqbul yo'llar bilan respublika siyosiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilib ko'rdi. Lekin mamlakatni ma'naviy va iqtisodiy inqirozdan olib chiqishga qaratilgan biron-bir aniq dasturga, xalqni bir yoqadan bosh chiqarib yurt osoyishtaligi va Vatan ravnaqini ta'minlashdek yagona maqsadga chorlovchi g'oyaga ega bo'lmaganligi sababli ko'p o'tmay ushbu harakat xalq ishonchsizligiga uchradi va respublika siyosiy sahnasidan tushib ketishga majbur bo'ldi.

Tashqi g'animlarning respublikada mavjud barqarorlikni buzishga qaratilgan xavf-xatarlarini bartaraf etish endigina oyoqqa turgan mustaqil O'zbekiston uchun katta muammo bo'lib turgan bir paytda, «Birlik» harakati tarafdorlari kabi ichki g'animlarning ba'zan ko'r-ko'rona, ba'zan atayin yuzaga qalqib chiqishi respublikada barqarorlikni ta'minlashga jiddiy tahdid tug'dirar, xalq hayoti osoyishtaligini jiddiy xavf ostiga qo'yar edi. Respublikada barqarorlikni ta'minlash, xalqimiz yakdilligiga raxna soluvchi, xalqimiz uchun ham, davlatimiz uchun koni ziyon bo'lgan bunday harakatlar faoliyatini bartaraf etish, respublika xalqini buyuk kelajak qurishdek yagona maqsad sari chorlovchi sog'lom siyosiy muhit yuzaga kelishiga imkon yaratish maqsadida yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib Yurtboshimiz qat'iy ta'kidlagan edi: **«Ayni zamonda, mavjud konstitutsiyaviy hokimiyatni kuch bilan ag'darishni maqsad qilib olgan partiya va harakatlar, shuni aniq aytishimiz kerak, taqiqlab qo'yilishi kerak. Respublika chegaralari daxlsizligi va xavfsizligiga qarshi kurashuvchi, fashizm, irqchilik, zo'ravonlik, milliy va diniy nizolarni targ'ib etuvchi, demokratik erkinliklar va xalq ma'naviyati asoslariga tajovuz etuvchi har qanday partiya va jamoat harakatlari qonunga xilof deb e'lon qilinishi shart».**

Shu bilan birgalikda, Prezident **«kelajakda jamiyatimizda qanday partiyalar tuzilmasin, ularning soni qancha bo'lmasin, qaysi partiya oldiga qanday vazifa qo'yilmasin – ular o'z maqsadlariga, o'z g'oyalarini amalga oshirishga saylovchilarning ovozini, ya'ni ishonch-e'tiborini qozonibgina erishishi mumkin.**

Boshqacha aytganda, odamlarni har xil baqiriq-chaqiriqlar bilan maydon-u ko'chalarga chorlamasdan, ularning tinchligi, totuvligi, ijtimoiy barqarorlikni buzmasdan, adolatli saylov orqali hokimiyat organlariga vakillarini o'tkazish, o'ziga vakolat olish, tuman, shahar, viloyat, respublika kengashlarida o'zlari bergan va'dalarni, dasturlarini amalga oshirishga kuch-g'ayratini bag'ishlash, saylovchilar oldida olgan vakolatlarini o'z muddatida mas'uliyat bilan ado etish – partiyalar faoliyatining bosh yo'nalishi bo'lishi lozim», – deb, qat'iy va adolatli g'oyani ilgari surdi.

Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida sobiq SSSR hududida junbishga kelgan siyosiy vasvasalar va demokratiya o'yinlari natijasi sifatida O'zbekistonda «Erk» demokratik partiyasi, «Birlik» xalq harakati vujudga kelgan edi. Ular o'z maqsad va intilishlari bilan mavjud siyosiy rejimga, u yetmish yil mobaynida xalq boshiga keltirgan kulfatlarga qarshi edi. Mazkur guruhlar ma'muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan davlat boshqaruviga, yakkahokimlik va g'oyaviy hukumdorlik egariga minib olgan kommunistik mafkuraga qarshi holda faoliyat ko'rsatdilar.

Biroq, bu faoliyat konstruktiv harakat, hukumat darajasiga ko'tarilgan siyosiy nufuz va aql-idrok ko'rigi sifatida emas, balki dahanaki janglar, ehtirosli shiorbozliklar, ibtidoiy hayqiriqlar shaklida dunyoga keldi. Bu jamiyat hayoti uchun ham, xalq hayoti uchun ham jiddiy xavf tug'dirdi.

Har qanday sharoitda ham demokratiyaga sog'lom munosabatda bo'lish, demokratiyani yuksak ma'naviyat, aql-idrok mezoni, siyosiy yetuklik va tom ma'noda xalq manfaatlari yo'lidagi noyob hodisa ekanligini anglamoq zarur. Ana shu xulosalardan kelib chiqib va mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda yuzaga kelgan og'ir ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jazavalar, bo'hronlar oqibatlarini hisobga olib Prezident I.Karimov mamlakat Oliy Kengashining 1993-yil 2-3-iyul kunlari bo'lib o'tgan X sessiyasida shunday degan edi: **«Demokratiya ustun bo'lgan jamiyatda konstruktiv sog'lom oppozitsiyaning roli juda katta bo'ladi. Bunday oppozitsiya jamiyatning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi.**

Ayni zamonda, mavjud konstitutsiyaviy hokimiyatni kuch bilan ag'darishni maqsad qilib olgan partiya va harakatlar, shuni aniq aytishimiz kerak, taqiqlab qo'yilishi kerak. Respublika chegaralari daxlsizligi va xavfsizligiga qarshi kurashuvchi, fashizm, irqchilik, zo'ravonlik, milliy va diniy nizolarni targ'ib etuvchi, demokratik erkinliklar va xalq ma'naviyati asoslariga tajovuz etuvchi har qanday partiya va jamoat harakatlari qonunga xilof deb e'lon qilinishi shart».

Bu O'zbekiston hukumatining mustaqillikning eng tahlikali kunlarida tutgan qat'iy siyosiy yo'li, strategik qarashlari edi. Ayni ana shunday qat'iyat, jur'at, ichki va tashqi g'animlarimiz zo'r berib O'zbekistonda barqarorlikni yo'q qilishga, fuqarolar urushini keltirib chiqarishga urinayotgan bir paytda uning sobitqadamligidan, har qanday ig'vogarliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rayotganligidan dalolat beradi.

«Erk» demokratik partiyasi vakillari va ularning homiylari mamlakatda vujudga kelgan qiyinchiliklarni ro'kach qilib, har qanday yo'l bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish uchun ochiqdan-ochiq kurash boshladilar. Ular ko'cha-ko'ylarda mitinglar uyushtirib, ommaviy noroziliklarni keltirib chiqarishga harakat qildilar. Xalq saylagan deputatlarga

ishonchsizlik bildirib, ularning iste'foga chiqishlarini talab qilishdi. Ayni Tojikiston voqealarini takrorlashga intilishdi. Demak, oldin shiorbozlik, mitingbozlik, keyin katta maydonlarda va hukumat binolari oldida ochlik e'lon qilishlar, undan so'ng esa qurolni ishga solib qonuniy parlamentni barbod etish va nihoyat davlat to'ntarishini amalga oshirish...

Balki hukumat boshqaruv jilovini ozgina bo'shashtirganida, ikkilanish yoki sarosimaga tushganida Tojikistondagi voqealardan ham dahshatlirog'i yuz berishi mumkin edi. Lekin unday bo'lmadi. O'zbekiston hukumati qanchalik ta'na-dashnomlar yomg'iri tagida qolmasin demokratiya kushandasi, diktatura hokimiyati degan malomatlarni eshitmasin, o'z yo'lida qat'iy turdi, ikkilanmadi.

«Erk» demokratik partiyasining tajovuzkorona harakatlari va siyosiy qo'poruvchilik faoliyati, ayniqsa, 1991-yil 29-dekabrdagi Prezident saylovlari kunlarida yuqori cho'qqiga chiqdi. Partiya vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlarda, partiya yig'ilishlarida ehtirosga berilishlar, qonuniy hukumatni ochiqdan-ochiq badnom qilish va zo'ravonlik harakatlarini yaqqol namoyish qildilar. To'g'ridan-to'g'ri hukumat rahbarlariga turli yo'llar bilan g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy zarba berishga harakat qildilar.

Prezident saylovlarida M.Solihning yetarli ovoz ololmasligi aniq edi. Buni uning o'zi ham, tarafdorlari ham yaxshi bilishar edi. Albatta, M.Solihning saylovda g'alaba qozonolmasligining o'ziga xos asoslari bor edi:

Birinchidan, u hali partiya rahbari va siyosiy yetakchi sifatida omma ichiga kirib ulgurmagan, xalqning alohida e'tiborini qozonolmagan edi.

Ikkinchidan, «Erk» demokratik partiyasi dasturlari, partiya rahbariyatining omma orasidagi chiqishlari tom ma'noda jamiyatni tubdan isloh qilish va uni butunlay yangi o'zanga burib yuborishga qodir emasligini xalq yaxshi tushunib olgan edi. Partiya xulosalari, islohotlar uchun taklif etgan mulohazalari hayotiy jihatdan ham, ilmiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham yetukligiga hech kim kafolat bermas edi. Aksincha, ularning o'zlari ortiqcha shovqin-suron va dabdabalar bilan sun'iy ravishda o'z nufuzlarini oshirishga intilishardi.

Uchinchidan, Prezident Islom Karimov esa mamlakat jar yoqasiga borib qolgan eng qiyin va ziddiyatli paytlarda o'z iqtidorini ko'rsata olgan, o'z fikrining va g'oyasining to'g'riligiga xalqni ishontira bilgan edi. Bu, ayniqsa, Sobiq Ittifoq tarqalishi oldidan yuz bergan jiddiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar — millatlararo nizolar, qonli to'qnashuvlar va eng muhimi Moskva bilan Toshkent o'rtasidagi siyosiy kurashlarda yaqqol ko'zga tashlangan edi. Xalq mamlakatga xuddi ana shunday rahbar zarurligini, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash kerakligini anglab olgan edi. Saylovlar arafasidagi barcha siyosiy o'yinlar, jizzakiliklar, zarda qilishlar va boshqa xatti-harakatlar ayni ana shu hayotiy haqiqatni tan

olmaslikdan, hokimiyatga egalik xuruji tobora kuchayganidan, mansab va kursiga jon-jahdi bilan intilish jazavasidan kelib chiqqan edi.

Ko'p nomzodli Prezident saylovlari bugungi hodisa emas. Bu jahon tajribasida bor va demokratik tamoyillar qaror topgan dunyoning juda ko'p mamlakatlarida qat'iy tartib va an'anaga aylangan voqelik.

Biroq, ularda saylovlar yuksak siyosiy madaniyat, oshkora, ro'yirost faoliyat asosida o'tadi. Bir necha partiya, harakat va boshqa siyosiy guruhlar nomzodlari saylovda bir yo'la ishtirok etsalar-da, tabiiyki, ularning faqat bittasi Prezidentlikka saylanadi. Qolganlar esa yana go'yo hech narsa bo'lmaganday o'z faoliyatlarini davom ettiraveradilar. Umumiy manfaat – mamlakat va xalq manfaati yo'lida birlashib ketadilar. Ichki adovat, kek saqlash, oxir-oqibatda esa davlat to'ntarishini amalga oshirishga bormaydilar. Bu o'sha nomzodlarning ham, ular tarafdorlarining ham va umuman mamlakatda qaror topgan demokratik tamoyillarning ham ma'naviy qiyofasini, siyosiy madaniyatini belgilaydi.

1991-yilgi Prezident saylovlari xalqimizni ko'p narsaga o'rgatdi. «Meni saylang, meni saylang» qabilidagi bozorchilikni ham, har qanday tashkiliy-siyosiy ishlardan xatoliklar qidirish yo'li bilan «suvni loyqalatish» holatlarini ham ko'rdi. Biroq, u sobiq SSSR hukumati jazavaga tushgan, kichik xalqlarga zug'um qilayotgan bir paytda o'z hukumatining qat'iyat bilan ishlaganidan, Moskva – Toshkent o'rtasidagi siyosiy «jang»larning ko'pidan xabardor edi. Mamlakatda sog'lom g'oya, ochiq siyosiy hayot qaror topayotganini ko'rib turardi. Mustamlakachilikdan ozod bo'lish va mustaqillikni e'lon qilishdagi jasoratini qadrlar va ana shunday hukumatga yashash qanchalik qiyin, mashaqqatli bo'lmasin, imon-e'tiqodi bilan ishonar edi. Shuning uchun ham u saylov kompaniyasi paytida turli siyosiy nayranglarga uchmadi.

Mamlakatda vujudga kelgan vaqtinchalik tanglikdan foydalanishga urinishlar ana shunday qizg'in tus oldi. Mustaqillikning dastlabki yillari ijtimoiy-siyosiy jihatdan xalqimizga bir qator qiyinchiliklar keltirdi. G'oyaviy muxoliflar esa o'z xatti-harakatlari bilan uni tobora chigallashtirishdi, mamlakatda ma'naviy-ruhiy vaziyatni murakkablashtirishdi. Ana shunday qiyin va ziddiyatli bir paytda O'zbekiston hukumati masalaga jiddiy qaradi. Buni Prezident Islom Karimovning 1993-yil 2-3-iyul kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning X sessiyasida so'zlagan nutqida yaqqol ko'rish mumkin: **«Iqtisodiy tanglik davrida nizo chiqarish juda oson. Gugurt chaqilsa bas – ho'l-u quruq baravar yonib ketishi mumkin. Men bu gapni ilgari ham ko'p marta aytganman, lekin bugun, azizlar, birodarlar, boshqa qo'shnilarimizning ahvolini ko'rib, yana bir marta takrorlashga majburman. Sizlarni, sizlar orqali barcha vatandoshlarimizni hushyorlikka da'vat etmoqchiman.**

Fuqarolar to'qnashuvi bo'layotgan mintaqalarda odamlar nobud bo'lyapti, qon to'kilyapti, xalq xo'jaligi yuz millionlab so'm zarar ko'rmoqda, mol-hol qarovsiz, dalalar ekinsiz qolib ketmoqda.

O'zbekistonning yo'li shuki, biz tinchlik va osoyishtalikni saqlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishni shoshmasdan, aholining nochor qismini asrab-avaylab, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berib, ana undan keyin amalga oshirishga bel bog'ladik.

Quruq va'dalar, jizzakilik, siyosiy jazavalar payti o'tdi. Bugun xalqimizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Oldin qorinni to'yg'azib, ishning sarhisobini qilib, to'g'ri yo'lni tanlab, bozor iqtisodiyoti uchun zamin hozirlab, undan keyin siyosiy bahslar bilan shug'ullanish mumkin. Oldin hammamiz bir bo'lib, bir tan-bir jon bo'lib, ertangi kun harakatini qilaylik».

O'z yo'liga sobitlik, qat'iyat va iroda eng og'ir paytlarda mustaqillik degan oliy ne'matni asray oldi. Darhaqiqat, xalq orzu-umidi va ehtiyojlari bilan davlat siyosatining uyg'unligi ta'minlanmasa bunday taraqqiyotning umri qisqa bo'ladi. Har qanday sharoitda ham o'tish davrida davlat siyosatida qat'iy iroda, qarama-qarshi fikrlarga to'g'ri munosabat, zarur kelganida esa «diktatura» ko'rinishidagi qattiqqo'llik, qat'iy talab ehtiyoj darajasiga ko'tariladi. Ana shu ehtiyoj qondirilgan taqdirdagina jamiyatda barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy ravnaq qaror topadi.

Demokratiya ishqibozlari o'z faoliyatlaridagi jiddiy nuqsonlarni, g'oyaviy kemtiklikni va tashkiliy noshudlik illatlarini jazavalar-u vasvasalar bilan niqoblashga qanchalik intilishmasin, qaysidir darajada mavjud siyosiy rejim oqibatida vujudga kelgan nuqsonlardan jabr tortayotgan, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan aholining ikkilanishlaridan, ichki noroziliklaridan ustomonlik bilan foydalanmoqchi bo'ldilar.

Ya'ni, haqiqatga tashna, yaqin o'tmishdagi to'rachilik va ma'muriy-buyruqbozlik illatlaridan zada bo'lgan, tobelik va mutelik, qo'rquv va hadik ezib yuborgan xalqning sabr kosasi to'lgan bir sharoitda u kimgadir ergashishga muhtoj edi. O'zlarini millatparvar qilib ko'rsatishga intilganlar aholining ana shu kayfiyatidan foydalanishga, shu yo'l bilan nimalargadir erishishga intilishardi.

Ularning o'z iboralari bilan aytganda, muxolifat sifatida maydonga chiqishlari jamiyat hayotida ijobiy hodisa ekanligi ma'lum. Chunki har qanday jamiyatda muxolifatning mavjudligi fikrlar xilma-xilligi, dunyoqarashlar turlichaligi, g'oyalarning rang-barangligiga olib keladi va oxir-oqibatda eng sog'lom fikrni tanlashga, eng sog'lom g'oyalarga ergashishga imkon beradi. Biroq, bu jamiyat hayoti bir tekis ketayotgan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir izga tushgan, jamiyat taraqqiyotini yo'naltiruvchi kuch – omma fikri mustahkam va yagona zanjirga aylangan bir paytda samara berishi mumkin.

Biroq, yuqorida aytganimizdek, jamiyat bir holatdan ikkinchi holatga o'tayotgan bir sharoitda barcha kuchlarni birlashtirish, umumiy manfaat yo'lida birlashib kurashish singari yuksak siyosiy madaniyat, xalq va mamlakat oldidagi nihoyatda og'ir mas'uliyat milliy ravnaq va iqtisodiy barqarorlikning asosidir.

Afsuski, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan, o'zlarini muxolifat deb bilgan siyosiy kuchlar ana shu muhim holatga baho bera olmadilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach endi mamlakat hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berishi mumkinligi, uning xoh ijobiy, xoh salbiy oqibatlari bo'lmasin, hamma uchun birday tegishli ekanligini anglay olmadilar. Ular faoliyatida siyosiy va hayotiy mantiqning eng oddiy ko'rinishlari ham ko'zga tashlanmadi. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

Birinchidan, o'z g'oyasi, maqsad va vazifalariga ko'ra kommunistik diktaturaga qarshi turgan «Erk» demokratik partiyasi ayni kommunistik partiya tarqatib yuborilgandan so'ng ham endigina shakllanayotgan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum sharoitlarida yuz berayotgan hodisalarga keskin qarshi turganligi mantiqsizlik edi.

Ular o'zlarining har bir chiqishlarida yangilanayotgan tuzum hukumati va mustaqillik tashabbuskorlarini eskicha ishlayotganga, islohotlar o'tkazishga qodir emaslikda ayblashardi. Xalqni oyoqqa turishga, qalqishga, keskin norozilik bildirishga da'vat etishardi. Jamiyat qon-qoniga singib ketgan qatag'onchilik, byurokratiya va to'rachilik illatlarini tezda barbod etish, ertaklardagi singari «bir yumalab» yangi hayotga erishish mumkin emas edi. Bu tabiiy jarayon. Bir yuz o'ttiz yillik tobelik kayfiyatlarini, mutelik ruhiyatini sindirib, yangicha yashash tamoyillarini anglash uchun vaqt kerakligini tushunishmadi. Yoki aksincha, yaxshigina tushunishardi-yu norozilik kuchayishidan manfaatdor edilar.

Vaholanki, qariyb 130 yillik mustamlakachilikdan ozod bo'lgan mamlakat taqdiri o'zini chinakam vatanparvar deb bilgan har qanday kishini qiziqtirishi, g'oyasi, e'tiqodi, kasb-u kori, ijtimoiy kelib chiqishi va millatidan qat'i nazar ana shu muqaddas zamin istiqboli yo'lida, yangi g'oya– mustaqil taraqqiyot g'oyasi atrofida jipslashish lozim edi.

Ikkinchidan, xalq uzoq yillik siyosiy iskanjadan ozod bo'lgach, u endi o'zini qayerga qo'yishini, qanday yo'ldan borishini, kelajagini qanday belgilashni bilmay qolgan edi. Mamlakatda sarosimalik vujudga keldi. Ishlab chiqarishda parokandalik yuz berdi. Sobiq ittifoqning yagona iqtisodiy makonida vujudga kelgan po'lat zanjirlar uzilgach, kun kechirish og'irlashdi. Odamlarda ruhiy horg'inlik, asabiy charchog'lik, ma'naviy kemtiklik va asabiy taranglik kayfiyati paydo bo'ldi. Bu aytish mumkinki, har qanday sharoitda ham siyosiy kuchlardan jiddiyroq o'ylashni, jiddiyroq harakat qilishni, har bir qadamini o'ylab bosishni taqozo

etardi. Chunki ta'bir joiz bo'lsa mamlakatning o'sha paytdagi ahvoli nihoyatda ulkan gaz bochkasiga o'xshardi. Uning tuynugiga befarqlik bilan bir gugurt chaqish halokatli va falokatli hodisaga olib kelishi muqarrar edi. Ana shunday paytda «Erk» demokratik partiyasi mustamlakachilik siyosatiga nisbatan qanday pozitsiyada turgan bo'lsa, mustaqillikning qonuniy hukumatiga ham xuddi shunday pozitsiyada turdi. Vaholanki, yigirma milliondan ortiq aholi taqdiri bitta gugurt chaqilishi bilan bog'liq bo'lgan tahlikali vaziyatda edi. Bu muxolifatchilarning jiddiy siyosiy xatosi, uzoqni ko'ra olmaslik illati edi.

Ana shunday jiddiy xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda vujudga kelgan «demokratiya jarchilari»ning balandparvoz shiorlari-yu qalin-qalin nizom va dasturlari shunchaki gap bo'lgan, xolos. Chunki ularning oldingi hukumatga ham, keyingi hukumatga ham birday qarshi turishlaridan mamlakat va xalq manfaati uchun kurash emas, ayni hokimiyat uchun kurash, toj-u taxt jangi, amal-u kursi kurashi ekanligi ayon bo'ldi. «Erk» demokratik partiyasining nizomida «Erk» demokratik partiyasi jamiyatda totuvlikka, barqarorlikka intilishni qo'llab-quvvatlaydi, konfrontatsion kurashish xavfli yo'l...» degan satrlar bor. Ayni ana shuning o'zi partiya rahbariyati tutgan yo'l boshqa, qog'ozda bayon etilgan g'oyalar boshqa ekanligini ko'rsatadi.

* * *

1991-yilning oxirlari O'zbekiston mustaqilligining eng tahlikali, iztiroblar va og'ir kechinmalar jo'sh urgan davri edi. Hali Moskvada sobiq ittifoqni saqlab qolish ilinjida yurgan siyosiy arboblarning jazavalari tutgan, asabiy va tund kayfiyat hukmronlik qilayotgan, kelajakka umid bilan qarayotgan bir paytlar edi. Ana shunday ziddiyatli bir paytda O'zbekistonda mustaqillikni butun choralar bilan mustahkamlash, uning huquqiy asosini yaratish borasida jiddiy ishlar amalga oshirilayotgan edi.

Sobiq ittifoq tarqalishi arafasida turli mish-mishlar-u gap-so'zlar, siyosiy ig'vogarliklar avj oldi. Birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston go'yoki, faqat ittifoq tarkibidagina kun ko'rishi mumkin. U hech qachon mustaqil davlat bo'la olmaydi, mustaqil taraqqiyot yo'lidan bora olmaydi, oxir-oqibatda esa Moskva marhamatiga zor bo'ladi, degan fikrlar mavjud edi.

Bunday munozaralarning bo'lishi tabiiy edi. Chunki, uzoq yillar Moskvaga qaram bo'lgan, xalqi kamsitilgan, unga noshud-notavon, o'z taqdirini o'zi belgilashga qodir bo'lmagan mavjudot sifatida qaralib kelinganligi sababli O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgach, «ulug' og'a»larning taajjubi oshdi. Biroq, bu tashqi g'animlarning shunchaki diydiyosi edi, xolos.

Eng yomoni ichki parokandalik. Bu nihoyatda og'ir va surunkali kasallik. Uni faqat ancha-muncha asablar va hayot-mamot kurashi evazigagina davolash mumkin. Aksariyat hollarda esa, ichki parokandalik siyosiy beqarorlikka aylanib ketib, butun jamiyatni ostin-ustun qilib tashlaydi. Minglab odamlarning yostig'ini quritadi, millat kushandasi sifatida ildiz otadi va uni yillar mobaynida kemirib tashlaydi. Ana shunday xalq boshiga qiron keltiruvchi hodisalar O'zbekistonda ham mavjud edi.

Demokratiya o'yinlari avj olgan bir paytda o'zini ko'z-ko'z qilishga ishqivoz bo'lgan siyosiy arboblar ham maydonga chiqishdi. Ularning ayrimlari turli mansab pillapoyalaridan tez-tez ko'tarilib hukumatning eng yuqori kursilarini egallashga ham ulgurishdi. O'zlarini mavjud siyosatga sadoqatli, hukumatga esa fidoyi qilib ko'rsatishdi. Eng achinarlisi, bular orasida uzoq yillar partiya va sho'ro idoralarida katta-kichik lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan kishilar ham bor edi. Ular dahanaki «dasturlari»da yillar mobaynida sovet hokimiyati hukmronligi paytida to'planib qolgan qator muammolarni hal etish singari xalqimizga xush yoqadigan, uning kundalik turmushiga madad bo'ladigan masalalarni ko'tarib chiqardilar. Keyinroq xuddi ana shu masalalarni ko'tarishda ayyorlik qilishgani va vaziyatdan foydalanib, respublikaning eng yuqori mansab kursilarini egallashga harakat qilishgani ma'lum bo'la boshladi.

O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilish, uni mustamlakachilik iskanjasidan qutqarib olish jarayonlari qanchalik tahlikali ekanligi kitobxonga ayon. Oliy Majlisning 1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari sessiyasida mamlakat Prezidenti O'zbekistonni mustaqil deb e'lon qilish taklifini kiritganda zal go'yo muzlab qolgan edi. 500 deputat va sessiya qatnashchilari «shok» holatida edi. Prezident «Nima, mustaqillikdan cho'chiyapsizlarmi, nega qarsak chalmaysizlar?» degandan so'nggina deputatlar bir qalqib tushishdi va zalda gulduros qarsaklar boshlandi.

Moskvada qon to'kilayotgan, markaz butun vujudi bilan ittifoqdosh respublikalarga tazyiq o'tkazayotgan, zug'um va zo'ravonlik bilan ular jilovini tortib turgan bir paytda, unga qarshi qo'l ko'tarish, respublika rulini butunlay tortib olish va harakatdagi mashinaga sakrab chiqib olish chindan ham jasorat edi.

Mustaqillik e'lon qilingach, orqada pisib o'tirib, zimdan ishlayotganlar asta-sekin bosh ko'tardilar. Endi o'zlarini istiqlol qahramoni, mustaqillik jarchisi, mamlakatni boshqarishda «nodir iste'dod» ekanliklarini ko'rsata boshladilar. Butun mas'uliyatni zimmasiga olib, hayotini xavf ostida qoldirib, mustaqillikni e'lon qilganlarga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18–21-noyabr kunlari bo'lib o'tgan sessiyasi O'zbekiston tarixida alohida voqea sifatida muhrlandi. Ayni ana shu sessiyada bir guruh soxta demokratlar ochiqdan-ochiq bosh ko'tardilar. Turli tomondan so'z olib, sessiya kun tartibini buzish, unga qo'shimchalar kiritish bahonasida turli, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan muammolarni ko'tarib chiqishga intildilar. To'g'ridan-to'g'ri mamlakatda olib borilayotgan izchil siyosatga zid, bo'htondan iborat fikrlar bildira boshladilar. Jumladan, «Tashabbus» guruhi nomi bilan so'zga chiqqan bir guruh deputatlar «O'zbekistonda mitinglar va namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash to'g'risida»gi Qarorni bekor qilish, respublika ma'muriy organlari, shuningdek, Konstitutsiyaviy Nazorat Qo'mitasiga ultimatum qo'yish talabi bilan chiqa boshladilar.

Ayni chog'da, o'zlarini mustaqillik va xalq tarafdorlari sifatida ko'rsatishga urinib, «demokratiyami yoki diktaturami?» qabilida sessiyaga, uning rahbariyati oldiga asossiz kesatiqli savollar qo'ya boshladilar.

Bir so'z bilan aytganda sessiyaga ma'lum kuchlarning oldindan tayyorgarlik ko'rgani yaqqol sezila boshlandi. Bu o'z navbatida sobiq ittifoq hududida sarosimalik, barcha ittifoqdosh respublikalarda turli hadiksirashlar va ikkilanishlar, mustaqil O'zbekistonda esa iqtisodiy tanglik hukmronlik qilayotgan bir paytda muxolif kuchlarning turli hiyla va nayrang yo'li bilan hokimiyatni egallashga harakat qilayotganliklarini ko'rsatar edi.

Sessiya jangovarlik, shafqatsiz kurash va hujumkorlik ruhida o'tdi. Unda Prezident Islom Karimovning qat'iy iroda kuchi, har qanday tanqidiy fikr va qo'poruvchilik harakatlariga og'ir-vazminlik, siyosiy hushyorlik fazilatlari hamda asosli mulohazalari bilan munosabat bildirganligi natijasida muxolif kuchlar o'z maqsadiga yeta olmadi. Agar ana shu yig'ilishda Prezident ozgina ikkilanib qolganida o'z pozitsiyasini butunlay qo'ldan berib yuborishi, hokimiyat tepasiga esa bir to'da amalparastlar-u shuhratparastlar kelib qolishi, natijada butun mamlakat ham, xalq ham tubsiz jarga qulab ketishi mumkin edi.

Sog'lom fikrli kishilar, aslida qo'poruvchilarning iddaosi nimada ekanligini aqlan chuqur his qilgan fuqarolar yuqoridagi soxta demokratlar chiqishlarini qo'llab-quvvatlamadilar, kun tartibidagi masalalar yuzasidan amaliy takliflar bildirdilar, har bir masalada mamlakatda olib borilayotgan xalqchil siyosatni ma'qullashlarini, mamlakat Prezidenti atrofiga yanada jipslashish zarurligini ayta boshladilar.

Mamlakat aholisi, mustaqillik tarafdorlari o'zlarining fikr-mulohazalarini Oliy Kengash va sessiya nomiga yozib yubora boshladilar.

Mavzuga doir materiallar

O'zbekiston jumhuriyati Oliy Kengashining sakkizinchi sessiyasi qatnashchilariga Farg'ona viloyati dehqonlar uyushmasidan

MUROJAATNOMA

Hurmatli sessiya qatnashchilari, xalq deputatlari!

El-yurt ravnaqi yo'lida halol, fidokorona mehnat qilayotgan 300 mingdan ziyod Farg'onalik dehqonlar nomidan sessiya qatnashchilarini muhim qarorlarni qabul qilishda adolat tarozisini ishga solib, aql-idrok bilan ish ko'rishga, his-hayajonlarga berilmaslikka da'vat etamiz.

Jumhuriyatimiz sha'niga chetdan, ayniqsa, markazdan aytilayotgan gaplar bizni ham chuqur tashvishga solayapti. Ayniqsa, Prezidentimiz Islom Karimov shaxsiga nisbatan aytilayotgan gaplar faqat bo'hton va tuhmatlardan iborat, deb o'ylaymiz.

Prezident xalqqa, ayniqsa dehqonlarga qayishadigan rahbarlardan ekanligi hech kimga sir emas. Birgina tomorqa berish haqidagi farmonni olaylik. Axir, xalqimiz bu kunlarni yetmish yil orzu qildi. Jumhuriyat bo'yicha 350 ming gektar, Farg'ona viloyati bo'yicha 41 ming gektar yer tomorqaga ajratildi. Bir uyda tiqilib yotgan o'nlab oilalarning ko'kragiga oftob tegdi. Aholini urug'lik don bilan ta'minlash, yem-xashak ajratish, gazlashtirish, ichimli suv keltirish to'g'risidagi farmonlar qishloq aholisi, dehqonlar to'g'risidagi chinakam g'amxo'rlikning namunasidir.

Ulgurji va chakana narxlarning oshishi, pulning qadrsizlanishi, iqtisodiy tanglik birinchi bo'lib dehqonning cho'ntagiga qo'l soldi. Shunday vaziyatda ham Prezidentimiz eng ma'qul yo'lni topib berdi. Paxtaning xarid narxi oshirildi, soliqlar kamaytirildi. Plandan tashqari paxta xo'jaliklarning o'z ixtiyorida qoldirilganligi tufayli ham viloyatimizda davlatdan qarzdor xo'jaliklar umuman qolmadi. Natijada viloyatimiz xo'jaliklari xazinasiga 355 million so'm qo'shimcha daromad tushayapti. Kechagina xazinasi bo'shab qolgan xo'jaliklar bugun yengil nafas olishayapti.

Deputatlar asosan respublika mustaqilligini, yurtimiz osoyishtaligi, el farovonligini, millatimiz kelajagini o'ylaydigan qarorlarga asosiy e'tiborni qaratadilar. Ular Prezidentimizning mustaqil, odilona yo'lini qo'llab-quvvatlaydilar, hamkorlik, hamfikr ish yuritadilar, xalqimiz umidini oqlaydilar, deb ishonamiz.

Farg'onalik dehqonlar nomidan:

M.Sherbo'tayev – viloyat dehqonlar uyushmasining raisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi; N.Umarov– Toshloq rayonidagi «Navbahor» kolxozi raisi, M.Mo'minov – Oxunboboyev rayonidagi «Solijonobod» sovxozi direktori; jami 9 kishi.

«Xalq so'zi» 1991-yil 16-noyabr.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga

So'zimizning avvalida shuni iftixor bilan aytamizki, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi respublikamiz, xalqimiz hayotida unutilmas voqea bo'lib qoldi. Bu istiqlolni, erkinlikni O'zbekiston necha o'n yillardan beri kutardi. O'sha chorizm bosqinidan keyin erkinligini yo'qotgan xalq uchun mustaqillik tengsiz bir g'alabadir. Kim qanday baholamasin, qanday fikrlamasin, bu voqea tarix qatida mangu qoldi. O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritishida, shubhasiz, respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xizmati bebahodir. Ha, O'zbekiston uchun, uning kelajagi uchun, xalqimizning baxt-iqboli uchun bugun ana shunday jur'atli, mard o'g'lonlar maydonga chiqishi kerak.

Ne bir mashaqqatlar evaziga erishilgan mustaqillikni har birimiz dadil himoya qilishimiz zarur. U, avvalo, birlikni, yakdillikni, faol harakatni talab etadi. Xalqimizda bo'linganni bo'ri yer, degan naql bor. Bugun turlicha qarashlar, fikrlashlar, voqealarga turlicha munosabatda bo'lishlar borligini inkor etmaymiz. Lekin milliy mustaqillikni saqlab qolishdek ulug' ish gina-kuduratni yig'ishtirib qo'yishni, xalqimiz orzu qilgan ezgu yo'lni boshlab bergan Prezident va hukumat atrofiga mahkam jipslashishni taqozo qiladi. Biz hozirgi murakkab damlarda shuni unutmaylikki, boshqacha fikrlashib mahalliychilikka berilish, turli guruhlarga bo'linish – mustaqillikka zarba bo'lib tushadi, mustaqillik dushmanlari harakati uchun yo'l ochiladi.

Prezident keyingi paytlarda jur'at bilan katta ishlarni amalga oshirmoqda. O'zingiz o'ylab ko'ring, kechagina boshimizga qanday kulfatlar tushgandi. Mehnatkash, jafokash o'zbek xalqi sha'niga asossiz ta'nalar yog'ildi. U tahqirlandi, kamsitildi. «O'zbeklar ishi»ning ixtirochilari esa tap tortmay, chor-nochor turmush kechirib kelgan dehqonga ham, boshqa rahbarlarga ham nihoyatda shafqatsizlarcha munosabatda bo'ldilar. Bevosita Prezidentning farmoni bilan minglab kishilar qamoqxonalardan ozod etildi. Ularning ko'plari o'z vazifalariga tiklandilar.

Dinimiz, e'tiqodimiz tiklanayapti, xalqimizning ko'pgina ajoyib urf-odatlari, an'analari ro'shnolik ko'rdi. Bular ham qalbimizni ezgulikka limmo-lim etib, barchamizni yuksak orzu-istaklar sari ruhlantirmoqda.

Biz Prezidentning va hukumatimiz boshqa rahbarlarining Mustaqillik yo'lida bundan keyin ham dadil harakatni susaytirmasliklarini istardik. Bu borada ularni doimo qo'llab-quvvatlaydigan qudratli kuch – xalq, faollar bor ekanligini doimo his qilishsin. Zero, I. A. Karimovning o'zi aytganidek, endi mustaqillik yo'lidan ortga qaytish yo'q. Eng muhimi, Prezidentning markaz va boshqa kuchlar tazyiqlaridan hayiqmasdan mustaqil O'zbekiston xalqi nomidan dadil ish ko'rishini istaymiz va bu yo'lda uning harakatini qo'llab-quvvatlaymiz.

Butun Samarqand viloyati ahli nomidan:
xalq deputatlari viloyat soveti ijroiya komitetining raisi
T.Qilichev,

Olimlar nomidan:
SamDU professori, filologiya fanlari doktori
S.Mirzayev,

Faxriylar nomidan:
Sotsialistik Mehnat Qahramoni, urush va mehnat faxriysi
I.Zokirov.

«Xalq so'zi» 1991-yil 19-noyabr.
(Xatlar qisqartirilgan holda berilmoqda.)

* * *

Xalqning qahr-g'azabiga, jiddiy noroziligiga uchragan muxolif kuchlar o'z niyatlariga yeta olmadilar. Endi ular hokimiyat uchun kurashning boshqa usullaridan foydalanishga, qaytadan kuch to'plashga, o'z tarafdorlarini yangi kuchlar hisobiga kengaytirishga harakat qila boshladilar. Lekin bunga erisha olmadilar. Chunki, bu vaqtga kelib xalqimiz, faollar, deputatlar kimning kimligini yaxshi anglagan, O'zbekiston rahbariyati, uning Prezidentiga ishonch kuchaya borgan davr edi.

Sessiya minbarlarida o'zlarini oriyatli va mag'rur qilib ko'rsatgan, «tiz cho'kib yashagandan ko'ra tik turib o'lmoqni» afzal ko'rgan «arbob» ko'p o'tmay pana-panalarda ish olib borib, orqavorotdan esa tosh ota boshladi. Hatto, bir muddat Moskvadan panoh topgan bir guruh «sobiq»lar pinjiga kirib, ular bilan birlashib, o'z yurtiga — O'zbekistonga qarshi, aniqrog'i uning hukumati, rahbariyati nomiga ig'vogarona uydirmalar to'qib yurdilar. Bu borada Moskvaning O'zbekistonga «xayrixoh» bo'lgan ayrim gazetalari sahifalaridan zo'r berib foydalandilar.

Jahonning mashhur siyosatdonlari, jamoat va davlat arboblari o'tish davrida hokimiyat jilovining bir kishi qo'lida qattiq turishini ma'qul ko'radilar. Chunki bunday sharoitda ozgina bo'shashuvchanlik, hokimiyatning turli tomonidan turli kishilar o'z yo'nalishiga tortishi jamiyatda parokandalikning paydo bo'lishiga olib keladi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni bir me'yorda saqlab turish uchun yagona qo'l hamma vaqt zarur ekanligini hayot ko'rsatmoqda.

Prezident Islom Karimov mamlakat jar yoqasiga borib qolgan bir paytda xuddi ana shu qattiqqo'lligi, o'z fikriga qat'iyligi va pozitsiyasini qo'ldan bermaslik fazilati bilan har tomonlama barqarorlikni saqlay

oldi. Buni jahon matbuoti o'z vaqtida yuksak baholadi. Jumladan «Vek» gazetasining 1995-yil 21–27-iyul sonida shunday deyiladi: **«SSSR parchalanib ketganidan so'ng eng dahshatli voqea O'zbekistonda yuz berishi lozim edi. Lekin, bunday bo'lmadi. Karimov birorta ham xatoga yo'l qo'ymadi.**

Karimovning mitinglarni taqiqlab qo'yishi qirg'izlar, tojiklar bilan o'zaro munosabatlardagi murakkab vazifalarni hal etish kabi juda to'g'ri ish edi. Uning kolxoz va sovxozlar rahbarlarini saylash emas, balki tayinlash to'g'risidagi taklifi ham o'rinli edi. Agar shunday qilinmaganida oxir-oqibat qanday bo'lishini bilish qiyin edi. Karimov musulmon mamlakatlari bilan munosabatlarni ham zargarlarga xos noziklik bilan yo'lga qo'ydi... Bularning hammasi Islom Karimovning ulug'ligini belgilaydigan sifatlardir».

Mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmadi. Kurashlar va iztiroblar turmushimizdagi qator qiyinchiliklar va muammolar bilan birga qorishib ketdi. Ichki va tashqi g'animlar bilan olishib, mustaqillik himoya qilindi. O'tgan davr xalqimizni ko'p narsaga o'rgatdi. Endi u o'z istiqboliga va istiqloliga qat'iy ishondi.

Mustaqillikning o'tgan davri xalqimizni ko'p narsalarga o'rgatdi. Butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangi tajribalar dunyoga keldi. Bu tajribalar «O'zbek modeli» sifatida jahon demokratik jarayonlarini boyitmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevralida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Prezident Islom Karimov mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, inson huquqlarini kafolatlash, eng insonparvar, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish xususida gapirar ekan «O'zbekiston XXI asr ostonasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» dasturini ishlab chiqish zaruriyati haqida alohida to'xtalgan edi. Oradan ko'p o'tmay ana shu keng tarmoqli dastur Prezidentning o'z tashabbusi bilan yaratildi. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» deb nomlangan yirik ilmiy, nazariy, tahliliy asar O'zbekiston davlat siyosatining bosh dasturi sifatida dunyoga keldi.

Muallif demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish xususida gapirar ekan, dunyo muammolarini, dunyo tajribalarini, insoniyat taraqqiyoti davrida to'plangan ijobiy xulosalarni chuqur o'rganadi va unga o'ziga xos baho beradi. Jumladan, u bugun jahon siyosatida har qanday zo'ravonlik va kuch ishlatishdan, har qanday qurol-yaroq va tazyiqlardan ustun keladigan tafakkur dunyoga kelayotganini, endi yoqavayronlik, portlatish va qirg'inbarot keltirishlar ibtidoiy hodisa ekanligini, «zo'r bo'lsang o'zingni aqling bilan ko'rsat»

qabilida ish ko'rsatish vaqti kelganligini boshqalardan ko'ra tezroq angladi, boshqalardan ko'ra chuqurroq tushundi. Endi borgan sari ochiqlik, yuzma-yuz turib fikrlashish, muammolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish va ana shu ayovsiz muzokaralar paytida sog'lom aql-idrok tantanasiga erishish zarurligini ko'rsatib bermoqda.

Prezident Islom Karimov mazkur kitobda mustamlakachilik va irqiy kamsitishlarning yo'q qilinganligini, sotsializm va kommunistik mafkuraning zo'ravonlik da'volari barbod etilganligi, jahon xaritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lganligi, mintaqalararo munosabatlarda muvozanatning o'zgarib ketganligi, aniqroq qilib aytganda, jahon taraqqiyotida Osiyo qit'asi mamlakatlari rolining oshib borayotganligi XXI asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining o'zgarib borishiga sabab bo'lishini chuqur tahlil etadi.

Muallif nazarida demokratik taraqqiyotning turli qadriyatlari, tamoyillari va me'yorlari takomillashib, bir-birini boyitib ommabop tus olmoqda. Endi ana shu qadriyatlar yer yuzining turli mamlakatlarida turli xalqlar va millatlarning yagona, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlariga aylanmoqda. Zotan, inson yer yuzining qaysi burchagida yashamasin, u eng avvalo insonligini tushunmog'i lozim, inson kabi yashashga haqli. O'zbekiston siyosati nazarida jahon taraqqiyoti va demokratiya jarayonlari ana shunga asoslanmog'i lozim.

Kitobda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida fikr yuritilar ekan, quyidagilar muhim omil sifatida ko'rsatib beriladi:

Birinchidan, muallif tasavvurida «Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi».

Demak, jamiyatda eng avvalo qonun ustuvor bo'lishi, barchaning qonun oldida tengligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ana shunda fuqarolarning huquq va erkinliklari to'la ta'min etilishiga imkon yaratiladi. Har qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmaydi va inson hayoti to'la kafolatlanadi.

Demokratiya siyosiy yoki huquqiy hodisagina emas, ayni paytda u yuksak ma'naviyat, boy madaniyat, shaxs kamoloti bilan bog'liq bo'lgan, har bir fuqaro ma'naviy-axloqiy va ruhiy holatini belgilaydigan oliy qadriyat. Muallif demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish xususida gapirar ekan, demokratiya erkinliklarini, jamiyat ma'naviy qiyofasini va shaxs ozodligini ana shunday yaxlit holda, bir butun jonli organizm shaklida tasavvur etadi.

Ikkinchidan, demokratiyani chuqurlashtirish omillaridan biri sifatida ko'ppartiyaviylik haqida alohida to'xtaladi va o'z fikrini aniq, lo'nda qilib o'rtaga tashlaydi. Hech qachon partiyalar soni demokratiya

ko'lamini, miqyosini, darajasini va qadriyatlarini belgilay olmasligini ko'rsatib beradi. Turli ijtimoiy guruhlar manfaatini himoya qila oladigan turli partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari o'z Nizomi doirasidagina o'z a'zolari manfaatini himoya qilishi mumkin, xolos. Biroq, umumiy manfaat – xalq, jamiyat, mamlakat manfaati singari eng oliy va eng qimmatli ehtiyojlar ham borki, bu barcha siyosiy partiyalarning umumiy yig'indisidan, turli va xilma-xil qarashlarning uyg'unligidan kelib chiqadi. To ana shunga erishilmas ekan, demokratiya shunchaki rusumga aylanib qolaveradi. Ana shunday nuqtai nazardan **«Partiyalarning paydo bo'lishi, ularning soni, dasturi, yo'l-yo'riqlarining o'ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar yig'indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo'l bilan belgilanmog'i kerak. Siyosiy partiyalar mavjud bo'lishining asosiy va birdan bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me'yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo'lmog'i lozim»** – deb yozadi I.Karimov.

Uchinchidan, muxolifat haqida. Muallif tasavvurida muxolifatning mavjudligi demokratik jamiyat uchun zaruriy hodisa va normal holatdir. Biroq, bu shaxsiy manfaatlar zaminidan unib chiqqan, o'z orzu-umidlariga erishish uchun intilgan yoki jamiyatning orzu qilingan amallaridan mahrum etilgan bir hovuch norozi shaxslaridan iborat bo'lgan alamzadalar «armiya»si emas, aksincha, tashkiliy jihatdan rasmiylashgan, huquqiy maqomga ega bo'lgan, Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga bo'ysunib yashashni turmush tarziga aylantirgan, o'z xatti-harakati bilan davlat va jamiyatdagi barqarorlikka mas'ul bo'lgan yuksak darajadagi siyosiy madaniyat ko'rigidir.

Haqiqiy muxolifat tom ma'noda davlat va jamiyat taraqqiyotiga yordam beradigan, hukumat faoliyatining takomillashishiga ko'maklashadigan, konstruktiv, ilmiy va amaliy jihatdan asosli bo'lgan, hayotiy jihatdan xalq tomonidan ma'qullangan xulosalar bilan yashaydi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas.

To'rtinchidan, jamoatchilik fikrining qay darajadaligini bilish, uni shakllantirish va takomillashtirish, jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish zarur. Ayniqsa, o'tish davrida, tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda turli toifa, saviya va dunyoqarashga ega bo'lgan xalq fikrini bir nuqtaga jamlash, uni asosiy yo'nalishga burib turish islohotlar taqdirini hal qiladigan eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham matbuotga munosabat uning jamiyatda tutgan o'rni va rolini aniqlash, «to'rtinchi hokimiyat» darajasiga ko'tarish zarur.

Eskicha fikr yuritish, eskicha tafakkur tarzi hammavaqt yangilikning yo'lini to'sadi. Unga g'ov bo'ladi. Bu haqda gapirar ekan, Prezident Islom Karimov **«Eski sarqitlardan judo bo'lish, dunyoqarashlar, psixologiyalar, turli da'volar o'rtasidagi ko'zga ko'rinmaydigan, lekin**

tinkani quritadigan kurashlar bilan birga bormoqda. Hayotning o'zi ana shu dunyoqarashlar, psixologiyalar, da'volar orasidan o'tishga majbur qilmoqda», – deydi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston ana shunday murakkab, ziddiyatli kurashlari orqali yangi asrga qadam qo'ymoqda. Bu kurashlar qanchalik qiyin bo'lmasin, eskicha tafakkurni sindirish, yangilikni qabul qilish qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, ayni paytda u millionlab kishilarni o'ziga ergashtirib bormoqda. Kelajakka qat'iy ishonch bilan qaramoqda.

3-§. Jamiyatni erkinlashtirishning yangi bosqichi

Mamlakatimizda tub islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillarining joriy etilishi avvaliga ayrim muxoliflarimizga unchalik ham xush kelmagan edi. Ular buni sustkashlikka, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumining illatlariga, yangi hokimiyatning demokratik o'zgarishga qodir emasligiga yo'yishdi.

Aslini olganda, «Falaj qilib davolash» usuli, ya'ni jamiyatni oldin butunlay chilparchin qilib, tekislab tashlab, so'ng uning o'rniga yangisini qurish, islohotlarni inqilobiy yo'l bilan amalga oshirish fojialarga olib kelishini o'ylamadi. Hissiyot aqldan ustun turishi jamiyatni hammavaqt inqirozga olib kelishini, har qanday islohotlar esa asta-sekinlik bilan odamlar qalbi va ongi orqali amalga oshirilgandagina yuksak madaniyat va ma'naviyat mazmunini kasb etishini tushunishmas edi.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, eng avvalo iqtisodiy islohotlarning dastlabki samaralari ko'zga tashlana boshlandi. Bu davlat mulkini xususiylashtirishdan tortib pul va bank-kredit tizimini butunlay o'zgartirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirish, sanoatni yangi, ilg'or, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashgacha bo'lgan va boshqa jihatlarni qamrab olgan islohotlarni o'zida mujassam etadi. Ayni ana shu yangilanish jarayonida «o'zbek modeli» vujudga keldi. Bu jahon davlatchiligida yangi yo'nalish boshlanganidan, jahon tajribalarini yangi mazmun bilan boyitayotganidan dalolat berar edi.

O'zbekistonning tub islohotlardagi o'z taraqqiyot yo'li faqat shuginami?

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida butunlay yangicha munosabatda bo'lish, jamiyat taraqqiyotining aholi ma'naviy-ruhiy va siyosiy-madaniy qarashlaridan kelib chiqqan o'ziga xos yondashish usuli shakllana boshlandi. Jumladan, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ham.

Mustaqillikning ilk kunlarida Prezidentimiz huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasini dolzarb vazifa qilib o'rtaga tashladi. Darhaqiqat, ayni ana shu tamoyillar jahon davlatchiligi eng ilg'or tajribalariga mos keladigan, uni dunyo

tan oladigan, inson huquqlari har jihatdan kafolatlanadigan jamiyat sifatida barpo etish ko'zda tutilgan edi.

Ayni ana shu paytlarda – 90-yillarning boshlarida mamlakat og'ir ijtimoiy, iqtisodiy po'rtanalar girdobiga tushgan, demokratiya «o'yin»lari avj olgan, aholining ayrim guruhlarida ehtiroslar junbishga kelgan bir payt edi. Har qanday sharoitda ham oldin ana shu og'ir vaziyatdan eson-omon chiqib olish, Prezident iborasi bilan aytganda **«hech qanday larzalarsiz»**, qon to'kmasdan, mamlakatda barqarorlikni saqlab turgan holda asta-sekinlik bilan hayotni izga solish tamoyili tanlab olindi. **«Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik»** singari hayot sinovidan o'tgan tajribalar yo'lidan borildi. Ana shu birgina shiorning o'zi tub islohotlarning hamma sohalariga – huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlariga tegishli edi. Ayni ana shu shiorning o'zida davlat siyosatining insonparvarlik mazmuni, har bir fuqaro, har bir tirik jon hayotining daxlsizligini ta'minlashga mas'ullik, butun mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saqlashga javobgarlik hissi mujassam bo'lgan edi.

Ana shunday bo'hronlar girdobida qolgan O'zbekiston hukumati mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishi va uning oqibatlarini har tomonlama o'rganib bordi. Uni bartaraf etish choralarini ko'rdi. Bu haqda gapirar ekan, I.A.Karimov **«Dastlabki kezlarda O'zbekistonni sustkashlik va konservatizmda ayblashardi. Ammo O'zbekiston bugungi kunga kelib, bozor o'zgartishlarining teranligi, ijtimoiy yangilanishning sur'atlari va taraqqiyoti yuzasidan, sobiq sovet hududidagi aniq dasturga ega bo'lmay turib, asossiz va mulohazasiz islohotlar jarayonini tezlashtirishga uringan, besabrlik qilgan, soxta obro'ga intilgan ko'pgina respublikalardan oldinlab ketdi.**

Ming afsuski, ana shu yuzaki urinishlarning hammasi pirovard natijada islohotlarning o'zini ma'lum darajada obro'sizlantirdi. Ularga ortiqcha siyosiy tus berdi. Jamiyatdagi ichki qarama-qarshilikni kuchaytirdi. Bu bor gap va undan hech qayoqqa qochib qutulib bo'lmaydi», – deydi.

Oradan yillar o'tdi. Toshqinlar tindi, suvlar tiniqlashdi, bulutlar tarqaldi. Haqiqiy hayot aniq-ravshan ko'zga tashlandi: Siyosatning har qanday hissiyot va tuyg'ulardan holi bo'lgan, aql-idrokka tayangan shakl-u shamoyili namoyon bo'ldi. Ana shuning o'zi yangilikni evolutsion yo'l bilan amalda joriy qilishning, qat'iy intizomga tayangan demokratiyaning ma'naviy qiyofasi edi.

O'zbekiston yangilanishlarning ikkinchi davrini boshladi. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

Birinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida eng avvalo odamlar yangicha turmush tarziga ko'nikma hosil qilishlari kerak edi. Islohotlarning mazmun-mohiyatini anglashlari, mustaqil taraqqiyot afzalliklari va beqiyos imkoniyatlarini tushunib olishlari lozim edi. Buningsiz hech

qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki, har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda ham inson asosiy hal qiluvchi omil. Shuning uchun ham yangilanishlar, eng avvalo, uning qalbidan, ongi va tafakkuri elagidan o'tkazilishi lozim.

O'zbekistonda, xuddi iqtisodiy islohotlarga bo'lgani kabi, demokratiyaga munosabatda ham ana shu tarzda yo'l tutildi. Demak, oldin jamiyat barqarorligini ta'minlash, odamlarni demokratik hayot tarziga o'rgatish, ularga demokratik tamoyillarni tushuntirish so'ng esa demokratik jarayonlarni faollashtirib, uning qoidalarini ishlab chiqish zarur edi.

Aslini olganda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'li tanlangandayoq demokratiyani joriy etishning strategik dasturlari ishlab chiqilgan edi. Biroq, buni e'lon qilish uchun hali erta, ya'ni jamiyat hali bu dasturlarni amalga oshirishga tayyor emas edi.

Mana endi demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustda bo'lib o'tgan VI sessiyasi ana shu yangi davrni boshlab berdi va demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish tamoyillarini ko'rsatib berdi.

Birinchidan, jamiyatni tubdan yangilash va turmushimizning barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, shu asosda demokratik tamoyillarni turmush tarziga aylantirish uzoq davom etadigan uzluksiz jarayondir. Bu kundalik tashvishimiz bilan bog'liq bo'lgan va umuman mamlakat taqdirini belgilaydigan muhim hodisadir. Jamiyatda demokratiyani chuqurlashtirish izchillikni taqozo etadigan, sobitqadamlik bilan turli qarshiliklar va to'siqlarni yengib, eskicha qoliplarni sindirib tashlab, yangicha tafakkur tarzini joriy qiladigan murakkab jarayondir.

Ikkinchidan, jamiyatni demokratlashtirish bu bevosita iqtisodiy islohotlardan tortib huquqiy, siyosiy va ma'naviy yangilanishlarga bevosita tayangan voqelikdir. Sessiyada ta'kidlanganidek «demokratiyalash jarayonining ayni ana shu huquqiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlari iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolmoqda». Bu «talay muhim qonunlar, tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmaganligida, qabul qilingan huquqiy me'yorlar va kafolatlarni ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan»ida ko'rinadi.

Ayni ana shunday qarashning o'zi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimlari hamda jamoat tashkilotlari keng miqyosli faoliyatini kuchaytirish, ta'sirchanligini va ish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Yoki aniqroq qilib aytganda ular faoliyatini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning butun bir tizimini yaratishga, bu sohada uzoq muddatli pirovard maqsadlarni inobatga olgan strategik dasturlarni ishlab chiqishga, uni hayotga izchillik va sobitqadamlik bilan joriy etishga shu yo'l bilan odamlar tafakkurida o'zgarish yasab, jamiyat

ma'naviy qiyofasini shakllantirishga safarbar etish lozimligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash lozim. Eng avvalo huquq-tartibot ishlarini, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni xalqaro mezon va andozalarga moslashtirish zarur. Ma'lumki, ayni paytda jahonda mazkur masalaga doir yetmish xil andoza mavjud. Bularning hammasi jahon hamjamiyatida tan olingan tamoyillar hisoblanadi. O'zbekiston hozir ana shu andozalardan o'n beshtasiga qo'shilganligi uning juda qisqa muddatda demokratiyaning turmush tarziga va uni doimiy ishlab turadigan mexanizmga aylantirish borasida amalga oshirilgan katta yutug'i hisoblanadi.

Hukumat mustaqillik davrida bosib o'tilgan yo'l, to'plangan tajribalar va imkoniyatlarni tahlil qilar ekan, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish, uni jahonning eng ilg'or tajribalari bilan boyitish kerakligini uqtiradi.

Sessiyada inson huquqlarini kafolatlash va bu sohadagi normativlarni amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirishning eng zamonaviy shakllarini vujudga keltirish zarur, deb ko'rsatdi. Jumladan, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili instituti hamda huquqparvar jamoat tashkilotlarining mavqeyi va maqomini ko'tarish, inson huquqlarini himoya qilish Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Amaldagi qonunchilik Monitoringi instituti, Inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlar ishini rivojlantirish, takomillashtirish hamda boshqa bir qator institutlarni tashkil etish zarurligini ko'rsatdi.

Prezident I.Karimov masalaning xuddi ana shu jihatiga alohida e'tibor berar ekan, **«Aholida inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish borasida yangi qadriyatlar va ko'nikmalarni shakllantirish, pirovard natijada esa inson huquqlariga hurmat-ehtiromni va ularga rioya etishni umummillat darajasida rivojlantirishga qaratilgan madaniyatni yuzaga keltirish g'oyat muhimdir. Insonning o'z huquqlari va majburiyatlaridan yaxshi xabardor bo'lishi shaxs huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ro'yobga chiqarishning eng asosiy sharti bo'lib qolishi kerak»** – deb uqtirdi.

O'z-o'zidan ma'lumki, bu odamlarning tafakkurida o'zgarish yasash, ularning o'z haq-huquqini chuqurroq anglab olishiga yordam berish, umuman olganda, har bir fuqaroning huquqiy bilimlari saviyasini oshirishni taqozo etadigan jarayon. Zotan, o'z haq-huquqini aniq bilgan, o'zini himoya qilishga qodir shaxs jamiyat oldidagi burchini ham chuqur tushunadi. Fuqaroning huquqiy ongi va siyosiy bilimi qanchalik yuqori bo'lsa, davlat va jamiyat oldidagi majburiyatini hamda fuqarolik mas'uliyatini shunchalik chuqur anglaydi. Ana shunday holatning o'zi shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlashgan, barkamol ma'naviy qiyofasini belgilaydi.

To'rtinchidan, aholining siyosiy faolligi bevosita uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga qanchalik daxldorligi bilan belgilanadi. Agar fuqaro siyosiy va ijtimoiy jihatdan faol bo'lsa, u o'z-o'zini boshqarishga va shu orqali jamoa harakatini shakllantirishga, uning mazmunini chuqurlashtirishga qodir bo'ladi. Yangilanayotgan jamiyat aholini kundalik tashvishlar va har xil ikir-chikirlar girdobidan olib chiqadi, uni hayotga teranroq va sergakroq qarashga undaydi. U o'zini erkin his qilsin, erkin fikrlasin, oldin fikrining to'g'riligiga, jamiyat uchun foydali ekanligiga ishonsin, so'ng uni hech qiynalmasdan bayon qilsin. Haqiqiy demokratiya ana shunda ko'rinadi. Agar har bir fuqaro hayotda o'zini ana shunday tutsa, ana shunday qobiliyatga ega bo'lsa demokratiya o'z-o'zidan jamiyatning tarkibiy qismiga aylanadi, unda mustahkam o'rnashib oladi.

Aholining siyosiy madaniyatini oshirish, uning jamiyat rivojlanishida tutgan roli va mavqeini ko'tarish bir jihatdan ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish va uning faoliyatini chuqurlashtirish bilan belgilanadi. Ayni paytda mamlakatimizda «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonun amal qilmoqda. Hozir ana shu qonun doirasida mamlakatimizda to'rtta partiya, bitta xalq harakati, kasaba uyushmalari, jami ikki yuzdan ortiq jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolarning ana shu tashkilotlarda faol ishtirok etishini ta'minlashning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagidan kelib chiqib Prezident I.Karimov **«jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo'lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida o'zboshimchalik, voluntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korrupsiyasi singari illatlar paydo bo'lmasligiga jiddiy kafolat ham bo'lmaydi»**, – deydi.

Beshinchidan, demokratiya va muxolifat xususida. Ma'lumki, bizning muxolifat haqidagi tushunchalarimiz hali-hamon jo'n va sodda. Chunki, biz uchun muxolifat yangi davrning mahsuli sifatida istiqlol arafasidagina tilimizda paydo bo'ldi. Buning o'ziga xos omillari bor. Jumladan, qadimda Sharq davlatchiligida adolat tamoyillarining ustun turganligi, qonun oldida barchaning tengligi, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarning nihoyatda sodda, ayni paytda samimiy tizimi mavjudligi butun jamiyatda har tomonlama barqarorlikka asos bo'lgan. Qolaversa, muxolifat tushunchasi umuman jahon davlatchiligi tajribasida ham XX asr «ixtirosi» sifatida demokratik jarayonlarning tobora chuqurlashishi sharoitida vujudga kelgan hodisadir.

Muxolifat mavjud siyosiy kuchlarni taroziga solib turadigan, jamiyat taraqqiyoti muvozanatini saqlab turadigan, uning ravnaqi yangidan-yangi tamoyillarini ishlab chiqishga da'vat etadigan ijobiy voqelik. Biroq, biz ana shu voqelikning haqiqiy mazmunini kashf etolganimiz yo'q.

Ochig'ini aytganda bizda hozirgacha muxolifat bo'lmagan va hozircha yo'q. 1980-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida demokratiya o'yinlari avj olgan paytda bir guruh kishilar o'zlarini turli tomonga urishdi. Ularning ayrimlari shon-shuhrat va amalga intilish orzu-istagida bo'lsa, bir qismi yuqori partiyaviy kurslarda ishlab, uning imtiyozlaridan foydalangan va keyinchalik ana shu imkoniyatlardan quruq qolib, oldingi kiborona hayotini qo'msab qolgan kishilar edi. Ularga ergashganlar esa hayotdan norozi bo'lgan, turmushda o'z o'rnini topolmagan, jamiyatga nimadir berishdan ko'ra undan ko'proq narsa olishga ishtiyoqmand bo'lganlardir. Umuman olganda muxolifat deb atalgan bu guruhlarni muxolifatchilar emas, balki hayotdan norozilar, deb atash mumkin. Bundaylar esa, taassufki, har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda va hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud. Bu tabiiy hodisa. Chunki, mavjud siyosat, tartib-qoidalar, qonunlar qaysidir jihati bilan cheklangan bo'ladi. Ular aholi barcha tabaqasining talab-ehtiyojlarini to'la qamrab ololmaydi. Qisqa qilib aytganda, tartib-intizomning chegarasi bor, ehtiyojlar esa nihoyasizdir. Ana shu holatning o'zi qonunlarni doimo takomillashtirib, qo'shimchalar bilan boyitib borishni taqozo etadi. Demak, hech qachon mukammal demokratik hayot mavjud bo'lmaydi. U doim fuqarolar talabi, hayot ehtiyoji va yangidan-yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib, boyib boraveradi.

Prezident I.Karimov muxolifat tushunchasi xususida gapirar ekan, **«tushunchaning asl ma'nosini aniq anglab olishimiz lozim. Biz siyosiy muxolifatni muqobil muxolifat sifatida tushunamiz. Turmushimizning hamma sohasida muqobillik bo'lishi lozim. Shu sababli muxolifat haqida so'z borar ekan, eng avvalo, islohotlar o'tkazish, jamiyatning taraqqiyot va yangilanish yo'lidan olg'a borish bo'yicha muqobil dastur turlarini taklif etishga qodir amaliy muxolifatni nazarda tutamiz»**, – deydi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Prezident muxolifat haqida, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli to'g'risida gapirar ekan, jahon tajribalariga tayanadi. Muxolifatchilikning hayotiy zarurati, mas'uliyati va burchi haqidagi eng adolatli mulohazalarini o'rtaga tashlaydi.

Darhaqiqat, jahon demokratik jarayonlari huquqiy maqomi va konstitutsiyaviy kafolatlari mavjud bo'lgan, o'z faoliyatini jamiyat taraqqiyoti va fuqarolar osoyishtaligi asosida qurgan, uning butun mas'uliyatini bo'yniga olgan, davlat ravnaqini ta'minlashga xolisona ko'maklashadigan, har tomonlama – ilmiy va hayotiy jihatdan asoslangan dasturlarga ega bo'lgan muxolifatni tan oladi. O'zbekiston hukumati muxolifatga xuddi ana shu xalqaro talablar nuqtayi nazaridan yondashadi. Taraqqiy topgan mamlakatlarda va demokratik tamoyillar rivojlangan davlatlarda muxolifatga shunday yondashishadi. Ana shu

xulosalardan kelib chiqib Prezident I.Karimov **«Biz rasmiy hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqa oladigan muxolifatni ko'rishni istaymiz»**, – deydi.

Oltinchidan, sessiyada hokimiyat bo'linishi tamoyillariga qat'iy amal qilish demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning muhim omili sifatida ko'rsatildi. Bu, ayniqsa, o'tish davrida jamiyat boshqaruvini takomillashtirishga, uning barqarorligini ta'minlashga, fuqaro va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirishga zamin yaratadi.

Qonun chiqaruvchi organ jamiyatni qonunlar tizimi bilan ta'minlasa, ijro organlari bevosita ishlab chiqarishni takomillashtirish, joylarda qonunchilikni joriy etish, huquqiy demokratik davlat tizimini mustahkamlashni ta'minlaydi.

Sud hokimiyati esa insonparvar fuqarolik jamiyati ma'naviy qiyofasini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Endigina, mustaqillik davriga kelib sud o'z vazifasini bajarishga kirishmoqda, o'z maqomi doirasida faoliyat ko'rsatishni tamoyilga aylantirmoqda.

Yaqin o'tmishimizga nazar tashlaylik. Sud, prokuratura, ichki ishlar xizmati, bizning tasavvurimizda qattol va beshafqat jazo organi, odamlarga tazyiq qiluvchi, zo'ravonlik mahkamasi bo'lib ko'rinar edi. Ko'chada bir militsioner yoki prokuratura xodimiga ko'zing tushsa, beixtiyor tovoninggacha muzlab ketarding, kishi. Chunki qizil imperiyaning asosiy tayanchi, qonxo'r qilichi hisoblangan huquq-tartibot organlari aslida o'z vazifalarini bajarmas edi. Ular davlat va qonunni ro'kach qilib, fuqarolarni qo'rqitish, ularda tobelik va mutelik ruhiyatini singdirish, qalbini jarohatlash, irodasini bukishni maqsad qilib olishgan edi. Aslini olganda bu maqsadgina emas, balki davlat siyosatiga aylangan qudratli va fashistik xarakterdagi hodisa edi.

Sessiya **«Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim»**, – deb ko'rsatdi. Darhaqiqat, sud endi odamlarni jazolovchilik faoliyatidan ularni himoya qiluvchi, haq-huquqini tiklashga yordam beruvchi, insonparvar va adolatparvar tizimga aylanmog'i lozim. Ana shunday taqdirda chinakam demokratik jamiyat vujudga keladi va uning yashovchanligi ta'minlanadi.

Prezident Sud hokimiyati ishini isloh qilishni huquqiy demokratik davlatni barpo qilishning asosi sifatida qaraydi. Sud faoliyatini demokratiyalashtirishni esa xalq maslahatchilari tizimini takomillashtirish, sud ishlarida keng jamoatchilik vakillarining faol ishtirok etishini ta'minlash orqali amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi. Ana shunda demokratik jamiyatning poydevori mustahkam bo'ladi. Bu – **birinchidan**.

Ikkinchidan, biz butunlay yangi tarixiy sharoitda yashayapmiz. Biz o'z hayotimizni qaytadan yo'lga qo'ymoqdamiz. Jumladan, sud hokimiyati faoliyatida ana shunday yangilanishlar davrini boshdan kechiryapmiz. Endi uning tarkibini kengaytirishimiz darkor. «**Shu maqsadda,** – deydi Prezident I.Karimov, – **transport va soliq sudlarini tuzish, xolis hakamlar sudlari (третейский суд) imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim.**

1993-yil sentabrida qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda nazarda tutilganligiga qaramay, sudlar tarkibida hanuzga qadar ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudyalar lavozimlari joriy etilmadi.

O'zbekiston sudyalari uyushmasini tashkil etish ham maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bu uyushma Xalqaro sudyalar uyushmasiga to'la huquqli a'zo bo'lishi mumkin».

Bularning barchasi huquqiy demokratik davlat ildizlarini chuqurlashtirishga, uni har jihatdan mustahkamlashga, davlatni qudratli mexanizmga aylantirishga yordam beradi. Davlat kuchli bo'lgan joyda taraqqiyot tezlashadi, jamiyat ma'naviy jihatdan mutahkamlanadi, siyosiy jihatdan o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Qonun barqaror bo'lgan joyda fuqarolarning erkinliklari kengayadi, o'zligini namoyon qilish, ichki qudratini ko'rsata bilish, yaratuvchilik iqtidorini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fuqarolari o'z taqdirini o'zi belgilab, har bir kunini bunyod etish, kashf qilish ishtiyoqi bilan o'tkazadigan mamlakatda, albatta, aholi ehtiyojlari qonun bilan kafolatlangan bo'ladi. Davlat esa butun choralar bilan ana shu qonunlar harakatini nazorat qilib borish, uni yo'naltirib turish, yo'l-yo'lakay «ta'mirlab», takomillashtirib borish singari muhim vazifani bajaradi.

Yuqoridagilarning barchasi bevosita fuqarolarning huquqiy bilimlarni nechog'li egallashiga, o'z haq-huquqini anglab olishiga, mavjud qonunlar kafolatlab bergan imkoniyatlardan qanchalik foydalana olish darajasiga bog'liq. Qolaversa, huquqshunos kadrlar sifatini yaxshilash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. Prezident I.Karimov sessiyada shu masalalar haqida so'z yuritar ekan, huquqshunos kadrlarga ehtiyoj katta ekanligini alohida uqtirdi. Jumladan, bizda har yuz ming aholiga sudlar Olmoniyadagiga nisbatan olti marta, advokatlar esa Amerika Qo'shma Shtatlariga nisbatan 55 marta kam ekanligini ko'rsatib o'tdi.

Bosh islohotchi – davlatning istiqbol rejalari va strategik dasturlaridan kelib chiqib shuni aytish lozimki, shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, unda kuchli markaziy hokimiyat o'z sa'y-harakatlarini

mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, valyuta-moliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalarga qaratmog'i zarur.

Boshqaruv masalalarini hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazishi lozim.

Ana shunday sharoitda jamiyatda demokratiya chuqurlashadi, fuqarolarning ijtimoiy faoliyati kuchayadi. Joylarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ishi bevosita barcha fuqarolarning ishtiroki asosida takomillashib boraveradi. Natijada fuqaro va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik kuchayadi. Odamlar o'zlarini jamiyatning muhim, yo'naltiruvchi kuchi ekanliklarini chuqurroq anglay boshlaydilar. Ularning dunyoqarashi, maqsad va intilishlari bevosita jamiyat istiqbolini belgilaydi, uning kelajagidan bashorat qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, demokratiya jamiyatning har bir a'zosi hayotining uzviy bir qismiga aylangan taqdirdagina demokratiya hisoblanadi. Farzandlarimizni bolalikdanoq ayni shu ruhda tarbiyalab borish zarur, — degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqorida demokratik tamoyillarni chuqurlashtirishning uch omili xususida gapirdik. Hokimiyat bo'linishidagi tarmoqlarning har biri xususida alohida to'xtaldik. Qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatining faoliyatlari yuzasidan fikr yuritdik. Ularning demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida tutgan o'rni va roli haqida fikr yuritdik.

Hozirgi zamon demokratik jarayonlari va uning eng ilg'or tajribalari to'rtinchi hokimiyatni ham yaratish va uning faoliyatidan unumli foydalanishni taqozo etmoqda. Bu bevosita ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uning huquqiy asosini mustahkamlash, demokratik jamiyatdagi roli va vazifalarini belgilab berish, jurnalistik faoliyatni qonun bilan kafolatlash zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1996-yil 30-avgustda bo'lib o'tgan sessiyasida «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi hamda «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunlarni qabul qildi. 1997-yil 24-aprelda «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida», 1997-yil 26-dekabrda esa «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» (yangi tahrirda) Qonun qabul qilindi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash Markazi ish boshladi. Bular mamlakatimizda so'z va fikr erkinligiga kafolat bo'lib xizmat qiladi.

1999-2000-o'quv yilida O'zbekiston jahon tillari universitetida xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi esa o'zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqea bo'ldi.

2005–2007-yilar mobaynida esa matbuot va so'z erkinligiga doir amaldagi qonunlar tizimi qayta ko'rildi va ular zamon talablari asosida yangi tahrirda qabul qilindi. 2006-yili O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun Oliy Majlis Senati tasdig'idan o'tdi. Axborot olish, saqlash, ishlash va tarqatish, elektron axborot tarqatish va undan foydalanishning huquqiy asoslari yaratilmoqda.

4-§. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli o'laroq aynan istiqlol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, bu O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Unda eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyaning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», – deb belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalishining o'zi Asosiy qonunning insonparvarligini ko'rsatadi. Uning har bir moddasida fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari, shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning siyosiy huquqlari, ularning kafolatlanishi o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotning barcha sohalarida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda bir-birlari bilan teng huquqqa ega bo'ldilar.

Ayrim shaxslarning foydalanishi lozim bo'lgan imtyozlar qonunda belgilanib, ular faqat ijtimoiy adolat prinsiplari asosida bo'lishi ko'rsatib qo'yildi.

Ayniqsa, fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlanib, o'zlarining ixtiyoriga berilgan bo'lib, bu huquqlarning amalga oshirilishi me'yoriy qonunlar bilan mustahkamlandi. Jumladan, fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1998-y.) qonun bilan tartibga solindi hamda ularning daxlsizligi to'la ta'minlanmoqda.

Istiqlol yillaridagi katta yutuqlardan biri shundaki, O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza

va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinadigan bo'ldi. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, hozirgi qiyin va ziddiyatli bir paytda mamlakatimizning turli sarhadlariga yaqin joylarda urushlar ro'y berib, qon to'kilib, begunoh odamlar qurbon bo'lib, sarson-sargardon kishilar ko'payib borayotgan bir sharoitda O'zbekistonda inson uchun eng oliy ne'mat – yashash va osoyishta hayot kechirish huquqi to'la ta'min etildi. Bir so'z bilan aytganda xuddi ana shu murakkab yillarda O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi yanada mustahkamlanib, yangi demokratik jarayonlar odamlar ongi va qalbi orqali o'tkazilib, hayotga tobora chuqurroq kirib bora boshladi.

O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning jahon andozalariga mos keladigan, eng ilg'or tajribalar asosida vujudga kelgan zamonaviy usullar joriy qilina boshlandi. Inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta'minlashning huquqiy asoslari yaratilishiga kirishildi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillarga asoslanib faoliyat ko'rsatadigan yangidan-yangi huquqiy muassasalar tashkil etildi.

1991–2007-yillarda fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, ularning turli sohalardagi faoliyatini tartibga soluvchi 500 dan ortiq qonun va Parlamentning Qonunga tenglashtirilgan 1000 ga yaqin qarorlari tizimi vujudga keldi. Ikki mingdan ortiq Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinganligi ayni ana shu tarixan juda qisqa davrda amalga oshirilgan ishlar ko'lamini ko'rsatadi. Ularning aksariyati fuqarolar haq-huquqini muhofaza qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va to'la qaror toptirish asosida fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgandir. Endi hamma gap ana shu qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlarning hayotga to'la tatbiq etilishiga, ularni og'ishmay amalga oshirishda qolgan. Bu fuqarolar turli tabaqasi ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasidan tortib, ularning tub islohotlar mohiyatini chuqur anglashi, yangilanayotgan jamiyat tamoyillarini o'zlashtirish va keng miqyosli siyosiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lgan uzoq muddatli jarayondir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng inson huquqlari bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar qo'llayotgan tamoyillarga sodiqligini namoyish etib kelmoqda.

Respublikada mustaqillik yillarida inson huquqi va erkinliklariga doir bir qator xalqaro hujjatlar tan olindi va ular xalq orasida targ'ib qilina boshlandi. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt va fakultativ Bayonnoma» shular jumlasidandir. Ular hozirgi zamon jahon davlatchiligini va jamiyatni demokratlashtirish jarayonida inson huquqlarini mustahkamlashning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni chog'da O'zbekiston inson huquqlariga oid 30 dan ortiq asosiy Pakt va Konvensiyaga qo'shilgan. Bu borada shuni aytish kerakki, O'zbekiston 1996-yilning aprel oyida BMT komissiyasiga siyosiy va inson huquqlari bo'yicha Xalqaro Pakt normalarini bajarish borasida milliy ma'ruza matnini taqdim etdi.

O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillarini saylash, o'zini o'zi boshqarish asosida, referendumlar o'tkazish kabi demokratik huquqiy institutlar orqali qatnashadi. U o'z siyosiy huquqlarini kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, boshqa jamoat va ommaviy tashkilotlarda real ishtirok etish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ham «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» va boshqa jahon miqyosida tan olingan xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlardan kelib chiqib, Oliy Kengash 1991-yil IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risidagi», «Siyosiy partiyalar to'g'risidagi» (1996-y.) Qonunlar qabul qilindi.

Jamoat tashkilotlari rolini oshirish, ular faoliyati samaradorligini ta'minlash asosida fuqarolarni o'z-o'zini boshqarishga tayyorlash, mahalliy davlat organlari ishini asta-sekinlik bilan jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklashning o'zi insonning yashash huquqini kafolatlash, unga erkinlik berish, ozod turmush tarzini yaratishning debochasidir. O'zbekistonda mustaqillikning endigina bir yilligi nishonlangan paytdayoq jamoa birlashmalari faoliyatini qonun bilan kafolatlash bu mamlakatimizda jahon andozalariga mos, ayni paytda kelajakka qat'iy ishonch bilan qarayotgan, o'z istiqbolini aniq ko'rayotgan siyosat mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida zikr etilgan qonunlar fuqarolarning ajralmas huquqi hisoblangan jamoat birlashmalari tuzish, siyosiy partiyalarga birlashish huquqlarini belgilab berdi.

1995-yil 30-avgustida qabul qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonun ham inson huquq va erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarini mukammallashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq davlat inson huquqlarini muhofaza etishga alohida e'tibor berganligi bejiz emas. Binobarin, ushbu tushuncha rivojlangan demokratik davlatlarda oliy qadriyat sifatida e'tirof qilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 1996-yil 28-avgustida bo'lib o'tgan sessiyasida shu masalaga alohida to'xtalib, **«navbatdagi muhim masala respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir.**

Jahonda inson huquqlari sohasida 70 standart qabul qilingan. Bu hujjatlarda hukumatning o'z fuqarolari oldidagi majburiyatlari va ularga nisbatan qilishi shart bo'lmagan ishlar belgilab berilgan. O'zbekiston hozirda bu standartlardan 15 tasiga qo'shilgan.

Oliy Majlisning shu yo'nalishda faol ish olib borishi talab etilmoqda», – deb ko'rsatdi.

1996-yil oktabr oyida «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida» qabul qilingan Farmon ana shu yo'lda qo'yilgan yana bir muhim qadamdir. Ushbu Farmon inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirchan vositasini barpo etishga, respublika fuqarolarida huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi esa huquqiy demokratik davlatning noyob xususiyatidir.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining maqsadi va vazifalari ushbu farmonda aniq belgilangan. Jumladan,

– milliy harakat rejasini, shuningdek, Konstitutsiya, Qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

– inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish ana shunday vazifalarning muhimidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra Milliy markaz tahliliy, tavsiyalar beruvchi, muassasalararo muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo'lib, inson huquqlari sohasidagi halqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat siyosatini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga Markaz o'quv-ma'rifiy va targ'ibot, tahliliy, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish yo'nalishlari bo'yicha ish olib bormoqda.

Masalan, o'quv-ma'rifiy yo'nalish bo'yicha 1997-1998-yillar mobaynida 20 dan ortiq risola nashr etildi. Ommaviy axborot vositalarida maqolalar chop etildi. Televideniyeda ko'rsatuvlar tayyorlandi. Inson huquqlarini himoyalashning turli yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda o'quv dasturlari, seminarlar, anjumanlar, ma'ruza kurslari va o'quv safarlari tashkillashtiriladi. Konrad Adenauer jamg'armasi va BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda huquqni muhofaza etish idoralari xodimlari uchun Andijon, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Namangan shaharlarida ixtisoslashgan o'quv seminarlari o'tkazildi.

Tahliliy yo'nalish bo'yicha milliy markaz Oliy Majlis muhokamasiga qo'yib kelinayotgan inson huquqlari himoyasiga aloqador barcha qonun hujjatlarining muhokamasida faol qatnashmoqda, mazkur qonun loyihalarining ochiq muhokamasini tashkillashtirmoqda. Jumladan, «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (ombudsman) to'g'risidagi», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi», «Jurnalistning kasbiy faoliyatiga doir faoliyatini himoya qilish to'g'risida», «Axborot olish erkinligi kafolatlari to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida» va boshqa bir qator qonunlarni muhokama qilish bo'yicha ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Bundan tashqari Milliy markaz Oliy Majlis muhokamasiga kiritilayotgan turli qonunlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar bo'yicha muntazam o'zining xulosalarini berib bormoqda.

Fuqarolarni qabul qilish masalasida ham izchil ish olib bormoqda. Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazining tashkil topishi O'zbekistonda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishining yana bir bor yorqin dalilidir. Bularning barchasi masalaning oliy davlat ahamiyatiga ega ekanligini, mazkur sohaga shaxsan Prezidentning o'zi e'tibor bilan qarayotganini ko'rsatadi. Inson huquqlarini himoya qilish hali tajribamizda bo'lmagan hodisa, biz uchun bu yangilik sifatida endigina turmush tarzimizga kirib kelayotgani tufayli unga davlatning o'zi tashabbuskor va rahnamo bo'layotir. Bu mamlakatimizda g'oyat insonparvar siyosat mavjudligining natijasidir. Bu esa, O'zbekistonda insonning tabiat gultoji, olam sarvari sifatida e'zozlanadigan jamiyat shakllanayotganidan dalolatdir.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar orasida 1997-yil aprelda «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur institut sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarning ko'pchiligida, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida inson huquqlarini himoya qilishning bunday dunyoviy shakli mavjud emas. Mazkur sohada O'zbekiston o'z «ittifoqdosh»laridan ancha ilgarilab ketdi, desak xato bo'lmaydi. Ushbu qonunda shunday satrlar bor: «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi».

Ayni chog'da istiqlolga erishilgandan so'ng mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan qator amaliy tadbirlar ham o'tkazildi. Jumladan, 1996-yil may oyida «Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish» mavzusiga bag'ishlangan respublika huquqshunoslari konferensiyasi bo'ldi. Unda qator dolzarb masalalar muhokama qilindi, tajribalar umumlashtirildi, 1996-1997-yillarga mo'ljallangan Dastur va tadbirlar rejasi, 1997-yil avgustida esa «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi» qabul qilindi.

Mamlakat Oliy Majlisining VI sessiyasida Qonunlarning amalga oshirilishi yuzasidan aniq tadbirlar qoniqarli darajada belgilanmaganligi ta'kidlab o'tildi.

1996-yil sentabr oyida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili inson huquqlari masalalariga doir qonun harakatlariga rioya etilishini hamda ularning xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq tarzda takomillashtirilishini ta'minlash maqsadida birinchi yig'ilishini o'tkazdi.

Shuningdek, shu yili sentabr oyida Toshkentda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar kengash seminari ham o'z e'tiborini inson huquqlariga qaratdi. Seminar-Kengash qatnashchilariga Prezident I.Karimov Murojaat etib shunday dedi: **«Biz amalga oshirayotgan ishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri — davlat tomonidan ham, ijtimoiy tuzilmalar faoliyatini jadallashtirish bilan ham inson erki va huquqlarini muhofaza etishning ishchan tartibini barpo etishdir. Inson huquqlariga rioya etishning monitoringini va bu jarayon ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlaydigan milliy muassasalarni mustahkamlash huquqni himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar bilan aloqani kengaytirish muhim vazifalardan sanaladi»**.

Bugungi kunda yer yuzining turli mintaqalarida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar, demokratiya va inson huquqlari sohasidagi huquqiy normalarga rioya etish, parlamentlarning bu ishni nazorat qilishdagi alohida o'rni, bu borada hukumat bilan bahamjihat olib borilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Konrad Adenauer nomli xalqaro fond va BMTning O'zbekistondagi rivojlanish Dasturi vakilligi bilan birgalikda 1996-yil 15-noyabr kuni Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy mavzusi bo'ldi.

Konferensiyani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi E.Xalilov kirish so'zi bilan ochdi. Konferensiyada inson huquqlari muammosiga mintaqaviy yondashish va bu ishda parlamentning roli, inson huquqlari, demokratiya va shaxsni himoya etishning tarixiy-siyosiy jihatlari xususida fikrlashib olindi.

Jahon davlatchiligi nazariyasi va amaliyotining dalolat berishicha, ombudsman to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi jamiyatda demokratiya yuksak darajada rivojlanganligining, davlat bilan fuqarolarning o'zaro munosabatlari inson huquqlari va erkinliklari ustuvor ekanligining ko'rsatkichidir. Mamlakatimiz mustaqillikning tarixan qisqa davri ichida demokratiya va huquqiy rivojlanishning ana shunday jahon tan olgan yuksak darajasiga chiqa oldi. Bunga shubha yo'q. Chunki, qator xalqaro tashkilotlar, dunyoning ko'zga ko'ringan yirik siyosat va davlat arboblari O'zbekistondagi mavjud demokratik jarayonlarni, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tamoyillarga va me'yorlarga mos usuli shakllanayotganini yuqori baholamoqdalar hamda qo'llab-quvvatlamoqdalar.

Oliy Majlisning «Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida»gi Qonuni Oliy Majlis VI sessiyasida o'rtaga qo'yilgan vazifalar va istiqbol rejalarining amalga oshayotganidan, sog'lom ma'naviy-huquqiy muhit barqarorlashayotganidan dalolat beradi. Mazkur qonun umumxalq muhokamasiga qo'yilib, keng jamoatchilik fikr-mulohazalari o'rganildi.

Qonun loyihasi xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi vakolatxonalari, elchixonalari, nufuzli xalqaro tashkilotlar, hukumatga va davlatga qarashli bo'lmagan organlar hamda jamg'armalarning e'tiborini tortdi. Ularda katta qiziqish uyg'otdi.

Qonun loyihasining muhokamasida mamlakat fuqarolari, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, shuningdek, chet ellik hamkorlarimiz ham faol ishtirok etishdi. Ular kiritgan takliflar va bildirgan mulohazalar mazkur hujjatni maromiga yetkazishda, uning mazmunan boyib, mohiyatan chuqurlashishida katta yordam berdi. Loyihani mamlakatimiz va jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichi realliklariga muvofiqlashtirish, millatimizning tarixiy an'analari, turmush tarzi, aqidalari va aql-zakovatini ifodalagan umumxalq tomonidan e'tirof etilgan normalar bilan to'ldirish imkonini berdi.

Qonun loyihasining umumxalq muhokamasi chog'ida Oliy Majlis va ishchi guruh nomiga 200 ga yaqin mulohaza va taklif tushdi. Bu taklif va mulohazalarning barchasi puxta o'rganildi, muhokama etildi. Ular loyihaning yangi tahriri uchun asos bo'ldi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha mamlakat komissiyasi yig'ilishida inson huquqlari bilan bog'liq ishlar, to'plangan tajribalar va mavjud muammolar ahvoli o'rganib chiqildi va demokratik jarayonlarni takomillashtirish vazifalari to'g'risida atroflicha fikr almashildi.

Qonun loyihasi bo'yicha davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislar, sudyalar, yurist olimlar, jamoat birlashmalarining vakillari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Unda hali bizning tajribamizda bo'lmagan, endigina hayotimizga kirib kelayotgan

ombudsman masalalari nazariy fikrlar va jahon amaliyoti hisobga olingan holda keng muhokama etildi. Bir qancha chet davlatlarning elchilari va diplomatiya xodimlari, xalqaro tashkilotlarning, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Amerika huquqshunoslar uyushmasi ekspertlari ishtirokida qonun loyihasi har tomonlama chuqur ko'rib chiqildi. Shuningdek, mazkur hujjat Oliy Majlis qo'mitalarining, siyosiy partiyalar fraksiyalarining majlislarida ham batafsil muhokama etildi. Natijada 20 moddadan iborat yangi tahrirdagi qonun loyihasi tayyorlandi.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo'lib, u ijtimoiy manfaatlarning muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko'maklashadi. Qonun ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg'unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoidalari – qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik, har bir kishi uchun ochiqlik ekanligini tasdiqlaydi.

Jamiyat taraqqiyotida eng muhim huquqiy vosita bo'lgan ombudsman institutining ahamiyati bugun tobora oshmoqda va u kundalik turmush tarzimizga chuqurroq kirib bormoqda.

Ombudsman fuqarolarning ariza va murojaatlarini ko'rib chiqishda, zarur axborotni talab qilib olishda mansabdor shaxslar va davlat organlari bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti amal qilishining o'ziga xos jihati shundan iboratki, faqatgina bizning mamlakatda Vakil fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya faoliyatini tashkil etadi va unga boshchilik qiladi. Vakilning lavozim vakolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida uning faoliyatini budjet hisobidan pul bilan ta'minlashni, malakali mutaxassislardan iborat Kotibiyat tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Qonun qabul qilingunga qadar ham Inson huquqlari bo'yicha vakil mamlakat Konstitutsiyasi doirasida faoliyat ko'rsatar edi. Jumladan, birgina 1996-yilda Inson huquqlari bo'yicha vakil hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya a'zolari 700 dan ortiq murojaatni ko'rib chiqdi.

Shikoyatlarning eng ko'pi fuqarolar sud hukmlaridan, shu jumladan, mulkiy masalalar, xususan uy-joy masalalari bo'yicha chiqarilgan qarorlardan norozi ekanliklarini bildirganlar. Ular huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari xodimlarining qo'polligini bayon etishadi. 46 nafar arizachi asossiz ravishda ushlanganlik va ayb qo'yilganlik xususida shikoyat bergan. Murojaatlarda keltirilgan ayrim dalillar prokuratura organlari tomonidan tekshirish vaqtida o'z tasdig'ini topdi, ular yuzasidan tegishli choralar ko'rildi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha murojaatlar ham anchagina. Ular mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilishadi. 38 kishi ishdan noto'g'ri bo'shatilganligi yoki ishga tiklash asossiz rad etilganligi xususida yozib, dalillarni tekshirish iltimosi bilan murojaat qilingan. Ana shunday arizalarning 16 tasidagi dalillar o'z tasdig'ini topgan va zarur choralar ko'rilgan.

Fuqarolarni shikoyat yozishga majbur etgan sabablardan biri turli bo'g'inlarda huquqiy nigilizm va insonga loqayd munosabatda bo'lish hanuz barham topmaganligi, ko'p hollarda u yoki bu qiyinchiliklar emas, balki idoraviy, hududiy organlarning, ijtimoiy institutlarning mavjud vaziyatni puxta o'rganishni, arizachiga ahvolni batafsil tushuntirish va boshiga kulfat tushgan kishiga ozgina bo'lsa-da, yordam berishni istamasliklari sabab bo'lmoqda.

Ayrim sudlarda fuqarolar ishlarini bir tomonlama, yuzaki, ayblov tomonga qaratib ko'rib chiqish faktlariga hanuz barham berilmagan. Tergovni qo'pollik bilan, shaxsning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan usullarda olib borish hollari mavjud. Ayrim mansabdor shaxslar «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunga, Mehnat kodeksi va boshqa hujjatlarga amal qilmayaptilar.

O'zbekiston Respublikasi qatnashayotgan xalqaro shartnomalar va bitimlar ijro etilishi ustidan nazorat qilish ham Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining muhim yo'nalishidir.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt hamda qiynoqlarga solishga, muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya qanday bajarilayotganligi Inson huquqlari bo'yicha vakilning o'tgan davrdagi faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ushbu hujjatlarda bayon etilgan normalar sud islohoti va huquqni tatbiq etish amaliyotini, xususan qamoqqa olish yoki nazorat ostida saqlash oqibatida ozodlikdan mahrum etish vaqtida sudning rolini oshirishni talab etadi. Vakil «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga murojaat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosidagi sustkashlik mavjudligini ko'rsatadi.

«Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida»gi Qonunga muvofiq va 1996-yilgi ish tajribasiga asoslanib, O'zbekiston Ombudsmani o'z faoliyati uchun keyingi yillarda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab oldi:

– O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari masalalariga doir qonun hujjatlariga (shu jumladan xalqaro konvensiyalarga) rioya etilishida nazoratni ta'minlash va ularni takomillashtirishga ko'maklashish;

– shikoyatlar ko'rib chiqilishining aniq mexanizmini yaratish va fuqarolar huquqlarining tiklanishi uchun samarali choralarni ko'rish;

– Ombudsmanning fuqarolar, nohukumat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan inson huquqlari monitoringi sohasidagi hamkorligini mustahkamlash;

– fuqarolarning turli toifalari o'rtasidagi axborot-ma'rifat faoliyatini amalga oshirish;

– Ombudsmanning inson huquqlari masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish.

Aholining nozik qatlamlari bo'lmish bolalar, xotin-qizlar, qariyalar, nogironlar va boshqalarning huquq hamda erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash va ularni himoya qilishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash lozim.

Inson huquqlari bo'yicha vakil to'g'risidagi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, Vakilning qonun hujjatlarini takomillashtirilishiga ko'maklashishi qonun loyihalari o'rganilishi jarayonida ularning inson huquqlari sohasidagi xalqaro mezonlarga qay darajada muvofiq ekanligini ko'rib chiqish orqali amalga oshirilmoqda.

Birgina 1997-yilda Vakil tomonidan Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyaning, Oliy Majlis qo'mitalarining a'zolari, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tashkilotlari, inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tuzilmalar vakillari bilan birgalikda «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida», «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlari va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunlarga, Toshkent viloyatida «Bola – huquqlari to'g'risida»gi konvensiyaga, Sirdaryo viloyatida esa «Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi konvensiyaga, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida «Mehnat kodeksi»ga qay darajada rioya etilayotganligi to'g'risida tekshirish o'tkazildi, mutasaddi tashkilotlar bilan ko'rib chiqildi, aniqlangan muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili BMTning Inson huquqlari bo'yicha markazi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Natijada, chet el delegatsiyalari bilan 24 uchrashuv o'tkazildi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Jenevada bo'lib o'tgan 52-sessiyasining majlisida qatnashdi va so'zga chiqdi. Chet ellarga xizmat safari davomida Inson huquqlari bo'yicha vakil BMT seminarida, BMTning Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlaridagi vakillarining mintaqaviy uchrashuvida so'zga chiqdi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning bir qator kengashlari hamda seminarlari ishida qatnashdi.

Shunday qilib, mustaqil O'zbekistonda inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun keng imkoniyat yaratildi. Bu O'zbekistonda qurilajak adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyatining muhim omilidir.

2006-yilda Inson huquqlari bo'yicha vakili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mitalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taqdim etgan bir qator qonun loyihalarining inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish maqsadida huquqiy ekspertizadan o'tkazdi. Chunonchi, Ombudsman instituti «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihalariga va boshqa qonun loyihalariga oid o'z takliflarini taqdim etdi.

2006-yilda Ombudsman institutiga 7655 ta, shu jumladan markaziy idoraga 4753 ta, mintaqaviy vakillarga 1377 ta, takroran 878 ta murojaat tushdi, ishonch telefoni orqali 647 ta murojaat bo'yicha yuridik maslahat va tushuntirishlar berildi. Inson huquqlari bo'yicha vakil nomiga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilayotganligi haqida kelgan murojaatlardan 1434 tasi nazoratga olindi. Hisobot davrida 351 ta murojaat ijobiy hal qilindi, qolganlari ko'rib chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakiliga pochta orqali 3444 ta, qabul vaqtida 1309 ta murojaat tushdi. Murojaat qilganlarning 2439 nafarini xotin-qizlar, 1858 nafarini erkaklar tashkil etdi, shuningdek, 456 ta jamoaviy shikoyat tushdi.

Ombudsman tomonidan shaxsan 14 ta qabul o'tkazilib, ularda 118 nafar fuqaro qabul qilindi, 72 ta murojaat nazoratga olindi, 46 ta murojaat bo'yicha tushuntirish berildi. Vakil tomonidan mamlakat mintaqalariga, shu jumladan Samarqand, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga borib, fuqarolar qabuli ham o'tkazildi. Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini ta'minlash monitoringini o'tkazish jarayonida Ombudsman Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlaydigan xotin-qizlar bilan uchrashdi. Joylarga borilgan vaqtda mahalliy hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishida inson huquqlarini ta'minlash, mintaqaviy vakillar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi. Viloyatlar va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar rahbarlari bilan uchrashuvlar hamda suhbatlar tashkil etildi, penitensiar muassasalar monitoringi o'tkazildi.

Hisobot davrida inson huquqlari bo'yicha vakil tomonidan 17 ta xulosa tayyorlanib, shularning 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy

sudiga, 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga, 1 tasi Samarqand viloyat prokuraturasiga va Samarqand viloyat hokimligiga, 1 tasi jinoyat ishlari bo'yicha Jizzax viloyat sudiga va 1 tasi Jizzax viloyat prokuraturasiga yuborildi.

Parlament Ombudsmani nomiga mamlakatning barcha mintaqalaridan fuqarolarning turli masalalar va muammolar bayon etilgan murojaatlari keldi. Fuqarolarning eng ko'p murojaatlari Toshkent shahridan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlaridan yo'llangan.

Fuqarolarning murojaatlarida ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ta'minlash – 1563 ta (33 foiz), yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, insoniy muomalaga va qadr-qimmatni hurmatlash huquqiga rioya etish – 1104 ta (23 foiz), sudda ishni adolat bilan ko'rish huquqiga – 1009 ta (21 foiz) rioya etish bilan bog'liq masalalar ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili turli davlat organlari, ijtimoiy tuzilmalar, chet ellik sheriklar bilan faol hamkorlik qilib, ularga 3634 ta murojaatni, shu jumladan hal qilish uchun nazoratga olingan murojaatlarni yo'lladi.

Mamlakatimiz fuqarolari tomonidan yo'llangan shikoyatlardan tashqari chet davlatlardan ham 45 ta murojaat tushdi.

Hisobot davrida takroriy murojaatlar soni oldingi yildagiga qaraganda kamaydi (2005-yilda – 1004, 2006-yilda – 878). Bu hol Ombudsmanga yuborilgan shikoyatlarni hal qilish natijadorligi birmuncha oshganligidan dalolat beradi. Ombudsman bu shikoyatlarni davlat hokimiyati organlari, sud va huquqni muhofaza qilish tuzilmalari bilan hamkorlikda o'rganib bordi. Amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar jarayonida mansabdor shaxslarning Ombudsman murojaatlarini ko'rib chiqish borasidagi mas'uliyati oshdi, ular ariza beruvchilar tomonidan ko'tarilayotgan muammolarni ancha e'tibor bilan va tezkor ravishda hal etib, fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqish natijalari haqida Vakilni o'z vaqtida xabardor qila boshladilar.

Biroq, ayrim mansabdor shaxslarning Ombudsman murojaatiga javob berish muddatlarini buzishi, murojaatlarni hal qilish uchun quyi pog'onalarga yuborib, so'ngra ularning ijrosini nazorat qilmasligi yoki masalaning mohiyatiga daxldor bo'lmagan axborotni jo'natishi, ba'zan esa arizachining dalillarini tekshirmasdan, rasmiyatchilik yuzasidan yoki nomigagina javob berishi kabi holatlar ham mavjud. 2006-yilda Ombudsmanning 120 ta murojaati bo'yicha javoblar o'z vaqtida taqdim etilmaganligi munosabati bilan 35 ta so'rov, shu jumladan Ta'lim vazirligiga 2 ta, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi vazirligiga 2 ta, hokimliklarga 22 ta, sud organlariga 26 ta, prokuratura organlariga 53

ta fuqarolar shikoyatlari yuzasidan so'rov yuborildi. Ushbu hol «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 22-moddasi to'liq ishlamayotganligidan dalolat beradi. Bu esa o'z navbatida milliy qonun hujjatlarini mazkur qonunga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ombudsman haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish mumkinligi o'z manfaatlarini himoyalashning hamma huquqiy mexanizmlaridan foydalangandan keyin Inson huquqlari bo'yicha vakilga murojaat qilayotgan arizachilarga tezkorlik bilan javob berish va ularning muammolarini hal qilish imkonini beradi.

2006-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakiliga tushgan murojaatlarni sinchiklab tahlil qilish inson huquqlari va erkinliklari buzilishiga olib keluvchi sabablarga barham berish yuzasidan ehtiyot choralarini ko'rish borasidagi ishlar quyidagi hollarda samarali bo'lishini ko'rsatmoqda:

– *parlament nazoratining barcha shakllarini, shu jumladan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlariga singdirish mexanizmini huquqiy jihatdan tartibga solish sohasida, davlat apparati mansabdor shaxslarining huquqni qo'llash, shu jumladan sud ishlarini yuritish faoliyatida parlament nazoratining kuchaytirilishi;*

– *fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari, shu jumladan sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qatnashishi huquqiy jihatdan yetarli darajada ta'minlanmaganligiga barham berilishi;*

– *huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalardagi hamda mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimidagi ayrim mansabdor shaxslarning poraxo'rligi, ish bilmasligi va malakasining yetarli emasligi, mas'uliyatsizligi hollariga chek qo'yilishi;*

– *davlat organlari va jamoat sektorining fuqarolar huquqiy ongini ochish, jamiyatning barcha qatlamlariga huquqiy bilim berish sohasidagi keng qamrovli tizimni rivojlantirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish ta'minlanganligi.*

Shimoliy va Janubiy Amerika (AQSH, Kanada, Meksika, Argentina)dagi 20 dan ortiq mamlakat, Avstraliya ombudsmanlari, olimlari va amaliyotchilarining materiallari hamda, turgan gapki, Inson huquqlari bo'yicha vakil institutini qaror toptirishning asosiy bosqichlarini, uning mintaqaviy vakillarining faoliyatini, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, chet ellik hamkasblar bilan hamkorligini, shuningdek, tibbiy muassasalarda davolanuvchilarning huquqlarini himoya qilish masalalarini aks ettiradigan O'zbekiston tajribasi ham joy oldi.

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ham Ombudsman faoliyatining muqarrar tarkibiy qismi sifatida rivoj topdi. Ombudsman tomonidan o'tkazilgan deyarli barcha tadbirlar matbuotda va elektron OAVda yoritildi. Vakil instituti faoliyati haqidagi materiallar markaziy gazetalar – «Xalq so'zi» – «Народное слово», «Правда Востока», «Postda» – «На посту», «Vaqt» – «Время», «Toshkent oqshomi» – «Вечерный Ташкент», «Новости Ташкента», «Inson va qonun», «Huquq», «Ishonch» – «Доверие»da va mintaqalar matbuotida; «Демократия и права человека», «Вестник Конституционного суда Республики Узбекистан», «Xalq ta'limi» jurnallarida, O'zA, «Jahon», «Uzreport» axborot agentliklarining saytlarida e'lon qilindi, markaziy telekanallar, mahalliy telekompaniyalar, shuningdek, radio orqali efirga uzatildi.

O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi yordamida Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining elektron sayti **(www.ombudsman.gov.uz)** qayta tiklandi. Unda Vakil institutining faoliyati, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash haqidagi materiallar joylashtirilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlik ham keng rivojlandi. Jumladan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili tomonidan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillari, aynan EXHT, Yevropa Ittifoqi, Germaniya Bundestagi, Germaniya Federal hukumatining inson huquqlari va gumanitar yordam bo'yicha vakili, shuningdek, Tyuringiya o'lkasi (Germaniya) landtagining raisi, Bazel kantoni (Shveysariya) Ombudsmani, AQSH, Polsha, Pokistonning O'zbekistondagi elchilari, EXHTning O'zbekistondagi loyihalari Muvofiqlashtiruvchisi, Konrad Adenauer nomidagi Jamg'arma, Kanada, Yaponiya elchixonalari, London universiteti vakillari va boshqalar bilan uchrashuvlarga bag'ishlangan 30 ga yaqin qabul o'tkazildi.

BMT tuzilmalari bilan, xususan, inson huquqlari bo'yicha BMT Oliy komissarining Boshqarmasi, BMT TD, Yu NISEF, JST vakolatxonalari bilan hamkorlik davom ettirilmoqda.

2006-yil oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasi ishida qatnashdi. A'zo davlatlar vakillari bilan uchrashuvlar hamda BMT BA Uchinchi qo'mitasi ishida qatnashish chog'ida O'zbekiston parlamenti Ombudsmani O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, demokratiyalash jarayonlari to'g'risida, sud-huquq islohotini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar haqida axborot berdi.

2006-yil 18–22 noyabrda Karlovi Vari shahrida (Chexiya Respublikasi) BMT TDning Bratislavadagi Mintaqaviy Byurosi tomonidan tashkil

etilgan Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari ombudsmanlarining VII davra suhbati bo'lib o'tdi. Davra suhbati ishida Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Moldova, Rossiya, O'zbekistondan borgan ombudsmanlar delegatsiyalari, shuningdek, xalqaro ekspertlar ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili davra suhbati ishtirokchilariga O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar xaqida axborot berdi.

2006-yil 3–5-dekabrda Ombudsman O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida Yevroparlamentda (Brussel shahri, Belgiya) o'tkazilgan «O'zbekistonda gender tengligi» mavzuidagi davra suhbati ishida qatnashdi. Davra suhbati doirasida O'zbekistonda gender tengligining dolzarb masalalariga bag'ishlangan uchta majlis o'tkazildi. Davra suhbati davomida uning ishtirokchilari O'zbekiston parlamenti Ombudsmanining mamlakatda xotin-qizlar huquqlari va manfaatlariga rioya etilishini hamda ular himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi faoliyati haqida axborot oldilar.

2006-yil mobaynida Tyuringiya (Germaniya) o'lkasi landtagi raisi va Bazel kantoni (Shveysariya) Ombudsmanining tashriflari amalga oshirilib, ular Samarqand va Toshkent shaharlarida «Inson huquqlariga rioya etilishini va mazkur huquqlar himoya qilinishini ta'minlash sohasida ombudsman institutining davlat organlari va nohukumat tashkilotlar bilan o'zaro aloqasining dolzarb masalalari» mavzusida o'tkazilgan konferensiyalarda qatnashdilar.

EXHTning O'zbekistondagi loyihalari Muvofiqlashtiruvchisi parlament Ombudsmanining doimiy xalqaro sheriklaridan biridir. 2006-yilda «O'zbekiston Respublikasida ombudsman institutini rivojlantirishga ko'maklashish» loyihasi doirasida parlament a'zolari uchun seminarlar hamda Ombudsmanning mintaqaviy vakillari va ekspert guruhlarining a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazildi, rus tilida «Омбутсманы мира» kitobi nashr etildi, tajriba almashish maqsadida Ombudsman vakillarining Yevropa mamlakatlariga o'quv safari amalga oshirildi.

Shunday qilib, 1991–2008-yillar O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish tizimining shakllanish, rivojlanish va xalqaro me'yorlar talablari asosida takomillashish davri bo'ldi.

5-§. Sud hokimiyati islohotlari

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, 1991-yil 31-avgustda «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida» Konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston tenglar qatorida teng bo'lib dunyo davlatlari safida o'zining munosib o'rnini egalladi.

Istiqlol tufayli nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki tom ma'noda huquqiy mustaqillikka ham erishildi. Sir emas, istiqlolga qadar respublikamizdagi aksariyat qonunlar sobiq ittifoq qonunlari asosida qabul qilinar edi. O'z-o'zidan ma'lumki, ularda xalqimizning o'ziga xos hayot tarzi, urf-odatlari va udumlari, ma'naviy-ruhiy va axloqiy ehtiyojlari to'liq aks ettirilmas edi.

Endilikda vaziyat batamom o'zgardi. Davlatimiz mustaqillikka erishgan birinchi kundanoq huquqiy demokratik davlat qurmoqchi ekanligini va qonun ustuvorligi ta'minlanishini ma'lum qildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydigan, yangicha ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar yaratilishini taqozo etdi.

Shu bois 1992-yil 8-dekabrda demokratik huquqiy davlatchilik zaminini barpo etishning poydevori bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatda yangi qonunchilik tizimini barpo etish uchun asos bo'ldi.

Konstitutsiyaning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab qo'yildi.

Shubhasiz, hokimiyatning bunday bo'linishi tamoyilining Konstitutsiyada mustahkamlanishi mustaqillik tufayli erishilgan eng salmoqli yutuqlardan biridir. Chunki ayni shunday, umum e'tirof etilgan, jahon tajribasida ko'rilgan demokratik yo'l bilangina odil sudlovni talab darajasida amalga oshirish, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarga, ijtimoiy adolat tamoyillariga og'ishmay amal qilish mumkin bo'ladi. Fuqarolarning tinchligi va ahilligini so'zsiz ta'minlash qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga zamin yaratiladi.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan, Oliy Majlisning 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq, birinchi, 1995-yil 21-dekabrdagi to'rtinchi va 1996-yil 28-avgustdagi oltinchi sessiyalarida sud hokimiyati uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmoq ekanligiga, odil sudlov tizimini kengaytirish va demokratiyalashtirish lozimligiga e'tibor berildi.

«Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini

demokratlashtirish — huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir ... Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim» — deb uqtiradi I.Karimov Oliy Majlisning VI cessiyasida.

Ko'rinib turibdiki, sud ahamiyatining, uning obro'yining jiddiy ravishda oshirilishi zarurligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, bu masala ayniqsa, sudlarning faoliyatida asosiy mazmunni tashkil etishi zarurligi Prezident tomonidan qayta-qayta ta'kidlandi. Sud kishilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi hokimiyatga aylanishi zarur. Buning uchun u mustaqil harakat qilishi kerak. Xalq maslahatchilari haqiqiy, odil, tajribali, hurmatga sazovor shaxslar bo'lishi kerak.

Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik Sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar xo'jalik va harbiy sudlaridan iborat.

Huquqiy demokratik insonparvar davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yangi tizim — huquq tarmoqlarini birlashtirishni va ular o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi Konstitutsiyaviy Sud yuzaga keldi. Bu tizimning vujudga kelishi demokratik davlat uchun ulkan voqeadir.

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlar ochdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi sho'rolar davri konstitutsiyalaridan keskin farq qiladi. Ularning birortasida sud hokimiyati degan so'z uchramaydi.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linishi hozirgi zamon jahon davlatchiligining eng ilg'or tajribalariga mos keladi va xalqaro talablarga to'la javob beradi.

Chunki, ayni shunday jahon jamoatchiligi tomonidan qabul qilingan demokratik me'yorlar bilangina odil sudlovni talab darajasida amalga oshirishni ta'minlash, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarga, ijtimoiy adolatga, fuqarolarning tinchligi va ahilligiga so'zsiz amal qilib, qonuniylik va huquq tartibotni mustahkamlash mumkin.

Konstitutsiyaning 106 va 116-moddalarida sud hokimiyatining asoslari aniq belgilanib, sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi mustahkamlangan. Shunga ko'ra, sud hokimiyati va sudyalar faqat qonungagina

bo'ysunadilar. Bu qoida Konstitutsiyada qator kafolatlar bilan himoyalangan. Sud tizimining tuzilishi va Respublika barcha sud organlarining vakolatlari ham Asosiy qonunda belgilab berilgan.

Mustaqil sud hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini tartibga soluvchi va uning sudyalarni saylash, tayinlash hamda ularni vazifasidan ozod qilish tartibi, sud ishlarini ko'rishda aralashganlik uchun javobgarlik va hokazolarning asosiy kafolati hisoblangan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun 1993-yil 2-sentabrida Oliy Kengashning XIII sessiyasida qabul qilindi. Ilgariroq 1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun uning sud bilan butunlay yangi sharoit va talablar doirasidagi o'zaro munosabatlarini belgilab bergan edi. Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonunlar qabul qilinib, ularda sud mustaqilligi tamoyillari, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishda tortishuv va odil sudlovning boshqa demokratik me'yorlari mustahkamlandi.

1996-yil 7-dekabrda Konstitutsiyaning to'rt yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalarida so'zga chiqib, Prezident I.Karimov davlatda huquqiy tizim har qanday vaziyatda ham aniq ishlashi lozim ekanligini alohida ta'kidladi. Shuning uchun ham haqiqiy Mustaqil, kuchli sud hokimiyati sudyalarning injiqligi yoki yuqori mavqe istagi emas, balki u Konstitutsiyaning, barcha xalqning talabi hamda erkin demokratik jamiyatning o'zaklaridan biridir.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi davomida qonuniylikni ta'minlashning bundan o'zga mexanizmi topilgani yo'q. Sud hokimiyati mustaqilligi tamoyili bizning mamlakatimiz ham qo'shilgan juda ko'p xalqaro hujjatlarda, shu jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston ko'p yillar davomida totalitar tuzum sharoitida yashab, hokimiyat bo'linishi tamoyili yo'qligi uchun sud hukmron partiyaning qonunsiz da'volarining himoyachisiga, kommunistik mafkuraning jazo organiga aylanib kelgan edi.

Ma'lumki, 70 yildan ortiqroq vaqt mobaynida harbiylarning taqdiri qanday hal bo'lishini hech kim bilmas edi. Respublika hududida harbiy tribunal deb nomlangan sud bor edi. Biroq, bunga Oliy sud va boshqa sudlarning umuman daxli yo'q edi. Endi qonundan kelib chiqib, Qurolli kuchlar harbiy sudi, garnizon sudlari va ularning ish faoliyatlarini nazorat qilish uchun Respublika Oliy sudida harbiy hay'at tashkil etildi. Harbiy hay'at raisi lavozimi bo'yicha Oliy sud Raisi o'rinbosari hisoblanadi. Ularga Qurolli kuchlar safida, chegara qo'shinlarida, milliy xavfsizlik organlarida, respublika ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlarida va boshqa harbiy tuzilmalarda xizmat qilayotgan, o'quv yig'inlaridagi shaxsiy tarkib tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini

hamda Qurolli kuchlar harbiy qismlari qo'mondonlariga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'vosi bo'yicha bo'lgan fuqarolik ishlari va ularning g'ayriqonuniy harakatlari yuzasidan tushgan shikoyatlarni ko'rish vakolati yuklatilgan.

Hozir sud islohotlarining ikkinchi bosqichi boshlandi. Oliy Majlisning 1996-yil 26-dekabrda bo'lgan VII sessiyasida Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunlarga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi.

Sud hokimiyati Konstitutsiya va xalq tomonidan sudga berilgan jinoyat, fuqarolik va ma'muriy hamda xo'jalik ishlari bo'yicha huquq va adolat, qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilish, topshirilgan ish uchun javobgarlik asosida odil sudlovni amalga oshirish imkonini beruvchi vakolatlar majmuidir.

Shunday qilib, respublikadagi sud hokimiyatining bugungi ahvolini baholash uchun odil sudlov sifatining o'zini, sudda Konstitutsiya va qonunlar talablari hamda sudlarning hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish darajasini tahlil qilish zarur.

Umuman olganda, sudlarning jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha o'tgan 2000–2006-yillar ichidagi ishlarining sifatini baholaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ancha yaxshilandi. Sudlar dalillarni baholash masalasiga mas'uliyat bilan yondasha boshladilar. Ishlarni ko'rishda rasmiyatchilik, yuzaki yondashish, himoya huquqini buzish hollari kamaydi.

Jinoiy jazo choralarini tayinlash masalasida ham jiddiy o'zgarish yuz berdi. Oliy sudning 1993-yildan boshlab joylarda o'tkazgan tekshirishlari, Plenumlarda qabul qilingan tegishli qarorlar, xavfli jinoyatchilarga, uning tashkilotchilariga, jinoiy guruhlarning faol qatnashchilariga jazo tayinlash amaliyotini tubdan o'zgartirish imkonini berdi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun jazo tayinlash ancha kuchaytirildi, natijada respublikada vaziyat yaxshilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida qayd etilgan va o'zlariga yuklatilgan hokimiyat vakolatlaridan kelib chiqqan holda so'nggi yillarda o'z faoliyatlarini Konstitutsiyada va boshqa qonunlarda hamda inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda bayon etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklariga, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan himoyalanadigan manfaatlariga rioya etilishini kafolatlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida fuqarolik, jinoyat ishlarini birinchi, kassatsiya va nazorat bosqichlarida ko'rish, shikoyatchilarni tekshirish, quyi sudlar tomonidan ko'rilayotgan ishlarni qonuniy va adolatli hal etilishini ta'minlash, yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni tuzatish, ularga amaliy yordam ko'rsatish borasida ham samarali ishlar qilindi.

Mamlakatimiz tashqarisiga tovar moddiy boyliklarni olib chiqish tartiblarini buzish jamiyatimiz uchun katta xavf tug'dirishini, bozor iqtisodiyotiga va fuqarolarning manfaatlariga jiddiy zarar keltirishi e'tiborga olinib, ularni sudda ko'rish amaliyoti o'rganib chiqildi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Oliy sud 1993-yil 27-dekabrdagi Plenumida «Respublikadan tashqariga tovar moddiy boyliklarni olib chiqish va Respublikaga naqd pullarni olib kelish tartiblarini belgilovchi qonunlarni qo'llash to'g'risida» qaror qabul qilib, quyi sudlarga dasturiy ko'rsatmalar berdi.

1980-yillarning oxiriga kelib, Respublikadagi jinoiy muhitning keskinlashganligi va jinoyatlarning yangi uyushgan, qurollangan va giyohvand moddalar bilan bog'liq turlari ko'payganligi jinoyatchilikka qarshi kurashda keskin choralar ko'rishni taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 1994-yil 7-yanvarda Plenum o'tkazib, «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi masalani muhokama etdi va tegishli qaror qabul qildi. Unda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun moddalarini qo'llash choralari ko'rildi.

Oliy Sud Plenumining mazkur qarori jinoyatchilikka, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda ijobiy rol o'ynadi. Avvalo, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida makon qurgan «nomdor», jinoyat olamida «shuhrat qozongan» to'dalarning asosiy qismi ushlandi va tergov qilinib, sudlar tomonidan qilmishlariga yarasha qonuniy jazo belgilandi.

Og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga, jinoiy guruhning tashkilotchilari va faol ishtirokchilariga, muqaddam sudlanganlarga qonun doirasida qattiq jazo choralarini qo'llash bilan, keyingi yillarda jinoyatchilikning og'ir turlaridan hisoblangan uyushgan jinoyatchilik, tovlamachilik (reket), avtomashinalarni olib qochish kabi jinoyatlarning keskin kamayishiga erishildi va respublikadagi kriminogen vaziyat yaxshilandi.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, ayniqsa qishloq xo'jaligida tub islohotlar, xo'jalik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qildi. 1996-yil 25-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik sudlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmon asosida viloyat xo'jalik sudlari maqomida faoliyat ko'rsatuvchi Toshkent shahar xo'jalik sudi tashkil etildi va xo'jalik sudlari sud ijrochilari instituti ta'sis etildi.

Uy-joy islohotini amalga oshirish bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim omillaridan biri ekanligi, uning maqsadi uy-joy bozorini vujudga keltirishga qaratilganligini e'tiborga olib, «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashdagi ba'zi masalalar haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 1994-yil 9-sentabrda bo'lib o'tgan Plenumida Qaror qabul qildi. Qabul qilingan qaror respublikada

davlat uy-joy fondini xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezident Islom Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida insoniyat oldida turgan birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar orasida xalqaro maydonda narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor bilan qarash lozimligini ta'kidlab, O'zbekiston ana shu kurashda keng ko'lamli hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirdi.

Ma'lumki, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish inson sog'lig'i va xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, mamlakatdagi kriminogen vaziyatga, jamiyatning iqtisodiy va madaniy negiziga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha u uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Giyohvandlik oqibatida ko'plab og'ir jinoyatlar sodir etilmoqda. Oilalar barbod bo'lmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi giyohvandlik bilan bog'liq jinoiy ishlarni sudda ko'rish amaliyotini o'rganib, bu masalani 1995-yil 27-oktabrdagi Plenumida muhokama qildi. Plenum sudlarga zarur ko'rsatmalar berdi, sudlardan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar o'tkazish, ekish va shu kabi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonun kuchidan to'la foydalanishni talab qildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi hamda 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmonlari har bir sudya zimmasiga alohida mas'uliyat yuklashi ta'kidlanib, bu borada sudya kadrlarni tayyorlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi.

Ma'lumki, Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish bilan bog'liq jinoyatlar jamiyat uchun katta xavf tug'diradi. Shu sababli Oliy sud Plenumi 1996-yil 7-yanvarda «Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi masalani ko'rib chiqib, sudlarning e'tiborini mazkur masalaga doir jiddiy kamchiliklarga qaratdi. Bunday ishlarni ko'rish chog'ida qurollarni olish, tayyorlash manbalari va sabablarini, jinoyatlarning sodir etilishiga imkoniyat tug'dirayotgan sharoitlar va shaxslar doirasini aniqlash, jazo tayinlashda alohida yondashuv qoidalariga rioya etish, aybdorlarga nisbatan asossiz ravishda yengil jazo tayinlash hollariga barham berish talab etildi. Qurol va o'q-dorilarni o'tkazish maqsadida sotib oluvchilarga va tayyorlovchilarga, ularni o'tkazuvchilarga, talon-taroj etuvchilarga, og'ir jinoyatlarni sodir etishda quroldan foydalanuvchilarga qattiq jazo choralarini qo'llash haqida ko'rsatmalar berildi.

Mamlakatimizda islohotlarning izchil amalga oshirilishi iqtisodiyotni shakllantirishga, uning bozor sharoitiga moslashtirilishiga va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq bo'lishiga sharoit yaratdi.

Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, bu birdan-bir maqsad emas. Islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun yetarli sharoitni vujudga keltirishdan iboratdir.

Huquqiy tashviqot darajasi pastligi, bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq qonunlarni buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishida oshkoralikning yo'qligi, fuqarolarning ongida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik, fermerlik va boshqa yakka tartibdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchilar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi dehqonlar o'z huquqlarini bilmasligi natijasida ayrim firibgar-u tovlamachilar va zo'ravonlarga aldanadilar, oqibatda bozorlarda narx-navo ko'tariladi. Buning ustiga har xil yig'imlar yig'ish, ko'pincha to'g'ridan to'g'ri tovlamachilik, g'ayriqonuniy ravishda haq olish, poraxo'rlik kabi illatlar uchrab turibdi.

Oliy sudning 1996-yil 15-martdagi Plenumida ana shu farmon yuzasidan tegishli masalani muhokama qilib, qaror qabul qildi. Sudlardan tovlamachilarga (reketchilarga), tovarlarni bozorga erkin kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi shaxslarga, talon-taroj, fuqarolardan nohaq yig'imlar olish, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish bilan shug'ullanuvchi bozor ma'muriyatining mansabdor shaxslariga, savdo qoidalarini buzuvchi, o'ta yuqori narxlarni sun'iy ravishda saqlab turuvchi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarni bozordan siqib chiqaruvchilarga nisbatan qattiq jazolarni qo'llashni ta'minlash talab etildi hamda boshqa masalalarda sudlarga dasturiy ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, jinoyat uchun jazo tayinlash masalasining o'ta muhim masala ekanligini e'tiborga olib, Oliy sud 1996-yil 19-iyulda ushbu masalani ikkinchi marotaba Plenum majlisida ko'rib chiqdi.

Ma'lumki, butun jahon jamoatchiligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti atrof-muhitni muhofaza qilish muammosiga va uning huquqiy tomonlariga juda katta ahamiyat bermoqda.

Shuning uchun ham Prezident I.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol bo'yidagi ekologik inqiroz sababli yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar majmui o'zining kelib chiqishi va oqibatlari bo'yicha xalqaro xarakterga ega ekanligini ko'rsatib o'tdilar.

Respublikamizda mavjud bo'lgan ekologik vaziyatni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi bu masala bilan bog'liq jinoiy ishlarni hamda boshqa huquqbuzarliklarni ham o'rganib chiqib, 1996-yil 20-dekabrda «Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan

foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida» qaror qabul qildi.

Unda sudlarning e'tiborlari tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan ziyon-zahmat yetkazmasdan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunlarga qat'iy amal qilish eng muhim davlat vazifalaridan biri ekanligiga, ularni to'g'ri hal qilish fuqarolarning sog'lig'i va farovonligiga, shuningdek, respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bog'liqligiga qaratildi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarlik ishlarini ko'rishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzishda aybdor bo'lgan barcha shaxslar doirasini aniqlash, ularni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini hal qilish, yetkazilgan zararni to'liq undirish choralarini ko'rish va boshqa masalalarda sudlarga ko'rsatmalar berildi.

Ma'lumki, davlat va jamiyatning obro'si o'sha davlatda mavjud bo'lgan sud va sudyalarning qonun talablariga og'ishmasdan amal qilishlariga, qabul qilingan har qanday qarorlar qonun me'yorlariga nechog'lik mos kelishiga bevosita bog'liq. Darhaqiqat, yaxshi qonunlar bo'lsa-yu sud tizimida ishlovchilar uning talablariga mos qaror qabul qilmasa, sud tizimining obro'siga putur yetkazadi. Bu davlat va jamiyat obro'siga rahna soladi.

Sud fuqarolar ko'z oldida ularning haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida gavdalanishi shart. Endi totalitar tuzum davridagi sudga nisbatan bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirish vaqti keldi. Sud madaniyatini ko'tarish har bir sud jarayoni fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilmog'i shart. Sud adolat posboniga aylanmog'i zarur. Sud va sudyalar fuqarolarda o'ziga nisbatan ishonch tug'dirishning uddasidan chiqishi, bu ishonchni har kuni, har doim amaliy ishlar bilan oqlamog'i lozim.

Sud hokimiyatining obro'sini ko'tarish, uning xolisligini ta'minlash har bir sudyadan katta mas'uliyat, jasorat, bilim, tajriba orttirishni, poklik va adolatni barcha narsalardan ustun qo'yishni, davlat va xalqqa sodiq bo'lishni taqozo etadi. Shuning uchun ham sud va sudyalarning boshqa tarmoqlardan haqiqiy mustaqilligini, sud qarorlarini qabul qilishda faqat qonunga bo'ysunishini, sudning hammabop, himoya doirasi kengayishini ta'minlaydigan va nihoyat, sud tizimiga nopok, poraxo'r va tasodifiy kimsalar kirib qolishiga yo'l qo'ymaydigan huquqiy asos qadam-baqadam takomillashtirib borilmoqda.

2006-yilda umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan mamlakatimizda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 420

mingdan ortiq ish ko'rib chiqilib, ularning 96 foizi bo'yicha da'vo talablari qanoatlantirilib, fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan haq-huquqlari tiklangan va ularning foydasiga 26,2 milliard so'm moddiy, 3,6 milliard so'm ma'naviy zarar, shuningdek, respublika budjetiga 455,3 million so'm davlat boji undirilgan. Shu jumladan, tadbirkorlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan 300 dan ortiq da'vo qanoatlantirilib, 40,3 million so'm moddiy va 24,8 million so'm ma'naviy zarar undirilgan.

2000-yilda umumiy sudlanganlarning 47,2 foiziga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri – «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilingach, 2006-yilda bu ko'rsatkich atigi 28,7 foizni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, 71,3 foiz sudlanganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanib, ular oilasi, jamoasi bag'rida qolgan. Sodir etilgan iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararning 33 milliard so'mdan ortig'ini ixtiyoriy ravishda qoplagan to'qqiz ming nafarga yaqin shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan.

Jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalardan yana bir muhimi – yarashuv institutining qabul etilishi natijasida 2006-yilda 12,605 nafar shaxsga nisbatan 11,503 ta jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, bu institut amaliyotga joriy qilinganidan bugungi kunga qadar 54 mingdan ortiq shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, «sudlangan» degan nomni ko'tarib yurishdan xalos bo'lgan.

6-§. Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalari rolining ortib borishi

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy hayotning boshqa sohalari qatori ommaviy axborot vositalariga ham yangicha munosabat vujudga keldi. Buning boisi shunda ediki, O'zbekistonda qurilayotgan o'ziga xos, o'ziga mos yangi jamiyat ommaviy axborot vositalari oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda edi.

Bular yangi jamiyatning mohiyati, yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmuni haqida ommaga to'liqroq tushuncha berish, istiqloldek muqaddas ne'matning olamshumul ahamiyatini adolatli va demokratik jamiyat qurish hamda uning ravnaqi uchun kamarbasta bo'lish zarurligini har bir fuqaro ongiga yetkazishdan iborat edi. Yangilanayotgan ijtimoiy-

siyosiy, madaniy-ma'naviy jarayonlarni hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etishga da'vat qilish, ularni ommaviy safarbarlikka chorlash darkor edi.

Mustaqillikning milliy qadriyat sifatida e'zozlanishi, uni yangidan yangi mazmun bilan boyitish uchun keng jamoatchilik fikrini uyg'otish tub islohotlar samarasini oshirishning yetakchi omillaridan biridir.

Ma'lumki, matbuot hamma vaqt rivojlanishning har bir bosqichida o'zi yashab turgan jamiyatning manfaati uchun xizmat qilgan, uning maqsad va intilishlarini targ'ib qilgan, yoqlab chiqqan. Zotan, haqiqiy xalqchil matbuotning vazifasi ana shundan iborat bo'lmog'i kerak. Afsuski, sho'rolar tuzumi davrida matbuot yakka-yu yagona kommunistik mafkura g'oyalarini targ'ib qilgan, uning rahnamolari yo'l-yo'riqlari asosida ish tutgan, ular topshirig'ini bajargan.

Xalq og'zida matbuot deb atalgan ommaviy axborot vositalari amalda «barcha g'alabalarimizning ilhomchisi va tashkilotchisi», deb bong urilgan kommunistik partiyaning xizmatkoriga aylangan edi. U qizil imperiyaning suyangan tog'i, totalitar tuzum manfaatlarini himoya qiladigan G'oyaviy qurolga aylangan edi. Tabiiyki, bu holat omma bilan matbuot o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirgan edi.

Aslida matbuot omma fikrini o'zida ifoda etishi, shu asosda o'z sahifalarida xalq xohish-irodasini, umumxalq manfaatini va umumjamiyat istiqbolini ifodalashi lozim. Shundagina uning obro'-e'tibori oshib, jamiyat oldidagi, xalq oldidagi burchini xolisona ado etishi, erkin matbuotga aylanishi mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng aytish mumkinki, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida o'ziga xoslik paydo bo'la boshladi. Endi gazetalar, jurnallar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda bevosita respublikaning Mustaqilligiga bag'ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularga keng o'rin beriladigan bo'ldi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, O'zbekiston ommaviy axborot vositalari endilikda xorijiy mamlakatlarda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotlarni, yangiliklarni, o'sha mamlakatlar yoki yirik axborot agentliklaridan bevosita, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, 1996-yilning may oyidan boshlab respublikamizning jahondagi yirik kompyuter tizimi «Internet» bilan aloqa o'rnatib, undan eng muhim yangiliklarni qabul qilib olishning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston axborot vositalari tarixida ulkan yangilik bo'ldi.

«Internet»ning 50 million abonenti bo'lib jahondagi eng yirik axborot markazlari unga a'zo bo'lishgan. U butun dunyo bo'yicha turli sohalardagi yangiliklarni qabul qilib oladi hamda ana shu yangiliklarni o'z abonentlariga tez va aniq yetkazib beradi.

O'z navbatida respublikamiz haqidagi muhim yangilik va axborotlar ham mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy axborot agentlik-

lari vakillari va muxbirlari tomonidan o'sha mamlakatlar axborot vositalari uchun bevosita yetkazib berilmoqda. Axborot almashinuvi, dunyo voqealaridan xabardorlik, yoki aksincha, dunyo sahnasiga chiqish, o'zini namoyon qilish imkoniyati tug'ildi.

Mustaqillik tufayli gazeta sahifalari, radioeshittirishlari va teleko'r-satuvlarda mamlakatning qadimiy tarixi, o'tmishi, madaniyati, sho'rolar tuzumi davrida taqiqlab qo'yilgan milliy qahramonlarimiz haqida, o'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlari, aqidalari to'g'risida qiziqarli maqolalarga keng o'rin berildi. Ana shuning o'zi endi mamlakatimizda hurriyat, hurfikrlilik, milliy manfaatlarga va milliy ravnaqqa yo'l ochilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, matbuotda islom madaniyati, nazariyasi, tarixi va qonuniyatlarini targ'ib qilishga keng yo'l berildi. Buyuk mutasavvuf allomalar Hakim at-Termiziy, Imom Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin NAQSHband, Abduxoliq G'ijduvoniy, Abu Mansur Moturudiy, Marg'iloniy hamda boshqa qator tarixiy shaxslar, ulug' donishmandlar, xususan Sohibqiron Amir Temur haqida keng miqyosli maqolalarning berib borilishi jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

Islom dinining boy ma'naviy imkoniyatlaridan foydalanishga imkon yaratildi. Axloqiy barkamollik va ruhiy tozalik uchun zarur omil sifatida uning taraqqiy etishiga, kundalik turmush tarzimizga kirib borishiga keng yo'l berildi. Bularning hammasi O'zbekiston matbuotining oldingi «qizil yalovbardorlik» illatlaridan qutulib, sog'lomlashib, xalqchil va oshkora tus ola boshlaganidan dalolat beradi. Buni ommaviy axborot vositalarining demokratlashish sari qadam tashlayotganining yorqin dalili, deyish mumkin.

Umuman olganda, istiqlol erkin fikrlashga, har kimning o'z fikrini oshkora bayon qilishga, hurriyatga keng eshik ochdi. Hurfikrlilikni barqaror etishning yangidan yangi imkoniyatlarini yaratdi. Jumladan, vaqtli matbuot turlari va sonlari ko'paydi. Demokratik erkinlik sharoitida bir necha mustaqil siyosiy harakatlar, jamoat birlashmalarining nashrlari tashkil qilindi. Xususan, O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasining «O'zbekiston ovozi» — «Голос Узбекистана», «Vatan taraqqiyoti» partiyasining «Vatan», «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining «Adolat», «Milliy tiklanish» partiyasining «Milliy tiklanish», Fidokorlar milliy-demokratik partiyasining «Fidokor» gazetasi, «Xalq birligi» harakatining «Birlik» gazetalari nashr qilina boshlandi. Qator vazirliklar, davlat qo'mitalari, uyushma va konsernlar o'z sohalariga doir nashrlar tashkil etishdi. Bunday gazeta va jurnallarning chiqishi ma'lum tarmoq muammolarini, o'ziga xos murakkabliklarni o'z vaqtida o'rganishga yordam beradi.

Mustaqil nashrlar o'z muassislari g'oyalari va dasturlari yo'nalishlari doirasida mustaqil ish olib boradilar. Islohotlar va yangi-

lanishlarga o'z munosabatlari, muammolarga yondashish usullari bor. Biroq, yagona maqsad – istiqlol taqdiri, mamlakat va xalq istiqboli ularni birlashtirib turadi.

Prezident I.A.Karimov ommaviy axborot vositalarining rolini alohida ta'kidlab, – **«Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari har tomonlama rivoj topishi lozim. Ular haqli ravishda hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i bo'lishi darkor.**

Ommaviy axborot vositalari hayotimizga kun sayin chuqurroq kirib borayotganini hozir hech kim inkor etolmaydi. Bu jarayonni tabiiy hol, deb qabul qilmoqdamiz. Bugungi kunda nashrlar soni ko'payibgina qolmasdan – hozir 490 ta gazeta va 138 ta jurnal ro'yxatga olingan – jamiyatni rivojlantirish va davlat qurilishida ularning ahamiyati va tutgan o'rni ham ortib bormoqda» – degan edi (7-j., 390–391-betlar). Bulardan tashqari, hozir respublikamizda bir qancha telestudiya, viloyat, shahar va tumanlarda radio studiyalar va 4 ta axborot agentligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalari zimmasiga butunlay yangi vazifalarni qo'ya boshladi. Matbuotning aholida yangicha ong va tafakkurni shakllantirishda ta'sirchan qurol bo'lishini, kishilarning fikr va xohish-irodasining erkin, xolis ifodachisi, aytish mumkinki, inson manfaatlarining izchil va faol himoyachisi bo'lishini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Aslida ham shunday bo'lmog'i kerak. Har qanday matbuot organi eng avvalo, xalq manfaati va mamlakat istiqbolini ko'zlashi lozim. Ana shunda u milliy qadriyatga aylanadi. Keng jamoatchilik tan oladi. Aks holda u umummanfaat mulkiga emas, bir hovuch uyushgan xudbin shaxslarning beqadr mulkiga aylanadi, xolos.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublika Prezidenti I.Karimov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini barqarorlashtirishda ommaviy axborot vositalarining rolini yanada oshirishni talab qilmoqda. Prezident har bir nutq va ma'ruzalarida, albatta, matbuotning kundalik hayotimiz va islohotlar davridagi roli haqida, ularning keng imkoniyatlari to'g'risida to'xtalib o'tadi. Buning boisi shundaki, matbuot va umuman axborot vositalarining demokratik rivojlanishdagi ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Biroq, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ularning roli unchalik ham sezilmayapti, o'zlarini «to'rtinchi hokimiyat» sifatidagi imkoniyatlarini to'la ko'rsata olmayaptilar. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati ommaviy axborot vositalari faoliyatiga jiddiy baho bermoqda. **«Ochig'ini aytganda bizning matbuotimiz, televideniye va radio hozircha zamonaviy ish usullari va shakllarini egallab olganicha yo'q, xalqaro mezonlarga muvofiq emas. Matbuot sahifalarida va televideniyeda chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy va**

xalqaro sharhlar yo'q, bahs-munozara ko'rinmaydi. Ayrim ommaviy davlat nashrlarining aniq fuqarolik pozitsiyasi va qiyofasi ko'zga tashlanmaydi. Ular asosan rasmiy xabarlarni e'lon qilish bilan cheklanmoqda», – deb mamlakat rahbari katta e'tiroz bildirdi.

Shuning uchun ham 1997-yili Oliy Majlisning VI sessiyasida ommaviy axborot vositalari huquqiy asoslarini mustahkamlash masalasi o'rtaga qo'yildi. Oliy Majlis o'zining VII sessiyasida «Axborot olish kafolatlari va huquqlari», «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish» singari qonun loyihalari muhokama qilinib, birinchi o'qishda qabul qilindi. «Xalq so'zi» gazetasining 1997-yil 13 va 14-fevral sonlarida qonun loyihalari umumxalq muhokamasiga havola qilindi. U keng jamoatchilikning yangi taklif va mulohazalari bilan to'ldirilib, 1997-yil 25-aprelda Oliy Majlis VIII sessiyasida qabul qilindi.

Ushbu qonunlarning dunyoga kelishi va to'la quvvat bilan amal qilishi bevosita hozirgi o'zbek milliy davlatchiligi ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bunday qonunlar yaratilishining, deputatlar va umumxalq muhokamasiga havola qilinishining o'zi O'zbekistonning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, inson huquqlari erkinligi, ozodligi, uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi xalqaro huquq normalariga izchil amal qilayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur Qonunlarning o'ziga xos jihatlari ham borki, bu bevosita turmush tarzimiz va aholi ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan hodisadir. Jumladan:

– Qonunda aholi hamda jamiyatning xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish kabi hayotiy talablar o'z aksini topgan.

– «Axborot olish erkinliklari va kafolatlari» Qonunning 2-moddasida har bir fuqaroga axborot olish kafolatlanishi va davlat tomonidan himoya qilinishining alohida ta'kidlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

– Bunday Qonunlar MDH davlatlarida hali qabul qilinmaganligi, boshqa mamlakatlarda, xususan, demokratiya nisbatan rivojlangan mamlakatlarda esa kamdan-kam uchraydigan hodisa ekanligi bilan ham diqqatga sazovor.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratik jarayonlar ancha chuqurlashgan, demokratik matbuotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda so'z va fikr erkinligi asta-sekin o'z oqimi bilan kirib kelgan. Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hurfikrlilikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqelikdir. Ayni paytda u matbuot jahon andozalariga moslashtirish, fuqarolarni erkin fikrlashga

o'rgatish va shu asosda jamiyatni sog'lom fikrlar asosida butunlay qaytadan qurish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Qolaversa, xuddi ana shunday qonunlarga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ham ehtiyoj katta. Biroq, ularning ayrimlari boshboshdoqlikka aylanib ketgan, jilovsiz va yuzaki demokratiya ishqibozlari bo'lsa, ayrimlari hali o'zlarini yig'ib olib, xotirjam fikrlash imkoniyatiga ega emaslar. Boshqacha qilib aytganda hali bungacha yetib kelganlari yo'q.

Ma'naviyatga e'tibor, so'z va fikr erkinligiga ma'naviy mezon sifatida yondashish, hurfikrlilikka yuksak axloq, komillik va ma'rifatlilik ko'zgusi sifatida qarash uchun eng avvalo jamiyatda barqarorlik mavjud bo'lishi kerak. Fuqarolarning maqsad va intilishlari yagona yo'lga safarbar etilishi, ular o'z ertasini va olis istiqbolini aniq ko'ra bilishi, uni boshqarayotgan hukumatga qat'iy ishona olishi darkor. Bunday vaziyat esa, aytish mumkinki, sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan barcha Mustaqil mamlakatlar orasida faqat O'zbekistonda mavjud.

Bunday Qonunlarning qabul qilinishi konkret sharoitdan, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimi natijasida kelib chiqqan hodisa bo'lib, O'zbekistonda turli fikrlar va qarashlar rivojlanishining o'zbekona «modeli» shakllanayotganining belgisi, demokratik qadriyatlarning O'zbekiston uchun xos bo'lgan ko'rinishlarning yuzaga kelishidir.

1996-yil 2-avgustda Oliy Majlis «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida», «Noshirlik faoliyati to'g'risida» qonunlar qabul qildi. Bular mamlakatimizda ixtirochilik va badiiy ijod mualliflari huquqini himoya qilishga, noshirchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demokratiyaning, konstitutsiyaviy taraqqiyotni ta'minlashning, inson huquqlari va erkinliklari, qadr-qimmatini himoya qilishning g'oyat muhim masalasi sifatida televideniye va radioeshittirish tizimini milliy g'oyalar asosida qayta shakllantirish, uning respublikada iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarning amalga oshirishdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1996-yil 7-mayda «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmon qabul qilindi. Unda O'zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish Qo'mitasi O'zteleradiokompaniyaga aylantirildi. Uning vazifasi qilib quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, axborotlarning mafkuradan mutlaqo xoli bo'lishini nazarda tutgan holda aholi hamda jamiyatning xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlariga ehtiyojini o'rganish va qoniqtirish;

Ikkinchidan, mamlakat aholisini, shuningdek, chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar to'g'risida keng xabardor qilish va hokazolar.

Aytish mumkinki, 1996-yilda respublikada ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan muhim amaliy choralar ko'rildi. Shu 1996-yilning may oyida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil qilindi. Bu ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil o'zini o'zi boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan ijtimoiy xayriya tashkiloti hisoblanadi.

Jamg'arma o'z ishini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonun, «Axborot olish erkinliklari va kafolatlari», «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida» qonunlar va boshqa normativ hujjatlar asosida tashkil qiladi.

Jamg'arma o'z faoliyatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

– ommaviy axborot vositalari amaliy faoliyatida demokratik jarayonlarni yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, jurnalistlar faoliyatini aktivlashtirish, gazetalar, jurnallar, radio va televideniyening moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ularga moliyaviy yordam ko'rsatish;

– ijodiy faoliyatda demokratik tamoyillarni joriy etish;

– demokratiya va so'z erkinligining chinakam institutlari sifatida matbuot organlari roli va nufuzini kuchaytirish;

– jurnalistlarning huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va ijodiy huquqlarini, qadr-qimmatini, ularning davlat va jamoat organlari oldidagi, ommaviy axborot vositalarining ta'sischilari va noshirlari oldidagi manfaatlarini himoya qilish;

– mulkchilikning barcha shakllaridagi ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish yo'li bilan O'zbekistonda erkin demokratik axborot muhitini vujudga keltirish;

– g'oyaviy yo'nalishi turlicha bo'lgan nashrlarda, radio va televideniyeda ishlovchi jurnalistlar hamkorligini ta'minlash;

– ommaviy axborot vositalari xodimlarining har qanday vaziyatda o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni qonunlar bilan man etilmagan usullarda tarqatish huquqini ta'minlash;

– ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tegishli davlat idoralariga takliflar kiritish;

– qonunda belgilangan tartibda chet el ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni mustahkamlash, respublika matbuot vakillarining kasb mahoratini oshirish va tajriba almashish maqsadida ularning xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlarini uyushtirish.

Vazirlar Mahkamasining yangi jamg'arma tuzishni qo'llab-quvvatlash yuzasidan qabul qilgan qarorida ommaviy axborot vositalarining faolligini oshirish, ularning demokratiya va so'z erkinligining haqiqiy minbari

sifatidagi o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, matbuot yangi tafakkurni shakllantirishning ta'sirchan vositasiga, odamlar fikr va irodasining xolis ifodachisiga aylanishi uchun ularning erkin tayyorlanishi va tarqalishini ta'minlash zarurligi alohida uqtiriladi.

Hukumat erkin, demokratik axborot manbalarini yaratish maqsadida davlatga qarashli bo'lmagan, mustaqil nashrlar va axborot organlari tarmog'ini kengaytirish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Bularning hammasi O'zbekistonda demokratik jarayonlar izchillik bilan rivojlanayotganidan dalolat beradi. Mamlakat iqtisodiyoti Mustaqillikning oltinchi yilida barqaror tus oldi. Yangi jamiyatimizning jahon andozalariga mos keladigan shakl-u shamoyili qad rostladi. Endi uni demokratik tamoyillar bilan mazmunan boyitish, g'oyaviy jihatdan chuqurlashtirish zarur.

Matbuot chin ma'noda mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining faol ishtirokchisi, yangiliklar jarchisi, ezgu ishlar da'vatkori, jamoatchilik fikrining xolis ko'zgusiga aylanishining o'ziga xos shart-sharoitlari ham bor, albatta.

Matbuot va so'z erkinligini tanlagan har bir jamiyat boshidan kechirishi va amal qilishi muqarrar bo'lgan talablar bor. Bu eng avvalo hamma uchun birday manfaatli bo'lgan mas'uliyat hissi, javobgarlik tuyg'usi.

Haqiqiy erkinlik yuksak intizom, qat'iy talab, fuqarolik mas'uliyati, qonunlar ustuvorligidir.

1996-yil 19-dekabr kuni Prezident devonida respublika ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi vakillari qabul qilindi. Unda mamlakat rahbari bugungi kunda O'zbekiston matbuoti oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida to'xtalar ekan, mamlakatimiz istiqloli va ravnaqi, milliy va tafakkurni shakllantirish xalqimiz g'ururi va iymon-e'tiqodining qay darajada mustahkamligiga har jihatdan bog'liq ekanini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan bir paytda ma'naviyatni mustahkamlash hamda ma'rifatparvarlikni keng targ'ib etish lozimligi va bunda matbuotning roli katta ekani alohida qayd etildi.

Uchrashuvda **«Inson ozod va hur tug'iladi va shunday yashashi lozim,** — dedi Islom Karimov. — **Buning uchun esa u ana shu oliy ne'matni asray va ardoqlay bilishi kerak. Xalqimiz ruhan to'la qayta uyg'ongan taqdirdagina bu qadriyatlar hayotimizdan mustahkam o'rin oladi».**

Ushbu uchrashuv chog'ida jamg'arma faoliyatini yanada jonlantirish, uning «Hurriyat» nomli yangi gazetasini nashr etish, milliy matbuot markazi faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq masalalar ham ko'rilib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida 2008-yil holatiga 967 ta ommaviy axborot vositasi: ulardan 681 ta gazeta, 189 ta jurnal, 4 axborot agentligi, 51 ta telestudiya, 14 ta radiostudiya bundan tashqari 49 ta kabel televideniyesi, 464 ta elektron axborot vositasi yoki Internet faoliyati ko'rsatib turibdiki, bu mamlakatimizda OAVlarni faoliyat yuritishi uchun, fuqarolarning axborot olish, axborot uzatish, so'z va e'tiqod erkinligini amalga oshirishlari uchun yaratilganligidan dalolat beradi.

Prezident I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti bo'lgan ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berdi. **«Bu boradagi asosiy vazifa – mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini ta'minlashdan iborat»,** deb alohida uqtirdi.

Mazkur ma'ruzada belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Prezident I.A.Karimov 2005-yil 10-martdagi «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni islohot etish va modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida» qaror qabul qildi. Qaror bilan «Ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish Konsepsiyasi» tasdiqlandi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak bu – sohaga oid qonunchiligimiz bazasini xalqaro demokratik andozalar asosida qayta ko'rib chiqish va mustahkamlash vazifasi belgilangan muhim Konsepsiyadir.

Shu bilan birga bir qator yangi me'yoriy hujjatlar ham qabul qilindi. Jumladan:

– OAV vakillarini vakillik va ijro organlarida doimiy akkreditatsiyadan o'tkazish vositasida jurnalistlarning davlat idoralarining faoliyatidan xabardor bo'lib turish, vaqtida kerakli axborotlar olish hamda ularni tezkorlik bilan jamoatchilikka yetkazish imkonini beradi;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining brifinglar o'tkazish tartibi bir tomondan davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga asos bo'ladi;

– O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «Ommaviy axborot vositalari xodimlarining malakasini oshirish kurslari»ning tashkil etilishi jurnalistlarimiz, OAV

rahbarlarini, jurnalistikamizning saviyasini oshirish, jurnalistlarning sohaga oid zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tezkorlik, xolislik, dadillik tamoyillarini qo'llashni o'rganishga sharoit yaratadi. Eng muhimi sohaning kadrlar tarkibini kuchaytirish imkoniyatini kengaytiradi;

– «Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasiga mahalliy, xorijiy va xalqaro tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etish tartibi»ning ishlab chiqilishi bir tomondan hozirda iqtisodiy muhtoj lekin vatanparvar ruhdagi OAV qaddini tiklashga, erkin va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan bu sohada boqimandalik, qaramlik, sotqinlik, xiyonat kabi illatlarning oldini olishga imkon yaratadi;

– milliy axborot bozorida haqiqiy raqobatni hosil qilish, monopoliya yoki yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslik choralari ko'rildi.

Me'yoriy hujjatlar OAVni ro'yxatdan o'tkazishni birmuncha soddalashtirish, axborot mahsulotlarini monitoring qilish, tahririyatlarning xato va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatib, ularni qonunbuzarlik illatlaridan saqlab qolish, shu bilan birga jurnalistlarning o'z kasbiy faoliyatlarini qonun talablariga mos ravishda amalga oshirish uchun mas'uliyatlarini kuchaytirishni ham nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 16-noyabrdagi Farmoni bilan «O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi» tashkil topdi. Undan ko'zda tutilgan maqsad mamlakatimizda mustaqil, o'zini o'zi ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan, mulk shaklidan qat'i nazar, har qanday bosma ommaviy axborot vositalarini shakllantirish jarayonini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga ko'maklashishdan iborat qilib ko'rsatildi.

Mavzuga doir material
Fondning asosiy vazifalari:

- bosma OAVlari va axborot agentliklari faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- bosma OAVlari va axborot agentliklarining professional darajasini oshirishga yo'naltirilgan loyiha va dasturlarni moliyalashtirish;
- bosma OAVlari va axborot agentliklarining mustaqilligi va iqtisodiy erkinligini mustahkamlashga qaratilgan istiqbolli loyihalar va dasturlarni qo'llab-quvvatlash, axborot xizmati ko'rsatish sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirish;
- bosma OAVlari va axborot agentliklarini rivojlantirish, modernizatsiyalash va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi loyihalarni moliyalashtirish;

• bosma OAVlari va axborot agentliklarining jurnalistlari va texnik xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini va ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shuningdek, chet ellarda o'quv amaliyotlarini tashkil etishni moliyalashtirish;

• bosma OAVlarida fikrlar xilma-xilligi, g'oyaviy turli-tumanlikni ta'minlashga ko'maklashish;

• bosma OAVlariga konsultativ, tashkiliy, texnik, huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish.

Fond faoliyatining ustuvor yo'nalishlari:

• bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida rivojlantirish;

• bosma ommaviy axborot vositalarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy hayotining barcha jabhalaridagi demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini yoritishga qaratilgan faoliyatini rag'batlantirish, fuqarolik jamiyatini barpo etishda ularning rolini oshirish;

• media-biznesda menejmentning yangi usullarini tatbiq etish;

• bosma OAVlari va axborot agentliklari jurnalistlari o'rtasida hamjihatlik va birdamlik muhitini yaratishga ko'maklashish;

• fond faoliyatining ochiqligini ta'minlash.

Xullas, keyingi yillarda mamlakat Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan qator farmonlar, qarorlar va farmoyishlar, Oliy Majlis qabul qilgan Qonunlar ommaviy axborot vositalarining «to'rtinchi hokimiyat» darajasida faoliyat ko'rsatishiga imkon yaratmoqda. Jurnalistning erkin ijod qilishi va mamlakat ravnaqi yo'lida bel bog'lab xizmat qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlab bermoqda.

Beshinchi bob.

SIYOSIY, IJTIMOIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI

1-§. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash – davlat siyosatining bosh yo'nalishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Binobarin, mamlakatda o'tkazilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir.

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan besh tamoyilning muhim qismi aholini kuchli ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir.

O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi hamda respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi.

Masalan, mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini muvofiqlashtirish maqsadida davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan, miqdori doimo o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi to'lovlarni joriy qilish usuli keng qo'llanildi.

Eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi. Korxonalarning o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi budjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarning ko'pgina qismi bo'yicha narxlardagi tafovutlarning o'rni qoplandi. Shu bilan birga qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar ham joriy qilindi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar berildi. Shuningdek, ko'pgina toifadagi fuqarolarga turarjoyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi va hokazo.

Aholining ijtimoiy himoyalanishiga muntazam e'tibor berar ekan, respublika hukumati islohotlarning birinchi bosqichidagi tajriba asosida

inson va oila hayotining barcha sohalarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning butun bir tizimini shakllantirishga erishdi. Aytish mumkinki, Mustaqillik yillarida narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi keskin ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalishlardan biri bo'lib keldi va hozirgi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalish aholining barcha tabaqalarini istisnosiz qamrab oldi va islohotlarning dastlabki davrida keng miqyosda qo'llanildi. Boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda daromadlar nisbatini o'zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklaridagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o'zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshirildi. 1995-yilda Respublika davlat budjetining 29,3 foizi ijtimoiy-madaniy tadbirlarga, 21,8 foizi esa ijtimoiy himoyaga ajratildi.

1992–1998-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi. Masalan: eng kam ish haqi 1995-yilda 1994-yilga nisbatan 2,5 marta ortdi, 1996-yilning 1-yarmida esa 1995-yil 1-yarmiga nisbatan 2,7 marta ko'paydi. Nafaqaxo'rlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib, eng kam pensiyaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshiqroq bo'lishi muttasil ta'minlanib kelindi. Bu yo'l ijtimoiy adolat tamoyillariga to'la mos kelar edi. Masalan, 1998-yil 1-iyuldan ish haqining eng oz miqdori 1100 so'm bo'lgani holda, qarilik pensiyasining eng kam miqdori 2100 so'mni tashkil etadi, nogironlik pensiyasi esa bundan ham ortiqdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiqlol yillarida eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishchi va xizmatchilarning oylik o'rtacha ish haqi birgina 1996-yil dekabriga kelib, 1995-yil dekabriga nisbatan 2,6 barobarga o'sdi.

Daromadlar miqdorini o'zgartirish orqali aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida 1993-yilda joriy etilgan yangi Yagona tarif setkasi ham aholi ijtimoiy himoyasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu chora barcha toifadagi xodimlarning ish haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Natijada ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari o'z-o'zidan osha bordi. Shu bilan birga respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-

tadbirlari ko'rilganligi ham aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Respublikada narx-navoni erkinlashtirish sohasida qo'shni mamlakatlarga nisbatan birmuncha mo'tadil siyosat o'tkazilganligi iste'mol bozorini himoyalash zaruratini keltirib chiqardi. Bu O'zbekiston rubl mintaqasida turgan bir paytda nihoyatda muhim edi. Aksariyat respublika ehtiyojlari uchun valyutaga xarid qilingan un, o'simlik moyi, qand-shakar va boshqa taqchil mahsulotlar respublika tashqarisiga olib chiqib ketilishi hollari yuz berdi.

Iste'mol bozori barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun O'zbekistonda ishlab chiqarish yaxlit tizimini vujudga keltirishga hayotiy muhim masala sifatida qaraldi, mahsulotlarni tashqariga olib chiqib ketilishini bojxonalar orqali qat'iy nazorat qilish va yuqori boj to'lovlari joriy etish yo'li bilan amalga oshirildi. Dastlab, murakkab bir paytda iste'mol mollarini sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Bu tizim o'zini to'la oqladi. U bozorni pishiq-puxta himoya qilibgina qolmay, savdo tarmog'iga barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlarini va kundalik xarid mollarini muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

O'tish davri qanchalik murakkab bo'lmasin, bu tizim respublikaning barcha aholisiga hayotiy muhim mahsulotlarni iste'mol qilish va xizmatlardan bahramand bo'lish sohasida ishonchli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlab berdi.

1992–1996-yillarda non va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun dotatsiyalar qisman saqlab qolindi. Shu tufayli daromad darajasi turlicha bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Islohotlarning dastlabki bosqichida sobiq Ittifoqning ko'pgina mamlakatlarida aholining asosiy qismi yoppasiga qashshoqlashgan bir paytda O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Odamlarning islohotlarni jadallik bilan olib borishga ishonchini kuchaytirdi.

Ayni vaqtda respublikada iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o'tishga tayyorgarlik ishlari olib borildi. Yangi tizimning mohiyati ichki narxlarni jahon narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholining daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirishni ko'zda tutadi. Bunday islohot sharoitida ijtimoiy himoyaning yangidan-yangi shakllarini qidirib topishni taqozo etadi. Jumladan, milliy valyutani muomalaga kiritish, uning ichki almashuvini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarning ko'rilishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatda ichki bozorni, xalqimiz manfaatlarini faqat baquvvat milliy valyutagina himoya qilishi mumkin, degan qat'iy xulosaga kelindi. Buning uchun milliy valyutamiz, asosan, o'zimizda ishlab chiqarilgan zarur miqdordagi tovar bilan, keng eksport faoliyati hisobiga to'plangan salmoqli valyuta-zaxiralari bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak edi.

Milliy valyuta joriy etilgach, islohotlar birinchi bosqichining oxirlariga kelib (1995-yil), oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan butunlay voz kechish va erkin narxlarga o'tish imkoniyati tug'ildi.

Erkin narxlarga esa «esankirashlarsiz» o'tishga muvaffaq bo'lindi. Buni O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining muhim natijasi, deb baholash mumkin.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab aholining kam ta'minlangan qismini qo'llab-quvatlash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

«Biz, – degan edi I.Karimov, – aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek, qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik».

Ish haqini oshirish bilan birga barcha toifadagi maktablarning muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-muallimlari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha moddiy ne'matlar – kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi, yakka tartibda uy-joy qurib olish uchun yer uchastkalari birinchi navbatda ajratiladigan bo'ldi.

Masalan, o'qituvchilarning davlat va tashkilotlar tomonidan berilgan uylari bepul xususiylashtirildi. 35 ming 841 kishiga shaxsiy qurilish uchun yer uchastkasi berildi.

Yana shuni aytish o'rinliki, Mustaqillik yillarida o'quvchi yoshlarni ijtimoiy himoyalashga, ularga ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qib, bilim olish uchun zarur sharoit yaratishga ham doimo e'tibor berildi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining, texnikumlar va hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilarining, aspirantlarning stipendiyalari shu yillar mobaynida bir necha marta oshirildi. Bundan tashqari yoshlarni ijtimoiy himoyalashning boshqa shakllari – ovqat narxining bir qismini qoplaydigan qo'shimcha to'lovlar, maktab oshxonalari va tamaddi xonalari qo'shimcha xarajatlarining bir qismini budjet mablag'lari hisobidan qoplash, jamoat transportida arzon haq to'lash va boshqa yengilliklar joriy etildi. Milliy an'analarni nazarda tutib, birinchi bor

nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar uchun mebel va gilam mahsulotlari sotib olishning imtiyozli tartibi belgilandi.

Biroq, ayrim joylarda haqiqiy ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar chetda qolib, muhtoj bo'lmagan oilalar ham moddiy yordam ola boshladi. Shunday sharoitda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, yangicha yo'l tutish zarur bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan ommaviy-ijtimoiy himoyalash tartibidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tish maqsadga muvofiq, deb topildi. Bunday yangi tartib avvalo adolat tamoyiliga rioya qilishni talab qilardi. Bu qoidaning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga haqiqatan ham muhtoj bo'lgan kishilarni aniqlash, ularga yordam uyushtirish lozim edi. Buni aniqlash albatta adolat bilan ish tutishni taqozo qiladi. Bu borada hokimlar, mahalla qo'mitalarining mas'uliyati oshirildi. Ular aholining moddiy yordamga muhtoj qismini aniqlashda bunday yordamni uyushtirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini joriy etishga haqli bo'ldilar. Chunki vazifa g'oyat murakkab va mas'uliyatli edi.

«Biz ijtimoiy himoyalashning asossiz tenglashtirish tizimidan qat'iyan voz kechib, Sharqda necha ming yillar davomida qaror topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlariga muvofiq keladigan o'z yo'limizni tanlab oldik», – deb yozgan edi I.Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida.

Shunga binoan 1994-yilga kelib O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, mamlakatimizning kelajagi hisoblanmish bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. Endi hamma nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali yetkazib beriladigan bo'ldi. Oila asosiy mavqega ega bo'ldi. Bunday yondashuv umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an'analarga va ruhiyatga mos keladi, fuqarolar jamiyatining ijtimoiy tashkiloti tizimida oila egallaydigan o'rniga muvofiq keladi.

Ijtimoiy ko'maklashuvning yangi tizimida farzand tug'ilganda, bir yo'la beriladigan to'lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turi ham amalga oshiriladigan bo'ldi. Masalan, birinchidan, bola boquvchi onalarga to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilibgina qolmay, uning muddati ham uzaytirildi. Ilgari bunday yordam bir yarim yilgacha to'langan bo'lsa, endi bu muddat uch yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham, bu nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar. Masalan 1995-yil ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 3 foizi onalarga ikki yoshgacha farzandlarini parvarish qilish uchun ajratildi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq O'zbekistonda bu nafaqa ish haqining eng oz miqdoriga bog'liq qilib

qo'yildi. Bu avval boshdanoq pulning qadrsizlanishi oshganda nafaqalarning ana shu turining indeksatsiyalanishini ta'minlaydi. Bolalarga beriladigan yigirmadan ziyod turli nafaqalar o'rniga 1994-yilning sentabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Masalan, 1995-yilda ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 51 foizi oilalarga ularning farzandlariga ikki yoshga to'lgunlaricha parvarish qilish uchun ajratildi.

Davlat tomonidan bolalarni boqish va tarbiyalashga qilinadigan sarf-xarajatlarning bir qismini oilalarga kompensatsiya tarzida berib turildi, ayni vaqtda ota-onalarning mas'uliyati kuchaytirildi. Beshta va undan ko'proq bolali oila uchun nafaqaning eng ko'p miqdori avvaliga eng kam ish haqining yarmi miqdorida, 1996-yilga kelib eng kam ish haqining to'la stavkasi darajasida belgilab qo'yildi.

1994-yil 24-avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra 1994-yilning oktabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi, mana shunday oilalarga moddiy yordam joriy etildi. Respublikada kam daromadli oilalarga nafaqa tayin etilishi aslida misli ko'rilmagan ish, zamonaviy ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirish edi. Bunday yordam odamlarga yaqin turadigan mahalla yig'inlarida amalga oshiriladigan bo'ldi. Masalan, 1995-yilda 500 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalarga mahalla komitetlari orqali jami 6 milliard so'm moddiy yordam berildi.

1996-yil 10-dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» yana bir muhim Farmon qabul qilindi. Unda 1997-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish yig'inlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng oz ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi. Bu borada ijtimoiy adolat tamoyillariga og'ishmay rioya etish, keng oshkoralik va ochiqlikni ta'minlash, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish lozimligi qayd qilindi. 1997-yilda 16 yoshgacha bo'lgan farzandi bor oilalarga nafaqa to'lash uchun 9,6 milliard so'm sarflandi.

Aholining kam ta'minlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. 1997-yil sentabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

Mavzuga doir materiallar

Hukumat tomonidan ayrim toifadagi fuqarolar va oilalar uchun belgilangan ayrim imtiyoz, kafolat va qo'shimchalarning ro'yxati:

* oilalarga bola 2 yoshga yetgunga qadar 1,5 minimal ish haqi miqdorida yordam puli to'lash. Ushbu to'lovlar hajmi uzluksiz oshmoqda, 1998-yilda 521 ming nafar ayolga 10,4 mlrd. so'm miqdorida nafaqa to'landi;

* homiladorlik va farzand ko'rish davrida ayollarga ish joyidan 125 kalendar kuni uchun o'rtacha ish haqi miqdorida yordam puli berish;

* bolalikdan nogiron bo'lib qolganlarga beriladigan yordam puli;

* kommunal xizmat ko'rsatish va kvartiradan foydalanilganligi uchun imtiyozli 50 % miqdorida haq to'lash (nogironlar oilasi uchun);

* qishloq joylarida yashayotganlarni kommunal xizmat ko'rsatish va kvartira haqlaridan to'la ozod etish va shaharlarda istiqomat qiluvchilarga (maktab o'qituvchilari, bog'cha tarbiyachilari va o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari) 50 % miqdorida imtiyoz berish;

* kommunal xizmat ko'rsatish va kvartira haqi to'lashdan to'liq ozod etish (1-darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan mukofotlanganlar oilasi, yolg'iz pensionerlar);

* elektr energiyasidan foydalanganligi uchun 50 % chegirma berish (oyiga 110 kv.s.) (nogironlar oilasi);

* yer solig'i to'lashdan ozod etish (16 yoshgacha bo'lgan 5 va undan ortiq ko'p bolali oilalar, nogironlar oilalari);

* olinayotgan barcha daromadlardan soliqqa tortilmaydigan minimal daromadning 4 karrasi miqdorida (16 yoshgacha bo'lgan 2 va undan ortiq farzandli yolg'iz onalar); 16 yoshgacha bo'lgan 2 va undan ortiq farzandi bo'lgan yolg'iz ota, bevalar va boquvchisini yo'qotganligi uchun nafaqa olayotganlar barcha daromadlarining 30 % dan; yoshligidan nogiron bo'lib qolgan bolalarni tarbiya qilayotgan ota yoki onadan birortasi daromad solig'ining 30 % ni to'lashdan ozod etiladi.

* * *


Serfarzand va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi Respublika va mahalliy budjet vositalaridir. Kam ta'minlangan oilalarga 1998-yilda to'langan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. so'mni tashkil qildi, 16 yoshgacha bo'lgan farzandli oilalarga to'langan nafaqalar – 15,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.


1998-yilda 36 % bolali oilalar nafaqa olishdi. O'rtacha nafaqa miqdori bitta oilaga deyarli 1483 so'mga to'g'ri keladi yoki (1996-yilga nisbatan) besh barobar o'sdi. 1998-yilda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari orqali Respublikadagi 700 ming yoki umumiy oilalarning 11,8 foiziga kam ta'minlangani uchun moddiy yordam ko'rsatildi. Ko'rsatilgan moddiy yordam miqdori har oilaga hisoblaganda har oyda 1730 so'mdan ortiqni tashkil etadi.

O'zbekistonda aholining ijtimoiy muhofazasi haqida gap ketganda keyingi yillarda bu borada amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Jumladan, mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy-muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006-yil 7-sentabrdagi «2007–2010-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qarori buning yana bir yorqin dalilidir.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2006-yil xarajatlari jami 1327,5 mlrd. so'mni tashkil qildi



Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2006-yil daromadlari jami 1350,8 mlrd. so'mga yetdi



Bugungi kunda yurtimizda istiqomat qilayotgan faxriylar orasida 22 ming nafardan ziyod kishi urush qatnashchisi va nogironi, 256 ming nafardan ortiq front ortida mehnat qilgan nuroniy, 30 ming nafardan ziyod yolg'iz nogiron pensioner bor.

Xususan, 2005-yil – Sihat-salomatlik yilida 1,9 ming nafar yolg'iz nuroniyning uy-joyi ta'mirdan chiqarildi, kam ta'minlangan oilalar va keksa fuqarolarga 5 milliard so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi. Yakka-yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlar, shuningdek, ko'p bolali oilalarga ko'rsatilgan ijtimoiy yordam hajmi shu kungacha 47 milliard so'mdan oshdi.

«Nuroniy» jamg'armasi hisobidan 2005-yilda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga 104 million so'm sarflangan bo'lsa, birgina 2006-yil davomida ushbu xayrli maqsadlarga yo'naltirilgan mablag' miqdori 112 million so'mni tashkil etdi. Faxriylarning davolash maskanlariga, «Sahovat» va «Muruvvat» uylariga 16 million so'mlik dori-darmon vositalari yetkazib berildi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda nuroniylar to'liq dispanser ko'rigidan o'tkazildi.

Toshkent shahrida faxriylarimizga barcha qulayliklarga ega 150 o'rinli «Nuroniy» shifoxonasi beminnat xizmat qilmoqda. Viloyat shifoxonalari

qoshidagi kasalxonalarda jamg'armaning viloyat bo'limlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy yordami tufayli tashkil etilgan yolg'iz keksalar va nogironlarni bepul davolovchi «Nuroniylar xonalari» faoliyat ko'rsatmoqda.

Sakkiz ming nafar yolg'iz pensioner va nogiron yashab turgan o'ttizdan ziyod «Sahovat» va «Muruvvat» uylarining moddiy-texnika bazasi yaxshilandi.

Bu boradagi tadbirlarning tegishli vazirlik va idoralar, hokimlik va muassasalar bilan hamkorlikda tashkil qilinishi o'zining ijobiy samarasini beryapti.

Dasturda nazarda tutilgan yolg'iz nogironlar va keksa fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni davolash-profilaktika xizmati bilan qamrab olishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, ularga gerontologiya va geriatriya sohasida ko'rsatilayotgan yordam sifati hamda uy-joy maishiy sharoitini yaxshilashga ko'maklashish, «Sahovat» va «Muruvvat» uylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning yangi shakllari, usul va texnologiyalarini keng tatbiq etish yuzasidan ham tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Bu borada yana shuni aytish kerakki, davlatimizning iqtisodiy salohiyati osha borgan sari uning xalqparvarlik siyosati yanada kuchayib bordi. 1995-yil 20-dekabrda qabul qilgan «Aholining omonatlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida»gi Farmoni ana shunday insonparvar siyosatning yorqin dalili bo'ldi. Farmonga binoan 1992-yilning yanvariga qadar jamg'arma bankiga pul qo'ygan millionlab fuqarolarning mablag'lari qaytarib berildi. Farmon asosida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Mazkur Farmon va qaror vatanimizda yashayotgan bironta keksa-yu yoshni befarq qoldirmadi. 5 milliondan ortiq omonatchilar, o'z pullarini qaytarib oladigan bo'ldi.

Shuni alohida aytish kerakki, Mustaqillikning birinchi kunidan boshlab, hukumatimiz ijtimoiy hayotni yaxshilashga qaratilgan har bir chora-tadbirni o'z vaqtida amalga oshirib, xalq oldida bergan va'dasini qat'iy ravishda bajarib keldi.

Indeksatsiyalangan pul mablag'larining 1996-yil 1-iyuldan fuqarolarga qaytarila boshlagani ham ushbu insonparvar siyosatning yorqin namunasidir.

1994-yilga kelib aholining real pul daromadi mamlakat bo'yicha 1989-yilga nisbatan qariyb 2 barobar pasayib ketdi.

1997—99-yillarda davlatning daromad siyosati mamlakat umumiy iqtisodiy rivojlanishi darajasini hisobga olgan holda aholi daromadini ko'paytirish, inflatsiya darajasini tushirish, qishloq xo'jaligidagi

islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlikning barcha turlarini, o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy himoya siyosati izchil va tadrijiy rivojlanish orqali keyingi yillarda ham diqqatga loyiq ko'rsatkichlarga erishildi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Aholi daromadlarining yaratilgan mahsulot va xizmatlardagi hissasining ortib borishi (foizda)

Ko'rsatkichlar	1996	1998	2000	2002	2003	2004
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100	100	100	100
Aholi pul daromadlarining YAIMdagi hissasi	56,8	63,2	63,5	64,1	66,8	70,1
Boshqa subyektlar daromadlarining YAIMdagi hissasi	43,2	36,8	36,5	35,9	33,2	29,9

Jadval O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining 1996–2002-yillar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2003-2004-yillar ma'lumotlari asosida hisoblangan.

* * *

Aholi ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning O'zbekiston tamoyillari

1. Aholi daromadlarining o'sishiga erishish uchun:

– minimal ish haqi darajasini maqsadga muvofiq miqdorda oshirish;

– ish haqi miqdorini ishlab chiqarish darajasini nisbatan muttasil oshirib borish;

– soliqqa tortilmaydigan minimal darajani belgilash;

– xususiy sektor hisobidan yangi ish o'rinlarini tashkil etish;

– yirik ishlab chiqarish bilan mayda ishlab chiqarish tarmoqlari aloqasini kengaytirish;

– uy xo'jaligi doirasida kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etishga davlat va nodavlat tashkilotlari ko'magini oshirish;

– imtiyozli kreditlar ko'lamini yanada kengaytirish;

– savdo-sotiq erkinligini yanada kuchaytirish;

– ishlab chiqarish resurslariga cheklovlarsiz ega bo'lish va ularni o'zlashtirish erkinligini ta'minlash;

– axborot olish erkinligini ko'chaytirish va kengaytirish.

2. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun:

– milliy iqtisodiyot nufuzli tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmini ortishi hisobiga iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

– aholi sonining o'sish sur'atlariga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmining yuqori darajada barqarorlashtirish va aholining real daromadlarini o'stirish;

– budjet taqchilligiga yo'l qo'ymaslik;

– asosiy kapitalga real investitsiyalarni kiritishni kuchaytirish va yetakchi tarmoqlarda institutsional o'zgarishlarni izchil davom ettirish;

– past rentabelli korxonalarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarining eksportini kengaytirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish;

– jismoniy shaxs maqomidagi tadbirkorlar qatlamini kengaytirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratish.

«O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida» kitobidan. («Akademiya» T., 2005-y.)

2005-yilda yolg'iz keksalar va nogironlar, yordamga muhtoj insonlar salomatligini asrash bo'yicha amalga oshirib kelayotgan ishlarimizni davom ettirganimiz bu masala biz uchun ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Misol uchun, xorijlik mutaxassislar bilan birgalikda Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi kam ta'minlangan oilalarga mansub 2500 dan ziyod bola atroflicha tibbiy ko'rikdan o'tkazilgani, «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi bilan hamkorlikda 280 nafar nogiron bola plastik operatsiya qilinganini aytish mumkin.

Professional mahorat va katta mablag' talab qiladigan bunday tadbirlar tufayli yuzlab ota-onalarning dard-u tashvishi yengillashgani, bu bolalarning o'zi hayotga yangicha ko'z, umid va ishonch bilan qaray boshlagani muhimdir.

2006-yilda ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarga 10 milliard so'mlikdan ziyod qoramol olib berildi. Natijada odamlarning mehnat bilan shug'ullanishi, avvalambor, oila a'zolarini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlash, qolaversa, qo'shimcha daromad topish imkoni yaratildi.

Millionlab yurtdoshlarimiz ishtirok etgan umumxalq xayriya hasharlarida tushgan mablag'lar hisobidan 2 ming nafar yolg'iz keksa va 66 ming kam ta'minlangan oilaning 3 million 570 ming kvadrat metr uy-joyi ta'mirlab berildi.

Qariyb 23 ming nafar qarovchisiz qariya va nogiron kishilarga ijtimoiy xizmat ko'rsatildi. Respublikamizdagi barcha «Saxovat» va «Muruvvat», «Mehribonlik» uylari hamda maxsus maktab-internatlarga homiylar tomonidan 3,5 milliard so'mlik moddiy yordam berildi.

Shuningdek, 2006-yilda kam ta'minlangan oilalarga mansub salkam 725 ming nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi 16 milliard so'mlikdan ziyod kiyim-bosh bilan ta'minlandi.

Maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchilarni darsliklar va o'quv qurollari bilan bepul ta'minlash ishlari davom ettirildi. 521 ming nafar bolaga qariyb 15 milliard so'mlik darslik va o'quv qurollari sovg'a sifatida berildi.

Nogiron bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi tashabbusi bilan, xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, tug'ma nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo'li bilan davolash ishlari amalga oshirildi.

2006-yili tibbiyot xodimlari uchun ish haqining takomillashtirilgan tarif setkasi joriy qilindi, shifokorlar mehnatini rag'batlantirishning yangi va samarali tizimi shakllandi.

Natijada mamlakat bo'yicha umumiy oylik ish haqini indeksatsiya qilish darajasini hisobga olganda, ularning o'rtacha oylik maoshi taxminan 2,2 barobar oshdi.

Shu borada har bir tibbiyot muassasasida moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish bo'yicha yangi tuzilgan jamg'arma to'laqonli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu jamg'armani shakllantirishga budjetdan ajratilgan mablag'larning o'zi qariyb 23 milliard so'mni tashkil etayotgani va shuning hisobidan 100 ming nafardan ziyod tibbiyot va farmasevtika xodimiga qo'shimcha ish haqi va mukofot puli to'lanayotgani shifokorlar mehnatini qo'llab-quvvatlashda yangicha usul qanchalik samara berayotganini ko'rsatib turibdi.

2007-yil budjetida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash harajatlarining davlat budjeti xarajatlaridagi salmog'ini 2005 yildagi 50,4 foizdan 54,1 foizgacha yetkazish mo'ljallandi yoki budjetning asosiy qismi mazkur sohani moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Kam ta'minlangan, yosh bolali oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar 2005–2007-yillarda 211 milliarddan 350 milliard so'mgacha yoki 1,7 martaga oshirish mo'ljallangani, davlat budjeti xarajatlaridagi salmog'ining 6,0 foizdan 7,0 foizgacha ortayotganligi mazkur masalaga davlat siyosatida qanchalik ustuvorlik berilayotganligini bildiradi. Budjet xarajatlaridagi mazkur sohalarga ajratiladigan mablag'lar salmog'ini cheksiz oshirib borish mumkin emasligini e'tiborga olib, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Oldimizda turgan yana bir dolzarb vazifa – birinchi galda, yosh avlodning har tomonlama sog'lom bo'lib tug'ilishiga e'tiborni qaratish» muammolarini hal qilish orqali ijtimoiy himoya masalalari to'laqonli yechimini topish imkoniyati yaratiladi. Ta'kidlash joizki, nogiron tug'ilgan jamiyat a'zolari birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga kiritiladi va butun umri davomida birovning qo'liga qarab yashaydi. Demak, jismonan sog'lom avlod tug'ilishiga erishish va kamol

toptirish ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini keskin kamaytirib, o'z navbatida, himoyaga muhtojlar uchun yetarli mablag'lar ajratish uchun asos yaratadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari sonini keskin kamaytirishda sog'lom avlodni kasb-hunarli qilib tayyorlashga va ular uchun yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan siyosat alohida o'ringa ega. Mazkur masala bo'yicha to'xtalib, Prezidentimiz «**... yoshlarimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlash – bu ularning zamonaviy ta'lim va tarbiya olishi, zarur kasb-hunarlarni egallashi bo'ladimi, ish o'rniga ega bo'lishi, o'z qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun imkoniyat yaratish bo'ladimi, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, oyoqqa turg'azish bo'ladimi – bu masalalarning barchasi biz uchun eng muhim va ustuvor masala bo'lib qolaveradi**», deb ta'kidladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining eng faol qatlami hisoblangan yoshlarning bandligini va faolligini amaliy ta'minlash orqali ular o'z oilasi uchun zarur moliyaviy mablag'larni tadbirkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarib yoki biror-bir ish o'rniga ega bo'lib ishlab topadi va ijtimoiy himoyaga muhtojlik sezmaydi. Aksincha yoshlar ana shunday qatlamlar uchun zarur mablag'lar yig'iladigan budjetga soliqlar va yig'imlar to'lovchiga hamda zarur hollarda homiylik faoliyati bilan shug'ullanuvchiga aylanadi.

Mamlakatimizda 2007-yilning «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, uning turmush va farovonlik darajasini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi.

Shu ma'noda, 2007-yil 19-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ular uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

Ushbu Farmon aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, barcha ijtimoiy muassasalar xodimlari mehnatiga haq to'lashni yaxshilash, shuningdek, nogironlar, qariyalar va yolg'iz fuqarolar uchun internat-uylar, urush va mehnat faxriylari sanatoriylari, nogironlar reabilitatsiya markazlarining moddiy-texnika bazasini tubdan mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar majmuini ko'zda tutadi. Yuqoridagi chora-tadbirlarni to'liq amalga oshirish uchun asosan davlat budjeti hisobidan qo'shimcha ravishda yiliga 31,5 milliard so'm ajratilmoqda.

Jumladan, Farmonda davlat budjetidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lash uchun ajratiladigan budjet mablag'larini 1,5 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa davlat budjetidan qo'shimcha



Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti
Islom Abdug‘aniyevich Karimov.



Laylaklar raqsi. Tinchlik va farovonlik nashidasi.



Baxtli turmush, orzular chechagi.



Maqsadlar mushtarak. Kun tartibida insoniyat taqdiri,
Yer shari istiqboli.



Toshkent. “6+2” uchrashuvi.



I.A.Karimov va V.V.Putin. Samimiy muloqot.



Qadimiy Chin tuprog'ida. Hamkorlikning yangi davri.



I.A.Karimov va B.Klinton. O‘zbekiston-AQSH hamkorligida yangi qadam.



I.A.Karimov Yaponiyaga safari chog‘ida. Prezident va Imperator muloqoti.



Malayziya – O‘zbekiston: do‘stona suhbat.



Hindistonda samimiy uchrashuv. Ikki xalq taqdirida muhim burilish.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi.





Oqsaroy Mustaqil O‘zbekiston davlatining Bosh qarorgohi.



Hukumat uyi – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining binosi.




O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.



Vatan. “Qaldirg‘ochlar faqat fayzli xonadonga in qurishadi”, deydi xalqimiz.



Taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborov ish ustida.



Muqaddas ziyoratgoh.
Motamsaro ona – ikkinchi
jahon urushi davrining timsoli.



Zamonaviy me'morchilik sa'nati namunalari.
Mustaqillik maydonidagi ma'muriy bino.



Nukus shahridagi ma'muriy bino.



Prezident I.A.Karimov paxtakorlar huzurida.



Paxta – asosiy boyligimiz.



G‘alla mustaqilligi yo‘lidagi dadil qadamlar.



Urgut – Kitob dovonining bugungi ko‘rinishi.



Zamonaviy texnologiya asosida rekonstruksiya qilingan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi.

ravishda 10 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratishni talab qiladi. Buning hisobidan yil davomida yana 100 ming kam ta'minlangan oila oylik moddiy yordam olish imkoniga ega bo'ladi. Ayni vaqtda moddiy yordam to'lash muddati ikki baravar – 3 oydan 6 oygacha uzaytirildi.

2008-yilda O'zbekistonda ijtimoiy maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmi barcha budjet xarajatlarining 55 foizini tashkil etadi, bevosita kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun esa budjetning 9 foizga yaqin qismi (460 milliard so'm) sarflanadi. Bu ko'rsatkich ushbu maqsadlar uchun xarajatlar umumiy budjetining 2 foizdan 5 foizgachasini tashkil etadigan MDHning boshqa davlatlari va dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqoridir. 2008 yilda hammasi bo'lib oilalarning 28 foizini ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam to'lovlari bilan ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Farmonda ehtiyojmand oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rioya etishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar yanada takomillashtirildi. Bu, avvalambor, ijtimoiy adolat, xolislik va oshkoralik tamoyillariga qat'iy amal qilish, moddiy yordamni haqiqiy ehtiyojmand oilalarga berish, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishdan iborat.

Pensionerlar, yolg'iz qariyalar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga katta e'tibor berilgan. Farmonda tibbiy-ijtimoiy muassasalar xodimlarini moddiy rag'batlantirish fondi miqdorini 15 foizdan 25 foizgacha oshirish, «Muruvvat» bolalar internat-uylari tarbiyachilari, o'quv-yordamchi xodimlar va sanitarlar ish haqini o'rtacha 10 foizga ko'paytirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, nogiron bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish maqsadida «Muruvvat» internat-uylari tarbiyachilari uchun ish me'yori 3 baravar, ya'ni har bir tarbiyachi uchun 15–18 nafar boladan 5-6 nafar bolaga kamaytirildi, bu esa xalqaro me'yorlarga to'liq javob beradi.

Bundan tashqari, 2007-yildan boshlab nogironlarga uyda xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar va pedagoglarga jamoat transportida yo'l haqi xarajatlari uchun har oyda 12420 so'mdan 18630 so'mgacha kompensatsiya to'lash joriy qilinadi. Bu maqsadlar uchun 2007-yilda budjetdan qo'shimcha 2 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratildi.

Yolg'iz fuqarolar, qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida Farmonda qariyalar va nogironlar uchun internat-uylari, urush va mehnat faxriylari sanatoriylari, nogironlar reabilitatsiya markazlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Bu ehtiyojlar uchun, avval

ko'zda tutilgan mablag'larga qo'shimcha ravishda, 9,5 milliard so'm, shu jumladan budjetdan 5,2 milliard so'mdan ortiq, budjetdan tashqari manbalar hisobidan esa 4,3 milliard so'm ajratilgan.

Bundan tashqari, «Mehribonlik» uylari va ixtisoslashgan maktab-internatlarni kapital ta'mirlash, jihozlash va ularga maxsus transport sotib olish uchun avval ko'zda tutilgan moliyalash hajmlariga qo'shimcha ravishda budjetdan 8,2 milliard so'm ajratish mo'ljallanmoqda.

Xullas, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining amalga oshirilishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirishni ta'minlaydi, qo'shimcha ijtimoiy himoya choralariga muhtoj kam ta'minlangan oilalar va fuqarolarning farovonligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi chora-tadbirlarini to'liq amalga oshirishda muhim omil bo'ladi.

Sog'liqni saqlash

Respublikada mustaqillikning birinchi yillarida Sog'liqni saqlash tizimini yangi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga javob beradigan hamda zamon talablariga mos keltirish uchun tibbiy muassasalar tizimini qayta o'zgartirish, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, nodavlat xususiy tibbiy tizimni kengaytirish va chet davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirib, tibbiyot fanini rivojlantirish ishlariga alohida ahamiyat berildi.

1992-yilning mart oyida Sog'liqni saqlash vazirligining hay'at yig'ilishida respublikada Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. 1996–1998-yillarga mo'ljallangan majmuaviy dastur, 1999-yil 14 yanvar kuni «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida «OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida» (14.06.91-y.), «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida» (03.07.92-y.), «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida» (29.08.96-y.), «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida» (25.04.97-y.), «Odamning immunitet tanqisligi virusi to'g'risida»gi (19.08.99-y.) O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining asosiy vazifasi qilib kasalliklarning oldini olish, xastalarni davolash, yashash muhitini sog'lomlashtirishdan iborat qilib belgilandi. Bunda xalq tabobatining boy an'analariga, ilm-fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga, olim va mutaxassislarning zakovat-u salohiyatiga suyanish ko'zda tutildi.

1991-yilga kelib O'zbekistonda kasalxona muassasalari soni 1370 ta edi. Kasalxonalardagi o'rinlar soni 256,6 mingga, vrachlar soni 71,1 mingga yetgan edi. Sovetlar tuzumi davrida sog'liqni saqlash tizimi kengaygan bo'lsa-da, lekin yerga turli xil kuchli ximikatlar solinishi, paxta yakka hokimligi va boshqa ijtimoiy oqibatlar natijasida aholi orasida kasalliklar ko'payib ketgan edi. O'zbekistonda har yili 8 millionga yaqin kishi xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib, shulardan 240 ming kishi yuqumli kasalliklar (shularning 120 minggi gepatit) bilan og'rib turdi, ayni vaqtda ularning 70 foizi bolalar edi. Go'daklar orasida o'lim hollari bir qadar kamaygan bo'lsa ham, lekin ularning soni yangi tug'ilgan har 1000 bola hisobidan olganda 35,5 nafarga to'g'ri keldi. Har yili o'rta hisobda 24 ming bola bir yoshga yetmay o'lib ketardi. Onalar o'rtasidagi o'lim ham ancha yuqori edi, ya'ni tirik bola tuqqan 100 ming ayol hisobidan olganda 65,3 taga to'g'ri keladigan bo'ldi. Odamlarning o'rtacha umri jahonning rivojlangan mamlakatlari — Yaponiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va boshqalarga qiyosan olganda 8—10-yil kam bo'lib chiqdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng aholining salomatligini muhofaza qilish muammolari qaytadan ko'rila boshlandi. Bunda taraqqiyotning ekstensiv yo'lidan voz kechib, intensiv yo'liga o'tish, ayni vaqtda sohaga mo'ljallanadigan mablag'ni respublika aholisining har bir jon boshi hisobidan ajratish; sog'liqni saqlash ishining asosiy taomili — profilaktik yo'nalishni tiklash; onalar va bolalar muhofazasini kuchaytirish; tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini isloh qilish; mamlakatda yetarli dori-darmon va tibbiyot ashyolari hamda texnik vositalari ishlab chiqaradigan sanoatni vujudga keltirish; sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash; davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish va sug'urta tabobatiga o'tish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Sog'liqni saqlash ehtiyojlari uchun 1994-yili milliy daromadning 4,1 % miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, 2000 yilga borib u (baholar o'zgarishini ham hisobga olgan holda) 6,5—7 % ni tashkil etdi.

Bozor munosabatlariga o'tish sog'liqni saqlash sohasiga ham yangi talablar qo'ydi. Xususan, ma'muriy-boshqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish; kasallarning bir qismini ularning ahvoliga qarab kun-u tun emas, balki faqat kunduzgi davolanishga o'tkazish; jarrohlik yordami ko'rsatishda ish hajmining bir qismini kasalxonadan poliklinikaga ko'chirish; kasalxonalardagi kam samarali o'rinlar sonini qisqartirish; shartnoma asosida bajariladigan ishlar uchun haq olish va boshqa choralar ko'rildi. Tibbiyot xodimlarining mehnatiga to'lanadigan haq ham har bir xodimning qo'shgan hissasiga va muassasa ishining oxirgi natijasiga bog'liq bo'lib qoldi.

Sog'liqni saqlash ishining asosiy taomili – profilaktik yo'nalishdir. Shuni nazarda tutib, ambulatoriya-poliklinikalar faoliyatini jadallashtirishga, ularning kasalliklarni aniqlash sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga, tibbiy yordam ko'rsatishning iqtisodiy jihatdan foydali yangi shakllarini yaratishga, xususan, oila poliklinikalari, kunduzgi kasalxonalar, qatnab davo olinadigan jarrohlik markazlari, ambulatoriyada davolashning ixtisoslashtirilgan komplekslari, mahalla kasalxonalari barpo etishga katta e'tibor berildi. Viloyatlardagi ambulatoriya-poliklinika muassasalarida, ko'pgina kasalxonalar qoshida kunduzgi davolanish imkoniyatlari yaratildi. Ularda o'rinlar soni 1991-yildagi 6,6 mingdan 1996-yilda 34,6 mingga yetdi.

1996-yil 21-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 182-sonli Qarori bilan 1996–98-yillarda qishloq ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish va 1998-yil 10-noyabrda Respublika Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan 2006-yilgacha Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi qabul qilindi.

1991-yilda 188400 ta shifo o'rinlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2000-yil 1-yanvar kuniga samarasiz ishlayotgan 56600 shifo o'rinlari qisqartirildi. Ularning o'rnida aholiga qulay va iqtisodiy jihatdan arzon, barcha sharoitlarga ega bo'lgan 47407 kunduzgi shifo o'rinlari tashkil etildi.

Bundan tashqari 217 ambulator jarrohlik markazlari va 106 ta maxsus ambulator davolash komplekslari tashkil qilindi. 1999-yil davomida respublikada 5613744 nafar bemorlar tibbiy muassasalarda davolandi.

Birgina 1997-yilda 159 ta qishloq-tibbiyot punkti ishga tushirildi, 1,5 ming bemorga mo'ljallangan shifoxonalar qurildi. 202 ta tibbiyot muassasasi qishloq tibbiyot punktlariga aylantirildi.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jihatdan davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariya-epidemiologiya stansiyalari va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliy-metodik va muvofiqlashtiruvchi ishlarini olib boradigan «Salomatlik» markazlari bu vazifani amalga oshira boshladi. 1991-yili Toshkentda diagnoz qo'yish bo'yicha respublika aholisiga xizmat ko'rsatuvchi «Diagnostika» markazi ishga tushirildi.

Aholi sog'lig'ini tekshirib turish va yuqumli hamda yuqumsiz kasalliklar bilan og'rish hollarini nazorat qilish, noqulay ijtimoiy muhit omillarini bartaraf etish, ayniqsa, atrof-muhitni sog'lomlashtirish tadbirlari izchil bajarib turildi. Chunonchi, 1995-yil oxiriga kelganda katta yoshlilar, o'smirlar, bolalar dispanser nazoratida bo'ldi. Ishchilarga davolash-profilaktika xizmati ko'rsatish, xususan, sanatoriy-profilaktoriylar tarmog'i kengaytirildi. Respublika «Salomatlik» markazi,

uning viloyatlar va shaharlardagi shahobchalari radio va televideniye hamda matbuotdan foydalangan holda aholi o'rtasida sanitariya-gigiyenaga oid bilimlarni keng targ'ib qilib bordi. Toshkentda oliy va o'rta tibbiy o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari, tibbiyotga oid ilmiy asarlar, vrachlar uchun amaliy qo'llanmalar, sanitariya maorifi bo'yicha ommabop tibbiy adabiyotlar, lug'at va ma'lumotnomalar nashr etadigan «Ibn Sino» nomidagi nashriyot ishlab turibdi. 1991-yildan ommabop «Sihat-salomatlik» jurnali nashr etildi.

Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi. O'zbekistonda tug'ilish ko'p bo'lgani va aholining talaygina qismini bolalar tashkil etgani uchun onalar va bolalar salomatligi muhofazasi hamisha eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib keldi. Onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini uyushtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining pediatriya, akusherlik va ginekologiya kafedralari, shuningdek, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot institutlari – pediatriya, akusherlik va ginekologiya institutlari katta rol o'ynadi. Onalikni muhofaza qiluvchi va ixtisoslashgan pediatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'i kengaydi. 1995-yildan 109 dan ziyod ayollar konsultatsiyalari yoki akusherlik-ginekologiya kabinetlari, 1800 dan ortiq bolalar poliklinikalari (konsultatsiyalari) ish olib bordi, kasalxonalarda bolalar uchun ajratilgan o'rinlar soni 50,7 mingtaga yetdi. Keyingi yillarda ayollar konsultatsiyalari, tug'ruqxonalar, akusherlik-ginekologiya kabinetlaridan tashqari, tegishli muassasalarda turmushga aloqador masalalar yuzasidan maslahat beradigan «Nikoh va oila» konsultatsiyalari va tibbiy-genetik konsultatsiyalar ochildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ayollar umrining davomiyligi 72 dan 73 yoshgacha uzaydi. Shu davrning o'zida Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonda ayollar umrining davomiyligi 1–3 yoshga qisqardi, Turkiya va Indoneziyada ayollar umrining davomiyligi shu davr ichida oshdi, lekin tegishli ravishda 71 va 66 yosh darajasida saqlanib turibdi. Xuddi shunday vaziyat erkaklarda ham kuzatilmoqda, O'zbekistonda erkaklar umrining davomiyligi 1990-yildagi 66 yoshdan 1998-yilda 68 yoshgacha ko'tarildi, ayni paytda Rossiya va Qozog'istonda erkaklar umrining davomiyligi 2–4 yoshga qisqardi, Turkiya va Indoneziyada erkaklar umrining davomiyligi uzaydi, lekin tegishli ravishda faqat 66 va 62 yosh darajasiga yetdi.

Respublikada onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilishga katta ahamiyat berildi. «Bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun yangi tug'ilgan chaqaloqlarni hamda homilador ayollarda tug'ma va boshqa patalogiyani barvaqt aniqlash bo'yicha «Ona va bola skrininggi» Davlat tizimini tashkil etish to'g'risida» (01.04.98-y.) Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilinganligi bu soha

rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayollarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish natijasida bolalar o'limi 1000 ta tug'ilgan bolaga nisbatan 1991-yilda 51,4 dan 1999-yilda 20,2 ga kamaydi. Onalar o'limi 100 ming tirik tug'ilgan bolaga nisbatan 1991-yilda 65,3 dan 1999-yilda 31,0 ga kamaydi.

O'zbekistonda tibbiy ta'limning uzluksiz bo'lishiga va mutaxassislarning o'z malakalarini oshirib borishiga katta ahamiyat berildi. Toshkentda vrachlar malakasini oshirish instituti ishlab turibdi. Uning 42 kafedrasi va har xil ixtisoslikka mo'ljallangan kurslarida har yili 5-6 mingga yaqin vrach, jumladan boshqa hamdo'stlik mamlakatlaridan kelgan mutaxassislar o'z malakasini oshirdi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotning borishi tibbiyot xodimlari tayyorlash ishini, umuman tibbiy ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo qilardi. Respublikadagi tibbiyot institutlarida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash ko'zda tutildi. Shunga ko'ra «davolash ishlari» ixtisosligidan vrach kadrlar tayyorlash ishi 3 bosqichdan tarkib topadigan bo'ldi, shulardan birinchisi – tabobat bo'yicha 5 yil davomida umumiy tayyorgarlik ko'rib, bakalavr, ya'ni vrach yordamchisi unvonini olish; ikkinchisi – to'la-to'kis tibbiy ma'lumotga ega bo'lib, tibbiyot doktori darajasiga erishish; uchinchisi – xodimning tanlagan ixtisosiga qarab, magistraturada o'qish.

Magistraturada mutaxassis vrach tayyorlash eng yaxshi ilmiy maktablar va klinikalarda olib borildi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanila boshlandi. Shu bilan birga, mutaxassisning malakasini tekshirib borish yoki oshirish uchun uni vaqti-vaqtida sinov (attestatsiya)dan o'tkazib turiladi.

Sog'liqni saqlash tizimini tibbiyot sug'urtasiga o'tkazish va davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish masalasi keyingi yillarda muhim masala bo'lib qoldi.

Davlat budjetidan ajratiladigan mablag' hisobida mavjud bo'lib kelgan sog'liqni saqlash tizimida bozor munosabatlari shakllanib, iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan sharoitda tibbiyot sug'urtasiga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rila boshlandi. Ayni vaqtda ko'p mamlakatlardagi sug'urta xizmatlari tajribalari o'rganildi, turli idora va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzildi. Tibbiyot sug'urtasiga o'tish, davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish bilan ham bog'liq, chunki davlatga qarashli muassasalar bilan birga mulkchilikning har xil shakllariga asoslangan muassasalar, jumladan xususiy muassasalar ham faoliyat ko'rsatib borishi kerak. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi (1991-y. 19-noyabr) Qonuniga amal qilib, sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda sog'liqni saqlash

muassasalarini xususiylashtirish tadbirlarini ishlab chiqdi. Xususiylashtirish dorixonalardan boshlandi. 1996-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida – 2200 dorixona xususiylashtirildi, 839 dorixonani o'z tarkibiga olgan 239 dorixona aksionerlik jamiyatiga aylandi.

Davlat sanitariya nazorati tomonidan aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar davom ettirilmoqda. Jumladan, davlat sanitariya epidemiologiya nazorati tomonidan maktab o'quvchilari uchun nashr etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalarning gigiyenik me'yor va qoidalarga mosligi muntazam ravishda nazorat ostiga olingan. Vazirlar Mahkamasining «Davlat sanitariya nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori aynan shu sohani rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda «O'zbekiston Respublikasining o'rta ta'lim maktablari uchun kitoblar va o'quv qo'llanmalarga bo'lgan standarti ishlab chiqilgan» hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ma'qullangan, daftarlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqarish texnik shartlari ishlab chiqildi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha Samarqand va Andijon viloyatlarida shoshilinch tibbiy yordam markazlari ochildi. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 4-martdagi maxsus qaroriga muvofiq Shoshilinch tibbiy yordam o'quv markazi tashkil etildi.

2002–2006-yillarda mamlakatning barcha viloyatlarida eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan shoshilinch tibbiy yordam markazlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Respublikada tibbiyot xodimlarini tayyorlashda yangi dastur qabul qilingan, bu bo'yicha 2380 ta umumiy (oilaviy) amaliyot vrachlari tayyorlanmoqda. 1999-yilda 4 ta hamshiralarni o'qitish kollejlari tashkil qilindi.

Respublika bo'yicha 234 ta tibbiyot muassasalari qisman o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tdi. 1999-yilda 48 ta tibbiy muassasalar mulk shaklini o'zgartirib xususiylashtirildi. 3075 ta shifokorlar yakka tartibda faoliyat ko'rsatish uchun maxsus ruxsatnoma oldilar.

Sog'liqni saqlash vazirligi jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda 2 yil davomida Onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida «SARAK» loyihasi, «MEKAKAR», «DOTS», «KARINFONET» va «AyMSiAy» dasturlari asosida ish olib bormoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan yosh tibbiy xodimlarni chet mamlakatlar (Angliya, Italiya, Rossiya, Isroil va Shvetsiya)da o'qitish uchun 18 ta grant ajratilgan.

Mustaqillik yillarida tibbiyot sohasida erishilgan ilg'or jahon tajribalarini hayotga tatbiq qilish bilan bir qatorda dunyo tabobat ilmining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' bobokalonlarimiz merosini o'rganish borasida

ham bir qator ishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tashkil etilganligi ham ushbu sohaning rivojlanishiga davlat miqyosida katta e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Tibbiyotdagi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri, bu tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun tashkiliy va amaliy sharoitlar yaratish. Jamiyatda tibbiyot xodimlarining mavqeini ko'tarish, ularning mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirishdan iboratdir. Bu borada Respublikamiz Prezidentining 2005-yil 1-dekabrdagi «Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori asosida tubdan yangi, bajarilgan ishning hajmi va sifatiga bog'langan tizim joriy etildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bemorlarga aniq tashxis qo'yish maqsadida zamonaviy uskunalar keltirilmoqda. Davolash-profilaktika muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, Prezidentimizning 2003-yil 26-fevraldagi «Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan tashkil qilingan Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida yiliga 10 mingdan ortiq operativ va diagnostik muolajalar amalga oshirilmoqda. Shulardan 4 mingdan ortig'ini yuqori texnologiyali operatsiya va muolajalar tashkil qiladi. Toshkent shahrida joylashgan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning viloyat filiallarini tashkil qilish hamda zamonaviy diagnostik uskunalar bilan ta'minlash shoshilinch yordam ko'rsatishni taqozo etadigan kasalliklarni o'z vaqtida aniqlashda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu muassasalarda yiliga 6 milliondan ortiq bemorga tibbiy yordam ko'rsatilayapti.

Toshkentdagi ko'pgina klinikalar qatori Samarqand, Jizzax Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Farg'ona viloyati tibbiy muassasalari ham kompyuter tomograf uskunasi bilan ta'minlangan. Ushbu uskuna ilgari umuman aniqlash imkoni bo'lmagan kasalliklar bo'yicha aniq tashxis qo'yish imkonini berdi.

Vazirlar Mahkamasining «Tez tibbiy yordam xizmatining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq respublika tibbiy muassasalari oxirgi 4 yil davomida 500 dan ortiq zamonaviy diagnostik asbob-uskunalar bilan jihozlangan tez yordam mashinalari bilan ta'minlandi. Bu esa bemorlarga birinchi bosqichdayoq to'g'ri tashxis qo'yish va tibbiy yordam ko'rsatishda nihoyatda qo'l kelmoqda.

Qishloq vrachlik punktlarini (QVP) tashkil qilish va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash ham bugungi muhim yo'nalishlardan biridir. Ayni vaqtda respublikamizda 3000 dan ortiq QVP faoliyat ko'rsatmoqda. Ilgari oddiy bir kasallik uchun ham tuman markaziga

borishga to‘g‘ri kelardi. Endi esa QVPlardagi faoliyat uncha-muncha tibbiy muassasalarda olib borilayotgan xizmatdan qolishmaydi. Shuning uchun ham ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun budjet mablag‘lari bilan bir qatorda Jahon bankining imtiyozli kreditlari ham jalb etilayapti.

Ayni paytda Islom taraqqiyot bankining krediti hisobiga Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning viloyat filiallarini zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda Xitoy Xalq Respublikasi hukumatining krediti hisobiga onkologiya muassasalarini zamonaviy radiologiya uskunalari bilan ta’minlash ishlari olib borilmoqda. Bu ham, o‘z navbatida, kasalliklarni erta aniqlash imkonini beradi hamda bemorlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy diagnostika va davolash sifatini oshiradi. Dori ishlab chiqaruvchi korxonalarning faoliyati hamda dori vositalarining sifati borasida ham amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 14-iyuldagi «Mahalliy dori-dormon va tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori mahalliy ishlab chiqaruvchilarga hukumat tomonidan ko‘rsatilayotgan alohida e’tibordan dalolat beradi. Aholi hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlovchi mahsulot, xizmatlar va jarayonlar sifati borasida iste’molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish, mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish va boshqalar standartlashtirishning asosiy maqsadi hisoblanib, respublikamizda standartizatsiya ishlari jahon talablari, shuningdek, O‘zbekistan Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi hamda «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonunlari asosida olib boriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 92 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning farmatsevtika faoliyati «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Respublikada dori vositalari sifati va ishlab chiqaruvchi korxonalardagi texnologiyasi masalalarini muvofiqlashtiruvchi 12 ta boshqaruv hujjatlari amalda bo‘lib, ularning asosiysi Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan. «Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti (GMR)» TSt 1901 2003 tarmoq standartidir. Respublikamizda dori vositalarining sifatini nazorat qilishning mukammal tizimi yaratilgan bo‘lib, u tegishli qonunlar asosida amalga oshiriladi. Bugungi kunda dori vositalari sifat nazorati tizimiga kiruvchi tashkilotlarda har qanday tibbiy preparatlarni klinik sinovlargacha va klinik sinovlar jarayonlarida me’yoriy hujjatlarni tasdiqlashda va tibbiyot amaliyotida ishlatishga ruxsat berishda ularning sifatini tavsiflay oladigan standartlar, me’yoriy hujjatlar, materiallar mavjud. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori

bilan majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlar turlari ruyxati qayta ko'rib chiqildi va dori vositalari «farmatsevtika mahsulotlari» nomi bilan kengaytirildi.

Respublikamizda ishlab chiqariladigan va hududimizga bojxona maskanlari orqali olib kiriladigan dori vositalari va tibbiy mahsulotlar sertifikatlashtirish idoralari tomonidan to'liq rasmiylashtirilganidan so'ng respublika hududiga olib kirilishiga hamda ochiq savdoga chiqarishga ruxsat beriladi.

Ayni paytda mamlakatimizda xususiy shifo muassasalarining soni ham oshib bormoqda.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator hukumat qarorlari qabul qilinishi munosabati bilan respublikamizda xususiy tibbiyot tizimi shakllandi. Hozirgi kunda mavjud xususiy klinikalar, markazlarda aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Agar 1999-yilda yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar va nodavlat korxonalari 700 tani tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilga kelib bu ko'rsatkich 4000 taga yetdi.

Tibbiyotdagi islohotlar samarasi o'laroq yurtimizda sohalarga ixtisoslashgan bir qator o'quv dargohlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash va chekka joylarga ishga yuborish borasida ham amaliy ishlar qilinmoqda. Har yili sog'liqni saqlash vazirligida hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan birgalikda mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj o'rganib chiqilmoqda va shu asosda bitiruvchilar ish bilan ta'minlanmoqda. 2006-yildan boshlab davlat grantlari asosida tahsil olgan bitiruvchilar 3 yil ishlab berish sharti bilan yashash manzillari bo'yicha ishga taqsimlandi. Bu borada tegishli me'yoriy hujjatlar asosida barcha ta'lim muassasalarida taqsimot komissiyalari tuzilgan, marketing bo'limlarining tuzilmasi va vazifalari o'zgartirilgan. Bitiruvchilardan samarali foydalanish maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan birgalikda mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj o'rganib chiqildi va buyurtmalar portfeli shakllantirildi. Ma'lumotlar barcha ta'lim muassasalariga yuborildi. U yerda o'z navbatida institut – talaba – ish beruvchi o'rtasida uch taraflama taqsimot komissiyasi o'tkazildi. 2006-yilda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida grant asosida tahsil olgan 1341 nafar bitiruvchi ishga taqsimlandi.

2005-yilning o'zida respublikamizda 38 ta shifoxona va sihatgoh barpo etildi. 93 ta davolash profilaktika muassasasi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi.

Shuningdek, bir smenada 10 ming 500 bemorni qabul qila oladigan ambulatoriya – poliklinika muassasalari, jumladan, 210 ta qishloq vrachlik punkti ishga tushirildi.

Ayniqsa, qishloq vrachlik punktlarini kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish natijasida 800 ming nafar bemor sifatli tibbiy xizmatdan foydalangani va qo'shimcha ravishda 2 million kishiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilganini bu yo'ldagi muhim qadam sifatida baholash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday ibratli ishlar barcha viloyat va tumanlarimizda ham amalga oshirildi. Jumladan, Buxoro viloyatining Kogon shahrida, Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida yangi shifoxona, Bog'ot tumanida esa yangi tug'uruqxona majmui barpo etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qopao'zak tumani markaziy kasalxonasida katta hajmdagi qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi, Andijon, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo va Namangan viloyatlaridagi qator tumanlarda esa markaziy kasalxonalar zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Bu ishlarga 1,5 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflandi.

Shu bilan birga, Qarshi shahrida kardiologiya va ixtisoslashtirilgan urologiya markazlari, Samarqand viloyati tez tibbiy yordam markazining Oqdaryo filiali, Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida urush va mehnat fahriylari sanatoriysi, Farg'ona viloyatidagi «Chimyon» sanatoriysida yangi korpus, Farg'ona shahrida bolalar akvaparki kabi tibbiyot va ijtimoiy infratuzilma inshootlari barpo etildi.

Muxtasar qilib aytganda 2006-yil oxirigacha jami 165 milliard 800 million so'm mablag' sarflangani tibbiyot sohasida bajarilgan ishlarning hajmi va ko'lamini yaqqol ko'rsatib turibdi.

2006-yili sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar, zarur jihoz va mebellar bilan ta'minlash maqsadida davlat budjetidan 7,6 milliard so'm, ya'ni, 2005-yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p mablag' ajratildi. Kapital ta'mirlashga esa homiylar hisobidan 7 milliard so'm sarflandi.

Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi, xirurgiya, kardiologiya markazlari, Fitiziatriya va pulmonologiya ilmiy tadqiqot institutida 60 o'rinli davolash bo'limi kapital ta'mirlanib, zamonaviy davolash usullari joriy qilindi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya markazining filiali tashkil etildi, Respublika jarrohlik markazi va «Salomatlik» institutining Nukus filiallari, Jizzax viloyatida kardiologiya dispanseri va viloyat bolalar shifoxonasi, Qashqadaryo viloyatida sil kasalliklari dispanseri, Surxondaryo viloyatida bolalar shifoxonasi kapital ta'mirlandi.

2006-yilda qariyb 284 milliard so'm, jumladan, 133 milliard so'm budjet mablag'i, 151 milliard so'mdan ziyod idora va tashkilotlar, homiylar mablag'i sarflandi.

Mamlakatimizada kuchli ijtimoiy himoya siyosati haqida gapirganda o'tgan davrda qo'lga kiritgan salmoqli yutuq va natijalarimiz xalqimizning daromadlari va farovonligini izchil ravishda oshirib borishni ta'minlash, keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berishini ta'kidlash lozim.

Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sishi sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu haqda gapirganda, aholi real daromadlarining 2006-yilda 2000-yilga nisbatan 2,5 1999-yilga nisbatan esa o'rtacha 12 barobar oshganini ta'kidlash lozim. 2007-yil oxirida respublikamizda o'rtacha ish haqi miqdori 20 dollar darajasiga yetdi.

Mamlakatimizda har uch yilda ish haqini 2-2,5 barobar oshirish strategik vazifa qilib qo'yilgan. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni maqsad qilib qo'yilgan.

Bugungi kunda yurtimizda zamonaviy mehnat bozori shakllandi – mustaqillik yillarida 5 milliondan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Ularning 70 foizdan ziyodi sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri keladi.

Ayniqsa, shahar va qishloqlarda birinchi navbatda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradigan, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosida tashkil etiladigan kasanachilik jadal rivojlana boshlaganini ta'kidlash lozim.

Biz uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan aholini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq muammolarga katta e'tibor qaratib, bu borada aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni izchil amalga oshirayotganimiz mavjud ahvolni tubdan o'zgartish uchun imkon yaratdi. 2006-yilda ishsizlik darajasi 5,3 foizgacha kamaygani ham shundan dalolat beradi.

Mamlakatimiz aholisi, avvalo qishloq joylardagi odamlarning turmush sharoiti izchil tarzda yaxshilanmoqda. Istiqlol yillarida 36 ming kilometrlik suv quvurlari, 72 ming kilometrlik gaz tarmoqlari ishga tushirildi. Bu 1991-yilga qadar erishilgan natijalarga nisbatan tegishli ravishda 2 va 4 barobar ko'p demakdir.

Natijada aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash bugungi kunda 84 foizni, jumladan, qishloq joylarda 77 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash 82 foizni, qishloq joylarda esa 78 foizni tashkil etmoqda.

Xalqimiz turmush sharoitini yaxshilashga doir chora-tadbirlar tizimida sog'liqni saqlash va aholi salomatligini muhofaza qilish alohida o'rin tutishini hammamiz yaxshi tushunamiz.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi. Hozirgi vaqtda bu boradagi

islohotlarning asosiy bosqichlaridan biri nihoyasiga yetmoqda. Aholiga bepul shoshilinch va yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun eng yuksak talablarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan shifoxona va bo'limlar tarmog'ining tashkil etilishi bu bosqichning eng muhim va aniq natijasi bo'lganini ta'kidlash joiz. Maxsus tashkil etilgan respublika markazi bu tizimga rahbarlikni va uning faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlamoqda.

Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida, ayniqsa, qishloq joylarda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Samarasiz ishlayotgan feldsherlik-akusherlik punktlari va qishloq ambulatoriyalari o'rnida zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlangan 3 mingdan ziyod qishloq vrachlik punkti tashkil etilgani bu sohadagi katta qadam bo'ldi, desak, to'g'ri bo'ladi. Tibbiyot xodimlari mehnatga haq to'lash va ularni rag'batlantirish tizimining har tomonlama qayta ko'rib chiqilishi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi. Natijada keyingi 2-3 yilda soha xodimlarining ish haqi 2 barobardan ziyod ko'paydi.

Yurtimizda yangi tashkil etilgan sog'liqni saqlash tizimida eng yuksak zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va texnikasi bilan ta'minlangan ixtisoslashgan klinikalar muhim o'rin egallamoqda. Ularda yuqori malakali mutaxassislar jahon miqyosidagi murakkab va noyob operatsiyalarni amalga oshirib, odamlar hayotini saqlab, ularning umriga umr qo'shayotgani bu boradagi islohotlarimizning yana bir amaliy ifodasidir.

Sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak onalar salomatligini muntazam nazorat qilib boradigan, sog'lom bolalar tug'ilishiga xizmat qiladigan keng tarmoqli skrining markazlarining o'rni va ahamiyati qanchalik katta ekani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q.

Agar 1991-yilda onalar o'limi bilan bog'liq ko'rsatkich har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 24 taga tushdi, go'daklar o'limi esa ilgari 1000 nafar chaqaloqqa 35 tadan to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirgi kunda 14 taga tushdi.

Shunisi e'tiborliki, bugun O'zbekistonda chechak va ich terlama, kuydirgi, o'lat va vabo kabi yuqumli kasalliklarga butunlay barham berildi.

O'tgan davr mobaynida yurtimizda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ham sezilarli ravishda ortib bormoqda. Bu boradagi umumiy ko'rsatkich 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 72,5 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o'rtasida esa 70 yoshdan 74,6 yoshga uzaygani odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rinli bo'ladi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida ijtimoiy himoya siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi.

2-§. Millatlararo totuvlikni ta'minlash choralarining amalga oshirilishi

Mustaqillik yillarida ko'p millatli mamlakatda fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan rivojlanishida qo'lga kiritilgan katta yutuqlardan biridir. Chunki 120 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan mamlakatda jamiyatni tubdan yangilash, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish osonlik bilan ko'chmaydi. Bunday paytda davlat siyosati izchil va oqilona, dadil va qat'iyatli bo'lmog'i lozim.

Mamlakat rahbariyati milliy masalani qonun yo'li bilan hal qilishga, millatlararo mojarolarni tinch hal qilish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada hukumat eng avvalo Konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutdi. Aholining barcha tabaqasi va turli millat vakillari diqqatini bir nuqtaga qaratdi. Qonun oldida hammani teng qilib qo'ydi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona vatan uchun javobgarlik hissini kuchaytirdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddima qismida «O'zbekiston xalqi... fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi», – deb yozib qo'yilgan.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, ko'p millatli davlatda o'z fuqarolari milliy va madaniy manfaatlarini himoya qilish ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish milliy davlat chegaralari doirasida cheklanib qolmasligi lozim.

O'zlarining tarixiy vatanlaridan tashqarida yashovchi millatlar uchun hamma joyda, hamma vaqt milliy ehtiyojlarini qondira olishlari uchun zarur sharoit yaratilishini taqozo etadi. Bu talab birinchi galda milliy hududiy tuzilmalari bo'lmagan xalqlarda alohida ahamiyat kasb yetadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar, milliy siyosatga bir yoqlama qaralar edi. U hech bir ittifoqdosh respublikada hal etilmagan edi. Milliy masala borasida sobiq Markaz tomonidan bir yoqlama yo'l tutib kelindi. Bu esa oqibatda butun SSSRning, jumladan O'zbekistonning ham ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga katta ziyon yetkazdi.

Sobiq SSSR Konstitutsiyasida milliy ravnaq, milliy madaniyatlar rivoji xususida fikrlar bayon qilingan bo'lsa-da, amalda «ulug' og'a»chilik, ruslashtirish siyosati hukmron edi. Kommunistik partiya dasturida barcha millatlar va elatlarni o'zaro yaqinlashtirish asosida milliy xususiyatlarni yo'qotish va yagona, «madaniyatsiz», yasama xalqni vujudga keltirish tendensiyasi davlat va hukmron partiya siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Darhaqiqat, KPSS programmasida «yagona sovet xalqi vujudga keldi. Bu sovet davlati milliy siyosatining ulkan yutug'idir» deb surbetlarcha bayon etilgan edi.

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgach millatlararo munosabatlarda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Ko'p millatli mamlakatda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», — deyiladi.

Mazkur moddada qayd etilgan qoida jahondagi biror bir Konstitutsiyada uchramaydi. Unda Konstitutsiya darajasida «O'zbekiston xalqi» tushunchasining ta'rifi bayon etilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir.

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'i nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Konstitutsiya O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlari va milliy an'analarini hurmat qilishni kafolatlaydi.

Mazkur moddada mustahkamlangan O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyili inson huquqlariga oid barcha xalqaro hujjatlarga, jumladan O'zbekiston Respublikasi nomidan uning Prezidenti imzolagan «Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi» talablariga to'la mos keladi.

Mazkur prinsip mamlakatimizdagi tinchlik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Ana shu talablardan kelib chiqib mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy choralar belgilandi. Shuni aytish lozimki, mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda tilning o'rni va roli benihoyadir. O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, bu o'z navbatida uning mamlakatda yashovchi fuqarolar o'rtasida millatlararo aloqalar vositasiga aylanishiga imkon berdi.

Ma'lumki, 1989 yil oktabrda Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan bunday zarur chora respublikada istiqomat qilayotgan rusiyzabon aholi tomonidan bir xil qabul qilinmadi. Ularning ruhan tayyor emasligini hisobga olib, mamlakat rahbariyati til Dasturini amalga oshirishda shoshmashosharlikka yo'l qo'ymadi. Unga hayot taqozosi asosida o'zgartirishlar kiritib bordi.

Mamlakatda muntazam ravishda til siyosati haqida tushuntirishlar olib borildi. Mavjud vaziyatni hisobga olib, zaruriyatga qarab ish yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish, turli ma'muriy-idoraviy munosabatlarda rus tili va boshqa millatlar tillaridan foydalanila boshlandi. Shuning uchun

bu masala 1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlis IV sessiyasi kun tartibiga kiritilib, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi», — deb yozib qo'yildi.

Bu qoida millatlararo do'stlik munosabatlarini yaxshilashga xizmat qila boshladi. Mamlakatda milliy-madaniy markazlarni tashkil qilish asosida tub aholi bo'lmagan xalqlar milliy an'analari, madaniyatlari va boshqa o'ziga xos jihatlarining rivojiga keng yo'l ochib berdi.

1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan Qozoq, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Vaqt o'tgani sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995-yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi. Bunday rivojlanish o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo qilardi. Shu maqsadda 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi «Baynalmilal madaniyat» Markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Shu bilan bir qatorda davlat organlari va jamoat tashkilotlariga O'zbekiston hududida yashovchi milliy guruhlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga doir masalalarni o'rganishda yordam berishi lozim deb, ta'kidlandi.

Markaz faoliyatidagi muhim yo'nalish umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda faol ishtirok etish bo'ldi. Jumladan, respublikada o'tkaziladigan an'anaviy «Navro'z» bayramida nafaqat mahalliy millat vakillari, balki, respublikada yashayotgan barcha millat vakillari qatnashadilar, bu bayramga chuqur hurmat bilan qaraydilar. O'z navbatida mahalliy aholi ham ruslarning milliy bayrami bo'lmish «Масленница рождество», tatarlarning «Sabanto'y» va boshqa qator xalqlarning milliy bayramlarida faol ishtirok eta boshladilar.

Bu bir jihatdan ma'lum bir xalqning milliy bayramini, o'ziga xos an'ana va urf-odatlarini o'rganishga, shu tufayli o'z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi. Ikkinchidan, o'zaro hurmat va yaqin qardoshlik asosida umumiy xonadon — yagona vatan tuyg'usini kuchaytiradi. Uchinchidan, mamlakatda sog'lom, ma'naviy-ruhiy iqlimning barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida «Baynalmilal madaniyat» Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo'nalishi bu 1994-yili boshlangan birinchi «Xalq ijodiyoti» festivali bo'ldi. Bu festival O'zbekiston Mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har ikki yilda bir marta o'tkazishga qaror qilindi.

Ayniqsa, arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys xalqlarining professional va badiiy havaskorlik san'atkorlarining chiqishlarini xalq xursandchilik va qiziqish bilan kutib oldi. Har bir Madaniyat Markazining festivali chinakamiga milliy bayramga, o'sha millatning tom ma'nodagi porloq istiqbolining kafolatiga, yashab turgan zamin uning uchun begona emasligi, aksincha, u ana shu yurt, ana shu tuproq taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmat qildi. Milliy madaniy Markazlarning yakunlovchi chiqishlari Mustaqillik bayrami arafasida 20 avgust kuni Xalqlar Do'stligi Saroyida va bayram kuni – birinchi sentabrda «Mustaqillik» maydonida o'tkazilgan tantanali konsertlarda namoyish qilindi.

Mamlakatda millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, milliy madaniyatlar ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini qo'llab-quvvatlab festival qatnashchilariga Prezident I. Karimov tabrik maktubi yo'lladi.

O'zbekistonda qardosh xalqlar ijodkorlari bilan uchrashuvlar, ular ijodiga bag'ishlangan kechalar o'tkazish odat tusiga kirdi. Keyingi yillarda O'zbekiston kunlarining Qozog'istonda o'tkazilishi, Qozog'iston kunlarining O'zbekistonda o'tkazilishi, qozoq va o'zbek xalqi o'rtasidagi qardoshlarcha aloqaning yanada ravnaq topishiga katta hissa qo'shdi. Rus madaniyat Markazi Rossiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda S.Yesenin tug'ilgan kunining 100 yilligini, Qozoq madaniyat Markazi Qozog'istonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda buyuk qozoq shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqlol uchun tolmas kurashchilar Turor Risqulov, Sultonbek Xojanovlarning 100 yilligini, Qirg'iz madaniyat Markazi Qirg'izistonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda «Manas» eposining 1000 yilligini keng nishonladilar.

Bu sanalar o'z navbatida o'zbek xalqining ham katta bayramiga aylandi. Milliy madaniyat markazlari, mamlakat fanlar akademiyasi va boshqa qator oliy o'quv yurtlari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

Ukraina milliy madaniy Markazi «Taqdirimiz – yagona» mavzuida davra stoli tashkil etdi. Atoqli rus shoiri S.Yesenin yubileyiga bag'ishlangan kecha ishtirokchilari «O'zbekiston – umumiy uyimiz» mavzuida suhbat o'tkazdilar.

Shuningdek, turli millatga mansub ijodkorlar asarlarining ko'rgazmalarini tashkil qilishga katta e'tibor berildi. Masalan, 1994-yil

mart-aprel oylarida Toshkentda «Bir daraxtning shoxlari» mavzuida ana shunday ko'rgazma tashkil qilindi. Unda mamlakatda istiqomat qiluvchi 11 millatga mansub 58 ijodkorning 98 ta tasviriy san'at asari namoyish qilindi. Shu yilning may oyida esa Ukraina, O'zbekiston, Belorussiya xalq amaliy san'ati namoyandalari asarlarining ko'rgazmasi uyushtirildi. Xususan O'zbekistonlik mo'yqalam ustalari: I.Xaydarov, A.G.Jiboldov, K.Gulenko, S.P.Mansurov, Kovriyenko va boshqalarning asarlari keng tomoshabinlar ommasida katta taassurot qoldirdi. Bu ko'rgazmalar kishilarni hozirgi zamon amaliy va tasviriy san'at namunalari bilan tanishtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan «Turkiston – umumiy uyimiz» mavzuidagi kechalar, uchrashuvlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni kuchaytirishda katta rol o'ynamoqda. Masalan, ana shunday shior ostida 1995-yil avgustda mamlakat «Baynalmilal madaniyat» Markazining respublika, Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari, «Tinchlik va barqarorlik» hamda shahar «Mahalla» xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikda o'tkazgan do'stlik kechasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu yil kuzida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat arboblari Assambleyasining Toshkentda to'planishi ham bu borada qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasi Germaniya, Rossiya, Koreya va Markaziy Osiyo mamlakatlariga rasmiy tashrif buyurganda, tegishli milliy-madaniy markazlar raislari shu Hukumat delegatsiyasi tarkibida bordilar. Bu ham mamlakatimizda milliy va millatlararo munosabatlar davlat nazoratida ekanligini, unga doimiy ravishda g'amxo'rlik va alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Qolaversa, bu har ikki davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarning yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Mamlakat «Baynalmilal madaniyat» Markazi 1995-yil 10-11 mart kunlari Toshkent shahar hokimiyati hamda «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi bilan hamkorlikda «Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati» mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazdi. Ushbu konferensiya tavsiyalari keyingi yillarda millatlararo totuvlikni rivojlantirishga doir ishlarni yanada takomillashtirishga, uni yangidan yangi tajribalar va ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishga yordam berdi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakati va «Baynalmilal madaniyat» Markazi 1996-yil «O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida» nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabatlarning jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tutgan o'rni va roli, milliy madaniyatlar ravnaqi va Mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tillarida o'qishi, ta'lim olishi uchun keng

imkoniyatlar yaratildi. Ular kerakli miqdorda o'quv qurollari va darsliklar bilan ta'minlanadi.

Ayni paytda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 120 dan ortiq millat va elatlarning farzandlari mamlakatimiz o'quv yurtlarida bemalol ta'lim olmoqdalar. Yoshlar oliy o'quv yurtlarida va maktablarda 8 tilda ta'lim olmoqdalar. Ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilmoqda. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida millatlararo va diniy bag'rikenglik tamoyili mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, unga muvofiq mamlakatimizda yashayotgan har bir kishi jinsi, irqi, millatlari, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar bir xil huquq va erkinlikka ega hamda qonun oldida bir xil javobgardir.

Bir so'z bilan aytganda Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992-yilda tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi o'z tili, madaniyati, san'ati, milliy hunarmandchiligi, urf-odat va an'anasiga ega bo'lgan millatlar markazlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, ularga amaliy va uslubiy ko'mak berish, har bir millatning o'ziga xos udumlarini asrash bag'rikenglik tamoyili asosida bir-birini tushunish, hamkorlik va hamjihatlik fazilatlarini singdirish kabi ustuvor vazifalarni bajarishda faollik ko'rsatmoqda.

2008-yilga kelib yurtimizda turli millat va ellatlarni birlashtirgan 140 dan ziyod milliy-madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Ulardan 13 tasi respublika miqyosidagi tashkilot maqomiga ega. Rus, ukrain, koreys, turkman, qozoq, uyg'ur, nemis, polyak markazlarining hududiy bo'linmalari ham ishlab turibdi. Ushbu markazlar uchun millat va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash g'oyasi asosiy dasturilamaldir.

2007-yil 20-yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazining 15 yilligi keng nishonlandi. Bu tadbirga alohida tayyorgarlik ko'rildi. 2006-yil davomida joylarda «O'zbekiston – umumiy uyimiz», «Kuchimiz – birlik va jipslikda», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir» kabi festivallar tashkil etildi. Ularda esa hur O'zbekistonimiz jamoli, do'stlik, birodarlik, hamjihatlik kabi ezgu fazilatlar yanada ulug'landi. Tadbirning asosiy qismi o'tkazilayotgan paytda mamlakat Prezidenti barcha millat va elat vakillariga tabrik xati yo'lladi. Unda jumladan shunday deyiladi:

Muhtaram vatandoshlar!

Aziz do'stlar!

O'zbekiston – bugungi kunda 130 dan ziyod millat va elat vakillari teng huquqlilik va o'zaro hamjihatlik sharoitida ahil-inoq yashab, mehnat qilayotgan ko'p millatli mamlakatdir.

Qadimiy diyorimizda asrlar davomida turli madaniyat va sivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgani, bu esa bag'rikenglik, tinchlikparvarlik, saxovat va mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan xalqimizning

o'ziga xos mentaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgani shabhasiz.

Bu nafaqat noyob o'ziga xoslik, balki ahamiyati va mohiyati jihatidan har birimiz uchun bebaho bo'lgan g'oyat katta boylikdir. Bir tomondan xalqlarning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash uchun, boshqa tomondan— tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarning o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va hurmat muhitini qaror toptirish uchun ochilayotgan imkoniyatlarning nechog'li yuksak ahamiyatga ega ekanini ham alohida ta'kidlashimiz joiz.

Insonlar orasidagi ana shu o'zaro hurmat muhiti, ular qaysi tilda so'zlashishidan qat'i nazar, O'zbekiston deb atalgan umumiy uyimizda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikning eng muhim asosi va garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bir qarashda oddiy tuyuladigan, ammo g'oyat teran va muhim bo'lgan bunday tushuncha va haqiqatlar to'g'risida gapirar ekanmiz, Siz, milliy madaniyat markazlari rahbarlari va faollarining xalqimiz farovonligi, osmonimiz musaffoligi, farzandlarimiz va nabiralarimiz kelajagi yo'lida qilayotgan tom ma'nodagi olijanob va fidokorona mehnatingiz uchun har qancha tahsin-tasannolar aytsak arziydi.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o'z faoliyati davomida mamlakatimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslar paydo bo'layotgan haqiqiy do'stlik uyiga aylandi.

Sizlarni Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 15 yilligi bilan chin yurakdan tabriklashga va barchangizga samimiy minnatdorlik tuyg'ularini izhor etishga ijozat bergaysizlar.

Sizlarga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, mamlakatimizning buguni va kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan faoliyatingizda yangidan-yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Islom Karimov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Shunday qilib, O'zbekistonda mamlakatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan keng miqyosli tadbirlar bugungi kunda respublikada hukm surayotgan ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning muhim omili bo'lmoqda.

3-§. Milliy xavfsizlikni ta'minlash

a) O'zbekiston: Milliy xavfsizlik — olam butunligi

Istiqlol yillarida mamlakatda davlat mustaqilligini mustahkamlash, uning hududida barqarorlikni ta'minlash asosiy vazifa sifatida hamisha mamlakat hukumatining diqqat-e'tiborida bo'ldi.

Shu davr mobaynida O'zbekistonda milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalari mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat hududiy yaxlitligini saqlash, davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy barqarorlikni ta'minlash tamoyillari o'rtaga tashlandi. Bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash yo'li tutildi. Milliy xavfsizlik masalasidagi davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi ilk bor mamlakat Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida Prezident I.Karimov tomonidan aniq va batafsil yoritib berildi. Unda jahonda yuz bergan yangi siyosiy-iqtisodiy voqelikdan so'ng, davlatlararo munosabatlar muxoliflikka emas, balki xalqaro huquqiy me'yorlarga mos yangi tartibotga asoslangan bo'lishi kerakligi to'g'risidagi g'oya ilgari surildi. Milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasini ishlab chiqish, uning huquqiy asosini belgilovchi qonunlar yaratish zarurligi ko'rsatib berildi.

Ana shu ko'rsatmalardan kelib chiqib mamlakatimizda ilk marta 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlisning beshinchi sessiyasida ma'qullangan to'rt bo'lim, yigirma sakkiz moddadan iborat bo'lgan «Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va ularni amalga oshirish prinsiplarini huquqiy normalarda belgilab beradigan, butunlay yangicha hujjat sifatida ko'rib chiqildi. 1997 yil avgust oyida Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi.

Xorij tajribasida milliy xavfsizlik deganda ko'proq davlat xavfsizligi tushuniladi. Bu borada ham O'zbekiston o'ziga xos yo'liga ega. Chunonchi, masalaga bunday yondashuv milliy xavfsizlik muammosining mohiyatini birmuncha toraytiradi. To'g'ri, milliy xavfsizlikda harbiy va davlat xavfsizligi masalalari asosiy o'rin tutadi. Biroq, milliy xavfsizlik deyilganda faqat ana shularning o'zigina tushunilmaydi. Mamlakatimizning hayotiy muhim manfaatlari loyihada belgilanganidek,

birinchidan, shaxsning huquqlari va erkinliklari;

ikkinchidan, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklari;

uchinchidan, davlatning Konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligidan iboratdir.

Tarixga nazar solsak, fuqarolari haq-huquqsiz, jamiyatining moddiy va ma'naviy boyliklari poymol qilingan, suvereniteti va o'z hududini qo'riqlay olmagan har qanday tuzum oxir-oqibatda inqirozga yuz tutgan.

Sobiq tuzum davrida milliy xavfsizlik haqidagi masalani o'rtaga qo'yishning o'zi aqlga sig'masdi. Chunki bunday sohani qonun bilan

tartibga solishdan davlat manfaatdor emas edi. Qonun esa demokratik prinsiplarga to'liq javob beradi hamda maqsadga erishish uchun har qanday vositadan hazar qilmaydigan eski totalitar aqidani qat'iyan rad etadi. Uning qator moddalarida ta'kidlanganidek, milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi har qanday faoliyat faqat Konstitutsiya, Qonun va xalqaro huquq normalariga asoslangan bo'lishi kerak.

«Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda o'ta murakkab va serqirra ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangandir.

Ma'lumki, XX asrning so'nggi yillari jahon taraqqiyotida burilish yasadi. Bu mavjud ikki siyosiy tuzum o'rtasidagi raqobatning yo'qolishi, yangicha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq. Jumladan, sobiq Ittifoqning tarqalishi jahon siyosatida shaklan va mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi. Mafkuraviy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan ikki qarama-qarshi blok ta'sirida shakllangan qurollanish poygasi, harbiy zo'ravonlik, milliy xavfsizlik tushunchalari butunlay o'zgara bordi.

Ko'pchilik xalqaro tashkilotlar ham ana shu ikki tuzum siyosati, ularning o'zaro raqobati avj olgan davrlarda vujudga kelgan va mazkur ijtimoiy siyosat jarayonlari qobig'idan chiqib ketolmayotgan edi. Ular o'z mavqeini saqlab turishga va ta'sirini o'tkazish o'rniga ko'proq, hech bo'lmaganda, ikki qarama-qarshi tomonning muvozanatini muvofiqlashtirib turishgagina qodir edi, xolos. Shuning uchun ham mazkur tashkilotlarning faoliyati birmuncha sust, yuzaki tartib-qoidalar doirasida qolib ketgan edi.

Shunday sharoitda xalqaro huquqiy me'yorlar va boshqa bir qator qonun-qoidalarni qaytadan ko'rib chiqish, yangicha qarashlar va yangicha tafakkur asosida umumjahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yo'nalishini butunlay yangi o'zanga burib yuborish lozim edi. Buni Prezident I.Karimov O'zbekiston rahbari sifatida his qila oldi va jahon siyosiy maydonida har tomonlama asoslangan xavfsizlik tamoyillarini o'rtaga tashladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining tarixan juda qisqa davrida jahon siyosatiga salmoqli ta'sir o'tkazdi. Jahon siyosati yo'nalishlarida uning o'ziga xos tamoyillari, yondashish usuli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini yo'naltirib turishdagi uslubi vujudga keldi. Buni qo'shni mamlakatlardagi vaziyat bilan qiyoslash asosida yaqqolroq ko'rish mumkin.

Birinchidan, 90-yillarning birinchi yarmida bir qator mustaqil davlatlarda siyosiy «o'yin»lar, turli darajadagi bahs-u munozaralar sun'iy ravishda avj oldirib yuborildi. Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish shiori ostida asosiy maqsaddan chekinish – mustaqillikni mustahkamlash, umumxalq va umumiy davlat manfaati yo'lida birlashib kurashish o'rniga tarqoqlikka yo'l ochib berildi. Bir qator mamlakatlarda esa hatto ichki

ziddiyatlar kuchayib ketdi. Turli guruhlarning jaholatga qorishgan xudbinliklari, manfaatparastligi umumiy mamlakat manfaatlaridan g'olib keldi. Natijada fuqarolar urushlari kelib chiqdiki, uning asoratlarini tugatish uchun yillar kerak bo'lardi.

O'zbekistonda esa aksincha, aql-idrokka, og'ir-vazminlikka va andishaga asoslangan sharqona demokratiya tartib-qoidalariga qat'iy amal qilindi. Xalq va mamlakat manfaatiga zid bo'lgan har qanday «o'yin»larga, tadbirbozlik va ortiqcha shov-shuvlarga qarshi turildi.

Ikkinchidan, bir qator yosh mustaqil mamlakatlarda iqtisodiy tanglikdan talvasaga tushish hollari yuz berdi. Ular natijada har qanday yo'l bilan bo'lmasin «qorin to'yg'azish» tashvishiga tushib, kundalik yumushlar girdobida qolib ketishdi. O'zbekistonda esa aholi umumiy ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, har tomonlama tub islohotlarga keng yo'l ochib berildi. Uzoqni ko'zlagan, hayot haqiqatiga tayangan dasturlar asosida ish olib borildi.

Uchinchidan, O'zbekiston turli mustaqil davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan manfaatdorligini nazarda tutib, yangicha sharoitlarda, yangicha shakl va mazmundagi hamkorlikni vujudga keltirish tashabbusi bilan chiqdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo Mamlakatlari Hamdo'stligi singari ko'p tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar asosida qurilgan tashkilotlar sifatida o'rtaga tashlandi.

Hayot O'zbekiston ishlab chiqqan xalqaro munosabatlar rivojlanish tamoyillarining asosli ekanligini ko'rsata boshladi. Jahon siyosatdonlari va jamoat arboblari ham uning yangicha qarashlariga yuksak baho bera boshladilar va o'z vaqtida qo'llab-quvvatladilar.

O'zbekiston rahbari I.Karimovning 1994-yil 23-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan nutqi bir jihatdan O'zbekiston imkoniyatlarini, uning ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot yo'llarini jahon miqyosiga olib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan jahon siyosati yo'nalishlariga, ijtimoiy siyosiy jarayonlar borishiga uning o'ziga xos yondashuvi, o'ziga xos baholash usuli va yo'naltirish uslubi mavjudligini ochiq-oydin ko'rsatdi. O'shanda O'zbekiston rahbari jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, urush va tinchlik muammolarini bartaraf etish, qurollanish poygasini tugatish masalalari haqida keskin gapirgan edi. Xalqaro tashkilotlarning maqomlari, ularning nufuzli va jahon muammolarini hal etishdagi roli xususida so'zlar ekan, u **«Ko'p hollarda nufuzli xalqaro tashkilotlar mojaroli vaziyatlarga, ifodali aytganda yong'in hidi endigina chiqayotgan paytda emas, balki batamom lovullab ketganda, bartaraf etish qiyin bo'lib qolgandan keyingina e'tibor bera boshlaydilar. Jahon hamjamiyati mojarolar kuchayishining oldini olish maqsadida ko'p hollardagi befarq**

kuzatuvchi rolidan faol tinchlikparvar nuqtayi nazariga o'ta borishi kerak», – deb qat'iy ta'kidlagan edi. O'shanda u nufuzli xalqaro tashkilotlarning faoliyatini tubdan o'zgartirish, ular tizimida va maqomida ham tub islohotlarni amalga oshirish kerakligini, endigi dunyo bamaylixotirlik kayfiyatini ko'tarmasligini, aksincha, u dadil harakatlarga boy tafakkur va aql-idrokka asoslangan qat'iy talablarga muhtoj ekanligini ko'rsatib bergan edi.

Tojikiston voqealari, Tojikiston va Afg'oniston munosabatlari, umuman Markaziy Osiyodagi ma'naviy-siyosiy vaziyatni g'oyat chuqur, har taraflama asosli tahlil etar ekan, ularning mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy muhitiga ta'siri haqida, mazkur mintaqaning jahon taraqqiyotida tutgan o'rni va xalqaro tashkilotlarning vazifalari haqida prinsipial fikrlar yuritdi.

O'shandan buyon oradan ma'lum muddat vaqt o'tdi. Mamlakat hayotida ham, jahon siyosatida ham birmuncha o'zgarishlar yuz berdi. Ana shu ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz berayotgan yangidan-yangi hodisalarga alohida e'tibor bilan qarashni taqozo etayotganligi sababli Prezident I. Karimov dunyo va Yer yuzi taqdiriga daxldor bo'lgan qator muammolar ustida doimiy va uzluksiz yangi fikrlarni ilgari suradi. Jumladan, u o'tmishdagi «sovuq urush» illatlariga barham berish, g'oyaviy kurashlarga chek qo'yish yo'li bilan tashqi siyosatni xalqlar va mamlakatlar ravnaqi asosida qayta shakllantirish zarurligi g'oyasini o'rtaga tashlaydi. Davlatlararo munosabatlar har tomonlama dunyo taraqqiyotiga va mamlakatlar fuqarolarining hayotiga daxldor bo'lishini uqtirib o'tdi. U Yer yuzi xavfsizligi bilan bir qatorda O'zbekistonda chinakam insonparvar siyosat tobora chuqurlashib borayotganini va u dunyo kengliklariga chiqib olayotganini yaqqol ko'rsatdi. Ayni paytda mamlakatimiz rahbari Markaziy Osiyo muammolari xususida to'xtalar ekan, Yer sharining ana shu mintaqasida yuz beradigan hodisalarning salbiy yo ijobiy jarayoni bevosita dunyo taraqqiyotiga, jahon xalqlari taqdiriga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir etishi mumkinligini nihoyatda kuchli siyosiy-falsafiy mantiq, jahon muammolarini o'rganishda o'ziga xos dunyoviy tafakkur, chuqur tahlil va undan kelib chiqadigan aniq-ravshan xulosalar bilan isbotlab bergan edi. Ko'tarilgan muammolar asosida Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkilotining doimiy seminarini tashkil etish hayot zarurati, jahon taraqqiyotiga daxldor bo'lgan ehtiyoj ekanligini ta'kidladi.

Qolaversa, O'zbekiston jug'rofiy-siyosiy jihatdan o'ta muhim nuqtada joylashgan. U bir qator mamlakatlararo va mintaqalararo aloqalarni eng maqbul shaklda birlashtirib turish uchun qulay imkoniyatga ega. Qadimdan mag'rib-u mashriq, shimol-u janub ana shu mamlakat orqali aloqada bo'lgani, o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va shu dunyo taraqqiyoti barqarorligini saqlab turish uchun muhim omil, tayanch nuqtasi ekanligini ko'rsatib berdi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, hozirgi dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burib turishda, insoniyat ravnaqi va hayotining daxlsizligini ta'minlashda, qolaversa butun Yer shari «muvozanati»ni saqlab turishda hozirgi O'zbekiston tutgan siyosiy mavqe jug'rofiy jihatidan katta strategik ahamiyatga ega.

Ayni paytda O'zbekiston dehqonchilik va sanoat ishlab chiqarishi, beqiyos yer osti va ustki boyliklari mavjud bo'lgan mo'jizaviy makon. Unda jahon taraqqiyotiga daxldor bo'lgan fan, madaniyat va boshqa aqliy imkoniyatlar ham mavjudki, bu bevosita uning dunyo sahnasiga chiqishiga keng yo'l ochib berdi va yangi dunyo uchun hayotbaxsh kuch bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston rahbarining o'rtaga tashlagan takliflari dunyo siyosatdonlari tomonidan ancha o'rganildi, tahlil etildi va ma'qullandi. Natijada 1995-yil 15–16-sentabr kunlari Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi bo'lib o'tdi.

Qator xalqaro tashkilotlarning mas'ul vakillari, o'nlab mamlakatlarning siyosat va jamoat arboblari ishtirok etgan bu kengashda Markaziy Osiyo muammolarini o'rganish dunyo taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida keng muhokama qilindi. O'zbekiston rahbarining kengashda so'zlagan nutqi bosh hujjat va keng qamrovli dastur sifatida baholandi. Notiq Toshkent uchrashuvlarining «Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik» shiori ostida o'tayotganligining o'ziga xos mazmuni borligini alohida sharhlab berdi. Jumladan:

– dunyo tinchligi yo'lida davlatlar o'rtasida o'zaro hurmat va qat'iy ishonch, mamlakatlarning Mustaqilligini so'zsiz tan olish;

– siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotning hamda islohotlarning samarali bo'lishining asosiy omili barqarorlik ekanligini e'tirof etish va uni to'la ta'minlashga intilish;

– umumxalq va umumjahon manfaatlaridan kelib chiqib, har tomonlama hamkorlikka tayanib ish tutish zarurligini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston rahbarining fikricha dunyo taraqqiyoti, olamning bus-butunligi, barcha xalqlarning tinchligi va xavfsizligi eng avvalo, mintaqaviy barqarorlikni vujudga keltirish va bir-birini bevosita to'g'ri anglashga bog'liq. Darhaqiqat, birinchi galda ma'naviy-ruhiy jihatlari, turmush tarzi va urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar o'zaro totuvlikni ta'minlasalargina, ular yashayotgan mintaqalarda xavfsizlik, barqarorlik bo'lishiga, shu asosda mintaqalararo va qit'alararo yakdillik vujudga kelishiga imkon yaratiladi. Ana shunday hayotiy haqiqatga tayangan O'zbekiston Prezidenti urush va tinchlik muammolariga, milliy ravnaq va Yer yuzi xavfsizligiga kengroq qarash, endi yaqin o'tmishimizdagidan farqli holda har qanday mafkuradan xoli, inson qalbiga yaqin bo'lgan tushunchalarni ilgari surib, «bir-birimizdan qochmaslikni tushunishga majbur ekanligimizni» alohida uqtirib o'tdi. Ana shu majburlik hissi,

majburiyat yuki har qanday davlat arbobining o'z mamlakati manfaatidan tortib mintaqaviy, qolaversa dunyoviy masalalarga ham jiddiyroq qarashni, bu masalalar oldida javobgar ekanligini g'oyat kuyinchaklik va mas'uliyat bilan ta'kidlaydi.

Prezident I.Karimov Markaziy Osiyo muammolari haqida gapirar ekan, «**Dunyo qariyb yuz yil davomida unutib qo'ygan jug'rofiy siyosiy makon bugungi kunda o'zining yangi sifatini ko'rsatmoqda va bu siyosiy sharoitda kutilmagan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ayni paytda bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini jalb etayotgan Markaziy Osiyo ularning tashqi siyosat yo'li strategiyasini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi unsur bo'lib qolmoqda**», – dedi.

Darhaqiqat Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, uning siyosiy-jug'rofiy o'rni, iqtisodiy va ma'naviy imkoniyatlari jahon hamjamiyatini istiqbolga yangicha munosabatlar bilan qarashga, dunyo ahlini o'ziga ham, olamga ham tiyrakroq nazar tashlashga majbur etmoqda. Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, «biz yashayotgan dunyo torgina emas, juda murakkab ekanligini idrok qilmasdan turib bu muammolarni hal qilish ancha qiyin». Bu bilan u endi biz yashayotgan olam xuddi hozirgacha o'ylaganimiz singari jo'n, oddiy emasligini, bu juda keng va rang-barang, nihoyatda murakkab va ziddiyatli dunyo haqida shunchaki fikr yuritib bo'lmasligini anglashga, har bir davlat arbobining kundalik tashvishi butun olam va odamlar tashvishi bilan bog'liqligini unutmaslikka chaqirmoqda.

Qariyb yuz yil maboynida bir xil tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida yashab, olam ahli, jumladan siyosatdonlar ham qariyb bir xil fikrlashga o'rganib qolishgan edi. G'arb-u Sharq o'rtasidagi dahanaki janglar, ikki qarama-qarshi siyosiy tizim va mintaqalararo zo'ravonlik jazavalari avj olgan yillarda dunyo taqdiri ham, Yer shari istiqboli ham, olam-u odamlar tashvishi ham ba'zan unutilganday edi. Ular nuqul qandaydir siyosiy nufuzlar, olamga egalik qilish da'volari, ma'naviy ustuvorlik dard-u o'ylari bilan yashashardi. Hayot esa odamlar turmushi, ularning kechinmalari hammavaqt, hamma narsadan baland ekanligini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston rahbarining jahon siyosatiga ta'siri, uning o'ziga xos novatorlik kuchi shundaki, quruqlikning qariyb ikkidan birini egallagan juda keng mintaqada – sobiq Ittifoq va Osiyo mamlakatlari rahbarlari o'rtasida g'oyat o'ktamlik va uddaburonlik bilan eskicha qarashlar qobig'ini sindirib tashladi. Olamga, hayotga, dunyoning murakkab va chigal jarayonlariga nihoyatda tiyrak nigoh bilan qaradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1995-yil 15-16-sentabrda Toshkentda o'tkazilgan seminar-kengashida qilgan nutqi ana shu qarashlar va yangicha tafakkurning mahsuli bo'ldi. 1997-yil sentabrda esa «Markaziy Osiyo – yadrosiz zona» nomli xalqaro konferensiya o'tkazildi.

O‘zbekiston rahbari har qanday mojarolar oldini olishning yagona yo‘li – donishmandlik, aql-idrok, masalalarga tiyraklik bilan qarash, chuqur mushohadakorlik, turli qarama-qarshi guruhlar va doiralarning bir stol atrofida to‘planib, hamjihatlikda fikrlashib olish hamda eng to‘g‘ri, eng oqilona va adolatli mulohazalarga mard bo‘lib yon berish zarurligini uqtirdi. Bu jahon taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ladigan va yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning sifat o‘zgarishiga olib keladigan voqelikdir. Chunki, uzoq yillar mobaynida shakllangan davlatlararo xudbinlik kayfiyatlari, zo‘ravonlik va tazyiqga asoslangan hukmronlik, do‘q-po‘pisa yo‘li bilan ayrim mamlakatlar ravnaqiga to‘sqinlik qilish ruhiyati hamon mavjud. Tamoyilga aylangan bunday nuqsonlarga barham berish, muzokaralarda faqat umumjahon manfaatlariga tayanish fazilatlarini kuchaytirmay bir narsaga erishib bo‘lmaydi. Ana shunday xulosalardan kelib chiqib Prezident I. Karimov quyidagi tamoyillarni o‘rtaga tashlaydi:

– nizolarni bartaraf qilishning bosqichma-bosqichligi;

– barcha manfaatdor tomonlarning muzokara jarayonida ishtirok etishi;

– tomonlarning bir-biriga yon berish va murosa yo‘li bilan bir-biri tomon yaqinlashuvi;

– bu jarayonda BMT, YXHT, IHT va boshqa xalqaro tashkilotlarning faol ishtirok etishi va homiylik qilish;

– har bir mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi;

– qay shaklda bo‘lmasin, tashqaridan ta’sir o‘tkazish va aralashuvga yo‘l qo‘ymasligi;

– mahalliy mojarolar zonalariga qurol yetkazib berishni qat’iyan taqiqlab qo‘yish.

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston rahbarining jahon hamjamiyati diqqatiga havola etayotgan bu tamoyillari xavfsiz dunyoga intilishning eng to‘g‘ri yo‘lidir. Ayni paytda, dunyo taqdiriga befarq qaraydigan, insoniyat tashvishidan qalbi jarohatlanmagan insonni topish qiyin. Zotan, yerning u burchidan otilgan o‘q sayyoramizning bu burchagida yashayotgan odam hayoti uchun xavfsiz ekanligiga hech kim kafolat bermaydi. Chunki, bu ikki shaxs o‘rtasidagi kelishmovchilik singari oddiy hodisa emas, balki davlatlararo, mintaqalararo zo‘ravonlik bo‘lib, Yer yuzining xohlagan nuqtasiga xavf solishi, mamlakatlarning siyosiy, huquqiy daxlsizligini, suvereniteti va to‘la Mustaqilligini inkor etishdan tortib, inson huquqlarini poymol etishi, uning yashash huquqidan mahrum etishi hech gap emas. Ayniqsa, bu tayoq va tosh bilan qilinadigan urushlar davrida emas, qit’alararo tezuchar ommaviy qirg‘in qurollari, inson zurriyoti va jamiki tiriklikka xavf-xatar soluvchi biologik yaroqlar asrida yashayotganimiz nazarda tutilsa, uning mazmun-mohiyati yana ham chuqurroq anglanadi, yorqinroq ko‘zga tashlanadi.

O'zbekiston rahbari tasavvuridagi xavfsiz dunyo umuman xavf-xatar holi bo'lgan, hech qanday shubha va qo'rquvga asos qolmagan tarzda yashash kabi eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun ham u xavfsizlik deganda yoki milliy xavfsizlik tushunchasini belgilayotganda faqatgina harbiy soha bilan chegaralanmay, uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va harbiy bo'lmagan boshqa jihatlarini ham anglashga da'vat etadi. Bu siyosiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini to'la-to'kis ta'minlashdan tortib, narkobiznes va terrorizm, mintaqaviy va umumjahon hamkorliklarning turli sohalarigacha bo'lgan rang-barang olamning rang-barang muammolariga kengroq qarashni talab etadi. Bularning barchasi xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Islom Konferensiyasi Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi singari nufuzli tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish, ularning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish zarurat ekanligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston rahbarining mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga bo'lgani kabi xalqaro siyosat va milliy xavfsizlik masalasiga ham o'ziga xos yondashuvi bor. Jumladan u:

– davlat siyosatini har bir oila, har bir shaxs tinchligidan tortib butun mamlakat, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni g'oyat insonparvarlik va butun Yer shari tinchligigacha barcha-barchasini yaxlit, bir butun holda his qiladi. Eng insonparvar siyosatni eng tinchliksevar siyosat bilan uyg'un holda tushunadi va ana shu mushtarak tushunchalarning tantanasi uchun kurashadi;

– jahon siyosatining eng ilg'or tajribalarini o'z vaqtida o'rganadi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini to'g'ri kuzatadi, to'g'ri tushunadi, to'g'ri baholaydi. Ularni tahlil etishda adashmaydi. Shuning uchun dunyo siyosatchilari uni e'tibor bilan tinglashadi, har bir taklifning yangiligiga va o'ziga xosligiga qiziqish bilan qarashadi hamda yuksak baholashadi;

– vaqt o'tgani sari odamlar ruhiyati yangilana boradi. Bunday ma'naviy-ruhiy o'zgarishlar bevosita jahon siyosatini ham yangicha mazmun bilan boyitadi. Bu tabiiy hodisa. Ana shu holatlarni o'z vaqtida anglab, zamonaviy mulohaza yuritish asosida davlat boshqaruvi va jahon siyosati yo'nalishlarini isloh qila borish, ularni yangi o'zanga burish, yangicha shakl va mazmun bilan boyitish fazilati siyosatchi uchun noyob iste'doddir. Prezident Islom Karimov esa o'zining ana shu xislatlari bilan jahon siyosatdonlari orasida yuksak mavqega ega bo'lmoqda.

Darhaqiqat, XXI asr har bir davlat rahbaridan faqat o'z mamlakati va xalqi doirasidagina emas balki tor «mahalliy» doiralardan keng dunyoviy maydonga chiqishni, mamlakatning kundalik tashvishlariga o'ralashib qolmaslik olam minbarlaridan turib dunyo kengliklariga nazar tashlashni va shu asosda dunyoviy muammolar hamda xalqaro masalalarni hal etishning umuminsoniy va Yer kurrasining istiqboliga daxldor bo'lgan

keng miqyosli fikrlash tarzini taqozo etadi. Bularning bari yangi dunyoning va yangi yuz yillikning jahon siyosatiga olib kirayotgan g'oyat insonparvar, hayotiy va ezgulikka tayangan, dunyo siyosatining yangi madaniyat darajasini belgilaydigan omillardan biri.

Prezident Islom Karimov dunyoviy jarayonlarni doimiy ravishda kuzatadi. Olis istiqbolga katta umid va ishonch bilan qaraydi. Ayni paytda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini, ularning kelib chiqish manbalarini ancha oldindan kuzatadi va ularning natijalarini, salbiy yo ijobiy xulosalarini ko'plardan oldinroq ilg'aydi, oldinroq qarorga keladi. Bularning bari uning keng qamrovli tafakkur egasi ekanligini, voqealarga donishmandlik bilan yondashishini yaqqolroq ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston rahbari I.Karimovning 1996-yil 2-3-dekabr kunlari Lissabonda YXHTga a'zo davlatlar boshliqlari uchrashuvida ko'targan dolzarb masalalari jahonda yangi xavfsizlik modelini yaratishga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi.

I. Karimov ushbu uchrashuvda faqat Yevropadagina emas, balki butun dunyoda vaziyat va kuchlar nisbatining tez o'zgarayotgani yangi mustaqil davlatlarning maydonga chiqayotgani, hozirgi davrda xalqlar va davlatlar barqarorligini ta'minlash XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikning yangi modelini ishlab chiqish uchun yangi yondashuvlarni izlashni qat'iyan taqozo qilayotganligini alohida ta'kidladi.

Xavfsizlik masalasida O'zbekistonning munosabatini bildirib I.Karimov **«O'zbekiston YXHTning asosiy tomoyillaridan biri bo'lgan xavfsizlik yaxlitligini to'la qo'llab-quvvatlaydi.**

Xavfsizlikning, shu jumladan Yevropa Xavfsizligining chegarasi yo'q. Shunga asoslanadigan bo'lsak, bizning nazarimizda YXHTning o'rni va ahamiyati agar joiz bo'lsa mas'uliyati, Yevropa doirasi bilan chegaralanib qolmasligi kerak, balki, uning tashqarisidan kelayotgan mavjud xavfni ham hisobga olishi lozim.

Bu Markaziy Osiyo mintaqasining jug'rofiy strategik hollarini, uning salohiyatini ulkan xomashyo va insoniy resurslarini, shuningdek, tez rivojlanadigan bu mintaqada sodir bo'layotgan xavfsizlik uchun xavf-xatarni hisobga olgan holda YXHT bu yerda o'z faoliyatini yanada kuchaytirish tarafdorimiz», – degan edi.

1995-yil 1-mayda Prezident Islom Karimov «O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik kengashi to'g'risida» Farmon qabul qildi. Ushbu Farmonga ko'ra, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasining qarorlariga muvofiq milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish lozim, deb topildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida milliy xavfsizlik kengashi, xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari bo'yicha maslahat organi tashkil etildi.

Shubhasiz, yuqoridagilar O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlash va barqarorlikni saqlab turishning ishonchli omili bo'lib xizmat qildi.

Ayniqsa, O'zbekistonda bugungi kunda milliy xavfsizlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlanishi mamlakatda Prezident I. Karimov tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatning natijasi, deb bilmoq kerak.

SSSR nomi bilan bog'liq bo'lgan «sovuq urush» siyosati barbod bo'lgach, insoniyat hayotiga tahdid soladigan, uni tanazzulga olib boradigan, olamshumul taraqqiyot yo'lini bo'g'adigan yangi omillar vujudga kelishi mumkinligini, bu tabiiy ekanligini, inson tafakkuri va uning fe'l-atvoridan kelib chiqadigan mantiqiy hodisaligini birinchi bo'lib O'zbekiston rahbari Islom Karimov aytgan edi va uni dunyo minbaridan turib o'rtaga tashlagan edi. O'sha paytlarda kimlardir bu g'oyalarga ishonmadi, kimlardir shunchaki yo'l-yo'lakay aytilgan gap sifatida qabul qildi. Biroq, hayot haqiqati achchiq va shafqatsiz, vaqt berahm hakam. U bor haqiqatni ko'rsatdi-qo'ydi!

O'zbekiston rahbarining BMT, EXHT va boshqa bir necha o'nlab tashkilotlar minbarlaridan turib, shuningdek, davlat tashriflari cho-g'idagi uchrashuvlar va suhbatlarda mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorizm xavfi xususida bildirgan butunlay yangi g'oyalari keyinroq, ya'ni 1997-yili yaxlit strategik konsepsiya — «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolatlari va barqarorlik shartlari» nomli asar sifatida dunyoga keldi. Jahon jamoatchiligi e'tirofini qozongan ushbu kitob jahon siyosatida favqulodda yangilik sifatida qabul qilindi va dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etildi.

Prezident Islom Karimov ushbu asarida Yer yuzidan «sovuq urush» vasvasasi yo'qoldi, biroq endi mamlakatlararo, mintaqaviy nizolar, ma'lum bir hududlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar butun dunyo taqdirini belgilaydigan ulkan xavfga aylanishi mumkin, degan tashvishni bildirgan edi. Afg'oniston voqealari va Tojikistondagi xunrezliklar misolida gapirib, bunday salbiy hodisalar Yer sharining turli mintaqasida turli shakllarda va turli maqsadlarda yuz berishi mumkinligini, bular qanday shaklda va maqsadlar yo'lida vujudga kelmasin inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga tajovuz ekanligini, u bilan mutlaqo murosa qilib bo'lmasligini ko'rsatib o'tgan edi.

Darhaqiqat, Afg'onistonda urush boshlangan kunlari tug'ilgan chaqaloq bugun navqiron yigit, ota yoki otsiz bo'lib voyaga yetdi. Uning ko'rgani o'lik, qon, jarohat va yovuzlik bo'ldi. Jajji qo'llari o'lik ushlab, tetapoya oyoqlari bilch-bilch qon bosib o'sdi. Maktab ko'rmadi, ma'rifat nima bilmadi, kitob o'qimadi, qalam ushlamadi! Ushlagani o'q-dori,

qurol-yaroq, o'ylagani yovuzlik bo'ldi! Hayotda bundan battar jaholat bormi? Jaholatning mezonlari, o'lchovlari, miqyoslari, chegaralari bormi? Kim uni ko'rsata va belgilay oladi? Agar butun millat farzandlari yillar mobaynida shu alpozda tug'ilsa-yu shu alpozda tarbiyalansa millat taqdiri, uning istiqboli qanday bo'ladi? Kim bunga javob bera oladi? Tarix oldida, millat oldida, o'tmish ajdodlari va kelgusi avlod oldida, umuman kelajak oldida kim o'zini ko'rsata biladi va qanday javob bera oladi? Prezident Islom Karimovning yuqoridagi gaplarida xuddi ana shunday achchiq va hayotiy haqiqat yotadi.

Ana shu xulosalardan kelib chiqib, O'zbekiston rahbari bundan bir necha yil oldin **«bu o'rinda hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan bir haqiqat – keskin muammolar, shu jumladan, tevarak-atrofimizdagi mavjud muammolar ham inkor etilmasligi lozim. Aks holda bu mojarolar tanglikka olib kelishi, boshqarib bo'lmaydigan tanglik esa rivojlanish yo'lida uchragan barcha narsalarni vayron qiladigan, davlat chegaralarini va o'zga siyosiy, iqtisodiy, etnik va boshqa voqeliklarni tan olmaydigan falokatga aylanib ketishi mumkinligini yodga olish o'rinli bo'ladi»**, degan edi.

O'zbekiston davlati milliy xavfsizlik siyosatining hayotiyligi shundaki, ayni ana shu mojarolar ichki ziddiyatlar tufayli vujudga kelgan kelishmovchiliklar, o'zaro nizolar zaminida rivojlanib, shakllanganini va ular orqali xalqro terrorizmning urchishiga sharoit yaratilishini bugungi voqealar misolida o'z ko'zimiz bilan yaqqol ko'rib turibmiz.

Darhaqiqat, yovuzlik va qonxo'rlikning millati yo'q. U har qanday suverenitet, mustaqillik, davlat chegaralari, hududiy yaxlitlik degan eng oliy qadriyatlarni inkor qiladi. O'zining yashashi uchun qulay imkoniyat qidiradi. Natijada bir mamlakat hududida yuzaga kelgan o'zaro nizolar tashqaridan turib unga homiylik qiladigan kuchlar ta'sirida tez rivojlanib, nisbatan bo'shroq devorni qulatib, keyingi hududga bostirib kiradi. Begunoh odamlarni qAQSHatadi. Ana shu hayotiy mantiqdan kelib chiqib Prezident Islom Karimov **«Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa, har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida shundan aniq dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar»**, – degan edi.

Prezident Islom Karimov butunlay yangi tarixiy sharoitda faoliyat yuritayotgan yangi tipdagi siyosiy arbob sifatida uzoq yillar mobaynida shakllangan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida qolgan safdoshlari va zamondoshlarini bir muddat hushyorlikka tortdi. Ularni yangicha tafakkur bilan yashashga, bugungi jarayonlarning istiqboldagi mahsulini tushunishga, shuningdek, ular olib keladigan mash'umliklarni ham anglashga da'vat etdi.

Jumladan, uning ayni xalqaro terrorizmning vujudga kelishi, shakllanish jarayonlari va oqibatlari xususida chuqur ilmiy va nazariy xulosalari, siyosiy jihatdan o'ziga xos yondashish usuli bor. Bu – donolik va zukkolikning, ko'p yillik hayotiy va amaliy faoliyatning, mavjud vaziyatni to'g'ri va teran tahlil qila olish salohiyatining uyg'unligidan kelib chiqqan qarashlardir.

Ayni paytda I.Karimov g'oyalari nafaqat mustaqil, balki yangi davrning yangi mahsuli, mantiqiy tafakkur tarzining yorqin timsoli sifatida vujudga keldi. Jumladan, buni terrorizm va islom, islomning siyosiylashuvi, islom niqobidagi nayranglar xususidagi xulosalarida yaqqol ko'ramiz:

«So'nggi yillarda voqealar fojiali tus olganligining yana bir sababi shundaki, afg'on mojarolariga ma'lum etnik nizolardan tashqari yana diniy tus ham berildi. Islomning keskin siyosiylashuv jarayoni sodir bo'lmoqda. U o'ta radikal tus oldi – hokimiyat teppasiga chiqishga da'vogarlik qilish va barcha dindoshlarni madadga chaqirgan holda bunga qurolli yo'l bilan erishishga ochiqdan-ochiq urinish yuz bermoqda. Dinimizning insonparvarlik g'oyalari va asoslariga hech bir aloqasi bo'lmagan ana shu jarayon tog'li Badaxshondan tortib to Kaspiygcha bo'lgan juda katta hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mintaqadagi davlatlarda afg'on ssenariysini o'z xalqlariga zo'rlab qabul qildirishga tayyor turgan ekstremistik kayfiyatdagi unsurlar topilib qoldi. Afg'oniston voqealari esa fojiali oqibatlarga olib kelganligiga hali biz ham baho beramiz, kelgusi avlodlarimiz ham baho beradi». To'g'risi bugun sof vijdonli tinchliksevar xalqlar afg'on voqealarini, xususan uni o'z hududlariga – kindik qoni to'kilgan muborak Vatanlariga majburan, zo'ravonlik bilan «eksport» qilayotganlarni keskin qoralamoqdalar. Kelgusi avlodning bahosi esa bugungidan ham battarroq, bugungidan ham achchiqroq va, hatto, ayanchliroq bo'ladi. Bunday bahoni tarix sahifasidan o'chirib ham, o'zgartirib ham bo'lmaydi.

Prezident Islom Karimov mintaqaviy mojarolar xususida va terrorizmning rivojlanishiga imkon beradigan omillar haqida gapirar ekan, yana bir muhim holatga alohida to'xtaladi va uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan nihoyatda katta potensial xavf-xatar, deb ataydi. Mojarolarning, kelishmovchiliklarning va ziddiyatlarning kelib chiqish omili sifatida chegaralar orqali bo'lib yuborilgan xalqlar taqdiriga tahdid solish, ularning o'zaro munosabatlariga putur yetkazish, azaldan qondosh-jondosh, bir millat vakili bo'lib kelgan, qarindosh-urug' bo'lib ketgan aholini chegaralar tufayli bir-biriga qarshi qo'yish hollari ham mavjudligini uqtirib o'tadi.

Darhaqiqat, bugun Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Afg'oniston hududida yashayotgan o'zbeklar va ayni O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 ga yaqin millat va elatdan iborat

bo'lgan aholi tarkibidagi qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, tojiklar o'rtasida nizo keltirib chiqarish, ularni bir-biriga qarshi qo'yish butun mintaqani jarga qulatishdan iborat bo'lgan mudhish hodisadir. Ayni ma'lum bir mamlakat, ma'lum bir mintaqa xalqlari o'rtasidagi nizolar hamisha faqat uninggina fojiasi bo'lib qolmasligi, u ayni paytda butun insoniyat fojiasi, Yer shari taqdiri bilan bog'liq bo'lgan halokat ekanligini anglashga da'vat etadi. Istalgan bir mamlakatda yoinki hududda qurolli to'qnashuvlar, qon to'kishlar yuz bersa, avj olsa naqadar mudhish oqibatlarga olib kelishini Prezident Islom Karimov shunday ifodalaydi: **«qurolli majoro keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga yopirilib kirishga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi. Odatda, bu oqimda chegara orqali non va boshpana topishnigina emas, balki odamlarning qalbiga yangi g'ulg'ula solishni istaydiganlar ham kirib keladi»**.

Bu muammoning ikki juda muhim tomoni bor. **Birinchidan**, Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, o'zaro nizolar, mojarolar, to'qnashuvlar va qurolli qirg'inlardan azob chekkan va natijada o'z uyini, boshpanasini, qadrdon go'shasini tashlab ketishga majbur bo'lgan jabrdiyda qochoqlar bilan birga badniyat, odamlarni junbishga keltiradigan, o'z xatti-harakati, gap-so'zlari, g'ayriinsoniy mafkurasi bilan muqim va tinch yashayotgan aholini sarosimaga soladigan, ularga tahdid qiladigan odamlar ham chegaradan o'tib, kirib keladilar. Bu tinch va barqaror hayot kechirayotgan boshqa bir mamlakatda hayot izmini o'zgartirish tahlikani kuchaytirish va shu yo'l bilan taraqqiyotga g'ov bo'lishga olib keladi.

Ikkinchidan kutilmaganda mamlakat hududiga kirib kelgan och va yupun odamlar taqdiriga befarq qarab bo'lmaydi. Natijada tinch aholining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy hayotiga zarar keltiradigan omillar vujudga keladi. Bu eng avvalo iqtisod bilan, moddiy ne'matlar bilan bog'liq bo'lgan, qochoqlarni kundalik oziq-ovqat bilan ta'minlash, yashash sharoitini yaratish, turli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida ularning sanitariya holatini nazorat qilish va tibbiy xizmat ko'rsatish muammolarini keltirib chiqardi. Bunday holat ayni endigina taraqqiyot yo'liga chiqib olayotgan mamlakatlarda mavjud tabiiy qiyinchiliklar ustiga juda katta kutilmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Afg'oniston va Tojikistondagi mojarolarning bunday uzoqqa cho'zilib ketayotganini, muammolarning chigallashib, tobora jiddiy tus olib borayotganini ayni ana shu mamlakatlar aholisi dastlab unchalik ham baholay olmadilar. Buning ustiga ayni ana shu mamlakatlardagi mavjud vaziyat orqali nafaqat ularda, umuman Yer yuzida, boshqa mintaqalarda ham yangidan-yangi muammolar vujudga kelgan, jinoiy unsurlar ko'paygan edi. Jumladan, narkotik moddalar bilan shug'ullanish, xalqaro terrorizm va qurol-yaroq kontrabandasi jiddiy tarzda avj ola boshladi. Bu

nafaqat ayni ana shu ikki mamlakatning, balki butun dunyo xalqlarining hayotiga tahdiddir. Zotan, Prezident I. Karimov iborasi bilan aytganda, dunyodagi mavjud narkotik moddalarning 75 foizi faqat Afg'onistonda yetishtirilayotganligi, uning 90 foizi Yevropaga tarqatilayotganligining o'zi ayanchli emasmi? Sharq-u G'arb munosabatlarini, Mag'rib-u Mashriq o'rtasidagi juda katta madaniy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kuchaytirish o'rniga insoniyat zotiga qiron keltiruvchi zahri qotilni umumjahon bozorining noyob mahsulotiga aylantirish va shu yo'l bilan jahon xalqlarini tanazzulga keltirishdan dahshatliroq narsa yo'q.

O'zbekiston rahbari bu muammoni umumjahon taqdiriga daxldor masala sifatida ko'taradi.

6+2 guruhining uchrashuvi

1999-yil, 19-20-iyul kunlari Toshkentda Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha «6+2» guruhining navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu guruhga Afg'oniston bilan chegaradosh olti davlat – Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O'zbekiston, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbarligida tashkil etilgan mazkur anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

Afg'onistondagi bugungi vaziyat ayni vaqtda nafaqat mazkur mamlakatning, balki unga qo'shni davlatlarning, qolaversa, butun xalqaro jamoatchilikning muammosiga aylangan. Negaki, bugun bu tuproqda davom etayotgan urush balosi bilan birga, narkotik moddalar va qurol-yaroq kontrabandasi, diniy ekstremizm va fanatizm, terrorchilik xavfi mintaqadagi barcha davlatlarga, binobarin yalpi xavfsizlikka jiddiy tahdid solayapti. «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi mazkur mojaroni tinch yo'l bilan hal etish choralarini topishga xizmat qiladi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha o'sha paytdagi maxsus vakili L.Braximi BMT O'zbekistonning ushbu mojaroni hal etish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholashini ta'kidladi. U BMTning o'sha paytdagi Bosh kotibi Kofi Annanning «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvini qo'llab-quvvatlab, Prezident Islom Karimov nomiga yo'llagan maktubini o'qib eshittirdi.

Ta'kidlash kerakki, «6+2» guruhining tashkil topishi, uning uchrashuvlarini muntazam tashkil etish o'z-o'zidan bo'layotgan ish emas. U nihoyatda mashaqqatli va og'ir mehnat mahsulidir. Xususan, bu jarayonda O'zbekiston hukumatining salmoqli hissasi bor. Negaki, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi mamlakatimiz, qolaversa, butun mintaqa xavfsizligini ta'minlash uchun sharoit yaratadi. Xavfsizlik va barqarorlik esa taraqqiyotning eng muhim shartidir.

Shu boisdan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida so'zlagan nutqida Afg'oniston muammosiga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratib, bu masalaning nechog'li jiddiy ekanini alohida ta'kidlagan edi. BMT Bosh Assambleyasining 1995-yilda bo'lib o'tgan 50-sessiyasida esa davlatimiz rahbari Afg'oniston muammosini bartaraf etish borasida qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Xususan, bu davlatga qurol-yaroq kiritishni qat'iy taqiqlash zarurligini alohida qayd etdi.

Shuningdek. Islom Karimov boshqa ko'plab xalqaro anjumanlarda, turli davlatlar rahbarlari bilan muzokaralarda mintaqa xavfsizligini mustahkamlash, buning uchun eng avvalo, Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan bartaraf etish zarurligini takrorlashdan charchamaydi.

Zero, Afg'onistondagi urush nafaqat bizga yoinki mintaqamizga, balki xalqaro xavfsizlikka, hatto insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirayotgani sir emas. Ya'ni, bugun mazkur muammo faqatgina qurolli harakatlar bilangina bog'liq emas, balki bu tuproqda ulkan miqdorda narkotik moddalar va qurol-yaroq kontrabandasi avj olayotgani, terrorchilik va diniy ekstremizm unsurlari urchib borayotgani ham jahon ahlini haqli ravishda tashvishga solayotgani tabiiy.

1997-yili O'zbekiston Prezidenti Afg'onistonga chegaradosh olti mamlakat va AQSH hamda Rossiya ishtirokida muloqot guruhi tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Oradan ko'p o'tmay, bu tashabbus hayotda o'z in'ikosini topdi. «6+2» guruhi tashkil etildi. Uning birinchi uchrashuvi 1997-yil 16-oktabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan edi.

Toshkent anjumanida ishtirokchilar Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etish chora-tadbirlari xususida o'z fikr-mulohazalarini bayon qildilar. Afg'onistonning ichki muammolarini bartaraf etishda tashqi kuchlarning aralashuviga chek qo'yish, o'zaro nifoqdagi tomonlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muzokaralarni boshlash zarurligi ta'kidlandi.

Anjuman nihoyasida «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.

Uchrashuv yakunida mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani bo'ldi. Unda L.Braximi «6+2» guruhi uchrashuvining bevosita Afg'oniston joylashgan mintaqa — O'zbekistonda o'tayotgani muhim ahamiyat kasb etajagini ta'kidladi. Yana bir e'tiborga molik tomoni shundaki, Toshkent uchrashuvida Afg'onistondagi ikki asosiy guruh «Tolibon» harakati hamda Afg'oniston Birlashgan fronti vakillari ilk bor bir stol atrofiga yig'ildi Shuningdek, qabul qilingan Toshkent Deklaratsiyasi Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yo'lidagi zalvorli qadam bo'lganini qayd etdi. BMT Bosh kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili mazkur Deklaratsiya uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqilgan va o'zida Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatishning asosiy tamoyillarini jamlash bilan birga,

endilikda «6+2» guruhi a'zolarining nuqtayi nazari va qarashlarini umumlashtiradigan muhim hujjat sifatida ham amal qilishini aytdi.

Darhaqiqat, Toshkent Deklaratsiyasining qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. U «6+2» guruhiga a'zo davlatlar hamda Afg'onistonda nizolashayotgan tomonlar uchun tinchlikka eltuvchi xarita vazifasini bajarishga qaratilgan. Matbuot anjumanida ta'kidlandiki, Deklaratsiya so'nggi manzil emas. U «Tolibon» bilan Birlashgan front o'rtasida, shuningdek, ular bilan «6+2» guruhi a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yilishiga va Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayoni izchil davom etishiga umid uyg'otdi.

Terrorizm – insoniyat hayotiga tahdid

1999-yilning 16-fevral kuni Toshkent shahrining bir necha joyida kuchli portlashlar yuz berdi. Natijada begunoh odamlar halok bo'ldilar. Yuzlab odamlar turli darajadagi og'ir tan jarohatlarini oldi. Bir qancha ma'muriy va turarjoy binolari jiddiy zarar ko'rdi. Terrorchilar bu xatti-harakatlari bilan butun mamlakat aholisining qahr-u g'azabini uyg'otdi.

Terrorizm harakatlari insoniyat tarixida yangilik emas. Qo'poruvchilik hollari turli davrlarda, turli mintaqalarda xilma-xil shaklda sodir bo'lib kelgan mudhish hodisa. U hammavaqt insoniyat hayotiga tahlika va tahdid solib, turli g'arazli maqsadlarning, g'oyalar va xohish-irodalarning timsoli sifatida yashaydi.

Terrorizm – insoniyat dushmani, taraqqiyot va yuksalish kushandasi.

Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzu-umidlari va g'ayriinsoniy xatti-harakatlarining majmuasidir. Ayni paytda u ana shu maqsadlarning amalga oshishi uchun har qanday xunrezliklardan, qotilliklar va zulmdan qaytmaydi.

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati bevosita zo'ravonlik, inson hayotiga tahdid va uning huquqlarini poymol etish bilan bog'liq bo'lgan, butun mamlakatni xonavayron qilishga olib keladigan, xalq, millat va mamlakat taqdirini butunlay boshqa o'zanga burib yuborib, o'z maqsadi va g'oyalarining ro'yobi uchun hech narsadan tap tortmaslikdir. Ayni paytda u har qanday fikrlash, aql-idrok doirasida ish yuritishdan xoli bo'lgan shafqatsizlik, ashaddiy xunxo'rlik, jazava va tazyiq bilan yovuz niyatini amalga oshiradigan bir to'da olomon faoliyatidir.

Terrorizm turli mamlakatlarda turli shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi, urchiydi, ko'payadi va yashaydi. Ma'lum bir mamlakat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, aniqrog'i ehtiyojlari, turmush tarzi bevosita ana shunday jarayonlarning shaklini, qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda evolutsiyasini belgilaydi.

O‘zbekistonda yuz bergan terrorchilik harakati ayni xalqimiz turmushi, an’analari, urf-odatlari va aqidalarini o‘zida mujassam etgan, uning eng nozik his-tuyg‘ularini hisobga olgan holda yuzaga keldi. Darhaqiqat, xalqni qo‘zg‘atish va ularga o‘z ta’sirlarini o‘tkazish uchun xuddi ana shu nozik va ta’sirchan omillardan Islom omilidan ustomonlik bilan foydalandilar va bu tendensiya hozir ham davom etmoqda.

Zotan, Islom dini o‘zbek xalqi ma’naviy, ma’rifiy va ruhiy olamiga katta ta’sir o‘tkazgan, xalqimiz turmush tarzidan juda chuqur o‘rin olgan katta ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Haqiqatan ham Islom dini yuksak madaniyat va axloqiy mezonlarni o‘zida mujassam etgan qudratli mafkura, ilohiy ta’limot sifatida hayotimizdan, qalbimizdan, ongimiz va shuurimizdan alohida o‘rin egallagan. Terrorchilar millat hissiyoti, tuyg‘ulari va ehtirorslari bilan bog‘liq bo‘lgan ana shu omildan ayyorlik bilan foydalandilar.

Islom niqobi ostida amalga oshirilgan qo‘poruvchilik harakatlari bir guruh aqidaparastlarning qonuniy hokimiyatni ag‘darib tashlash va shu yo‘l bilan davlat tepasiga chiqib olish singari maqsadlari tufayli yuz berdi. 1999-yil 16-fevral kuni sodir bo‘lgan qonli fojialarning butun mazmuni va mohiyati ana shundan iborat.

Fevral voqealari bugunning mahsuli emas. U yillar mobaynida maddalab, yiringlab, oxir-oqibatda millat va mamlakat jism-u jonini azobga soladigan, so‘ng esa butunlay halokatga keltiradigan ashaddiy yovuzlikdir.

Mustaqillik arafasida, aniqrog‘i 1980-yillarning ikkinchi yarmida sobiq Ittifoq hududida, jumladan, O‘zbekistonda ham vujudga kelgan demokratiya o‘yinlari natijasi bo‘lmish bu illat yillar o‘tgan sari faoliyat doirasini, shaklini, ta’sir etish yo‘llarini o‘zgartirib turdi. Biroq, mazmun-mohiyati o‘sha-o‘shaligicha qolaverdi – qon to‘kish, zo‘ravonlik yo‘li bilan hokimiyat tepasiga chiqib olish! O‘zlarining qabih niyatlariga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan, chirkin va jirkanch maqsadlari yo‘lida millionlab begunoh odamlar yostig‘ini quritishdan toymaydigan, fikrlashdan uzoq bo‘lgan kishilar guruhi ayni ana shunday yo‘l tutadi.

Hayotda o‘zining qat’iy pozitsiyasiga, mustaqil fikriga ega bo‘lmagan, voqelikka aql-idrok bilan emas, balki hissiyot bilan yondashadigan odamlar havoyi da’vatlarga tez uchadilar. Terrorchilik harakati tashkilotchilari aholining xuddi ana shunday irodasi bo‘sh, iymoni sust, dunyoqarashi cheklangan, fe’l-atvori shakllanmagan qatlami ichiga kirib olishdi. Ularning zaif jihatlaridan ustomonlik bilan foydalanishdi.

Mamlakat Prezidenti fevral voqealariga daxldor bo‘lgan terrorchilik guruhi ta’siriga uchgan, bilib-bilmay ko‘r-ko‘rona ularga ergashganlarni yurt va millat otasi sifatida gunohlaridan kechishi haqida bayonot berganidan keyin sodir bo‘lgan voqealar diqqatga sazovor.

Darhaqiqat, bir necha yuzlab yoshlar o'z ota-onalari bilan tanlagan yo'llarining noto'g'ri ekanligini anglab yetdilar. Kimlarningdir tazyig'i va ta'siri bilan g'ayriislomiy – g'ayriinsoniy yo'lga kirib qolganliklaridan pushaymon bo'lib, uzr so'ramoqdalar. Ana shu fojiaviy holatning o'zi diniy aqidaparastlik nima ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Farg'ona vodiysida, xususan, Andijon viloyatida payt poylab yurgan aqidaparast, ekstremistik guruhlar o'zlarining uzoq vaqtdan beri pinhona tayyorlab kelgan rejalarini 2005-yil 13-may kuni amalga oshirishga urindi. Ular Qirg'izistondagi kabi O'zbekistonda ham mahalliy va markaziy hokimiyat zaiflik qiladi, degan xomxayolga borgan edi. Jangarilar ongi zaharlangan yoshlarni o'zlariga ergashtirib, ma'muriy binolarni egallash yo'li bilan o'z qabih maqsadiga erishishni rejalashtirgan edi. Andijonda xalq saylagan konstitutsiyaviy hokimiyatni ag'darishni, bu yerda musulmon xalifaligi tuzishni mo'ljallagan edi.

Ayrim davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasiga demokratiyani majburan o'rnatishga urinishidan uchinchi kuch foydalanib qolishi mumkin. Bu kuch – islom dinini niqob qilib olgan yovuz niyatli radikal oqimlardir.

Oldindan puxta tayyorgarlik ko'rgan qurollangan jangarilar yarim tunda shahardagi post-patrul xizmati batalyoni hududiga bostirib kirib, to'rt nafar navbatchini otib tashlaydi. O'nlab avtomat, granata, ikkita qo'l pulemyoti va boshqa qurol-yarog'ni qo'lga kiritgan bosqinchilar tunda Mudofaa vazirligining harbiy qismiga borib navbatchini otib tashlab, qo'shimcha qurol-aslahani qo'lga kiritadi. Qamoqxona darvozasini buzib kiradi, qurol bilan qo'rqitish orqali hibsxonalardan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuboradi.

Bosqinchilar tinch aholiga tegishli yengil mashinalarni egallab oladi, qurollardan o'q otgan holda viloyat hokimligi, Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi va viloyat ichki ishlar boshqarmasi binolariga hujum uyushtiradi. Ular viloyat hokimligi binosini egallaydi.

Jangarilar har bir harakatini ayollar, bolalar, qariyalar va boshqa garovga olingan kishilar panasida turib amalga oshiradi.

Mamlakatimiz Prezidenti shu kuni erta tongdayoq Andijonga yetib bordi. Shahar va viloyat jamoatchiligi vakillari, mahalla oqsoqollari bilan uchrashdi. Ular bilan maslahatlashgan holda vaziyatni izga solish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgiladi.

Mamlakatimiz, xalqimiz istiqlolning ilk kunlarida belgilab olgan oliy maslagimiz – huquqiy demokratik davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil boraveradi. Jamiyatni demokratlashtirish hamda yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish – bosh maqsadimizdir. Erkin, demokratik fuqarolik jamiyati talablariga to'liq javob beradigan yuksak taraqqiyotga erishish yo'lidan bizni hech kim, hech qachon qaytara olmaydi.

Islomni soxtalashtirish oqibatlari

Prezident I.Karimov mustaqillikning ilk kunlaridayoq xavfsizligimizga tahdid soluvchi omillar xususida gapirar ekan, diniy ekstremizm va terrorizm haqida takror va takror gapirdi. Xalqaro tashkilotlar minbaridan turib, uning dunyoviy fojia, taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuchli omil ekanligini bir necha marta ta'kidladi. Jumladan, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoti kafolatlari» nomli kitobida muammoning ilmiy-nazariy yechimini bayon etdi.

Prezident Islom Karimov XX asr muammolari, odamlar dunyoqarashidagi jiddiy o'zgarishlar va uning oqibatlari xususida fikr yuritar ekan, o'tgan yuz yillik oxirida «Islom uyg'onish», «Qayta islomlashish», «Islom fenomeni», «Islom omili» singari bir qator iboralarning paydo bo'lish sabablarini izlaydi va diqqatimizni uning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligiga jalb etadi.

Yuqoridagi tushunchalar o'z-o'zidan dunyoga kelgan emas va ular – dunyoning katta bir qismini egallab olgan islom dini, uning taraqqiyoti, istiqboli va jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni va rolining tobora kengayib borayotgani natijasida kelib chiqqan, deyish mumkin. Prezident bu jarayonlar insoniyat taqdiri, Yer shari istiqboli va taraqqiyoti uchun ma'lum bir tahdid va tahlikadan ham xoli emasligiga, unga hushyorroq boqishga, tiyrakroq nazar bilan qarashga da'vat etadi. Chunki hammavaqt sof islomiy nazariya, uning falsafasi va shariati, insoniyatni komillikka da'vat etuvchi buyuk ta'limoti bilan birga, uni soxtalashtiruvchilar, undan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanuvchilar ham yo'q emasligini, ayni ana shu salbiy hodisalar jamiyat taraqqiyotida kutilmagan fojialarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Undan tashvishga tushmoqda va bizni ham hushyorlikka chaqirmoqda. Ana shu hayotiy haqiqat va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi islom omilini hisobga olib Islom Karimov: **«Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho'chitayapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to'planib qolgan. O'zbekistonning mustqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtayi nazaridan qaraganda bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda»**, – deydi.

Prezident I.Karimov tasavvuridagi diniy taraqqiyot har qanday fanatizmdan xoli, inson taqdiri va olam bus-butunligi bilan bog'liq bo'lgan, mamlakat ichki muammolariga ham, dunyoviy masalalarga ham ilohiy quvvat, beqiyos aql-idrok va sog'lom fikr bilan yondashishni taqozo etadigan, bunyodkorlik va yaratuvchilikka da'vat etadigan ulkan falsafadir. Zotan, xuddi shunday yondashuv, ana shunday dunyoqarash,

dinni shunday anglash va unga e'tiqod qo'yish ulug' bobokalonimiz Bahouddin NAQSHband ta'limotining mag'zi bo'lgan «Dil ba yoru – dast ba kor» degan ta'limotiga mos tushadi. Ayni shu haqiqat – insonning beqiyos iqtidorini, uning keng imkoniyatlarini tobora rivojlantiradigan, takomillashtiradigan, o'zining kelajagini yaratishga chorlaydigan nihoyatda oddiy va ayni paytda mo'jizaviy da'vat, ilohiy qudratdir.

Jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarish, uning rivojlanishiga to'g'anoq bo'lish aslini olganda unchalik ham qiyin ish emas. Buning uchun fanatizm tayanchi bo'lgan xomxayollarga ozgina erk berish, his-hayajonlarni junbishga keltirishning o'zi kifoya. Soxta aqidaparstlik hayot haqiqatini tan olmaslikka, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yuzaki baholashga yo'l ochib beradi. Natijada odamlar fikrlash, aql-idrok bilan ish tutish o'rniga ortiqcha his-hayajonga beriladilar. Ehtiroslardan junbishga kelib, turli da'vatlaru shiorlar bilan maydonga chiqadilar. Bunga fevral voqealari, undan keyingi – **1999–2005**-yillardagi terrorchilik harakatlari yaqqol misol bo'la oladi va hammavaqt aqidaparastlikning yakuni jaholatning tantanasi, adolatning halokati bilan yakunlanishini isbot etdi.

Albatta, terrorchilar o'zlarining qabih niyatlariga yeta olmadilar. Biroq, bizning achchiq qismatimiz yana bir bor hayot haqiqatini isbotladi: **fanatizm – fikr va tafakkur kushandasi, jaholat va xiyonat homiysi** ekanligini ko'rsatdi.

Prezident Islom Karimov dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli, diniy fanatizm va ekstremizmning fojiali oqibatlari xususida fikr yuritar ekan, o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida aqidaparastlik illatining O'zbekiston Mustaqilligiga tahdid soluvchi yettita omilini ko'rsatib beradi. Jumladan:

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali musulmonlarning davlatning islohotchilik faoliyatiga ishonchini barbod qilish, mamlakat va xalq taqdirini belgilaydigan barqarorlikni, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi xatti-harakati ko'zga tashlanayotganini ko'rsatadi. Fanatizm va ekstremizm dunyoviy davlatchilik tamoyillarini tan olmaydi. Haqiqiy demokratiyani, uning siyosiy va ma'naviy ahamiyatini inkor etadi. Ko'pmillatli va ko'pdinli jamiyatda ma'naviy xudbinlik orqali o'z mavqeyini ko'tarishga intiladi, boshqa dinlarni kamsitish va inkor qilish yo'li bilan xalq hayotini jar yoqasiga olib boradi.

Ikkinchidan, «Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim», deydi Prezident I.Karimov. Darhaqiqat, bu hayqiriq va baqiriqlar yuzaki qaraganda odamlarni o'ziga jalb etadi, kundalik mayda kamchiliklarni dunyoviy tashvishga aylantirib, ularning qalbida hayotga nisbatan

norozilikni kuchaytiradi, ruhiyatida parokandalik va parishonlik, oxir-oqibatda esa tarkidunyochilik kayfiyatini uyg'otadi. Insonning yaratuvchilik qudrati, mehnat qilish va yashash iqtidori susayadi. Xonanishin kayfiyat qurshovida qoladi.

Qolaversa, allaqanday hayqiriqlar va shiorlar girdobiga tushib qolgan kishi o'zini ruhan erkin his qila olmaydi. Shaxs erkinligi, uning yashash erki va butun fikriy-ma'naviy ozodligi ko'zga ko'rinmas tor chegaralar doirasida biqinib qoladi. Natijada o'sha qobiqdan chiqolmaydi, bu keng va rang-barang olamni diqqinafas xonadangina iborat deb biladi, o'sha qobiq ichida yashaydigan va fikrlaydigan bo'lib qoladi. Hurfikrlilik, ozod yashash, ozod fikrlash jozibasidan mahrum bo'ladi. Natijada o'zi anglamagan holda kimlargadir mute bo'lib qoladi. Tobelik uni butunlay o'rab-chirmab oladi. Taraqqiyot ana shu yo'l bilan to'xtatiladi. Harakatsiz, tushkun va mo'rt hayot shakllanib boradi.

Uchinchidan, aqidaparastlik haqiqiy dindorlar va soxta dindorlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Natijada bir mamlakat aholisi o'rtasida g'oyaviy nizolar, bir-biri bilan kelisha olmaslik illatlari paydo bo'ladi. Bu illatlar ozgina his-hayajon bilan boyitilsa, qonli to'qnashuvlarga aylanib ketishi hech gap emas. Bunday salbiy hodisalarni yon-atrofimizdagi musulmon mamlakatlarda yuz berayotgan voqealar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

To'rtinchidan, Islom Karimov yaqin qo'shni musulmon davlatlarda yuz berayotgan hodisalar bizni hushyorlikka chaqirishi kerakligini uqtiradi. Darhaqiqat, voqealar o'z hayotimizga, o'z taqdirimizga va kelajagimizga jiddiyroq qarashimizni taqozo etmoqda. Biz har qanday soxta shiorlar, balandparvoz da'vatlardan ko'ra ko'proq aql-idrokka, tom ma'nodagi islom tafakkuriga tayanib ish tutishimiz lozim. Hech bo'lmaganda, «Biz insonni mukarram qilib yaratdik» degan ilohiy da'vatga munosib va yarashiq xatti-harakatimizni ko'rsatmog'imiz darkor. Prezident tasavvuridagi O'zbekiston istiqboli faqat aql-idrok tantanasi, sog'lom fikr va sog'lom tafakkur g'alabasidir. Zotan, faqat ana shu holatdagina insonning Mukarramligi, uning mavjudod sifatida olam Sarvari ekanligi har jihatdan e'tirof etiladi. Barcha ehtiyojlari qondiriladi.

Beshinchidan, mamlakatimiz barqarorligiga tahdid solayotgan omillardan yana biri nomusulmon mamlakatlar aholisining fikrini chalg'itish yo'li bilan O'zbekiston haqidagi tasavvurlarni va unga munosabatlarni o'zgartirish, deb hisoblaydi Islom Karimov. Buni Prezident O'zbekiston hukumatining dunyoviy davlat qurish yo'lidagi islohchilik faoliyatini soxtalashtirishda, jahonning eng sog'lom fikrli siyosatdonlari, yirik davlat va jamoat arboblari tan olayotgan hamda jahon davlatchiligi tajribasini butunlay yangi fikrlar bilan boyitib borayotgan «O'zbek modeli»ni soxtalashtirishga, obro'sizlantirishga intilishlarda ko'radi. Mamlakatimizning bugungi yutuqlaridan g'ashi

kelayotgan bunday «siyosatdonlar» – ig'vogarlar O'zbekistonni ba'zan dahriylar mamlakati qilib ko'rsatishsa, ba'zan «davlatni islomlashtirishning yashirincha tarafdorlari», deb ta'rif berishmoqda.

Oltinchidan, eng muhim tahdid rivojlanish yo'liga chiqib olayotgan O'zbekiston uchun ikki olam – islomiy sivilizatsiya va islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishdan iborat. Bu ziddiyat tabiiy ravishda inson ruhiyati va uning olamga, insoniyat istiqboliga munosabatidan tortib, jahon taraqqiyotini belgilab turgan dunyoviy siyosatning ikki muhim qutbidir. Zotan, ana shu har ikki qutb umuminsoniy qadriyatlar, Yer shari taqdiri va jahon sivilizatsiyasi manfatlari nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqinlashsa, bir-biriga ko'maklashsa, insonning qaysi din va mazhabga mansubligidan qat'i nazar, uning «mukarram»ligi ta'minlangan, hayoti, yashash huquqi kafolatlangan bo'ladi.

Bunday hodisa O'zbekiston singari yosh mustaqil mamlakatlar uchun o'zining strategik maqsadlarini belgilab olishida muhim bosqich hisoblanadi. Darhaqiqat, bu bosqich o'n beshta diniy konfessiya uyushmalari faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Yettinchidan, xavfsizlikka tahdid O'zbekiston hukumatining dunyoviy taraqqiyot, tub islohotlar, jamiyatni butunlay yangilash va diniy e'tiqod hamda fundamentalizmga bo'lgan munosabatini soxtalashtirishdan iboratdir. Bu dunyoning turli mintaqalaridan turib to'g'ridan-to'g'ri O'zbekistonga g'oyaviy xuruj qilish, uning dunyodagi ko'pdan-ko'p sheriklari ishonchini barbod etish, shu yo'l bilan O'zbekiston milliy taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lish orzu-istagida dunyoga kelgan.

Prezident Islom Karimov dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va roli xususida batafsil to'xtalar ekan, u fundamentalizm illatlarini o'ziga xos tarzda tahlil etadi va, aytish mumkinki, hozirgacha hech qaysi minbarda aytilmagan, dunyo siyosiy olamida tilga olinmagan, butunlay yangi xulosalarni o'rtaga tashlaydi. Yangi dunyoning butunlay yangi illatlarini, uni fojialarga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni chuqur idrok etadi va asosli qilib ifodalaydi.

Yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan, ruhiy va ma'naviy dunyoqarashi, turmush tarzi va aqidalari xilma-xil bo'lgan O'zbekistonda tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, insonligi uchun ulug'lash kabi g'oyat insonparvar siyosatni qaror toptirish muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rib turibmiz. Zero, Prezident Islom Karimov «**...biz demokratik yangilanish pallasiga kirar ekanmiz, ruhiy poklanishni ham unutmaylik, taraqqiyotimizga g'ov bo'ladigan ma'naviy riyokorlikdan tezroq qutulaylik» yoki «buni bizning fuqarolarimiz, yoshlarimiz esda tutishlari va qadrlashlari lozim. Mamlakatimiz ichida ham, jahon hamjamiyati**

oldida ham o'z mas'uliyatlarini tushunishlari va unutmasliklari zarur», deganda, jahon andozalarida kamdan-kam uchraydigan mamlakat aholisi turli tabaqasini umuminsoniy qadriyatlar asosida jipslashtirish, shu asosda yuksak ma'naviy-ma'rifiy jamiyatni shakllantirish tamoyillarini o'rtaga tashlaydi. Ayni paytda u «o'ta nozik» masalaga o'ziga xos, hech kimga o'xshamagan holda yondashadi va o'zining ham o'ta nozik siyosati, har qanday chigal muammolarni hal etishda noyob mahoratini ko'rsata bildi.

Diniy aqidaparstlik jamiyat hayoti va odamlar taqdiri uchun hamma vaqt tahlikali, unga tahdid solib turadigan ashaddiy yovuzlikdir. Terrorizm ana shu yovuzlikning tarixda abadiy ravishda tavqi la'natga mahkum etilgan ko'rinishidir.

Aslini olganda O'zbekistonday o'tmishi insoniyat tarixi, kishilik hayoti ibtidosi bilan bog'liq bo'lgan makonda, o'zbeklarday yuksak madaniyat va noyob ma'naviyatga vorislik qiladigan xalq hayotida bunday fojiali hodisaning yuz berishi mumkin emas. Chunki, mavjud tarixiy haqiqatni tan olishimiz kerak. Islom dini Arabistonda taqvo va ibodat shaklida dunyoga kelgan. Islom ta'limotining dastlabki g'oyalari va umuman uning butun aqoidlarini o'zida mujassam etgan muqaddas g'oyalari majmuasi «Qur'on» u yerda nozil bo'lgan.

Biroq, O'zbekistonda – Movarounnahrda **Islom tom ma'nodagi fan, falsafa, ilm, nazariya va tafakkur mahsuli sifatida dunyoga keldi**. Ayni ana shu zaminda tug'ilgan Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abduholiq G'ijduvoniy, Burxoniddin Marg'inoniy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy va boshqalar kabi o'nlab daholar borki, ular **Islom dinini oddiy, kundalik taqvo va ibodatdan tom ma'nodagi ta'limot, eng yuksak ma'naviy-ma'rifiy mafkura, sof insonparvar g'oya darajasiga olib chiqdilar**. Insoniyat taraqqiyotini butunlay o'zgartirib yuborgan, jahon sivilizatsiyasiga g'oyatda kuchli ta'sir o'tkazgan Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, ulug' sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa bobokalonlarimiz dunyo taraqqiyotini tabiiy fanlar, falsafa, mantiq va adabiyot bilan birga Islom nazariyasi va ta'limoti bilan mushtarak holda tushundilar va rivojlantirdilar. Davr, tarixiy sharoit shunday ediki, ayni ana shu omillarning biri kam bo'lgan taqdirda buyuk ixtirolar, olam-u odamlar taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan kashfiyotlar dunyoga kelmagan bo'lur edi.

Masalaning, yana bir nozik jihati bor: xuddi ana shu biz yuqorida nomlarini tilga olgan ulug' daholarning barchasi islom dinini ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan qanchalik rivojlantirgan, e'zozlagan, uning nazariyasi va falsafasini boyitgan bo'lsalar, o'z davriga xos diniy fanatizm va aqidaparastlikdan ham shunchalik ko'p jabr ko'rganlar. Ayrimlari, hatto, xurofot va jaholat qurboni bo'ldilar.

Demak, jaholat, johillik yashovchan ekan. Biz buni inkor eta olmaymiz. Hayot haqiqati shunday. Demak, biz xavf-xatardan butunlay xoli, tinch va osuda yashashga qanchalik intilsak, hayotimizning har daqiqasida aql-idrok yo'rig'i bilan yo'l tutib o'zimizni, o'zimiz orqali farzandlarimizni, oilamizni, oxir-oqibatda butun jamiyatimizni asramog'imiz darkor. Biz uchun bundan boshqa yo'l yo'q.

1999-yil avgust oyining oxirlarida bir guruh jangarilar Tojikiston orqali Qirg'izistonning Botken tumaniga kirib keldilar. Ular qariyb uch oy mobaynida tumanning besh qishlog'ini bosib oldilar. Tinch yashayotgan ming-minglab odamlar hayotiga tajovuz qildilar. Ularning mol-mulkini, oziq-ovqatlarini tortib oldilar. Bir qirg'iz generali, to'rt yapon fuqarosi va boshqa bir necha kishilar garovga olindi.

Turli millat vakillari va bir necha mamlakat fuqarosidan iborat jangarilar xalqaro terrorizmning yangi qiyofasini ko'rsatdilar. Bezorilar Qirg'iziston hududidan chiqib ketgan paytlari Moskvada nashr etiladigan «Время-МН» gazetasi muxbiri O'zbekiston Prezidenti I. Karimovga savol bilan murojaat etdi.

O'zbekiston rahbarining «Время-МН» gazetasida chop etilgan intervyusi bugungi dunyo mojarolariga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga, xususan, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga bo'lgan munosabatlarga juda katta aniqlik kiritdi.

Aytish mumkinki, mazkur suhbat XXI asr tafakkur tarzini, uning yo'nalishlarini, miqyosini belgilab berdi. Jahon siyosatining strategiyasi, uning falsafasi, mantiqi, hayot haqiqati nimalardan iboratligini aniq-ravshan ko'rsatdi.

Albatta, insoniyat shajarasi abadiy. Hayot esa cheksiz, chegarasizdir. Uning kutilmaganda yangidan-yangi, bir-biriga o'xshamagan muammolari paydo bo'laveradiki, ularni o'z vaqtida ilg'ab olish, anglab, to'g'ri tushunish va eng maqbul shakldagi yechimini topish alohida zukkolikni taqozo etadi. XX asr illati sifatida dunyoga kelgan, tobora madda boylab, jazavaga tushayotgan xalqaro terrorizmga keskin zarba berish, tag-tomiri bilan sug'urib tashlash alohida zukkolikni, alohida shijoatni, ayni paytda haqiqat bilan yuzma-yuz turish jasoratini talab qiladi.

Aslini olganda insoniyat va hayot kushandasi bo'lmish xalqaro terrorizmga munosabat bildirayotgan siyosat va davlat arboblari oz emas. Biroq, ular o'z chiqishlarida bo'lib o'tgan voqealarni shunchaki sharhlashdan, shunchaki ommaga ko'rinish berib qo'yish tamoyilidan nariga o'tishmayapti. Ularning aksariyatida masalaning tub mohiyatini ochishga, unga keskin zarba berishga yo siyosiy iroda yetishmayapti yoki shaxsiy shijoat yetarli emas. Yo bo'lmasa, «uni o'ylaydigan boshqalar ham bordir, nega aynan men boshimni qotirishim kerak» qabilida ish yuritishyapti. Dunyo hayotiga tahdid solayotgan, insoniyat taqdiri, Yer shari istiqboli bilan bog'liq bo'lgan umumjahon muammosini zimmasiga

olib, unga qarshi kurashadiganlar esa oz. Kamdan-kam davlat arboblarigina o'z halovatidan kechib dunyoviy mojarolarni o'z yuragidan o'tkazmoqda, unga munosabat bildirmoqda.

O'zbekiston rahbari mamlakat mustaqilligiga asos solar ekan, terrorizm va ekstremizm, mintaqalararo mojarolar yangi dunyoning «sovuq urush»dan xoli dunyoning og'ir jarohati ekanligini ko'rsatib berdi va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida yangi xavf, yangi tahdid urchib borayotganini alohida ta'kidladi. Dunyo siyosati oqimini o'zgartirish, uni yangi mazmun bilan boyitish zarurati tug'ilganini isbotladi.

O'zbekiston rahbari mintaqada va Yer yuzining turli hududlarida yuz berayotgan terrorchilik harakatlari, din niqobi ostida amalga oshirilayotgan qonxo'rliklar va zo'ravonliklar oqibatlariga o'ta jiddiy qaraydi. Prezident I.Karimov voqealarga o'z vaqtida munosib baho berdi. Ularni butun ko'lami va miqyosi bilan idrok etadi. Natijada, masalaning tub ildizini ochib beradi. Xalqaro terrorizmning insoniyat hayotiga tahdidi, fojialari va jahon tarqqiyotiga butkul to'siq bo'ladigan omillari xususida gapirar ekan, «**Meni hududni bosib olish maqsadida amalga oshirilayotgan tashqi qurolli tajovuz xavfi emas, balki miyasi zaharlangan yoshlarni o'zlari o'sib ulg'aygan shahar va qishloqlarni portlatishga o'rgatadigan platsdarm va bazalarni bunyod etishni maqsad qilib olgan diniy ekstremizm ekspansiyasi xavotirga solmoqda**», deydi Islom Karimov.

O'zbekiston rahbari bu fikri bilan birinchidan, hududni bosib olishga intilayotgan tashqi tajovuzlar ibtidoiy hodisa, aql-idrokdan xoli bo'lgan zo'ravonlik deb aytdi va u ayni yovvoyi olomon xuruji sifatida qo'rqinchli emasligini ta'kidladi. Ayni ana shu qurolli tajovuzga qarshi tura biladigan, uni yenga oladigan qudratga egaligini ko'rsatadi. Bu eng avvalo, O'zbekiston davlatining siyosiy irodasidan, ma'naviy qudratidan va qolaversa, harbiy imkoniyat darajasidan dalolat beradi.

Islom Karimov tafakkurining nechog'li insonparvarligi, masalaga yondashish usulining yuksak darajadagi ma'naviyligi va Shaxs sifatidagi qat'iyati shundaki, u voqea-hodisalarning aynan o'zidan tahlikaga tushmaydi. Balki ularning xilma-xil shakllari paydo bo'layotgani, rivojlanayotgani, mazmun-mohiyati oqibati iztirobga soladi. Bu masalaning ikkinchi tomoni. Ya'ni har qanday tashqi tajovuzlar emas, balki, miyasi zaharlangan yoshlarning o'zi tug'ilib o'sgan uyi, xonadoni, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuprog'i, Ona-Vatani, mo'tabar ostonasiga bolta urishi, uni barbod etishi, portlatib yuborishi, kunpayakun qilishi. Bu manqurtlik o'z ajdodlariga, qavm-qarindoshlariga, volidai muhtaramasiga, padari buzrukvoriga qo'l ko'tarishdek bedavolikning urchib ketayotganligi bilan izohlanadi va uni ana shu umuminsoniy tanazzul hodisasi tashvishga soladi.

Dunyoda shunday davlatlar borki, ular o'z hududiga kimlar kirib, nimalar bilan shug'ullanib, qanday chiqib ketayotganiga e'tibor ham

berishmaydi. Bu yo ana shunday erkinlik va demokratiya niqobi ostidagi xalqaro o'yinlarga berilish, ularga ko'r-ko'rona xizmat qilish, jiddiy va qat'iyat bilan qarash mas'uliyatidan qochish yo bo'lmasa qandaydir manfaatdorlik natijasi, deyish mumkin. Aks holda Pokiston ayni ana shunday bedavolar uyasiga, ularning tajriba «maktab»lari joylashgan maydonga aylanarmidi? Qirg'iziston voqealari, xalqaro terrorizmning tajovuzkorligi xususida gazeta muxbiriga gapirar ekan, Prezident Islom Karimov **«Nima bo'layotganini eshiting: suveren davlat hududiga olti yuz yoki ming kishidan iborat qurollangan to'da kirmoqda... Axir har bir davlatning o'z qadr-g'urur tuyg'usi bo'lishi kerak, uning har bir fuqarosida esa xavfsizligi sirtdan himoyalanganligiga ishonch tuyg'usi bo'lishi kerak»** – deydi.

Jangarilar Qirg'iziston hududiga kirgach, go'yoki ular O'zbekistonga o'tish uchun faqat «yo'lak» so'rashgan emish. Balki shundaydir. Lekin masalaning mantiqsizligi shundaki, qanday qilib qonxo'r, jallod, manfur kimsalarga o'z uyingdan joy berasan? Eshigingdan kiritib, qornini to'yg'izib, ustini but qilib, cho'ntagiga pul solib, teshikdan chiqarib yuborish mumkin? Bu qo'ynida ilonni olib yurish bilan barobar emasmi? Ana shu mantiqdan kelib chiqib, sodir etilgan voqealarni Prezident Islom Karimov shunday izohlaydi: **«O'zbekiston bilan Qirg'izistonni gijgijlatishga qaratilgan urinishlar deb bilaman va ularni tamoman inkor etaman. Agar bu haqiqat bo'lganda edi, bo'lmasa nima uchun jangarilar Qirg'izlarni talon-taroj va qatl etishni boshladilar?»**.

Pokiston–Afg'oniston–Tojikiston–Qirg'iziston hududini egallab olgan qonxo'rlik «o'yin»lari va ana shu mamlakatlarning o'zi ham ayni xalqaro terrorizmning uzviy, bir-biriga bog'langan zanjir halqalari ekanligi bugun hech kimga sir emas. Agar ular qaysidir darajadagi moddiy, ma'naviy, harbiy sohadagi «hotamtoy» homiylarga suyanmasa, terrorizm bu qadar tez rivojlanmagan, bu qadar tez urchib ketmagan va xalqaro maqomga ega bo'lmagan bo'lardi. Agar ana shu bog'liqlik bo'lmaganida edi, ularning o'zaro munosabatlarida, faoliyatlarida hamkorlik bo'lmaganida edi, ular bunchalik emin-erkin harakat qilishmagan bo'lardilar.

Jangarilar Qirg'istonga bostirib kirgan paytlari, ularning aksariyati o'zbek millatiga mansub emish, degan mish-mishlarni ham tarqatishdi. Go'yoki, bunday terrorchilik harakati o'zbeklarning o'zining ishi va ularga daxldor bo'lgan fojia emish. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ular tarkibida tojiklar, chechenlar, afg'onlar, arablar, qirg'izlar va hatto ruslar ham bor ekan. To'g'ri, Islom dini panasida turib, o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilayotgan «musulmon»lar orasida 5–10 ta o'zbek ham bo'lishi mumkin. Biroq, o'zbek millatiga mansub bo'lgan aholi Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston hududlarida ham yasha-

moqda-ku! Nima uchun biz bitta yo ikkita o'zbek millatiga mansub jangarini ushlab olib, uni butun o'zbek xalqiga va O'zbekistonga nisbat berishimiz kerak? Shuning o'zi g'oyaviy qo'poruvchilik, uydirma emasmi?!

XX asrning o'rtalarida dunyoga juda katta talofat keltirgan va insoniyat hayotiga xavf-xatar solgan fashizmni esga olaylik. Gitler va uning gumashtalari g'oyasiga ko'r-ko'rona yondashgan, uning manfaatlariga xizmat qilgan millionlab buyuk nemis millatiga mansub bo'lgan kishilar bor edi. Biroq, hech kim hech qachon fashizmni buyuk nemis millatiga dog' sifatida nisbat bermaydi-ku? Nega endi, Botken fojialarini tashkil etgan va amalga oshirganlar orasida qayerda tug'ilgani va yashayotganidan qat'i nazar, qaysi mamlakat fuqarosi bo'lganini inobatga olmay o'zbeklar va O'zbekiston boshiga mag'zavalar quyishi kerak ekan?

O'zbekiston davlatining qudrati, uning yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi borasidagi siyosiy yo'li ana shunday qat'iy! Zotan, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi orasida o'zining barqaror rivojlanish yo'liga chiqib olganligi, jahon siyosiy maydonida o'z so'zi va o'z fikri bilan alohida mavqega ega bo'layotganligi, dunyo voqealariga qat'iyat va nihoyatda aniqlik bilan yondashayotganligi bois juda katta nufuzga ega bo'lmoqda. Ana shularning hammasining tagida juda katta e'tiqod, tanlab olingan yo'lga sobitlik fazilatlari yotadi. Xalq ishiga, Vatan osoyishtaligiga qaratilgan siyosat yuksak e'tiqod darajasiga ko'tarilgan taqdirdagina u har qanday tahdidga tahdid sola biladigan, har qanday tajovuzni yenga oladigan, uni barbod qilishga qodir bo'lgan mo'jizaga aylanadi.

1999-yilning 18-19-noyabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Anjumanda asosiy muhokama qilingan masala Yevropada Xavfsizlik Xartiyasi bo'ldi. Xartiya nafaqat tashkilotga a'zo bo'lgan 54 mamlakatning, balki butun dunyoning kelgusi asrdagi xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim hujjatdir. Ushbu anjumanda birinchi bo'lib O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga so'z berildi. O'zbekiston rahbari mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ko'targan muammolar, ilgari surgan g'oyalar naqadar real ekanligini vaqt yaqqol ko'rsatib berdi.

Prezident Islom Karimov xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar xususida gapirar ekan, **«Bugungi kunda xalqaro maydonda «sovuq urush» ko'rinishlari o'rnini bir-biri bilan birlashib tobora keng ko'lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy milliy davlatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganini isbotlab o'tirishning hojati yo'q»**, dedi. Darhaqiqat, bundan sakkiz-o'n yil muqaddam O'zbekiston rahbari turli-tuman xalqaro tashkilotlar, BMT, YXHT va boshqa nufuzli idoralarning oliy minbarlaridan turib mazkur muammoni jiddiy tarzda ko'targan edi.

O'zbekiston davlatining strategik qarashlari – bu avval boshdanoq mintaqaviy mojarolarning oldini olish, qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmaslik, turli mamlakatlarda yashayotgan turli millatga mansub xalqlarning bir maromdagi turmushiga tahdid qilmaslik siyosatidir. Ayni ana shu siyosat vaqt o'tgani sari rivojlanib, takomillashib, tobora kamolotga yetib boryapti va uning tom ma'nodagi haqiqat ekanligini keyingi yillar voqealari aniq va ravshan ko'rsatib berdi.

Istanbul sammitida so'zlagan nutqida Prezident Islom Karimov **«Bugungi kunda biz radikal kayfiyatdagi markazlarning diniy ekstremizm va terrorizmni tarqatishga qaratilgan uzoqni ko'zlovchi rejalariga, mintaqa davlatlarini o'zlari tanlagan demokratik, huquqiy va dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinishi hollariga duch kelmoqdamiz. Buni – Tojikistondagi voqealar, yaqinda Toshkentda yuz bergan portlashlar, bosqinchilar guruhlarining mustaqil Qirg'iziston janubiga surbetlarcha bostirib kirishi hamda barchaga ma'lum boshqa faktlar isbotlab turibdi.**

Bunday rejaning amalga oshirilishi uchun Afg'oniston asosiy maydon vazifasini o'tamoqda. 20 yildan buyon fuqarolar urushi davom etayotgan bu mamlakat turli toifadagi xalqaro terroristlar va aqidaparastlar boshpana topib, tayyorgarlik ko'rayotgan sinov lageriga, asosan narkotik moddalar yetishtirish va sotishdan olingan daromad hisobiga kun ko'radigan mamlakatga aylanib qoldi», degan muammoni ko'tardi.

O'zbekiston hukumati pozitsiyasi, voqea-hodisalarga yondashish usuli va siyosiy taktikasi xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etishida, jumladan, Afg'oniston va Tojikiston mojarolari, ularga homiylik qilayotgan kuchlar faoliyatiga baho berishda, ularni aniqlashda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Istanbul sammitida Xavfsizlik Xartiyasi loyihasi muhokama qilinar ekan, O'zbekiston rahbari bu loyihani yanada to'ldirish, yangi bandlar va g'oyalar bilan boyitish taklifini kiritdi. Ya'ni, «YXHT mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishda yanada faolroq bo'lishi lozim. Bu o'rinda YXHT mas'uliyati ostidagi mintaqalarda barqarorlik va tinchlikni izdan chiqarishga qodir bo'lgan tashqi tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish masalasiga alohida e'tibor berish zarur», dedi. Ushbu taklifning o'zida YXHTning xalqaro tashkilot sifatidagi nufuzini oshirish, uning bevosita mojarolar chigallashib borgan joydagi ta'sirini kuchaytirish va shunchaki kuzatuvchilik holatidan jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, mamlakatlararo va mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashni yo'lga soladigan, uning muvozanatini saqlab turadigan tashkilotga aylantirish zarurligini ta'kidladi. Bu davlat rahbaridan alohida iroda, siyosiy qudrat,

ichki madaniyatni talab qiladigan voqelikdir. Dunyoning eng qudratli davlatlari rahbarlari ishtirok etayotgan xalqaro anjumanda barchaning diqqatiga sazovor bo'ladigan aniq va konkret taklif aytish yo'li bilan o'zining va davlatining salohiyatini ko'rsata bilish qobiliyatidir.

O'zbekiston rahbari ilgari surgan ikkinchi taklif YXHT va uning tuzilmalari tomonidan inson hayotini tobora yaxshilash masalalariga berilayotgan e'tibor bo'ldi. Bu, ayniqsa, demokratik yangilanish yo'liga kirgan yangi mustaqil davlatlar uchun o'ta muhim va zarur ekanini alohida ta'kidladi va **«mazkur tashkilotning asosiy maqsadini hisobga olgan holda, YXHTning faoliyati xalqaro ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan xalqaro organ sifatidagi vazifalarini aniq belgilab olish, shuningdek, uning iqtisodiyot va ekologiya sohalarida tutgan o'rnini mustahkamlash zarur, deb hisoblaymiz. Bu vazifalarni amalga oshirishda AQSHning YXHT doirasida Tezkor Fuqarolik korpusini (RYACT) tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi qo'l kelishi mumkin»**, dedi.

Xalqaro terrorizmning qanday shaklda bo'lmasin, diniy yoki boshqa tusda bo'ladimi, tobora moddiylashib, iqtisodiy manfaatlarga xuruj qilayotgani, ayni ana shu ehtiyojlarni insoniyat naslini aynitadigan og'u savdosi – narkobiznes orqali qondirishga intilayotganligi masalasini, aytish mumkinki, O'zbekiston rahbari Islom Karimov jahon siyosatdonlari orasida birinchi bo'lib ko'tardi. Ayni xalqaro terrorizmning moddiylashuv jarayoni nihoyatda xavfli, xatarli, tahlikali ekanligi ilk bor aniq-ravshan tahlil etildi. **Bu – birinchidan**.

Ikkinchidan xalqaro terrorizm nafaqat insonning jismoniy kushandasi, balki uni ma'naviy jihatdan ham barbod etuvchi, uning nasli-nasabini buzuvchi, Yer yuzida majruh-u nimjon odamlarning ko'payishiga, aqliy va ma'naviy jihatdan zaif aholining ko'payishiga olib keladigan jinoyat turiga – biologik kemtik, nuqsonli halokatga eltuvchi xatarli hodisaga aylanayotganligini ham O'zbekiston rahbari birinchi bo'lib ko'tardi.

Prezident I.Karimov kiritgan **uchinchi** taklif bu Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tizimini isloh qilish, uni bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimiga moslashtirish va insoniyat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan, hayot keltirib chiqarayotgan yangidan-yangi muammolarni hal etishga ko'proq jalb etish bilan bog'liq bo'lgan takliflardir. Jumladan, Prezident Islom Karimov **«Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo'yish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko'rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag' bilan ta'minlayotgan, qo'llab-quvvatlayotgan, qurol-yaroq bilan ta'minlab, joylarga jo'natayotgan manbalarga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishi bo'yicha faoliyatlarni muvofiqlashtirishdan iborat bo'lishi lozim»**, – dedi. Bu chindan ham YXHT faoliyatini yangi

zamonga moslashtirish uchun uning tarkibi, tizimi va faoliyat doirasini takomillashtirish zarurati tug'ilganini ko'rsatadi.

Istanbul sammiti O'zbekiston so'zining qudratini, uning siyosiy irodasini va jahon taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganini yana bir bor namoyish qilgan ulkan hodisa bo'ldi. U yana bir bor dunyoning eng nufuzli siyosatdonlari e'tiborini xalqaro terrorizm va ekstremizmning tub mohiyatini, uning taraqqiyot omillarini, Yer shari va insoniyat taqdiriga solayotgan tahdidlarini har tomonlama chuqur tahlil etishga, ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan munosib baho berishga qaratdi. Prezident Islom Karimov nutqi bugungi O'zbekiston siyosatining butun ko'lamini va umuminsoniy qadriyatga daxldorligini ko'rsatadi.

Hamjihatlik – xavfsizlikning bosh omili

XIX asrning saksoninchi yillarida dunyo mamlakatlarini ikkiga ajratib turgan Berlin devori qulab, undan keyin «sovuq urush» siyosati barham topganidan so'ng, odamzod boshidagi urush xavfi go'yo yo'qolgandek tuyildi. Lekin voqealar rivoji bu ishonchning o'tkinchi ekanini isbotladi. Boz ustiga, odamzodning tinch hayot va farovonligiga xavf soluvchi boshqa tahdidlar – terrorizm va zo'ravonlik, diniy ekstremizm va fundamentalizm, qurol-yaroq va narkotik moddalar kontrabandasi yuzaga chiqdi.

Qolaversa, XX asrning so'nggi o'n yilligida o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlar jahon siyosiy xaritasi, binobarin xavfsizlik tizimida katta o'zgarishlar yasadi. Shunday bir sharoitda yer yuzidagi har bir davlat, ayniqsa, yangi mustaqil respublikalar uchun o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bosh masalaga aylandi. Shu jumladan, O'zbekiston bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti va boshqa yirik xalqaro tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik ham, avvalo, mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Negaki, bugungi kunda O'zbekistonning taraqqiyoti uchun tinchlik va barqarorlik eng asosiy shart sanaladi.

O'zbekiston Prezidentining Amerika Qo'shma Shtatlariga safari, NATOning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdagi ishtiroki O'zbekiston, qolaversa butun mintaqa xavfsizligi va barqarorligi haqida ayrim mulohazalarni aytishga undadi. Bilamizki, Afg'onistonda kechayotgan urush, qo'shni Tojikistondagi beqarorlik mintaqamiz, shu jumladan, O'zbekistonning osoyishtaligiga ham har daqiqada xavf solib turardi. Bu xavf nimalarda ko'rinadi?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda Afg'oniston narkotik moddalar «eksporti» bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turibdi. Bu esa nafaqat bizning mintaqamiz, balki Yevropaga ham katta tashvish tug'diryapti. Mazkur davlatlardagi beqarorlik sabab

ayrim kuchlar diniy ekstremizm va fundamentalizm yo'lidagi harakatlarga zo'r berayaptiki, ayni hol O'zbekiston uchun nechog'li jiddiy ekanini 1999-yil 16-fevralda Toshkentda yuz bergan mudhish voqealar, undan keyingi 2001–2004-yillardagi terroristik harakatlar yana bir karra tasdiqladi. Qolaversa, ayrim mamlakatlarning shovinistik harakatlari ham mamlakatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga xavf solayotgani sir emas. Shunday bir sharoitda O'zbekiston o'z xavfsizligini ta'minlash borasida dunyoning rivojlangan davlatlari, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan NATO bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekani tabiiy.

Ma'lumki, O'zbekiston NATO «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining faol ishtirokchisi sanaladi. Dastur asosidagi o'zaro muloqot esa harbiy-o'quv mashqlari doirasida kengaymoqda. Lekin O'zbekiston NATOga a'zo bo'lmaydi. Buning ikkita sababi bor.

Birinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tamoyillaridan biri hech qanday harbiy bloklarga a'zo bo'lmaslikdir. Prezident Islom Karimov bu masalani yanada sodda qilib tushuntirib aytdiki, birorta o'zbek askari o'z mamlakatimiz chegaralari hududidan tashqariga borib, har xil mojarolarda ishtirok etmaydi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning bugungi siyosiy-jug'rofiy holati ham biror-bir harbiy blokka kirish amaliyotiga to'g'ri kelmaydi. Mabodo shunga amal qilinadigan bo'lsa, mintaqadagi xavfsizlik muvozanatiga putur yetkazib qo'yishi mumkin. Garchand mintaqamizdagi ayrim davlatlar o'z sa'y-harakatlari bilan mintaqa xavfsizligiga rahna solayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston rahbariyati bularga qarshi harakat qilmasligini ochiq-oydin ma'lum qilgan. Aksincha, bizning maqsadimiz mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni, farovon hayotga erishishni ta'minlashdir. O'zbekiston – NATO munosabatlarining asl mohiyati ham shu – davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash, qolaversa, mintaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat.

Bugungi kunda dunyodagi 19 mamlakat NATOning to'laqonli a'zosi sanaladi, qirqqa yaqin davlat ushbu alyans bilan hamkorlik qiladi. Mazkur Shimoliy alyans bilan, NATOga a'zo hamda unga sherik davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston uchun juda muhim. Islom Karimov Yevroatlantika hamkorlik kengashining yalpi majlisida so'zga chiqib, O'rta Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarur bo'lgan quyidagi omillarga alohida to'xtalib o'tdi:

– yigirma yildan beri o'sha davr nuqtayi nazaridan davom etib kelayotgan va mintaqa xavfsizligiga katta tahdid solayotgan afg'on mojarosini tinch yo'l bilan hal etish. Shu o'rinda bir fikrni aytish joizdir. Agar Yevropaning biror-bir nuqtasida kichkinagina janjal chiqsa-yu, uch-to'rt kishi qurbon bo'lsa, masala darrov jahonshumul ahamiyat

kasb etadi. Holbuki, Afg'onistonda kuniga yuzlab odamlar urush tufayli halok bo'layotgani jahon ahlida unchalik ham katta tashvish tug'dirmayotgani ajablanarli. Fikrimizcha, buning sababi jahon xavfsizlik tizimida muvozanat yo'qligidir. O'zbekistonning, qolaversa, boshqa davlatlarning ham NATO bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilayotgani ayni shu muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz;

– yadro quroliga ega davlatlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Negaki, keyingi vaqtda Janubiy Osiyoda o'tkazilgan yadro sinovlari kishini tashvishga soladi;

– mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Aytish mumkinki, bugun aynan diniy ekstremizm va fundamentalizm yer yuzidagi ko'plab urushlar, mojarolarga havo berib turibdi;

– terrorizm va zo'ravonlik, qurol-yarog' hamda narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi hamkorlikda kurashni kuchaytirish zarur. Ayni shu masalalarda O'zbekiston NATOning va unga sherik boshqa davlatlarning ko'magiga ehtiyoj sezadi.

Islom Karimovning «Eksimbank» prezidenti J.Hermon bilan muloqoti, shuningdek, Kapitoliyda O'rta Osiyo hamda Kavkaz davlatlari rahbarlari bilan birga AQSH senatorlari bilan uchrashuvi ham tashrifning muhim voqealaridan bo'ldi. Shu o'rinda AQSH senatorlari bilan bo'lgan uchrashuv haqida biroz to'xtalib o'tsak. Senator Sem Braunbek uchrashuvni ochar ekan, ayni vaqtda AQSH senati «Buyuk Ipak yo'li – XXI asr» nomli qonun qabul qilishga chog'lanayotganini ma'lum qildi. AQSHning Buyuk Ipak yo'liga qiziqayotgani xayrli, albatta. Tabiiy bir savol tug'iladi: nega Buyuk Ipak yo'li oradan ikki ming yil o'tib yana muhim strategik ahamiyat kasb etayapti? Sabab shuki, bugun bu yo'ldan nafaqat mazkur mintaqa davlatlari, balki Yevropa mamlakatlari, shu jumladan, AQSH ham katta manfaat topishi mumkinligi tobora yaqqolroq namoyon bo'layapti. Davlatimiz rahbari senatorlar bilan uchrashuvda so'zga chiqib, yig'ilganlarning e'tiborini Buyuk Ipak yo'lini rivojlantirishga qanday omillar, kuchlar xalal berishi mumkin, degan masalaga qaratdi. Sir emaski, ayrim mamlakatlar O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlarining g'arbga tomon yangi aloqa koridorlariga ega bo'lishini xohlamaydi. Ayniqsa, mazkur mintaqadagi neft va gazni jahon bozoriga chiqarish uchun yangi yo'nalishlarning paydo bo'layotgani ularning paytavasiga qurt tushirayotir. Ikkinchidan, diniy ekstremizm va fundamentalizmning mazkur mintaqa mamlakatlarida tarqalishi va buning asnosida yuzaga keladigan beqarorlik ham davlatimizning hamkorlik yo'lidagi sa'y-harakatlariga putur yetkazishi mumkin. Uchinchidan esa, ayrim davlatlar hamon shovinistik kayfiyatdan xalos bo'la olmayotgani bilan bog'liq. Ular mintaqada o'z ta'sirlarini saqlab qolish uchun turli amallardan foydalanyapti. Bu harakat esa Buyuk Ipak yo'lini tiklash,

o'zaro integratsiyalashuv yo'lidan borayotgan davlatlarning maqsadiga zid. Va nihoyat, Osiyodagi ayrim davlatlar o'z strategik maqsadlarini ko'zlab Buyuk Ipak yo'lining tiklanishiga va rivojlanishiga xalal berishi mumkin. Shuning uchun bu haqda gap ketganda, yuqorida tilga olingan masalalarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida milliy xavfsizlik kengashi, xavfsizlikni ta'minlash sohasida davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari bo'yicha maslahat organi tashkil etildi.

Shubhasiz, yuqoridagilar O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlash va barqarorlikni saqlab turishning ishonchli omili bo'lib xizmat qiladi.

b) Qurolli Kuchlar – xavfsizlik tayanchi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: **«Atrofimizdagi notinch dunyoda do'stlarimiz bor, lekin O'zbekistonni o'z ta'siri doirasiga kiritishni xohlaydiganlar ham yo'q emas. Buning uchun ular barcha nayranglardan, qolaversa, harbiy kuchdan ham foydalanishlari mumkin. Shu sababli bizning yaxshi tayyorlangan va qurollangan, istiqlolimiz va chegaralarimizni himoya qilishga qodir armiyamiz bo'lishi kerak!»**.

Tarixdan ma'lumki, har qanday mamlakat, har qanday xalq o'z sarhadlarini, o'z xavfsizligini, o'z aholisini, oila, ayol va onalarning tinch va osoyishta hayotini himoya qila olmas ekan, uni tom ma'noda davlat, deb atab bo'lmaydi.

Butun tarixiy o'tmishimiz, ajdodlarimiz o'gitlari shundan dalolat beradiki, o'z hududiy yaxlitligi va mustaqilligini kafolatlay olgan mamlakatgina gullab-yashnaydi.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning: «Askarlari baquvvat el qudratli bo'lur, qudratli elning askarlari baquvvat bo'lur», – degan so'zlarida teran ma'no mujassam. Xalqimizning qadimiy va boy tarixiga To'maris, Spitamen, Muqanna, Temurmalik, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur kabi o'nlab sarkardalarning nomlari zarhal harflar bilan bitilgan. O'zining mana shunday buyuk tarixi va ajdodlariga munosib voris bo'lgan xalq mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qodir armiyani yarata olishi tabiiydir.

Shu boisdan, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiyani tuzish zarur ekanligi dastlab Oliy Kengashning 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi bayonotida ko'rsatilgan. Bu bayonot xuddi shu kuni qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining

davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Qonunda suveren respublikaning Mudofaa ishlari vazirligi hamda Milliy gvardiyani tuzish huquqi bilan birga muqobil xizmatni tashkil qilish, shuningdek, O'zbekiston hududida joylashtirilgan sobiq SSSR Qurolli Kuchlarini boshqarish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqi ko'zda tutilgan edi. Ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasining o'z Qurolli Kuchlarini tuzishida huquqiy asos bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi Farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

Mudofaa vazirligi Bosh shtabi va boshqarmasi hamda ularning joylardagi quyi bo'linmalari tuzildi.

Mudofaa vazirligi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

– harbiy safarbarlik tadbirlari;

– Milliy gvardiya tuzish va ta'lim berish;

– fuqarolar mudofaasini amalga oshirish;

– harbiy bilim yurtlarini komplektlash;

– oliy o'quv yurtlaridagi harbiy kafedralar va muntazam harbiy tayyorgarlik maktablarini boshqarish;

– muqobil xizmatni tashkil qilish;

– urush qatnashchilari va baynalminalchi jangchilar bilan ishlash;

– harbiy xizmatga chaqirish, qo'shinlarni joylashtirish, harbiy mashqlar o'tkazishni muvofiqlashtirish, qo'shin va harbiy obyektlarni yangi joyga ko'chirib joylashtirish;

– harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish;

– yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hokazolar.

Ittifoq inqirozga yuz tutayotgan bir paytda va mustaqil suveren davlatimiz qurilishining dastlabki bosqichlarida Mudofaa ishlari vazirligining tashkil qilinishi O'zbekiston Respublikasi hududida davlat harbiy tizimi barbod bo'lishining oldini oldi va boshqa davlatlar hududida xizmat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy himoya qilinishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi Qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Qarorga muvofiq, mamlakat hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli kuchlarining barcha qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi, ular moddiy-texnika va mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Shu tarzda mustaqil mamlakat

Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy davri yakunlandi. 1993-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 14 yanvar «Vatan himoyachilari kuni», deb e'lon qilindi.

Respublika tasarrufiga olingan harbiy tuzilmalarga rahbarlik qilish Mudofaa ishlari vazirligiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyulda bo'lib o'tgan 12-chaqiriq 10-sessiyasi mamlakat Qurolli Kuchlarini tizimini takomillashtirishda muhim voqea bo'ldi. Sessiyada «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» va «Muqobil xizmat to'g'risida» muhim qonunlar, shuningdek, harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlarining boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining huquqiy bazasini yaratishdagi birinchi bosqichning yakunlanishi 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasiga to'g'ri keldi. Bu sessiyada davlatning Asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning 26-bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning 125-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarining tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi», deyilgan. Shuningdek, shu bobning 126-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega», deb ko'rsatilgan.

Davlatimiz harbiy sohadagi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari» haqidagi Qonunda mujassamlangan.

Shunga asosan bu qonunda «O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokka transformatsiya qilingan vaqtda har qanday xalqaro tashkilotlardan chiqish huquqini o'z ixtiyorida qoldiradi», deb qonuniy rasmiylashtirgan. Qonunning ahamiyati va kerakliligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu qonun O'zbekistonning tinchliksevar siyosatini, uning dunyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishini yana bir bor ko'rsatmoqda.

Qurolli Kuchlarning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirishda 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasi» haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni alohida ahamiyatga egadir.

Bu konsepsiyada diniy ekstremizm, millatlararo va etnik ziddiyatlarning kuchayishi, qurollarning, jumladan yadro qurolining tarqalishi, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilikning avj olishi, narkotik moddalarning tarqalishi hamda ekologik tanazzul ko'rinishidagi mintaqaviy va yalpi tahdid mavjudligi ta'kidlanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Konsepsiya davlatning muhim vazifalaridan biri milliy xavfsizlikning samarali tizimini yaratish, O'zbekistonning mintaqaviy va yalpi xavfsizlikni ta'minlovchi kollektiv hamkorlik tizimiga kirishini taqozo etadi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining eng muhim vazifalari milliy harbiy mutaxassislarni tayyorlash va armiyani texnik jihatdan jihozlashdan iborat. Ana shulardan kelib chiqib, so'nggi paytlarda O'zbekistonda Qurolli Kuchlar uchun yuksak malakali ofitserlar tayyorlaydigan bir qancha harbiy o'quv yurtlari tashkil etildi. Armiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Zotan, hukumat **«Iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, bundan keyin ham harbiy salohiyatni ta'minlash uchun – zarur mablag' ajratishni davom ettiraveradi»**.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari qat'iy, bosqichma-bosqich reja asosida, tasdiqlangan dasturga muvofiq shakllana bordi. U mamlakatimiz davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini mustahkam himoya qilinishini ta'minlaydigan darajada kuch-qudratga ega.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari o'z faoliyatini:

– qonun ustunligi;
– markazlashgan boshqaruv va yakkaboshchilik;
– doimiy jangovar va safarbar holatdagi tayyorgarlik;
– fuqarolarning umumiy harbiy majburiyati;
– kollektiv xavfsizlik tizimini barpo qilish;
– harbiy intizomga rioya qilish;
– partiyasizlik;
– harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishni ta'minlash asosida tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Umuman O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari – bu harbiy tuzilmalar, harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat, davlat tomonidan tashkil qilingan va ta'minlangan bo'lib, ular urush va harbiy mojarolarning oldini olish, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayot kechirishini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatni himoya qilishda butun mudofaa tizimining asosini tashkil etuvchi yadro hisoblanib, o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

– Quruqlikdagi qo'shinlar;
– harbiy-havo va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari;

– Maxsus qo'shinlari;
– Milliy gvardiya brigadasi;
– chegara va ichki qo'shinlar;
– Milliy xavfsizlik xizmati;
– Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklarga, idoralarga qarashli harbiy qismlardan iborat.

Quruqlikdagi qo'shinlar Qurolli Kuchlarining eng ko'p sonli turi bo'lib, boshqa qo'shin turlarining birgalikdagi harakati bilan tajovuzni qaytarish, zarur bo'lganda esa dushmanni tor-mor qilishga mo'ljallangan.

Harbiy havo va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari Qurolli Kuchlarining manyovrli turlaridan biri. Ular quruqlikdagi jang maydonida bo'layotgan yirik operatsiyalarning borishi va yakuniga ta'sir qilish, mamlakat havo chegaralarini qo'riqlash, quruqlikdagi va havodagi dushmanga zarba berish imkoniyatiga ega. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasining hududini, uning havo chegaralarini, eng muhim davlat va sanoat obyektlarini hamda qo'shin guruhlarini havo hujumidan ishonchli mudofaa qilish vazifasi yuklatilgan.

Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismidir. Bu gvardiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi qaroriga binoan, respublika Qurolli Kuchlari qismlari negizida tuzildi. Milliy gvardiyaning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza etishdir. Gvardiya tarkibi fuqarolarni majburiy harbiy xizmatga chaqirish va armiya xizmatiga o'z ixtiyori bilan borishni birgalikda muvofiqlashtirish asosida to'planadi. Gvardiya zimmasiga bir qancha o'ziga xos vazifalar, jumladan, davlat tantana marosimlarida ishtirok etish yuklatilgan. Shu maqsadda gvardiya tarkibida faxriy qorovul rotasi tuzilgan. Shuningdek, gvardiya zimmasiga alohida muhim davlat obyektlarini qo'riqlash vazifalari ham yuklatilgan.

Maxsus qo'shinlar esa jangovar harakatlarni operativ ta'minlash masalalarini hal etish uchun mo'ljallangan.

1999-yilgacha chegara qo'shinlari Milliy Xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lishgan. 1999-yil 13-yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi.

Ushbu Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi Qo'mita davlat boshqaruvining markaziy organi hisoblanib, chegaraga doir siyosatni amalga oshirishni Davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashni tashkil etishni ta'minlash belgilab berildi.

Ichki qo'shinlar Ichki Ishlar vazirligi tarkibida tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifalari militsiya organlari bilan birgalikda shaharlarda,

aholi yashaydigan joylarda, toifalangan xalq xo'jaligi korxonalarida va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tashkilotlar, idoralar, muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi harakatlardan muhofaza qilishga qaratilgan.

Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar hamda tashkilotlar harbiy tuzilmalarining asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos vazifalarini bajarish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson hayotini ta'minlovchi xalq xo'jaligi korxonalarini qo'riqlash hisoblanadi.

Qurolli Kuchlarni joylashtirish (dislokatsiya) O'zbekiston Respublikasi hududlari, chegaralari va havo bo'shliqlarining mustahkam mudofaasi umumiy strategik maqsad asosida ta'minlashdan kelib chiqib belgilanadi va harbiy doktrina talablariga muvofiq strategik va operativ reja asosida, shuningdek, qo'shinlarni jang oldidan safarbar qilish rejalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Armiya mamlakat budjetidan ajratiladigan mablag' hisobiga ta'minlanadi. Har yili mudofaaga ajratiladigan mablag' miqdori Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Qurollar, harbiy texnika, butlovchi qismlar va boshqa ashyolarni ishlab chiqarish, yetkazib berish va ta'mirlash, mudofaani zarur oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, shuningdek, mudofaa manfaatlariga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va qurilish ishlarini amalga oshirish, rivojlantirish va saqlash to'liq hajmda davlat buyurtmasiga kiritiladi.

Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni Prezident amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi. «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Prezident mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, qurolli tajovuz bo'lgan hollarda davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va Mustaqilligini himoya qilish yuzasidan zarur chora-tadbirlar qabul qiladi, mudofaa vazirini tayinlaydi. Qurolli Kuchlarning qurilish, ularni strategik qo'llash rejasi, shuningdek, safarbarlik rejasini tasdiqlaydi. Qurolli Kuchlarga jangovar harakatlarni olib borish to'g'risida qaror qabul qiladi va buyruq beradi.

Qonunchilikda Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar, davlat hokimiyati mahalliy organlari va boshqarmalarning mudofaa sohasidagi vakolatlari, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilot va fuqarolar majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Masalan, mudofaa harbiy qurilish, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalalari bo'yicha qonun aktlarini amalga oshirishda parlament nazoratini o'rnatish Oliy Majlis zimmasiga yuklatilgan.

Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga mudofaani ta'minlash bo'yicha o'ziga bo'ysunadigan barcha tuzilmalar faoliyatiga rahbarlik qilish, Qurolli Kuchlarni qurollar, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlash, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyoji uchun moddiy texnika resurslari, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa buyumlarning hajmini, harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan respublika fuqarolarining soni hamda ularning harbiy va muqobil xizmatni o'tash tartibini belgilash, harbiy majburiyatli va harbiy xizmatga chaqirish hamda haqiqiy muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni zaxiraga chiqarish, harbiy majburiyatlilarni yig'ilishga chaqirish, safarbarlik va harbiy xizmatdan bo'shatish to'g'risida qarorlar qabul qilish kabilar kiradi.

Mudofaa vazirligi Qurolli Kuchlarni davlat boshqaruvining markaziy organi hisoblanadi. Vazirlik Qurolli Kuchlarining ahvoli va kelgusidagi taraqqiyotiga, jangovar tayyorgarlik va intizomga to'liq javobgar. U mudofaa sohasi va harbiy qurilishda ishlab chiqilgan davlat siyosatining Qurolli Kuchlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mudofaa rejalari va konsepsiyasi loyihasi, Qurolli Kuchlarning qurilishi va taraqqiyoti, qurollar va harbiy texnika taraqqiyotining davlat dasturlari, mudofaa ehtiyojlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga taqdim etadi. Mudofaa va harbiy qurilish sohalarida ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi va o'tkazadi, harbiy texnika va boshqa ashyolar yaratish, ishlab chiqarish va ta'mirlash uchun davlat buyurtmalarining bajarilishini nazorat qiladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari harbiy islohotning ikkinchi bosqichini amalga oshirish ishlarini olib bormoqda. Harbiy islohotning birinchi bosqichida (1992–1996-yillarda) qism va bo'linmalar, harbiy o'quv yurtlari va muassasalarini isloh qilishning tartibi aniqlangan. Tegishli safarbar etuvchi rejalar, kerakli qonunlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shuningdek, kadrlarni o'qitish va tarbiyalashning tugal tizimi yaratilgan.

Harbiy islohotning ikkinchi bosqichida esa Qurolli Kuchlarni isloh qilishni nihoyasiga yetkazish, yangi tashkiliy tizimga to'la o'tish, qo'shin turlari va xillari boshqaruvining yuksak darajasiga erishish, jangovar tayyorgarlikda va harbiy kadrlar kasb mahoratlarini oshirishda yanada yuqori sifatli natijalarni qo'lga kiritish yo'llarida faol ish olib borilmoqda.

Masalan, harbiy kasbni tanlovchi yoshlar uchun Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Urganch shaharlarida harbiy mutaxassisliklarga yo'naltiruvchi litseylar faoliyat ko'rsatmoqda, Harbiy lisey tinglovchilari ikki yil mobaynida harbiy ko'nikma to'plab, o'zlari tanlagan qo'shin turlari bo'yicha Oliy harbiy bilim yurtlariga yo'l oladilar.

Toshkent umumqo'shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir – muhandislar, Chirchiq tankchi komandir – muhandislar,

Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurtlari, Toshkent aloqa-elektrotexnika institutining maxsus fakulteti Qurolli Kuchlarimiz saflariga turli mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlab beradigan Oliy harbiy ilm o'chog'iga aylangan.

Qurolli Kuchlarimizga oliy qo'mondonlik tarkibini tayyorlayotgan harbiy Akademiyaning ochilishi O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim voqeagina bo'lib qolmay, u xalqaro ahamiyatga molikdir. Mamlakat Prezidenti, Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni Islom Abdug'aniyevich Karimov Akademiyaning ochilishiga bag'ishlangan tantanada nutq so'zlar ekan, jumladan shunday dedi: **«Ishonchim komilki, yillar o'tib, avlodlarimiz biz xalqimizning mustaqilligi yo'lida, uning tinch bunyodkorlik mehnatini himoya qilish yo'lida qilgan ishlarimizga munosib baho beradi»**.

Markaziy Osiyoda yagona harbiy Akademiyaning ochilishi, bu – fanga nisbatan keskin burilish, yangi bilimlarni orttirish, Sharq harbiy boshliqlarining, avvalo Sohibqiron bobokalonimiz Amir Temurning tajribali, tezkor harbiy san'at va taktikaning so'nggi yutuqlari, jahon harbiy ilmi hamda xorijiy mamlakatlar jangovar tayyorgarligining ilg'or tajribalari negizida malakali milliy harbiy kadrlarni tayyorlash demakdir.

Jangovar tayyorgarlikning yuqori saviyada bo'lishini ta'minlash qism va bo'linmalar, harbiy o'quv yurtlari, umuman Qurolli Kuchlarning bosh vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan, harbiy sohada ham hamkorligi va hamjihatligining muhim poydevori xalqlarimizning umumiy tarixiy negiziga egaligidir.

O'zbekiston rahbariyati mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun amaliy choralar ko'rib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston 1991-yil dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish bo'yicha Almati Deklaratsiyasini, 1992-yil mayda esa Kollektiv xavfsizlik Shartnomasini imzoladi. 1993-yil yanvarda O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining boshqa davlatlari bilan birga tinchlikni ta'minlovchi batalyonni tashkil etishda va uni tojik-afg'on chegarasiga yuborishda ishtirok etdi. 1993-yil sentabrida esa MDH davlatlari rahbarlarining qaroriga binoan mudofaa koalitsion kuchlari tashkil etilib, bunda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Qurolli Kuchlari bilan bir qatorda O'zbekiston milliy armiyasi vakillari ham qatnashdilar.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1993-yil yanvarda yo'lga qo'yilgan mintaqaviy harbiy-texnik hamkorlik katta tarixiy ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatlar Prezidentlari iqtisodiy, siyosiy va qamrovli masalalar bilan bir qatorda o'zlarining harbiy siyosatdagi nuqtayi nazarlarini (pozitsiyalarini) kelishtirib oldilar va xususan

Qozog'istonda hamda Turkmanistonda milliy armiyalar tashkil etilishini e'lon qildilar. O'sha kunlari O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari o'zining bir yilligini nishonlayotgan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirishning huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlari o'rtasida imzolangan do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi Shartnomalarda maxsus moddalar bilan birga harbiy munosabatlar ham o'z aksini topgan.

Eng faol harbiy-texnik hamkorlik Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida 1994-yilda tashkil topgan yagona iqtisodiy makon doirasida amalga oshirilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan mamlakatlar hukumatlari o'rtasidagi uch tomonlama imzolangan maxsus Bitim esa ushbu hamkorlikning huquqiy asosidir.

Mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi konseptual muammolarni ko'rib chiqish, mudofaa bo'yicha o'zaro hamjihatlikni ta'minlash, mudofaa va xavfsizlik yo'nalishida a'zo-davlatlarning faoliyatlarini muvofiqlashtirish, qabul qilingan bitimlarni tashkil etish, hamda harbiy hamkorlikning boshqa masalalarini hal qilish maqsadida Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining Davlatlararo Kengashi tarkibida ishchi organ sifatida Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari Mudofaa vazirlari Kengashi tuzildi va u faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu organning faoliyati Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari davlat rahbarlari tasdiqlagan maxsus Nizomga asosan tartibga solinadi.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi yirik amaliy tadbirlardan biri Davlatlararo Kengashning Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida tinchlikni o'rnatish mashqlarida qatnashishga mo'ljallangan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikasining tinchlik o'rnatuvchi batalyoni (Sentrazbat) tashkil etish, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash va uning faoliyati to'g'risida maxsus Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi qarori bo'ldi.

Tinchlikni o'rnatuvchi batalyonni (Sentrazbat) tashkiliy jihatidan mustahkamlash maqsadida Davlatlararo Kengashning qaroriga ko'ra ushbu batalyonni «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» dasturi doirasida Amerika va Ovro'pa qit'alarida o'tkaziladigan tinchlikni o'rnatish mashqlariga tayyorlash va ishtirok etish hamda BMT rahnamoligida ko'p millatli kuchlarni jalb etgan holda Markaziy Osiyo hududida mashqlarni o'tkazish ko'zda tutilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan tinchlikni o'rnatish batalyonini tashkil etishning muhim sababi Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlarining BMT Bosh kotibiga qilgan murojaatlari bo'ldi.

Hozirgi vaqtda tinchlikni o'rnatish batalyoni (Sentrazbat) tamomila shakllandi va komplektlandi (butlandi). Uning tarkibida teng ravishda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ofitserlari, praporshchiklari, serjantlar va askarlari bor.

Batalyonning qurol-aslahasi va harbiy texnikasi BMTning shunday harbiy bo'linmalariga qo'yadigan talablariga muvofiq keladi. Ushbu batalyonning tashkiliy va faoliyat ko'rsatish masalalari, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish kabi masalalar qatori mudofaa vazirligi Kengashi majlislarida ko'riladigan asosiy mavzu hisoblanadi.

Masalan, 1997-yil aprel oyida mudofaa vazirlari Kengashining Toshkentda o'tkazilgan navbatdagi majlisida «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» doirasidagi shu yil sentabr oyida O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida o'tkaziladigan «Sentrazbat-97» nomli mashqlar loyihasi har tomonlama muhokama etildi. Bu mashqlar keyinchalik 1997-1998-yillarda ham o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishganining dastlabki kunlaridanoq Mustaqil Davlat Hamdo'stligiga a'zo davlatlar bilan harbiy sohada hamkorlikka muhim ahamiyat bera boshladi. «O'zbekiston,— deydi I.Karimov, ayni shu sababli mintaqada va sobiq Ittifoq hududida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. MDH mamlakatlari o'rtasida tuzilgan kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalarining dastlabkilaridan biri 1992-yil may oyida aynan Toshkentda imzolangani ham tasodif emas».

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasidagi harbiy-texnik hamkorlikka qaratilgan muhim xalqaro-huquqiy me'yoriy hujjatlar majmui 1995-yil fevralda Almatida imzolandi. Umuman, MDHning 5 yillik faoliyati davomida, MDHga a'zo davlatlarning harbiy sohada munosabatlarini tartibga soladigan 200 ga yaqin shartnomalar, bitimlar imzolandi.

Shulardan ko'pi, jumladan, harbiy-texnik hamkorlikni chuqurlashtirish, harbiy xizmatchilar va ularning oilasini ijtimoiy himoyalash, MDHga a'zo davlatlarning o'zaro munosabatlarida kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan xavf solmaslik to'g'risida, sobiq SSSR Qurolli Kuchlarini qisqartirish, yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida, harbiy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi Shtab to'g'risida, MDHga a'zo davlatlarning mudofaa vazirlari Kengashining Nizomi to'g'risida, kosmik fazoni tatbiq etish va foydalanish bo'yicha o'zaro faoliyat to'g'risida, havo hujumidan mudofaaning birlashgan tizimini tashkil etish to'g'risida hamda boshqa shartnomalar va bitimlar O'zbekiston tomonidan imzolangan va aniq bajarilmoqda.

O'zbekiston, Ukraina, Belarus Respublikasi, Gruziya, Ozarbayjon Respublikalari bilan ham harbiy sohada hamkorlik borasida mustahkam aloqa o'rnatdi. Ularning harbiy muassasa vakillari davlat va hukumat

rahbarlari imzolagan do'stlik, hamjihatlik va o'zaro yordam harbiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar va bitimlarga amal qilgan holda tashriflar davomida harbiy-tadqiqot va ilmiy izlanishlarning strategik, taktik yo'nalishlarini kelishib olish va rivojlantirish, qurol-yarog' va texnikani takomillashtirish, harbiy kadrlarni o'qitish, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini moddiy-maishiy jihatdan ta'minlash masalalari bo'yicha katta ishlar olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining harbiy sohada hamkorlik qilishning ustuvor yo'nalishi bu Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro aloqalar o'rnatishdan iboratdir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, **«Rossiya iqtisodiy jihatidan ham, harbiy-texnikaviy jihatidan ham buyuk davlatdir. Shuning uchun ham kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etishda ham, MDH doirasida davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi masalasida ham O'zbekiston Rossiya bilan yaqindan hamjihatlik aloqalarini mustahkamlashga va strategik hamkorlik o'rnatishga intilmoqda»**.

Shunday hamkorlikning huquqiy asosi bo'lib 1992-yil 30-mayda Moskva shahrida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida imzolangan davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik haqida Shartnoma, 1994-yil 2-martdagi harbiy sohada hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma hamda bir qator davlatlararo boshqa bitimlar xizmat qiladi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy va siyosiy hayotning ko'pgina sohalarida, shu jumladan harbiy sohada ham xalqaro maydonga chiqdi. **«Bizning harbiy doktrinamiz mudofaa va xavfning oldini olish xarakteriga ega. Shu bois** – deydi I.A.Karimov, – **O'zbekiston BMT, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning tinchlikni saqlash tadbirlarida ishtirok etishga tayyor»**.

Sovet bloki yemirilib, Varshava shartnomasi tugagandan keyin 1949-yilning aprelida tashkil qilingan va Yevropadagi 14 ta mamlakatni, shuningdek, AQSH va Kanadani birlashtiruvchi Shimoliy Atlantika shartnomasi Tashkiloti – NATOga a'zo davlatlar ana shunday operatsiyalarni amalga oshiruvchi eng real va qudratli harbiy-siyosiy tashkilot bo'lib qoldi. NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturi Yevropa xavfsizligining yangi modelini yaratishga qaratilgan yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. U qo'shilmagan, betaraf mamlakatlarning hamda sobiq SSSR mamlakatlarining kuch-g'ayratini birlashtiradi.

O'zbekiston 1992-yilda sobiq SSSRdagi boshqa to'qqizta respublika qatori Shimoliy Atlantika Hamkorlik Kengashi ishiga qo'shildi. O'zbekiston 1994-yilning 13-iyulida aniq belgilab qo'yilgan bitimni imzolab, NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dastur qatnashchisi bo'lib qoldi.

O'zbekiston ushbu dasturdagi hamkorligi siyosiy muammolar va masalalar bilan bog'liq bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash, mintaqaviy

mojarolarni bartaraf etish hamda iqtisodiy masalalarda ishonch choralarini mustahkamlashga qaratilgan.

Favqulodda vaziyatlarda harbiy va fuqarolik xizmatlarining ishini muvofiqlashtirish, mudofaa sanoatini konversiyalash, qurol-yarog'lar ustidan nazorat o'rnatish masalalari «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturi doirasida yechilayotgan vazifalar jumlasiga kiradi.

Ushbu dastur doirasida O'zbekistonning hamkorlik qilish Markaziy Osiyo mintaqasida va umuman Yevroosiyo makonida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik ishiga ko'maklashadi, mamlakatlar o'rtasida turli sohalardagi samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishga olib boradi va pirovard natijasida jahon hamjamiyatiga tezroq integratsiyalashish imkonini beradi. Shuning uchun Prezidenti I.A.Karimov «**NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo'lish uchun imkon beradi**» deydi.

Mamlakatimizning ushbu dasturidagi hamkorligini yaxshilash maqsadida, shuningdek, NATOga a'zo mamlakatlarning boy tajribasidan yanada ko'proq foydalanish uchun O'zbekiston bilan NATO o'rtasida mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi bir qancha muhim hujjatlar imzolandi. Prizentatsiya (taqdimot) hujjatlar shular jumlasidandir. Bu hujjatda O'zbekiston Respublikasining siyosiy va harbiy sohalarida sherikchilik jihatlarini rivojlantirish borasidagi maqsadlari hamda ularni amalga oshirish chora-tadbirlari bayon etilgan. Bu tadbirlar tizimiga axborot ayirboshlash chog'ida xavfsizlik rejimlari to'g'risidagi bitim, xatti-harakat kodeksi, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO)ga a'zo mamlakatlar bilan «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga a'zo mamlakatlar o'rtasida, ularning Qurolli Kuchlari maqomi to'g'risidagi shartnoma, O'zbekiston bilan NATO o'rtasidagi sheriklikning yakka tartibdagi dasturi kiradi.

O'zbekiston bilan NATO mana shu bitimlar hamda dasturlarni bajara borib, bir qancha tashkiliy va amaliy tadbirlarni ro'yobga chiqardilar, bir-birlariga vakillar yuborib, tinchlik o'rnatish mashqlarida ishtirok etdilar.

Masalan, NATOning ilmiy qo'mitasi o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy dasturlarning loyihalariga grantlar berdi. O'zbekistonning harbiy bo'linmalari 1995-96-yillarda AQSH hududida «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturi bo'yicha «Kooperativ Nagget-95», «Kooperativ Osprey-96» degan shartli nomlar ostida amalga oshirilgan insonparvarlik va tinchlik o'rnatish mashqlari chog'ida qo'shma mashqlarni o'tkazishda ishtirok etdilar. 1996-yilning sentabrida O'zbekiston hududida AQSH harbiy bo'linmalarining ishtiroki bilan «Ultra Balans-96» mashqlari o'tkazildi. Bunday mashqlar 1997, 1998, 1999-yillarda ham amalga oshirildi.

Mana shu mashqlarda qatnashgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining vakillari yuksak professional tayyorgarligini, harbiy qasamyodga sodiqligini, vatanparvarlik, intizom va uyushqoqlikni namoyish etdilar.

Vashingtonda NATOning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, **«O'zbekiston NATO munosabatlarining asl mohiyati – davlatimizning xavfsizligini va tinchligini ta'minlash, qolaversa mintaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat»**.

Konstitutsiyaga asosan O'zbekiston Respublikasining siyosiy maqsadi insonparvar demokratik huquqiy davlat yaratishdir, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir va uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

O'zbekiston shu paytgacha, dunyoning barcha mamlakatlari, qit'alari va mintaqalari bilan o'z munosabatlarini, bu mamlakatlarning ustqurtmasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, faqat xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurib keldi va bundan keyin ham shu yo'ldan boradi.

O'zbekiston xalqaro munosabatlarda tinchliksevar yo'ldan borib, o'z fuqarolarining hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish vazifasini yuklab, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga binoan o'zini mudofaa qilish huquqini amalga oshira borib, O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi Qonuniga asosan yetarli zaruriyat miqyosida o'zining harbiy salohiyati va mudofaa qobiliyatini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va harbiy strategiyasiga asos solingan bu qoidalar ilk bor 1991-yil avgust oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda va Oliy Kengashning «O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi Bayonotida o'z aksini topdi.

Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasining harbiy strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi qonunida kengaytirildi va unga aniqlik kiritildi. Ushbu qonunda davlatni mudofaa qilishning maqsad va vazifalari, harbiy doktrinaning yo'nalishlari hamda davlat hokimiyati va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatini ta'minlashning tashkiliy, boshqaruv, huquq va majburiyatlari asoslari aniq belgilab berildi.

Harbiy strategiyaning huquqiy rivoji va uning asosiy me'yor hamda qoidalarini mustahkamlashga O'zbekiston Respublikasining Konstitut-

siyasi muhim hissa qo'shdi. Davlatimizning asosiy qonunida fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashi majburiyligi, mamlakat Prezidentiga Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondonlik vazifasi yuklatilganligi normativ jihatdan mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning «Mudofaa va xavfsizlik» nomli maxsus bobida O'zbekiston Qurolli Kuchlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy masalalari Konstitutsion ravishda tartibga solingan.

Davlat harbiy strategiyasini shakllanishi va aniq yo'nalishlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi muhim hissa qo'shdi. Bu sessiyada mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan birinchi marta milliy xavfsizlikning eng muhim (asosiy) to'qqiz tamoyili shakllantirib berildi. O'zbekistonning jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida faoliyati, davlatlararo bitimlar mustahkam tizimini yaratish va unga so'zsiz amal qilish, tashqi siyosatni mafkuradan to'la holi etish, qo'shilmaslik harakatida hamda MDH davlatlarining kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish, Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, milliy xavfsizlik tizimini yaratish hamda jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy madaniy va tarixiy ildizlariga tayanish shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'riflab berilgan milliy xavfsizlik tamoyillari davlatimiz harbiy strategiyasining huquqiy asosini yakunlovchi hujjat bo'lmish harbiy doktrina asosini (negizini) tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, harbiy doktrina hatto sobiq Sovet Ittifoqida ham yo'q edi. Bu O'zbekiston harbiy siyosatini huquqiy asosini, strategik maqsad va g'oyalarini ko'rsatadi.

Yosh suveren davlat bo'lmish O'zbekiston o'zining Mustaqillik yillari mobaynida tashqi siyosat, davlatlararo munosabatlar, urush va tinchlik muammolarining prinsipial yangi nuqtayi nazari va masalalariga tayanadigan, milliy xavfsizlikning umumdavlat konsepsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan hamda mamlakatning mudofaa siyosatini asosini tashkil etgan harbiy Doktrinani ishlab chiqdi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida 1995-yil 30-avgustda qabul qilindi.

Harbiy Doktrina harbiy qurilishning asosi, harbiy sohani isloh qilish va harbiy-texnik siyosatining istiqbollarini ishlab chiqish hamda harbiy bilim, harbiy san'at va ofitser kadrlarni tayyorlashni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Oldiga qo'yilgan vazifalarga ko'ra mamlakat harbiy Doktrinasining mazmuni va strukturasi aniqlandi. U o'z ichiga umumiy qoidalar, siyosiy va harbiy-tashkiliy aspektlar hamda harbiy doktrinaning huquqiy asoslarini oladi. Harbiy doktrinada davlatning o'z fuqarolarini hayoti va qadr-

qimmatini himoya qilish, mudofaa qilish huquqini amalga oshirish bo'yicha asosiy maqsad va vazifalari aniq tavsiflab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro va davlatlararo mojarolarni urush yo'li bilan hal etishga qat'iy ravishda qarshi chiqadi va o'zining tashqi siyosat faoliyatida harbiy nizolar hamda qarama-qarshiliklarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etuvchi yoki yo'l qo'yilmaydigan, xavfning oldini olish diplomatiyasi usullari yordamida dunyo hamjamiyatining davlatlari o'rtasidagi harbiy nizolarni oldini olish masalalarini bosh vazifa, deb biladi. Bu vazifalar O'zbekiston Respublikasining qonuniy va me'yoriy hujjatlarida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida urush va harbiy nizolarning oldini olish o'zining bosh strategik yo'nalishi, deb qabul qilib, hech qanday harbiy blokka kirmaslik, agressiyadan tashqari o'z Qurolli Kuchlarini boshqa davlatlarga qarshi qo'llamaslik, hech kimni o'z dushmani deb qaramaslik va yadrosizlikning uch tamoyiliga amal qilish majburiyatini oldi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining xalqaro faoliyatida urushni oldini olish bo'yicha keng qamrovli choralar ko'rish lozim, deb hisoblaydi. BMTning mavqeini oshirish, faol integratsiyalanish, yadro qurolini sinashni butkul to'xtatish, kimyo qurolini yo'q qilish, Markaziy Osiyo hududini yadrosiz mintaqa, deb e'lon qilish, aqidaparastlikka, ekstremizmga, terrorizmga barham berish va boshqalar shular jumlasidandir.

Harbiy Doktrinada Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari, harbiy xavfning potensial manbalari, zamonaviy urushlarning xarakter va oqibatlari, harbiy-strategik bosh vazifalari, Qurolli Kuchlarni qurish va qo'llashning tamoyillari hamda respublika iqtisodiyoti, hududi va aholisini mudofaaga tayyorlashning mohiyatlari ochib berilgan.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasining asosiy g'oyalarini rivojlantira borib, keyingi besh yilda dunyoda, mintaqada va mamlakatda ro'y berayotgan geopolitik vaziyatni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Uni ishlab chiqishda va qabul qilishda alohida geopolitik o'rin egallab turgan Markaziy Osiyo mintaqasi hozirgi paytda xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikni yoyishga, mintaqadagi mamlakatlarni o'zlari tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinayotgan ekstremistik kuchlar va diversion-qo'poruvchi markazlarning o'ta manfaatdor obyektiga aylanayotgani hisobga olingan. Narkobiznes va g'ayriqonuniy qurol-aslaha savdosi ko'lamining kengayayotgani xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Bunday sharoitda davlatning eng muhim

vazifasi Mudofaa vazirligi, chegara va ichki qo'shinlarning tezkor, zamonaviy qurol-aslahaga ega, professional jihatdan yaxshi tayyorlangan birlashma va qismlarini tashkil etish, mamlakatning yagona himoya va mudofaa tizimini, barcha qo'shin turlari va harbiy bo'linmalari, huquq-tartibot idoralari o'zaro hamkorligining samarali mexanizmini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizligi konsepsiyasining prinsipial o'rinlariga, mamlakat va mintaqaning xavfsizligi, tinchligi va barqarorligiga tahdid solayotgan kuchlarni chuqur o'rganishga asoslangan holda Mudofaa doktrinasi harbiy qurilish, ishonchli mudofaani, davlatning hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlashga doir asosiy tamoyillarni belgilab beradi.

Qabul qilingan doktrina mutlaqo mudofaaviy xususiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining tinchlikparvar siyosati ifodasidir. Doktrinada umumiy xavfsizlik tamoyilidan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Doktrinada vazirlik va idoralarning, davlat va nodavlat tashkilotlari va muassasalarning mamlakat mudofaa salohiyatini ta'minlash borasidagi o'rni va ma'suliyati belgilab berilgan. Doktrina qoidalarini amalga oshirish Vatanimizning har bir fuqarosi uchun muqaddas burchdir.

1999-yilning fevralida Toshkentda sodir bo'lgan fojia, so'ngra Qirg'iziston janubida, Buxoro va Andijonda sodir bo'lgan voqealar xalqimizning tinch hayotini ko'ra olmaydigan kuchlar borligini va ular O'zbekistonni tanlagan yo'lidan qaytarish uchun har qanday qabohatga tayyor ekanligini ko'rsatdi. Mustaqil O'zbekistonning posbonlari bo'lgan Qurolli Kuchlar askarlari mana shu og'ir kunlarda o'zlarini jasur va matonatli Vatan himoyachilari sifatida ko'rsatdilar.

Sarhadlarimiz daxlsizligini saqlash, yurt osoyishtaligini ishonchli himoya qilish ma'naviy yuksak, jismonan baquvvat askarlar va zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlangan professional armiyaga bog'liq. Istiqlol davrida shakllangan Qurolli kuchlarimiz bugun sobiq ittifoq davridagi armiyadan keskin farq qiladi. Endilikda Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan yigit yagona Vatan — ona O'zbekiston uchun, uning osoyishtaligi yo'lida o'z burchini ado etayotganini yaxshi anglaydi. Endilikda muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlar katta tanlovdan o'tib, ular orasidan eng saralari tanlab olinmoqda. Tabiiyki, Qurolli Kuchlarning mudofaa salohiyatini oshirish, har qanday sharoitda mashaqqatli vaziyatdan sharaf bilan chiqish harbiylardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak aql-idrok, intellektul salohiyatni ham talab etadi. Hozir Qurolli Kuchlarni barpo etish va tashkil etishning mutlaqo yangi konsepsiyasiga amal qilinmoqda. Muddatli harbiy xizmat

bir yilgacha qisqardi, har tomonlama ta'minlangan nufuzli serjantlar maktabining faoliyati yo'lga qo'yildi. Amalda o'zini oqlagan, saflarida ming-minglab yoshlarimiz o'z yigitlik burchini o'tayotgan safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati tashkil etildi. Eski nomaqbul kazarma muhitiga barham berildi. Muddatli va kontrakt xizmati, ofitserlik va qo'mondonlik tarkibi xizmatlarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda harbiy xizmatchilarning yashash va dam olishlari uchun munosib sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatning barcha hududlarida harbiy qismlar askarlari turli qurollardan foydalanish, zirhli va g'ildirakli jangovar texnikalarni boshqarish, kompyuter trenajyorlardan foydalanish sirlarini mukammal egallashmoqda. Harbiy tayyorgarlik jarayonini ilg'or texnik va texnologik vositada yangicha uslublar asosida tashkil etish intellektual mezonlar va yo'nalishlarni takomillashtirish izchil davom ettirilmoqda.

— Bugungi Qurolli Kuchlar o'n besh yil avvalgi armiyadan qanday jihatlarga ko'ra farqlanadi?

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish kerakki, istiqlol yillarida Qurolli Kuchlarimizda islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz rahbariyati harbiy sohada islohotlar o'tkazishda asosiy omilni hisobga oldi. Ulardan **birinchisi**, Qurolli Kuchlarning texnikaviy jihatdan yaxshi ta'minlanishi hamda boshqaruvning ishonchli vositasiga ega bo'lishidir. Ya'ni son jihatdan uncha ko'p bo'lmagan, ammo samaradorligi yuksak milliy armiyani shakllantirish maqsad qilib olingan.

Ikkinchi omil — rivojlangan mamlakatlar qurolli kuchlarining ilg'or, samarali yutuqlarini o'zlashtirib tajriba almashish. Bu o'rinda mintaqamizga, qolaversa, dunyo xalqlari tinchligiga xavf solib turgan xalqaro terrorizmning faollashuvi hisobga olindi va bunday ofatlarga birgalikda qAQSHatqich zarba berish ko'zda tutildi.

Nihoyat, **uchinchi** va bu eng muhim omil — Qurolli Kuchlarimizning har tomonlama yetuk, barkamol shaxsiy tarkibga ega bo'lishidir. Ushbu islohotlar samarasini har bir fuqaro Qurolli Kuchlarimizning bugungi jangovar qiyofasida yaqqol ko'rib turib, shu o'rinda mustaqillik yillarida professional saviyasi yuqori bo'lgan milliy ofitserlar tayyorlash haqida ham to'xtash lozim.

Vatanimiz mustaqilligiga qadar ofitserlar safida mahalliy kadrlar juda ozchilikni tashkil etardi. Unutib bo'lmaydigan bir jihat bor: posbon har qancha professional bo'lmasin, o'zga yurtni o'z Vatanidek sevib qo'riqlamaydi. Bu professional ofitserlar safini mahalliy milliy kadrlar hisobiga to'ldirish dolzarb masala ekanini anglatadi. Harbiy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar o'z samarasini berdi. Harbiy bilim yurtlari, ulardagi fakultet va kafedralar soni oshdi. Qurolli Kuchlar akademiyasi tashkil etildi. Bu maskanlarni bitirgan ofitserlarimiz yurtimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga astoydil qodirdir.

Vatan o'z xaloskorlari qadrini hamisha baland qo'yadi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-oktabrdagi qaroriga ko'ra, muddatli harbiy xizmatchilarning bir oylik xizmati ikki oylik mehnat stajiga tenglashtirilgan. Qurolli Kuchlarimizning ichki xizmat nizomida «davlat harbiy xizmatchilarining ijtimoiy va huquqiy muhofazasini kafolatlaydi, ularga yetarli va munosib turmush darajasini yaratish, xizmat va maishiy sharoitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi» deya ta'kidlagan.

Hukumatimiz muddatli harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun ham qator qulayliklar yaratdi. Masalan, farzandi muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan xonadon sohibi yer solig'idan ozod etiladi. Mamlakatimiz aholisining aksariyati qishloq joylarida istiqomat qilishini, asosiy daromadlari shaxsiy tomorqadan ekanini nazarda tutsak, bu askar o'g'il tarbiyalagan oilalar uchun juda katta imkoniyat.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-mayda qabul qilingan qaroriga ko'ra, harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari ikki barobarga, xizmatdan zaxiraga bo'shatilganda beriladigan nafaqa miqdori esa eng kam ish haqining sakkiz baravariga oshirilgan.

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining 2005-yil 31-oktabrdagi qarori ahamiyatini alohida ta'kidlamoq joiz. Unga ko'ra harbiy qism tavsiyanomasiga ega bo'lgan yigitlarimizga mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirmoqchi bo'lsalar, test sinovlarida to'plagan ballarining 25 foizi miqdorida ball qo'shib beriladi.

Harbiy xizmatdan so'ng kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan talabalar agar o'qish davrida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining boshlang'ich tashkilotlari faol a'zosi sifatida o'zlarini namoyon etishsa, ularga kontrakt to'lovining 35 foizi miqdorida moddiy yordam ko'rsatiladi.

Prezident I.A.Karimov aytganlaridek: **«hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o'zing tug'ilib o'sgan, ota-bobolarning xoki yotgan, ertaga farzandlari kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak»**. Shu fikrlar bilan O'zbekiston Qurolli Kuchlarini shaxsiy tarkibi yurtimiz tinchligi, xalqimiz omonligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrab yurishibdi va abadiy asraydilar.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari ayni paytda zamonaviy harbiy tajribalar asosida tobora shakllanib bormoqda. Milliy xavfsizlik konsepsiyasiga asoslanib, Markaziy Osiyo mintaqasida tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda, yuzaga kelayotgan tahdid va xatarlarning har tomonlama chuqur tahlili va Qurolli Kuchlarni barpo etishning mutlaqo yangi prinsiplari negizida armiyamizni isloh qilish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan Dastur yaratildi. Bundan bosh maqsad — ixcham, tezkor va harakatchan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, strategik va taktik

vazifalarni samarali hal eta oladigan, sarhadlarimiz daxlsizligi, yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni buzishga qaratilgan har qanday yovuz harakat va xurujlarni bartaraf etish va ularga munosib zarba berishga qodir bo'lgan kuchli armiyani yaratishdan iborat edi.

Qurolli Kuchlarimiz va ularning asosiy jangovar bo'linmalarining prinsipial nuqtayi nazrdan mutlaqo yangicha tashkiliy-tarkibiy tuzilmasi joriy etildi. Bo'limlar, rotalar, polklar, yordamchi boshqaruv punktlari va shu kabi yetarli samara bermaydigan bo'linmalar tugatildi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida armiyamiz va uning qismlarining yuqoridan quyigacha bo'lgan qurilishini tubdan qayta tashkil etish, ularning harakatchanligi va tezkorligini, jangovar imkoniyatlarini kuchaytirish, eng muhimi, barcha darajadagi komandirlarning mustaqilligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o'ta muhim jangovar topshiriqlarni bajarishga yo'naltirilgan Maxsus operatsiyalar bo'yicha kuchlarning qismlari tashkil etildi. O'ziga xos alohida tayyorgarlik tizimiga ega bo'lgan, zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta'minlangan ushbu bo'linmalar ehtimol tutilayotgan dushmanning har qanday tojovuzkorona xatti-harakatlariga munosib zarba berishga qodir qudratli kuch sifatida shakllandi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari tog'li hududlariga suqilib kirgan xalqaro terrorchilarning jangari to'dalarini yo'q qilish bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar buning yaqqol tasdig'idir.

Ayni paytda muddatli harbiy xizmatning bir yilgacha qisqartirilgani, qo'shinlarning sifat tarkibini yaxshilash va ularning safini to'ldirish tartiblarining takomillashtirilgani, zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlangani, safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmati joriy etilgani, shartnoma-kontrakt asosida xizmat o'tash jarayoni amalda yakunlangani armiyaning qiyofasini, uning mazmun-mohiyati va jangovar qobiliyatini tubdan o'zgartirdi.

Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini keskin oshirish, armiyada sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamlash, professional tayyorgarlik darajasini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan serjantlar tayyorlash maktablari barpo etildi va ular zamonaviy jangovar o'quv bazalari bilan ta'minlandi. Bugun serjantlar tarkibi armiyamizning tom ma'nodagi tayanch ustuniga aylangani, ular askarlarning ustozi, ofitserlarning eng yaqin yordamchisiga aylanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida barcha bo'g'indagi komandirlarning yuqori professional qobiliyati va malakasini ta'minlash, ularning intellektual saviyasini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ofitser kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi. Bu esa Qurolli Kuchlar tarkibini sifat jihatidan butunlay o'zgartirish va ularni bugungi kun talablariga javob beradigan, puxta tayyorgarlikka, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan komandirlar bilan to'ldirish imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda Qurolli Kuchlar saflarida xizmat qilish O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki mamlakatimizda orzu qilishga sazovor kasbga aylandi.

Keyingi vaqtda, xususan 2005-2006-yillarda xorijiy mamlakatlar, birinchi galda Rossiya Federatsiyasi bilan harbiy-texnik hamkorlik sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Qo'shinlarimizning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining moddiy, ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash masalasi ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Ana shu yuksak vazifadan kelib chiqib Prezident, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni I.A.Karimov bu sohada ishning zarur bo'lgan masalalari haqida batafsil gapirdi:

Biz bugun g'oyat murakkab va notinch zamonda yashamoqdamiz. Markaziy Osiyo mintaqasida hali-beri saqlanib qolayotgan qaltis vaziyat, butun dunyoda davom etayotgan nizo va qarama-qarshiliklar, tobora ko'lami kengayib borayotgan terrorizm, ekstremizm va narkoagressiya xavfi jiddiy tashvish uyg'otmasdan qolmaydi, albatta.

Bularning barchasi shu muqaddas zaminda yashayotgan, mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun befarq bo'lmagan har bir insondan doimo hushyor va ogoh bo'lishni, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligini mustahkamlashni, davlatimiz sarhadlarini qo'riqlash va himoyalashni kuchaytirishni, buning uchun mavjud bo'lgan barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilishni taqozo etadi, dedi va quyidagi vazifalarni belgilab berdi;

birinchidan, xavfsizlikka qarshi qaratilgan zamonaviy tahdid va xatarlarni tahlil qilish bo'yicha boshlangan tizimli ishlarimizni davom ettirish va chuqurlashtirish, mavjud xatarlarning yaqin va uzoq muddatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash, Qurolli Kuchlarimizning mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga nisbatan har qanday tahdidlarga munosib va samarali tarzda qarshi tura olish imkoniyatlarini baholashga tanqidiy nuqtayi nazardan yondashish;

ikkinchidan, qo'shinlarning zamonaviy qurol-yarog' va texnika, o'ta aniq ishlaydigan qurollar, boshqaruv va aloqaning elektron, kompyuterli tizimlari bilan, shuningdek, ishonchli anjom-aslaha va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishini yanada yuksaltirish, pirovard natijada birlashma va qismlar, birinchi galda terrorizmga qarshi bo'linmalarning ta'minot darajasini, jangovar tayyorgarligi, harakatchanligi va tezkorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

uchinchidan, shaxsiy tarkibning o'quv-jangovar va mashq tayyorgarligi tizimining samaradorligini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning yuksak intizomini ta'minlash, ularga ishonib topshirilgan zamonaviy qurollar va texnikadan mohirona foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni

takomillashtirish. Harbiy xizmatchilarning shaxsiy va guruh tarkibidagi tayyorgarlik darajasi, intellektual salohiyatini oshirishni ta'minlaydigan modellashtirish, simulatsiya va harbiy ta'limning boshqa zamonaviy usullarini keng joriy etish lozim.

Barcha bo'g'indagi komandirlarning eng muhim vazifasi – armiyadagi tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, har qaysi harbiy xizmatchi ongida mamlakatimiz taqdiri uchun chuqur mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, vatanparvarlik hissiyotini kuchaytirishdan iborat ekanini yaxshi anglab olishimiz zarur.

Harbiy tayyorgarlik darajasi va harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar sifatini oshirishda har yili o'tkaziladigan va an'anaga aylanib qolgan «Eng yaxshi serjant», «Eng yaxshi guruh komandiri», «Eng yaxshi vzvod komandiri», «Eng yaxshi batalyon komandiri» kabi yo'nalishlar bo'yicha tanlovlar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu ishlarning barchasidan ko'zlangan bosh maqsad – yuksak jangovar tayyorgarlik va professionalizmni, harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha qo'shinlarda o'zaro musobaqa ruhini kuchaytirish, serjant va ofitserlarda yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish, harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdan iboratdir.

Shu bois ana shunday tanlovlarni butun armiya miqyosida o'tkazish tajribasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kengaytirish zarur, deb hisoblayman. Tanlovda qatnashadigan harbiy xizmatchilarni munosib taqdirlash tizimini har jihatdan takomillashtirish, ya'ni tanlov g'oliblariga muddatidan avval navbatdagi harbiy unvonlar berish, ularni moddiy rag'batlantirish miqdorini oshirish, harbiy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda ular uchun qo'shimcha imtiyozlar berishni ko'zda tutish darkor;

to'rtinchidan, qo'shinlar tarkibini yanada maqbul holga keltirish, ularning tashkiliy-tarkibiy tuzilmasini, Qurolli Kuchlarni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish. Bu yo'nalishdagi eng muhim vazifa – jangovar harakatlar chog'ida muvaffaqiyatga erishishning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lgan birlashma va qismlarning tezkor harakatlanish imkoniyati va harbiy tayyorgarligini oshirishdan iborat;

beshinchidan, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, uy-joy va maishiy sharoiti, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini yaxshilash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlarni yanada kuchaytirish davlatimiz va jamiyatimizning asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

O‘z-o‘zidan ayonki, bu vazifaning ahamiyati va mohiyati 2007-yilning yurtimizda «Ijtimoiy himoya yili», deb e’lon qilingani bilangina bog‘liq emas, albatta. Ushbu masalaning muhimligi va dolzarbligi shundaki, hozirgi murakkab va tahlikali davrda har tomonlama yaxshi tayyorlangan, yetarli darajada ta’minlangan va ijtimoiy himoyalangan, qudratli Qurolli Kuchlargina xavfsizlik va barqarorlikning, chegaralarimiz daxlsizligi va mamlakatimiz hududiy yaxlitligining, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning tinch va osoyishta hayotining mustahkam tayanchi va ishonchli kafolati bo‘la oladi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar qatorida mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, uning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashda Qurolli Kuchlarimizning shakllantirilishi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Sobiq SSSR parchalanganidan keyin yuzaga kelgan sharoitda, qurolli kuchlarda boshqaruv, intizom va tartib amalda yo‘qotilgan, mamlakat xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlar kundan kunga kuchayib borayotgan bir vaziyatda Mudofaa vazirligini, uning organlari va joylardagi qo‘mondonlik tuzilmalarini shakllantirish o‘z vaqtida qabul qilingan yakka-yu yagona to‘g‘ri qaror bo‘ldi.

Kadrlar eng avvalo, ofitserlar tarkibini saqlab qolish va mustahkamlash, armiya saflarini milliy kadrlarimiz bilan to‘ldirish, ularning tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o‘tishini ta’minlash, eng muhimi, mamlakatimizdan jangovar texnika va qurollar olib chiqib ketilishini oldini olish o‘ta muhim ahamiyatga ega edi.

Keyinchalik, mintaqamizdagi tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va harbiy vaziyatdan kelib chiqqan hola, armiyani isloh qilish bo‘yicha yangi prinsiplar negizida Qurolli Kuchlarni barpo etish va tashkil qilishga asoslangan, xavfsizlikka tahdid soladigan real xavf-xatarlarni nazarda tutadigan uzoq muddatga mo‘ljallangan dastur shakllantirildi.

Ushbu dasturni amalga oshirish jarayonida milliy armiyamiz tashkiliy jihatdan yangicha tarkibiy tuzilishga ega bo‘ldi, qisqa muddatda harbiy okruglar, chegaraviy mintaqalar tashkil etildi, Qurolli Kuchlarni boshqarishning butun tizimi, birlashma va qismlarning tarkibi va joylashuvi qayta ko‘rib chiqildi, qo‘shinlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ bilan ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, o‘ta muhim jangovar topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirilgan Maxsus operatsiyalar bo‘yicha kuchlarning bo‘linmalari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Terrorizmga qarshi kurash korpusi tuzildi. Bu bo‘linmalar ehtimol tutilayotgan dushmanning har qanday tajovuzkorona harkatlariga qarshi munosib zarba berishga qodir qudratli ekani

Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li tumanlariga suqilib kirgan xalqaro terrorchilarning jangari to'dalarini yo'q qilish bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarda namoyon bo'ldi.

Ayni paytda muddatli harbiy xizmatning bir yilgacha qisqartirilgani, qo'shinlarning sifat tarkibini yaxshilash va ularning safini to'ldirish tartiblarining takomillashtirilgani, zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlangani, safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmatining joriy qilingani, shartnoma-kontrakt asosidagi xizmatga o'tish jarayoni amalda yakunlangani armiyamiz qiyofasini, uning mazmun-mohiyatini qayd etish zarur.

Serjant va ofitser kadrlarni tayyorlashning axborot va kompyuter texnologiyalariga, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan samarali tizimi tashkil etildi.

Harbiy xizmatchilarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, zarur turarjoy va maishiy sharoit bilan ta'minlash borasida ham ko'p ishlar qilindi. So'nggi besh yilning o'zida harbiy unvonlar bo'yicha maoshlar, harbiy xizmatdan bo'shagandan keyin to'lanadigan nafaqalar miqdori ikki barobardan ziyod oshirildi.

Bugun to'la ishonch bilan aytish mumkinki, Vatanimizning xavfsizligi Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda ta'minlanmoqda, armiyada xizmat qilish O'zbekiston fuqarosi uchun nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki nufuzli kasblardan biriga, tom ma'nodagi shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Armiya xizmatini o'tayotgan yigitlarimiz harbiy mutaxassisliklarni puxta egallash bilan birga jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqib, irodasi toblanib, qat'iy hayotiy pozitsiyasi shakllanmoqda, Vatan himoyasi yo'lida doimo tayyor turadigan mard va jasur insonlar bo'lib kamol topmoqda.

IQTISODIY ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

1-§. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish

Har qanday islohot, agar u odamlar hayotini yaxshilashdan iborat pirovard natijaga qaratilmasa, unday islohotlar keraksizdir. Shuning uchun ham O'zbekistondagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar har tomonlama barqarorlikni ta'minlashga, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etishga qaratildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat hukumatining iqtisodiy strategiyasi asosan eng muhim uch vazifani hal etishga yo'naltirildi:

1. Ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatish.
2. Iqtisodiy yuksalishning asosi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish.
3. Barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish.

O'zbekistonda islohotlar endigina boshlangan 1992-yildayoq Prezident Islom Karimov O'zbekistondagi iqtisodiy o'zgarishlar barqarorlik vaziyatida o'tishi kerakligini alohida ta'kidlagan edi. Shuning uchun ham u o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» (1992) nomli kitobida hukumat siyosati xususiylashtirish va raqobat vaziyatini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirishga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, milliy valyutani mustahkamlashga, iqtisodiy tizimda chuqur tarkibiy o'zgartishlarni amalga oshirishga, kuchli ijtimoiy kafolatlar beradigan huquqiy demokratik davlatni shakllantirishga qaratilgan, – deb uqtiradi.

Shu bois mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning muhim natijasi bu – makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishilgani bo'ldi. Binobarin, bu jarayon bozorni shakllantirishdagi muhim jihatdir. **«Barqarorlashtirish siyosati,** – deb yozadi I.Karimov, – **eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, u pul qadrsizlanishining, pul emissiyasining boshqarilishini ta'minlash, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir».**

O'zbekistonda makroiqtisodiyotni barqaror qilish borasida qator amaliy choralar belgilanar ekan, avvalo bu boradagi jahon tajribasi

o'rganildi, ayni chog'da MDH davlatlarida shu sohada yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilindi. Jumladan, o'tish davrida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilashda avvalo ustuvor, katta istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni har tomonlama rag'batlantirish, ya'ni eng muhim bo'g'inlarni aniqlash (neft – neft mustaqilligi, energetika – energetika mustaqilligi, don – g'alla mustaqilligi, paxtani qayta ishlash sanoati va hokazolar) orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha izchil siyosat yuritishi lozim edi.

Shuni ro'yirost aytish kerak, mustaqillik qo'lga kiritilgan 1991-yil oxirlari va 1992- yilda O'zbekiston zimmasiga og'ir va jiddiy sinovlar tushdi.

Shu davr mobaynida «davlat va xalq o'z taqdirini, o'z mustaqilligini, o'z ozodligini himoya qila olishga qodirmi?» degan savolga javob berishga to'g'ri keldi. Buning boisi shunda ediki, SSSR parchalanib ketishi, an'anaviy xo'jalik aloqalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy va xomashyo zaxiralarining nihoyatda taqchilligi yuz berdi. Masalan, boshqa mintaqalar va mamlakatlardan mahsulot yetkazib berilishiga bog'lanib qolgan yirik korxonalar to'xtab qolish arafasida edi. Buning ustiga aholining moddiy ahvoli yana ham pastlashib ketdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarning eng muhim turlari chetdan olib kelinishi sababli birmuncha qiyinchiliklarga duch kelindi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda Rossiya, Ukraina va Belorussiyaga nisbatan ancha noqulay sharoitda edi. Ana shunday holatdan O'zbekiston o'zining butun kuch-g'ayrati va ichki imkoniyatlarini safarbar qilib, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga jiddiy e'tibor berdi.

Chunki iqtisodiyotni barqarorlashtirishda ustuvor hisoblangan yetakchi asosiy tarmoqlar belgilab olinmasa, bozor munosabatlari sharoitida ularning shakllanishiga yordam ko'rsatilmasa iqtisodiy strategiya boy berilishi mumkin edi. Bu butun mamlakat iqtisodiyotini butunlay yangidan boshlash, islohotlar paytida uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta'minlab turishning bosh yo'li, asosiy tamoyili bo'ldi.

Shu bois O'zbekiston iqtisodiyotida, avvalo, tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Respublika iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, importni qisqartirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, istiqbolni belgilaydigan ustuvor tarmoqlarni jadal rivojlantirish, tarmoqlar ichidagi nomutanosiblikka barham berishga e'tibor qaratildi. Natijada, xalq iste'moli mollarini chetdan keltirishdan voz kechib, O'zbekistonning o'zida ishlab chiqarishga katta e'tibor berildi.

Mustamlaka yillarida iqtisodiyotimiz umumittifoq mehnat taqsimoti niqobi ostida bir tomonlama, mahalliy talab va ehtiyojlarga mos tushmaydigan tarzda tarkib topdi. Sobiq tizimda ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish xalq iste'mol mollari tayyorlash sur'atlaridan yuqori

bo'lishi kerak, degan soxta nazariyaga mahkam yopishib olinganligi sababli iste'mol mollari tayyorlash izdan chiqqan edi. Natijada o'zimizda yetarli tabiiy boyliklar va ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega bo'la turib, aholi uchun zarur xalq iste'mol mollarining 60 foizdan ortig'i chetdan keltirilar edi. Oddiy tuz va gugurtni ham boshqa davlatlardan olib kelinar edi. Murakkab texnologik jarayonlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarish to'g'risida o'ylanmas edi.

1992–94-yillarda islohotlarning natijalari aholining iste'mol mollariga bo'lgan talabini o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobiga qondirilishida, ayrim turlarini esa chetga sota boshlanganida namoyon bo'la boshladi.

Eng muhimi, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish kamayib ketishiga yo'l qo'yilmadi. Agar, 1997-yili 1996-yilga nisbatan yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 6,5 foizga ortgan bo'lsa, iste'mol mollari ishlab chiqarish 11,2 foizga ko'tarildi. Vaholanki, iqtisodiy sharoitlari nisbatan ancha qulay bo'lgan hamdo'stlikdagi ba'zi mamlakatlarda ishlab chiqarish 40–50 foizga tushib ketib, iste'mol bozori izdan chiqdi. Oqibatda xorijdan keltirilayotgan oziq-ovqat va sanoat mollariga qaram bo'lib qoldilar.

90-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishi quvvati og'ir sanoatdan tortib, yengil sanoatgacha bo'lgan industriyaning barcha tarmoqlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sanoat yo'li bilan qayta ishlovchi yirik korxonalar vujudga keldi. 2,2 ming yirik va o'rta sanoat korxonalari keng miqyosga ega turli yo'nalishdagi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi.

Shuni aytish kerakki, Markaziy Osiyo mashinasozlik mahsulotlarining uchdan ikki qismi O'zbekiston korxonalarida ishlab chiqara boshlandi.

Dunyoning faqat ikki mamlakatidagina (AQSH va O'zbekiston) paxtachilik mashinalari va uskunalari to'liq ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston – ipakchilik va pillakashlik texnikasi ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi yagona davlatdir. Aviatsiya texnikasi ishlab chiqarish bo'yicha MDHdagi eng yirik korxonalarning biri O'zbekistonda joylashgan. O'zbekiston metallurgiyasi deganda Markaziy Osiyoda qora va rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik zavodlar hisoblanmish Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston qiyin eruvchi va o'tga chidamli metallar kombinati va boshqalar ko'z oldimizga keladi.

Neft-kimyo sanoati 20 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi. Ulardan 15 tasi ilgari boshqa davlatlardan olib kelinar edi.

O'zbekiston yengil sanoati ham ko'p tarmoqli bo'lib, u industrlashgan kompleks hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilishdagi natijalarni Rossiyada chiqadigan gazetalar ham ijobiy baholay boshladi.

Jumladan, «Независимая газета» 1996-yil 22-noyabr sonida MDH tarkibidagi mustaqil davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni tadqiq qilib, quyidagi xulosaga keladi.

«Rossiya 1996-yilda sanoat ishlab chiqarishi darajasi bo'yicha 1990-yilga nisbatan 47 foiz,

O'zbekiston	106 foiz,
Turkmaniston	81 foiz,
Belorussiya	63 foiz,
Ukraina	55 foiz,
Qozog'iston	48 foiz,
Armaniston	48 foiz,
Moldova	43 foiz,
Ozarbayjon	41 foiz,
Qirg'iziston	39 foiz,
Gruziya	18 foiz ko'rsatkich bilan chiqmoqda».

Ushbu gazetaning sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi respublikalar ichida sanoat ishlab chiqarishi jihatidan O'zbekistonni birinchi o'ringa qo'yganligi mamlakatda iqtisodiy islohotlar sobitqadamlilik bilan amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi, bu ayni paytda, uning xorijiy mamlakatlarda tan olinishining belgisi edi.

O'zbekistonda keyingi yillarda qurilish kompleksi ham muttasil rivojlana boshladi. Jumladan, 1997-yildagi ma'lumotga ko'ra mamlakatda yiliga 100–110 milliard so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan.

Mavzuga doir material

Makroiqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar

* Islohotlarning jo'shqin rivojlanishi tufayli muayyan ijobiy makroiqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berdi.

* Yalpi ichki mahsulot hajmlarining pasayishi sur'atlari kamaydi. Chakana tovar aylanishi hajmi 8 foiz kamayganiga qaramay, 1995-yilda sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish nisbatan barqaror bo'ldi. Iqtisodiyotning eng yirik sektori bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish 2,3 foiz oshdi. Eksport ancha, deyarli 16 foiz ko'paydi va birinchi marta savdo balansida ijobiy saldoni ta'minladi.

* 1996-yilda 1994-yilga nisbatan pulning qadrsizlanish jarayonlari keskin ravishda, 3,7 baravar kamayib, asta-sekin moliyaviy barqarorlikka va aholi real daromadlarining oshishini ta'minladi. Agar 1995-yilning birinchi choragidagi pul qadrsizlanishining o'rtacha oylik dara-

jasi 11 foizni tashkil etgan bo'lsa, uchinchi chorakda u faqat 6 foiz bo'ldi. Yil oxiriga borib u yana birmuncha oshgan bo'lishiga qaramay, 1994-yil darajasidan ancha past bo'ldi.

* Pul qadrsizlanishining kamayishi natijasida aholining real ish haqi va real daromadlari oshdi.

* Investitsiya faoliyati faollashib, aholi bandligining qo'shimcha oshishini ta'minladi. 1995-yilda islohotlar boshlangandan keyin birinchi marta investitsiyalar hajmi oshdi.

* To'lov balansining sezilarli yaxshilanishiga erishildi, u milliy valyuta kursining mustahkamlanishiga va uning qisman ichki konvertatsiyalanishini joriy etishga ta'sir ko'rsatdi.

* Iqtisodiyot tarmoqlari strukturasida qayta qurish jarayonlari sezilarli bo'lib qoldi: ustun tarmoqlarga investitsiyalar hajmi ko'paydi, baza tarmoqlari va yuqori texnologiyali tarmoqlar tezroq rivojlana boshladi.

* Ichki ishlab chiqarishning oshishi asosida aholining go'sht, mevalar, sabzavotlar kabi qimmatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilinishi oshdi.

* Noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida ish haqining ildamroq indeksatsiyalanishi hisobiga iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'rtacha ish haqining ish tabaqalanishi birmuncha qisqardi.

* Aholining 1992-yil 1-yanvargacha jamg'arma banklar depozitlariga qo'ygan pul omonatlarini 40 baravar indeksatsiyalash va 1996-yil 1-iyuldan boshlab bosqichma-bosqich to'lash haqida qaror qabul qilindi.

* 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga pul nafaqalarini ko'paytirish haqida qaror qabul qilindi, bu oilalar, ayniqsa, ko'p bolali oilalar daromadlarining oshishiga ko'maklashadi.

* Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari soni ko'paydi, ular aholining, ayniqsa, qishloq joylaridagi aholining mehnatini sarflash sohalarini ancha kengaytirish imkonini beradi, shuningdek, aholining daromadlarini ko'paytiradi.

Makroiqtisodiyot va statistika
vazirligining 1996-yilgi ma'lumotlaridan.

* * *

Shuni aytish kerakki, respublikada yuk va yo'lovchilarni mamlakat ichkarisida va tashqariga tashishni MDH, Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni ta'minlovchi transport tizimi shakllandi. Mustaqillik yillarida transportning barcha tarmoqlari jadal rivojlandi.

O'zbekistonning bevosita ishtirokida «TransOsiyo» magistralining bir qismi hisoblangan, Janubi-Sharqiy Osiyoni G'arbiy Yevropa bilan tutashtiradigan va TransSibir Magistralidan 1500 kilometr qisqa bo'lgan Tajan – Seraxs – Mashhad yangi yo'li ishga tushirildi.

O'zbekiston Milliy Aviakompaniyasi A-310, Il-86, Il-76, TU-154, «Boing» va boshqa shu kabi zamonaviy havo laynerlariga va mahalliy yo'llarga mo'ljallangan ko'p miqdordagi samolyotlarga ega.

2007-yilga kelib O'zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari ellikka yaqin mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali bog'landi.

O'zbekiston energetika tizimi ko'p tarmoqli sohaga aylandi. Uning tarkibida loyiha, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va energiyadan foydalanish korxonalari mavjud. Bugungi kunda respublikamizda 37 ta issiqlik va gidroelektrostansiyalar ishlab turibdi. Ular yiliga 55 milliard kilovatt-soatdan ziyodroq elektr energiyasi hosil qilish imkoniyatiga ega. Mamlakatimizda elektr tarmoqlarining uzunligi 228 ming kilometrdan ko'pdir.

Markaziy Osiyodagi eng yirik Tolimarjon GRESi jadal sur'atlar bilan qurilmoqda.

Sobiq Ittifoqdagi ayrim respublikalardan farqli ravishda O'zbekistonda hosil qilinayotgan elektr va issiqlik energiyasi respublika aholisi va xalq xo'jaligi ehtiyojini to'liq qondirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq yangi institutsional tizimlar vujudga keldi. Jumladan, Tashqi Iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi Iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi. Bojxona xizmati butunlay yangidan tuzildi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, chet ellik sarmoyadorlarning mamlakat hududida faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirish va ularni ishonchli kafolat bilan ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy zamin yaratildi.

1992–1995-yillarda – eng og'ir sharoitlarda O'zbekistonning umumiy tashqi savdo oboroti qariyb 2 marta ko'paydi. MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiya chuqurlashdi. O'z navbatida iqtisodiy jihatdan rivojlangan uzoq xorijiy mamlakatlar bilan savdo hajmi va geografiyasi birmuncha kengaydi. Uzoq xorijiy mamlakatlarga an'anaviy paxta tolasidan tashqari elektr manbalari chiqarish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari, shuningdek, transport xizmati, santexnika va boshqa xizmatlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Eksport korxonalarimiz faoliyatining eng muhim yo'nalishiga, butun iqtisodiyotimizning rivojlanish natijalarini baholash mezoniga aylandi.

2007-yilga kelib deyarli ko'pgina tarmoq va korxonalarimiz tashqi iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilgan bo'lib, tashqi bozorlarni faollik bilan o'zlashtirmoqda.

Birgina 2006-yilning o'zida tovar mahsulotlarini eksport qilish hajmi 31,5 foizga o'sib, 2000-yilga nisbatan 2 martadan ko'proq ortdi.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi yil davomida qariyb 2 milliard AQSH dollarigacha o'sdi.

Eksport hajmining ana shunday o'sishi O'zbekiston uchun an'anaviy resurslar bo'lmish paxta tolasi, qimmatbaho metallar va turli xomashyo yetkazib berish hisobiga emas, balki asosan avtomobillar, neft-kimyo va metall mahsulotlari, mineral o'g'itlar, ip-kalavavagazlama, trikotaj buyumlar, sim-kabel mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa shu kabi ko'plab eksport tovarlari hajmi va turlarini ko'paytirish evaziga ta'minlanmoqda.

Buni eksport hajmida tayyor mahsulotlar va xizmatlarning ulushi 53 foizdan oshgani, paxta tolasining ulushi esa 17 foizgacha kamaygani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Import tizimida oziq-ovqat mahsulotlari keltirish kamayib, texnologiya va asbob-uskunalar olib kelish salmog'i keskin ortdi.

1994–1996-yillarda chet el sarmoyalari ishtirokida «O'zelmas», «Zarafshon-Nyumont», «O'zsalaman» va «O'zDEU» qo'shma korxonalari ishga tushirildi. Mazkur korxonalar ishga tushirilganidan keyin aholini sifatli poyabzal, gugurt, avtomobil va boshqa iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash hajmi ortdi.

Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda 1993-yil avgust oyidan boshlab qurilayotgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yiliga 2,5 million tonna gaz kondensatini qayta ishlab chiqarishga mo'ljallangan ushbu zavodning birinchi navbati loyiha va texnologik qismi qurilishlarini Fransiyaning «Teknip» firmasi, umumzavod xo'jaligi obyektlarini qurishni esa mahalliy qurilish tashkilotlari olib bordilar.

Zavod Qorovulbozor tumanining suv toshqinidan xoli, temir yo'lga yaqin bo'lgan va barcha boshqa ishlab chiqarish hamda iqtisodiy talablarga javob beradigan qulay joyidan tanlandi. Uning umumiy maydoni 205 gektarni tashkil etadi. 1993–1997-yillar davomida ushbu zavod qurilishiga jami qariyb 21 milliard so'm mablag' sarflandi.

Zavodning asosiy ishlab chiqarish obyektlari bilan bir qatorda ishchi-xizmatchi, muhandis-texnik xodimlar uchun ikki yarim ming kishi yashaydigan shaharcha qurildi. Shaharchaning infrastrukturasida umumiy maydoni yuz ming kvadrat metr bo'lgan uy-joylar hamda maktab, bolalar bog'chasi, dorixona, ambulatoriya-poliklinika, tez yordam stansiyasi, mehmonxona, aloqa uzeli, maishiy xizmat ko'rsatish va sog'lomlashtirish majmualari, savdo do'konlari, dehqon bozori va boshqa bir qator obyektlar qurildi.

1998-yilda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish 1990-yildagiga nisbatan qariyb 3 barobar oshdi. Agar 1990-yilda O'zbekistonda iste'mol qilinadigan neftni 70 dan ortiq foizi va neft mahsulotlarining deyarli yarmi import qilingan bo'lsa, 1998-yilga kelib ular importining ulushi

deyarli yo'qqa chiqdi. Undan tashqari, davlatimiz neft importeridan uning eksporteriga aylandi. Neft eksporti 1992-yildagi 270 ming tonnadan 1998-yildagi 912 ming tonnagacha, yoki qariyb uch barobar oshdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillikning eng og'ir 1992, 1993 va 1994-yillari mamlakat aholisi uchun qanchalik qiyinchiliklarni ro'baro' qilmasin, hukumat og'ir vaziyatdan chiqish bilan birga strategik maqsadlar bilan ham yashadi. U kundalik muammolarni hal etish, aholini kundalik ehtiyoj mollari bilan ta'minlash va boshqa bir qator talablarni amalga oshirish, eng og'ir iqtisodiy tanglikdan hech qanday larzalarsiz o'tib olish chora-tadbirlarni belgilash bilan birga mamlakat istiqbolini va xalq kelajagini ta'minlaydigan ulkan maqsadlarni ham amalga oshirish yo'lidan bordi. Asakadagi avtomobil zavodi, Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi, mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi yuzlab sanoat korxonalari qurilishlariga xuddi ana shu qiyinchilik yillarida poydevor qo'yildi.

Hatto eng mushkul yillarda – ya'ni, o'tish davrining boshlanishida ham O'zbekistonda kapital sarmoyalarning keskin tushib ketishi kuzatilmadi. 1995-yildan boshlab esa investitsiyalarning o'sishi yaqqol ko'rinmoqda. 1997-1998-yillarda O'zbekistonda kapital sarmoyalar yiliga 17 foizga o'sib bordi. Shu jihatdan respublikamizdagi vaziyat shu paytgacha investitsiyalarni milliy miqyosda amalga oshirish mexanizmlarini ishga tushira olmagan o'tish davri iqtisodiyotidagi boshqa davlatlarnikidan afzalliklari bilan farqlanadi.

Mulohaza uchun dalil

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar

1994-yilda bevosita xorijiy investitsiyalar mamlakat investitsiyalari umumiy hajmining bir foizdan kamrog'ini tashkil etardi. 1995-yilda ularning salmog'i 17 foizga ko'paydi. Eng yirik xorijiy investorlar orasida Angliyaning «BAT indastriz end Lonro», Amerikaning «Nyumont Mayning», Janubiy Koreyaning «DEU» va boshqa kompaniyalar bor. Neftni va gazni tozalash, qayta ishlash va avtomobilsozlik investitsiyalar uchun ustun tarmoq hisoblanadi. Investitsiyalarning katta qismi yengil sanoatga ya'ni to'qimachilik, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'llandi.

* * *

2006-yil davomida Qo'ng'irot soda zavodi, To'palang GESi ishga tushirildi, «O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidan mis va uning quyilmalaridan tasma lentalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, «Ko'kdumaloq» qo'shma korxonasida gazni qayta ishlash quvvatining birinchi navbati foydalanishga topshirildi, Farg'ona neftni

qayta ishlash zavodida gazni qismlarga ajratadigan qurilma, Gazli-Sarimoy gaz quvuri qurilishi, to'qimachilik sanoatida esa 11 ta investitsiya loyihasi yakuniga yetkazildi, sanoatning qator yetakchi tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga kirishildi.

Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'li qurilishi, Toshkent issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya etish, Navoiy shahri aeroportini rekonstruksiya qilish, Rezaksoy va Hangaronsoy suv ombori hamda boshqa obyektlar birpo etish bilan bog'liq yirik loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda. Aris-O'zbekiston temir yo'l tarmog'i elektrlashtirildi. Yo'lovchi tashish poyezdlarining yangi tezyurar yo'nalishlari ishga tushirildi.

Yo'l qurilishi dasturining amalga oshirilishi tufayli 2006-yilda xalqaro transport tarmog'i tarkibiga kiradigan 130 kilometr avtomobil yo'li rekonstruksiya qilindi, umumiy foydalanishda bo'lgan 2400 kilometr yo'l ta'mirlandi, 34 ta ko'prik qurildi.

Umumiy qiymati 186 million dollar bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan xorijiy sarmoyalar ishtirokida 53 ta loyiha bo'yicha mablag'larni o'zlashtirish yakunlanib, mahsulot ishlab chiqarish boshlandi. Jumladan, «O'zbekyengilsanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasida – 11 ta loyiha, Aloqa va axborotlashtirish agentligida – 4 ta, «O'zbekcharm-poyabzali» aksiyadorlik kompaniyasida – 2 ta va respublikamizning turli hududlarida 31 ta loyiha amalga oshirildi.

Hozirgi paytda respublikada xorijiy sarmoyadorlar taxminan 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritgan 2000 ga yaqin xorijiy sarmoyali korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritgan eng yirik investorlar – Koreya, AQSH va Yevropa mamlakatlaridir. Bunda xorijiy sarmoyalarning umumiy hajmi ham (1998-yilda 78 mlrd. so'mdan ortiq), ularning umumiy kapital sarmoyalardagi ulushi ham – 1994-yildagi 7 foizdan 1998 yildagi 20 foizgacha – oshib bormoqda.

Yaratilgan qulay imtiyoz va preferensiyalar tizimi tufayli 2006-yil holatiga iqtisodiyotimizga jami 20 milliard AQSH dollaridan ziyod miqdordagi xorijiy investitsiya jalb etildi. To'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi esa faqatgina 2000–2006-yillar mobaynida 9,3 marta oshdi va 2,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish– bu nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ayni paytda – bu avvalo yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nouxaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqaradigan mahsulotlarimizning yuksak sifatini ta'minlashga qaratilgan.

Keyingi yillarda iqtisodiyotga sarf qilinayotgan sarmoyalar yalpi ichki mahsulotning choragidan ko'prog'ini tashkil qildi. Boshqa mamlakatlar

bilan qiyoslaganda O'zbekistonda YIMdagi sarmoyalar ulushi 1990-yildagi 23 foizdan 1998-yildagi 30 foizgacha o'sdi, ayni paytda 1990-yilda sarmoyalar 14–21 foizni tashkil etgan boshqa mamlakatlarda 1998-yilda 9–15 foizgacha kamaydi.

Bu esa iqtisodiyotning qator asosiy tarmoqlari – yonilg'i, qazib oluvchi, yengil, oziq-ovqat, go'sht-sut sanoatini texnik qayta jihozlash va yangilashni, yangi yirik ishlab chiqarish korxonalar – Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, O'zDEU, SamKochavto, Hazorasp shakar zavodi va boshqalarni qurishnigina emas, balki respublika uchun mutlaqo yangi bo'lgan zamonaviy tarmoqlar: avtomobilsozlik, farmatsevtika va mikrobiologiya sanoatini, radioelektronika, telekommunikatsiyalar sohasi va boshqalarni yaratish imkonini berdi.

2000-yilda qo'shma korxonalarda mahsulotni eksport qilish va xizmat ko'rsatish hajmi 2,1 marta, ishlovchilar soni 3,7 marta ortdi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilar ekan, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan ham foydalanila boshlandi. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish borasida dastlabki qadamlar qo'yildi. 1996-yil 25-aprelda Oliy Majlisning V sessiyasida «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

Umuman, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar amaliy natijasini yaqqolroq ko'rish uchun quyidagi taqqoslashni keltirish lozim. Masalan, MDH mamlakatlarining 1997-yildagi YIM hajmi ko'rsatkichlarini ularning so'nggi ellik yildagi YIM hajmining o'zgarish sur'atlariga taqqoslasak, quyidagi qiziq bir holatning guvohi bo'lamiz. Ya'ni Ozarbayjon va Moldovaning 1998-yildagi YIM hajmining ko'rsatkichlari mazkur respublikalarning 1965-yilda erishgan darajasiga teng bo'lib, foiz hisobida olsak, 36 % ni tashkil qiladi. Bu davrga kelib boshqa mamlakatlar ahvoli esa quyidagicha bo'ldi:

Armaniston – 1976-yil (55 foiz), Belorus – 1982-yil (72 foiz),
Gruziya – 1968-yil (29 foiz), Qozog'iston – 1984-yil (63 foiz),
Qirg'iziston – 1982-yil (60 foiz), Rossiya – 1980-yil (58 foiz),
Tojikiston – 1970-yil (31 foiz), Ukraina – 1977-yil (42 foiz).

Shu yerda bir tabiiy savol tug'iladi: O'zbekiston-chi? Javobi oddiy: O'zbekiston uchun mazkur nuqtayi nazardagi daraja 1990-yil bilan belgilanadi. Demak, ushbu misoldan xulosa aniqki, tilga olingan mamlakatlar real iqtisodiy taraqqiyotda O'zbekistondan 6 yildan 35 yilgacha orqada qoldilar.

Yana bir taqqoslash xarakterlidir. 1997-yilda ilk bor YIM ishlab chiqarish hajmi aholi soni o'sishi darajasidan o'zib ketdi.

Bu, o'z o'rnida yalpi ichki mahsulot hajmi aholi jon boshiga 103,2 foiz ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2000-yilda aholi jon boshiga hisoblangan o'rtacha pul daromadlari 110,5 foizga oshdi. Bunday o'sish sur'ati O'zbekiston tarixida umuman bo'lmagandi. 1996-yilga qiyoslaganda

esa Hamdo'stlik mamlakatlari orasida aholisi pul daromadlari ikki marta oshgan va bu borada yetakchilik qilayotgan yagona davlat O'zbekistondir.

Bunday xo'jalik yuritish tajribasi hali mamlakatda yo'q edi. Zamonaviy xo'jalik yuritish tajribalarini tanlov-sinovdan o'tkazishning eng muqobil yo'li bu «Erkin iqtisodiy zonalar» tashkil qilishdir.

Shunday ekan, erkin iqtisodiy zonaning o'zi nima? Bu – **birinchidan**, ichki va tashqi sarmoyalarni jalb qilish, **ikkinchidan**, istiqbolli texnologiyalar joriy qilish va boshqaruvga oid yangicha uslublarni tajribada qo'llash maqsadida maxsus huquqiy tartibotga ega bo'lgan hududda xo'jalik yuritishdir. Qolaversa, bunday zonalarni respublikada tashkil qilinishi kishilarda iqtisodiy bilimlarni kengaytirish uchun ham kerak edi.

Erkin iqtisodiy zonalar orqali ish yuritish rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2000 dan ortiq maxsus huquqqa ega bo'lgan iqtisodiy zonalar mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarning iqtisodiy rivojida ham ana shunday erkin iqtisodiy zonalar salmog'i katta. Singapurning jadal rivojlanishining asosiy sababi mamlakatni butunlay «Erkin iqtisodiy zona» deb e'lon qilinganidandir. Shu sabab, Singapur «Umumjahon omborxonasi» deb ta'riflanmoqda.

Rivojlangan G'arb mamlakatlari ham bundan istisno emas. Ularda ayrim hudud, shaharlar uzoq o'tmishdan hozirgacha maxsus huquqlarga ega. Erkin shahar Genuya, Bremen, Rotterdam, Gamburg – bularning ro'yxatini davom ettirish mumkin. Bunday hudud va shaharlar aytish mumkinki, o'sha mamlakat iqtisodining rivojlanishiga «lokomotiv» bo'lib hissa qo'shyapti.

Keyingi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarda ham erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilishga intilish kuchaydi. Jumladan, Rossiyada, Qozog'istonda va boshqa mamlakatlarda shunday zonalar barpo qilindi.

Shu maqsadda O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar haqidagi Qonun loyihasi tayyorlandi. Loyihani tayyorlash mobaynida yuqorida zikr etilgan mamlakatlar qonun va boshqa me'yoriy hujjatlari har tomonlama o'rganildi. Xorij tajribalariga suyanib erkin iqtisodiy zonalarni bir necha guruhga, ya'ni: erkin savdo, erkin ishlab chiqarish, erkin ilmiy-texnik va boshqa zonalar tarzida tuzilishi qonun loyihasiga kiritildi va u 1996-yil 26-aprelda Oliy Majlisning V sessiyasida qabul qilindi.

1995–1998-yillarda eksport tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Agar 1995-yilda paxta tolasi eksportning 50 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1998-yilda uning ulushi 43 foizgacha kamaydi. Ayni paytda tayyor mahsulotlar ulushi 17 foizdan 25 foizgacha, mashina va uskunalar ulushi 2 foizdan 4 foizgacha, xizmatlar ulushi 8 foizdan 9 foizgacha ortdi. Import tarkibidagi xuddi shunday o'zgarishlar mustaqil davlat iqtiso-

diyotining qad ko'tarish jarayonini yaxshi aks ettiradi. Agar ilgari asosiy import qilinadigan mahsulotlar oziq-ovqat (1994-yilda 34,7 %) va yoqilg'i (24,2 %) bo'lsa, hozirgi paytda oziq-ovqat importi ikki barobar qisqardi (1998-yilda 15,2 foizgacha), yoqilg'i importi esa deyarli umuman to'xtatildi. Mamlakat don va yoqilg'i mustaqilligiga erishdi, ushbu strategik tovarlarga bo'lgan ehtiyoj endilikda uning o'z ishlab chiqarishi hisobiga qoplanmoqda. Natijada bo'shagan valyuta mablag'lari iqtisodiyotni rivojlantirishga, import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishlarni barpo etishga, zamonaviy uskuna va texnologiyalar sotib olishga qaratildi. Shunga muvofiq ravishda, import tarkibida mashina va uskunalar ulushi shu davrning ichida 15,9 foizdan 47,3 foizgacha oshdi.

2007-yilga kelib mamlakatimiz 80 dan ortiq jahon mamlakatlari bilan savdo qiladi. Tashqari savdo muomalasi o'sib, 1998 yilda 9 mlrd. dollardan oshib ketdi, bu esa 1994-yildagidan taxminan ikki barobar ortiq. Tashqi savdoning jug'rofiy tarkibi ham o'zgarib bormoqda: agar 1994-yilda tovar muomalasining 58 foizi sobiq sovet respublikalariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda ularning ulushi faqat 27 foizni tashkil qildi.

Respublika makroiqtisodiy barqarorlikka birinchilardan bo'lib erishdi. 1996-yildayoq yalpi ichki mahsulot 1,7 foiz, 1997-yilda u 5,2 foiz, 1998-yilda esa 4,4 foiz ko'paydi.

Xuddi shunday o'sish keyingi yillarda ham kuzatildi. 2005-yilning nihoyasidagi yakunlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan yilda deyarli barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha prognoz hajmi va ko'rsatkichlariga erishildi, aksariyat ko'rsatkichlarning esa sezilarli darajada oshirib bajarilishi ta'minlandi.

2005-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7 foizni, inflatsiya darajasi esa 7,8 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi 7,3 foizga, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 17,7 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish esa 6,2 foizga o'sgani quvonchli hol, albatta.

2005-yil davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan kutilgan 1 foiz taqchillik o'rniga 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi, uning daromad qismi esa prognoz ko'rsatkichlaridan 39 foiz ziyod bo'ldi.

Yalpi ichki mahsulotning barqaror sur'atda o'sib borayotgani, so'nggi 2005-2006-yillarda bu ko'rsatkichning 7 foizdan ortayotgani, ayniqsa, diqqatga sazovor. Shuni ta'kidlash zarurki, O'zbekiston erishayotgan barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarinint asosiy manba va omillari tariqasida dunyo xomashyo va tovarlar, avvalo, neft va gaz bozorlarida mavjud bo'lgan qulay konyunktura va qandaydir tashqi omillar ko'maklashib turgani yo'q.

Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq

muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turganini kuzatish qiyin emas.

2005-yilda iqtisodiyotimizni isloh qilishning eng muhim yo'nalishlarini quyidagi misoldan ko'rish mumkin.

Birinchi yo'nalish – iqtisodiyotni tizimli va tarkibiy jihatdan izchil yangilash.

Bu boradagi harakatlar avvalo iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishda yetakchi o'rin tutishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish, soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish, shu bilan birga, O'zbekistonning o'ziga xos demografik xususiyatlari, bandlik, aholi daromadlarini ko'paytirish bilan bog'liq va boshqa o'ta muhim muammolarni hal etishga qaratildi.

Mamlakatimiz uchun ustuvor bo'lgan mazkur vazifaning ahamiyatini yana shu bilan izohlash lozimki, ichki va tashqi investitsiyalarni kiritishni talab etadigan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan bir yoqlama iqtisodiyotdan xalos bo'lish, tom ma'nodagi iqtisodiy mustaqillikka erishish mumkin emas.

Ko'rilayotgan qat'iy tadbir va choralar amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yetakchi sohalarimizdan bo'lmish sanoatning ulushi 2002-yildagi 14 foiz o'rniga 2005-yilda 20,7 foizni tashkil etgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

2006-yilda iqtisodiyotning o'sishi, solishtirma narxlarda olib qaraganda, 2000-yilga nisbatan 45 foizni tashkil etdi, bunda sanoat ishlab chiqarishi 1,6 marta, qishloq xo'jaligi 1,5 barobar, tashqi savdo aylanmasi 1,7 marta, eksport hajmi 1,9, oltin-valyuta zaxirasi 3,7 barobar, real ish haqi esa 4 marta oshganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, inflatsiyaning yillik darajasi 4 martadan ziyod pasayganini ham qayd etish lozim.

Ayni paytda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida ham jiddiy yutuqlarga erishildi. Buning natijasida sanoatda mehnat unumdorligi 1,7 marta oshdi.

Shunisi diqqatga sazovorki, yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari, jahon bozoridagi qulay konyunktura va ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

2006-yilda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 14,2 foiz o'rniga 22,1 foizni, xizmatlar ko'rsatish sohasining ulushi 30

foiz o'rniga 39,5 foizni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligida esa aksincha – bu ko'rsatkich pasayib, 32 foizdan 24 foizga tushdi.

Xizmat ko'rsatish sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Sohaning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 38,5 foizdan oshgani, jumladan, kommunikatsiya, transport va aloqa tarmoqlari bo'yicha xizmat ko'rsatish hajmi besh yil mobaynida bir yarim baravar o'sgani buning yaqqol tasdig'idir.

2006-yilda yalpi ichki mahsulot 7,3 foizga o'sdi. Ishlab chiqarish hajmining sanoatda 10,8, qishloq xo'jaligida 6,2 foizga oshgani, investitsiyalarning 11,4, qurilish-pudrat ishlarining 12,8, xizmat ko'rsatish sohasidagi ko'rsatkichlarning 19,5 foizga o'sgani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yilda erishilgan ana shunday o'sish sur'atlari va yuksak makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyatimizning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilgan ko'p yillik mashaqqatli va murakkab ishlarining mantiqiy natijasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini izchil va barqaror rivojlantirishning amaliy namoyoni bo'ldi.

Ayniqsa, keyingi yillarda telekommunikatsiya aloqasi va moliya-bank tizimida xizmatlarning yangi turlari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani e'tiborga sazovor.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va ulardan ko'zlangan maqsadlarning bajarilishi yengil sanoatning jadal sur'atda rivojlanishida ham o'z ifodasini topmoqda.

Bu tarmoqlar 2005-yilda o'sish sur'ati 2004-yilga nisbatan 12 foizni tashkil etgani, shu jumladan, to'qimachilikda 17 foiz, tikuvchilikda 24,5 foiz, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda 53 foiz o'sish kuzatilganini qayd etish zarur.

Zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlangan korxonalarning ishga tushirilishi, xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi, jahon bozoriga raqobatga bardoshli tayyor engil sanoat mahsulotlarini eksport qilish hajmining sezilarli darajada ortib borayotgani – bularning barchasi mazkur jarayonning tarkibiy qismlaridir.

Eng muhimi, bunday o'zgarishlar natijasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholi, ayniqsa, xotin-qizlar ish bilan ta'minlanmoqda.

2005-yilda chetga mahsulot eksport qilish hajmi 11,5 foizga o'sgani yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda erishilayotgan yutuqlarning muhim natijasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni paytda umumiy eksport hajmida tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi 50 foizdan oshdi.

Bu esa tashqi savdoda mustaqillik yillaridagi eng yuqori ko'rsatkich – 1,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi ijobiy saldoga erishish imkonini

berdi. Natijada mamlakatimizning oltin-valyuta zaxirasi 1,3 marta ko'paydi, bu esa, avvalo, iqtisodiyotimizning tashqi bozor o'zgarishlariga barqarorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan sifat o'zgarishlarini baholash uchun e'tiborni yana bir misolga qaratsak.

Agarki yaqin-yaqinlargacha, ya'ni 2000-yilda eksport tarkibida paxta tolasining hissasi 27,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2005-yilda bu ko'rsatkich 19 foizni tashkil etganining o'zi ko'p narsani bildiradi, deb aytish mumkin.

Shu davrda importning tarkibi ham o'zgarib, mamlakatga olib kirilayotgan umumiy mahsulot hajmida texnika va uskunalar ulushi 44 foizdan ortgani ayniqsa e'tiborga loyiq.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarining sifat jihatidan yuksalishi ko'p tomondan investitsiya hajmidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 20 foizdan oshdi.

Markazlashtirilgan holda mablag' bilan ta'minlash hajmi qisqarayotgan bir paytda korxonalar va aholining xususiy mablag'-qo'yilmalari keskin oshib bormoqda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va tijorat banklari resurslari faol jalb etilmoqda.

Buni 2005-yilda nomarkaz investitsiya manbalari ulushi 76,6 foizni tashkil etgani, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa qariyb 1,5 barobar ko'paygani ham ko'rsatib turibdi.

Aytish joizki keyingi yillarda hukumat diqqat markazida bo'lib kelgan ikkinchi masala – bu iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirishdan iborat bo'ldi.

Bu borada asosiy e'tibor soliq yukini kamaytirish, soliq-budjet siyosatini liberallashtirish va unifikatsiya qilish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq va moliya organlari mas'uliyatini kuchaytirishdek aniq maqsadlarga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirishga qaratilganini ta'kidlash joiz.

2005-yilda yuridik shaxslar daromadlari (foyda)dan olinadigan soliq stavkasi 18 foizdan 15 foizga tushirildi, bu esa qariyb 40 milliard so'mlik mablag'ni korxonalar ixtiyorida qoldirish imkonini berdi. Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 31 foizgacha qisqartirildi, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi o'zgartirildi, mulk solish stavkasi esa 3,5 foizgacha kamaytirildi.

Amalda jami 15,2 foizni tashkil etgan soliq va to'lovlar o'rniga 13 foiz miqdoridagi yagona soliq to'lovining joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda, ayniqsa, kichik korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'z navbatida kichik korxonalarga faqat 2005-yilning ikkinchi yarmida qariyb 10 milliard so'm mablag'ni tejash imkonini berdi.

Soliq yukini kamaytirish borasida ko'rilgan choralar tufayli davlat budjetiga to'planayotgan kirimlar, ya'ni fiskal chegirmalar 22,6 foizgacha qisqartirildi.

Natijada korxonalar ixtiyorida qoldirilgan 130 milliard so'mdan ziyod pul ularning aylanma mablag'larini to'ldirishga yo'naltirildi va moliyaviy ahvolini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faolligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda puxta o'ylangan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosatining o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etdi. 2006-yil yuridik shaxslar daromadlari (foyda)dan olinadigan soliq stavkalari 15 foizdan 12 foizgacha, dividend va foizlardan olinadigan soliq 15 foizdan 10 foizgacha, yagona ijtimoiy to'lov esa 31 foizdan 25 foizgacha kamaytirildi. Ekologiya solig'i butunlay bekor qilindi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish natijasida respublikamiz korxona, kompaniya va xo'jaliklari 2006-yilda o'z moliyaviy resurslarini qo'shimcha ravishda 425 milliard so'mga ko'paytirdi. Bu esa investitsiyalarning aylanma mablag'ini to'ldirish va mehnatga haq to'lashni oshirish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qildi.

Naqd pul olishdagi cheklovlarning bekor qilinishi va bu boradagi talablarga banklar tomonidan qat'iy rioya etilishi, naqd pul tushumining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi ustidan nazoratning ko'chaytirilishi bank-kredit tizimini liberallashtirishda muhim qadam bo'ldi. Tijorat banklari uchun ularning Markaziy bankdagi korrespondentlik hisob raqamlaridan cheklovsiz foydalanish imkoniyati yaratilgani, shuningdek, naqd va naqd bo'lmagan pul aylanmalarini unifikatsiya qilish bo'yicha ko'rilgan keyingi chora-tadbirlar, naqd pulsiz hisob-kitobning ilg'or shakli bo'lgan plastik kartochkalarning amaliyotda keng joriy etilishi tufayli o'tgan yilda bunday kartochkalarning soni taxminan besh barobar ortgani muhim ahamiyatga ega, albatta.

2005-yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdoni liberallashtirishda, jahon xo'jalik aloqalariga integrasiyalashuv borasida yanada salmoqli natijalarga erishdi.

Bunda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishni rag'batlantirish, eksport-import operatsiyalarini bojxona tariflari orqali tartibga solishni yanada takomillashtirish, bojxona to'lovlarini unifikatsiya qilish, soliq va bojxona ma'muriyatchiligi bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynadi.

2006-yil 12-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining 2006-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisi bo'ldi. Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ma'ruza qildi.

Davlatimiz rahbari ma'ruzasida islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlari inflatsiya darajasining pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendensiyalari mustahkamlanganligini qayd etdi.

2006-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 7,3 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,8 foizga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish 6,2 foizga, pulli xizmatlar ko'rsatish 19,3 foizga, pudrat qurilish ishlari 12,8 foizga o'sdi.

Respublika iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'sdi.

Jami investitsiyalarning yarmidan ko'prog'i ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilishga va texnologik jihatdan yangilashga, yangi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlandi, mahsulotni eksportga chiqarish hajmi ko'paydi, tashqi savdo va to'lov balanslari mustahkamlandi.

Qishloq xo'jaligida islohotlar davom ettirilmoqda. Bugungi kunda Respublikada yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklari hisobiga to'g'ri kelmoqda, aholining ish bilan bandlilik darajasi o'sdi. Masalan, 2006-yil oxirida mamlakatda 190 ming fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsata boshladi, shu yilning o'zida birgina kasanachilikni joriy qilish evaziga 60 ming odam ish bilan ta'minlandi, birgina 2006-yil 570 ming ishchi o'rni yaratildi. Keyingi yillarda aholining turmush darajasi birmuncha yaxshilandi. Birgina 2006-yil barcha toifadagi ishchi xizmatchilarning real ish haqi 36 foizga o'sib, o'rtacha ish haqi 185 ming so'mni tashkil qildi.

2006-yilga mo'ljallangan rejalar oshirib bajarildi. Jumladan, yoqilg'i energetika majmuasi va rangli metallurgiya tamoqlari yuqori sur'atlarda o'sdi. O'tgan yili faqat yoqilg'i-energetika majmuasini rivojlantirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun 250 million dollar hajmidagi xorijiy sarmoya jalb qilindi.

2006-yilda o'sish sur'ati mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 25,7 foiz, kimyo va neft-kimyo sanoatida 19,6 foiz, oziq-ovqat sohasida 28 foiz, yengil sanoatda 20 foiz, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoatida 18 foiz, qurilish materiallari sanoatida 12 foizga oshdi.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2006-yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan o'zlashtirilgan kapital mablag'lar hajmi 3 milliard 140 million AQSH dollariga teng darajani tashkil etdi.

Iqtisodiyotga yo'naltirilgan sarmoyalarning qariyb 50 foizi texnologiyalarni yangilash va zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflandi.

Barcha sarmoyalarning 77,5 foizini tashkil etadigan markazlashmalar sarmoyalarning asosiy o'sishi xorijiy investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish,korxonalarning o'z mablag'i va bank kreditlari hisobidan ta'minlandi.

Mavzuga doir materiallar

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. 2007-yilda YIMning real o'sishi 9,5 foizni, xususan, sanoatda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 12,1 foizni, qishloq xo'jaligida – 6,1 foizni, qurilishda – 15,7 foizni, aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish sohasida – 20,6 foizni va eksport hajmining o'sishi esa – 40,7 foizni tashkil etdi.

YIMning yuqori sur'atlarda o'sishi xomashyo mahsulotlari yoki jahon bozoridagi qulay konyunktura hisobidan emas, balki raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlandi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari hisoblangan yoqilg'i sanoatida ishlab chiqarish hajmi 10,1 foizga, qora metallurgiyada 9,6 foizga, kimyo va neft-kimyo sanoatida 18,0 foizga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 28,1 foizga, qurilish materiallari sanoatida 14,2 foizga, yengil sanoatda 11,2 foizga va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,2 foizga o'sdi. Shuningdek, o'tgan yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning 18,8 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 13,2 foizga va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 22,5 foizga o'sishiga erishildi.

Mashinasozlik sohasidagi o'sish asosan ushbu sohani texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda rekonstruksiya qilish hisobiga erishildi, jumladan, avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 22,7 foizga oshdi.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishida davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmining takomillashtirilganligi, qishloq xo'jaligi va unga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moddiy-texnika bazasining yaxshilanganligi muhim omil bo'ldi.

2007-yilda yetishtirilgan boshoqli don ekinlari 6,8 mln. tonnani va paxta hosili 3,7 mln. tonnani tashkil etdi. O'z navbatida ularning 2006-yilga nisbatan o'sishi mos ravishda 1,8 foiz va 3,2 foizga teng bo'ldi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berayotganligini ko'rsatmoqda.

Investitsiyalar. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va xususiy mulkchilikni himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Respublikamizda investitsiyalar hajmi 2006-yilga nisbatan 22,9 foizga oshib, 5479,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur investitsiyalarning asosiy qismi iqtisodiyotni texnik va texnologik jihatdan yangilashga va zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflandi.

Umumiy investitsiyalar salmog'ida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi 70,1 foizni tashkil etib, uning 35,7 foizi sanoatga, 22,8 foizi esa transport va aloqa sohasiga yo'naltirilgan.

Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini erkinlashtirish va soliq yukini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar YIM tarkibida kichik biznes salmog'ini 2006-yildagi 42,1 foizdan 2007-yilda 46,2 foizgacha oshirish imkonini berdi

* * *

Shuni alohida aytish joizki, aholining eng muhtoj toifalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi maqsadli umummilliy Dasturlar amalga oshirila boshlandi.

Bular:

Birinchidan, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, uning eng muhim tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish;

Ikkinchidan, biznes, xususiy biznesni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirib borish;

Uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish;

To'rtinchidan, aholi ish haqi va turmush darajasini muttasil oshirib borish;

Beshinchidan, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yo'li bilan aholi bandligi masalalarini hal qilish;

Oltinchidan, bank-moliya tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish;

Yettinchidan, kommunal tizim sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishdan iborat, deb belgilab berildi.

Umuman, o'tgan davr mobaynida milliy iqtisodiyotni shakllantirish va uni tubdan isloh qilish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining eng muhim omili va asosini tashkil etganini alohida ta'kidlash zarur. Bu borada, avvalo respublika va aholi ehtiyojini, birinchi navbatda yoqilg'i-energetika resurslari, iste'mol va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ishonchli tarzda qondirishdek dolzarb hayotiy vazifa turar edi.

Mustaqillikning dastlabki kunidanoq, yurtimizda yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu o'rinda avvalo, neft va gaz kondensati bo'yicha aniqlangan ulkan sanoat zaxiralariga ega bo'lganiga qaramasdan, ilgari iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojini qondirish uchun yiliga 6-7 million tonna neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun katta miqdordagi valyuta resurslarini sarflashga majbur bo'lar edi.

Bu jiddiy muammoni hal etish maqsadida qisqa fursat ichida O'zbekistondagi uglevodorod xomashyosini qazib olish va qayta ishlash bo'yicha maqsadli dasturlar qayta ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Yangi neft-gaz konlarini aniqlash, neft va tabiiy gazni qazib olish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar topildi, jumladan, xorij sarmoyasi jalb etildi. Buxoroda neftni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy zavod barpo qilindi. Farg'ona va Oltiariqdagi neftni qayta ishlash zavodlari modernizatsiya va rekonstruksiya qilindi, ularning barqaror va ishonchli faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratildi.

Shuningdek, o'zining ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatiga ko'ra o'xshashi bo'lmagan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi kabi noyob inshoot barpo etildi. Ushbu korxonada tayyorlanayotgan suyultirilgan gaz, turli markadagi polietilen va boshqa mahsulotlarga nafaqat mamlakatimiz, balki chet ellarda ham talab katta ekanini qayt etish lozim.

Mustaqillik yillarida ana shunday yirik korxonalarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi natijasida hozirgi vaqtda yurtimizda neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 3 barobar ortdi. Bugungi kunda O'zbekiston bu borada mamlakatning va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, eksport hajmini ham ko'paytirishga erishdi.

Asaka va Samarqand shahrilarida avtomobil zavodlarini barpo etilgani tufayli mustaqillik yillarida avtomobillar soni keskin oshdi va har yuz oilaning avtomobil bilan ta'minlanish darajasi 6 barobar o'sdi. O'z-o'zidan ayonki, respublikamizda benzin va yoqilg'i moylash mahsulotlariga bo'lgan talab ham shunga mos ravishda o'sib bormoqda.

Aynan neft va neft mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish hisobiga bugun respublikamizning rivojlanayotgan sanoati va aholining keskin o'sib borayotgan mana shunday talab va ehtiyojlarini ta'minlashga erishilmoqda.

2008-yil 9-fevral Vazirlar Mahkamasida 2007-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor vazifalarini belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilish bo'ldi.

Unda Prezident I.Karimov shu mavzuda ma'ruza qildi. Majlisda qayd qilindiki, 2007-yilda iqtisodiyotning yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy barqarorligi ta'minlandi, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgar-

tirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash ishlari davom ettirildi. Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 9,5 foizga o'sdi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari 12,1 foizni, qishloq xo'jaligi bo'yicha – 6,1 foizni, qurilish ishlari bo'yicha – 15,7 foizni, chakana tovar aylanmasi bo'yicha – 21,0 foizni, pullik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha – 20,6 foizni tashkil qildi. Davlat budjeti profitsit bilan ijro etildi, inflatsiya darajasi tasdiqlangan prognoz ko'rsatkichdan oshmadi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar natijasida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga aylandi. Qishloq bozor infratuzilmasi amalda yangidan barpo etildi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va rag'batlantirish sifat jihatdan yangi tamoyillar asosida olib borildi, tarmoqni boshqarish tamoyillari va tizimi o'zgarmoqda.

Shuningdek, **quyidagilar 2008-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor vazifalari etib belgilandi:**

– makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotni o'stirishning barqaror va muvozanatlashgan sur'atlarini ta'minlash, jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish hisobiga tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashni davom ettirish;

– islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni, soliq-budjet siyosatini yanada erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

– aholining ish bilan bandligini yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni, xizmatlar ko'rsatish sohasini va kasanachilikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

– sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishni ta'minlash;

– Yoshlar yili Davlat Dasturini bajarish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– Butun Dasturning va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlarining markaziga eng muhim ustuvor vazifa – inson manfaatlari ustuvorligi qo'yildi.

2-§. Pul-kredit siyosatining ishlab chiqilishi. Milliy valyuta qadrining oshishi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning eng muhimi qat'iy moliya siyosatini o'tkazish bo'ldi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevraldagi birinchi sessiyasida «...Bank, moliya, kredit

tizimlarini takomillashtirish, uni jahon talablari darajasiga ko'tarish... birinchi bosqichda muhim o'rin olishi darkor... Milliy valyutamiz mustahkam bo'lsagina davlatimiz qudratli, obro'li, hayotimiz farovon bo'ladi», — degan fikr bildirildi.

O'zbekistonning 1991—1993-yillardagi, ya'ni rubl zonasida bo'lib turgan davridagi iqtisodiy siyosati ishlab chiqarishning butunlay inqirozga yuz tutishiga va aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka, savdo balansining ahvolini yaxshilashga, iqtisodiy tizimini takomillashtirishga qaratildi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ikki xil tabiatga egaligi, ya'ni bir tomondan siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan yagona rubl zonasida, demak, yagona iqtisodiy zonada turganlik holati O'zbekiston uchun o'ziga xos xususiyatga ega davr edi. Bu o'z navbatida pul-kredit siyosatini belgilashda ham o'ziga xos yo'lni ishlab chiqishni taqozo etardi.

Bu boradagi muhim vazifa banklar faoliyatini, ular vazifalarini yangi talab va ehtiyojlar asosida tashkil qilmoq edi. Mamlakatda ikki pog'onali samarali bank tizimini yaratmasdan turib O'zbekistonda bozor munosabatlarini yuzaga keltirib, uning xo'jalik mexanizmini, pul muomalasini qayta qurib bo'lmasdi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek, keyin unga kiritilgan qo'shimcha va o'zgarishlar bank sohasini isloh qilish, bozor shart-sharoitlariga mos keladigan bank muassasalarini tashkil etish yo'llarini belgilab berdi.

Mazkur Qonunga muvofiq, SSSR Davlat Bankining mintaqaviy bo'limi O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankiga aylantirilib, unga banknotalar emissiyasi, hukumat hisob varaqlariga xizmat ko'rsatish, oltin-valyuta zaxiralarini saqlash, banklar faoliyatini nazorat qilish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish va boshqa vazifalar topshirildi.

Ushbu Qonun respublika iqtisodiyotini isloh qilishning boshlang'ich bosqichida qabul qilingan va u o'sha kunlar voqealari talablariga javob berar edi.

Milliy valyuta — so'mning joriy qilinishi va moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari uning huquqiy asosini yanada rivojlantirishni, banklar faoliyatining hamma jihatlarini bozor talablariga muvofiq qat'iy belgilovchi alohida qonun ishlab chiqishni taqozo etgan edi.

Shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy banklar tajribalarini inobatga olib hamda mustaqil mamlakat pul-kredit siyosatini butunlay yangitdan izga solish maqsadida Markaziy Bank to'g'risida, banklar va banklar faoliyati to'g'risida alohida Qonunlar ishlab chiqish zaruriyati vujudga keldi.

1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlisning IV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida», «Banklar va banklar faoliyati to'g'risida» alohida Qonunlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlar Xalqaro

Valyuta Fondi va Jahon Banki tomonidan yuqori baholandi. O'zbekistonda hozirgi vaqtda 20 ta tijorat banki ro'yxatga olindi va ular ishlab turibdi. 1995-yildan ularning 19 tasi aksiyadorlik-tijorat shaklida, 5 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyat, 1 tasi kooperativ, 2 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi, 2 tasi davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida o'tish davrining ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarini bartaraf etishga mo'ljallangan davlat budjeti 1993-yildan iqtisodiyotni strukturaviy qayta qurish omillaridan biriga, makroiqtisodiy mutanosibliklarni boshqarish va moliyaviy resurslarni mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida jamlash vositasiga aylandi.

1994-moliya yili qattiq pul-kredit va budjet siyosatini shakllantirishda burilish bosqichi bo'ldiki, buning natijasida davlat budjeti taqchilligi 1995-yilda YIMga nisbatan olganda 3,4 foizdan 2,8 foizgacha pasaydi.

Davlat budjetidagi taqchillikning pasayishi ko'p hollarda o'tish davridagi eng barqaror daromad manbayi — bilvosita soliqlar mavqeini oshirish evaziga ta'minlandi. Davlat budjeti daromadlari tuzilmasida bilvosita soliqlarning ulushi umumiy daromadlarga nisbatan olganda 1991-yildagi 0,7 foizdan 1995-yilda 49,3 foizga o'sdi. 1996-yilda butun daromadning 50 foizdan ko'prog'ini aksizlar, G'G'S va bojxona bojlari ko'rinishida belgilash mo'ljallangan edi.

1995-yil yakunlariga ko'ra davlat budjetining to'g'ri (daromad) solig'idan daromadi 38,5 foizni, shundan korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar daromadining 28,6 foizini, aholi daromadidan olinadigan soliq 9,9 foizni va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati daromadi solig'i esa 0,3 foizni tashkil etdi. Yalpi milliy mahsulotda davlat daromadlari va xarajatlarini umumiy qisqartirish davlatning iqtisodiyotga aralashuvini bosqichma-bosqich cheklash bozor prinsiplarining amalga oshirilishiga tamomila muvofiqdir. Shunday qilib, bozor islohotining o'tgan besh yilida davlat budjeti daromadlarining YIMdagi ulushi 49,1 foizdan 37,2 foizga, xarajatlarning ulushi esa 52,7 foizdan 40 foizgacha kamaydi.

Strukturaviy qayta qurishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi imtiyozli soliq va kredit siyosati yuritishdagi yordamda ham, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri mablag' ajratish ko'rinishida ham amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotga joriy va kapital xarajatlar uchun solinadigan mablag'larining 1996-yilda kutilayotgan o'sishi 13,65 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Ijtimoiy xarajatlar ulushi umumiy xarajatlarning 50 foizi darajasida barqarorlashdi, bu hol ijtimoiy ahamiyatga molik tarmoqlar rivojlanishini va aniq maqsadga qaratilgan ijtimoiy to'lovlarni oshirish yo'li bilan aholining muhtoj qatlamlari va guruhlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan muhim tadbirlardan biri bu pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish bo'ldi.

Prezident I.Karimov 1993-yil 7- mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida nutq so'zlarkan, **«Mustaqil davlat boshqa davlatlardan ayri tarzda iqtisodiy hur bo'lishi uchun o'z puliga, o'zining milliy valyutasiga ega bo'lmog'i kerak. Bu iqtisodiy mustaqillikning asosiy shartlaridan biridir»**, – degan edi.


1994-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining pul birligi – so'm muomalaga kiritildi. Shu kundan boshlab respublika hududidagi yagona qonuniy to'lov vositasi sifatida u barcha turdagi to'lovlar uchun, shuningdek, bankdagi hisob varaqalariga kiritish uchun qabul qilinishi shart bo'lib qoldi. Keyingi vaqtlarda milliy valyuta qadrini oshirish uchun katta ishlar qilindi.

Natijada 1995-1996-yillarda pul qadrsizlanishi sur'atlari ancha qisqardi.

Umuman, mamlakatda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishning, korxonalar va tarmoqlarning moliyaviy ahvoli mustahkamlanishining, aholini va mamlakat iste'mol bozorini muhofaza qilishning muhim omili bo'ldi.

Jami pul massasining o'sish sur'ati inflatsiyaga qarshi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida yildan-yilga pasayib bordi. Jami pul massasining o'sishi 1996-yilning birinchi yarim yilligi natijalariga ko'ra 1995-yilning aynan shu davridagidan 7,6 foiz hisobida va 1994-yil darajasidan 2 barobar kam bo'ldi.

Naqd pul massasining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1996-yilning birinchi yarim yilligida 1995-yil darajasidan 1,3 marta oz bo'ldi. Muomalaga naqd pul chiqarish – emissiya ulushi 1995-yildagi 20,7 foiz o'rniga 15 foizni tashkil etdi.



O‘tish davri iqtisodiyotining obyektiv shart-sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda kreditlar birinchi navbatda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo‘naltirildi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, «O‘zDEUavto» avtomobil zavodi singari xalq xo‘jaligining ulkan qurilishlari va boshqalar moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlash uchun muhim manba bo‘ldi.

Respublika iqtisodiyotida pul qadrsizlanishi jarayonlarini bartaraf etish, jami pul massasi tizilmasida korxonalar va tashkilotlar depozitlari, aholi omonatlarining o‘sishi uchun shart-sharoit tug‘dirdi. Depozitlar va omonatlarning eng sezilarli o‘sishi 1994 va 1995-yillarga to‘g‘ri keldi. Bunda davlatning barqarorlashtirish siyosati pul qadrsizlanishining yuqori sur’atlarini pasaytirishga yordam berdi.

Tijorat banklarining omonatlar va depozitlarni jalb etishdagi ulushi ortib bordi. Bu esa bank tizimida raqobat muhitining shakllanayotganini o‘zida aks ettiradi. Tijorat banklarining jalb etilgan depozitlar va omonatlar umumiy hajmidagi salmog‘i 1993-yil oxiridagi 1,5 foizdan 1996-yilning yarmida 24,6 foizgacha o‘sdi.

2007-yilga kelib bank tizimida muayyan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi – jami bank kapitali 1 trillion so‘mdan oshdi va u 2000-yilga nisbatan 7,4 marta o‘sdi, bank muassasalari tarmog‘i ikki barobardan ziyod ko‘paydi.

Mikrokreditbank tashkil etildi va u o‘tgan qisqa davr ichida kichik biznes subyektlariga 25 milliard so‘mdan ortiq mikrokreditlar ajratdi. Minibanklar tarmog‘i jadal rivojlanmoqda, ularning soni bugungi kunda 1800 tadan ortadi.

Faktoring va lizing xizmatlari kabi bank xizmatlarining yangi turlari o‘zlashtirilmoqda. Akkreditivlar bo‘yicha xizmatlar, plastik kartochkalar yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, iste’mol kreditlari ajratish, omonatlarning e’tiborni tortadigan yangi turlarini joriy etish va boshqa xizmatlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda.

1992–1996-yillar mobaynida valyutani boshqarish sohasidagi faoliyat milliy valyutani muomalaga kiritish va mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlarni izchil yaratib berishga qaratildi, valyuta boshqaruvi masalalari bo‘yicha normativ baza vujudga keltirildi.

1994-yilning 15-aprelidan boshlab O‘zbekiston valyuta birjasida doimiy savdolar o‘tkazilib kelinmoqda. 1994-yili realizatsiya qilingan chet el valyutasining umumiy summasi 16 million 558 ming AQSH dollarini tashkil etdi. 1995-yil davomida hammasi bo‘lib 90 marta savdo o‘tkazildi. Bunda valyuta birjasining umumiy oboroti 1 milliard 545 million AQSH dollarini tashkil etdi yoki 1994-yilga qaraganda 14 barobar ko‘p bo‘ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar ham muhim rol o'ynadi. Chunki soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berildi.

Prezident I.Karimov iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish masalalariga to'xtalib shunday deb yozadi: «Islohotning ikkinchi bosqichida iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak. Bu esa amaldagi soliq tizimini anchagina isloh qilishni talab qiladi».

Soliq tizimi bugungi ko'rinishiga ega bo'lgunigacha ma'lum bosqichni bosib o'tdi.

Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustidagi «O'zbekiston Respublikasida Davlat Soliq organlari haqida»gi Qarori mamlakat hayotida muhim voqea bo'ldi. Amalda shu qaror asosida O'zbekistonda eng zamonaviy shaklda, butunlay yangi tipdagi soliq tizimi yuzaga keldi. 12-avgust «Soliqchilar kuni» deb e'lon qilindi va u kasb bayrami sifatida nishonlanadigan bo'lindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Soliq Qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni soliqchilar hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning kengayib ketganligi mazkur Bosh Boshqarma xizmat doirasini kengaytirib yubordi. Natijada u 1997-yildan boshlab Davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Shunga o'xshash tarkibiy o'zgarishlar soliqchilar faoliyatini kengaytirdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida barcha sohalar qatori soliq tizimiga bo'lgan munosabatlar ham tubdan o'zgardi. U ikkinchi darajali tizimdan bozor iqtisodiyotini amalda tartibga soluvchi muhim vosita va davlat daromadlarini vujudga keltiruvchi bosh manba darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatda soliq tizimini yaxshilash borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar soliq to'lovchilar ongida tub o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi.

Mulk shaklidan qat'i nazar soliq to'lovchilar soni yildan-yilga ko'paydi. Agar 1994-yilda 91 mingdan ortiq yuridik shaxs ro'yxatga olingan bo'lsa, hozir ularning soni 148 mingtaga yetdi. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, jismoniy shaxslar ham soliq to'lovchilar safini to'ldirib bormoqda.

1996-yilda ular soni 1994-yildagiga nisbatan sezilarli darajada ko'payib, 2 mln. 31 ming kishiga yetdi. Ulardan budjetga tushayotgan soliq to'lovlari 5,7 marta ko'paydi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari bo'yicha keyingi yillarda bir qator o'zgarishlar bo'lganligini hisobga olgan holda yangi yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlar tayyorlandi.

2007-yilga kelib qat'iy moliya-kredit va pul siyosatini yuritish va shu asosda yil davomida inflatsiya darajasini 5–7 foizgacha qisqartirish ko'zda tutildi.

Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish va soliq organlari faoliyatini takomillashtirish borasida ishlar davom ettirildi. Daromad solig'i stavkalarini 12 foizdan 10 foizga, kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 13 foizdan 10 foizga, shuningdek, yagona ijtimoiy to'lov stavkasini 24 foizgacha kamaytirish ko'zda tutilmoqda.

Tibbiyot, ta'lim va sport obyektlarini saqlash xarajatlari korxonalarning soliqqa tortiladigan bazasidan chiqariladi, savdoda ilgari to'lab kelingan uchta to'lov o'rniga esa yagona soliq to'lov joriy etiladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari sezilarli darajada pasaytiriladi, qator boshqa soliq to'lovlari va imtiyozlari unifikatsiya qilinadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida fuqarolarning yillik daromadlarini Deklaratsiya qilish tartibi joriy qilindi. Bu masalada dastlab Chilonzor va Shayxontohur tumani soliq inspeksiyalarida tajriba o'tkazib, keyinchalik respublika miqyosida yoyildi.

Mamlakatda soliq tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda Prezidentimiz va hukumatimiz ko'rsatayotgan doimiy g'amxo'rlik tufayli respublika soliqchilarining ish tajribasi endilikda MDHga a'zo mamlakatlarda qiziqish uyg'ota boshladi. 1995-1996-yillarda Rossiya Federatsiyasi Soliq politsiyasi departamenti, Yaponiya Moliya vazirligi delegatsiyasi, BMTning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi, Jahon banki va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi ish faoliyati bilan tanishdilar va unga yuqori baho berdilar.

Islohotlar amalga oshirila borgach bilvosita soliqlar hissasi ham o'zgara bordi. Bunday soliqlar ulushi 1996-yil birinchi yarmida 46,8 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda hozirgi kunda soliq tizimida 1991-yilda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonun, shuningdek, 1995-yil 22-dekabrda ushbu Qonunga kiritilgan o'zgarishlar asosida ish yuritilmoqda. Ushbu Qonun hujjatlarida umumiqtisodiy hisoblangan soliqqa tortishning quyidagi to'rt tamoyiliga asoslanadi:

– daromad manbalaridan qat'i nazar hamma daromadlarni soliqqa tortishning majburiyligi;

– mahalliy hokimiyatlar mahoratini hisobga olgan holda butun mamlakatda yagona umumdavlat soliq siyosatini olib borish;

– korxonalar va tashkilotlar muhim ijtimoiy, iqtisodiy ekologik masalalarni hal etayotganligini hisobga olib, ularni manfaatdor qilish maqsadida imtiyozlar berish orqali soliqlarning manfaat keltiruvchilik rolini ta'minlash. Bu jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida g'oyat dolzarbdir. Lekin asta-sekin bozor qaror topishi bilan og'irlikning bir qismi davlat zimmasidan soqit bo'lib, korxona va tashkilotlar zimmasiga yuklanadi. Chunki ishchilar salomatligi, atrof-muhit musaffoligi birinchi galda korxonalarga zarurdir;

– soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishi ustidan moliyaviy nazorat o'rnatish. Bu tamoyil soliq idoralarining bosh vazifasi bo'lib qolmoqda. Biroq, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish shuni ko'rsatadiki, soliq tizimida hali mukammal kadrlar tayyorlanmagan.

Bu o'z navbatida soliqqa tortish tamoyillarini O'zbekiston sharoitiga moslab mukammal ishlab chiqish, Soliq Kodeksida atroflicha aks ettirish iqtisodiyotimizni bir me'yorda va barqaror rivojlantirishning mustahkam huquqiy-iqtisodiy negizini vujudga keltirishni anglatadi.


Shuning uchun ham 1996-yil 26-dekabrda mamlakat Oliy Majlisining VII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi» loyihasini birinchi o'qishda qabul qilib, umumxalq muhokamasiga havola qildi.

Umumxalq muhokamasidan so'ng bunday muhim hujjat 1997-yil 25-aprelda VIII sessiyada qabul qilindi. Bu, O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlashning zamonaviy huquqiy asosini yaratish imkonini beradi.


1991–1998-yillarda aholi yiliga 1,6–2,3 foiz darajasida o'sib borganini kuzatish mumkin. O'zbekiston aholisi o'sib borayotgani sababli ishlab chiqarishning yanada jadal o'sishiga erishish lozim edi. Ushbu maqsadga erishildi: agar yalpi ichki mahsulotning o'sishi asosan 1996-yildan boshlangan bo'lsa, 1997-yildan boshlab YIM o'sishi aholi o'sish sur'atidan oshib kelmoqda, bu esa aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot darajasining oshishiga sabab bo'ladi.

Har qanday davlatning iqtisodiy qudrati bevosita yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish salohiyati bilan belgilanadi. Bu iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida jamiyatni tubdan modernizatsiyalash, ijtimoiy hayotni butun qirralari bilan yangilash samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. 2001–2007-yillar O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining va sur'atining o'sib borishi mamlakatimizning jahon bozorida mustahkam o'rin egallab borayotganidan dalolat beradi.

YALPI ICHKI MAHSULOT O'SISH DINAMIKASI
(o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)



2001–2007-yillarda yalpi ichki mahsulot va sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari (2000-y. = 100%)



2000–2008-yillar respublika iqtisodiyotining umumiy rivojlanish sur'atlariga nisbatan sanoat tezroq sur'atlarda o'sdi. 2008-yilda sanoat ishlab chiqarishi 2000-yilga nisbatan taqqoslama narxlarda 2,0 baravardan ziyodroq, YIM – 1,7 baravar oshdi.

2000-2008-yillarda O'zbekiston mintaqalari bo'yicha sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (2000-y.–100%)

Mintaqalar nomi	sanoat mahsulotlari	iste'mol tovarlari
O'zbekiston Respublikasi	202,8	282,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	173,9	239,3
viloyatlar:		
Andijon	506,1	610,2
Buxoro	145,9	154,3
Jizzax	353,2	487,1
Qashqadaryo	206,3	277,3
Navoiy	115,8	154,5
Namangan	267	257,6
Samarqand	266,9	249,7
Surxondaryo	205,6	214,7
Sirdaryo	196,2	233,6
Toshkent	160,8	233,9
Farg'ona	145,6	176,8
Xorazm	195,1	167
Toshkent sh.	306,4	285,2

INVESTITSIYA SOHASIDAGI MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASI

Ko'rsatkichlar	**2002**	**2003**	**2004**	**2005**	**2006**	**2007**	**2008***
Amaldagi baholarda, jami, mlrd. so'm	1442,4	1867,4	2473,2	3165,2	4041,0	5479,7	7140,0
Joriy yilga nisbatan % hisobida	103,8	104,5	105,2	107,0	109,1	122,9	130,3
YIMda investitsiya miqdori, %	19,3	19,3	20,3	20,8	19,5	19,4	22,7
YIMning kapital sig'imkorligi o'sishi, ICOR	6,4	4,3	2,5	2,9	2,8	2,1	2,4
Markazlashgan investitsiyalar joriy baholarda, mlrd.so'm	561,1	638,6	786,1	755,8	915,8	1099,7	1769,0
Kapital qo'yilmalarda markaz-lashgan investitsiyalar miqdori, %	38,9	35,0	31,8	23,9	23,1	20,1	24,8
Markazlashmagan investitsiyalar joriy baholarda, mlrd. so'm	881,3	1213,8	1687,1	2409,4	3109,0	4380,0	5371,0
Kapital qo'yilmalarda markaz-lashmagan investitsiyalar miqdori, %	61,1	65,0	68,2	76,1	76,9	79,9	75,2

Mavzuga doir materiallar

«ITAR-TASS» davlatimiz rahbarining «2006-yili iqtisodiyotning o'sishi 2000-yilga nisbatan taqqoslama baholarda 45 foizni tashkil etdi. Bunda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 22,1 foizga, xizmatlarning ulushi esa 39,5 foizga yetgan», degan so'zlarini keltiradi.

«Interfaks» «O'zbekiston hukumati ish haqini oshirish, xususiy mulk himoyasi hamda sarmoyalar jalb etishga alohida e'tibor qaratish niyatida» sarlavhali xabarida qayd qilishicha, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2007-yilning birinchi darajali vazifalari orasida iqtisodiyot o'sishining izchil sut'atlarini ta'minlashni, tizimli o'zgarish va modernizatsiyalashni ro'yobga chiqarish, soliq siyosati liberallashtirilishi davom ettirilishini belgilab berdi. «Islom Karimov 2007-yil budjeti parametrlarini parlament tasdiqlagani, u joriy yilda yalpi ichki mahsulotni 7,7 foizga, sanoat ishlab chiqarishini – 7,8 foizga, qishloq xo'jaligini – 5 foizga oshirish rejalari hisobga olingan holda ishlab chiqilganini eslatdi. Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlantirilishiga jalb etiladigan sarmoyalar hajmini 25,5 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda, qat'iy pul-kredit siyosati sharoitida pul qadrsizlanishi darajasi esa 5–7 foizdan oshmasligi kerak», deb yozadi Rossiya axborot agentligi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruzasini sharhlar ekan, **Britaniyaning Bi-bi-Si agentligi** 2006-yili O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirishda sezilarli natijalarga erishilganini qayd etdi. Bunda u joriy yili respublikada mazkur jabhani yanada yaxshilashga yo'naltirilgan qator loyihalarni ro'yobga chiqarish ko'zda tutilayotganiga e'tibor qaratdi. Mamlakat ijtimoiy siyosatidagi bu yo'nalishining muhimligini ta'kidlar ekan, Bi-bi-Si mamlakat rahbarining «ma'rifatli yosh avlod – O'zbekistonning eng katta boyligidir» degan so'zlarini keltiradi.

* * *

Real iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham jadal rivojlanib bormoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish darajasi biroz pasayishdan so'ng asosan barqaror darajada saqlanib turdi, 1997-yildan boshlab esa ushbu sohada o'sish boshlandi. Real sektorning davlat miqyosidagi barqaror taraqqiyoti sharoitida moliyaviy muvozanat ta'minlanadi. 1996-2000-yillar mobaynida budjet kamomadi yalpi ichki mahsulotning 3 foizidan oshgani yo'q. Tovar resurslari bilan ta'minlanmagan pul massasining o'sishini cheklaydigan anchagina qattiq monetar siyosat olib borilmoqda, bu esa hozirgi vaqtda o'rtacha oy hisobida 1,7 foizdan ortiq bo'lmagan inflatsiya darajasini izchil kamaytirishning muhim sharti xizmatini o'tamoqda.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, yangilanish va taraqqiyot yo'li bo'yicha muvaffaqiyatli harakat O'zbekistonning tashqi aloqalarini faollashuvi, uning dunyo xo'jalik aloqalariga keng kirib borishi bilan uzviy bog'liq. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bilan valyuta siyosatini erkinlashtirish juda jips bog'langandir.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish deganda Xalqaro valyuta fondi Moddalar Bitimining VIII moddasi talablariga muvofiq ravishda kundalik xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutaning to'liq konvertatsiyalanishiga bosqichma-bosqich o'tishiga doir huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarning yaratilishini bildiradi.

Buning uchun avvalo respublika iqtisodiyoti tuzilmasini, eksport tuzilmasini va ichki iste'mol bozori tuzilmasini tubdan o'zgartirish lozim edi. Iqtisodiyot tuzilmasida faqat ichki bozorda emas, balki tashqi bozorlarda ham raqobatlashadigan, ko'proq o'zimizdagi tabiiy va xomashyo imkoniyatiga asoslanadigan, ilg'or zamonaviy texnologiyani qo'llaydigan ishlab chiqarishlar ustunlik qilishi kerak edi. Shuning uchun texnik jihatdan qayta jihozlashni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash siyosati olib borildi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish birjadan tashqaridagi valyuta bozorini jiddiy ravishda mustahkamlashni, unda amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmini kengaytirishni, tijorat banklarining valyutalarini tezda pulga aylantira olish quvvatini oshirishni nazarda tutadi. Bu esa, import qiluvchilarning litsenziyalash (ularning chet elda tovar olib kelish uchun ruxsat berish)ning mavjud tizimini yo'q qilish, valyutaga bo'lgan haqiqiy talab va taklifga mos keladigan almashuv kursini belgilash imkonini berdi.

Ana shu tarzda 1991–2000-yillar iqtisodiy, moliyaviy islohotlarning muhim davri sifatida tarixga kirdi. 2001–2008-yillar esa islohotlarning pirovard natijasini aniq ko'radigan voqelikka aylandi.

2008-yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham barqaror rivojlandi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009-yildan boshlab esa 7 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratdi. Natijada so'nggi olti yil mobaynida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni, 1,9 barobar ko'paydi va 2008-yili qariyb 400 mingtani tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi 2008-yili salkam 22 foizga ko'paydi. Bu sanoat

tarmog'idagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2007-yildagi 45,5 foizdan 2008-yilda 48,2 foizga ko'tarildi.

Bugungi kunda mamlakatimimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 foizdan ko'prog'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Ayni vaqtda kasanachilik fuqarolarni, birinchi navbatda, xotin-qizlar, ayniqsa, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Birgina 2008-yilda kasanachilar tomonidan 34 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi. Kasanachilik uchun ish o'rinlari ochgan korxonalar, shu borada o'zlariga berilgan imtiyozlar hisobidan 1 millard so'mdan ortiq mablag'ni tejashga erishdi.

2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish – 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

2008-yilda o'rtacha ish haqi budjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa, 1,4 barobar oshdi. Natijada o'tgan yili o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSH dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi.

Joriy 2009-yilni oladigan bo'lsak, o'rtacha ish haqi miqdorini budjet sohasida va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflatsiyaning o'sish ko'rsatkichini 7–9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

2008-yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xomashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003-yildagi 20 foizdan 2008-yilda 12 foizga tushdi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008-yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007-yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 23 foizga tashkil etdi. O'zlashtirilgan

barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash darkor.


Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir. 2008-yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007-yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir. Eng muhimi, xorijiy investitsiyalarning 74 foizini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etadi.

Jahon inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, 2009-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar hajmi 1 milliard 800 million dollarga ko'payadi, buning to'rtdan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir.

Mavzuga doir materiallar


2007-yilda banklar jami kapitalining o'sish darajasi 40,4 foizni tashkil etib, uning miqdori 2008-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 1 502,6 mlrd. so'mga yetdi.

Tijorat banklari kapitalining o'sishi dinamikasi



Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bilan birga, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb qilish asosiy vazifalardan biri bo'ldi. Banklarning jalb qilingan depozitlari 2007-yilda 1 284,7 mlrd. so'mga yoki 50,5 foizga oshib, 2008-yil 1-yanvar holatiga 3 829,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Tijorat banklaridagi aholi omonatlari qoldig'i dinamikasi



Bunda, aholining banklardagi omonatlari qoldig'i 46,6 foizga o'sib, joriy yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 994,6 mlrd. so'mga yetdi hamda uning tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushi 85,1 foizni tashkil qildi.


Banklarning umumiy aktivlari 2007-yilda 28,7 foizga oshib, 2008-yil 1-yanvar holatiga 9 276,1 mlrd. so'mga yetdi.

Tijorat banklarining umumiy aktivlari summasi




Banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar qoldig'i 2007-yilda 16,2 foizga oshib, joriy yilning 1 yanvar holatiga jami kredit qo'yilmalari miqdori 4 757,4 mlrd. so'mni, jumladan uzoq muddatli kreditlar hajmi esa 3 713 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Tijorat banklarining ustav kapitali 2007-yilda qariyb 2 baravarga oshdi. Banklarning jami kapitali 1 trln. 503 mlrd. so'mni tashkil etdi va u 2006-yilga nisbatan 40,4 foiz o'sdi.



Bank aktivlari ham 2006-yilga nisbatan 28,7 foiz oshib, 9 trln. 276 mlrd. so'mga yetdi.

Tijorat banklarining umumiy aktivlari summasi



Banklarni aksiyadorlik banklariga aylantirish jarayonining jadallashtirilishi natijasida ularning aksiyadorlari soni bir yil davomida 12,5 mintaga ko'paydi va joriy yil boshiga kelib 200 mingtaga yetdi. Eng muhimi esa aksiyadorlarning 68 foizini jismoniy shaxslar tashkil qilmoqda.

Shuningdek, 2007-yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, «Paxtabank» va «Hamkorbank» yetakchi reyting kompaniyalarining xalqaro reytingini olishga muvaffaq bo'ldilar.

* * *

Hozirgi kunda «O'zmilliybank» – xalqaro moliya bozorlarida mamlakat bank tizimining yaqqol timsolidir. Samarali boshqaruv mexanizmini, taraqqiyot strategiyasini tanlab olgan bank qat'iy ishonch bilan jadal rivojlana

borib, o'z mijozlari o'rtasida professional moliya muassasasi va ishonchli sherik sifatida mustahkam obro'ga ega bo'ldi.

Mamlakat moliyaviy industriyasining peshqadami bo'lgan mazkur muassasaning kattagina resurs bazasi, O'zbekiston bank tizimi sarmoyasi jamlama hajmining 50 foizidan oshadigan sarmoyasi va aktivlari (respublika bank aktivlarining qariyb 62 foiz) Milliy bankka katta va uzoq muddatli kreditlar berish, investitsiyalarni jalb qilish uchun xalqaro moliya bozorida O'zbekiston banklari orasida eng yaxshi mavqega ega bo'lish imkonini berayotir.

Bank yil sayin O'zbekiston moliya bozorining barcha ustuvor segmentlarida ishtirokini kengaytirib bormoqda. 2006-yil ham bundan mustasno bo'lmadi.

Bankning xalqaro aloqalari faol rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda Milliy bankning vakillik tarmog'i 612 dan ortiq yetakchi xalqaro banklarni o'z ichiga olgan.

2006-yil yakunlari bo'yicha «O'zmilliybank»ning milliy valyutada jamlama balansi hajmi 3 854 milliard so'mni tashkil etdi.

O'tgan yil mobaynida bank daromadi 40,2 milliard so'mga yetib, uning kapitali esa 27 milliard so'm ko'payib, 497 milliard so'mdan ortdi.

Milliy bankning kredit portfeli hajmi 2007-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 2,1 trln. so'mni tashkil etdi. Bunda Milliy bank kredit portfelining asosiy ulushi uzoq muddatli kreditlarga to'g'ri kelib, ularning solishtirma hajmi bankning kreditlar berish ishida 65,6 foizga teng bo'ldi. Bank aylanma kapitalni, eksport va importni moliyalash, loyihalarni moliyalash uchun bir yilgacha (qisqa muddatli kreditlar) va bir yildan ortiq (uzoq muddatli kreditlar) muddatga kreditlar ham bermoqda.


Bankning 2006-yilga mo'ljallagan kredit siyosatiga muvofiq, berilgan kreditlar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini taraqqiy ettirish, ishlab turgan korxonalar modernizatsiyasini moliyalash va yangi yuksak samarador korxonalarni joriy qilish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlashga asoslangan, import o'rnini bosuvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan korxonalarni tuzish va rivojlantirish uchun sarflanmoqda.


Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturi doirasida bir qancha xorijiy banklar va moliya muassasalari, respublika budjetdan tashqari jamg'armalari va bank o'z mablag'larining kredit yo'nalishlarini o'zlashtirish bo'yicha loyihalarni ko'rib chiqish va moliyalash uchun qabul qilish ishlari olib borildi. Hozirgi vaqtda hammasi bo'lib umumiy qiymati 445,1 million AQSH dollariga teng bo'lgan 147 ta loyiha moliyalashga qabul qilindi. Bank o'z mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar hajmi 113,1 milliard so'mni (istiqbol ko'rsatkichining 130 foizini) tashkil etdi.

Respublikaning barcha hududlarida joylashgan bankning 93 bo'lim va filiali korporativ va chakana mijozlarga keng ko'lamdagi zamonaviy

bank xizmatlarini amalga oshirmoqda. Korporativ va chakana mijozlar soni 1,2 milliontaga yetgani yoki o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 35,2 foiz ko'paygani (2006-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 898,8 ming) shundan dalolat beradi.

Milliy bank tizimi bo'yicha mijozlar umumiy bazasining kengayish dinamikasi





Milliy bank aholiga xizmatlarni kengaytirish siyosatiga qat'iy amal qilib, xususiy omonatlar va aholining jalb etilgan mablag'lari bo'yicha ham mamlakat moliya bozorida peshqadamlar jumlasiga kiradi. Bugungi kunda bank faqat chakana xizmatlarning 70 dan ortiq turlarini amalga oshirmoqda. Mijozlar bazasining ancha o'sishi – «O'zmilliybank» filial va bo'limlari orqali elektron xizmatlar miqyosining kengayishi, bankka nisbatan aholi ishonchining oshishi, omonatlar shartlarini maqbullashtirish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilishi, yangi depozitlarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi, xizmatlar sifatining oshirilishi natijasidir. Bankning bu yo'nalishdagi faoliyati aholining ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutadagi depozitlari hajmini so'mga nisbatan ekvivalentda 184,6 milliard so'mga oshirdi, bu esa 2006-yil boshidagiga nisbatan 51,6 milliard so'm ko'p, demakdir. Bugungi kunda bank mablag'larni jalb etish bo'yicha ham peshqadamlikni egallab kelmoqda.

2006-yil aprel oyida Rossiya Federatsiyasi banklari bilan birgalikda Milliy bank o'zining «Osiyo Ekspress» tezkor pul o'tkazmalari tizimini ham joriy etdi. Mazkur tizim Rossiyadan O'zbekistonga va O'zbekistondan Rossiyaga o'tkazmalarni amalga oshirish imkonini beradi. Hozirgi kunda respublikamizning barcha hududlarida bankning «Osiyo Ekspress» pul o'tkazmalari yangi tizimida ro'yxatga olingan 28 ta shoxobchasi ishlab turibdi. Ushbu xizmat ko'rsatish turi boshqa pul o'tkazish tizimlaridan o'zining arzonligi, ishonchliligi va samaradorligi bilan ajralib turadi.

Ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida banklararo aloqalarning mustahkamlanishi ikki mamlakat banklariga bitimlarni amalga oshirish jarayonini jadallashtirish, taklif etilayotgan xizmatlar turini ko'paytirish imkonini beradi. Buning natijasida tashqi savdo operatsiyalari ko'paydi.

Keyingi uch yil mobaynida Rossiya Federatsiyasi rezidentlari bilan, ayniqsa, savdoni moliyalash yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmi ancha ko'paydi. Banklar qishloq xo'jaligi texnikasi, sanoat va tog'-kon uskunalari, paxta tolasi va to'qimachilik mahsulotlari, aviatsiya uchun ehtiyoj qismlari va xizmatlar, kabel va misdan tayyorlangan buyumlar hamda boshqa mahsulotlarni yetkazib berilishini moliyalashda ishtirok etishmoqda. Shuni ham ta'kidlash zarurki, bu yo'nalishda Rossiya Federatsiyasi Jamg'arma bank, «Внешторгбанк», «Внешэкономбанк» va «Промсвязбанк» kabi banklar Milliy bankning Rossiyadagi asosiy sheriklari sanaladi.

Ayni paytda neft-gaz, metallurgiya va to'qimachilik tarmoqlari singari statistik yo'nalishlarda hamkorlik qilish bilan birga, hozirgi vaqtda iqtisodiyotning xususiy sho'basida ham hamkorlik faol rivojlanmoqda. Ho'l meva va sabzavotni qayta ishlovchi, akkumulator batareyalari,

xalq iste'moli mollari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarning tashkil etilishi buning yaqqol misolidir.

2007-yilda, shuningdek, xorijiy banklar va xalqaro moliya muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan bank siyosati amalga oshirildi. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya banklari va Osiyo hamda Tinch Okeani mintaqasidagi boshqa mamlakatlar banklari bilan munosabatlarni yanada integratsiyalash ishlari davom ettirildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekistonda bartaraf etish tamoyillari



Ma'lumki, bugun butun dunyo va insoniyat katta moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida yashamoqda. Eng rivojlangan, qudratli davlatlar ham ana shu inqirozning girdobiga tushib qolmoqda. Mavjud, jiddiy muammo insoniyat taraqqiyoti va uning istiqbolini, zamonaviy sivilizatsiya, fan-texnika taraqqiyoti, qolaversa, insonning yashash tarzi bilan bog'liq bo'lgan yaxlit umumplanetar ijtimoiy-ma'naviy vaziyatni yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining teng huquqli, ayni paytda faol, o'z so'zi va hukmiga ega bo'lgan davlat sifatida ana shu umumdunyoviy muammodan chetda tura olmaydi. Bu tabiiy hol. Biroq hamma gap muammoga kim qanday yondashayotganiga, uning yechimini qanday shaklda izlayotganiga, o'zining ichki imkoniyatlari, tabiiy va ma'naviy resurslardan qay darajada foydalanayotganiga bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning "O'zbek modeli" maqomiga ega bo'lgan mashhur besh tamoyil istiqlolning o'tgan davrida o'zining iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekaniligini ko'rsatdi. Jahon hamjamiyati bugun O'zbekiston taraqqiyotining o'z uslubiga va uzoqni ko'zlagan tamoyillariga ega ekanligini tan olmoqda. Biroq, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'z imkoniyatlarimizni, mavjud omillarimizni va resurslarimizni yana bir bor jiddiy ravishda ko'rib chiqib, aniq istiqbolni belgilashni taqozo etmoqda. Prezident I. A. Karimovning **«Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** deb nomlangan konseptual ahamiyatga ega bo'lgan kitobi ayni ana shu muammoning yechimiga bag'ishlangan. Kitobda ko'tarilgan masala va

umumdunyoviy muammoning ilmiy, nazariy hamda amaliy tahlili natijasida O'zbekistonda 2009–2012-yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, mamlakatimiz barqaror rivojlanishini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda aniq maqsadlarni ko'zlagan rejalarni amalga oshirishga doir dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda quyidagi yo'nalishlarda aniq, qat'iy va yuksak mas'uliyat bilan faoliyat yuritish belgilangan:

– mamlakatimizda qabul qilingan 2009–2012-yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;

– tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

– qishloq turmush darajasi sifatini va qiyofasini tubdan yangilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;

– aholi bandligini ta'minlash, uning turmush darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;

– mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;

– banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklarida depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.




«Tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi»

Jahon moliyaviy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar:

- O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik;
- ma'muriy buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik;
- davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik;
- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilgan va zarur reserslar bazasi mavjud.

Rivojlangan mamlakatlarda 2007-2008-yillarda YIMning o'sish sur'atlari va 2009-yil istiqbol ko'rsatkichlari




Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosidagi o'zgarishlar (mlrd. AQSH doll.)


Mamlakatlar	1996-yil	2007-yil
Rivojlangan mamlakatlar, jami	**46,2**	**-798,8**
AQSh	-120,2	-854,7
Yaponiya	65,4	81,0
Yevropa Ittifoqi	88,5	-228,0
Boshqalar	12,5	202,2
Rivojlanayotgan mamlakatlar, jami	**-87,5**	**509,7**
Xitoy	7,2	562,0
Yaqin Sharq va Afrika	5,9	311,0
Boshqalar	-100,6	-363,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.

Rivojlangan mamlakatlarda 2007-2008-yillarda ishsizlik darajasi va 2009-yil istiqbol ko'rsatkichlari



Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzining YIMga nisbatan dinamikasi



Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston Respublikasiga ta'siri

- Jahon xomashyo bozorlarida konyunkturani yomonlashishi, talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi
- 2009-yilda korxonalarning eksport operatsiyalaridan oladigan daromadlarining sezilarli kamayishiga olib kelishi mumkin.
- Asosiy savdo hamkorlarimizning xarid qobiliyati keskin ravishda pasayishi ham tashqi savdo aylanmasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi


INQIROZGA QARSHI CHORALAR DASTURI MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING ENG USTUVOR YO'NALISHI

	Dasturda belgilangan asosiy chora-tadbirlar yo'nalishlari
1	Eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalarning barqaror ishlashini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash
2	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish
3	Iqtisodiyotning real sektori sohasidagi investitsion faollikning resurs bazasini kengaytirish va o'sishini ta'minlash
4	Elektr-energetikasi sohasini modernizatsiyalash, energiya sig'imini qisqartirish hamda energiya tejamkorlik tizimini joriy etish
5	Kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, aholi bandligi va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ko'maklashishni kuchaytirish

INQIROZGA QARSHI CHORALAR DASTURI MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING ENG USTUVOR YO'NALISHI

...mamlakatimizda jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

I.A.KARIMOV




BOSHLANG'ICH TARKIBIY O'ZGARISHLARNI VA IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONLARINI DAVOM ETTIRISH

Jahon iqtisodiy inqirozi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o'tkir qilib qo'ymoqda va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz va resurslarimizni safarbar etishni talab qilmoqda.

I.A.Karimov


Tarkibiy islohotlar natijasida YIM ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi



2000-yilga nisbatan 2008-yilga kelib sanoat sohasining ulushi 14,2 foizdan 22,3 foizga qadar, xizmatlar sohasining ulushi 37,2 foizdan 43,3 foizga qadar oshdi.

Qishloq xo'jaligi sohasining ulushi esa 30,1 foizdan 19,4 foizga qadar pasaygan.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI YETAKCHI TARMOQLARIDAGI O'SISH SUR'ATLARI




2008-yilda o'sish sur'ati:

- **Sanoat – 12,7**
- **Qishloq xo'jaligi – 4,5**
- **Xizmat ko'rsatish – 21,3**
- **Qurilish ishlari – 8,3**
- **Transport xizmati ko'rsatish hajmi – 10,2**
- **Chakana savdo aylanmasi – 10,2**

*** foizni tashkil etgan**

SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR



2000 – 2008-yillar davomida

Sanoat mahsulotlari tarkibida yoqilg'i-energetika kompleksining ulushi 23,8 foizdan 28,7 foizga

Mashinasozlik tarmog'i – 9,8 foizdan 16,2 foizga

Rangli metallurgiya – 10,2 foizdan 12,6 foizga


Qora metallurgiya – 1,2 foizdan 2,9 foizga

* qadar oshdi.

XIZMAT KO'RSATISH VA KICHIK BIZNES SOHASI – AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ENG MUHIM OMILI

Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor konyunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlatiga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi.

I.A.Karimov




Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sishining muhim omiliga aylandi.

2008-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 48.2 foizni tashkil etdi.

2010-yilga kelib uni 50–52 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING YIMDAGI ULUSHI



3-§. Xususiylashtirishning amalga oshirilishi, mulkdorlar sinfining shakllantirilishi

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xususiylashtirish – bu iqtisodiy islohotlarning tamal toshidir. Boshqa yosh mustaqil davlatlardan farqli o'laroq O'zbekistonda o'tish davrida xususiylashtirishni vauchersiz amalga oshirishga qaror qilindi. Xususiylashtirish jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun 1992-yil fevralida Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994-yilda uning vazifalari o'zgartirilib, u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat Qo'mitasi deb atala boshlandi. Ushbu Davlat Qo'mitasi maqomining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi, zero u xususiylashtirishning ikkita g'oyat muhim vazifasini bajarar edi.

O'zbekiston vaucher tizimidan voz kechgani uchungina emas, balki xususiylashtirishdan tushgan barcha mablag'lar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun berilishi jihatidan ham o'ziga xos, o'z yo'liga ega bo'lgan davlat sifatida ko'zga tashlandi.

Yana shuni aytish lozimki, tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosini vujudga keltirish qonunlar majmuini yaratishni tashkil qilishni

uyushtirish uchun Oliy Majlis tarkibida yangi iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni rivojlantirish qo'mitasi tuzildi.

O'zbekistonda ko'p ukladli, davlat mulkini xususiylashtirish 1990-yildayoq hukumat tavsiyasi asosida mahalliy sanoatda 3 ta xususiy korxona tashkil qilinishi bilan belgilangan edi. Samarqanddagi uy mehnatiga asoslangan xususiy fabrika hissadorlik jamiyatiga aylandi. Sirdaryo shoyi to'qish fabrikasi va boshqa qator korxonalar ijaraga o'tib ishlay boshladi. Bu yerda to'plangan dastlabki tajribalar keyinchalik davlat mulkini xususiylashtirishda hisobga olindi, undan samarali foydalanildi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning Prezident I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillari eng avvalo o'zining mahalliy xususiyatlarini va talablarini hisobga olganligi, tag-zaminli va asosliligi, ayni paytda hozirgi zamon ilg'or tajribalariga mos kelishi bilan alohida ajralib turadi. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

Birinchidan, xususiylashtirish qandaydir kishilar yoki ma'lum mafkura manfaati uchun xizmat qilmasligi lozim. Chunki xususiylashtirish eng avvalo, mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar mantig'iga mos bo'lmog'i kerak edi. «O'zbekistonda davlat bosh islohotchi» vazifasini amalga oshirar ekan, uning xususiylashtirishni o'zi boshqarib borishi ko'zda tutildi. Shuning uchun O'zbekistonda chek vositasi bilan xususiylashtirish g'oyasidan voz kechildi. Bu boradagi muhim xulosa shundan iborat bo'ldiki, davlat mol-mulki faqat yangi mulkdorga sotish yo'li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi.

Ikkinchi tamoyil shundan iborat bo'ldiki, xususiylashtirishga dasturiy yondashuvni ta'minlash va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim edi.

Shuning uchun 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida mulkni «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra mulkchilik shakllarini o'zgartirish sohasidagi ishlar respublika hamda hududiy maqsadga bosqichma-bosqich ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Albatta, bu qoida har bir yangi bosqich uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Masalan, dastlabki bosqich xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini, xullas «kichik xususiylashtirish» jarayonini qamrab oldi. Fikrimiz isboti uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilaylik. 1992-1993-yillarda 28 ming 846 yuridik shaxs 53 ming 902 ta xususiy obyekt egasi bo'ldi. Bu jarayon vaqt o'tgani sayin ko'paya bordi. 1994-yilda 9744, 1995-yilda 8584 ta, 1996-yilning birinchi yarmida 933 ta yuridik shaxs xususiy obyektlar egasi bo'ldi.

Yuqorida aytilganidek birinchi bosqichda (1992-1993) bir million kvartira xususiylashtirildi yoki O'zbekiston shaharlaridagi har bir oilada o'rtacha 4,7 kishi bo'lsa, qariyb 5 millionga yaqin kishi birgina kvartiralar xususiylashtirilishi evaziga mulkdorga aylandi.

1994-yil 21-yanvarda qabul qilingan «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994-yil 16-martda qabul qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident Farmonlari xususiylashtirish jarayonini yana ham yangi pog'onaga ko'tarish, uni sifat jihatidan yaxshilash imkonini berdi.

Qabul qilingan qarorlarga muvofiq yangi bosqichda korxonalarni ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish, ushbu jarayonga aholini va chet ellik investorlarni kengroq jalb qilish jarayonini avj oldirish vazifasi qo'yildi.

Qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bozorini tashkil etish uchun asos yaratildi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kimoshdi savdolari va tanlovlari o'tkaziladigan bo'ldi.

Xususiylashtirish borasidagi barcha ishlar izchil va muntazam olib borila boshlandi. Hozirgacha mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir 20 dan ortiq davlat Dasturi qabul qilindi.

Aniqrog'i, bu Dasturlarga muvofiq xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun imkon yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 29-martda tasdiqlagan Davlat Dasturiga muvofiq o'sha yilning o'zida 5 ming 127 obyekt xususiylashtirildi. Bundan tashqari qo'shimcha tarzda dasturga kirmagan 4 ming 617 obyekt ham haqiqiy egasini topdi. Xususiy tadbirkorlar 57 ta konserva sexini, 120 ta g'isht zavodini, 92 ta to'quvchilik sexini sotib olishdi. Qishloq xo'jaligida esa butun bog'larning yarmidan ortig'i, uzumzorlarning 40 foizi xususiy foydalanish uchun berildi. Dehqon xo'jaliklari uchun 193 ming gektar yer ajratib berilib, 7 ming dehqon xo'jaligi paydo bo'ldi. 1994-yil oxiriga kelib ular soni 14, 2 mingtaga yetdi.

1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiylashtirishlar davri bo'ldi. Endi yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshlandi. O'sha yili mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxona, 81 ta yoqilg'i-energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta taransport, 68 ta uy-joy-kommunal xo'jaligi, 229 ta qayta ishlash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog'liq obyektlar xususiylashtirildi.

Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlari, 6000 xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi. Xususiylashtirish borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlarning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolat choralari ko'rildi.

Bular nimalardan iborat? Aholining ijtimoiy himoyasi avvalo shunda ko'rinadiki, xususiylashtirish chog'ida bir butun imtiyozli tizim yaratildi. Masalan, xususiylashtirilayotgan korxona xodimlariga imtiyozli aksiyalar berildi. Shuningdek, davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlarda xususiylashtirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 25-iyul kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida xususiylashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirishga e'tibor berilar ekan «Xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi. U sifat jihatidan yangicha ahamiyat kasb etganini ham qayd etish lozim», – deb ta'kidlandi. Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillarida asosiy e'tibor masalaning miqdor ko'rsatkichlariga, ya'ni qancha korxona mulk shaklini o'zgartirganiga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda xususiylashtirishning sifat ko'rsatkichlari asosiy mezon bo'lib qoldi.

Mustaqillikning o'tgan davrida xususiy korxonalar soni 7,5 mingtadan 19 ming 300 taga yetdi. Birgina 1996-yilning o'zida kichik va xususiy korxonalar soni 19 ming 100 taga ko'paydi. 1997-yilning 1-yanvariga kelib ular soni 100 mingtaga yetdi.

1997-yil 1-yanvariga kelib aksariyat korxonalar xususiylashtirildi. Agar 1993-yilda jami korxonalarning 39,4 foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lmagan korxona bo'lsa, 1994-yilda bu ko'rsatkich 57,7 foizga, bugunga kelib esa 82,7 foizga yetdi.

Agar 1993-yilda xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining 48 foizi nodavlat sektorida ishlagan bo'lsa, ayni paytda ularning 70 foizi mazkur sektorda faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda sanoat mahsuloti hajmining yarmidan ko'pi, qishloq xo'jalik mahsulotining 97 foizi, chakana tovar oborotining 94 foizi, pudrat ishlarining 61 foizi nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keladi.

2007-yilga kelib respublikada nodavlat mulkning har xil shakllarini rivojlantirish uchun barcha zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Bu xususda anchagina ishlar ham qilindi. Ayni paytda etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizdan ortig'i, chakana tovar aylanishining 96 foizi, sanoat mahsulotining 60 foizdan ortig'i nodavlat sektoriga to'g'ri keladi. Mehnatga layoqatli barcha aholining 71 foizdan ortig'i nodavlat sektorida band. Aholining aksariyat qismi turarjoy sohibi hisoblanadi, ularning ko'plari korxonalar aksiyalarini sotib olib, ular mulkiga egalik qilmoqda.

Kichik va xususiy biznes faol rivojlanmoqda. Ro'yxatdan o'tgan kichik va xususiy korxonalar soni 1999-yil 1-iyunga kelib 160,1 ming birlikka yetdi, bu esa respublika hududidagi yuridik shaxslar umumiy sonining 89 foizini tashkil qiladi. 260 mingdan ortiq respublika fuqarosi yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Yakka tartibdagi tadbirkorlar

soni – 1,4 barobar, fermer xo'jaliklari soni – uchdan bir hisobida ko'paydi. Bu borada izchil siyosat olib borilishi tufayli 2007-ylning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari soni qariyb 350 mingtaga yetdi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 42,1 foizni tashkil etmoqda. 2006-yilning o'zida ushbu sohada qo'shimcha ravishda 290 mingta yangi ish o'rni yaratildiki, bu ko'rsatkich mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

Xususiy sektor, kichik biznes iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning faol harakatlantiruvchi kuchiga aylanganicha yo'q. Shuning uchun yaqin yillar ichida mulkchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, mulkdor huquqlarini amalga oshirish va himoyalash uchun yanada kuchliroq kafolatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbayi bo'lgan muhim bo'g'inga aylanmoqda.

Ayni paytda u iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning eng muhim omili, jamiyatimiz ijtimoiy va siyosiy barqarorligining kafolati, mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan olg'a yetaklaydigan faol harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish yo'lida ko'p ish qilindi.


Jumladan, Davlatning biznes faoliyatiga aralashuvi keskin cheklandi, kichik biznes subyektlarini ro'yxatga olish jarayoni sezilarli darajada soddalashtirildi va ularning oshkoraligi ta'minlandi, soliq stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi, mahsulotlarni standartlash va sertifikatsiyalash tizimi takomillashtirildi, birja savdolarini rivojlantirish orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslaridan erkin foydalanishi bilan bog'liq ko'p masalalar hal qilindi, mikrokreditlash va mikrolizmning yo'li bilan tadbirkorlarga kredit berishning yangi shakllari joriy etildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bularning barchasi o'zining ijobiy natijasini berdi. Faqat 2006-yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qo'shimcha ravishda 290 ming yangi ish o'rni yaratildi, bu esa mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

Ayniqsa, 2006-yilda yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyalashish negizida kasanachilik faol rivojlanib, buning natijasida 60 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi.

Katta sarmoya, mablag' talab qilinmaydigan kasanachilikni yo'lga qo'yish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish korxonalarida bekor yotgan

turli xil dastgoh va uskunalarni qo'lidan ish keladigan odamlarga, oilalarga berildi. Natijada 60 ming odam, 60 ming oila qo'shimcha daromadga ega bo'ldi.



O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat, demokratik, adolatli jamiyat qurishga kirishdi.

Prezident I.Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobida yozganidek, **«Mulkchilik masalasini hal qilish bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi... Xuddi shu masalani hal qilish bilan yangi jamiyat, yangi iqtisodiy munosabatlar poydevoriga birinchi g'isht qo'yildi. Ushbu masalaning davr talablariga muvofiq muvaffaqiyatli hal etilishi respublikamiz iqtisodiyotini jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorga qo'yadigan asosiy omildir»**.

Darhaqiqat, keyingi yillar davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda mulkchilik huquqi iqtisodiy o'zgarishlarning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda mulkdor huquqi qonun bilan tan olindi va himoya qilinmoqda.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning asosini turli shakllardagi mulkchilik tashkil etishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab berildi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma'lumki, xususiylashtirish jarayoni tabiiy ravishda jamiyatda mulkdorlar sinfini shakllantirishga olib keldi. Bu borada kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mulkdorlarni

vujudga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu birinchi omil. Mulkdorlar sinfini shakllantirishning ikkinchi omili bu qimmatbaho qog'ozlar bozorini rivojlantirishdir. Biroq, yaqin vaqtlarga qadar bu borada zarur shart-sharoit ham yaratilmagan edi. Shunga ko'ra, Oliy Majlis mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida 1996-yil 25-aprelda «Aksiyadorlar jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish haqida», hamda «Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida» Qonunlar qabul qildi.

1996-yilning birinchi yarmida aksiyalar sotuvidan 1,7 milliard so'm mablag' tushdi. Bu ko'rsatkich 1995-yildagiga nisbatan 15, 6 marta ko'p bo'ldi. Umuman, 1992–1996-yillarda davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tufayli 1 million 74 ming kishi turarjoy egasi, 2 million kishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari, paylarining egalari; qishloq joylarida esa, 3 million kishi yordamchi xo'jalik, 19 ming kishi ko'chmas mulk egasi bo'lib qoldilar. Bu raqamlar, shubhasiz jamiyatda mulkdorlar sinfi shakllantirilganini yaqqol ko'rsatadi.

Insoniyat tarixi davlat mulkini ommaviy ravishda xususiylashtirish hodisasini endigina sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlar misolida ko'rmoqda. Ma'lumki, mulkchilik taraqqiyoti yer yuzining barcha mamlakatlari va mintaqalarida turli davrlarda, turli holatlarda yuz bergani bilan shaklan va mazmunan ayni bir xil tartibda amalga oshgan. Jumladan, mulkchilik, mulkka munosabat jamiyat tabiiy taraqqiyotining va kishilar dunyoqarashi hamda ehtiyojlarining mahsuli sifatida shakllangan. Xususiy mulk hajmi va miqdoridan qat'i nazar jamiyat fuqarosi yashash huquqining qonuniy ifodasi, mulkka egalik esa, turmush tarzining ma'naviy-huquqiy kafolati bo'lib qolavergan. Ko'p hollarda u fan-texnika taraqqiyoti, madaniy ravnaq va boshqa ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida qisman shaklini, miqyosi va ko'lamini takomillashtirgan, xolos. Mazmunan esa o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Darvoqe, insoniyat tarixi xususiy mulkni zo'ravonlik va tazyiq bilan davlat tasarrufiga olish hodisasini ham ko'rgan. XX asrning boshlarida yuz bergan va biz 73 yil mobaynida o'zimizni o'zimiz aldab, quyushqonga sig'maydigan dabdabalar bilan bayram qilib kelgan qonli Oktabr inqilobi ana shunday g'ayriinsoniy hodisani amalga oshirgan edi. Odamlarning asrlar mobaynida misqollab terib to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklarini bir to'polon bilan davlat mulkiga, odamlarni esa mehnat vositasiga, ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylantirib qo'ydi.

Mana endi inson haq-huquqlari to'la tiklangan va har tomonlama kafolatlangan jamiyat qurayotgan bir paytimizda yaqin o'tmishimiz asoratlaridan qutulish ancha qiyin kechmoqda. Har bir kishining o'z

yaratuvchilik qobiliyatini ko'rsata olish, tadbirkorlik va xususiy mulkni rivojlantirish asosida mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirish, kishilar ongida o'rnashib qolgan boqimandalik illatlariga barham berish ancha vaqt talab etmoqda. Bu chinakamiga ongimiz va tushunchalarimiz orqali yuz berayotgan ma'naviy-ruhiy yangilanish jarayonidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mulkka egalik va xususiy mulkning chegarasi bo'lmasligi kerak. Ya'ni shaxsiy boylikni ko'paytirish qandaydir qolip yoki miqdorda bo'lishini davlat belgilab qo'ymasligi, aksincha, u mamlakatda hammaning har qanday vaziyatda boy bo'lishini ta'minlash asosida alohida ijtimoiy muhofazaga muhtoj odamlar turmush darajasini oshirish yo'lidan bormog'i lozim. Bunga ayrim siyosatshunoslar dunyoning turli mamlakatlarida o'z korxonasi filiallarini qurib, jahon bozorini egallab olgan yirik korporatsiya va firmalar rahbarlari faoliyatini va katta miqdordagi jamg'armalarini misol qilib ko'rsatishadi.

Biroq, O'zbekiston hukumati butunlay yangi tipdagi jamiyatni shakllantirishda har qanday tayyor andozalarga sig'inmaydi. Jahon tajribalari va milliy ehtiyojlarni uyg'unlashtirgan holda mavjud hodisalarga o'ziga xos yondashadi. Jumladan, mulkchilikka munosabatda ham uning o'ziga xos usuli bor. Masalan, Prezident I.Karimov: **«Davlat jamiyatning keskin tabaqalanishiga – oshib-toshib ketgan boylar-u kambag'al-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak»**, – deydi va masalaga bunday yondashuv mazmun-mohiyatini aniq tushuntirib berdi. Albatta, O'zbekiston strategiya jihatidan jahon tajribalari eng ilg'or namunalaridan keng foydalanadi. Biroq uni o'z milliy xususiyatlari va turmush tarziga mos tarzda amalga oshiradi. Bu, ayniqsa mamlakatda tub iqtisodiy islohotlarni, jumladan, erkin bozor siyosatini amalga oshirishda ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Natijada davlat mulkini xususiylashtirish va yangi iqtisodiy tizimni joriy etish borasidagi O'zbekiston yo'li jahon jamoatchiligi tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: **Birinchidan**, uzoq yillarga mo'ljallangan, dasturiy ahamiyatga molik maqsadlar davlat strategiyasi darajasiga ko'tarilgani bilan, kundalik talablar, hayot ehtiyojlari yoki vaqtinchalik holatlarda taktikaning o'zgarib turishi tabiiy hol. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, mavjud siyosiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy mezonlar nuqtayi nazaridan hayotiydir. Chunki, o'tish davrida qonunchiligimizning hali to'la shakllanmaganligi, ayrim hollarda esa mavjud qonunlarga ham hali bo'ysunib yashashga odatlanmaganimiz, ba'zan xudbinlik va manfaatparastlikning avj olib ketishi natijasida turli xildagi suiiste'molliklar yuz bermoqda. Natijada foydani yashirish, soliqdan qochish va boshqa ko'zbo'yamachiliklar, nayranglar tufayli kimlardir ortiqcha boyib ketib, kimlardir qashshoqlashib qolishi mumkin. Ana shunday

paytda Davlat qonun ustuvorligini ta'minlashda, aholi turli tabaqasining turmush tarzida muvozanatni saqlab turishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, davlat adolat g'oyasiga qattiq suyanadi va inson haq-huquqlarini butun choralar bilan himoya qilish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Aholini turli bo'hronlardan asrab qolish, uni ijtimoiy muhofazalash, tabaqalarga bo'linmasligi, yashash huquqi kabi Oliy qoidani muqaddas tutish – uning insonparvarlik siyosatining bosh mazmuni.

Uchinchidan, O'zbekiston yo'li oldin dunyo minbarlaridan turib e'lon qilingan, jahon jamoatchiligi tomonidan tan olingan mamlakatimiz uchun xos tub islohotlarning mashhur besh tamoyilidan biri – o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lib turishi kerakligi kabi qoida hayot talabiga aynan mos kelganligidir.

Bir qarashda bizga xususiylashtirish jarayoni sof iqtisodiy hodisa bo'lib ko'rinadi. Xususiylashtirish deganda ko'nglimizda moddiy ne'mat, moddiy manfaatdorlik, mulkka egalik qilish xohish-istagi paydo bo'ladi. Ko'z o'ngimizda u yoki bu tarzdagi, ko'p yo oz miqdordagi mulk gavdalanadi.

O'zbekistonda xususiylashtirish hukumat rahnamoligida nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy va ma'naviy hodisaga aylantirildi. Ayni paytda u ongimiz va tafakkurimizda yuz berayotgan jiddiy o'zgarish sifatida tan olindi. Chunki u bizning fikrlarimiz va ongimizda o'zgarish yasadi. Inson haq-huquqlarini tobora chuqurlashtirdi, uning turmush tarziga yangi mazmun olib kirdi. Natijada jamiyat ham, odamlar ham sifat jahatdan tubdan o'zgardi, uning ma'naviy qiyofasi ancha tiniqlashdi.

Tub islohotlar O'zbekistonda tabiatiga ko'ra sof siyosiy, huquqiy yoki iqtisodiy mohiyatini yo'qotmagan holda ma'naviy, ruhiy-axloqiy qadriyat darajasiga ko'tarilganligi sababli mamlakatning ham, barcha fuqarolarning ham hayotida mukammal, yetuk hodisa sifatida iz qoldirmoqda. Iqtisodiy islohotlarning ma'naviy mazmuni tobora chuqurlashmoqda.

Chunonchi: **Bozor munosabatlariga o'tish – hayotiy yetuklik va sabr-matonatni sinovdan o'tkazuvchi o'ziga xos imtihondir.**

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlar haqida gapirar ekanmiz, yuz bergan institutsional o'zgarishlar haqida ham qisqacha to'xtash o'rinlidir.

1991–1996-yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida salmoqli institutsional o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan turarjoylar, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, matlubot jamiyati obyektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiylashtirish amalda tugallandi. O'rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni faol boshlab yuborildi.

1996-yil 12-martda tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida, shu jumladan, individual mehnat faoliyati bilan band bo'lgan

jismoniy shaxslarni ham hisobga olib borish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatish vazifasini o'z zimmasiga olgan tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning Respublika Palatasi tashkil qilindi. Hozirda joylarda uning hududiy bo'limlari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Jismoniy shaxslarning o'z sarmoyasi negizida 85 mingdan ko'proq xususiy va kichik korxonalar tashkil etildi. Ularga umumiy sahni 793,5 ming kvadrat-metr bo'lgan 3768 ta foydalanilmayotgan va kam foydalanilayotgan xonalar ijaraga berildi; umumiy sahni 104,5 kvadrat-metr bo'lgan 282 xonani ular kimoshdi savdolarida sotib oldilar. Ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash uchun 1469 ta mayda ulgurji bozori va tuzilmalar, shu jumladan 1256 ta tijorat markazlari va savdo uylari tashkil etildi. Xomashyo va tayyor mollarni sotish bo'yicha 1128 yarmarka va savdolar o'tkazildi. Tadbirkorlar tomonidan 512 ta qurilishi tugallanmagan obyekt sotib olindi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning noyob, o'ziga xos tizimi ish olib bormoqda. Unga davlatning o'zi rahnamolik qilmoqda. Bu tizimga muvofiq xususiylashtirishdan tushgan deyarli barcha mablag'lardan iqtisodiyotning nodavlat sektorini shakllantirish va mustahkamlash uchun foydalanilmoqda.

Mamlakat tovar-xomashyo birjasi o'z faoliyatini ancha kengaytirdi, undagi bitimlar hajmi 1995-yilda 7,7 mlrd. so'mga yetdi. 1995-yilda 8481 obyektni 859,8 mln. so'mga sotgan Respublika ko'chmas mulk birjasi ham milliard dovonidan oshish arafasida turibdi.

To'plangan tajriba katta-katta sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish imkonini berdi. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya-ishlab chiqarish birlashmasi ochiq turdagi davlat-aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligining 15 ta korxonasi yuqori investitsiya salohiyatiga ega bo'lgan xo'jalik tuzilmasini — «O'zqishloqxo'-jalikmashxolding»ni tashkil etdi. Uning tarkibiga Toshkent traktor zavodi ishlab chiqarish birlashmasi, «Toshqishmash» ishlab chiqarish birlash-masi, Toshkent agregat zavodi, «Chirchiqqishmash» «O'zbekqishmash» singari aksionerlik jamiyatlari kirdi.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillarida xususiylashtirish jarayoni O'zbekistonda izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirila bordi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar o'ziga xos tarzda amalga oshirilar ekan, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berildi. Bu o'rinda Prezident I. Karimov jahon amaliyotini chuqur o'rgandi, tadbirkorning jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'ringa egaligi, aniqrog'i u «zamonasining yangi qahramonlari» ekanligini chuqur his qildi.

Shu bois Prezident 1994-yil 21-yanvarda «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk muhofazasini ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan xususiy mulkchilik asosidagi tadbirkorlikning yuzaga kelishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi. Mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi.

U Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarini o'z ichiga oluvchi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Xalqaro tashkilotlar (Jahon Banki, BMT, YuNIF) tomonidan qayd qilinishicha, korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini xususiylashtirishdan keyingi qo'llab-quvvatlashning O'zbekistonda amal qilayotgan tizimi, MDH mamlakatlari orasida o'xshashi yo'q ekanligini xalqaro ijtimoiy tashkilotlar mutaxassislari ham tan ola boshladilar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekiston hukumati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llarini qidirib topa boshladi. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning davlat Dasturidan tashqari O'zbekistonda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, shu jumladan, qishloq xo'jaligida alohida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi.

1994-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrini qamrab oluvchi mintaqaviy dasturlar ishlab chiqildi va u dasturlar amalga oshirila boshlandi.

I.Karimov 1995-yil 4-iyulda bo'lib o'tgan idoralararo Kengashda tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xususida qonun qabul qilish kerakligini uqtirdi.

Shunday Qonun Oliy Majlisning iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan tayyorlandi va 1995-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisning IV sessiyasida qabul qilindi.

Ushbu Qonun kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarini belgilab berdi, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratildi.

Qishloqda haqiqiy mulkdorlarning shakllanishida fermer va dehqon xo'jaliklarining yana ham rivojlantirilishi alohida ahamiyatga egadir. Respublikada fermer xo'jaliklarining umumiy soni 1992-yildagi 6 mingdan 1998-yilda 23 minggacha oshdi, ushbu xo'jaliklardagi qoramollar soni 42 ming boshdan 168 ming boshgacha oshdi. Fermer va dehqon xo'jaliklariga ajratilgan qishloq xo'jalik yerlari maydoni oshmoqda. Agar 1995-yilda fermer xo'jaliklari 308 ming gektar yerga ega bo'lsa, 1998-yilda ularga 447 ming gektar yer tegishli bo'lgan, dehqon xo'jaliklari maydoni esa shu davrning ichida 534 ming gektardan 573 ming gektargacha oshgan.

Bu boradagi islohotlar izchil amalga oshirilishi tufayli hozirgi paytda respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va ularda salkam 1,4 million kishi mehnat qilmoqda.

Agar 2000-yilda yetishtirilgan paxta hosilining 21 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006-yilda bu ko'rsatkich 85 foizdan oshib ketdi, boshoqli don ekinlar yetishtirish bo'yicha esa 2000-yilda 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yili 75 foizdan iborat bo'ldi.

Birgina 2006-yilning o'zida 666 ta shirkat xo'jaligini qayta tashkil etish hisobidan 74 mingta fermer xo'jaligi tuzildi, ularning yarmidan ko'pi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashganini ta'kidlash lozim.

Qishloq joylarda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mehnat kooperatsiyasining yangi shakllari, yangicha xo'jalik munosabatlari tizimi qaror topmoqda.

Jumladan, fermer xo'jaliklari tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari va uzum yetishtirishga hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan qariyb 200 ta agrofirma tashkil etildi, qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, transport xizmati, mahsulotlarni qadoqlash, joylash va eksport qilish hamda shu kabi boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllanmoqda.

Dehqon xo'jaliklari faoliyati tubdan o'zgarib bordi. 1998-yilda go'shtning 90 foizi, sutning 92 foizi, sabzavot va kartoshkaning 70 foizdan ortig'i, poliz ekinlari va uzumning yarmidan ko'pi, respublikada yetishtirilayotgan mevalarning 61 foizi shaxsiy yordamchi xo'jalik deb atalmish xo'jaliklarda tayyorlandi.

Mulkdorlar sinfini shakllantirish davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish bilan bevosita bog'liq. Xususiylashtirish va kichik biznesni rivojlantirish jarayoni natijasida hozirgi paytda xususiy korxonalar respublikadagi korxonalarning umumiy sonidan 46 foizni, aksionerlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 12 foizni, jamoa mulki korxonalari – 6 foizni, fermer xo'jaliklari – 14 foizni tashkil qiladi. Aksiyalash respublikada o'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirishning asosiy shaklidir. 1999-yil 1-yanvarga kelib O'zbekistonda 9400 aksionerlik jamiyatlari ro'yxatga olindi, bunda barcha aksiyalarning uchdan bir qismidan ortig'i aholiga tegishli, bu esa yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish jarayonida aholi keng qatlamlari ishtirokining muhim shaklidir.

Bugungi kunda xususiylashtirish jarayoni mohiyatan yangi bosqichga qadam qo'ydi – yirik, tuzilma barpo etuvchi korxonalar xususiylashtirish obyektiga aylanmoqda. Xususiylashtirish hozirgi bosqichining farqlovchi xususiyati aksiyalar vositasining sezilarli qismini fond bozorida, shu jumladan, xorijiy investorlarga ham erkin sotuvga chiqarib yirik korxonalarni keng aksionerlash hisoblanadi. Bu bir tomondan, korxonalar

aksiyalariga egalik qiluvchi mulkdorlar doirasini sezilarli kengaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash maqsadida aholini va xorijiy sarmoyadorlar mablag'larini jalb qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xususiylashtirish jarayoniga katta e'tibor berilganini birgina 2005-yil yakunlari asosida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Masalan, 2005-yilda moddiy resurslar va tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish va ulardan foydalanish tizimini liberallashtirish yo'lida hal qiluvchi qadam qo'yildi.

Bugun to'la ishonch bilan aytish mumkinki, tadbirkorlarga, avvalo, kichik biznes subyektlariga asosiy, shu jumladan, talab katta bo'lgan moddiy resurslardan foydalanish imkonini beradigan barqaror bozor mexanizmi shakllandi.

Birja savdolaridagi aylanma mablag'lar hajmi 2001–2005-yillar mobaynida 5,5 barobar ortdi. Hozirgi kunda ulgurji savdo aylanmasining uchdan bir qismi birja savdolari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich atigi 8,5 foizdan iborat bo'lgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, birja savdolarida mahsulot savdosidan eng ko'p foydani kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari olmoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari tovar-moddiy resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojining qariyb 70 foizini birja savdolarida qilinayotgan xaridlar hisobidan ta'minlamoqda.

2005-yilda Toshkentda birinchi bor o'tkazilgan Xalqaro paxta yarmarkasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu anjumanda dunyoning 26 mamlakatida faoliyat ko'rsatayotgan 200 ta xorijiy kompaniyaning 340 nafar vakili ishtirok etdi. Yarmarka natijalariga ko'ra, paxta xomashyosini xarid qiluvchi Xitoy, Rossiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Singapur, Bangladesh, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan 122 ta shartnoma tuzildi. Yarmarka paxta mahsulotini sotish va uni qayta ishlovchilarga vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish mexanizmi yanada erkinlashishiga, xaridor mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga imkon berdi.

Toshkentda o'tkazilgan yarmarka O'zbekiston dunyoda paxta tolasini ishlab chiqaradigan yetakchi davlatlardan biri sifatida jahon paxta bozorida faol rol o'ynashi mumkinligini yana bir bor yaqqol ko'rsatdi.

Xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida tub burilishga erishildi.

2005-yilda davlat korxonalarini butunlay, shuningdek, davlat aksiya paketlarini asosan xususiy mulkdorlarga sotish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Natijada 980 ta obyektdan 902 tasi xususiy mulkka aylantirildi. 2000–2005-yillar davomida jami 4 ming 660 ta korxona va obyekt xususiy mulkdorlarga sotildi.

Masalan, Samarqand choy qadoqlash fabrikasi, «Ohangaron-sement», «Buxoro-gips», «Parkent-suv-qurilish» aksiyadorlik jamiyatlari kabi yirik korxonalar to'lig'icha xususiy mulkdorlarga sotildi.

Xususiylashtirish jarayonining so'nggi yillardagi o'ziga xos jihati davlat aktivlari va aksiya paketlarining nolga teng xarid qiymati bo'yicha to'liq hajmda sotilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2003–2006-yillar mobaynida 396 ta korxona va obyekt 43,2 milliard so'mlik investitsiya kiritish majburiyati bilan nolga teng xarid qiymatida sotildi. Nizom jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik subyektlari soni 2001-yildagiga nisbatan uch barobar qisqardi.

2007-yilga kelib mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning qariyb 76 foizi, sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i, qishloq xo'jaligi va chakana savdo aylanmasining deyarli barcha mahsulotlari nodavlat sektor ulushiga to'g'ri kelmoqda. Nodavlat sektorda 77 foiz yoki iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning to'rtdan uch qismi mehnat qilmoqda.

Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, 2005-yil kichik biznes va xususiy tadbirkorlikniig jadal rivojlanishida tub burilish yili bo'ldi.

Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda.

Bunga ko'p jihatdan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishildi. 2005-yilning o'zida kichik biznes obyektlari 31,5 mingtaga ko'paydi va ularning soni 310 mingtadan ortdi.

Hozirgi kunda kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 38,2 foizni tashkil etmoqda. Bugun iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 65 foizdan ko'prog'i mazkur sohada faoliyat yuritmoqda. Yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining 85 foizi aynan kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'tgan yili qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tubdan isloh qilish va birinchi galda qishloqda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratildi.

Mamlakatimiz fermer xo'jaliklarida 2007-yilda 1 milliondan ziyod kishi band bo'lib, 2005-yilgi paxta xomashyosining 66 foizi, g'allaning 55 foizdan ortig'i fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirildi.

2005-yilda davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish xo'jalik subyektlari hamda tadbirkorlikniig iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada

kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Tekshiruvlar soni 2001-yildagiga nisbatan 2,5 barobardan ko'proq kamaydi. Ilgari xo'jalik subyektlari tomonidan topshirilgan davlat statistik hisobotlarining umumiy soni ikki barobar, oylik hisobotlar soni esa 5 barobarga qisqardi, ruxsat berish bilan bog'liq 12 ta protsedura bekor qilindi, hisobot ma'lumotlarini noqonuniy talab qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Yagona soliq to'lovlarining joriy etilishi munosabati bilan soliq idoralariga taqdim etiladigan soliq hisob-kitoblari bo'yicha hujjatlar soni 10 barobar qisqardi.

Nazorat idoralarining xo'jalik subyektlari va tadbirkorlik obyektlarini tekshirish natijalari bo'yicha qabul qilgan barcha qarorlarini sud idoralari orqali amalga oshirish tartibi o'rnatildi.

Bunday tartib o'z-o'zicha mazkur subyektlarga nisbatan turli sanksiyalarni qo'llashni ham tubdan o'zgartirish, ya'ni uni sud qarori bilan o'rnatishni belgilab beradi.

Shunday qilib, xo'jalik subyektlari faoliyatidagi o'zaro masala va talablarni turli darajadagi davlat boshqaruvi idoralarida ko'rish va hal qilish kabi o'z umrini o'tab bo'lgan amaliyotga butunlay barham berish borasida qat'iy qadamlar qo'yildi. Bugun bunday masalalar, huquqiy demokratik davlatlarda bo'lganidek, istisnosiz ravishda sud orqali hal etiladi.

So'nggi yillarda xo'jalik sudlari tizimi ancha mustahkamlandi, umumiy yurisdiksiya sudlarining vazifalari fuqarolik va ma'muriy-jinoiy ishlar bo'yicha alohida ajratildi.

Shu borada xo'jalik sudlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2001–2008-yillarda ular tomonidan ko'rilgan ishlar soni 3,7 barobar, jumladan, ma'muriy huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ishlar soni 4 barobardan ko'proq oshgani ham shundan dalolat beradi.

Ko'rilgan ishlarning aksariyati tadbirkorlar va xo'jalik subyektlari foydasiga hal qilinayotganini alohida ta'kidlash joiz. Faqat 2005-yilning o'zida ularning foydasiga 45 milliard sumdan ortiq mablag' undirildi.

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish masalalari eski zamon illati bo'lgan byurokratik boshqaruv tizimini bartaraf etish bilan bevosita bog'liq ekanini isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Tan olish kerakki, respublikada amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar markaz va joylardagi boshqaruv organlari tuzilmalarini takomillashtirishga sezilarli ta'sir qildi, boshqaruv xodimlari va ularning faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni ancha qisqartirish imkonini berdi.

2001–2008-yillar mobaynida boshqaruv xodimlarining umumiy soni 75 ming kishiga yoki 35,5 foizga, jumladan, respublika organlari bo'yicha 21 foiz, mahalliy boshqaruv organlari bo'yicha 63,5 foiz, xo'jalik boshqaruv organlari bo'yicha 30,5 foizga qisqartirildi.

Iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari, bozor islohotlari yo'lidan ilgari borish haqida gapirganda yana bir bor ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda islohotlar shunchaki islohot uchun amalga oshirilmayapti. Islohotlar qanday samara berayotganiga, ular odamlarning ijtimoiy ahvoliga qanday ta'sir ko'rsatayotganiga katta e'tibor berilmoqda.

Odamlarning dunyoqarashi, mentaliteti o'zgarib, ulardagi ijtimoiy boqimandalik va faqat davlatdan yordam kutib yashash kayfiyati barham topmoqda.

Xususiylashtirish, xususiy mulkni mustahkamlash, kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari tashkil etish va tadbirkorlikni rag'batlantirish hisobidan mamlakatimizda demokratik jamiyatning asosi va tayanchi sifatida o'rta sinf amalda shakllanmoqda.

Birinchi navbatda bu o'z kuchi va imkoniyatiga tayanib yashaydigan, o'zini, oilasini boqayotgan va davlatga ham katta naf keltirayotgan, o'zining mustaqil tijorat ishiga ega bo'lgan mulkdor tadbirkorlardir.

Aynan ana shunday odamlar jamiyatimizning tayanchi bo'lib, uning ijtimoiy asosini tashkil etadi. Chunki aynan shular demokratik va bozor islohotlarini davom ettirish va chuqurlashtirishdan, mamlakatni barqaror va izchil rivojlantirishdan ko'proq manfaatdor ekanini ta'kidlash zarur.

Shunday qilib, mamlakatimizning 2008 yildagi iqtisodiy rivojlanish natijalari o'tgan davr mobaynida demokratik yangilanish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lida ulkan qadamlar qo'yilganini ko'rsatadi.

4-§. O'zbekistonning zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoriga qo'shilishi

O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan so'ng, o'z rivojlanish yo'lini belgilar ekan, oson yo'l qidirmadi. O'tish davrining murakkabliklariga qaramasdan ulkan-ulkan inshootlar, zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari yaratishga kirishdi.

Bu borada, birgina Andijon viloyatining Asaka shahrida zamonaviy mashinasozlik sanoati obyektining vujudga kelishini misol keltirish kifoyadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1992-yil iyun oyida Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi dastlabki hujjatlarni imzoladi. Shu yilning avgust oyida esa Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona barpo etish to'g'risida kelishib olindi.

Korxonani tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrda «Selxozmash» konserni va «DEU korporeyshn» korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobillar ishlab

chiqaruvchi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini tashkil qilish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Unda «Selxozmash» konserniga 3 oy muddat ichida respublikada avtomobilsozlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi hamkorligida barpo etiladigan ushbu qo'shma korxona ta'sischilari etib Koreya Respublikasi tomonidan «DEU» korporatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi tomonidan esa «O'zavtosanoat» uyushmasi belgilandi va O'zbekistonda barpo qilinayotgan avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonani «O'zDEUavto» nomi bilan yuritishga kelishildi. Shartnomaga ko'ra har ikki tarafning qo'shma korxonadagi ulushi miqdori «DEU» korporatsiyasi uchun 50%, 100 million AQSH dollari va «O'zavtosanoat» uyushmasi uchun 50%, 100 million AQSH dollari hisobida belgilandi.

Bir qarashda O'zbekiston mashinasozligi ma'lum bir bosqichni bosib o'tgan, o'z tarixiga ega bo'lgan sohalardan biri. Sobiq sho'rolar davrida o'lkamizda qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan «Tashselmash», «O'zbekselmash», Toshkent traktor zavodi, Ekskavator zavodi, «Chirchiqselmash» hamda Andijon va boshqa viloyatlarda turli rusumdagi traktorlar ishlab chiqarilar edi. Biroq, aslida ular tom ma'nodagi ishlab chiqarish quvvatiga va imkoniyatiga ega emas edi.

Sobiq Ittifoqning o'nlab shaharlaridan, chekka-chekkalaridagi turdosh korxonalaridan tayyor qismlar olib kelinib, O'zbekistonda yig'ilar edi, xolos. Bu O'zbekiston mashinasozlik industriyasini rivojlantirishga emas, aksincha uning iqtisodiy qaramligini chuqurlashtirishga xizmat qilar edi.

Yuqorida ta'kidlanganidek haqiqiy o'zbek mashinasozligi mustaqillik mahsuli bo'lib, u 1993-yilning mart oyida «O'zDEUavto» nomi bilan ro'yxatdan o'tkazilib, Andijon viloyatining Asaka shahridagi pritseplar ishlab chiqarish korxonasi negizida tashkil qilinishi hamda bu muhim inshoot qurilishining boshlanishi bilan O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoatiga asos solindi.

Qo'shma korxonaning umumiy maydoni 476 ming 266 kvadrat metr bo'lib, shundan bino va inshootlar uchun ajratilgani 146 ming 266 kvadrat metrni tashkil qiladi. Qurilish 1993-yilning fevralidan boshlab 32 oy mobaynida oxiriga yetkazildi.

Loyiha ishlari asosan «DEU injeniring» va «Uztyajprom» firmalari tomonidan amalga oshirildi. O'zining ko'lami jihatidan nafaqat O'zbekistonda balki, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan mazkur korxonadir.

Loyiha quvvatiga ko'ra yiliga 200 ming avtomobil ishlab chiqara oladigan bu ulkan inshootning umumiy qiymati 658 million AQSH dollarini tashkil etadi.

Avtomobilsozlikda ko'p jihatdan yangi bo'lgan ilg'or texnologiyalar qo'llanilgan ushbu korxonada ishlaydigan ishchi, muhandis kadrlar tayyorlash ishlariga qo'shma korxonaga asos solingandan boshlab katta e'tibor berildi.

Korxona sexlarida mehnat qilayotgan yoshlarning 1000 dan ko'prog'i Janubiy Koreya Respublikasida – «DEU» kompaniyasi avtomobil ishlab chiqarish korxonalarida ishlab tajriba orttirib qaytishdi, keyinroq yana 2000 kishi o'z malakalarini oshirish uchun Janubiy Koreyadagi «DEU» kompaniyasining avtomobilsozlik zavodlariga yuborildilar.

Qo'shma korxonada bajarilgan qurilish ishlari asosan Andijon, Farg'ona va Namangan viloyati qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi.

1996-yil 19-iyulda ushbu qo'shma korxonaning ishga tushurilishiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'ldi. Unda nutq so'zlar ekan, Prezident I.Karimov «Asaka shahrida ikki yil ichida bunyod etilgan, 1996-yilning mart oyida «Damas» mashinasi, iyun oyida «Tiko», iyul oyida esa «Neksiya» ishlab chiqargan «O'zDEUavto» istiqlol yillarida bunyod etilgan qudratli korxona bo'lish bilan birga O'zbekistonning eng ilg'or davlatlar qatoriga kirish uchun qo'ygan dadil qadam» ekanligini alohida uqtirdi.

Korxona aytish mumkinki ko'plarni hayratga solib havaslantirayotgan «Tiko», «Damas», «Matiz», «Neksiya», «Lasetti»larni xalqimizga yetkazib berishdan tashqari butun mamlakatni eng ilg'or, jahon andozalariga to'la javob beradigan avtomobillar bilan ta'minladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari yildan yilga o'sib bordi. 2006-yilga kelib korxona 571580 ta avtomobil ishlab chiqardi, uning 198609 tasi xorijga eksport qilindi.

2008-yilga kelib mamlakatimizda «O'zDEUavto»ga butlovchi qismlar yetkazib beruvchi Andijon mexanika zavodi, Baliqchidagi «A.Navoiy interneshinl» «And Polik» singari o'nlab korxonalarda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shunday qilib, Asakada «O'zDEUavto» qo'shma korxonasining ishga tushishi O'zbekistonda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni, respublika industriyasining qudrati muttasil ortib borayotganini ko'rsatuvchi muhim dalildir.

Shu bois bir haqiqatni alohida ta'kidlash joiz. Jahon mamlakatlari tarixi guvohlik berayaptiki, dunyodagi eng kuchli mamlakatlargina avtomobil industrasiyasiga ega. Ular asosan, AQSH, g'arbiy Yevropa, Yaponiya, Rossiya va Janubiy Osiyodagi mamlakatlardan iborat 28 tani tashkil etadi.

Avtomobil industriyasi bozoriga kirish va undagi kuchli raqobatga bardosh berish o'ta mushkul ish bo'layotganligi uchun ham iqtisodiy va moliyaviy baquvvat mamlakatlar ham bu biznesga kira olmayaptilar.

O'zbekiston esa kuchli raqobatchilari bo'lgan avtomobil bozoriga sobiq SSSR tarkibidagi respublikalar orasida birinchi bo'lib kirib bordi.

Bunday yutuqqa O'zbekiston osonlikcha erishmadi. Unga erishish uchun esa quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor berildi:

Birinchidan, O'zbekistonda avtomobil sanoatini barpo etish uchun katta investitsiya, yuqori texnologiya va malakali kadrlar tayyorlash talab qilinar edi.

Ikkinchidan, avtomobil ishlab chiqaruvchilar uchun iqtisodchilar ta'biri bilan aytganda, doimo o'zaro o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarish holati mavjud bo'lishi lozim edi. Buning ma'nosi avtomobillar modelini juda to'liqlari bilan almashtirib turishni, xaridorlar talab-istaklarini o'z vaqtida qondirishni taqozo etadi. Bunda kuchli injener-konstruktorlik ishini qat'iyat bilan rivojlantirish, ijodiy-texnologik jarayonni doimiy ravishda, uzluksiz takomillashtirib borishning zaruriy choralarini ko'rish talab qilinardi.

Uchinchidan, xomashyo mahsulotlari, ehtiyoj qismlar yetkazib beruvchilarni, ya'ni ta'minlovchilarning avtomobil biznesiga ta'siri katta bo'lganligi uchun ular ishonchini qozonmoq kerak edi.

O'zbekiston avtomobil industriyasi ana shu muhim masalalarni hal etishga qodir ekanligini amalda ko'rsatdi va bunga boshqa mamlakatlardagi hamkorlarini ishontira oldi. U qiyinchiliklarni oqilona yengib, muammolarni cho'chimay hal qilib, biznes bozoriga dadil kirib bordi.

Hozirgi kunda «O'zDEUavto» korxonasida kuniga 290 ta dunyo andozalariga javob bera oladigan 4 xil modeldagi avtomobillar chiqarilmoqda. Shundan 160 tasi NEXIA modeli bo'lib, u AQSH va Yaponiya talablariga to'la javob beradi. Uni ma'lum takomillashtirish hisobiga Yevropa standartiga ham to'la javob beradigan darajaga keltirish ishlari olib borilmoqda. Avtomobillar hozir o'z xaridorlarini kutilgandan ham tezroq topmoqda.

1996-yil noyabr oyigacha 18000 dan ortiq avtomobillar sotilgan bo'lsa, ulardan 15 ming 700 tasi ichki bozorga va 2300 tasi chet ellarga eksport uchun chiqarildi. Shulardan NEXIA va TICO avtomobillariga talab tobora kuchaydi.

Tashqi bozordagi katta ulgurji savdo Rossiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda O'zbekistonga avtomobil eksport qiluvchi Rossiya O'zbekiston avtomobillariga xaridor bo'lmoqda va undan ko'p miqdorda olishni taklif qilmoqda.

O'zbekistonda avtomobilsozlikni rivojlantirishga respublika rahbariyati, shaxsan Prezident I.A.Karimov muntazam e'tibor berib kelmoqda. Buni Vazirlar Mahkamasi tomonidan birgina 1995-1996-yillarda qabul qilingan qarorlardan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini jalb etgan holda

avtomobil sanoatining ishlab chiqarish bazasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 30-mayda «Avtomobillar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston– Koreya Qo'shma korxonalarini tashkil etish to'g'risida» qaror qabul qildi.

Unda O'zbekiston tomonidan «O'zavtosanoat» uyushmasi va «O'zsanoatqurilish» davlat korporatsiyasining «Andijon qurilish zavodi» aksionerlik jamiyati hamda Koreya tomonidan «Dongju end Ko ltd» kompaniyasi tashkil etadigan lak-bo'yoq mahsulotlari ishlab chiqaradigan Nizom jamg'armasi 4 million AQSH dollari miqdorida bo'lgan «O'z-Dongju Ko» Qo'shma korxonasi, O'zbekiston tomondan «O'zavtosanoat» va «O'zmashsanoat» uyushmalarining «Andijon zavodi» aksionerlik jamiyati hamda Koreya tomonidan «Tong Xong» Elektrik o'rindiqlari ishlab chiqaradigan, Nizom jamg'armasi 6,42 million AQSH dollari miqdorida bo'lgan «O'z-Tong Xong Ko» Qo'shma korxonasi O'zbekiston tomonidan «O'zavtosanoat» uyushmasi va Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi SANIIRI ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining tajriba-eksperimental zavodi hamda Koreya tomonidan «Kodam Plastik Ko ltd» kompaniyasi tashkil etadigan bamperlar va pribor panellari ishlab chiqaradigan, Nizom jamg'armasi 5 million AQSH dollari miqdorida bo'lgan «O'z-Kodam Ko» Qo'shma korxonasi tashkil etilishi ma'qullandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi ishlab chiqargan avtomobillarni samarali sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida 1996-yil 3-sentabrda «O'zDEUavto» Qo'shma korxonasida avtomobillar ishlab chiqarish, sotish va ularga texnik xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash to'g'risida qaror qabul qildi.

Ushbu qarorda «Mersedes Bens» va «DEU» kompaniyalarining va boshqa yirik avtomobil kompaniyalarining mutaxassislarini jalb etgan holda «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi avtomobillarini ham mamlakat ichida, ham mamlakat tashqarisida sotish bo'yicha marketing tadqiqotlari markazini tashkil etish ko'zda tutildi. Ayni chog'da bu markaz «DEU» korporatsiyasi bilan kelishgan holda avtomobil Modellarini yangilashga doir tadbirlar ishlab chiqishi kerakligi nazarda tutildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini to'la quvvat bilan ishga tushirish, ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun zarur ehtiyot qismlar tayyorlash, sotish va sotuvdan keyin servis xizmati ko'rsatish, marketing xizmatlarini yo'lga qo'yish choralari ko'rilmoqda.

Shu kunlarda korxonada 4000 ga yaqin ishchi ishlayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda taxminan 55–65 ming kishi ishlaydigan yirik avtomobilsozlik markaziga aylanadi.

1999-yil 16-mart kuni Samarqandda ham qalbimizni g'urur nashidasidan entikadigan quvonchli voqea ro'y berdi. Bu yerda O'zbekistonning yana bir avtomobil zavodi ish boshladi. Qisqa muddatda qad rostlagan mazkur avtomobil zavodi qurilishiga 1995-yili «O'zavtosanoat» uyushmasining Turkiyadagi mashhur «Koch xolding» kompaniyasi bilan imzolagan shartnomaga muvofiq kirishilgan edi.

«SamKochavto» qo'shma korxonasi zavodida yiliga minglab turli rusumdagi qulay va ixcham avtobuslar, turfa xil yuk tashish mashinalarini ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Xalq xo'jaligining barcha jabhalarida foydalanish mumkin bo'lgan bu mashinalarning e'tiborli jihati shundaki, ular «Iveko» Italiya-Ispaniya firmasining ixcham konstruksiyalariga asoslangan hamda «Koch xolding» kompaniyasi a'zosi– «Otoyo'l» zavodida yanada takomillashtirilib, O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi.

Dastlab butlovchi va ehtiyot qismlarining 25 foizi o'zimizda ishlab chiqarildi. 2000-yildan boshlab bu ko'rsatkich 35 foizga yetishtirildi. Ma'lumki, Asakadagi avtomobil zavodida ham dastlab butlovchi va ehtiyot qismlarining 15 foizi mahalliy korxonalarda tayyorlanar edi. Hozirga kelib bu ko'rsatkich 55 foizdan oshib ketdi.

Chkalov nomli Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent traktor zavodi kabi yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga, «O'zqishloqxo'jalik» mashinasozligi esa «O'zqishloqxo'jalik mashinasozlik xolding» – xolding kompaniyasiga aylantirildi.

Hozirgi paytda faqat dunyoning ikki mamlakatida, aniqrog'i AQSH va O'zbekistonda paxtachilik mashinalari va uskunalari to'liq ishlab chiqarilmoqda. Ayni paytda bu yirik korxonalar AQSHning «Keys» va «Magnum» korporatsiyalari bilan hamkorlik qilib, qishloq xo'jaligini zamonaviy traktorlar bilan ta'minlashga harakat qilmoqdalar.

O'zbekiston ipakchilik va pillachilik texnikalari ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi yagona davlatdir.

Shu tariqa O'zbekiston 2008-yilga kelib zamonaviy avtomobil industriyasiga ega rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin oldi.

5-§. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida qishloqning o'rni va uni rivojlantirish chora-tadbirlari

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar ichida qishloqda yuz bergan o'zgarishlarni alohida ta'kidlash joiz. Qishloqda tub islohotlar o'tkazishning bir necha o'ziga xos omillari bor.

Bu borada davlat rahbari ta'kidlaganidek, **istiqlolga erishgach qishloqni ustun darajada rivojlanishini ta'minlamasdan, qishloq xo'jaligini sifat** jihatidan yangi asoslarda qayta tiklamasdan turib mamlakatda iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishib bo'lmaydi, mamlakat aholisining

ko'pchiligini tashkil qiluvchi qishloq mehnatkashlari turmushini yanada to'kinroq qilish vazifasini bajarib bo'lmasdi. Ayni chog'da mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining salmog'i yuqori edi.

1996-yil boshiga kelib agrar sektor hisobiga mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 24 foizi, mamlakat mehnat resurslarining 27 foizi to'g'ri keldi. Bu – **birinchidan**.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi aholisining 60 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi. Tug'ilish ko'p bo'lgani tufayli ish bilan ta'minlash muammolari ham qishloqlarda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qishloq aholisining 50 foizidan ortig'i 18 yoshga yetmagan yoshlardan iborat. Bu qishloqda eng katta ishchi kuchi potensiali joylashganini, mamlakatimiz iqtisodiyotida yetakchi o'ringa ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston hukumati qishloqning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini yuksak baholab, uni yanada yuksaltirishga doimiy e'tibor berishining boisi ana shunda. Shuning uchun ham I.Karimov Oliy Majlisning 1995-yil 29-dekabrda bo'lib o'tgan IV sessiyasida shunday degan edi: **«Men bir haqiqatni aytib charchamasam kerak. Buning mazmuni shuki, qishloqda tub islohotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbayidir»**.

Shu bois avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish borasidagi muhim chora-tadbirlardan biri, bu sohani boshqarishni takomillashtirish va tubdan o'zgartirish, rahbarlikni yaxshilash bo'ldi. 1991–1996-yillarda qishloq xo'jaligi kompleksiga rahbarlikni yaxshilash, qishloqda o'tkazilayotgan islohotlarning huquqiy asosini yaratish choralari ko'rildi.

1996-yil 26-noyabrda respublika hukumati qishloq va suv xo'jaligini boshqarishning, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan butunlay yangi tizimini yaratish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida» qaror qabul qildi. Shunga asosan ikki vazirlik birlashtirildi.

Bundan ilgariroq, aniqrog'i, 1996-yil 3-aprelida Prezident «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» farmonni imzolab unda qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tadbirlar ko'zda tutilgan edi.

Yana ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ustun darajada rivojlantirish borasida yangi qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, 1991-yil 21-dekabrda qabul qilingan «Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik

faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamon talablari asosida tashkil qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish va dehqon (fermer) xo'jaliklari hamda xususiylashtirilgan fermalarning manfaatlarini himoya qilish to'g'risida 1994-yil fevralida qabul qilingan hukumat qarorlari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu yillarda amalga oshirilgan tadbirlar tufayli qishloqda agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi xo'jalik tizimi shakllandi. Avvalgi sovxozlarning hammasi kooperativ, uyushma, shirkatlarga va mulkning boshqa nodavlat shakllariga aylantirildi.

Chorvachilik fermalari 1994-yilda mazkur joydagilar mulkiga aylantirildi. 1995-yilda qoramol boqiladigan 588 chorvachilik fermasi kimoshdi savdosida sotildi. Dehqonlarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklariga sug'oriladigan yerlardan qo'shimcha salkam 350 ming gektar yer ajratildi. Ayni paytda qishloqda 20 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ijtimoiy tuzilishi tubdan o'zgardi. Hozir qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining 98 foizi nodavlat sektori hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy islohotlar respublika oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishlar bilan birga amalga oshirildi.

Paxtazorlar 1,5 million gektarga qisqardi, sug'oriladigan yerlardagi g'allazorlar 1,2 million gektarga ortdi. G'allachilikni jadal rivojlantirish qisqa vaqt ichidayoq xalq iste'moliga ishlatiladigan va ozuqabop donga bo'lgan ehtiyojni qondirish, bug'doy sotib olishga sarflanayotgan valyutani tejab qolish imkoniyatini beradigan, eksportga ehtiyoj qoldirmaydigan qudratli tarmoq yaratildi.

Don ekinlari uchun ajratilgan maydonlar 1990-yildan 1998-yilgacha bo'lgan davr mobaynida asosan paxta ekinlari maydonini qisqartirish hisobiga 1,7 barobar oshdi. Don ishlab chiqarish ikki barobardan ko'proq oshib, 4,15 mln. tonnani tashkil qildi. Mazkur ekinlarni yetishtirish tajribasining ko'payishi va faol seleksiya ishlari natijasida hosildorlik shu yillar mobaynida 1,3 barobar oshdi. Ushbu chora-tadbirlar don ekinlari importini sezilarli darajada qisqartirishga imkon berdi. Agar 1990-yilda respublikada iste'mol qilinadigan bug'doyning 90 dan ortiq foizi importga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilda import ulushi 19 foizdan kamroqni tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning moddiy shart-sharoitlarini yaratish, islohotlarni yangi sifat darajasiga ko'tarish uchun 1994-yilda davlat tomonidan xarid qilinadigan paxta tolasi va donning narxi 3–8 barobar oshirildi. Qolgan barcha mahsulotlarni dehqonlar erkin bozor

narxlarida sota boshladilar. Boshqacha qilib aytganda qishloqda islohotlarni jadallashtirish va chuqurlashtirishni, bozorga xos ko'p ukladli samarador ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zarur iqtisodiy shart-sharoitlar yaratildi.

Bu osonlikcha bo'lmadi. Sababi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga va qayta ishlashga ahd qilgan kishilar oldida ko'plab muammolar paydo bo'lgan edi.

Mazkur muammolarni qonun yo'li bilan hal qilishni ko'zda tutuvchi yangi hujjatlar qabul qilindi. Ular ichida asosiylaridan biri, 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonundir. Bu hujjatda ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish uchun uzoq muddatli kredit ajratilishi hamda, dehqon xo'jaligining joriy ishlab chiqarish faoliyati uchun kredit shartnomasi asosida qisqa muddatli kredit ajratish ko'zda tutildi.

Dehqon xo'jaligi tashkil topayotgan paytida unga ssuda va kreditlar berilishida mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari, boshqa to'lovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, dehqon xo'jaliklarining o'zlari o'z mulki evaziga kafil bo'ladigan bo'ldilar.

Qishloq xo'jalik vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 1996-yil boshigacha O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarining umumiy soni 20 ming 244 tani tashkil etdi.

1995-yilda dehqon xo'jaliklarining soni jadal sur'atlar bilan oshib borgan yil bo'ldi. Birgina 1995-yilda 3 ming xo'jalik qo'shildi. Shunga muvofiq ravishda ularda band bo'lgan qishloq mehnatkashlarining soni 79229 kishidan 105377 kishiga ko'paydi. 4380 dan ortiq kishi mehnat shartnomasi asosida mavsumiy ishlarga jalb qilindi.

O'zbekiston ulkan qishloq xo'jalik resurslariga ega mamlakat. Uning asosiy qishloq xo'jalik ekini paxta. Agar butun Markaziy Osiyo mamlakatlari 2 million tonna paxta tolasi yetishtirsa, birgina O'zbekiston 1 million 400 ming tonna paxta tolasi yetishtiradi.

Respublika paxta tolasini yetkazish bo'yicha jahonda to'rtinchi o'rinda, uni chetga chiqaruvchi va jahon bozorida uni sotish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Bu esa mamlakat xazinasiga valyuta kelib tushishining eng muhim manbayi bo'lib qoldi.

Respublika sabzavot, meva, uzum yetishtirish bo'yicha ham salmoqli o'ringa ega. Hozir O'zbekistonda yiliga 5 million tonnaga yaqin meva-sabzavot yetishtirilmoqda. Bu respublika aholisi ehtiyojidan ancha ortiq.

Respublikada har yili o'rtacha 70 ming tonnaga yaqin pilla yetishtirilib, uning 21 ming tonnasi respublika korxonalarida qayta ishlanib, ipak tolasi olinadi, qolgani esa eksport qilinadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilishning puxta o'ylab olib borilishi MDH barcha mamlakatlaridan farqli o'laroq, ishlab chiqarishning sezilarli darajada pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

Shu bilan birga qishloqda islohotlarni amalga oshirishda ekinlar hosildorligi, mehnat unumdorligi o'sishini ta'minlashda, haqiqiy yer egasi va mahsulot sohibining shakllanishida hali bir qator muammolar va yechilmagan masalalar ko'p edi. Shu bois 1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlisning IV sessiyasida «Qishloqda islohotlar sust borayotgani va kutilgan natijalarni bermayotgani, mulk o'z egasini topishi haqida ko'p gapirilsada, amaliy hayotda esa bu masalalar o'zining kerakli yechimini topmayotgani» qat'iy ta'kidlab o'tildi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda urug'chilikka e'tibor berilishi lozimligi qayta-qayta uqtirildi. Shu bois ham mamlakat Oliy Majlisi 1996-yil 29-avgustida O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risida», «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi qonunlarni qabul qildi. Ushbu qonunlar respublikada urug'chilik masalalariga doir davlat siyosatini amalga oshirishning huquqiy asosini yaratdi.

Qishloqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish haqida gapirar ekanmiz, qishloqda aholi turmush sharoitini yaxshilashga Prezident va hukumat doimiy ravishda e'tibor berayotganliklarini ham ta'kidlamoq lozim.

1996-yilning 21-mayida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2000-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasini rivojlantirish Dasturi» to'g'risida qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda qishloqning iqtisodiy va mehnat imkoniyatlaridan yanada to'liq va samarali foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, qishloq aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi «O'zistiqbolstat» Davlat Qo'mitasi, O'zbekiston Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash va Xalq ta'limi vazirligiga 2000-yilgacha qishloq infrastrukturasini rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirishni topshirdi. Shuningdek, ushbu qarorda hukumat komissiyasi tuzilib, har 3 oyda bir marta ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish ham ko'zda tutildi.

Vazirlar Mahkamasining qishloqni rivojlantirishga doir mazkur qarori sohada keskin o'zgarish yasashga asos bo'ldi. Masalan, 1996-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan yig'ilishda «O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining Vazirlar Mahkamasining «2000-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida qishloq ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi qarorini bajarishi yuzasidan hisoboti tinglandi.

Komissiya yig'ilishida ta'kidlanishicha, ko'pdan beri orziqib kutilgan, tom ma'nosi bilan o'zbek qishlog'ini madaniy-ma'rifiy yuksaltirishga, sog'lom yosh avlodni kamol toptirishga yo'naltirilgan ushbu qarordan so'ng Xalq ta'limi vazirligida 23-mayda hukumatning bu muhim qarorini turmushga tatbiq qilishni ta'minlovchi ishchi guruh tuzildi.

Ishchi guruh birinchi navbatda mamlakat o'sha paytdagi «Istiqbolstat» Davlat Qo'mitasi mas'ul xodimlari bilan birgalikda qishloq joylarida 24,3

ming o'quvchiga mo'ljallangan avariya holatidagi maktablar uchun binolar qurilib foydalanishga topshirish 1996-yil reja-dasturini Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyat hokimiyatlari bilan hamkorlikda ko'rib chiqib hukumatga taqdim etdi. Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 8-iyundagi Majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangandan so'ng joylarga ijro uchun yuborildi. 1996-yilning 29-may kuni ishchi guruh qishloq maktablari qurilishida asosiy buyurtmachi hisoblangan Qishloq xo'jalik vazirligining mas'ul xodimlari ishtirokida yig'ilish o'tkazib qishloq maktabining kelajagi haqidagi Konsepsiyani yaratish masalasini kelishib oldi.

Hukumat Qarorini amalga oshirishdagi muhim tadbir shundan iborat bo'ldiki, 1996-yil 28-iyunda barcha viloyat xalq ta'limi boshqarmalarining boshliqlari ishtirokida bo'lib o'tgan hay'at yig'ilishida bu o'ta dolzarb hukumat tadbirlarini o'z vaqtida puxta bajarish sohasida ta'lim muassasalarining mahalliy hokimiyatlar, qurilish tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishi muhokama etildi, ularni amalga oshirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi. Unda 1996-yilda qishloq hududlarida foydalanishga topshiriladigan maktab binolari va ularning moddiy negizini to'liq ta'minlash bo'yicha aniq muddatlar tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasi Qaroridan nafaqat qishloq maktablari uchun yangi bino qurish, balki ularni gazlashtirish, ichimlik suvi bilan ta'minlash, maktab binolarini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va qo'shimcha binolar qurish, zamonaviy texnika vositalari, jihozlar, mebellar bilan ta'minlash vazifalari ham o'rin oldi.

Ta'lim muassasalarini jihoz, mebellar bilan o'z vaqtida to'liq ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligi bilan Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi «Fayz» mebel ishlab chiqarish hissadorlik jamiyati o'rtasida 1996–2000-yillarga mo'ljallangan shartnoma tuzildi. Shartnomaga asosan hissadorlik jamiyatining ikkita sexida faqat ta'lim muassasalari, xususan, maktablar uchun mebel, jihozlar ishlab chiqarilishi haqida kelishilib, bu ish 1996-yilning birinchi choragidayoq boshlab yuborildi. Mazkur yilning birinchi yarmida qurilib foydalanishga topshirilgan maktablar uchun 30 million so'mlik mebel joylarga yetkazib berildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi murakkabliklar hisobga olinib, ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan o'quv ko'rgazma qurollari va jihozlarni ta'mirlash borasida vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarda amaliy chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, mamlakat «Ta'lim-ta'minot-jihoz» va Andijon viloyat «Ta'lim-ta'minot» korxonalari qoshida Rossiya bilan lingafon, fizika, ximiya kabinetlari, elektr uskunalarini ampermetr, voltmetr, ossillograf, universal to'g'rilagichlarni ta'mirlovchi «Maktab-lingofon», Buxoro viloyati «Ta'lim-ta'minot» korxonasi qoshida esa, kodoskop, epidpaskop, epipproyektor, grafoproyektor, teleskop va filmskoplarni ta'mirlovchi «Maktab-Jihoz-Buxoro» qo'shma korxonalari ochildi.

Xalq ta'limi vazirligi maktablarni zamonaviy texnika jihozlari bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi, xususan, joriy yilda qishloq hududlarida joylashgan maktablar uchun eng zamonaviy texnika vositalari – 160 komplekt sinf «IBM» kompyuterlari ajratish rejalashtirildi va bulardan 100 komplekti joylarga yetkazildi.

Shuningdek, komissiya yig'ilishida yangi ta'lim muassasalarini qurib, ularni foydalanishga topshirish ishlari Respublika viloyatlarida juda sust ketayotganligi ham qayd qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida va Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida bironta ham maktab binolari foydalanishga topshirilmadi. Shu munosabat bilan, komissiya Qishloq xo'jalik vazirligi, uning joylardagi viloyat agrosanoat birlashmalari, qator viloyat hokimiyatlari, xalq ta'limi boshqarmalari e'tiborini qishloq joylarida maktab qurilishiga, ularni tezroq foydalanishga topshirishga qaratdi.

2008-yilda ijtimoiy soha obyektlarini quruq va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. Shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshooti, 26 ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr turarjoy binolari va boshqa obyektlar qurildi.

Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarishda boshqa vazirliklar tomonidan ham muayyan ishlar qilindi. Xususan, qishloq aholisining salomatligini yaxshilash masalasiga ham e'tibor kuchaydi. Faqat 1996-yilning 11 oyi mobaynida respublikada 62 qishloq vrachlik punkti ishga tushdi. Shu davr mobaynida 71 ming kvadrat metr savdo o'rinlari, 27,9 ming kvadrat metr umumiy ovqatlanish shoxobchalari, 1992 maishiy xizmat obyekti qurib foydalanishga topshirildi.

Aholini gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham sezilarli ishlar qilindi. Qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash yosh O'zbekiston davlati iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Buni Xorazm viloyati misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Viloyatda bu sohada mustaqillikning 5 yili davomida 80-yillarga qaraganda birmuncha o'sish sezildi. Jumladan, 1992–1995-yillarda 824 kilometr tabiiy gaz quvurlari yotqizilib, 40 ming 700 xonadonga «zangori olov» o'tkazildi. Vaholanki, 1990-yilgacha gazlashtirilgan xonadonlar 49 mingni tashkil etgan, ichimlik suvi bilan ta'minlashning ahvoli ancha og'ir edi. Binobarin, mavjud ichimlik suvi quvurlari 1990-yilgacha atigi 1000 kilometrni tashkil etgan.

Keyingi 5 yilda 127 kilometr katta diametrli suv haydagich, 902 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 86,7 foizga, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 54,8 foizga yetkazildi.

Orol mintaqasida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ijtimoiy-iqtisodiy tadbir bo'lib insonparvarlik xususiyatiga ega edi.

Bu g'oyat muhim sohada Namangan viloyatida ham ibratli ishlar amalga oshirildi. 1990-yilgacha bo'lgan davrda viloyat bo'yicha jami 1480 kilometr gaz tarmoqlari tortilgan bo'lsa, 1991–1995-yillar davomida 2025 kilometr gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Sobiq Ittifoq davrida hammasi bo'lib 1423,9 kilometr suv uzatish tarmoqlari yotqizilgan bo'lsa, 1991–1995-yillarda 1039 kilometr shunday tarmoqlar ishga tushirildi. 1990-yilgacha hammasi bo'lib 95,8 ming xonadon gazlashtirilgan bo'lsa, istiqlol yillarining o'zidayoq 83,3 ming xonadonni gazlashtirishga erishildi. Birgina 1996-yilning o'zida viloyatning eng chekka qishloqlari Chodak va Nanayga gaz yetkazib berildi.

Qishloqda islohotlar amalga oshirilishi jarayonida mehnatga yaroqli aholini mehnat bilan band qilish masalasiga ham katta e'tibor berildi.

Buning boisi shundaki, hozirda qishloqda qariyb 2 mln.ga yaqin ortiqcha ishchi kuchi mavjud. Shu bois Respublika Prezidenti qishloqda kichik korxonalar, maishiy xizmat obyektlari tashkil qilish, ortiqcha ishchi kuchini shu sohalarda band qilish vazifasini muttasil sur'atda ta'kidlab kelmoqda. Bu borada 1991–1995-yillarda mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholini ish bilan ta'minlash hukumat Dasturi ishlab chiqildi. Unda ish bilan band bo'lganlar salmog'ini 59 foizdan 74 foizga oshirilishi mo'ljallangan edi. Bu bajarildi. Shunday bo'lsa-da, rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida bu masala hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bois Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan Dasturda 1996–2000-yillar orasidagi davrda qishloqda qariyb 2 millionga yaqin yangi ish joyi yaratish, deyarli 950 ming kishini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mo'ljallandi.

1996–98-yillarda qishloq joylarda 631,0 mingta ish joyi barpo etildi.

1998-yilda yaratilgan bu ish o'rinlarining asosiy qismi iqtisodiyotning qishloq sohasiga (79,4 ming), savdo-sotiq va umumiy ovqatlanishga (54,1 ming), sanoatga (18,4 ming), shuningdek, transport va aloqa sohalariga (10,0 mingta) to'g'ri keladi.

1998-yilda qishloq joylardagi yangi ish o'rinlarining deyarli yarmini shaxsiy faoliyat tarmog'i tashkil etadi (fermer xo'jaliklarida – 47,1 ming, dehqon xo'jaliklarida – 12,9 ming, shaxsiy-mehnat faoliyatlarida – 75,4 ming). 34,0 mingta o'rinini esa qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan xususiy biznes sohasi tashkil etdi.

Natijada qishloq aholisining bandligi tizimi moddiy ishlab chiqarish, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish sohalaridagi bandligi hisobiga oshdi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, Prezident I.Karimov va respublika hukumati O'zbekistonda qishloqni har tomonlama rivojlantirishga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida islohotlarni chuqurlashtirish, bu sohaning moddiy bazasi va moliyaviy ahvolini mustahkamlashga, agrar siyosatning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga muntazam, doimiy e'tibor bermoqdalar.

Xullas, yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bugun O'zbekiston erishgan yutuqlar ko'p jihatdan respublika hukumatining izchil, sobitqadam siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Avval boshdanoq islohotlarning har bir qadami puxta o'ylangan, avvalgi mafkura zo'ravonligi o'rnini qonun ustuvorligi egalladi. Xususiy iqtisodiyotga rivojlanish uchun davlat sektori bilan teng sharoitlar yaratildi. Ijtimoiy siyosat esa, aholi turmush darajasini asta-sekin yaxshilashga qaratildi.

O'zbekistonda milliy iqtisodning eng muhim va ustuvor tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi bo'lib, uning taraqqiyoti boshqa sohalar rivoji uchun poydevor vazifasini o'tamoqda. Chunki valyuta tushumining 60 foizi, yalpi mahsulot muomalasining 70 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi.

Yana shuni aytish kerakki, hukumat tomonidan ko'rilgan amaliy choralar tufayli 2005-200-yillarda paxtachilik sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

Bugungi salmoqli yutuq, keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish, dehqon mehnatini qadrlash va rag'batlantirish, yerga, mulkka nisbatan chinakam egalik va manfaatdorlik hissiyotini qaror toptirish va mustahkamlash maqsadida izchil amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor fermerlik harakatining ustuvorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etganining tasdig'i va natijasidir.

2005-2006-yillardagi mavsumlarda tayyorlangan paxta hosilining 85 foizi yerning haqiqiy sohiblariga aylanib borayotgan fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilganining o'zi fermerlik harakatining qanday katta salohiyat va istiqbolga ega ekanini yana bir bor isbotlab berdi.

2007-yilda mamlakatimiz miqyosida fermer xo'jaliklari soni 126 mingta, ular tasarrufidagi yer maydoni 3 mln 800 ming gektardan iborat. O'rtacha olganda har bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 30 gektar yer to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda qishloq xo'jaligi sohasiga 1 mln. dan ortiq odam ishga jalb qilingan.

Bunday ijobiy maqsadlarga erishish istiqbolli, ertapishar va serhosil navlar yaratish, ularni iqlim va tuproq unumdorligiga mos ravishda joylashtirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, dehqon va fermerlarni kredit resurslari, yangi texnikalar, mineral o'g'it va boshqa zarur vositalar

bilan ta'minlash, turli zararkunanda hasharotlarga qarshi biologik usullarni qo'llash kabi ishlarni to'g'ri tashkil etilganligi va o'z vaqtida amalga oshirilgani evaziga bo'ldi.

Shular qatorida paxta hosilini qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, eksport talablariga javob beradigan shartlarni qo'yish, shu tariqa dehqonlarimizning daromadini ko'paytirish asosiy mezonga aylangani tufayli dunyoda o'zbek paxtasiga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda.

Mamlakatimizda paxtachilik sohasini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq keyingi yillarda ikki yuzga yaqin to'qimachilik korxonasi zamonaviy asosda modernizatsiya qilindi va yangidan barpo etildi. Ana shunday o'zgarishlar natijasida yurtimizda yetishtirilayotgan paxta hosilining 27 foizi hozirgi paytda O'zbekiston korxonalarida qayta ishlanib, tayyor mahsulot sifatida chiqarilayotgan bo'lsa, yaqin kelajakda bu raqamni 55 foizga yetkazish maqsadida yengil sanoat tarmog'ida aniq dastur bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda.

Hech shubhasiz, iqtisodiyotimizning baquvvat bo'lib borayotgani qishloq ahlining turmush farovonligini yuksaltirish, barcha viloyatlar, tuman va qishloqlarimizda yangi-yangi korxonalar, ko'rkam uy-joylar, ravon yo'llar, yuzlab maktab, litsey va kollejlar, zamonaviy tibbiyot muassasalari barpo etilishi peshona teri bilan qilgan ana shunday mashaqqatli mehnatning mevasi va amaliy namoyonidir.

Buni uzoqqa bormasdan, hozirgi kunda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 84 foizga, tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi esa 81,5 foizga yetgani, faqatgina joriy yilning to'qqiz oyi mobaynida respublikamiz bo'yicha 1350 tadan ortiq umumta'lim maktabi butunlay yangicha qiyofa kasb etgani, jumladan 65 ta yangi maktab bunyod etilgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Hech shubhasiz, ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiyotimizning hal qiluvchi sohasi bo'lmish qishloq xo'jaligida ish unumi va samarasini oshirish asosida birinchi navbatda qishloq hayotini yangi bosqichga ko'tarish, shu zaminda yashayotgan odamlarning og'irini yengil qilish vazifalari bundan buyon ham davlatimiz, hukumatimizning doimiy e'tibor markazida bo'lmoqda.


Odamlarda mulkka bo'lgan munosabatni o'zgartirish, dehqonlarimizda yerga egalik hissini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qishloq mehnatkashlarining dunyoqarashi o'zgarmoqda, ularda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, yer hamda suv resurslariga mas'uliyat va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlar yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hech shubhasiz, bugungi kunda qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish, so'nggi yillarda paxtachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilikda mo'l hosil yetishtirish, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishida chuqur o'ylangan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar asosiy omil bo'layotganini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, fermer xo'jaliklari amalda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy shakliga, uni barqaror rivojlantirishni ta'minlashda yetakchi harakatlantiruvchi kuchga aylandi.

Hozirgi paytda respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va ularda salkam 1,4 million kishi mehnat qilmoqda.

Fermer xo'jaliklarining soni
(birlik)



Agar 2000-yilda yetishtirilgan paxta hosilining 21 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006-yilda bu ko'rsatkich 86 foizdan oshib ketdi, boshoqli don ekinlar yetishtirish bo'yicha esa 2000-yilda 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yil 75 foizdan iborat bo'ldi.

Birgina 2006-yilning o'zida 666 ta shirkat xo'jaligini qayta tashkil etish hisobidan 74 mingta fermer xo'jaligi tuzildi, ularning yarmidan ko'pi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashganini ta'kidlash lozim.

Qishloq joylarda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan mehnat kooperatsiyasining yangi shakllari, yangicha xo'jalik munosabatlari tizimi qaror topmoqda.

Jumladan, fermer xo'jaliklari tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari va uzum yetishtirishga hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan qariyb 200 ta agrofirma tashkil etildi. Qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, transport xizmati, mahsulotlarni qadoqlash, joylash

va eksport qilish hamda shu kabi boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllanmoqda.

2008-yilga kelib fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008-yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009-yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan Fond hisobidan ushbu maqsadlar uchun o'tgan yili 43 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa, joriy yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ana shunday e'tibor va amaliy yordam tufayli 2008-yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1 foizni, g'alla tayyorlashda esa 79,2 foizni tashkil qildi.

Yettinchi bob.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-RUHIY POKLANISH VA MILLIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI

1-§. Milliy g‘oya

1991-yil oxiriga kelib, Ittifoq tarqalib ketganligi, respublikamizning mustaqil suveren davlat maqomiga ega bo‘lganligi tufayli jamiyatda yuz bergan demokratik jarayonlarga va hurfikrlilikka intilish xalqning milliy ongi muttasil oshib borishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga mavjud hodisalarga yangicha tafakkur bilan qarashni taqozo qildi. Jumladan, butunlay yangi tarixiy sharoitlarda butunlay yangicha qarashlarni, munosabatlarni qaror toptirish zarur edi. Chunki O‘zbekiston, o‘z kelajagini «yangilangan» federatsiya tarkibida emas, balki mustaqil milliy davlatchilik qaror topgandagina o‘zining to‘la siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligiga erishgandagina belgilashi mumkinligini ancha oldin tushungan va bu borada o‘zining qat’iy qaroriga kelgan edi. Binobarin, xalqni yangi yo‘ldan boshlab borish, uning qarashlari va orzu-maqsadlarini bir yo‘nalishga burib, kuchlarni uyg‘unlashtirish uchun yagona g‘oyaviy qurol zarur edi. O‘zbekiston boshqa ittifoqdosh respublikalar ichida birinchilardan bo‘lib o‘zini mustaqil respublika deb e’lon qilgan edi. Bu, albatta, O‘zbekiston uchun buyuk tarixiy voqea, milliy mafkura shakllanishida yangi davrning boshlanishi edi. Bu hol tabiiy ravishda kishilarning siyosiy ongi oshishiga olib keldi. Odamlar jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar shiddati oldida birmuncha gangib qolishdi. Turli safsatalar, xatti-harakatlar, «g‘oyaviy» kurashlar, «xonaki» va ajnabiy siyosatdonlar ko‘payib ketdi. Bir maromdagi turmush va bir qolipdagi fikrlash tarzi buzilib, sarosimalik, to‘qnashuvlar va parokandalik kayfiyatlari kuchaya bordi. Ana shunday paytda umumxalq va umumdavlat manfaatiga mos keladigan eng maqbul yo‘lni tanlash, buning uchun esa mafkuraviy yakkahokimlikka barham bergan holda aholining barcha tabaqalari qatlamlarini, talab-ehtiyojlarini ma’naviy-ruhiy chanqoqligini qondira oladigan yetuk va barkamol g‘oyani yaratish zarur edi.

Masalaning yana boshqa bir tomoni ham bor edi. Bu bevosita uzoq yillar mobaynida hukmron bo‘lgan g‘oya va aqidalardan xalos bo‘lish, uning bir yoqlama, havoyi, balandparvoz da’vatlaridan voz kechish kabi og‘ir, vaqt talab etadigan jarayon bilan bog‘liq. Endi tafakkur tarzi va qarashlarni tubdan o‘zgartirish uchun eng avvalo, o‘sha davrning bosh mafkurachisi – sobiq kommunistik partiya g‘oyalaridan voz

kechish, qolaversa, butunlay yangi, zamon talablari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan mafkurani ishga solish lozim edi. Ana shu xulosalardan kelib chiqib, I.A.Karimov 1991-yil 14-sentabrda shunday fikrni bayon qildi: **«Biz madaniy inqilobning g'alabasi haqida gapirmoqdamiz. Madaniyat va san'at esa hozir og'ir tanglikka duchor bo'lgan. Bu mafkuraviy zulmning oqibatidir. Partiya shu yillar mobaynida «sotsializmning asoslarini bunyod etish, «keng ko'lamda kommunizm», «rivojlangan sotsializm» qurish bilan mashg'ul bo'lib ketaverdi. Har xil «izm»lar, orzu-havaslar, maqsadlar haqida gapirar ekanmiz, nihoyat shuni uqib olishimiz kerakki, bu yorug' dunyoda insonning hayotidan ko'ra qadrli boshqa hech narsa yo'q. Uning ahvoli yomon edi, hozir ham o'zgargan emas».** Prezident o'z fikrini davom ettirib **«Kommunistik partiya bosib o'tgan yo'lni tahlil etish va unga baho berishdan maqsadimiz shuki, har bir kishi endi nihoyat ko'zni katta ochib, turmushga razm solsin. Mafkuraviy aqidalardan voz kechsin, haqiqatga ro'yirost qarasin»**, degan edi.

Shu bois respublikada mafkuraviy aqidalarga va bir qolipdagi safsatabozlikka bo'ysunadigan, inson, xalq, jamiyat manfaatlariga putur yetkazayotgan siyosiy, mafkuraviy va davlat tuzilmalaridan dadil voz kechila boshlandi. Ijtimoiy adolatni, xavfsizlik, ijtimoiy muhofazani, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ta'minlashga kafolot berish talabi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Demokratiyaning asosiy xususiyatiga – adolat va qonunning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rildi. Mamlakat va xalq manfaatlari yo'lida birlashish, kuchlarni uyg'unlashtirish, barcha imkoniyatlardan ehtiroslarga berilmay aql-idrok bilan foydalanish yo'li tutildi.

Shunday bo'lsa-da joylarda 1991-yil 31-avgustda qo'lga kiritilgan tarixiy voqea – O'zbekiston mustaqilligining ahamiyati va mohiyatini mafkuraviy vositalar orqali xalq ongiga yetkazishda, ularni istiqlolni mustahkamlash uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga safarbar qilishda sustkashlik hollari ko'rina boshladi. Ana shunday sharoitda O'zbekiston mustaqilligining tashabbuskori va tashkilotchisi Prezident I.A.Karimov birinchilardan bo'lib jamiyatda ma'naviy poklanishni amalga oshirish, eski aqidalardan xoli bo'lish zarurligini, keyinchalik esa milliy istiqlol mafkurasini yaratish lozimligini payqadi va kunning dolzarb vazifasi qilib qo'ydi. Ochig'ini aytish kerak, mazkur muhim masalani to Prezidentning o'zi dolzarb vazifa qilib ko'tarmaguncha hech kim bu haqda jiddiy qayg'urmadi. Bu o'rinda 1992-yil 2-iyulda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining O'ninchi sessiyasi hujjatlarini alohida ta'kidlash lozim. Unda Prezident respublika hukumati o'tkazayotgan ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari, O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol haqida

axborot berdi. Ma'ruzada Prezident bozor munosabatlariga o'tishda muqarrar tarzda hisobga olinadigan ijtimoiy ong, ijtimoiy ruhiyat masalasiga katta e'tibor berdi. Jumladan, u O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotining yangi davriga kirganiga, kishilarda shubhasiz yangi tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab qila boshlaganiga e'tiborni qaratdi. O'z fikrini rivojlantirib, Prezident avvalgi yakkahukmron mafkura mulkka munosabatda egasizlik tushunchalarini kishilar ongiga singdirib kelganini, u tadbirkorlikka yo'l ochmasligini ta'kidladi.

Haqiqatan ham sho'rolar davri mafkurasi kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, boshqacha qilib aytganda, boqimandalik tushunchasini, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan mafkurani singdirib kelgan edi. Bunday yondashish kishilarda tashabbusni bo'g'ib qo'yardi. Chunki kishi o'zining samarali mehnatidan manfaatdor bo'lmasa unda halol mehnatga intilish, ish natijasi uchun mas'uliyatni oshirish tuyg'usi yo'qoladi. Shuning uchun ham Oliy Kengash X sessiyasida chinakam mustaqil O'zbekiston davlatini barpo qilish yo'lida barchaning birlashishiga erishish kunning dolzarb vazifasi qilib qo'yildi. Bunday vazifani esa barcha uchun muqaddas hisoblangan milliy istiqlol mafkurasi, mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan g'oyalar orqali uddalash mumkin edi. **«Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g'oyalar oz emas. Ularning ichida eng ulug'i, eng olijanobi – O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlash. Ana shu maqsad, ana shu g'oya atrofida birlashsak, aslo xor bo'lmaymiz, aziz vatandoshlar!»**, – deb murojaat qilgan edi I.Karimov sessiya qatnashchilariga.

Bu borada 1992-yil 1-sentabr arafasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» deb atalgan kitobining nashrdan chiqishi katta voqea bo'ldi. U mamlakat ma'naviy va siyosiy hayotida muhim qo'llanma sifatida kutib olindi. To'g'ri, shu vaqtga qadar O'zbekistonda mustaqillik haqida, u yoki bu tarzda gaplar bo'lgan. Biroq, mustaqillikni qo'lga kiritish, uning nazariy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlari, istiqlolni mustahkamlash yo'llari bu darajada atroflicha talqin qilinmagan edi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ham kimdir his-hayajon bilan, ba'zilar og'ir-vazminlik bilan istiqlol haqida fikr yuritdi. Lekin, uning kelajagi, istiqlolni yanada mustahkamlash haqida biron bir ilmiy-tahliliy asar yoki maqola yuzaga kelmadi. Ana shu nuqtayi nazardan I.A.Karimovning bu asari respublikada yaratilajak istiqlol mafkurasi uchun nazariy asos, ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi. Asarning «Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari» deb atalgan bobida O'zbekistonni yanada rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta negizga asoslanishi, ya'ni:

– umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

– xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish;

– inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi;

– vatanparvarlik – istiqlol mafkurasi uchun asos bo'luvchi qoidalar sifatida ko'rsatilib berilgani fikrimizning tasdig'idir.

Prezident I.Karimov bu tamoyillarni ishlab chiqishda xalq dunyoqarashi, yashash tarzi, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabati, qolaversa uning ma'naviy – ruhiy omillariga asoslangan. Chunki, Sharqda azaldan ma'naviyatga tayanib yashash, komillikka intilish, har tomonlama barkamollik oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Odamlarning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, yagona o'lchov – insonni insonligi uchun ulug'lash, inson degan muqaddas nomga munosib bo'lish bosh mezon qilib olingan.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari uning ma'naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariga mos kelmasa bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov o'z mamlakati istiqboli haqida fikr yuritar ekan, «**Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbayi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yi avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir**», degan edi. Bu fikrdan anglashiladiki, Prezident mamlakat kuch-qudratini xalqning ma'naviy kamolotida ko'radi. Shuning uchun ham u jamiki insoniy fazilatlarni takomillashtirish uchun zarur sharoit yaratishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Bu bir tomondan mustaqillik sharoitida endigina shakllanayotgan davlat siyosatining nechog'li insonparvarligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan davlat rahbarining siyosiy-madaniy salohiyatining nechog'li yuksakligini, xalq ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini naqadar chuqur o'rganganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga esa, bu xalq va hokimiyat intilishlarining mushtarakligidan dalolat beradi. Prezident I.Karimov O'zbekistonning ma'naviy rivoji negizlarini belgilab berar ekan, vatanparvarlik g'oyasiga alohida urg'u berdi. Binobarin, Vatanni sevish xalqimizga xos azaliy qadriyat hisoblangan.

Oradan ma'lum muddat o'tgandan so'ng, 1992-yili dastlabki tajribalarni umumlashtirib Prezident I.Karimov o'zining ikkinchi kitobini «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat» nomli asarini yaratdiki, kitobda keyingi yillarga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlar, qadriyatlar haqida fikr yuritiladi. Jumladan, xalq ongida keskin o'zgarish yuz bergani, istiqlol tufayli ona-zaminga, Vatanga mehr-muhabbatli munosabat shakllana boshlanganligi qoniqish bilan qayd qilinadi. «O'zbekiston

mustaqillik sari yo'l olar ekan, dastlabki kunlardanoq o'tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash, nohaq jabrlangan insonlarning nomlarini yuzaga chiqarish, milliy ongni o'stirish kabi vazifalarni o'z oldimizga oliy maqsad qilib qo'ydik», – deyiladi ushbu kitobda.

Darhaqiqat, mafkurasizlik – e'tiqodsizlikka olib keladi. E'tiqodsizlik esa har kimning o'zicha yashashiga, ko'ngil tusaganicha kun ko'rishiga, xayoliga kelgan ish bilan shug'ullanishiga olib keladi. Bu yakka-yakka shaxslarning xatti-harakatidan butun jamiyat ma'naviy-ruhiy qiyofasining qay tarzda shakllanishiga sabab bo'ladi.

Mafkurasizlik oxir-oqibatda odamlar ongida manqurtlik, qalbida, fe'l-atvorida andishasizlik va nihoyat o'zligini anglamaslik nuqsonlarini chuqurlashtiradi. Jamiyatda esa parokandalikni, beqarorlikni keltirib chiqaradi. Shunday qilib odamlar hayotida fayz-u tarovat qolmaydi.

Umumiy g'oya atrofida birlashish, umummanfaat yo'lida birlashib kurashish maqsadlar yaxlitligini, intilishlar uyg'unligini ko'rsatadi. Bu o'zbek xalqi uchun azaliy fazilat, an'anaga aylangan muqaddas odat.

Mustaqillikning dastlabki yillarida vujudga kelgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklar bir muddat odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir qildi. Ularni sarosimaga solib qo'ydi. Natijada vaziyat ancha-muncha chigallashib, fuqarolar turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi ana shunday o'pirilish va bo'hronlardan chiqib olish muammosi hukumat oldida ko'ndalang bo'lib qoldi. Vaziyatning naqadar og'irligi va murakkabligini o'z vaqtida anglagan mamlakat rahbari 1993-yilning 23-aprelida bir guruh adiblar bilan uchrashdi. Oradan ko'p o'tmay u 1993-yil 6-mayda mamlakat Oliy Kengashining XII sessiyasida mafkurasiz, aniq yo'nalishga ega bo'lgan g'oyalarsiz taraqqiyot bo'lmasligini, oldimizda turgan eng muhim masalalardan biri milliy istiqlol mafkurasini yaratish ekanligini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish (1993-yil 7-dekabr) davlat mustaqilligi va inson haq-huquqlarining kafolatini yana bir bor ko'rsatish bilan birga uni ma'naviy jihatdan mustahkamlashning asosini belgilab berdi. Unda mamlakat Prezidenti I.Karimov katta nutq so'zlab, milliy mafkurani milliy ehtiyoj darajasiga ko'tardi. Barchaning diqqat-e'tiborini ana shu muhim masalaning hal etilishiga qaratdi va **«Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalda tatbiq etmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadlarga erishish, u oldimizga qo'ygan talablarga javob berish mushkul bo'ladi.**

Yangi mafkuraning asl mazmuni – yangicha, erkin fikrlaydigan, mutelik va jur'atsizlik tuyg'usidan mutlaqo xoli, mustaqil insonni tarbiyalashdir». Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy dasturni yo'lga qo'ymoq kerak», – degan fikrni ilgari surdi. Prezidentning bu

ko'rsatmasi asosida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi o'z qarashlarini ishlab chiqdi va uni «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnalida e'lon qildi.

Ko'ppartiyaviylik sharoitida mafkuralar xilma-xilligi, g'oyalar turlichaligi tabiiy hol. Aksincha bo'lishi mumkin emas. Bu jamiyatimizda sog'lom fikrlar yashovchanligining qonuniy va amaliy ifodasidir. Har bir fuqaro mustaqilligi va shaxs erkinligi asosida ularning o'z qarashlariga mos holda ma'lum bir ijtimoiy guruhlar atrofida birlashib yashashi huquqiy demokratik davlatning barkamollik darajasidir. Ana shu xilma-xil g'oyalarni umumxalq va umumdavlat manfaatlari yo'lida birlashtiruvchi milliy istiqlol mafkurasidir. O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi Markaziy Kengashining 1993-yil 27-dekabrida bo'lib o'tgan IX plenumida mazkur masala keng muhokama qilindi. Partiyaning milliy istiqlol mafkurasi doirasida o'z qarashlari va nuqtayi nazari asosidagi nusxasi qabul qilindi. Bu hujjat uning barcha quyi tashkilotlariga o'rganish va hayotga tatbiq etish uchun tarqatildi.

Milliy istiqlol mafkurasiga doir fikrlar nafaqat XDPda, balki barcha jamoat tashkilotlarida, ilmiy va o'quv muassasalarida, siyosiy harakatlarda ham keng muhokama qilindi. Uni butun choralar bilan hayotga tatbiq etish choralari ko'rildi.

Mustaqillik – mustaqil yashash, mustaqil fikrlash, mustaqil intilish imkoniyatidir. Bu bevosita ong va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan, doimiy rivojlanib, shakllanib boradigan harakatdagi hodisa.

Demak, milliy ong ta'sirida milliy g'oyalar yaratiladi. Ana shu g'oyalar asosida milliy mafkura, milliy dunyoqarash shakllanadi.

Milliy g'oya, O'zbekistonning mustaqillika erishishi haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, falsafiy, tarixiy, badiiy va diniy qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruhida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarini shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib:

– O'zbekistonning mustaqillikka erishishini tarixiy muqarrar jarayonligini ko'rsatish;

– Yangi Konstitutsiyada qonunan maqsad qilib qo'yilgan adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyat haqida ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqish;

– O'zbekistonning kelajagiga ishonch va kishilarda yangi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashni shakllantirishni milliy g'oyaga asos bo'luvchi qarashlar deyish mumkin. Biroq, yuqorida keltirilganlar jamoat tashkilotlari, ilmiy muassasalar, ayrim siyosatshunoslarning milliy istiqlol mafkurasi xususidagi nuqtayi nazarlari va shaxsiy qarashlari edi, xolos. Hali asl

ma'noda istiqlol mafkurasining nazariy jihatdan, uning amaliy tomonlari dastur shaklida, qo'llanma sifatida yetarlicha ochib berilmagan edi.

Milliy istiqlol mafkurasining nazariy jihatlari Prezident I.A.Karimovning, ayniqsa, keyingi yillardagi nutq va risolalarida atroflicha yoritib berildi. Xususan, 1995-yil 24-fevralida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» mavzuida keng qamrovli ma'ruza qildi.

Avvalo ushbu risola o'zining nazariy jihatdan puxta, rivojlanishimizga doir amaliy taklif va mulohazalarga boy qo'llanmaliligi bilan xarakterlidir Darhahiqat, kitobchada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi, bugungi ijtimoiy siyosiy hayotga tavsif beriladi, ichki va tashqi siyosatga doir vazifalar oydinlashtiriladi. Bir so'z bilan aytganda xalqimiz XXI asrga qanday o'tadi, degan savollarga aniq javob beriladi. Shuning uchun ham ushbu nutq siyosiy hayot uchun dasturiy hujjat, amaliy faoliyat uchun qo'llanma bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda ana shu sessiyada so'zlangan nutq bizning qariyb to'rt yil mobaynida to'plangan tajribalarimizni to'plab, davlat siyosatining taktika va strategiyasini aniq-ravshan belgilab berdi. Milliy istiqlol mafkurasining asl o'zagini, butun mazmun-mohiyatini, ko'lami va miqyosini ko'rsatib berdi.

Mustaqillikning to'rt yilligi arafasida jamoatchilik yana bir sovg'a oldi. I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobi nashrdan chiqdi. Bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini mantiqiy jihatdan davom ettiradigan ushbu monografiya «Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining yakunlari va saboqlari» hamda «Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining vazifalari va ustuvor yo'nalishlari» kabi qismlardan iborat. Mazkur asarda yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishga, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitini vujudga keltirish, jamiyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilash va taraqqiy ettirishning nazariy hamda amaliy negizlarini belgilab berish tamoyillari ishlab chiqildi.

Asar o'zining hayotiy faoliyatini Vatanimizning mustaqilligini mustahkamlashga bag'ishlagan har bir fuqaroni: u olim bo'ladimi, ishchi-xizmatchi yoki dehqon bo'ladimi, o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashga, o'z faoliyatini tahlil qilish, hayotiy saboqlar chiqarish ruhida tarbiyalaydi.

Bugungi kunda ushbu kitob jahonning ko'p mamlakatlarida nashr etildi, o'nlab tillarga tarjima qilindi. Uni dunyo xalqlari o'rganayotganligi asarning ilmiy qiymati naqadar yuksakligini ham nazariy, ham amaliy xulosalari qator mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi yo'nalish yuz berayotganini ko'rsatadi.

Mavzuga doir fakt

Islom Karimov kitobi arab tilida

1996-yilning 8-aprelida Saudiya Arabistoni Podshohligi poytaxti Arriyod shahrida bo'lib o'tgan Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobi arabcha nashri taqdimnomasi ham ana shu qiziqish va xayrixohlikning amaliy samarasi bo'ldi.

Ushbu taqdimnoma ikki jihati bilan alohida diqqatga sazovordir. Ma'lumki, Islom Karimovning qator kitoblari ingliz, fransuz, koreys, rus va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilinib mustaqil O'zbekistonni, uning iqtisodiy imkoniyatlarini keng dunyoga tanitish uchun xizmat qilmoqda.

Lekin qariyb 250 million aholiga ega arab dunyosi mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar haqida bevosita ilk manbalardan axborot olish imkoniyatiga to'la ega bo'lmagan edi. Bu esa, arab ishbilarmonlarining mamlakatimiz haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishiga qaratilgan tabiiy intilishi yo'lida g'ov bo'lib kelayotgan edi.

Taqdimnomaning ikkinchi ahamiyatli jihati shundaki, nafaqat arab dunyosi, balki umuman musulmon olami ichra alohida nufuzga ega mamlakat, Makka va Madina kabi muqaddas shaharlar joylashgan mo'tabar zamin – Saudiya Arabistonida bo'lib o'tdi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi va mamlakatimizga ko'rsatilayotgan yana bir alohida hurmat va e'tibor belgisidir.

Prezidentning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobi Bayrutdagi «Sharikat al-matbuot lit tavzi' van nashr» nashriyoti tomonidan arab tilida chop etildi. Noshirning kitobdan o'rin olgan kirish so'zida uning mazmun va mohiyati hamda ruhiyati yaxshi aks etgan. Jumladan, unda quyidagi so'zlar bor: «Ushbu kitob o'z yurtini cheksiz sevguchi fuqaro, islohiy yuksalishning eng mayda tafsilotlari haqida ham qayg'uruvchi davlat arbobi hamda islohotlar haqida nazariy fikr yuritib, ularni chin dildan himoya etayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov janobi oliylari qalamiga mansub.

Kitob istiqloldan oldingi voqelik, mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh respublika oldida paydo bo'lgan qiyinchiliklar haqida hikoya qilib, o'zbek xalqi respublika rahbariyati boshchiligida mamlakat va uning imkoniyatlariga mos bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan islohotlar orqali o'z vatanining yuksalishini ta'minlashga erishayotganini aks ettiradi.

Mazkur kitob o'xshash vaziyatni boshdan kechirayotgan har bir xalq, bo'hronga duch kelgan har qanday millat, qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini izlayotgan har qanday jamiyat uchun foydali darsdir».

* * *

Xullas, Prezident I.Karimov bir qator asarlarida ilgari surilgan qoida va qarashlari bilan dastlabki yillarda ma'naviy hayotda yuz bergan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirdi, milliy istiqlol mafkurasining nazariy zaminini yaratdi. Qolaversa, jahon miqyosida mustaqillik harakati nazariyasi va amaliyotiga munosib hissa qo'shdi. Shu bois ham, I.Karimov bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki jahonda yirik siyosatchi, katta davlat arbobi, hozirgi zamonda jahon ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida jamiyatni tubdan isloh qilishning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida tanildi.

Demak, o'zbek xalqi bugun o'z Prezidenti I.Karimov siymosida jahonga dono siyosatdonlar yetkazib beruvchi, xalqlar ozodligi uchun tolmas kurashuvchi yurtboshi tarbiyalab yetkazuvchi, aql-zakovat egasi, ayni chog'da bag'ri keng, mehmondo'st, mehnatkash xalq sifatida tanilmoqda. Bunday xalqni o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan qaytarib bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarida kishilarning O'zbekiston istiqloli va istiqboli haqida qayg'urishi, o'z xalqining, o'z vatanining qadr-qimmati, or-nomusini himoya qilish zarurligini tobora chuqurroq anglashi kuchayayotganligi ham ana shundandir. Oddiy saylovchi qariyaning «mustaqilligimizga ko'z tegmasin» deganida ham, yoshlarning «biz seni hech kimga bermaymiz, O'zbekiston» degan fikr bildirayotganida ham, xalqning o'z Prezidentiga yuksak ishonch bildirib, uning oqilona siyosatini qo'llab-quvvatlayotganida ham mana shunday katta ma'no bor. Bu masalaga urg'u berilayotganining boisi shundaki, davlatimizning mustaqillik siyosati, xalqimizning ongli tarzda O'zbekiston istiqloliga sodiq ekanliklari 1996-yil mart oylarida Rossiya ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqealarga munosabatlarida yana bir bor jiddiy sinovdan o'tdi. Hatto, turli mintaqalarda sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi integratsiya jarayoniga turlicha qarashlar mavjud bo'lgan o'sha kunlarda ham xalqning o'zi tanlagan mustaqillik yo'lidan qaytmasligini qat'iy ko'rsatdi. Jumladan, Oliy Majlisning 1996-yil 26-aprelda bo'lib o'tgan V sessiyasi butun xalq nomidan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qarg'i Kengesi, O'zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari kengashlari butun xalqning xohish-irodasini ifodalab shuni ma'lum qildilarki, O'zbekiston o'zi tanlab olgan mustaqil demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga qaratilgan yo'ldan hech qachon qaytmaydi va o'z mamlakatining gullab-yashnashini, uning barcha fuqarolarini munosib turmush kechirishini ta'minlaydi», deb qat'iy uqtirdi.

Milliy istiqlol g'oyasini o'rganish, uni keng targ'ib etish konsepsiyasi «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» nomi bilan yaratildi. Bu konsepsiyaning bosh muallifi I.A.Karimov mamlakat fuqarolarini milliy taraqqiyotga da'vat etuvchi, yoshlar – yangi avlod qalbida mustaqil

Vatan hissini uyg'otuvchi qudratli g'oya sifatida namoyon bo'lishi tizimini vujudga keltirdi.

Yuqoridagilar, shubhasiz mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, ozod, erkin yashashga intilish o'zbek xalqiga xos azaliy tuyg'u ekanligini, ayni chog'da bunday g'oyaga xalq har qanday sharoitda – ichki va tashqi kuchlar tazyiqiga qaramasdan sodiqliklarini yana bir bor namoyon qildi. Demak, istiqlol tafakkuri, mustaqillik g'oyasi bilan qurollangan bunday xalqni o'zi tanlagan mustaqillik yo'lidan qaytarib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari 2007-yil 30-avgustda Prezident devonidagi qo'shma majlisda «O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» mavzuida ma'ruza qilar ekan, shunday degan edi: «Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan mafkuraviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak.

Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag' sarflanayotgan harakatlar va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor.

Bunday balo-qazolarga qarshi kurashda, farzandlarimizning ma'naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur? Avvalo to'g'ri tarbiya, sog'lom turmush g'oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e'tiqod hisobidan bunga erishishimiz mumkin.

Aynan ana shunday o'z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg'unchi oqimlarga berilmasdan, hayotda o'z yo'lini topib olishi muqarrar».

Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizni mustaqillik yillari davomida isloh qilish va yangilash borasida qo'lga kiritilgan natijalarni sarhisob qilinar ekan bu davrda milliy davlatchilikni shakllantirish va respublikamizni barqaror rivojlantirishda ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy zamin yaratadi, deb aytish mumkin.

Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi.

Eng muhimi, aholining ong-u tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik mafkura va sovet mafkurasi

tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi.

Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni ortga qaytarib bo'lmasligi, islohotlar muqarrarligining ishonchli kafolatidir.

Xullas, Vatanimiz va xalqimiz tarixida muhim o'rin tutgan ushbu davrda tom ma'noda tub o'zgarishlar amalga oshirildi, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylangan, jahon hamjamiyatida o'zining munosib va mustahkam o'rniga ega bo'lgan – O'zbekiston deb atalgan yangi demokratik davlat barpo etildi. Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda.

2-§. Ma'naviy inqirozdan chiqish

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolardan biri – yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. Bu o'z navbatida bir necha o'n yillar mobaynida yetarli darajada xalqqa ma'lum qilinmagan, sinfiy-partiyaviy mafkura tomonidan taqiqlangan o'zbek xalqining ma'naviy merosini tiklash va uning yanada kamol topishi uchun keng imkoniyatlar ochish kerak edi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida **«O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi, milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi»**, deb ko'rsatgan edi.

Darhaqiqat, O'zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash uchun xalqni safarbar qilib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqlolning dastlabki paytidanoq bu borada zarur choralar ko'rdi.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyotga qadam qo'yganidan buyon o'tgan yillar davomida ma'naviy sohada yuz bergan o'zgarishlarning eng muhimi, xalqning uzoq yillar mobaynida to'plagan boy tarixiy-madaniy merosiga e'tiborning kuchayishi bo'ldi.

Ma'lumki, 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida SSSR va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik tuzum davlatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar tabiiy ravishda O'zbekistonda demokratiya va oshkoralikning qaror topishiga, tarixiy haqiqatning tiklanishiga olib keldi. Biroq, O'zbekiston va uning xalqi bu jarayonga yetib kelguniga qadar og'ir sinovlarni boshdan kechirishiga to'g'ri keldi. Buyuk imperiyachilik g'oyalari negizida zo'ravonlik bilan tashkil topgan totalitar tuzum siyosiy-iqtisodiy inqirozdan jon talvasasida so'nggi bor O'zbekistonga hamla qildi. Xalqning azaliy, milliy qadriyatlariga qarshi kurashni har qachongidan ham kuchaytirdi. Bunday harakatlar bizningcha, quyidagi holatlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining XVI Plenumidan so'ng respublikada ijtimoiy-ma'naviy ahvolni tartibga solish niqobida SSSRning boshqa mintaqalaridan jo'natilgan kadrlarning ko'plari O'zbekistonda rahbar lavozimlarga tayinlanishlarini o'zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq deb bildilar. Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini bilishni istamagan bunday kadrlar jumhuriyat ma'naviy hayotini barbod etishga harakat qildilar. Shu tariqa xalqning ko'p asrlik an'analarini, madaniyati va urf-odatlarini mensimaslik elni ranjitdi.

Ikkinchidan, ayrim mahalliy rahbarlar, xususan, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining sobiq mahalliy millatga mansub rahbarlari o'sha davrda amal kursisini yo'qotmaslik uchun markazga qo'g'irchoq bo'lib qoldilar, sotqinlik qilishdan o'zlarini tiya olmadilar. Natijada xalqning urf-odatlari, an'analari, madaniyati oyoq osti qilindi. Ona tilining qo'llanish sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yildi. Hatto shundoq ham milliy an'analardan ancha olisda bo'lgan ayrim san'at turlari kimlargadir maqbul bo'lmay, ularni milliy mahdudlikda ayblashib, mualliflar ta'qib ostiga olindi. Birgina misol, 1986-yil 4-oktabrda O'zbekiston KPMKning III Plenumi «Ideologiya ishining samaradorligini yanada oshirish yuzasidan respublika partiya tashkilotining vazifalari» masalasini muhokama qildi. Unda real hayotga mos bo'lmagan xalqning milliy o'zligini anglashiga zid ko'rsatmalar berildi. Jumladan, «O'tmishni ideallashtirish, nosinfiy va notarixiy yondashish shunga olib keldiki, Temur kabi feodal zolimlar teatr sahnalarida, kino ekranlarida, kitob sahifalarida shu vaqtga qadar ko'zga tashlanib turibdi, ayrim yozuvchilarning e'tiborida tarix haqiqatiga zid ravishda u insonparvar va uzoqni ko'ra biluvchi siyosatchi qilib ko'rsatilgan. Bu borada tipik o'rta asrga xos jihatlarni ko'ra olish uchun Pirimqul Qodirovda sinfiy yetuklik yetishmadi. Yozuvchi Boburning haqiqiy bosqinchilik faoliyatlarini sezmay, uning go'yo ma'rifatparvar podsholigi, nozik didli lirik shoir va ulkan tarixchiligiga qoyil qolib, erib ketadi-yu ko'z yoshi qiladi.

Bunday kaltabinlik dastlab qaraganda beozor ko'rinsa-da aslo bunday emas. Uning zamirida tarixni qaytadan yozishga urinish, patriarxal davrni qo'msashni targ'ib qilish, islomni milliy madaniyatning xazinachisi qilib ko'rsatishga urinish yotadi», deb ta'kidlandi yuqoridagi Plenumda. Ana shunday qarashlardan kelib chiqib, Plenum «ideologiya ishidagi mavjud buzilishlar murosasizlik bilan tugatilsin, tarixiy o'tmishni idrok qilishda markscha-lenincha metodologiyadan og'ish yo'lidagi har qanday urinishlarga zarba berilsin», deb ko'rsatma berdi.

Ko'rinib turibdiki, Plenum kishilarni vatanparvarlik va internatsionalizm ruhida tarbiyalash kabi g'oyalarni ilgari sura turib, o'zi xalqni asl ma'nodagi vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga zid yo'l-yo'riqlar belgilab berdi. Bunday noto'g'ri pozitsiya 1987-yil 17-yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan jamiyatshunos olimlarning respublika Kengashida ham yana bir bor ta'kidlandi. Kengash respublika olimlariga tarixiy voqea va hodisalarga baho berishda partiyaviy, sinfiy prinsiplardan kelib chiqib yondashish kerakligini tavsiya qildi. Biroq, bunday tarixiy haqiqatga zid mafkuraviy yo'l-yo'riq xalq tomonidan ma'qullanmadi, ziyolilarning qarshiligiga uchradi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi bu borada o'zi yo'l qo'ygan xatoni o'zi tuzatishga majbur bo'ldi. O'zKP XXII syezdida (1990-y. iyun) siyosiy ma'ruza qilgan, uning birinchi kotibi I.A.Karimov shunday dedi: **«Yaqindagina o'zbek adabiyotining klassigi Boburni baholashda tor sinfiy yondashuv ro'y berdi. Adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1986-yilda bo'lgan uchinchi Plenumida Bobur shaxsi tahqirlanib, u «ma'rifatli zolim» deb tilga olindi. Xalqimiz Markaziy Qo'mita va jumhuriyat hukumatining Navoiy, Ulug'bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va xalqimizning boshqa buyuk farzandlari yubileylarini o'tkazish to'g'risidagi qarorini juda ruhlanib kutib olganligi bejiz emas. Ularning merosi O'zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qiladi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz»**. O'zbekiston yangi rahbariyatining bunday pozitsiyasi respublikada ma'naviy poklanish, yangilanish davrining boshlanishi, ma'naviy inqirozdan chiqish uchun dadil qadam edi.

Shundan so'ng adib Primqul Qodirovning Bobur va boburiylar haqida hikoya qiluvchi «Yulduzli tunlar» romani nashr qilindi, Boburning «Boburnoma»si yangidan chop etildi. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori Bo'riboy Ahmedov so'zboshisi bilan «Sharq yulduzi» jurnalida «Temur tuzuklari»ning to'la ravishda e'lon qilinishi keng jamoatchilikni behad quvontirdi.

Qariyb bir yarim asrlik mustamlakachilik o'zligimizni yo'qotishga olib keldi. Sobiq markazga siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy qaramlik

jumhuriyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti uchun, milliy, madaniy-ma'rifiy ravnaqi uchun to'siq bo'ldi. Darhaqiqat, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab yurtimizdagi bebaho kitoblar, qimmatli ashyo—yodgorliklar mustamlakachilar tomonidan talandi, ular chor generallari, olim niqobidagi shaxslar tomonidan Sankt-Peterburgga, Moskvaga va dunyoning ko'pgina mamlakatlariga olib ketildi. Bu hol mavjud madaniy boyliklardan xalqimizning bahramand bo'lish imkoniyatini yo'qotdi. Shu bilan bir qatorda bunday noyob madaniy merosni, buyuk yodgorliklarni o'rganishni, ularni ilmiy tadqiq etishni qiyinlashtirdi. Endilikda mamlakat istiqlolga erishgandan so'ng, asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan bu boyliklarni e'zozlash, avaylab asrash, o'rganish va ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lindi.

Madaniy merosni, olis o'tmishni chuqur o'rganmasdan turib istiqbolni belgilab bo'lmaydi. Kelajakka intilish uchun o'tmishni o'rganish, tajribalarni o'zlashtirish darkor. Lekin, bunda bir yoqlamalikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'tmish madaniyatini xaspo'shlash ham, ideallashtirish ham mumkin emas. Olimlar va mutaxassislar istiqlol yillarida fanning turli sohalarida madaniy merosni chuqur o'rganishga, unga xolisona baho berishga harakat qildilar.

1991-yil, ya'ni, O'zbekiston yangi yo'lga chiqib olgan, o'zini mustaqil deb e'lon qilgan yil yana shu bilan ahamiyatliki, bu yilda Mir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi barcha hur fikrli kishilar tomonidan keng nishonlandi. Bu to'yga respublikada katta tayyorgarlik ko'rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Avvalo buyuk shoir asarlarini keng xalq ommasiga yetkazish uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Uning yigirma jildlik mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Bundan tashqari «Lison-ut tayr», «Sab'ai sayyor», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat-ul Abror» singari shoh asarlari alohida-alohida holda bir necha ming nusxada bosmadan chiqarildi. Bir necha ilmiy-ommabop asarlar sovg'a kitoblar sifatida nashr qilindi.

Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siymosi ifoda etilgan sahna asarlari, kinofilmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta'sis etildi. Pushkin nomidagi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Shoir nomi berilgan Davlat adabiyot muzeyi yangi eksponatlar bilan boyitildi. Mamlakat poytaxti Toshkentda ulug' bobomizning muhtasham va purviqor haykali qo'yildiki, bu joy xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros bugungi kunda yangilanayotgan jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1994-yilni hukumat qarori bilan Ulug'bek yili, deb e'lon qilinishi, uning 600 yilligini O'zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YuNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir.

Mavzuga doir fakt

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 1994-yilni Mirzo Ulug'bek yili, deb e'lon etish to'g'risida

Ulug' o'zbek olimi, munajjim, matematik, fizik, me'mor, temuriylar sulolasining munosib davomchisi, yirik davlat arbobi Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek (Mirzo Ulug'bek) tavalludiga 600 yil to'lishi munosabati bilan:

Jamoat fikrini quvvatlab, allomaning jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasini e'tiborda tutib;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti (YuNESKO) Bosh konferensiyasining 27-sessiyasi qaroriga ko'ra Mirzo Ulug'bek yubileyi jahon qadriyatlari ro'yxatiga – 1994-yilda dunyo miqyosida nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiritilgani va shu munosabat bilan tashkil etiladigan xalqaro tadbirlarni hamda Respublikada olib borilayotgan ulkan xayrli ishlarni inobatga olib:

Yosh avlod qalbida milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishini rag'batlantirish maqsadida hamda mustaqil O'zbekiston ilm-fani rivojiga ko'maklashish maqsadida:

1994-yil O'zbekiston Respublikasida Mirzo Ulug'bek yili, deb e'lon qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti *I.Karimov*

Toshkent shahri.
1994-yil 19-mart

* * *

Bundan tashqari, O'zbekistonda har yili Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ulug' shoir va ma'rifatparvarlar kunlarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Masalan, 1992-yil may oyida mamlakatimiz poytaxtida boshlangan Mashrabxonlik kunlari uning vatani Namanganda keng nishonlandi. Ushbu shaharda uning nomi bilan ataluvchi katta istirohat bog'i barpo etildi.

Birgina shu emas. Xalqimizning ulug' daholari, jahon madaniyati ravnaqiga katta hissa qo'shgan, insoniyat tafakkurida keskin burilish yasagan bobokalonlari kuni har yili turli shaklda nishonlanadi. Dunyoda

hech bir xalq o'zbeklarchalik buyuk madaniy va ma'naviy merosga ega emas. Endi mustaqillik tufayli ana shu ulkan xazinani ochish, uni o'rganish, undan bahramand bo'lish imkoniyati tug'ildi. Xalqimiz bundan foydalanish yo'lidan bormoqda.

Mustaqillik yillarida Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev, Ogahiy, Ajiniyoz, Berdaq singari madaniyat va jamoat arboblari yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlardir.

Xususan, hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil 17-dekabr kuni Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, 18-dekabr kuni esa Nukusda Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil 24-oktabr kuni esa Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi.

Xususan, shu davrda Behbudiyning «Padarkush» asari, Fitratning «Qiyomat» qissasi va «Abulfayzxon» tarixiy dramasi nashr qilindi. Cho'lponning ayrim she'rlari «Guliston» jurnalida, «Kecha va kunduz» asari esa «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon qilindi. Keyinroq ular alohida kitob holida nashr etildi.

Ulug' shoir Abdulhamid Cho'lponning adabiy-badiiy merosi xalqimizning bebaho ma'naviy mulkidir. Uning har bir asari, har bir she'ri odamlarni o'zaro hamkorlikka, ijtimoiy adolat uchun kurashga, nohaqlikka nisbatan murosasizlikka da'vat etadi. Cho'lponning

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir,
Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim, to'xtatsin,
Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin, –

kabi misralari o'zligini tiklayotgan, chinakamiga fuqarolik jamiyatini qurayotgan xalqimiz orzu-umidining ifodasidir.

Mamlakat ma'naviy hayotini yanada yaxshilashda 1994-yil 23-aprelda qabul qilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik Markazini tashkil etish to'g'risidagi Prezident Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu yili 8-iyunda esa Vazirlar Mahkamasi ushbu Farmonning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Unda Markazning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishi qilib o'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish, jamiyatdagi sog'lom kuchlar, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy solohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini oshirish, tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqada yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot tomirlari mushtarakligini targ'ib qilish va hakozolar qilib belgilandi.

Ma'naviyat markazi nisbatan qisqa vaqt ichida turli sotsialogik tadqiqotlar, so'rovlar o'tkazish orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqdi.

Mavzuga doir material

Tashkilot komitetining majlisi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida ulug' olim va mutafakkir Mirzo Ulug'bekning 600 yillik yubileyini o'tkazuvchi respublika tashkilot komitetining majlisi bo'ldi.

Yubileyni bayram qilish milliy o'zlikni, ma'naviyatni tiklash ramziga aylanishi, buyuk mutafakkir ilmiy va madaniy merosini targ'ib qilishga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozimligi majlisda ta'kidlab o'tildi.

Majlis qatnashchilari hukumat belgilagan hamda yubileyni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan Samarqand, Buxoro, G'ijduvondagi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatiga daxldor me'moriy obidalarini ta'mirlashga doir tadbirlarni amalga oshirish sohasida boshlangan ishlarni tahlil etdilar. Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro mukofot haqida nizom ishlab chiqildi, uning asarlarini nashr etish taraddudi ko'rildi, olimning ijodiy merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazish rejalashtirilmoqda. Toshkentda Mirzo Ulug'bek haykalini, uning hayoti va faoliyati to'g'risidagi filmni yaratish ishi davom etmoqda. Esdalik nishoni, pochta markasi, turli yodgorliklar va boshqa buyumlar chiqarish belgilanmoqda.

Kengashda Mirzo Ulug'bekning jahon faniga qo'shgan hissasi ta'kidlandi. Olim va mutafakkirning 600 yillik bayrami xalqaro ko'lam kasb etishi lozim, deb uqtirildi.

* * *

Umumbashariy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida, mamlakat va jahondagi turli mafkura, e'tiqod va g'oyalarni o'rganish asosida sog'lom dunyoqarash hamda siyosiy madaniyatni shakllantirish borasida ham Markaz muayyan ishlarni amalga oshirdi. Shuningdek, jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashga ko'maklashish, ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir ko'plab tadbirlar, anjumanlar va ko'rgazmalar tashkil etish yo'lga qo'yildi. Bular madaniy-ma'rifiy jarayonni tezlashtirish, milliy madaniyat va urf-odatlarni keng targ'ib qilish, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini kuchaytirishda muhim o'rin tutmoqda.

Ma'naviyat va ma'rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo'li bilan rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani bu mazkur soha ravnaqiga ommaviy xalq harakatini kuchaytirish bilan birga, mamlakat har bir

fuqarosi ongi va tafakkurini amaliy faoliyat asosida kengaytirishdek eng samarali usuldir.

Sir emas, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yuksak texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik asosidagi mustaqil fikrlash orqali olib borilishi kerak. Ana shundan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

O'zbekiston hukumati mamlakat istiqboliga doir choralar belgilar ekan, uning eng avvalo yuksak ma'rifat va madaniyat mamlakati bo'lishi, shu asosda barcha islohotlarning ma'rifiy negizini yaratish nuqtayi nazaridan ish tutadi. Iqtisodga ham, huquqiy tamoyillar va siyosiy islohotlarga ham, shuningdek, jahon muammolarini hal etish, urush va tinchlik masalalariga ham ma'rifiy ko'z bilan qaraydi, yuksak madaniy va umuminsoniy qadriyatlar talablari asosida yondashadi.

Shu nuqtayi nazardan mamlakat rahbarining 1996-yil 4-sentabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi xodimlarining bir guruhi bilan uchrashuvi, ular bilan dildan suhbatlashuvi, ma'naviy va madaniy hayotda katta voqeadir. Ayni chog'da 9-sentabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida» yana bir Farmon qabul qilinganligi ham xalqning ma'naviyatini yanada yuksaltirishga, noyob namunalarni to'plashga, avaylab-asrashga, kishilarni o'z vataniga chinakam sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. 1996-yili sentabr oyi oxirida «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshidagi «Oltin Meros» Xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida» ham Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdiki, uni barcha ziyolilar, ijod ahli zo'r mamnuniyat bilan kutib oldi.

2006-yili esa hukumat qarori bilan Ma'naviyat va ma'rifat markazi **Ma'naviyat targ'ibot markaziga** aylantirildi. Uning ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot faoliyati va vakolatlari kengaytirildi, hozirgi kun ehtiyojlariga mos ravishda isloh qilindi.

...Ochig'ini aytganda dastlab bozor munosabatlari ma'naviy hayotimizni ancha-muncha tahlikaga solib qo'ygan edi. Chunki uzoq yillar mobaynida ma'rifat va madaniyatga boqimandalik kayfiyati bilan yashadik. Mustabid tuzum butun ma'naviy turmushimizni o'z «otalig'iga» olib, mustaqil fikrlash va milliy madaniyatga munosabatlarimizni cheklab qo'ygan edi. Bu bir jihatdan mafkuraviy kushandalik bo'lsa, ikkinchi jihatdan, o'zligini unutib borishga, manqurtlikka da'vat etuvchi g'ayriinsoniy siyosat edi. Oxir-oqibatda ma'naviyatdan judo bo'lgan holda yashash, ma'naviy qashshoqlik asta-sekinlik bilan shaxsni ham, jamiyatni ham tanazzulga olib keldi. Bunday fojia oqibatlarini endigina payqay boshladik.

Mustaqillik butun hayotimizni ostin-ustun qilib, uzluksiz mudroqlikdan uyg'otib, qarashlarimizni o'zgartirib yuborgani kabi ma'naviyatga

munosabatlarimizni ham isloh qildi. Eskicha qarashlardan butunlay qutulmagan, yangilikning esa oldida dovdirab qolgan bir paytimizda eng to'g'ri yo'lni tanlashda, ma'naviy va ma'rifiy turmushimiz muammolarini hal etishda yana bosh islohotchi – Davlat ko'makka keldi va mamlakat Prezidenti **«Biz ma'rifat va ma'naviyatga tadbirkorlik va tijorat sohalari tomonidan qilinayotgan homiylikni qo'llab-quvvatlaymiz, bunday homiylarga yengillik berish lozimligini ham bilamiz. Lekin homiylik mablag'lari chinakam badiiy asarlarga, chinakam ijodiy tadbirlarga sarflanishi shart.**

Xalqimizning kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy – davlatning o'zi», dedi. Bu moddiy jihatdan birmuncha qiyinchilik sezilayotgan bir davrda ma'naviy hayotimizga davlat g'amxo'rligining yorqin ko'rinishidir. Zotan, har yili ma'naviy va ma'rifiy ravnaq uchun davlat jamg'armasidan katta miqdorda mablag' ajratilayotgani, mazkur tarmoq tashkiliy-ijodiy ishlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birgina misol sifatida shuni aytish mumkinki, sobiq Ittifoq doirasidagi mamlakatlarning hech birida O'zbekistondagichalik ko'p miqdorda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, dasturlar nashr etilmagan va ommaviy tarzdagi tadbirlar amalga oshirilmagan.

Bularning hammasi O'zbekistonda milliy madaniyat va ma'naviyat ravnaqining keng miqyosli dasturi mavjudligini, unga bevosita davlatning o'zi, hukumatning rahnamolik qilayotganini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy poklanish haqida gap ketganda O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi va uning ahamiyatiga ham kitobxon e'tiborini tortish lozim.

1989 yil 21-oktabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonun xalqimiz milliy ongining rivojlanishida, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynadi.

Qonunning o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to'g'risidagi qoidalari keyinroq, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu ko'pchilik aholining, respublikada yashovchi barcha millat va elatlarning namoyandalari tomonidan ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi.

Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinganidan keyingi yillar mobaynida respublikada katta ish qilindi. O'zbek tilini davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sudlarda, davlat notarial idoralarida qo'llash to'g'risidagi moddalar ro'yobga chiqarildi. Xalq ta'limi, fan sohalarida, ommaviy axborot vositalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'plab tarixiy nomlar tiklandi, atamalar milliy til asoslariga muvofiq yangilana boshlandi.

Davlat tili respublika ijtimoiy hayotiga chuqurroq kirib bordi. Ayni paytda boshqa milliy tillarni o'rganish va ulardan foydalanish uchun sharoitlar yaratildi. Til muammosiga jiddiy ilmiy-amaliy tarzda yondashuv ta'minlandi. Bu esa, qonun qabul qilish arafasida ayrim kishilarda paydo bo'lgan til muammolari atrofida, xususan, Davlat tili bilan bir qatorda rasmiy til ham e'lon qilinarmish, degan uydirmalar, soxtakorliklar va siyosiy o'yinlarni bartaraf etdi.

Respublikada yashaydigan boshqa xalqlarning tillarini o'rganish va qo'llash erkinligi ta'minlanishi bilan birga O'zbekistonda aholining mutlaq ko'pchiligi foydalanadigan bitta davlat tili bo'lishi kerak, degan nuqtayi nazarga amal qilindi.

Bu sobitqadam yo'l 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunda va 1995-yil may oyida Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqidagi Qonunda yanada mustahkamlandi va rivojlantirildi.

Mazkur qonunlar o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomining mustahkamlanishi, mamlakatning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishi uchun ancha qulay shart-sharoit yaratib berdi.

Mazkur qonunlarni ishlab chiqish jarayonida to'plangan tajriba har taraflama umumlashtirildi va tahlil etildi, Davlat tiliga o'tish bo'yicha qilingan ishlar xolis baholandi. Puxta o'ylab, real jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni 2005 yilgacha bosqichma-bosqich amalga oshirib borishga qaror qilindi.

Mutlaqo ravshanki, til islohoti bilan bog'liq barcha sanalar yangi Qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirilishi kerak. Negaki, davlat tilini eski alifboda joriy etib, so'ngra yangi yozuvga o'tish maqsadga muvofiq emas.

Ana shu holatlarning hammasini hisobga olib, «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunga zarur o'zgarishlar kiritish ehtiyoji tug'ildi. Bu qonun respublika hali SSSR tarkibida bo'lgan va madaniy-ma'naviy sohada o'ziga xoslikni mustahkamlashga intilgan bir sharoitda qabul qilingan edi. Shundan beri vaziyat tubdan o'zgardi.

Qonunning ko'pgina moddalari va qoidalari jiddiy o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritishni taqozo eta boshladi, ayrimlari esa eskirdi.

Davlat va ijtimoiy sohaning barcha tomonlarini isloh qilishning respublikada qabul qilingan va hayot tasdig'idan o'tgan konsepsiyasi o'zgartirishlarning izchilligi, bosqichma-bosqichligi tamoyilidan kelib chiqadi. Bu til muammosiga to'la taalluqlidir.

O‘z kuchi va kelajagiga ishongan xalqning bag‘ri keng bo‘ladi. O‘zbekistonning mustaqilligi va taraqqiyoti puxta ta’minlangan, xalqimiz o‘zining buyuk kelajagini dadil bunyod etayotgan bugungi kunda mustahkam zamin yaratmasdan turib, shoshmashosharlik qilishning zarurati yo‘q.

Ko‘rilayotgan choralarga qaramay, respublikada istiqomat qilayotgan turli millatga mansub fuqarolarning barchasi o‘zbek tilini tez va erkin o‘zlashtirib olishni ta’minlaydigan zamonaviy uslubiyotlar, darsliklar va o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalar sekinlik bilan yaratilayotgan edi. Rusiyzabon maktablarda va auditoriyalarda ishlash uchun maxsus tayyorlangan malakali mutaxassislar — o‘zbek tili o‘qituvchilari ham yetarli emas edi.

Qonunning ayrim qoidalari qayta ko‘rib chiqishni, tahrir qilishni talab qilardi. Xususan, 4-modda davlat hokimiyati va boshqaruvning barcha xodimlaridan o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun yetarli darajada davlat tilini bilishni taqozo etadi. Bu borada yoshiga yoki ish stajiga ko‘ra hech qanaqa istisno nazarda tutilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bu talabni rus tilida o‘qigan va uzoq yillar shu tilda kasb-kor bilan shug‘ullangan yuzlab va minglab keksaygan malakali mutaxassislar bajarishga qodir emas edi. Ularga jamiyat ravnaqi yo‘lida xotirjam ishlash va o‘z imkoniyatlaridan loaqal pensiya yoshiga yetgunga qadar samarali foydalanishlari uchun imkoniyat berish maqsadga muvofiq bo‘lib qoldi. Davlat tilini o‘rganish bo‘yicha barcha harakatlarni 5—10 yilda davr talabiga mos yangi mutaxassislar tayyorlaydigan maktablar, texnikumlar, oliy o‘quv yurtlariga qaratish lozim bo‘lib qoldi.

Hamma joyda Davlat tili va yangi alifboga o‘tish asosli o‘quv-uslubiy negizni yaratishni taqozo etardi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va universitetlarida o‘zga tilda so‘zlashuvchilar o‘qiydigan maktablar uchun o‘zbek tili o‘qituvchilari tayyorlash bo‘yicha maxsus fakultetlar va bo‘limlar ochish, ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi darsliklar va qo‘llanmalarni nashr etish lozim edi.

Ushbu bayon qilingan takliflarni ro‘yobga chiqarish til islohoti uchun mustahkam, o‘zaro uyg‘unlikdagi qonuniy asosni vujudga keltiradi. Taklif etilayotgan tadbirlar hamma yerda ancha uyushqoqlik bilan, ortiqcha xarajatlarsiz davlat tiliga o‘tish imkonini beradi. O‘zbekistonda ba’zi mamlakatlardagidan farqli o‘laroq, tilga yoki boshqa belgilariga doir biron bir cheklash yoki senzlar belgilanishi istisno etiladi. Bu xalqimiz ko‘z qorachig‘idek ardoqlayotgan barqarorlikni, fuqarolar tinchligini va millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga ko‘maklashishini hisobga olib O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrdagi sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Bu ham mamlakatimizda aholining ma'naviy barkamolligi uchun xizmat qiluvchi bir omil sifatida ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezident I.Karimovning 2008-yili nashr etilgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobi esa mustaqillik yillarida shakllangan milliy g'oya asosida yuksak ma'naviyatni, barkamol jamiyatni barpo etish borasidagi tarixiy tajribalarning yakuni, bu sohadagi strategik maqsadlarimizning o'ziga xos konsepsiyasi vazifasini bajarmoqda.

3-§. Milliy istiqlol va Amir Temur omili

Bugun biz mustaqillik mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni hamda xalq turmushidagi beqiyos ahamiyatini ulug' bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur orqali yana ham chuqurroq anglamoqdamiz.

Mustaqilligimizning 5 yilligi va Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari bir-biriga ulanib ketdi. Bu tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishi ajdodlarimizning muqaddas ruhi va bugungi avlod xohish-irodasining mushtarakligidan dalolat beradi. Biroq, bu kunlarga yetib kelish oson bo'lmadi.

Davr va sharoit nechog'li og'ir, shafqatsiz bo'lmasin, o'zbek xalqi hech qachon o'tmishini, uning buyuk siymolarini yoddan chiqarmadi, qalb qo'rida saqlab keldi.

«Qizil imperiya» Amir Temurga, u orqali o'zbek xalqiga nisbatan tahqirlash siyosatini olib borgan bir paytda, xorijda bu benazir zotga bag'ishlangan ko'plab ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy, san'at asarlari yaratildi, xalqaro anjumanlar o'tkazildi, uning nomi bilan bog'liq ommaviy tashkilotlar tuzildi, muzeylar ochildi.

Shunisi quvonchliki, o'zbek xalqining bag'riga ozodlik shamoli tekkan ilk yillardanoq, YuNESKO Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlarini jahon ahliga tanitishga O'zbekiston hukumati bilan birgalikda jonbozlik ko'rsata boshladi. Bu, **birinchidan**, ulug' bobokalonimizning jahon tarixidagi beqiyos nufuzidan dalolat bersa, **ikkinchidan**, millat sha'ni, uning tarixiy shavkatini tiklash yo'lida Prezident Islom Karimov sa'yi harakatlarining natijasidir. YuNESKOning o'sha paytdagi bosh direktori Federiko Mayor bilan O'zbekiston rahbarining amaliy muloqotlari va hamkorligi bugun o'zbek millati dovrug'ini olamga taratishga xizmat qilmoqda.

Bundan 600 yilcha burun Ispaniyaning mashhur o'g'loni Rui Gonzales de Klavixo do'stlik elchisi maqomida Samarqandga tashrif buyurib, vataniga qaytgach, yurtimiz haqida o'z taassurotlarini e'lon qilgan edi. O'shanda nafaqat Ispaniya, balki butun Yevropa Klavixo asari orqali Turkiston va uning madaniyati borasidagi o'z tasavvurlarini yanada boyitish imkoniyatiga ega bo'lgandi. Taqdir taqozosi bilan oradan deyarli olti asr o'tib, Ispaniyaning boshqa bir o'g'loni – Federiko

Mayor ma'rifat, ilm va madaniyatning xalqaro miqyosdagi homiysi va himoyachisiga aylangan YuNESKOga rahbar bo'lib, O'zbekistonning boy tarixini, uning umuminsoniy qadriyatlarini, buyuk ajdodlarini jahonga tanitishga hissa qo'shmoqda. F.Mayorning bu xizmatlari O'zbekiston hukumati tomonidan munosib baholandi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Federiko Mayorni O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida

YuNESKO bilan O'zbekiston o'rtasida madaniy hamkorlikni mustahkamlash sohasidagi g'oyat katta xizmatlari, Markaziy Osiyo xalqlarining nihoyatda boy ma'naviy merosini tiklash va ommalashtirishga, «Ipak yo'li – muloqot yo'li» xalqaro dasturini amalga oshirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti Bosh direktori, taniqli olim va jamoat arbobi Federiko Mayor «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ***I.Karimov***

1996-yil 10-aprel

* * *

Amir Temur shaxsiyatining bugungi kundagi mazmuni va beqiyos mohiyati shundaki, Sohibqiron siymosi **bir tomondan** bugungi avlodda o'z o'tmishi bilan faxrlanish, ma'naviy ildizlarini topib olish, erkinlik qadriyatini tushunishga va kelajakka ishonch bilan qarashga da'vat etsa, **ikkinchi tomondan,** dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin ozodlik, yuksak madaniyat va taraqqiyotning qadriga yetuvchilarning o'zaro yaqinlashuviga xizmat qiladi.

1996-yil dekabrda Prezident I.Karimov «1996-yilni Amir Temur yili» deb atash to'g'risida Farmon qabul qildi. «Temur tuzuklari» bir necha tillarda chop etildi. O'sha davr tarixiy madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Muqaddas qadamjo – Amir Temur maqbarasi ta'mirlandi. Juda qisqa fursatda, bobokalonimizning dunyoviy sha'ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar muzeyi qurildi. 1996-yilning 22–24-aprel kunlari YuNESKO doirasida Parijda o'tkazilgan xalqaro tadbirlar jahon madaniy hayotida muhim va yorqin voqea sifatida baholandi. Turkiya, Eron va Qirg'izistonda Konrad Adenauer va Xalqaro Amir Temur jamg'armasi hamkorligida ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Bular mohiyat e'tibori bilan bevosita

O'zbekiston davlati va xalqining milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ichki va tashqi siyosatining yaxlit mazmunini belgilaydi.

O'zligini to'la-to'kis namoyon qilib, umumjahon taraqqiyotiga butun borlig'i va imkoniyatlari bilan qo'shilish uchun millat eng avvalo ozod bo'lmog'i darkor. Chunki, erkinlik millat nimalarga qodirligini ko'rsatuvchi qudratli omildir. Sohibqiron Amir Temur davri biz uchun xuddi ana shu jihatdan ham xarakterli. Shuning uchun ham biz Amir Temur siymosiga murojaat qilamiz, uning tarixi va merosini har tomonlama o'rganamiz.

Temuriylar, ayniqsa, Amir Temur davri haqida gap ketganda faqat ana shu uyg'onish davri yutuqlari haqida gapirish kamlik qiladi. Zotan, ungacha bo'lgan ming yilliklardagi tarixiy-madaniy ravnaq ayni ana shu taraqqiyotga zamin yaratgan. Yurtimizga Amir Temur bosh bo'lgan yillarda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda qo'lga kiritgan yutuqlar bo'm-bo'sh, huvillagan joyda yuzaga kelmagan. Balki shu makonda qadimdan rivojlanib, shakllanib kelgan tarixiy-madaniy an'analar asosida qaror topgan. Yanada aniqroq aytsak, **Amir Temur o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixiy ravnaqida tasodifiy shaxs, umuman Temuriylar davridagi yuksalish esa shunchaki bexosdan yuz berib kelgan hodisa emas! U bir necha ming yillik tarixiy tajriba, buyuk an'ana, tom ma'noda shakllangan madaniy-ma'naviy jarayon mahsulidir.**

Chingiziylar hukmronlik qilgan yillari ko'plab nodir hunar, san'at va iste'dod egalari jon saqlash niyatida chekka mamlakatlarga qochib ketdilar. Iqtisod izdan chiqqan, savdo susaygan, boshqaruv tizimi yo'q hisobida edi. Xullas, Amir Temur oldida bir yarim asrlik mustamlakachilikdan so'ng ko'p asrlik milliy davlatchilik va milliy madaniyatni qaytadan tiklash kabi og'ir vazifa turardi.

Amir Temur siyosatshunoslik va davlatchilik falsafasi tarixida yangi dunyoqarashga asos soldi, uni amalda tatbiq etdi. U ilgarigi davrlardan farqli holda jamiyat barcha tabaqalarining haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirdi. Har bir toifaning haq-huquqlari, burch va majburiyatlari o'ziga xos qonun bilan kafolatlab qo'yildi.

Sohibqironning ulkan xizmatlaridan yana biri uning davlat boshqaruvini tashkil qilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, somoniylar davridan boshlaboq o'zbek davlatchiligida hokimiyatning ikkiga – **dargoh timsolidagi qonun chiqaruvchi** hamda **devonlar – vazirliklar timsolidagi ijroiya tizimlariga** bo'linishi yaqqol ko'zga tashlana boshlagan. O'z davri uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan bu holat keyingi asrlarda ham, to Chingizxon bosqiniga qadar davom etgan. Chingiziylar hukmronligi yillarida esa bu an'ana yo'qqa chiqarildi. Amir Temur ana shu tizimni qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan va uni boyitgan buyuk islohotchidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hokimiyat bo'linishiga asoslangan mazkur tizimni joriy etishda Sohibqiron ko'r-ko'rona emas, balki o'zi yashab turgan voqelikni nazarda tutgan holda ish yuritdi.

Amir Temur eng oliy davlat idorasi maqomida qurultoyni belgilagan edi. Bugungi tushunchadagi kongress, assambleya, majlis, syezd kabilarga to'g'ri keladigan ushbu siyosiy institut boshqaruv mahkamasi va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan eng asosiy masalalarni hal etib, unda saltanatdagi barcha yirik siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy soha namoyandalari ishtirok etganlar.

Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijroiya tizim – vazirliklarning o'rni muhim bo'lgan. Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, ulardan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun qat'iy intizomga asoslangan, talabchan ijroiya mexanizmi zarur edi. Sohibqiron ana shunday tizimni yarata oldi.

Amir Temur saltanatining ijroiya tizimidagi sakkiz vazirlik va yana bir necha muassasalar moliya, soliqlar, daromad va xarajatlar, mulkchilik, yetishtiriladigan hosil, chorva, yaylovlar ahvoli, obodonchilik, xabar va pochta, harbiy va adliya sohalarini boshqargan. Masalan, harbiy ishlar vazirligi harbiylarga maosh berish, ularga tegishli mulklarni boshqarish, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy mashqlarni uyushtirish va tashkil etish kabi vazifalar bilan bir qatorda iste'foga chiqqan, urushlarda yarador bo'lib, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga nafaqa belgilash kabi yumushlarni ham bajargan.

Huquqiy demokratik davlat qurayotgan bir paytimizda Sohibqironning sud va qonunchilikka munosabati ham alohida o'rnak vazifasini o'taydi. Bundan olti asr burun Movarounnahrda sud tizimida o'ziga xos tartib va qoidalar mavjud edi. Chunonchi, fuqarolik ishlari bilan ijroiya tizimida faoliyat ko'rsatgan adliya vazirligi shug'ullangan bo'lsa, jamiyat hayotidagi ma'naviy, tarbiyaviy ahamiyatga doir muammolar bilan islom qozisi, harbiylar orasidagi huquqiy masalalar bilan esa askar qozisi, ya'ni bugungi til bilan aytganda harbiy tribunal shug'ullangan.

Amir Temur jamiyat va davlat boshqaruvida hokimiyat bo'linishi haqida fikr yuritar ekan, tadqiqotchilar uni XVIII asr mutafakkiri Monteskening hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov idoralariga bo'linishi haqidagi ta'limotiga mos kelishini ta'kidlaydilar.

«Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim». Sohibqironning birgina ana shu so'zi uning butun saltanatining ezgulik va yuksak ma'naviyatga asoslangan g'oyasini, siyosiy va ijtimoiy mazmunini belgilaydi. Uning islom diniga munosabati xalq manfaatlariga mos keladigan, uning taqdirini belgilaydigan ulkan hodisadir.

Dunyo me'morchilik san'atining gultoji bo'lgan osori atiqalar – Go'ri Amir, Bibixonim, Zangi Ota, Xoja Ahmad Yassaviy maqbaralari Oq saroy va Shohi Zinda majmualari kabi ko'plab ziyoratgohlar hamda Amir Temurning shariat va tariqat peshvolariga nisbatan izzat-hurmati uning shaxsiyatining naqadar ulug'vorligini va daholik qudratini ko'rsatadi.

Sohibqiron «Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim» – deydi. Ma'lumki, shu davrda yassaviya, naqshbandiya, kubraviya kabi so'fiylik tariqatlari paydo bo'ldi va rivojlandi. U hukmronlik qilgan yillarda islom dini axloqiy kategor'yalari yanada yuqori darajaga ko'tarildi.

Sohibqironning betakror harbiy iste'dodi va qobiliyati zabardast harbiy islohotchi hamda atoqli sarkarda sifatida yaqqol ko'zga tashlandi. U eng qudratli va intizomli armiyani barpo etishga, harbiy qismlarini yurish va jang vaqtida oqilona boshqarishga, paydo bo'lgan har qanday g'ov va to'siqlarni tadbirkorlik bilan yengishga, qo'shindagi jangovar ruh, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini doimo yuksaltirib borishga muvaffaq bo'lgan.

Sohibqiron qo'shinining tuzilishi va tizimi ba'zi bir muhim jihatlari bilan boshqa davlatlar qurolli kuchlaridan farq qilar edi. Jumladan, armiyaning zarbdor qismlarini tashkil etuvchi otliq askarlar bilan bir qatorda qal'a va qo'rg'onlarni egallashda qo'l keladigan piyoda askarlar ham yetarli darajada edi.

Harbiy sohada sharq va g'arb davlatlarida yuz berayotgan o'zgarishlardan yaxshi xabardor bo'lgan Sohibqiron o'z armiyasida to'p ishlatishni joriy etdi va Sharqda artilleriyaning tarkib topishiga hamda rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Sohibqironning harbiy ta'limoti, sarkardalik mahorati, jahon harbiy san'atidagi novatorligi bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Amir Temur yubileyi bizning hozirgi dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari urush va tinchlik muammolariga, inson hayotining daxlsizligiga yana ham jiddiyroq mas'uliyat bilan qarashimizni taqozo etmoqda.

Amir Temur shaxsiyati jahon davlatchiligi an'analarini yanada boyitish, bu boradagi sharq tajribalaridan unumli foydalangan holda yosh mustaqil davlatimiz tizimini tobora takomillashtirish sabog'ini bermoqda. Zotan, biz huquqiy demokratik adolatli davlat va insonparvar fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqdamiz. Demak, ulug' bobokalonimizning davlatchilik borasidagi sabog'i – adolat va haqiqat tantanasiga, yuksak ma'naviyat ravnaqiga erishish hamda ma'naviy barkamol jamiyat bunyod etish tamoyillari biz uchun ibrat va namunadir. Ayni paytda u barpo etgan siyosiy tizim, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, milliy xavfsizlik borasidagi strategik qarashlar ham ulkan maktab vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz 1999-yil 5-noyabrda Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga

bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida sohibqironning milliy davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni haqida to'xtalib shunday degan edilar: «Oradan bir asr o'tib, sohibqiron Amir Temur Jaloliddin Manguberdi boshlagan ozodlik kurashini yangi sharoit va ulkan miqyoslarda davom ettirdi. Ona yurtimizni bosqinchilardan xalos qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi» («Fidokor» gazetasi, 1999-yil 9-noyabr).

Amir Temurning san'at va madaniyatga homiyligi, mamlakat obodonchiligi uchun g'amxo'rligi, insonni tabiatning gultoji sifatida e'zozlashga intilish singari xususiyatlari bugun ham katta qiymatga ega.

Hurfikrlik, fuqarolar ongi va tafakkurida bunyodkorlik, ijodkorlik, istiqbol uchun kurashish tuyg'usini shakllantirish insonparvar jamiyatning oliy fazilatidir. Bu borada ham Sohibqironning sa'yi harakatlari va tadbirlari biz uchun o'rnakdir.

Bugun O'zbekiston o'z kelajagini aniq va ravshan ko'rib turibdi.

Chunki, azaldan ozod bo'lgan, ozodlik va hurriyat gashtini surgan, jahon taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatib kelgan buyuk xalqning irodasi ham, daholik qudrati ham, yaratuvchilik va bunyodkorlik kuchi ham buyuk bo'ladi. Sohibqiron sabog'i bizni ana shu haqiqatni chuqur idrok etishga o'rgatadi. Prezident Islom Karimov sohibqiron yubileyi munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda bu xususda shunday degan edi: **«Bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pand-u o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan muammolarni yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q.**

Shuning uchun ham mana shu minbardan turib, butun O'zbekiston xalqiga, qolaversa, butun jahon ahliga qarata «Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz!», – deb aytsam, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'laman».

(Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T., 1997, «O'zbekiston», 5-jild, 191-bet.)

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boy merosimiz milliy mustaqillik tufayli umumbashariyat merosiga aylanmoqda. Bu merosga qiziqib qaragan har bir olim-u fozil qayerda ishlamasin, ichki bir ishtiyoq va kasb taqozosi bilan shu sohadagi yuzlab, minglab hamkasblari bilan o'zaro yaqinlashib boraveradi. Demak, o'zbek tarixi, xususan, Amir Temur siymosi umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qiladi. Bundan davlatlar va xalqlar o'rtasida hamkorlik yanada mustahkamlanib boraveradi. Shu ma'noda Sohibqiron yubileyining juda katta siyosiy, tarixiy va ma'naviy ahamiyati bor.

Amir Temur tavalludining 660 yilligi jahonning 50 dan ortiq davlatlarida nishonlangani, ulug' bobokalonimiz merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanda 30 ga yaqin mamlakat olimlari ishtirok etgani buni yana bir bor tasdiqlaydi.

PARIJ. 1996-yil 21–24-aprel.

Amir Temur hazratlari 660 yillik to'yining 1996-yil 21–24-aprel kunlari Fransiya poytaxti jahon madaniyati sarvari bo'lgan Parij shahrida YuNESKO tashabbusi va rahbarligida nishonlanishi, unda O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning ishtirok etishi va katta nutq so'zlashi ulkan voqeaga aylandi.

Darhaqiqat, buyuk Sohibqiron tavalludining insoniyat ma'naviy qudrati va tafakkurining mo'jizasi bo'lgan Parijda, xalqaro madaniyat va ma'rifat muassasasi YuNESKO boshchiligida nishonlanishi bundan atigi besh yilgina burun mustaqillikka erishgan yosh O'zbekiston tarixida muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston rahbariyati, xususan, Prezident Islom Karimov va YuNESKO Bosh direktori F.Mayor janoblarining sa'y-harakatlari tufayli amalga oshirilgan bu tadbirlar mamlakatimizni Amir Temur siymosida, u homiylik qilgan madaniy, ma'naviy meros orqali yana bir karra dunyoga tanitdi.

YuNESKO qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida xalqaro konferensiya va ko'rgazma uyushtirildi. O'zbek san'at ustalari Parijdagi «Odson» teatri va YuNESKO qarorgohida katta konsert dasturlarini namoyish etishdi. Parij va YuNESKO doirasida butun dunyo uni beqiyos zavq-u shavq, olqishlar bilan kutib oldi.

YuNESKOning o'sha paytdagi bosh direktori F.Mayor mazkur tashkilot Kengashining 149-sessiyasida O'zbekiston Prezidentiga so'z bera turib, o'zbek xalqi, uning ko'p ming yillik madaniyatini astoydil yaxshi ko'rib qolganini, shunday mashaqqatli o'tish davrida mamlakatni boshqarayotgan inson irodasiga qoyil qolmay iloji yo'qligini alohida ta'kidlagan edi. Buni uning I. Karimov nomlariga yuborgan tabrik xatidan ham bilsa bo'ladi. Jumladan unda shunday deyiladi:

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov janobi oliylariga!

...Samarqand, Buxoro va Xivaga qilgan safarim hayotimdagi hayajonli damlarim bo'ldi. U yerlar ertaklardagi kabi afsonaviy va tarixiy joylardir.

Men ipak yo'li shu joylardan o'tib, madaniyatlar va dinlarning bir-biriga kirib kelishiga va Sharq bilan G'arbning muloqotiga ko'maklashganini tasavvur etishga harakat qildim. Men borgan joylar insoniyat taqdirlari chorrahalari o'tgan buyuk shaharlar edi.

Hozir biz, tarix bilan hisoblashgan holda, ipak yo'li tinchlik va muloqot yo'li sifatida xizmat qilishini davom ettirishga ko'maklashmog'imiz lozim.

Men Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro institutini ochish sharafiga muyassar bo'ldim. Bu institut ushbu orzu-umidlarni amalga oshirishda YuNESKO tomonidan berilgan yordamning chinakam namunasidir.

Sizning YuNESKOning barcha vakolatlari doirasidagi faoliyati bilan chuqur qiziqishingizdan mamnun bo'lganimni aytishimga ham ijozat bergaysiz.

O'zbekiston hukumati bilan YuNESKO o'rtasida bahamjihat harakatlari to'g'risidagi memorandumning imzolanishi yutuqlarimizni mustahkamladi va hamkorligimiz sohalarini kengaytirdi.

Siz bilan biz har tomonlama muhokama qilgan ko'pgina masalalar yuzasidan hozirning o'zidayoq tegishli qarorlar qabul qilindi va kotibiyat bundan buyongi hamkorligimiz masalalari yuzasidan Sizning doimiy vakolatxonangiz bilan mustahkam aloqa qilib turadi.

Taklifingiz va mamlakatingizga tashrifim davomida menga ko'rsatgan olijanob mehmondo'stligingiz uchun Sizga va Siz orqali butun O'zbekiston Respublikasi xalqiga yana bir bor minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Pirovardida, YuNESKOning qarorgohiga tashrif buyurish haqidagi taklifimni yana bir bor takrorlamoqchiman. YuNESKOning 50 yilligini bayram qilish davrida Sizni taklif etish bizga alohida sharaf va mamnuniyat baxsh etadi.

Men Sizga tashrifni 1996-yil aprel oyining oxirlarida yoki may oyining boshlarida, YuNESKO Ijroiya Kengashining bahorgi sessiyasi ishlab turgan paytda amalga oshirishni taklif qilgan bo'lardim. Shu munosabat bilan Sizning, ehtimolki, Ijroiya Kengash huzurida so'zga chiqishingiz hamda shu davrda o'tkazish rejalashtirilayotgan temuriylar davri haqidagi O'zbekiston ko'rgazmasini ochishingiz biz uchun sharafli ish bo'lur edi.

Ijroiya Kengashining bahorgi sessiyasini o'tkazishning tasdiqlangan muddatlarini mening kotibiyatim YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyangizga qo'shimcha ravishda ma'lum qiladi.

Janobi oliylari, Sizga zo'r ehtiromimni qabul qilgaysiz.

Sizni tezroq ko'rish umidi bilan

Federiko Mayor,

YuNESKO Bosh direktori.

«Xalq so'zi». 1995-yil 3-noyabr.
(Maktub qisqartirib berilmoqda).

* * *

Bosh direktor janoblari shunday ulug' madaniyat va So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Kushon kabi, qolaversa, Amir Temur barpo etgan buyuk davlatchilikning haqiqiy vorislarigina bunday og'ir sinovlarga chidashi mumkinligini nazarda tutgan edi. Bu bilan u Prezident orqali butun o'zbek xalqining qudratiga, yaratuvchilik qobiliyatiga baho bergan edi.

millat timsoliga aylanganini istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamroh-u hamnafas bo'lib borayotganini ta'kidladi. O'z fikrini davom ettirib notiq: «Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo'shimcha qilib Sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi», – dedi.

Darhaqiqat, buyuklik buyuk qalbdan kelib chiqadi. Buyuk qalb esa hamisha millat qayg'usi, xalq dardi, vatan iztirobi bilan yashaydi. Ana shu ezgu hislardan begona bo'lgan qalb beqadr va o'tkinchidir. Bugun biz ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Istiqlol va Temur, Vatan va Millat, Ozodlik va Sohibqiron tushunchalarini mushtarak holda his qilamiz. Ularni bir-birini to'ldiradigan, mazmunan boyitadigan tushuncha sifatida qabul qilamiz.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi g'oyat qisqa fursatda bunyod qilindi. Bor-yo'g'i olti oy mobaynida me'moriy jihatdan nihoyatda murakkab muhtasham inshoot barpo etildi. Bu avvalo, bobokalonimizning sha'n-u shavkatiga, dunyoviy obro'-e'tibori va daholigiga munosib bo'lsa, ikkinchi tomondan temuriylar bugungi avlodining bunyodkorlik qudratidan, nozik didi, beqiyos iste'dod va xayolotining cheksizligidan dalolat beradi.

Inshootning umumiy maydoni besh ming kvadrat metrni tashkil etadi. Muzey qurilishida butun mamlakat mutaxassislari ishtirok etdilar. Toshkentlik qo'li gul quruvchilar, chinnisozlik va keramika, «Mikond» korxonalarining mohir hunarmandlari, «Usta» birlashmasi, Yugoslaviyaning «Torevik» firmasi va boshqa o'nlab mehnat jamoalari bu ishga munosib hissa qo'shdilar. Olis-olislardan yarqirab tovlanadigan, ulug'vorligi va nafisligi bilan kishini hayrat-u hayajonga soladigan niliy gumbaz esa Toshkent aviasozlik davlat hissadorlik jamiyati mutaxassislari tomonidan tayyorlandi.

Bayram tantanalari muzey sahniga ulanib ketgan Amir Temur xiyobonida davom etdi. Prezidentimiz xiyobondagi Sohibqiron haykali poyiga gulchambar qo'ydi. Davlat va hukumat rahbarlari, fan, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg'orlari, nuroniy otaxonlar va onaxonlar, jamoatchilik vakillari ham marosimda ishtirok etishdi.

Ulug' ajdodimiz ruhini xotirlash temuriylar davlatining poytaxti Samarqandda alohida shukuh va joziba kasb etdi. Jahon sayqaliga aylangan bu ko'hna va tabarruk shahar Sohibqiron taqdiri, uning bezovta-yu beorom kunlari, buyuk orzulari, armon-iztiroblariga guvoh bo'lgan muqaddas maskandir. Ayni paytda Samarqand millatni millat, davlatni davlat qilgan Amir Temur daholik qudratining ramzi, uning beqiyos ifodasidir.

Sohibqiron yubileyiga tayyorgarlik jarayonida samarqandliklar o'nlab tarixiy obidalarni, osori atiqalarni ta'mirladilar, ularni qayta tikladilar,

tashkilotlar, shuningdek, Yevropa tuzilmalari doirasida hamkorlikni kengaytirishi va chuqurlashtirishi alohida ahamiyatga ega.

Toshkent. 1996-yil 18-oktabr. Sohibqiron Amir Temur dahosi bizga ajdodlar ruhini yod etish, ular xotirasini abadiylashtirish sabog'ini berdi. Aslini olganda o'tganlar xotirasini eslash milliy an'analarimizning, urf-odatlarimizning bir bo'lagi. Hayotimizning har daqiqasida kimlarnidir o'ylaymiz, Allohdan kimlarnidir qo'llab, ruhini shod etishni tilaymiz. Ammo Amir Temur bu borada ham noyob insoniy fazilatning betimsol namunasi sifatida shuhrat qozongan ulug' zotdir. U nimaiki ish qilgan bo'lsa, barchasini iymon-e'tiqod, insof va adolat yuzasidan qildi. Ulkan allomalar, avliyo-yu anbiyolarga ehtirom ko'rsatib, ularning aqidalari va ta'limotlarini qo'llab-quvvatladi.

Amir Temurning ota-bobolarimiz xotirasi yo'lida sarflagan kuch-g'ayrati, ko'rsatgan mehr-muhabbatini davom ettirish, uning muruvvatiga muruvvat bilan javob berish, ajdodlar uzviyligini asrab-avaylash navbati bizga keldi.

1996-yilning 18-oktabr kuni. Muborak juma tongi. Bu kun eng ezgu tilaklar, orzu-umidlar ifoda etiladigan, Yaratganga shukronalar aytib, hayot qadri e'zozlanadigan muqaddas kun.

Shu muborak kun mamlakatimiz poytaxti qadimiy Toshkentning qoq markazidan tong-saharda Qur'on tilovati olis-olislarga taraldi. Ulug' bobokalonimiz, buyuk davlat arbobi va yengilmas sarkarda Amir Temur yodi xotirasiga atab Sharq milliy me'morchiligining noyob va mo'jizaviy namunasi sifatida bunyod etilgan — Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi ana shundan boshlandi. Ming-minglab kishilar — toshkentliklar, mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan mehmonlar, xorijiy elchixonalar va vakolatxonalarning vakillari hozir bo'lishdi. Ulamoi kiromlarning fotihasi bilan qo'ylar so'yilib, qurbonlik qilindi.

Milliy udumlarimizga ko'ra Qur'oni Karimdan oyatlar o'qildi, Sohibqiron ruhiga duoi fotihalar qilindi. Bir necha ming kishilik dasturxonga osh tortildi. Mumtoz qo'shiqlar ijro etildi.

Quyosh endigina uyg'onayotgan, tong yorishib shahardagi eng baland binolarning peshtoqlari zarga o'ralayotgan bir paytda karnay-surnay sadolari butun shahar ahlini bayramga chorlab, muzey ochilishiga bag'ishlangan tantanali miting boshlanishidan darak berdi. Mitingni Toshkent shahar hokimi Kozim To'laganov ochdi. Prezident Islom Karimov yig'ilganlar oldida katta nutq so'zladi. Mamlakatimiz rahbari muhtasham muzeyning qisqa vaqtda qurib bitkazilgani va noyob tarixiy eksponatlar bilan jihozlangani bobokalonimizga bo'lgan hurmat va ehtirom ramzi, madaniy hayotimizdagi ulkan voqea ekanligini aytib, «Mamlakatimiz istiqlolga erishgach Amir Temur shaxsi yana Vatan va

paytda YuNESKOning ham eng olijanob maqsadlaridan biridir. Temur va temuriylar davrida gullab-yashnagan madaniyat, ma'rifat, qaror topgan ma'naviy qadriyatlar haligacha dunyoni bir butun holda tasavvur etish, gumanizm va inson o'rtasidagi tenglik, birodarlikka xizmat qilib kelmoqda.

Bu ko'rgazma ochilishiga dasturda belgilanmagan holda shaxsiy qiziqishi va o'zbek madaniyatiga hurmat-ehtiromi tufayli Fransiyaning o'sha paytdagi Prezidenti Jak Shirakning rafiqasi bilan tashrif buyurishi ham muhim voqea bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur marosimda O'zbekiston va YuNESKO o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini qayta tiklash va targ'ib qilishdagi buyuk xizmatlari uchun YuNESKO bosh direktori F.Mayorga «Do'stlik» ordenini topshirdi. Fransiyalik mashhur olim, Temur va temuriylar hukmronligi yillari tarixining zukko bilimdoni, O'zbekiston va Fransiya madaniyatlarini o'zaro yaqinlashtirish ishining jonkuyari L.Keren janoblari «Shuhrat» medali bilan mukofotlandi.

YuNESKO bilan O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida o'sha kuni yana bir muhim qadam qo'yildi. O'sha kuni O'zbekiston hukumati va YuNESKO o'rtasida imzolangan bitim faqat madaniyat, ilm-fan va maorif sohalari muammolari bilan cheklanib qolmaydi. U mavjud ekologik, xususan, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq muammolarni hal etishning ilmiy yechimini topishni ham nazarda tutishi bilan qimmatlidir. Bitimga ko'ra, ko'p o'tmay Toshkentda YuNESKO-ning vakolatxonasi ochildi. Qolaversa, mazkur xalqaro tashkilotning 1997-yili Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash to'g'risida qabul qilgan qarori ham mintaqa xalqlari madaniy hayotida yana bir tarixiy voqea bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining Fransiya Prezidenti bilan Yelitsey saroyidagi dastlabki uchrashuvi rejada ko'zda tutilganidan deyarli ikki barobar ko'p davom etgani qalblar yaqinligini, tuyg'ular mushtarakligini ko'rsatadi.

O'zbek-Fransuz aloqalari uzoq tarixga ega. Fransiya Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan uchrashganida Amir Temurning 1402-yili Fransuz qiroli Sharl VI ga yo'llagan maktubini sovg'a qilishida ham teran ramziy ma'no bor.

Sohibqiron o'sha maktubida fransuz qirolini Turon zaminiga o'z savdogarlarini yuborishga chorlagan, ularning xavfsizligiga kafil bo'lishini bayon qilgan bo'lsa, O'zbekiston Prezidenti bugun Fransuz ishbilarmonlarini o'zaro foydali hamkorlikka da'vat etadi, ularning manfaatli ish birligi uchun yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida hikoya qilishdan charchamaydi. Zero, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlik miqyosi nihoyatda keng.

O'zbekistonning dunyo siyosatida ham, iqtisodiyotida ham yetakchi o'rinlardan birini egallab turgan Fransiya Respublikasi bilan xalqaro

Madaniyat hamisha milliy o'zlikni anglashgagina xizmat qilmaydi. Uning faoliyat maydoni keng va rang-barangdir. Bir xalq hamisha ikkinchi bir xalqni o'sha madaniyat orqali taniydi, tushunadi. Shu ma'noda mamlakatlar o'rtasidagi madaniy aloqalar ravnaqi iqtisodiy birligiga, o'zaro hamkorligiga, taraqqiyotning yangidan-yangi imkoniyatlarining ochilishiga muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Garchi xalqlar o'rtasidagi totuvlikni ta'minlashda, murosaga erishishda o'zaro iqtisodiy bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblashsa-da, bu borada madaniyatning roli ham undan kam emas. Zotan, ma'naviyat, madaniyat yuksak qadriyat, yengilmas kuch, beqiyos qudratdir.

YuNESKO amalga oshirayotgan «Ipak yo'li — muloqot yo'li» nomli xalqaro dastur ham aslida ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti YuNESKO Kengashi 149-sessiyasining yalpi majlisida so'zlagan nutqida O'zbekiston bu dasturni to'la qo'llab-quvvatlashini ma'lum qilgan edi. Barcha xalqlar madaniyati, o'tmishi, o'ziga xos yashash tarzini birday ardoqlab kelayotgan mazkur tashkilot faoliyatiga yuqori baho berdi. Bugungi taraqqiyot sur'ati ko'p jihatdan xilma-xil madaniyatlar va aql-zakovat integratsiyasiga bevosita bog'liq ekanini qayd etdi. Bu O'zbekistonning jahon taraqqiyotiga o'ziga xos munosabatini, chuqur ma'naviy qadriyatini ko'rsatadi.

O'z faoliyatida nafaqat fikrlar, qolaversa, madaniyatlar xilma-xilligi tamoyiliga tayanadigan YuNESKO bu ishni amalga oshirishda dunyo xalqlarining boshini qovushtirishday mashaqqatli vazifani bajarmoqda. Shuning uchun ham «murosa» bu qarorgohda eng ko'p tilga olinadigan so'zlardan biri bo'ldi.

«Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzuidagi ko'rgazmaga qo'yilgan eksponatlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga tegishli bir necha ming yillik davrni o'z ichiga qamrab oladi. Ko'rgazmaga kelgan kishilar o'zbek xalqi ijodi, madaniy va ma'naviy merosi, tasviriy san'ati namunalari bilan tanishish imkoniga ega bo'lishgan edi.

Temur o'sha vaqtdayoq Yevropa va Osiyo davlatlarini yagona iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qilgani barchaga ma'lum. U barpo etgan buyuk saltanat o'sha vaqtdagi integratsiya, Buyuk ipak yo'li bo'yida joylashgan madaniyatlar muloqoti ehtiyojidan kelib chiqqan edi.

Islom Karimov ko'rgazmaning ochilishi marosimida so'zlagan nutqida Yevropa va Osiyo davlatlari o'rta asrlardayoq o'zini yagona jug'rofiy-siyosiy makonga taalluqli ekanligini anglaganini Amir Temurning tarixiy xizmati sifatida baholaydi. «Ushbu madaniyat haftaligining ochilishi Amir Temurning o'sha xizmatlariga dunyo xalqlari ehtiromi», deb bemalol aytish mumkin, deydi u.

Oradan olti asrdan ko'p vaqt o'tganiga qaramay, Amir Temur g'oyalari hamon dolzarbligicha, hayotiyligicha qolmoqda. Qolaversa, bu g'oyalar bugungi dunyo mamlakatlari yalpi integratsiyaga ehtiyoj sezayotgan bir

mumtoz bobomiz nomi bilan bog'liq qadamjolarni obod etdilar. Yangi inshootlar qurildi, bog'lar barpo qilindi. Shahar markazidagi ko'rkam Amir Temur maydoni Samarqand sayqaliga sayqal qo'shdi.

Davlatimiz rahbari ana shu maydonda qad ko'targan Sohibqironning haykalini tantanali ravishda ochdi. Yig'ilganlar ko'z o'ngida hamisha muzaffar va g'olib Amir Temurning salobat va ulug'vorlik bilan taxtda o'tirgan siymosi gavdalandi. Qalblarni larzaga keltiradigan hayajonli vaziyatda O'zbekiston davlat madhiyasi yangradi.

Mustaqilligimizning besh yilligi bayrami arafasida shahar ahlining xayrli xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F a r m o n i

Samarqand shahrini «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida

Temuriylar davlatining poytaxti sifatida jahon ilm-u fani, madaniyati va me'morchilik san'atining rivojlanishiga hamda davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash ishiga katta hissa qo'shganligi va shahar ahlining o'zbek xalqi tarixiy va ma'naviy merosini ko'p asrlar mobaynida avaylab-asrab, jahonga mashhur etishdagi g'oyatda katta xizmatlarini e'tiborga olib, mustaqil mamlakatimizda tub islohotlarni amalga oshirish, uning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishdagi faol ishtiroki uchun hamda sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Samarqand shahri «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ***I.Karimov.***

Toshkent shahri,
1996-yil 28-avgust.

* * *

Tantanalar paytida davlatimiz rahbari Samarqand shahriga «Amir Temur» ordenini topshirdi. U shahar ahlini mukofot bilan qutlab, Sohibqiron tavalludi bayrami kunlarida shaharga birinchi raqamli orden topshirilishi ramziy ma'noga ega tarixiy voqea ekanligini ta'kidlab ushbu unutilmas kun – 18-oktabrni «Samarqand kuni» deb e'lon etishni taklif qildi. Yig'ilganlar bu taklifni mamnuniyat bilan qarshi oldilar.

Samarqand va Sohibqiron... Bu ikki mo'tabar tushuncha xususida gapirar ekan, Prezident katta faxr-u iftixor bilan **«Qachonki, biz Amir Temur**

hazratlarini yod etar ekanmiz, Sohibqiron saltanatining poytaxtini ham ehtirom bilan tilga olamiz. Chunki, Amir Temur va Samarqand tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

... Samarqandning moviy gumbazlari, osmono'par minoralari, ulardagi betakror ranglar, olam-olam mazmunga ega naqsh-u nigorlar bizni yerga qarab emas, boshimizni baland ko'tarib, qadr-qimmatimizni bilib yashashga undaydi», – dedi.

O'sha muborak kun Qashqadaryo vohasida, xususan Shahrisabz – qadimiy Kesh shahrida tarixiy kun bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu mo'tabar tuproq bobokalonimizga beshik bo'lgan, uni voyaga yetkazgan ota makon. Bu zaminning yurtboshimiz o'z qutlov so'zida aytib o'tganidek, millatimiz tarixida, shu zaminda yashayotgan el-ulusning boshini qovushtirishda o'rni beqiyosdir. Bobokalonimizning Turkiston diyorini bosqinchilardan ozod qilish yo'lidagi jasur harakatlari aynan shu yurtdan boshlangan... Hazrati Temur o'z oldiga ulug'vor maqsadlarni qo'yganida, avvalo, o'z eliga, o'z ona yurti – Keshga ishongan va unga tayangan.

O'zbekiston Prezidenti shu kuni Shahrisabzga ham tashrif buyurdi. Qadimiy Oqsaroy hovlisiga ulanib ketgan ulkan maydon bayramona bezatilgan. Uning markazida Amir Temurning ulug'vor haykali o'rnatilgan. Shahar ahlining milliy madaniyatimiz an'analarini tiklash borasidagi xizmatlari munosib baholandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

Shahrisabz shahrini «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida

Shahrisabz shahri ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma'naviy merosini, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib voyaga yetkazish ishiga qo'shgan alohida xizmatlarni e'tiborga olib hamda sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahri «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ***I.Karimov.***

Toshkent shahri,
1996-yil 28-avgust.

* * *

Vatanimiz madhiyasining tantanavor ohanglari ostida Islom Karimov ramziy lentani qirqib, Sohibqiron haykalini ochdi. Prezident haykal poyiga gulchambar qo'ydi. Maydonda yig'ilgan jamoat oldida Shahrisabz shahri bayrog'iga «Amir Temur» ordenini qadab qo'ydi va katta nutq so'zladi. **«Ulug' zotlarning tarix osmoniga yuksaladigan manzillari bo'ladi. Butun Sharq olamida «ilmu adab qubbasi» deya e'tirof etilgan Shahrisabz hazrati Amir Temur uchun ana shunday parvoz nuqtasidir. Biz Sohibqiron bobomizning qutlug' to'yini o'tkazayotgan shu kunlarda eng avvalo bu zoti sharifni dunyoga keltirgan va voyaga yetkazgan el dahosiga va tabarruk zaminga ta'zim qilamiz»**, – deb ta'kidladi u. Bu so'zlar xalqimizning ezgu tuyg'ularini o'zida mujassam etadi.

1996-yilning 18-oktabri. Muborak juma kuni. Bu kun mustaqilligimiz tarixiga alohida sana bo'lib qo'shiladi. Chunki, xuddi shu mo'tabar kunda bobokalonimizning shon-shavkati, tarixiy adolat butun mamlakatimiz – mustaqil O'zbekiston davlatida qayta tiklandi. Amir Temurning qadr-u qimmati xalqaro miqyosda joyiga qo'yildi. Xalqimiz boy o'tmishi, jahonni lol qoldirgan tarixi, beqiyos madaniyati, ulug' ajdodlari merosini yana bir bor jahonga namoyon qildi. Bu buyuk kelajak sari sobitlik bilan borayotgan xalqning ma'naviy hayotida unutilmas ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Olti yillik muddat – tarix uchun bir lahza, bamisoli bepoyon osmon kengliklarida chaqnagan chaqin kabidir. Biroq, istiqlolning murakkab, dolg'alarga to'la, ziddiyatli bir paytida xalqimiz boy ma'naviyatini, mislsiz iqtidorini, beqiyos irodasini yaqqol namoyon qildi. Ayni ana shu muddatda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, sobiq ittifoq bir-biriga ulab tashlagan moddiy zanjirlar uzilgach, ularning o'rnini qoplaydigan yangi imkoniyatlarni izlab topish lozim edi.

Mustaqillik davri tom ma'noda hazrati Temurning qayta tug'ilish davri bo'ldi. U bobokalonimiz vasiyatlarining ro'yobga chiqayotgani bilan alohida qimmatlidir. Amir Temurga munosabat, uning tarixiy xizmatini munosib baholash va izzatini o'rniga qo'yishda shaxsan Prezident I.Karimovning o'zi tashabbuskor bo'ldi. Barcha tadbirlarning borishini kuzatib madad berib turdi. Sohibqiron kunlarini dunyoviy voqeaga aylantirishga butun imkoniyatini ishga soldi. Endi haqli savol tug'iladi: Xo'sh, Amir Temur Islom Karimovga nima uchun kerak? Buni Prezident quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida ong-u shuurimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularimizni qayta tiklash, millatni millat, davlatni davlat qilish kerak. Endi tafakkur va tushun-chalarimizdagi parokandalikkka barham berib, milliy zamin va milliy

ruh haqqi-hurmati uchun birlashishimiz kerak. Uning: «Bizkim mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Bizkim millatlarning eng qadimi va eng ulug'i – turkning bosh bo'g'inimiz», degan gaplari qadimiy xalqimizning milliy tuyg'usini, buyuk va jahonshumul an'analarga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g'ururini, milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa ana shu ko'hna tarixning buyuk cho'qqisidir.

Uchinchidan, farzandlarimizni, kelgusi avlodni ulug' ajdodlarimizning nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, ularni ana shu buyuk an'analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash, milliy g'ururini yuksaltirish uchun kerak. Shu ma'noda sohibqironning: «Aziz-avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlug' qadamjolarni ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz deb bilur edim», degan gaplari bugungi kunda yurtimizda ulug' ajdodlarga, olim-u fozil bobolarimizga munosabatimizning tarixiy uyg'unligini ko'rsatib turibdi.

To'rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik, huquqiy, qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun, «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun kerak. Yangi jamiyat, yangi hayot, yangi tafakkur, qolaversa, butun davlatchilik asoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o'zbek xalqiga tog'day tayanch bo'lib xizmat qiladi, uning olijanob ishlariga beqiyos safarbarlik ruhini baxsh etadi.

Beshinchidan, bu benazir qadriyat mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

2000–2004-yillar mobaynida Shahrisabz va Termiz shaharlarining 2700 yilligini yubileylari keng nishonlandi. 2006-yili Qarshi shahrining 2700 yillik to'yi nafaqat milliy tariximiz, balki umumbashariy taraqqiyot tarixida beqiyos o'rin egallaydigan ulug' ajdodimiz, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning 670 yillik tavallud ayyomi bilan birga nishonlandi. Bu ham bevosita Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan milliy madaniyatimiz va umuminsoniy qadriyatlarning o'ziga xos ko'rinishidir.

4-§. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi

Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim.

Bu borada avvalo 80-yillar oxiridagi ba'zi nomaqbul yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib o'tish kerak. 1986-yil yanvar-fevralda O'zkompartiyaning XXI syezdi bo'ldi. Syezdda «din millatchilik va shovinizmga har doim yo'l ochishini iqtisodiy, sotsial taraqqiyotga to'sqinlik qilishini, sotsialistik turmush tarzi, kommunistik ma'naviyatning qaror topishiga to'sqinlik qilishini har doim esda tutmoq kerak» – deb ko'rsatma berildi. Bunday yo'l-yo'riq 1986-yil oktabr oyida bo'lgan partiya Markaziy Komitetining III Plenumida yana bir bor ta'kidlandi.

Ana shu ko'rsatmalarga amal qilinib, 1980-yillar o'rtalarida o'zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo'yildi, ba'zilarining o'rniga boshqa bayramlar va marosimlar to'qib chiqarildi. Natijada avvallari nishonlanadigan «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Gul sayli» va boshqa xalq bayramlari unutib qo'yildi. «Navro'z» bayrami esa avval taqiqlandi, so'ng sun'iy tarzda «Navbahor» bayramiga aylantirildi.

O'ylamay, xalq bilan maslahatlashmasdan qilingan bunday nojo'ya harakatlar xalqning dilini qattiq og'ritdi. Ana shunday bir paytda Respublika rahbarligiga kelgan I.A.Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor berdi.

Bu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Darhaqiqat avlodlarimiz Navro'zni juda muqaddas bilganlar, uni g'oyat qadrlaganlar. Shuning uchun ham bu shodiyona kunlarda inson dilini og'ritish juda qattiq gunoh hisoblangan. Bir-birlarini muborak ayyom bilan qutlab, yaxshi tilaklar izhor etganlar. Gina-kuduratlar unutilgan, adovat o'rniga ezgulik tuyg'ulari jo'sh urgan. Ana shu el ardoqlagan, avloddan-avlodga o'tib kelgan azaliy an'ana yana hayotdan mustahkam joy ola boshladi.

Navro'zni xalqning sevimli bayramiga aylanib ketishi ma'lum. Ushbu shodiyona – Navro'z kunlarida qadimda, hatto, urushlar ham to'xtatilgan, el-yurt osoyishta hayot kechirgan. Navro'z go'zallik va yaxshilik, mehr-oqibat, muruvvat bayrami sifatida qadrlangan. Bu qadimiy bayramni xalqimiz nihoyatda orziqib kutishining yana bir boisi shundaki, Navro'z rizq-ro'zimiz bo'lmish dehqon yilining boshlanishi hamdir.

O'zbekistonning hamma joylarida har yili «Navro'z» tantanalarini har qachongidan ham shod-u xurramlik bilan kutib oladilar. Paxtakorlar-u chorvador, bog'bon-u sohibkorlar, sanoat, transport xodimlari, quruvchilar va ziyolilar Navro'z kayfiyati bilan astoydil mehnat qiladilar.



Yengil sanoatning zalvorli odimlari.



Toshg‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘li–asr qurilishi.



Qo‘ng‘irot soda zavodi—Markaziy Osiyoda yagona.



«Sho‘rtangazkimyo» majmuyi O‘zbekiston sanoatidagi mo‘jiza.



Energetika taraqqiyot tayanchi.



O'zbekiston dunyoning o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lgan sanoqli davlatlardan biri.



Prezident I.Karimov Buxoro neftni qayta ishlash zavodini foydalanishga topshirish paytida.




«Royson» qo'shma korxonasi – eng mukammal maishiy xizmat uskunalari ishlab chiqarayotgan korxonalardan biri.



Zamonaviy kollej va litseylar.



Sohibqiron Amir Temur haykali — milliy g'urur timsoli.



Qadimiy Buxoroning 2700 yillik tantanasi.




Ko‘hna Xorazmda o‘rnatilgan Jaloliddin Manguberdi haykali.



Alpomish yurtiga qaytdi.




Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Prezident I.A.Karimov g'oyasi asosida yaratilgan "El-yurt tayanchi" yodgorligi.



O‘zbekiston Qahramoni, yog‘och o‘ymakorligi san’atining betakror namoyandasi Abdug‘ani Abdullayev.



Xalq amaliy san’ati — millat qiyofasi.



Do‘ppi tikdim, ipaklari tillodan...



Xush kelding, o‘zligim – Navro‘zjon!



Bayram nashidasi.



Afsonalar, rivoyatlar va haqiqatlar. Naqadar muqaddassan, ozodlik!




Mustaqillik bayrami – eng ulug', eng aziz bayram!



«Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur». Bolalar sportining bosh homiysi Prezident I.A.Karimov bo'lajak chempionlar orasida.



Go'zallik, nafosat sportining mitti yulduzlari.



Ozod yurtning baxtli bolalari.

Qadimiy xalq bayrami — Navro'zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma'qullab, ko'tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

«Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qo'shnichilikka, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham bo'lishga intilishlari tiklanishning qudratli omili bo'lmoqda. Navro'z xalq bayramining insoniy va baynalmilal mohiyati ham ana shundadir», — deyiladi O'zbekiston Prezidentining «Navro'z xalq bayramini o'tkazish yakunlari to'g'risida»gi Farmonida.

Har bir jamoa, muassasada nishonlanadigan bunday bayramlar, kishilarda xalqimizning qadimiy an'analariga hurmat, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Bundan tashqari ma'naviy hayotdagi yana bir talay, aniqrog'i diniy bayramlar, hayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ham ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishidir. Sir emas, sho'ro tuzumi sharoitida «din-afyundir» degan kommunistik shior hukm surib keldi. Shu darajaga borildiki, dindorning ma'naviy huquqi cheklandi. Bunday bir tomonlamalik ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'nggi tarixiy o'zgarishlar bunday qarashlar asossiz ekanligini ko'rsatdi. Shu yillar mobaynida butun musulmon olami O'zbekistonda vijdon erkinligi, diniy ibodat uchun keng imkoniyat ochilganini tan oldilar.

Yevropalik allomalardan biri «Nur — Sharqdandir», degan ekan. Buni har xil talqin etish mumkin. Birov uni quyoshning Sharqdan chiqishiga yo'ysa, boshqa birov majoziy ma'noda ezguliklar, olamning yangilanishi, hayot taraqqiyoti, insoniyat tafakkuri Sharqdan, deb tushunadi.

Bizning tasavvurimizcha, har ikki holatda ham Nur — Sharqdandir.

Sharqdan taralgan ilm-ma'rifat dunyoni munavvar etgani, insoniyat tarixida, odamzod taqdirida buyuk o'zgarishlarga sabab bo'lgani sir emas. Sharqning ajralmas qismi bo'lmish go'zal diyorimiz xalqlari hayotida, ularning ong va tafakkuri shakllanishida dunyoviy ilmlar qatorida islom dinining alohida o'rni bor. Bu ilohiy ta'limot olamni anglash, dunyoviy tafakkur, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni idrok etish borasida beqiyos ahamiyatga ega. Butun jahon ahli diqqatini tortgan boy va rang-barang madaniy-ma'naviy merosimiz ikki qudratli to'lqin — dunyoviy ilmlar va diniy-falsafiy tafakkurning o'zaro uyg'unlashib, yagona, barkamol qadriyat peshvosining ma'naviy qiyofasi, siyosatdagi adolat mezoni, so'z va fikr erkinligi kabi murakkab ijtimoiy masalalar xususida ham benihoya hayotiy tajriba va saboqlar beradi. Shu bois ham bu o'lmas qadriyatlar bugungi yangi davlatchiligimiz qurilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Agar biz bosib o'tilgan istiqlol yo'limizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, ozodlikning ilk onlaridan boshlaboq dinga munosabat, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi. Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston dunyoviy davlat, binobarin, mamlakatimizda din davlatdan ajratilgan. Ammo respublikamiz rahbariyati bu masalaga oqilona yondashib, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajratilmaganini, xususan, O'zbekiston singari qadimiy va barqaror diniy an'analarga ega mamlakatda bu borada g'oyat noziklik va ehtiyotkorlik bilan ish yuritish lozimligini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetdi.

Shuning uchun ham bugun ko'p millatli mamlakatimizda hech qaysi din vakillarining diniy nafsoniyatlarini kamsitmagan holda, ayni vaqtda diniy hissiyotlarni avj ham oldirmasdan, og'ir-vazmin, uzoqni ko'zlangan siyosat amalga oshirilmoqda.

Bu siyosat mohiyati ilk marta Prezidentning quyidagi fikrlarida aniq-ravshan belgilab berilgan edi: **«Din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Bu dunyoning o'tkinchi ekanini ta'kidlab, odam bolasini hushyor bo'lishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi.**

Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz, diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga doimo jiddiy e'tibor beriladi. Ayni zamonda biz din peshvolariga, o'zimizga o'xshagan musulmon birodarlarimizga bir narsani takror va takror uqtirmoqchimiz: din o'z yo'li bilan, davlat o'z yo'li bilan. Diniy partiyalar tuzib, hokimiyat talashib yurishlar xudoga ham yoqmaydi. Islom dini insonlarni kamtarlikka, kamsuqumlikka undaydi. Musulmon farzandi kechirimli bo'ladi. Musulmon farzandi birovni kofir, birovni xudojo'y deb toifalarga ajratmaydi... Sababi, bandasining ustidan bandasi emas, xudoning o'zi hukm chiqaradi. Shunday ekan, bir-birimizni behuda ayblab, men musulmon, sen kofir deb talashib yurishlar bizga to'g'ri kelmaydi.

Hamma ahil, hamma pokiza bo'lib yashasin, kimning fazilati qancha, kimning gunohi qancha ekanini Yaratganning o'zi ajrim qilib beradi».

Qachonki kishi o'zligini anglamasa, o'z vijdoni bilan yuzma-yuz turmasa, iymon va e'tiqod oldida hisob bermasa, qo'shnisi, mahallasi, jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini his etmasa, bunday odam insonlik sharafiga munosib bo'lmaydi.

Prezident I.Karimov siyosiy vaziyat nihoyatda qaltis va nozik bir paytda yuqorida eslatilganidek, nutq va ma'ruzalari bilan odamlarning nozik tuyg'ulariga ta'sir etdi, ularni uzoq yillik karaxtlik va g'aflatdan uyg'otdi, fikrlashga, o'z taqdiri va farzandlari istiqboli haqida qayg'urishga da'vat etdi. Bu bilan u, **birinchidan**, mamlakat aholisini ruhiy-ma'naviy poklanishiga imkon yaratdi. **Ikkinchidan**, mamlakatdagi tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikka o'ziga xos zamin yaratdi.

Kremlning asabiy jazavalariga qaramay, yurtimiz hali sovetlar iskanjasida turgan og'ir kunlapda Prezidentimiz xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. Farmon yurtdoshlarimiz ruhiyatida ulkan ijobiy o'zgarish yasadi: uni to'laligicha diqqatingizga havola etamiz:

«Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida

1. ...O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining O'rta Osiyo regionida istiqomat qiluvchi 500 kishidan iborat bir guruh musulmonlarni 1990-yilning 19-iyunidan boshlab 10-iyuligacha haj qiluvchilar sifatida Saudiya Arabistoniga yuborish to'g'risidagi iltimosiga rozilik berilsin.

2. O'zbekiston Grajdan aviatsiyasi boshqarmasi haj qiluvchilarni kelishilgan marshrut bo'yicha Jidda shahriga (Saudiya Arabistoni) olib borib qo'yish va olib kelishni tashkil etsin. Ana shu maqsadlar uchun Il-86 va Il-62 samolyotlari ajratilib, ularni doimiy istiqomat joylariga yetkazib qo'yishni ham ta'minlasin.

3. O'zbekiston SSR Ichki ishlar ministrligi ruxsatnomalar va qayd etish bo'limi, O'zbekiston Tashqi ishlar ministrligi O'zbekiston Respublikasi bojxonasi SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi O'zbekiston SSR bo'yicha diniy ishlar kengashi bilan birgalikda tegishli yo'l hujjatlarining jadal rasmiylashtirilishini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash ministrligi haj qiluvchilarga zarur dori-darmonlar ajratib, haj joylarida bo'lish davrida ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston SSR Savdo ministrligi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi bilan birgalikda yodgorlik buyumlari, esdalik sovg'alari xarid etishda haj qiluvchilarga ko'maklashsin.

6. Toshkent shahar ijroiya komiteti musulmonlar diniy boshqarmasining talabnomasiga ko'ra haj qiluvchilar jo'nab ketishi oldidan va Saudiya Arabistonidan qaytganidan keyin ularning Toshkent shahridagi mehmonxonalarda joylashtirilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Prezidenti ***I.Karimov***

Toshkent shahri,
1990-yil 2-iyun.»

Albatta, biz so'z yuritayotgan davr 1989–1991-yillardagi ijtimoiy-siyosiy muhit nuqtayi nazaridan qaraganda, respublikamiz rahbarining bunday qat'iy xatti-harakatlari Markazdagi «katta og'alarimiz»ga aslo ma'qul tushmas edi. Shuning uchun ular Tojikiston, Ozarbayjon,

Gruziya, Armaniston va boshqa bir qator ittifoqdosh respublikalarda turli yo'llar bilan uyushtirilgan qonli fojialarning O'zbekistonda ham tashkil etish uchun makkorona va qabih rejalar tuzdilar, bor imkoniyatlari bilan bu manfur niyatlarni amalga oshirishga urindilar. Buning uchun ular o'zlari vujudga keltirgan og'ir ijtimoiy vaziyatdan, milliy his-tuyg'ulardan, o'z oramizdan chiqqan ayrim munofiq kimsalardan foydalanmoqchi bo'ldilar.

Prezident Islom Karimov va uning boshchiligidagi hukumat ana shunday murakkab va og'ir sharoitda o'z xalqining dardiga quloq solish, uning muammolarini zudlik bilan hal qilish orqaligina mamlakatni tanglik va bo'hrondan olib chiqish mumkinligini anglab yetdi va bu mushkul vazifani ado etishga qat'iyat va shijoat bilan kirishdi.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F a r m o n i

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha komitet tashkil qilish to'g'risida

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asoslanib, fuqarolarning din erkinligi va diniy ehtiyojlarini hurmat qilib, shuningdek diniy tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash va uzviy hamkorlikni ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha komitet tashkil qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, komitet o'z faoliyatini «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa tegishli qonun hujjatlari talablariga qat'iy amal qilgan holda olib boradi.

3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha komitet zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish yuklansin:

– davlat organlarining respublika hududida joylashgan diniy tashkilotlar bilan bahamjihat harakati va hamkorligini o'rnatish;

– diniy masalalarni hal qilishda viloyatlar, shaharlar va rayonlarning hokimlari bilan birgalikda yagona siyosatni o'tkazish;

– qonunda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan respublikadagi diniy tashkilotlarning manfaatlarini davlat siyosatida ifoda etish.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi ushbu Farmonga asoslanib bir hafta muddat ichida diniy

ishlar bo'yicha komitet to'g'risidagi tegishli qarorni qabul qilsin va uning nizomini tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ***I.Karimov***

Toshkent shahri,
1992-yil 7-mart.

Musulmon hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayitlari kunlarini bundan buyon doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni, deb e'lon qilish to'g'risida» quyidagi Farmoni e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F a r m o n i Ro'za hayitini dam olish kuni, deb e'lon qilish to'g'risida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram – Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish kuni, deb tayinlansin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ***I.Karimov***

Toshkent shahri,
1992-yil 27-mart.»

Bu O'zbekiston xalqi o'zining yangi yetakchisi amalga oshirayotgan xalqparvar siyosatni qo'llab-quvvatlay boshladi. Bu borada islom olamining zabardast allomalari – vatandoshlarimiz imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi va Xoja Ahrori Valiyning 600 yilligi, Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi, keng ko'lamda nishonlanishi yurtimizda iymon, din-u diyonat qaytadan yuksalayotganiga yorqin dalil bo'ldi. Bu aziz va mukarram zotlarning bebaho asarlari qayta chop etildi, nomlari abadiylashtirildi.

Jamiyat a'zolarining vijdon erkinligini ta'minlash, ularning o'z diniy marosim va urf-odatlarini ado etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Yangidan-yangi masjid va madrasalar qurish, eskilarini tiklash – ta'mirlash bo'yicha amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Ayni chog'da bu borada bir holatni alohida ta'kidlash joizdir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha fuqarolar

uchun vijdon erkinligini kafolatlaydi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Ayni chog'da O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi, deb yozilgan. Biroq, keyingi yillarda bu talablar hamma joyda ham birday bajarilmagan hollar yuz berdi. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, oila a'zolari atrofdagilarga va o'z yaqinlariga tazyiq ko'rsatib, masjidga borishga, diniy rasm-rusumlarni bajarishga majbur qilayotgan misollar uchray boshladi.

Bunday harakatlarning tashabbuskorlari «vahhobiychilik», deb atalmish diniy oqim vakillari edi. Bunday oqimga mansub kishilar ko'pincha o'zlarining qonunga xilof xatti-harakatlari bilan jamiyatdagi ishlarning ahvoliga ta'sir ko'rsatishga intildilar. O'z mohiyatiga ko'ra «vahhobiychilik» islom aqidaparastligining oshkora ifodasi bo'lib, unda diniy fanatizm va ekstremizmning barcha unsurlari mavjuddir. Bunday unsurlar esa turli diniy e'tiqoddagi fuqarolar o'rtasidagi va umuman jamiyatdagi munosabatlarni keskinlashtirishga qaratilgandir.

Mamlakatimizda «vahhobiychilar» o'z g'arazli maqsadlarini ko'zlab hokimiyatning qonuniy faoliyat ko'rsatayotgan organlari va mansabdor shaxslarga zug'um o'tkazgan, sal bo'lmasa davlatga qarshi yashirin faoliyat-ni tashkil etishga uringan hollar ham ma'lum bo'lib qoldi. Albatta, ular o'z jinoiy xatti-harakatlari uchun qonun oldida javob berdilar.

Shu munosabat bilan jamiyatimizda har bir kishining vijdon erkinligini va dinga e'tiqod qilish huquqini ta'minlash, dinga muno-sabatidan qat'i nazar har bir fuqaroning tengligini ta'minlash ishida hanuzgacha ba'zi bir kamchiliklar mavjudligini hisobga olgan holda O'zbekiston Oliy Majlisi XI sessiyada (1998, aprel) «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni yangi tahrirda qabul qildi.

Mustaqillik sharofati bilan «Islom nuri» haftanomasi dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, imom Buxoriyning to'rt jilddan iborat, imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur'oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi. Bundan tashqari, hadis va shar'iy ilmlarga doir ko'pgina asarlar ona tilimizga o'girildi va ming-minglab nusxalarda chop etildi.

2004-yili esa Toshkent Islom Universitetida Qur'oni Karimning shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izohli va maxabatli nashri tayyorlandi hamda chop etildi.

Ayni paytda mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy Madrasa, Toshkent shahrida esa Toshkent Islom Universiteti, Xalqaro Islom tadqiqotlar markazi, Imom Buxoriy nomidagi Islom

ma'hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-maydagi qarori bilan Toshkent shahrida islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etildi. Mazkur markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadriyatlarimizni va haqiqiy islom ta'limotini yetkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o'rganish, nodir qo'lyozma asarlarni tadqiq etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir. Mamlakat televideniyesi orqali berilayotgan «Ma'rifatnoma» ko'rsatuvi xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda, diniy ma'rifatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. 1991–2007-yillarda 50 mingdan ziyod hamyurtlarimiz ana shu muqaddas qadamjolarni tavof qilib qaytish sharafiga muyassar bo'ldilar. Birgina 2006-yilning o'zida 5 mingga yaqin musulmonlar Makkai munavvara va Madinai mukarramaga safar qildilar.

Prezident Islom Karimov 1992-yili Saudiya Arabistoni podshohi Fahd ibn Abdul Aziz as-Saud taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Podshoh oliy martabali mehmonni katta obro' va izzat-ikrom bilan kutib oldi hamda kisvo – muborak Ka'ba uzra yopilgan yopinchiqni hadya etdi. Albatta, bu qutlug' hadya diyorimiz musulmonlarining islom taraqqiyotiga qo'shgan olamshumul hissalari, ayni vaqtda Prezidentimizning yurtimizda islomiy arkonlarni tiklash borasida amalga oshirayotgan ulkan xizmatlari uchun o'ziga xos bir ehtirom ramzi edi. Bunday tabarruk sovg'a qabul qilingan qoidaga ko'ra juda kamdan-kam odamlarga – eng mo'tabar shaxslarga nasib etadi. O'z navbatida davlatimiz rahbari bu muqaddas ka'bapo'shni mamlakatimizdagina emas, balki, butun musulmon dunyosida mashhur qadamjo-ziyoratgoh hisoblanuvchi Muhammad Ismoil Buxoriyning Samarqand viloyatidagi masjid-maqbarasiga tortiq qildi. Buning, albatta, teran tarixiy-ramziy ma'nosi bor.

Prezident Islom Karimovning ma'naviy va ruhiy poklanish, yuksak insoniy barkamollik sohasida amalga oshirayotgan ishlarning miqyosi faqat shular bilan cheklanmaydi. U mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakat aholisi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, islom dini ravnaqiga qanchalik keng yo'l ochib bergan bo'lsa, sovetlar tuzumi davrida yurtimizning xorijiy islom mamlakatlari bilan butunlay uzilib qolgan aloqalarini yangitdan yo'lga qo'ydi. Bu aloqalar o'zaro iqtisodiy va madaniy munosabatlarni chuqurlashtirish asosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, dini va dili bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar

o'rtasida manfaatli hamkorlikni ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz. Islom Karimovning Turkiya, Eron, Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Misr singari mamlakatlarda bo'lishi O'zbekiston musulmonlari hayotida o'chmas iz qoldirdi. Albatta, bular bugungi kun o'lchovi bilan qaraganda, tabiiy bir jarayonga o'xshaydi. Biroq, har bir hodisani o'z vaqtida baholasak, u ro'y bergan yo amalga oshirilgan vaziyat va sharoitni chuqur tahlil etsak, mazkur safarlarning naqadar katta tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy voqea bo'lganini anglash mumkin.

Mamlakat rahbarining diniy masalalarga munosabatining insonparvarlik mazmuni shundaki, u dinni yuksak madaniyat va ma'naviyat quroli, beqiyos axloq maktabi sifatida baholaydi:

«Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat, o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan.

Din xalq ma'naviyatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak».

Ko'p millatli mamlakatda dinga munosabatning o'ziga xos tomonlari bor. Aholining turli tabaqalarini umumiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etish, diniy mahdudlik va aqidaparastlikni avj oldirmaslik, jamiyat a'zolari o'rtasida yagona zamin, yagona makon taqdiriga javobgarlik hissini kuchaytirish kabi vazifalar siyosiy arbobdan g'oyat mas'uliyat va mulohaza bilan ish yuritishni talab qiladi. Jumladan, millatlararo munosabatlarni barqaror saqlash va rivojlantirishda din omili muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, baptistlar, yahudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, bahoichilar, krishnaitlar, buddistlar, pyatidesyatniklar, Iyegova xudosi shohidlari, yangi havvoriylar, xristian-nresvitorianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, tartib-qoidalari, muayyan diniy qavmning hayot tarzi va dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari mavjud. Ana shunday xilma-xillikdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega», degan qoida kiritilgan (31-modda) . Bu O'zbekiston hukumati va uning boshlig'i olib borayotgan siyosiy yo'lning qonuniy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent va O'rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimirning Свято-Успенский kafedral sobori qoshida diniy-ma'muriy markaz tashkil etish va 1996-yil noyabr oyida

Yeparxiyaning 125 yilligini nishonlash to'g'risidagi murojaatini qo'llab-quvvatladi va bu haqda alohida qaror qabul qildi. Qarorda Toshkent shahridagi Свято-Успенский sobori hududini kengaytirish uchun ikki gektar yer ajratish, budjet mablag'i hisobiga uni obodonlashtirish ko'zda tutilgan.

130 ga yaqin millat va elat istiqomat qilayotgan, aholisining ruhiy va ma'naviy ehtiyojlari rang-barang bo'lgan O'zbekistonday mamlakatda tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, insonni ulug'lash davlat siyosatining bosh yo'nalishidir.

1991-yilning 6-noyabr kuni Termizda o'tkazilgan «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligini YuNESKO ijroiya qo'mitasining maxsus qaroriga binoan xalqaro miqyosda keng nishonlanishi milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar tiklanishining eng oliy cho'qqisi, deb aytishimiz mumkin.

Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida»gi, «Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chiqargan qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. (Qarang: «Qishloq hayoti», 1999-yil 14-dekabr; «Xalq so'zi» 2000-yil 20-yanvar)

2003-yili esa Naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi. Uning minbari joylashgan G'ijduvon shahri butunlay obod etildi.

Shunday qilib istiqlol yillarida mamlakatda yuksak ma'rifiy-madaniy jamiyat qurish, har tomonlama barkamol Vatanni shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Bu esa O'zbekiston hukumati olib borayotgan madaniy-ma'rifiy siyosatning olijanob mohiyatidan dalolat beradi.

Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri — Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti, deb e'lon qildi.

O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkeng shunday yuksak va faxrli unvonga sazovor bo'ldi.

Haqiqatan ham, mustaqil O'zbekistonning poytaxti musulmon dunyosida o'ziga xosligi, mahobatli madrasa va masjidlarining binolari, minglab nodir qo'lyozmalarga boy bo'lgan kutubxonalari, islom uyg'onishi davrining buyuk ustalari, alloma va me'morlari ijodiga mansub namunalari ko'z qorachig'iday avaylab-asralayotgan muzeylari bilan butun dunyodan kelayotgan mehmonlarini hayratga soladi. Toshkentda Imom al-Buxoriy nomli Toshkent islom instituti, Ko'kaldosh nomidagi madrasa va Prezident

I.Karimov tashabbusi bilan barpo etilgan Toshkent islom universiteti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ta'lim muassasalari diniy ulamolar, dinshunoslar, islom huquqi va manbashunoslik, jahon iqtisodiyoti va informatika mutaxassislarini tayyorlaydi. O'z yo'nalishi bo'yicha MDH hududidagi yagona oliy o'quv yurti bo'lgan Toshkent islom universitetida juda ko'p marotabalab din va siyosat, bag'rikenglik hamda zamonaviy dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, seminar va davra suhbatlari bo'lib o'tgan.

Jahondagi minglab shaharlar orasidan aynan Toshkent 2007-yilda Islom madaniyatining umumjahon poytaxti, deb tanlandi. Toshkent nomzodining tanlanishida ISESCO birinchi galda respublika rahbariyatining o'zbek xalqi madaniy va ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklashga yo'naltirilgan siyosati, shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan islom sivilizatsiyasi yodgorliklarini himoya qilish va ko'z qorachig'iday asrash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar e'tiborga olindi.

Shuningdek, ISESCOning bunday to'xtamga kelishi Osiyo qit'asidagi eng ko'hna shaharlardan biri – boy madaniyatga ega bo'lgan Toshkentning dunyo taraqqiyoti tarixida alohida o'rin tutishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkentga 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti maqomining berilishi xorijiy mamlakatlarning Toshkentdagi diplomatiya vakolatxonalari hamda xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari rahbarlari tomonidan keng va qizg'in sharhlanmoqda.

YuNESKOning Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari Maykl Barri Leyn O'zbekiston bosh kentining Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilinishi munosib maqom, deb baholadi.

– Toshkentda «Jahon madaniyati yodgorliklari» ro'yxatiga kiritilgan Usmon qur'oni hamda Beruniy kutubxonasi saqlanmoqda, Baroqxon, Ko'kaldosh madrasalari, Qaffol Shoshiy, Shayx Xovand Tohur, Yunusxon, Zangi ota yodgorlik majmualari binolari asrab-avaylab kelinmoqda. 2007-yilda ushbu muhim voqea munosabati bilan YuNESKO Markaziy Osiyo islom merosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani Toshkentda o'tkazishni rejalashtirmoqda, – deb ta'kidladi YuNESKO vakolatxonasining rahbari.

– Toshkentda istiqomat qilayotgan har bir inson shaharning madaniy va tarixiy muhitini qalban his qiladi, – deydi **BMT Aholi zichligi fondi (YuNFPA)ning O'zbekistondagi vakili Xolid Filbi.** – Muzeylar va madrasalarning mahobatli binolari, Toshkent islom universiteti faoliyatida aks etayotgan sermazmun islom madaniyati shaharni butun Osiyo qit'asidagi eng yorqin islom madaniyati markazlaridan biri, deb e'tirof etilishiga sababchi bo'lgani tabiiydir.

Uzoq tarixdan boshlaboq musulmon dunyosi tarixida asosiy o'rinlardan birini egallab kelgan, jahonga Buxoro, Samarqand, Xivani

tuhfa etgan O'zbekistonning go'zal poytaxti eng muhim islomiy markazlardan biri, deb e'tirof etilishiga har tomonlama munosib.

– Ushbu to'g'ri va adolatli qarorning qabul qilinishi O'zbekistonning boy islomiy madaniyati bilan bog'liq ekanligiga shubha yo'q,–dedi **Fransiyaning O'zbekistondagi elchisi Jan Bernar Art** ISESCO qarorini sharhlar ekan. – Musulmon olamining jahonga mashhur qator olimlari, faylasuf va shoirlari ushbu mamlakat hududida yetishib chiqqanlar. Toshkentning islom madaniyati poytaxtlaridan biri, deb tan olinishi jahon jamoatchiligiga O'zbekistondagi boy islomiy meros bilan yaqindan tanishish imkonini berishiga shubha yo'q.

«O'zbekiston bunday e'tirofga loyiqdir, – deydi **Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchisi Devid Moran**. – Musulmon olamining eng muhim yodgorligi – Usmon qur'oni O'zbekistonda saqlanadi. Toshkentning islom madaniyati poytaxtlaridan biri, deb e'tirof etilishi G'arb jamoatchiligida uning boy va o'ziga xos tarixiy-madaniy hamda ma'naviy merosiga qiziqishni kuchaytiradi. O'zbekiston xalqi Toshkent bilan bir qatorda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ulug'vor hamda go'zal shaharlari bilan har qancha faxrlansa arziydi.

– Toshkentning o'tmishi va qadimdan saqlanib kelayotgan boy merosini e'tiborga olgan holda mazkur qaror adolatli qabul qilingan, deb hisoblayman.

O'zbekiston shaharlari islom dini va madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'plab me'morchilik yodgorliklari ila dunyoda nom taratgan. Qadimiy Buxoro va Samarqand shaharlari ham Toshkent bilan bir safda joy olishga sazovordir.

Iordaniyaning Toshkentdagi Muvaqqat ishlar vakili Muhammad Yusef Balqar Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkilotining qaroriga binoan Toshkent shahri 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilinganligi to'g'risidagi xabarni mamnuniyat bilan qabul qilganini ta'kidladi.

Shu o'rinda dedi M.Balqar, O'zbekistondagi Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari hamda ularda yashab ijod qilgan al-Xorazmiy va al-Buxoriy kabi buyuk allomalari islom madaniyati va ilm-fanining rivojiga ulkan hissa qo'shganliklarini aytib o'tishni istar edim.

Men o'tgan yili Qarshi shahrining 2700 yilligi va Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etish sharafiga muyassar bo'ldim. O'zbekistonda islom sivilizatsiyasining moddiy va ma'naviy meroslaridan bo'lgan nodir yodgorliklarni saqlash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar menda katta taassurot qoldirdi.

Fikrimcha, faqat 2007-yil bilan cheklanib qolmasdan, Toshkent shahrining musulmon madaniyatining rivojidagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqib, unga islom madaniyatining doimiy poytaxti, degan maqomni berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mavzuga doir materiallar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga

Assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuhu.

Toshkent shahrining 2007-yilda Osiyo qit'asidan islom madaniyatining poytaxti, deb e'lon qilinishi munosabati bilan Siz, Janobi Oliylarini Islom konferensiyasi tashkiloti nomidan muborakbod etish menga ulkan mamnuniyat baxsh etadi.

Toshkent ushbu yuksak va faxrli unvonga O‘zbekistonning islom madaniyati va fanidagi beqiyos o‘rni, yodgorliklarni asrab-avaylash hamda islom merosini yanada boyitish borasidagi ulkan xizmatlari uchun loyiq, deb topildi. Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Xalqaro islom tashkilotining (ISESCO) bu qarori Osiyo durdonasi bo‘lmish Toshkent shahrining boy tarixi va madaniyati fan, san'at hamda jahon sivilizatsiyasida alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham izohlanadi.

Ushbu quvonchli voqeaning nishonlanishiga bag‘ishlangan tadbirlar dunyo hamjamiyatiga o‘zbek xalqining ko‘hna va boy merosi bilan yaqindan tanishish imkonini berishi hamda sivilizatsiyalar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qilishiga ishonchim komil.

Islom konferensiyasi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi rahbariyatining ma'naviy va milliy qadriyatlarni tiklash, boy tarixiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosni o‘rganishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yuksak baholaydi.

Fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliylariga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, O‘zbekiston xalqiga yanada yuksak taraqqiyot va farovonlik tilab qolaman.

Kamoli ehtirom bilan,

Akmaliddin EHSON o‘g‘li,
Islom konferensiyasi tashkiloti
Bosh kotibi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga

Aziz Toshkent shahrining islom dunyosining madaniy poytaxti sifatida e'tirof etilishi Toshkent hamda buyuk O‘zbekiston xalqining nafaqat islom tamaddunida, balki butun Sharq madaniyati va san'atida yetakchi o‘rin tutishidan yana bir dalolatdir.

Siz, Janobi Oliylari hamda O'zbekiston hukumati va xalqiga samimiy tabriklarimni izhor etib, Yaratgan Allohdan do'st va birodar O'zbekiston-ga ravnaq ato etishini so'rab qolaman.

Ehtirom ila,

Sayyid Muhammad HOTAMIY,
Madaniyatlar va sivilizatsiyalararo
muloqot xalqaro instituti direktori,
Eron Islom Respublikasining sobiq
prezidenti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident Janoblari,

Toshkentning 2007-yilda islom madaniyatining umumjahon poytaxti, deb e'lon qilinishi munosabati bilan shaxsan o'z nomimdan va Senatning xalqaro aloqalar qo'mitasi nomidan yo'llayotgan samimiy tabrigimni qabul qilgaysiz. Ta'lim fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkilotining (ISESCO) mazkur qarori Sizning rahbarligingizda O'zbekistonda, jumladan, poytaxt Toshkentda mintaqaviy madaniyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning yana bir e'tirofidir.

Ijozatingiz bilan yana shuni ta'kidlamoqchimanki, Toshkentning islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilinishi butun Osiyo qit'asi uchun katta sharafdir.

Yaqinda Pokiston parlamenti delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurib, samarali muzokaralar o'tkazdi va biz samimiy mehmondo'stlik uchun O'zbekiston Senati va Tashqi ishlar vazirligidan g'oyat minnatdormiz. Bu samimiy mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqin do'stlik va birodarlik rishtalaridan yana bir dalolatdir.

Ezgu tilaklar bilan,

Mushohid Husayn SAID,
Pokiston Islom Respublikasi
Senatining Xalqaro aloqalar
qo'mitasi raisi.

5-§. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiya

Ma'lumki ta'lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy hayotining muhim tarmog'idir. Ta'lim asoslari O'zbekistonda uning Konstitutsiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun bilan kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni amalga kirdi.

Ta'lim sohasidagi mazkur qonunda respublikada ta'limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgani holda ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi va boshqaruvi tartibi, ta'lim-tarbiya xodimlarining haq-huquqlari, vazifalari, mas'uliyatlari, maqsadlari belgilab berildi.

Xalq ta'limi xodimlari hayotida muhim ahamiyatga molik ushbu qonun xalq ta'limi sohasini barcha yo'nalishlarda takomillashtirish, rivojlantirish ishlariga katta yo'l ochdi.

Oliy o'quv yurtlari mamlakat ta'lim tizimida yetakchi bo'g'indir. Chunki oliy maktab O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi milliy boylikning o'sishiga imkon yaratuvchi, kuchli, qat'iyatli mutaxassislar shu bo'g'inda tayyorlanadi.

Ma'lumki, sho'rolar hukumati davrida hukmron tuzum o'zining jahonda eng insoniy, eng odil va eng demokratik, eng savodxon jamiyat barpo etgani bilan maqtanib, butun jahonga jar solar edi. «Dunyodagi eng o'qimishli mamlakat», «oliy ma'lumotli mutaxassislar soniga ko'ra jahondagi birinchi davlat» degan soxta ta'riflar rasmiy va maqtanchoq mafkura orqali keng tashviq qilinardi.

Sirtdan qaraganda, haqiqatan ham manzara shunday edi. Sobiq SSSRda yuzlab universitet va institutlar, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatardi. Lekin ular, son va miqdor jihatidan ko'p bo'lgani bilan jahoniy andozalar darajasida emas edi. Buning asosiy sabablaridan biri kommunistik jamiyatda hamma narsa, jumladan, ilm-fan, maktab-maorif tizimining ham o'sha yolg'on va o'lik g'oyalarga qurbon qilinganida edi. Sovet Ittifoqini tanazzulga olib kelgan sabablardan biri ham shunda ekani shubhasiz.

Shuning uchun O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari singari ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilish vazifasi jamiyat oldida ko'ndalang bo'ldi. Chunki sho'ro hukumati boshqa sohalar singari milliy kadrlar tayyorlash masalasida ham riyokorona siyosat olib borardi. Eng nufuzli, jahon mezonlariga javob beradigan mutaxassislar yetishtiradigan o'quv muassasalari aksariyat Markazda – Rossiyada joylashgan bo'lib, ittifoqdosh respublikalar, xususan O'rta Osiyo mintaqasidan bu dargohlarga sanoqli vakillargina qabul qilinar, bunday imkoniyat chegaralangan edi. Natijada milliy respublikalarda noyob ixtisosga ega mutaxassislar yetishmaydi, degan muammo sun'iy ravishda vujudga keltirilib, bu yurtlarga ming-minglab «o'z odamlari» jo'natilar edi.

Shu bois istiqlolning dastlabki kunlaridanoq xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o'quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta'lim uslublari butunlay o'zgartirildi. Eng zamonaviy, shu paytgacha bo'lmagan eng zarur ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet

va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti kabi o'nlab yangi o'quv muassasalari tashkil etildi.

Ayni paytda xalq ta'limi tizimini ham tubdan isloh qilish boshlandi. Ilg'or mamlakatlarning tajribalari asosida va chet davlatlar bilan hamkorlikda ko'plab litsey va gimnaziyalar ochildi. Boshqacha qilib aytganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasidan akademiyagacha bo'lgan zamonaviy, yangi ta'lim tizimi vujudga keltirildi.

Viloyatlarda ham yangidan-yangi o'quv yurtlari ochildi. Prezident I.Karimovning 1992-yil 28-fevral Farmoni bilan 8 viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu respublika hukumatining izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining yana bir dalili bo'ldi. Bunday yangilanishdan ko'zda tutilgan maqsad **birinchidan**, viloyatlarda oliy universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, eng olis va chekka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirishga asos bo'ldi. Ilmiy va ma'rifiy ishlar xalq hayotiga tobora chuqurroq kirib bora boshladi. Bu mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etdi. Bevosita mehnat jarayoni bilan bog'liq odamlar endi ilmiy yangiliklardan doimo va o'z vaqtida xabardor bo'lib bordilar. Yangidan-yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, ixtirolar yaratilgan joyida tezroq ishlab chiqarishga joriy etilish imkonlari vujudga keldi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixiy-jug'rofiy jihatdan xilma-xil sharoit va iqlimga ega bo'lgan mamlakat. Buning ustiga, turli hudud xalqlari umumiy tarixga ega bo'lgani bilan ruhiyati, yashash tarzi, voqelikka munosabati, uni idrok etish jihatidan ozmi-ko'pmi farqlanadi. Bu hol bir viloyatning o'zida ham turli ko'rinishlarda ko'zga tashlanadi. Ana shunday mamlakatda har bir hududning o'ziga xos jihatlarini hisobga olmaslik mumkin emas edi.

Xususan, qadimiy Xorazm mashhur matematiklari, astronomlari, tarixchilari va davlat arboblari bilan, Farg'ona vodiysi esa dunyo tan olgan shoir-u adiblari bilan mashhurdir. Uzoq davom etgan mustamlakachilik, haddan tashqari markazlashtirish natijasida markazdan uzoqda yashaydigan aholining ilmiy-madaniy saviyasi ancha orqada qoldi. Bu mamlakat ishlab chiqarishiga, iqtisod va umuman taraqqiyotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ana shu salbiy oqibatlarni zudlik bilan bartaraf etish uchun ham joylarda universal ta'lim tizimini joriy etish hayot taqozosiga aylandi.

Uchinchidan, viloyat universitetlarining tashkil etilishi hayot bilan ilmning, nazariya bilan amaliyotning yaqinlashuviga katta yordam berdi.

Hozirgi kunda ilm-u fan sohasida ham raqobat muhiti hayotiy zarurat bo'lib qoldi. Busiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. Ilm-fandagi raqobat yangi-

yangi fikr va g'oyalarga turtki beradi, kishi dunyoqarashini kengaytiradi. Qaysi universitet o'z ixtirolari, ilmiy xulosa va ishlanmalari bilan nom chiqarsa, o'sha universitetning nufuz va e'tibori osha boradi.

To'rtinchidan, viloyatlarning kelajak taraqqiyoti ana shu hududlardagi oliy ta'lim markazlari bilan bevosita bog'liq. Viloyatlarda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun yangi sohalarni egallash, yangi ixtisosliklarni tashkil etish, zarur kadrlarni shu joylarda tayyorlash imkoniyati tug'ildi.

Oldindan markazda o'qigan kadrlarni viloyatga yuborish masalasi ancha-muncha muammo edi. Viloyatlarda universitetlar tashkil etilishi bilan bu muammoning ham yechimi topildi.

Beshinchidan, viloyatlardagi universitetlar vositasida dunyoning eng ilg'or, mashhur o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida dunyo tajribasini hayotga tezroq olib kirish, fan va texnikani yangi o'zanga burish, shu asosda mamlakat taraqqiyotini jadallashtirish imkonini berdi.

Mamlakat shaharlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Kembrij shahridagi Garvard, Stenford, Priston, Buyuk Britaniyaning Oksford, Lid, Fransiyaning Strasburg, Lion, Dijon, Grenobl shaharlari nomi bilan ataluvchi universitetlari bu mamlakatlarning poytaxtlarida emas, turli viloyatlarida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, o'zining yuksak malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatlari bilan jahonda nom qozongan.

Germaniyada esa, oliy universitet ta'limining o'ziga xos tajribasi bor.

Bu o'lkadagi eng qadimiy universitet Xaydelberg shahrida 1386-yili tashkil etilgan. XV asrga kelib, mamlakatda universitetlar beqiyos darajada rivojlandi. O'sha paytda tashkil etilgan oliy ta'lim maskanlari Leypsig, Rostok, Grayfsvald, Frayburg, Tyubingen va boshqa shaharlarda hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Ularda o'qish-o'qitish ishlari ilmiy tadqiqot bilan chambarchas bog'langan holda olib boriladi. Mamlakat taraqqiyotining katta-katta muammolari ana shu dargohlarda o'z ilmiy yechimini topadi.

Nemislar ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kam mehnat sarf qilib, ko'p va sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladilar. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, sanoatni oliy malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida Germaniyaning turli zaminlarida texnika universitetlarini yanada ko'paytirish dasturi ishlab chiqilgan. Shu boisdan mamlakat taraqqiyoti tobora tezlashmoqda.

Xalqi ma'rifatli, jahon ilm-fani va madaniyatidan xabardor mamlakatning ravnaqiga ravnaq qo'shilaveradi. Shu bois keyingi yillarda O'zbekiston rahbariyati joylarda ilm-fanni, birinchi galda, universal

oliy ta'limni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'ra boshladi. Bu maqsadlarga katta miqdorda mablag' ajratildi. Xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy ta'lim sohasida hamkorlik tobora chuqurlashib bordi. Shubhasiz, bu tadbirlar mazkur tizimda keskin burilish yasash, kelajakda mamlakatni yuksak malakali bilimdon mutaxassislar bilan ta'minlash imkonini berdi.

Albatta, birgina oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari sonini oshirish, ularda yangi mutaxassisliklar ochish bilan malakali mutaxassislar tayyorlab bo'lmaydi. Buning uchun oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga talabalar qabuli yangi tartibini joriy qilish talab qilinadi. Shu maqsadda jahonning ilg'or universitetlari tajribalarini qo'llashga kirishildi. Masalan, keyingi yillarda AQSH, Turkiya, Hindiston, Olmoniya va boshqa mamlakatlardagi oliy bilimgohlar ishi o'rganildi. Natijada oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilishning butunlay yangi tizimi vujudga keldi. Shu maqsadda respublikada davlat komissiyasi tuzilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda test sinovi o'tkazishga qaror qilindi.

Bundan tashqari ikki pog'onali o'qish tizimiga o'tilgani ham oliy ta'limni hozirgi zamon sharoitida yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirdir. Masalan, bakalavrlik darajasini olish uchun 4 yil, magistrlik darajasini olish uchun 6 yil o'qish talab qilinadi.

O'zbekiston sharoitida shunday yangi tizim uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida Nizom va Dasturlar ishlab chiqish uchun 1993-yilda 4-ta komissiya tuzildi.

Shu bilan bir qatorda, keyingi yillarda jumhuriyat oliy o'quv yurtlarida o'qitishning yangi usullarini qo'llashda ma'lum tajribalar to'plandi. Masalan, Toshkent aloqa va elektronika institutida 3 semestrlik o'qitish shakli joriy etildi. Har bir semestr 2-3 imtihon va 3-4 sinov bilan yakunlanadi. O'quv jarayoniga shu vaqtgacha amalda bo'lmagan o'qitish va nazorat usullari model va bilimni reyting bo'yicha baholash tartibi tatbiq qilindi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, u bir necha afzalliklarga ega. Xususan, dars soatlari qiyinchiliklarsiz semestrga bo'linadi, o'qituvchilar uslubiy, ilmiy ishlar bilan shug'ullanish, malaka oshirish uchun qo'shimcha vaqtga ega bo'ladilar, talabalar uchun esa bir yilda uch marotaba ta'tilga chiqishlariga imkon yaratildi. Bu tajriba tufayli institut bir muncha muvaffaqiyatlarga erishdi. Xususan, boshlang'ich kurslar talabalarining oliy ta'lim shart-sharoitlariga ko'nikishlari yaxshilandi. O'zlashtirish ham oson, ham sifat jihatidan o'sdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yoshlarga hozirgi zamon eng ilg'or bilimlarini berish, ularni davr talabiga mos mutaxassis qilib tarbiyalashda izchil ishlar olib borila boshlandi. Mustaqillik yillarida iqtidorli talabalarni xorijda o'qitish ishlari yo'lga qo'yildi. Respublikaning xalqaro

aloqalari kengayishi natijasida o'quvchilarga hukumatlararo bitimlar bo'yicha xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida bilim olish imkoniyati yaratildi.

Har yili respublikada umumiy ta'lim maktablarining test sinovlaridan o'tgan 50 dan ziyod o'quvchisi AKSYLS yo'li bilan AQSHga o'qishga yuboriladigan bo'ldi.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda talabalarning xorijda o'tadigan stajirovkalariga va qo'shma korxonalar, firmalar, auditorlik kompaniyalarida ishlab chiqarish praktikasidan o'tishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Shu kunlarda mamlakatimizdan 700 nafar talaba xorijiy mamlakat o'quv yurtlarida iqtisodiy ixtisoslar bo'yicha o'qishmoqda. Bir necha ming talaba 3 oydan bir yilgacha xorijiy o'quv yurtlarida ta'lim olmoqda.

Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilikning xususiy shakllari ishlab chiqarishini kengaytirish sharoitida o'rta hunar ta'limini yanada takomillashtirishni ham talab qila boshladi. Bu muammo, ayniqsa, qishloq joylarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloqda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun 1995-yildan boshlab qishloq yerlarida joylashgan hunar-texnika bilim yurtlari va o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyatini tubdan qayta isloh qilish amalga oshirildi.

Har bir viloyat va tumanlarda tadbirkorlik o'quv yurtlari, kasb litseylari, biznes maktablar kichik va o'rta biznes, fermerlik xo'jaliklari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun kollejlar ochildi.

Shu kunlarda 160 ta ana shunday hunar litseylari biznes-maktablari va 41 ta kollej faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 112,3 ming yigit-qiz o'qimoqda. Umuman mamlakatda xalq xo'jaligi talablari uchun 466 hunar-texnika bilim yurti kadr tayyorlab bera boshladi.

Yana shuni aytish lozimki istiqlol yillarida O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga ham katta e'tibor berildi.

Umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilarning ilmiy bilimlar olishini, mehnat ta'limi, boshlang'ich kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlari va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 9-bandiga muvofiq uch bosqichdan iborat:

– boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar);
– tayanch ta'lim (V–IX sinflar);
– o'rta ta'lim (X-XI-XII sinflar).

Ta'lim haqidagi davlat siyosatining asosiy mohiyati tayanch ta'limining (to'qqiz yillik) majburiyligidir.

Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unga binoan ta'limning yangi tizimi joriy etildi. Jumladan, uning 10-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

– maktabgacha ta'lim;
– umumiy o'rta ta'lim;
– o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
– oliy ta'lim;
– oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
– maktabdan tashqari ta'lim.

Shuningdek, mazkur qonunning 12-moddasida umumiy o'rta ta'limning quyidagi bosqichlari ko'rsatilgan:

– boshlang'ich ta'lim (I–IV sinflar);
– umumiy o'rta ta'lim (I–IX sinflar).

Xuddi shu sessiyada Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ham qabul qilindi.

1993-yil 1-yanvariga respublikada umumiy ta'lim maktablarining soni 8963 taga yetdi.

Yangi o'quv dasturlari va darsliklarini ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishda yagona mezon bo'ldi. Mamlakatda prinsip jihatdan yangi o'rta o'quv yurtlari – gimnaziyalar, ya'ni, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan maktablar tarmog'i tez rivojlandi. Masalan, 1991-yildagi 799 maktab o'rniga 1995-yilda ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan maktablar soni 3120 taga yetdi. O'quvchilarning soni 1995-yilning oxiriga kelib 205,7 ming kishiga ko'paydi. Ta'lim muassasalarining o'quv rejalari, ta'lim shakllari va usullarini ishlab chiqishda erkinlikka ega bo'lganliklari prinsip jihatdan yangilikdir.

O'quvchilar bilimini sinashda an'anaviy usullar bilan birga test sinovlaridan o'tkazish tizimi kengroq qo'llana boshlandi.

Mintaqaviy va Respublika miqyosida maktab olimpiadalari muntazam o'tkazilmoqda.

«Oliy o'quv yurtlari hududida tashkil etilgan kollejlarning yangi tizimi qisqa muddatlarda yuqori malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini ayni vaqtda shu yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga kirish uchun abituriyentlar tayyorlash imkonini bera boshladi.

Maktabgacha tarbiya O'zbekiston xalq ta'limi tizimida birinchi bosqichdir.

Bu bosqichda xilma-xil toifadagi, turlicha muassasalarni ko'rish mumkin. Ya'ni bolalar yaslilari, bolalar bog'chalari, yasli bog'chalar, sog'lomlashtirish bog'chalari, aqliy, jismoniy jihatdan nogiron bolalar bog'chalari, xonadon bog'chalari, mavsumiy bog'chalar va hokazolar shu tizimga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida hozir 9467 maktabgacha tarbiya va ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, 1,3 million kichkintoylarni o‘z bag‘riga olgan. Ularning tarbiyasi bilan 100 mingdan ortiqroq pedagog xodimlar shug‘ullanmoqdalar.

Keyingi yillarda maktabgacha tarbiya, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’limning ishlab chiqilgan konsepsiyalari asosida ta’limning barcha darajalari uchun o‘quv dasturlarining eskilari qayta ko‘rib chiqilib, yangilari ishlab chiqilmoqda.

«Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida» (05.01.98-y.), «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat standartlarini ishlab chiqarish va joriy etish to‘g‘risida» (05.01.98-y.), «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida» (24.02.98-y.), «Umumta’lim maktablari uchun darsliklar va o‘quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (04.05.98-y.), «O‘zbekiston respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (13.05.98-y.), «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasining Bojxona kollejini tashkil etish to‘g‘risida» (13.07.98-y.), «O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining Soliq kollejini tashkil etish to‘g‘risida» (14.07.99-y.), «1999–2005-yillarda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag‘ bilan ta’minlash dasturi to‘g‘risida» (23.09.98-y.), «Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» (16.08.99-y.) kabi respublikada ta’lim, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan hozirgi sharoitda ta’lim jarayonining turli bosqichlariga mansub bilim maskanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb vazifalardan biridir.

Mamlakat hukumatining qarori bilan umumta’lim maktablarini 2005–2009-yillar mobaynida qayta ta’mirlash, zamonaviy o‘quv qurollari va fan laboratoriya bilan ta’minlash ishlari qizg‘in bormoqda.

1998-1999-o‘quv yilidan esa kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar shaklidagi xalq ta’limi tizimi yangi yo‘nalishga asos solindi. Bu 1997-yil avgust oyida mamlakat Oliy Majlisi sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Birgina 2006-yilning o‘zida 8 ming o‘quvchi o‘rniga ega bo‘lgan 6 ta akademik litsey, 70 ming o‘rinli 124 ta kasb-hunar kolleji qurilib, foydalanishga topshirildi. 8,7 milliard so‘mlik va 15 million AQSH dollari miqdorida o‘quv-laboratoriya jihozlari xarid qilindi.

Shuningdek, 2006-yili 61 ta yangi maktab qurildi. 385 ta maktab kapital ta'mir qilinib, 530 tasi joriy ta'mir etildi.

Aytish mumkinki, dunyo davlatlari orasida O'zbekiston xalq ta'limiga budjet hisobidan mablag' ajratishda birinchi o'rinda turadi. Buni 2007-yil 26-fevralda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni ham tasdiqlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq prinsipial yangi tipdagi o'rtahunar o'quv muassasalari tarmog'i shakllandi. Zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 533 ta kasb-hunar kolleji va 54 ta akademik litsey barpo etildi. Kollejlar va litseylarni qurish hamda jihozlash bo'yicha mamlakatimiz industriyasi yaratildi. Yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim majmui hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'rin va mas'uliyatga egadir. Dasturni to'liq amalga oshirish, qo'yilgan vazifalarga erishish ana shu bo'g'inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, butun tizimning eng muhim boshlang'ich bosqichi bo'lgan maktab ta'limining ortda qolayotgani yaxlit uzluksiz ta'lim zanjirida eng zaif bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi maktablar moddiy bazasining zaifligi bo'lib, ularning 40 foizga yaqini tipovoy bo'lmagan moslashtirilgan binolarda joylashgan, jami 9727 ta maktabdan 684 tasi avariya holatidadir. Ko'pgina maktablar markazlashtirilgan isitish sistemasiga ega emas, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanmagan. O'quvchilarning 28 foizdan ko'prog'i ikki-uch smenada o'qitiladi. Maktablarning o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanish darajasi 29 foizni, zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlanishi esa 15 foizga yaqinni tashkil qiladi. Maktablarning faqat yarmigina sport zallariga ega, ularning sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlanishi esa 23 foizdan oshmaydi. Ayniqsa, qishloq joylardagi maktablarning moddiy bazasi qoniqarsiz ahvolda.

O'qituvchilar, eng avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mehnatini rag'batlantirish borasida tarkib topgan tizim maktab ta'limida hamon zaif bo'g'in bo'lib qolmoqda, bunda pedagoglar iste'dodi, kasb mahorati ularning mehnatiga haq to'lash chog'ida hali ham belgilovchi mezonga aylanmayapti.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti sifatida maktab ta'limining orqada qolishiga barham berish hamda maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va uzluksiz ta'limning yagona tizimini shakllantirish bilan bog'liq mavjud jiddiy

muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 19-fevraldagi F-1910-sonli Farmoyishi bilan tuzilgan Maxsus komissiya va ishchi guruhlar tomonidan respublika mintaqalaridagi barcha umumiy ta'lim maktablari to'liq ro'yxatdan o'tkazildi. Ularning moddiy-texnika bazasining hozirgi holati tanqidiy va batafsil o'rganib chiqildi.

Shuningdek, farmonda **«2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»**ni amalga oshirish mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichidagi eng muhim vazifa, deb hisoblandi va maktab ta'lim tizimini tubdan yaxshilashni; eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o'quv-moddiy bazasi va ta'lim standartlari shakllantirilishini; yashash joyidan qat'i nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta'minlanish darajasidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarning ta'lim olishi uchun teng shart-sharoitlar yaratilishini; o'qituvchilar mehnati har tomonlama rag'batlantirilishini ko'zda tutuvchi Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalari ma'qullandi.

Shu bilan birga maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilandi.

– kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlashning, avariya holatidagi binolarni buzib tashlashning manzillari aniq ko'rsatilgan dasturlarini va maktab binolarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqqan holda umumiy ta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

– maktablarni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash;

– ta'lim tizimida qo'llanilayotgan o'quv standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish;

– umumiy ta'lim maktablari, birinchi navbatda qishloq joylardagi maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ular tarkibi sifatini oshirish, o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish;

– umumiy ta'lim maktablarida sportni rivojlantirish va ularning sport bazasini mustahkamlash.

Xalq ta'limi tizimidagi maktablar to'g'risida umumiy ma'lumot



Umumiy o'rta ta'lim maktablari (11 yillik) 2753 28%

Umumiy o'rta ta'lim maktablari (9 yillik) 6824 70%


Maxsus maktablar 89 1%

Boshlang'ich ta'lim maktablari (1–4 sinflar) 103 1%


2009-2010-o'quv yilida 11 yillik maktablar soni 1813 (18,6%) tani tashkil etib, 2010-2011-o'quv yilidan boshlab barcha maktablar to'liq 9 yillik ta'lim tizimiga o'tkaziladi.

2004–2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi bo'yicha qurilish-ta'mirlash ishlari rejasi


2004–2009-yillarda jami 8476 maktablarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan.



2004–2009-yillarda davomida jami 6543 ta maktablarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, barcha manbalar hisobidan 962,7 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi.




2004–2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy doirasida qurilgan, ta'mirlangan maktablarning joylashuvi




Qishloq va borish qiyin hududlardagi 5480 ta (84%) maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

2008-yilda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlari

2008-yilda jami 1861 ta maktablarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarga 362,0 mlrd.so'm mablag' sarflandi.




2004–2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy doirasida qurilgan, ta'mirlangan maktablarning joylashuvi



Qishloq va borish qiyin hududlardagi 1612 ta (86,6%) maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.


2004–2008-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturiga qo'shimcha mahalliy hokimliklar va homiylar hisobidan amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash ishlari

Homiylar hisobidan jami 402 ta maktablarda 45 mlrd. so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.




2004–2008-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida rejalashtirilgan qurilish-ta'mirlash ishlari to'g'risida ma'lumot

2009-yil davomida jami 1957 ta maktablarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, ularga 466,6 mlrd. so'm mablag' yo'naltirish rejalashtirildi.



2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»da qishloq va borish qiyin bo'lgan hududlardagi 1695 ta (rejaga nisbatan 87 %) maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.



Respublika bo'yicha mavjud bolalar musiqa va san'at maktablari haqida umumiy ma'lumot



BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI

MAKTABLAR SONI – 303
O'QUVCHILAR SONI – 37453
O'QITUVCHILAR SONI – 5694

RESPUBLIKA IXTISOSLASHGAN MUSIQA AKADEMIK LITSEYLARI

Res.ix.mus. ALlar soni – 2
O'QUVCHILAR – 1407
O'QITUVCHILAR SONI – 373



Respublika bo'yicha Bolalar musiqa va san'at maktablarida olib boriladigan qurilish-tiklash ishlari to'g'risida umumiy ma'lumot

Ko'rsatkichlar	Jami	Shu jumladan yillar kesimida:					
		2009	2010	2011	2012	2013	2014
Jami qurilish-tiklash ishlari	278	6	51	60	58	55	48
Jumladan:							
yangi qurilish	136		16	25	30	33	32
kapital rekonstruksiya	142	6	35	35	28	22	16

Mustaqillik yillarida mamlakatda oliy ta'limni rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi. Shu maqsadda 2006-yil 26-fevralda mamlakatimiz Prezidentining «M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonda ta'kidlanishicha, oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda iqtidorli yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va ulardan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialini (keyingi o'rinlardagi matnda «Filial» deb yuritiladi) ta'sis etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi va M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida qabul qilingan normalarga va oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan umumiy e'tirof etilgan xalqaro talablarga, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad va vazifalariga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Filialning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Filialning faoliyati O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlariga muvofiq va abituriyentlar qabul qilish hamda Filial

bitiruvchilarini attestatsiyadan o'tkazish M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti tomonidan belgilanadigan talablarga, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladigan bo'ldi.

Filialda o'qitish M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari va dasturlar bo'yicha tashkil qilindi.

Dastlab 2006-2007-o'quv yiliga bakalavriatga qabul qilish 80 kishini, shu jumladan, quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha: psixologiya – 40 kishi, amaliy matematika va informatika – 40 kishini tashkil etdi, keyingi yillarda – kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va respublika mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari hisobga olingan holda belgilanadigan bo'ldi.

Filial bitiruvchilariga M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetini tamomlaganligi to'g'risida belgilangan namunada beriladigan diplom O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etildi.

Tibbiy xizmat sohasida zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 2005-yili poytaxtimizdagi ikkita meditsina oliy o'quv yurti negizida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tashkil etildi.

Ma'lumki, rivojlangan fani bo'lmagan davlat rivojlangan va kuchli davlat bo'la olmaydi. Ayni ana shu nuqtayi nazar hozirgi murakkab o'tish davrida olimlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Davlatning ilmiy salohiyatini saqlabgina qolmay, balki uni iloji boricha o'stirish, mavjud yirik muammolarni yechishga qayta moslashtirish, shuningdek, yangi samarador texnikalarni yaratish va amalda tatbiq etish masalasi g'oyat dolzarblik kasb eta boshladi. Mustaqillik olimlarga ham, fanga ham yangi imtiyozlar yaratib berdi. Jumladan, akademik fan o'z tizimi va shaklini o'zi belgilay boshladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining 50 yillik tarixida birinchi bor akademiyaning haqiqiy a'zosi, yurtboshimiz I.Karimov tashabbusi bilan fundamental ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash akademiya jamg'armasi tuzildi.

1997-yil 1-yanvardagi ma'lumotlar bo'yicha Fanlar akademiyasida 8 ta bo'lim bo'lib, 135 akademik, 156 O'zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a'zolari faoliyat ko'rsata boshladi.

2006-yili Ko'hna Urganchda Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk allomalar tashkil etgan Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi keng nishonlandi. Bu o'z-o'zidan milliy fanimiz o'tmishi bilan istiqbolini bog'laydigan mo'tabar voqelikka aylandi.

2006-yilda FA tomonidan 180 fundamental, 281 amaliy va 12 innovatsion loyihalar hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash fondi tomonidan 185 ta grant, shuningdek, xalqaro fondlarning 106 granti bajarildi.

Shu bilan bir qatorda, FA olimlari tomonidan 2006-yilda 3596 ilmiy ish, shu jumladan, 3439 ilmiy maqola va tezislar, 157 ta monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar va risolalar chop etildi, 30 ta patent va 10 ta dasturiy mahsulotlarga guvohnoma olindi, 2 ta litsenziya sotildi.

Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan xorijiy iste'molchilarga 2147,4 ming AQSH dollari miqdorida ilmiy mahsulotlar sotildi, bu esa 2005-yilga nisbatan 43 foizga ortiqdir.

Ilmiy muassasalarimizda fundamental, amaliy va gumanitar yo'nalishlar sohasida olingan bir qator eng muhim natijalar yangi bilimlar olish, yangi texnologiyalar yaratishda foydalanildi. Xususan, Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida yangi texnologiya bo'yicha 50 ming tonna nitrokalsiyfosfatli o'g'it ishlab chiqarildi va 9 milliard so'mga sotildi; tabiiy polemerlar (selluloza, xitin va xitozan) asosida o'simliklarni himoya qilish vositasi va ichki kasalliklari hamda virusga qarshi dorilar («Kagotsel», «Mikrotsell») ishlab chiqarish texnologiyalari yaratildi; o'simliklarning o'sishini barqarorlashtiruvchi mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan «Roslin» preparati xorij preparati «Vitovaksdan» qolishmaydi, buning 10 tonnasi 20 mln. so'mga sotildi; respublika miqyosida antiartimik preparat «Allapinin»ga bo'lgan ehtiyoj to'la ta'minlandi, uning suv stansiyasida 420 ming AQSH dollari hajmida eksport qilindi. Yangi «Tortezin» preparatiga patent olindi.

O'zbekistonda Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) ning tashkil qilinishi ham shubhasiz respublikada fanning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlardan biridir.

O'zbekistonning XXI asrga kirib borishida respublikada fanning o'rni va roli yanada orta boradi.

O'z o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yurtimizda o'z Vatanining taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlarga ehtiyojni qondirish vazifasi biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq o'ta muhim va hal qiluvchi masalaga aylangan edi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, 1997-yili 2009-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingan edi. O'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan ushbu dastur 12 yillik ta'limga o'tishni, uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Dastur umumta'lim maktablaridagi to'qqiz yillik o'rta ta'limni, akademik litsey va kollejlardagi uch yillik maxsus kasbga tayyorlash tizimini o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari huzurida tashkil etilgan akademik litseylar yoshlarga o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot olish uchun yanada chuqur bilim egallash, kollejlar esa maxsus fanlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir bitiruvchi yigit-qizga o'z qobiliyatini yuzaga chiqarish va jamiyatda munosib o'rin topish uchun 2-3 mutaxassislik bo'yicha o'rta malakali kasb egallash imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida 2009-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi ham amalga oshirilmoqda.

Ta'lim sohasida milliy dasturlarni hayotga tatbiq etish boshlanganidan buyon 1 ming 140 taga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 4 ming 680 tadan ziyod umumta'lim maktabi yangitdan qurildi va kapital ta'mirlandi, zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi, ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil etildi.

Yangi milliy ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, yangi darsliklar va maxsus o'quv qo'llanmalari yaratish orqali ta'lim jarayonining mazmuni tubdan takomillashtirildi. Shunisi ayniqsa muhimki, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida akademik litsey va kollejlar uchun zamon talablariga javob beradigan yangi toifadagi o'qituvchilarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi, bakalavr va magistrlar tayyorlashning Yevropa tizimiga o'tildi. Bugungi kunda mamlakatimizning 65 ta oliy o'quv yurtida 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingga yaqin talaba bilim olmoqda.

O'tgan yillar mobaynida zamonaviy, har tomonlama jihozlangan o'quv yurtlarini barpo etish uchun 5 milliard dollardan ortiq budjetdan tashqari mablag'lar yo'naltirildi.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3–5 foizdan oshmaydi.

O'zbekiston o'zining milliy Fanlar akademiyasiga ega bo'lib, uning tarkibida ulkan ilmiy texnik salohiyatga ega bo'lgan 43 ta akademik institut muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo'nalishlarida va boshqa ko'plab sohalarda istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hech shubhasiz, bugun ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakatimiz kelajagining egasi bo'lgan yosh avlodni, yuksak intellektual salohiyatli jamiyatni shakllantirish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

6-§. Madaniy hayot

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham milliy madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangi-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991-yilda Farg'onada va 1993-yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi. Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994-yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

1993-yil avgustida Toshkent shahrida ish boshlagan hashamatli «Turkiston» saroyi nafaqat mahalliy teatr va tomosha guruhlarining chiqishlariga, balki, uzoq va yaqin mamlakatlardan tashrif buyuradigan sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlariga ham mo'ljallandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Turkiston» saroyi ochilishi marosimida nutq so'zlab **«Bugun yangi o'zbek davlatini barpo etar ekanmiz, biz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularning ruhi nomidan, Turkiston xalqlarining qadriyatlarida, ma'naviy merosidan, san'atidan bahramand bo'lishimiz tabiiydir.**

Ushbu saroyda xalqimizning, shuningdek, jahon xalqlarining, Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy anjumanlarini, san'at bayramlarini o'tkazishni niyat qilganmiz. Bu koshona, inshoolo, millatlar, el-elatlarning do'stlik, birdamlik qal'asiga aylanadi.

Bunday obidalar katta-yu kichikda Vatandan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi, bunday saroylar Vatan sha'ni va shuhrati uchun kurashuvchi, istiqlolni hamma narsadan muqaddas biladigan sog'lom avlodni tarbiya etuvchi maskanga aylanadi», – dedi.

Yuqoridagi misollar istiqlol yillarida madaniyat muassasalari moddiy bazasini mustahkamlashga respublika rahbariyati katta e'tibor berganligini ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach o'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun yanada keng yo'l ochildi. Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri, A.Hidoyatov nomidagi drama teatri, «Ilhom» teatr studiyasi, Rus yosh tomoshabinlar teatri shu jihatdan ibratli ishlar qildilar. Navoiy nomidagi teatr balet truppasining Malayziya va Tailandga, A.Hidoyatov nomidagi teatrining Angliya, Shotlandiya va Germaniyaga, Rus bolalar teatrining Qohiraga safarlari shular jumlasidandir.

Shu yillarda o'zbek teatrlari sahnasida yangi zamonaviy mavzudagi asarlar namoyish etila boshlandi. Jumladan, 1992-yilning o'zidagina Abror

Hidoyatov nomidagi o'zbek davlat drama teatri ijodiy jamoasi mashhur italyan komediyanavisi Karlo Gashinning «Malikai Turandot» spektaklini, Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatri jamoasi esa «Shum bolaning sarguzashtlari» va komediya janrida yaratilgan «Mening oppoq kabutarlarim» spektakllarini, shuningdek, Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax musiqali drama teatri A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni asosida yaratilgan asarlarni sahnaga qo'ydilar. Bu spektakllar tomoshabinlar tomonidan yuqori baholandi.

Uzoq yillardan buyon taqiqlab kelingan Amir Temur mavzusida Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatridan so'ng respublikamizda ikkinchi bo'lib, Hamza nomidagi o'zbek Davlat akademik drama teatrida jahongir hayoti haqidagi drama sahnaga qo'yildi.

Milliy istiqlolning ikki yilligi arafasida poytaxtimizning qator teatrlarida yangi sahna asarlarining ko'riklari bo'lib o'tdi. A.Hidoyatov nomidagi o'zbek Davlat drama teatrida jahon badiiy xazinasining o'lmas durdonalaridan biri Abdulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarining 1000 yilligiga bag'ishlab mazkur asar asosida «Faridun» nomli ikki qismli fojia sahnalashtirildi. Shuningdek, Abdulhamid Cho'lpon qalamiga mansub, badiiy jihatdan yaxshilik, chin muhabbat, insof-diyonat ulug'lanib, fisq-u fasod hamda tajovuzkorlik keskin qoralangan «Yorqinoy» pyesasi ham yana sahna yuzini ko'rdi. A.Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar drama teatrining ijodiy jamoasi mazkur tomoshani o'z muhlislariga taqdim etadilar. 1993-yilning avgust oyida Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri jamoasi dramaturg Erkin Samandarning «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasini ham sahnaga qo'ydi.

Markaziy Osiyo xalqlari teatrlarining o'zaro ijodiy hamkorligi yo'lga qo'yildi. Mazkur soha jamoalarining, 1992-yilning 26-martidan to 4 aprelgacha «Navro'z-92» xalqaro anjumani o'tkazildi.

Anjumanda Tojikistonning «Axorun» teatri «Yo'qolgan Yusuf xonadonga qaytadi», Turkmaniston Davlat yoshlar tajriba teatri «Dali Dumbul», Lohutiy nomidagi Tojikiston Akademik drama teatri «Asrga tatigulik kun», A.Hidoyatov nomidagi o'zbek Davlat drama teatri «Iskandar», Qirg'iziston Akademik drama teatri «Aykul manas» («Ajoyib manas»), Y.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri «Toshkentga sayohat» tanlov spektakllarini namoyish etdilar.

4-aprel kuni «Navro'z-92» xalqaro teatr bayramining g'oliblari e'lon qilindi. Oliy mukofot (Gran-Pri) – Turkmaniston Davlat yoshlar teatrining «Dalli Dumbul» spektakliga, Xalqaro Teatr uyushmalari konfederatsiyasining maxsus mukofoti – Y.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrining «Toshkentga sayohat» komediyasiga berildi.

Yuksak rejissyorlik mahorati uchun «Asrga tatigulik kun» spektakli rejissyori Ozarbayjon Mambetov (Qozog'iston), milliy qadriyatlarni tiklash yo'lidagi katta xizmatlari uchun – Qirg'izistonlik san'atkorlarning «Buyuk qalbi manas» spektakliga, rejissuradagi yangi uslub va shakl izlanishlari uchun Abror Hidoyatov nomidagi o'zbek davlat drama teatrining «Iskandar» spektakli rejissyori Bahodir Yo'ldoshevga Xalqaro Teatr uyushmalari konfederatsiyasining maxsus mukofoti berildi.

1993-yil iyul-avgust oylarida O'zbekiston mustaqilligining ikki yilligiga bag'ishlab Navoiy viloyatida tumanlararo do'stlik festivallari bo'lib o'tdi.

Bu bayram festivallarida xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, mehr-oqibat, milliy an'analar va qadriyatlarimizga hurmat tarannum etildi.

Bizda bayramlar ma'lum sanalar atrofida, sanalarni nishonlashdan iborat bo'libgina qolmaydi. U ayni tafakkur tarzimizni o'zgartiradigan, mustaqillik va Vatanga bo'lgan tuyg'ularimizni jonlantiradigan qudratli omilga aylandi. Biz ayni ana shu bayramlar va yubileylar orqali, **birinchidan**, kelajakka bo'lgan munosabatimizni, taraqqiyot yo'limizni belgilab olamiz. **Ikkinchidan**, ayni ana shu bayramlarga tayyorgarlik jarayonlaridan milliy san'atimiz va madaniyatimiz yangi qiyofa kasb etmoqda. Jumladan, turli bir-biriga o'xshamagan, alohida-alohida qo'shiqlar va tomoshalardan tashkil topgan yaxlit kompozitsion asar dunyoga kelmoqda. Endi biz har bir bayram tantanalarini yaxlit, izchil, to'kis asar sifatida qabul qiladigan bo'ldik. **Uchinchidan**, milliy musiqa, qo'shiqchilik va xoreografiya yaxlitlashgan yangi janr paydo bo'ldi.

1997-yilning oktabr oyida esa Toshkentda **«Teatr: Sharq va G'arb»** xalqaro festivali o'tkazildi. Festivalda dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan teatr san'atkorlari bilan birga Markaziy Osiyo davlatlari hamda respublika teatrlari ham o'z asarlarini mahorat bilan namoyish etdilar. Ushbu festivalda Gonkong shahrining «Rezolyu» teatri jamoasining «Osmono'par binodagi ikki odobli xizmatkor» spektakli, Germaniyaning Dortmund opera va balet teatri jamoasining «Donnitorn xonimning esdan og'ishi» operasi, Turkmaniston Respublikasi A.Qulahmedov nomidagi teatr jamoasining «Payg'ambarlar nolasi» kabi spektakllari tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Ayni paytda o'zbek milliy teatr san'ati rivojlanishi va takomillashishi jarayonini boshdan kechirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi (1998-yil 26-mart) Farmoniga muvofiq O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha san'ati an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarining faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna

asarlari yaratish, maxsus ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida esa Teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Asrlar osha avloddan-avlodga ustoz-shogirdlik tizimi yo'li bilan rivojlanib kelganligi tufayli musiqa merosi qatlamlari — mehnat va marosim kuy, qo'shiqlaridan tortib murakkab doston, ashula, katta ashula va maqom yo'llari davrma-davr saralanib kelgan. Shu bois, hozirgi davrgacha yetib kelgan deyarli barcha asarlar shaklan va mazmunan katta-kichikligiga qaramay badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi.

Teatr san'ati sohasidagi ijodiy jarayon ayni yangilanayotgan hayotimizning ehtiyojlariga to'la mos keladi. «Chimildiq», «Piri koinot», «Sohibqiron», «Kunduzsiz kechalar» pyesalari, O'zbekiston yoshlar teatrida Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asari asosida qo'yilgan sahna asari bugungi teatr san'atimizning yutug'i, desa bo'ladi.

Mustaqillik yillarida musiqa san'atida tub burilish, asliga qaytish, an'anaviy ohanglar ravnaqi davri bo'ldi. Buning uchun eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste'dodlarini izlab topish zarur edi. Ana shuning uchun 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar jumhuriyat markazi musiqa san'ati sohalari bo'yicha bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazdi. Jumladan, shu yili mart oyida Toshkent shahrida tanbur, sato, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar», deb nomlangan jumhuriyat ko'rik-tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, aprel oyida mashhur sana'tkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov va Janaq Shomurotovlar asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlar», deb nomlangan ko'rik tanlovlari o'tkazildi. Shuningdek, Xorazm viloyatida may oyida folklor jamoalarining, Askiya, qiziqchi va masxarabozlarning iyun oyida Qo'qon shahrida o'tkazilgan IX-an'anaviy va lapar, yalla ijrochilarining avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan 11 an'anaviy ko'rik tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Shu bilan birga bir necha o'nlab iste'dodlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

O'zbek xalq cholg'ulari va bayan sozanda-ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar», deb nomlangan navbatdagi oltinchi jumhuriyat ko'rik tanlovi ilgarigilaridan farqli o'laroq uch bosqichda o'tkaziladi. Uchinchi bosqichda tanlov g'oliblari «Bahor» konsert zalida To'xtasin Jalilov nomidagi O'zbekiston Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri hamda

O'zbekiston televideniye va radioeshittirish Davlat kompaniyasi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi O'zbek xalq cholg'ulari orkestri jo'rligida maxsus tanlov dasturini ijro etadilar. Tanlovda barcha viloyatlardan 46 nafar ijrochilar ishtirok etishdi.

1992-yil 2-mart kuni Toshkent shahrida Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatrida xalq artisti, Davlat mukofotlarining sohibi, mashhur raqqosa va baletmeyster Mukarrama Turg'unboyevaning 80 yilligi va mustaqil O'zbekistonning yaqinlashib kelayotgan an'anaviy «Navro'z» bayramlari oldidan «Chaman» o'zbek bolalar folklor-etnografiya raqs ansamblining hisobot konserti va raqslar bayrami o'tkazildi. Unda o'zbek, tojik, afg'on xalqlarining qator maftunkor raqslari, kuy va folklor qo'shiqlari ijro etildi.

Respublika Madaniyat ishlari vazirligi Xalqlar Do'stligi saroyida 1993-yil 14-aprelda vazirlik tasarrufidagi san'at va madaniyat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talaba-o'quvchilari, hamda, o'qituvchilari ishtirokida «Istiqlol jilolari» yig'ma konsertini namoyish etdi. Konsert dasturida xalq kuy va qo'shiqlari, dilrabo raqslar, o'zbek va xorijiy mamlakatlar bastakorlarining asarlari va badiiy ko'rgazmalar ham namoyish etildi.

Istiqlol davri O'zbek milliy musiqa san'atining rivojlanishida g'oyat sermazmun davr bo'ldi.

Darhaqiqat, mustaqillik musiqachi-san'atkorlar hayotida alohida davr bo'ldi. Bir qator bastakorlar, jumladan Mustafo Bafoyev, Alisher Ikromov, Anor Nazarovlar ijodida yangi davri boshlandi. Birgina misol: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi M. Bafoyev o'zbek milliy musiqasi tarixida uslub jihatidan ham, g'oyaviy jihatdan ham butunlay yangi bo'lgan «Hajnoma» oratoriyasini yaratib, ulkan ijodiy muvaffaqiyatga erishdi. Ayni paytda bu sermahsul va ulkan iste'dod sohibi bir necha o'nlab qo'shiqlar, turli-tuman asarlar bitdi. Ayniqsa, Amir Temur yubileyiga bag'ishlangan musiqalari va qo'shiqlari o'zbek milliy-an'anaviy yo'li bilan jahon musiqa san'ati ilg'or tajribalarining betimsol, uyg'unlashgan namunasi bo'ldi. Orkestr ohanglarining bu milliy shakli endigina yaratildi.

1995-yil dekabridan «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilingandan so'ng yuzlab yangi, mustaqillik davri qo'shiqlari yaratildi. Bu ko'rik-tanlov mamlakatimizning hamma joylarida ko'tarinkilik bilan o'tkazildi.

1996-yil mart oyida poytaxtning «Bahor» konsert zalida «O'zbekiston – Vatanim manim», deb atalgan qo'shiq tanlovining birinchi bosqichi bo'ldi. U O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligiga qarashli muassasalar o'rtasida o'tkazildi. Ko'rik juda qiziqarli bo'lib, unda bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilaridan tortib mamlakatdagi bir qancha pedagogika institutlari talabalarigacha ishtirok etishdi. Ko'rik qatnashchilarining ona Vatan go'zalligi, uning istiqlolini madh etgan qo'shiqlari taniqli

bastakorlar, shoirlar va Xalq ta'limi vazirligining yetakchi mutaxassislaridan iborat nufuzli hay'at a'zolari tomonidan baholandi.

Umuman ko'rik-tanlovning birinchi bosqichida 54 mingdan ziyod san'atkor qatnashdi. 10 mingdan ortiq qo'shiq ijro etildi.

1996-yil 24-avgust kuni Toshkentdagi «Turkiston» saroyida qo'shiqlar ko'rik tanlovining yakuniy bosqichi bo'ldi. Tanlovda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'pgina millat vakillari faol qatnashdi. Rus, qozoq, turkman, uyg'ur, qirg'iz, koreys tillarida ham jonajon Vatanimizni madh etuvchi qo'shiqlar yangradi.

Uch kun davom etgan ko'rik-tanlovning yakunlovchi bosqichida hakamlar hay'ati va san'at muxlislari e'tiboriga 60 dan ortiq qo'shiq tavsiya etildi.

1996-yilning 26-avgustida ko'rik-tanlov g'oliblari aniqlandi. Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra, birinchi o'rin berilmadi. Ikkinchi o'rinlarga Mudofaa vazirligidan Asatillo Xoliqov «O'zbekiston askarlari», Qoraqalpog'istonlik Roza Kutekeyeva «Mustaqillik gullari», Toshkent viloyatidan Baxtiyor Umarov «Ona yurtim» qo'shiqlari uchun sazovor bo'ldilar. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan Salomat Ibrohimova «O'zbekiston – Vatanim manim», rus milliy madaniyat markazidan Pavel Borisov «Men seni sevaman, O'zbekiston», Samarqand viloyatidan Safiya Saftarova «Vatan yagonadir» qo'shig'i uchun uchinchi o'rinni oldi.

Bu ko'rik-tanlov 1996-yil 28-avgustda Mustaqillik bayramining 5 yilligi arafasida Toshkentda Xalqlar Do'stligi saroyida yakunlandi. Unda viloyatlar, vazirliklar, muassasalar bo'yicha tanlov g'oliblari o'zlarining dilrabo qo'shiqlari bilan ishtirok etdilar. Tanlov yakuniga bag'ishlangan katta konsertda, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov, parlament va hukumat a'zolari, Toshkentdagi diplomatik korpus xodimlari, mamlakat jamoatchiligi vakillari ishtirok etdilar.

Umuman, «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzuidagi ko'rik-tanlovining o'tkazilishi Mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug'lash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, mamlakat va xalqimiz hayotida qo'shiq bayramini odat tusiga kirishi uchun zamin yaratdi. Shuning uchun ham 1996-yil 27-avgust kuni «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami haqida» maxsus Farmon qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining besh yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq ko'rik-tanlovining xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida unutilmas voqea bo'lgani, minglab fuqarolar tomonidan zo'r mamnuniyat va ko'tarinki ruh bilan qo'llab-quvvatlanganligi» qayd qilindi.

Farmonda kelajagi buyuk davlatimiz va uning bunyodkor, bag'ri keng, xalqini madh etuvchi, insonlar qalbida muqaddas Vatan tuyg'usini, mustaqillikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, buning uchun kerak bo'lsa

jon fido qilishga undovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida:

Har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi, «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb e'lon qilinsin, – deb ko'rsatildi.

O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi va «O'zbek raqs» birlashmasi tashkil etildi. Ularda musiqa va raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash masalalari ko'zda tutildi.

Jumladan, «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi yuzasidan qabul qilingan Farmonda shunday deyiladi:

«1. «Turkiston» saroyi va «Bahor» komplekslari, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining ijodiy konsert tashkilotlari negizida «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda hududiy bo'limlariga ega bo'lgan mustaqil ijodiy-ishlab chiqarish kompleksi hisoblanib, u mulkchilik shakllaridan va qaysi idoraga qarashli ekanligidan qat'i nazar filarmoniya, estrada, raqs, folklor va boshqa ijodiy jamoalarni birlashtiradi.

«O'zbeknavo» birlashmasining faoliyatiga badiiy-uslubiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasining Madaniyat ishlari vazirligi amalga oshiradi.

3. «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston xalqlarining milliy mumtoz va zamonaviy musiqa hamda raqs san'atining eng yaxshi yutuqlarini rivojlantirish, asrash va targ'ib qilish;

iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning istiqbolli rejalarini, maqsadli kompleks, madaniy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqib, amalga oshirish;

xorijiy firmalar bilan o'zaro manfaatli tashqi iqtisodiy aloqalarning, madaniy, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish;

gastrol-konsert faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ijodiy jamoalar va alohida ijrochilar tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish»...

1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o'tkazildi. O'zbekiston respublikasi bastakorlar uyushmasi bilan o'tkazilgan mazkur festivalda dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar ishtirok etishdi. Ular O'zbekistonda jahon musiqa san'ati klassik namunalarining eng oliy darajada ijro etilganligiga va ushbu soha jahon klassik an'analari bilan o'zbek milliy musiqa san'atining uyg'unlashgan yangi maktabi yaratilganligiga guvoh bo'lishdi. Mutal Burhonov, Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Sobir Boboyev,

Boris Giyenko, Mustafo Bafoyev, Rustam Abdullayev singari bastakorlarning ijodiga yuksak baho berdilar.

Bugun milliy-an'anaviy qo'shiqchiligimiz bilan birga milliy estrada san'ati ham tobora rivojlanmoqda. O'lmas Saidjonov, Munojot Yo'lchiyeva, Nasiba Sattorova, Ismoil va Isroil Vahobovlar bilan bir qatorda Nasiba Abdullayeva, Farrux Zokirov va ularni yuzlab kasbdoshlari, jumladan, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitova, Rayhona Nazarovalar sof milliy estradaning yorqin namoyandalari o'zbek qo'shiqchilik san'atini dunyoga olib chiqmoqdalar. Ular 2000–2007-yillar o'zbek xonandachiligining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Shavkat Mirzayev, Baxtiyor Aliyev, Abduhoshim Ismoilov, Anor Nazar, Dilorom Omonullayevalar yaratgan musiqaviy asarlar ayni ana shu ikki yo'nalishning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy «Sharq taronalari» festivali besh qit'a san'at ahlining diqqatini o'ziga tortdi. Dunyoda tinchlik va ezgulikni, barqarorlik va o'zaro bir-birini tushunishni qo'shiq orqali, san'at orqali amalga oshirish mumkinligi ko'rsatdi. Har ikki yilda o'tadigan bu xalqaro san'at ko'rigining navbatdagisi 2009-yil avgust oyida bo'lib o'tadi.

Milliy raqs san'ati an'analarini avaylab-asrash, ularni rivojlantirish, mamlakatimiz turli hududlarining o'ziga xos raqs maktablari namunalarini to'plash, shu asosda boy o'zbek raqs san'atini targ'ib etish maqsadida «Oltin meros» xalqaro jamg'armasi qoshida O'zbekiston xalq artisti Qizlarxon Do'stmuhamedova rahbarligida «Munojot» milliy mumtoz raqs ansambli tashkil etildi. Qisqa fursatda bu ansambl san'at ixlosmandlarining e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Kino san'ati ustalari ham mustabidlik va mustaqillik davrlarining mohiyatini badiiyat vositasi bilan ochib berish yo'lida tinmay izlanib, xalqimizga o'zlarining yangi-yangi asarlarini taqdim etmoqdalar. So'nggi yillarda yaratilgan «O'tkan kunlar», «Otamdan qolgan dalalar», «Yozning yolg'iz yodgori», «Kichkina tabib», «Voiz» kabi badiiy filmlar tamoshabinlarga manzur bo'ldi.

Mustaqillik solnomasini yaratish hujjatli kino arboblari oldida turgan eng muhim vazifalardan ekanligi tabiiy. Buni chuqur anglagan kinochilarimiz bir qator hujjatli filmlarni yaratdilar. Ular orasida, ayniqsa, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asari asosida ishlangan ko'p qismli hujjatli film nafaqat xalqimiz, balki xorijlik tomoshabinlar tomonidan ham yuqori baholandi. Angliya, Germaniya, Belgiya, Daniya kabi bir qator chet mamlakatlarda bu filmning taqdimoti bo'lib o'tganligi fikrimizning isbotidir.

Mustaqillik o'zbek badiiy adabiyoti rivojiga, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Endi adabiyotga «Sotsialistik realizm metodi» qonuniyatlari, kommunistik partiyaviylik,

sinfiylik singari prinsiplar nuqtayi nazaridan qarashlarga barham berildi. Yangi ilmiy va badiiy me'yorlarga o'tish boshlandi. Mumtoz adabiyotga munosabatda diniy adabiyot, feodal-klerikal adabiyot, saroy adabiyoti deyilgan soxta tushuncha va bir millat adabiyotini ikkiga — reaksion va progressiv adabiyotga bo'lib o'rganishdek metodologik asossiz nazariyalarga chek qo'yildi. Badiiy asar qimmatini, yozuvchi dunyoqarashini mafkura nuqtayi nazaridan baholashdek sho'roviy va siyosiy doktrinalardan voz kechildi. Badiiy asarni baholashning bosh mezonlari badiiylik, umuminsoniy ma'naviy-ruhiy qadriyat, milliy istiqlol ideallariga daxldorlik bo'lib qoldi.

Asarlari zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Tavallo, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi xolisona o'rganila boshlandi. Asarlari chop etildi, sahna yuzini ko'rdi.

Jadidchilik harakatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yirost ko'rsatish boshlandi. Sho'ro davrida tuzumni, kommunistik partiyani ko'klarga ko'targan, shu yo'nalishdagi g'oyalarni ulug'lagan asarlarni tanqidiy baholashga o'tildi. Bir vaqtlar diniy va saroy adabiyoti vakili, deb nohaq qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg'oniy, G'azzoliy, Hoja Ahror, Bahouddin Naqshband, Husayn Boyqaro, Feruz singari buyuk shoir hamda mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi. Zararli falsafa, kommunistik mafkuraga yot nazariya, deb qaralgan tasavvuf she'riyati chuqur o'rganila boshladi.

Alisher Navoiyning yuksak insoniy g'oyalarni diniy manbalar asosida yorituvchi «Munojot», «Arba'in», «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hokimlar tarixi») kabi asarlari nashrdan chiqdi. Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Qur'on va hadislar chop etildi.

Amir Temur bilan aloqador orzularning yuzaga chiqishi mustaqillikning ulkan tantanasidir. Bu yo'nalishda A.Hayitmetovning «Amir Temur va o'zbek adabiyoti» asari chop etildi. B.Valixo'jayevning Hoja Ahror va uning muhiti bilan bog'liq bir qancha tadqiqotlari yaratildi va yirik monografiyasi chop etildi. Atoqli olim B.Ahmedovning «Amir Temur», T.Malikning «Shaytanat» romanlari, E.Vohidov, O.Matchon, O.Muxtor, O.Hojiyeva, U.Azim, A.Suyun, X.Do'stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarni badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqlol adabiyoti shakllandi. Xususan, A.Oripovning «Sohibqiron», M.Jalilning «Sohibqiron Temur» dramalari dunyoga keldi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi oldidagi muhim vazifalarni hal etishda, turli yo'nalishlarda Begali Qosimov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Erik Karimov, Ahmad Aliyev, Ibrohim Haqqulov, Sherali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev, Rahim Vohid, Bahodir Karimov singari mutaxassislar «Cho'lponning badiiy olami», «Yassaviy kim edi?»,

«Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari» kabi to'plamlarni chop etishdi. G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Botir Valixo'jayevlarning qator kitoblari, I.Haqqulovning «Tasavvuf va she'riyat», N.Karimovning «Cho'lpon», B.Qosimovning «Maslakdoshlar» (Behbudiy, Ajziy, Fitrat), I.G'aniyevning «Fitratshunoslik» va O.Sharafiddinovning «Cho'lponni anglash» kabi maqola va tadqiqotlari milliy istiqlolning mevalaridir.

Mustaqillik davri adabiyoti ayni jamiyat yangilanayotgan, hayot yangicha mazmun kasb etayotgan bir paytda ozod so'z, fikr va ozod inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisani qamrab oldi. Har yili mustaqillik bayrami arafasida Prezident devoniga kelayotgan xatlarning aksariyatida fuqarolar o'z fikr-mulohazalarini she'r orqali ifodalayaptilar. Albatta, bu adabiyotning haqiqiy mazmunini belgilamaydi. Biroq, mustaqillik, fuqaro va adabiyot mushtarak bo'layotganidan, odamlar adabiyotga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.

Badiiy publisistika davrimizning eng hozirjavob janrlaridan biriga aylandi. Yangilanayotgan hayot jarayonlari, islohotlarning rivojlanish bosqichlari va ular orqali yangilanayotgan inson, yangilanayotgan jamiyat qadriyatlari mumkin qadar kengroq qamrab olinadigan va o'z vaqtida munosabat bildiradigan janr sifatida publisistika o'zining imkoniyatlarini ko'rsata bildi.

O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa'dulla ijodlari ayni mustaqillik davrining mazmuni orqali o'zining yangi imkoniyatlarini ko'rsatdi. Omon Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam» va «Tepalikdagi xaroba» romanlaridan iborat «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning qariyb uch ming yillik tariximizni mustaqillik evolutsiyasi orqali ifodalangan «O'zbeknoma» she'riy romani bugungi kun adabiyotining mevasidir.

Mavzuga doir eng muhim materiallar

Prezident I.Karimov nutqlari

Ehtirom

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun biz o'zbek xalqi hayotida unutilmas tarixiy bir voqeaning guvohi va ishtirokchisi bo'lib turibmiz.

Biz yashab turgan shu muqaddas zaminda buyuk bir davlatga asos solgan, olamni tebratgan, nomi yetti iqlimda mashhur bo'lgan ulug' bobokalonimiz Amir Temur haykalini ochish marosimiga yig'ildik.

Bugun Sharqda tengi yo'q sarkarda mustaqillik, istiqlol sharofati bilan o'z vataniga qaytdi.

Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'ringa qo'yish imkonidan mahrum edi.

Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad, xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-u idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Iymon-e'tiqodli, halol-pok bo'lib yetishdi.

U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq-u g'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-u fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko'rgazgan cheksiz mehr-muruvvati, ayniqsa, ibratlidir.

Ko'hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zahmat hamda ko'rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi.

Bugun bunyod etilgan ulug' bobokalonimiz haykalida teran ramz bor – go'yoki jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz qo'lini oldinga cho'zib jahon xalqlariga omonlik sog'inmoqda, «Kuch-adolatdadir!» demoqda.

Donishmand ajdodimizning mazkur so'zlarini mana shu muhtasham yodgorlik poyiga zarhal harflar bilan bitar ekanmiz, zamonlar tajribasidan o'tgan bu bebaho hikmatning qalblarimizda doimo aks-sado berib turishini orzu qilamiz.

Aziz yurtdoshlarim!

Bugun – o'zbek xalqi tarixida ulug' kun. O'zbekiston mustaqilligiga, muborak istiqlolimizga ikki yil to'ldi.

Hammangizni – keksa-yu yoshni, butun O'zbekiston ahlini shu buyuk sana bilan chin qalbdan, har biringizni alohida bag'rimga bosib qutlamoqqa ijozat bergaysiz!

Bu kunga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Shuning uchun ham ozodlikni sog'inib, ozodlik yo'lida kurashib o'tgan ajdodlarimizni duolar bilan eslashimiz ham qarz, ham farzdir. Ajdodlarimizning pok ruhlari shod bo'lsin, ularning orzulariga munosib va sadoqatli bo'laylik.

Istiqlol muborak, aziz vatandoshlar! Ozodligimiz abadiy bo'lsin!

Muhtaram do'stlar!

Ikki yillik istiqlol davrida jonajon diyorimizda bo'layotgan o'zgarishlar xalqimizga ishonch va umid bag'ishlamoqda.

Buyuk ayyom arafasida Temur bobomiz haykalining ochilishi o'ziga xos ramziy bir ma'noga egadir.

Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha'ni-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo'lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iymon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo'lmog'i shartdir.

Mamlakatimizning markazida, qadimiy va go'zal poytaxtimiz – jonajon Toshkentimiz o'rtasida qad ko'targan ulug' bobomiz siymosi xalqimizga faxr va g'urur baxsh etmog'i muqarrar!

Bu siymo mard, tanti, halol va g'ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo'lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi.

Barchamizga shu yo'lda Alloh madadkor bo'lgay!

Toshkent shahrida sohibqiron
Amir Temur haykalining
ochilishiga bag'ishlangan
tantanada so'zlangan nutq,
1993-yil 31-avgust

Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin

Muhtaram Federiko Mayor janoblari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, o'zbek xalqining buyuk farzandi Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» haftaligini o'tkazishga e'tibori va madadi uchun YuNESKO rahbariyatiga samimiy minnatdorchilik bildirishga ruxsat etgaysizlar.

XIV asrdagi bu buyuk shaxs sharafiga tantanalar Parijda – Yevropaning qoq markazida, tarixning o'zi yaqqol ko'rinib turgan,

ma'rifat, ilm-fan, san'at, abadiy go'zallik shahrida boshlanayotgani chuqur ramziy ma'noga ega.

Bugun ochilayotgan va Amir Temur hamda temuriylar davrining ulug'vor madaniy yutuqlariga asoslangan ko'rgazma o'tmish davrlardagi bebaho yodgorliklar, O'zbekiston tasviriy san'ati va xalq ijodiyoti namunalari bilan tanitish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Tarixda **«Turon», «Turkiston» va «Movarounnahr»** nomi bilan mashhur bo'lgan Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab-yashnadi, qudratli davlatlar mavjud bo'ldi. Ular insoniyat tarixida sezilarli iz qoldirdi.

O'zbekiston madaniyatining xilma-xilligini qadimgi davrlardan buyon turli karvon yo'llari, dunyoning turli tomonlaridan keladigan savdo-sotiq, insoniy aloqalar yo'llari va albatta – xalqaro aloqalar: iqtisodiy almashuv, hunarmandchilik, fan va san'at harakatlarining jonli qon tomiri bo'lgan Buyuk ipak yo'lining mavjudligi belgilab bergan.

Qadimgi **So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Kushon, Parfiya, Eftalitlar** podsholiklari jahonga buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va me'morlarni yetishtirib bergan diyorimizning oltin beshigidir.

O'zbekiston xalqi minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan ma'naviy meros bilan faxrlanadi.

Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termizning noyob tarixiy yodgorliklari, Buyuk Sharq mutafakkirlari **Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur** asarlari butun bashariyatning bebaho mulki bo'lib qoldi.

Xonimlar va janoblar!

Bir necha oydan so'ng O'zbekiston o'z mustaqilligining 5 yilligini nishonlaydi.

O'tgan yillar yosh respublika uchun yangi davlatchilikning qaror topishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotining shakllanishi yillari bo'ldi.

Eng muhimi – bu ma'naviyat manbalariga, milliy ildizlarimizga qaytish, tarixiy xotirani, madaniyat va ma'naviyatni qayta tiklash yillari bo'ldi.

O'zbekiston xalqi Fransiya, Buyuk Britaniya va Germaniyada, boshqa g'arb mamlakatlarida Amir Temur shaxsi bilan qiziqish hech qachon so'nmaganiga minnatdorlik bilan qaraydi.

Bu yerda XV asrdayoq Amir Temurga yodgorlik o'rnatilib, unga «Yevropaning xaloskoriga» degan chuqur ramziy ma'noli so'zlar yozib qo'yilgan.

Ayni Amir Temur bosqinchi to'dalarning Yevropa ichkarisiga qilayotgan harakatiga chek qo'yganini, boshqa tajovuzkorlik yurishlarini uzoq muddatga to'xtatib qo'yganini hozir inkor qilib bo'lmaydi.

Ma'rifatli **Movarounnahr ruhi**, temuriylar davrida fan va san'atning gullab-yashnagani Yevropada uyg'onish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko'maklashganini anglab faxrlanamiz.

«Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan ko'ra o'n baravar foydaliroqdir», degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi.

Bu faqat ulkan afzallikdagina emas, savdogarlar, xalqlar hech qanday to'sqinliksiz harakat qiladigan yangi yo'llarning ochilishida ham namoyon bo'ldi.

O'zaro ishonch, hamkorlik, umumiy murosaga kelish mumkinligiga aminlik o'sha murakkab va jo'shqin davr quvonchlari va azoblarida vujudga kelgan asosiy qadriyatlardir.

Buyuk strategik, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat'iy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo'lgan **Amir Temur «Qonunlar va urf-odatlarga asoslangan» davlatni barpo etdi.**

YuNESKO qarorgohidagi ushbu ko'rgazma Amir Temurning **«Chindan ham ishlarimiz bizni ko'rsatib turadi!»,** degan mashhur so'zlarini yaqqol tasdiqlamoqda.

Markaziy Osiyo madaniy va ma'naviy merosini o'rganish hamda qayta tiklashga doir maxsus dasturni ishlab chiqish va amalga oshirishga YuNESKOning qo'shgan ulushini O'zbekiston yuksak darajada qadrlaydi.

Bu O'zbekiston uchun, ayniqsa, qimmatlidir. O'zbekistonda, ma'lumki, mash'um sovet davrida ko'plab madaniyat yodgorliklari buzib yuborilgan, yer bilan yakson qilingan edi.

Shu sababli biz amalga oshirilayotgan turli loyihalarda, xususan, O'zbekiston hududidagi arxeologiya ekspeditsiyalarida turli mamlakatlar, shu jumladan, Yaponiya va Fransiya olimlari hamda mutaxassislarining ishtirokini juda qadrlaymiz.

Qo'riqxona majmualaridagi ta'mirlash ishlarida, mamlakatimizda xalqaro turizm industriyasini barpo etishda katta yordam ko'rsatilmoqda.

Xonimlar va janoblar!

YuNESKOdagi ko'rgazma hammangiz uchun O'zbekistonga, Amir Temur Vataniga borishga o'ziga xos taklifnomadir.

Ishonchim komilki, me'morchilik yodgorliklari, qadimgi qo'lyozmalar, Turkiston xalq ustalari yasagan buyumlar asrlar osha sizlarga ulug'vorligi va badiiy shakllarning puxtaligi bilan, fikr va ijod teranligi, ma'naviy soflik bilan zavq bag'ishlaydi.

Ular aql-idrokni yuksaklikka ko'taradi va hozirgi inson G'arbdami yoki Sharqdami – qayerda yashamasin, uning qalbiga yetib boradi.

Ko'z oldingizda ochilgan ko'rgazma ma'naviy va madaniy qadriyatlar bizni bir-birimizga yaqinlashtiradigan, hamjihatlikka erishishda yordam beradigan, hamkorlikning yangi ufqlarini ochadigan boylik ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Amir Temur zamonasida yaqqol namoyon bo'lgan bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bugun bizga yaxshi namuna bo'lib xizmat qilaversin.

Qadim-qadim zamonlarda vujudga kelgan Buyuk ipak yo'li yashayversin, qayta tiklanib, Sharq bilan G'arb hamjihatligiga, tinch va bunyodkorlik aloqalariga xizmat qilaversin.

Xonimlar va janoblar!

Bugun men ham quvonchli paytdan foydalanib, Fransiyaning taniqli olimi, professor Lusyen Keren Amir Temur hayoti va faoliyatini, temuriylar davrining boy ma'naviy qadriyatlarini ko'p yillar davomida samarali ilmiy tadqiq etgani, Fransiya va O'zbekiston xalqlari madaniyatining yaqinlashishi va hamjihatliligi ishiga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun O'zbekistonning yuksak davlat mukofoti – «Shuhrat» medali bilan taqdirlanganini ma'lum qilmoqchiman.

E'tiborlaringiz uchun tashakkur.

YuNESKO qarorgohidagi
«Temuriylar davrida ilm-fan,
madaniyat va maorifning gullab-yashnashi»
ko'rgazmasining ochilish
marosimida so'zlangan nutq,
1996-yil 24-aprel,
Parij

Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Qadrli oqsoqollar, muhtaram ulamolar!

Bugungi muborak juma tongida Alloh taolo barchamizni yana bir xayrli kunga yetkazdi. Sohibqiron bobomiz – hazrati Amir Temur ruhini shod qilib, u zot tavalludining tabarruk 600 yilligini nishonlamoqdamiz.

Biz bugun muqaddas islom dinimiz buyurgan bir farzni – o'tgan ajdodlarimizning ruhlarini xotirlash va shod etishdek ezgu burchimizni ado etmoqdamiz.

Muazzam poytaxtimiz Toshkent markazida ulug' Amir Temur nomi bilan ataluvchi go'zal xiyobonda yana bir tarixiy voqeaning guvohi bo'lib turibmiz. Sohibqiron bobomiz va uning shavkatli avlodlariga bag'ishlab bunyod etilgan muhtasham koshonaning ochilishi marosimida qatnashmoqdamiz. Bugungi marosim ota-bobolarimizdan

qolgan qadimiy odatlarga binoan xatmi Qur'on bilan boshlandi, yurtga osh tarqatilib duoi takbirlar qilindi.

Ko'pning duosi – ko'l, degan naql bor xalqimizda. Umid qilamizki, shu qutlug' ayyomda pokiza niyat bilan qilgan xayrli amallarimiz, olijanob tilaklarimiz tangrimiz dargohida qabul bo'lg'usidir.

Chunki ulug' bobolarimizning ruhlarini shod etsak, ularning arvohlarini rozi qilsak, yurtimizga fayz, qut-baraka yog'iladi, xalqimizning rizqi butun, iymoni mustahkam bo'lg'ay, inshoolloh.

Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug' qozongan, millatimiz faxri bo'lmish ulug' zotlar benihoya ko'p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o'rin tutadi.

Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temur hazratlaridir.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamroh-u hamnafas bo'lib bormoqda.

Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo'shimcha qilib sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko'zgusidan o'tkazib, **buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi**, deyish mumkin.

Umrining mazmunini **«Millatning dardlariga darmon bo'lishdan iborat»,** deb bilgan Amir Temur xalqimizning ana shunday ardoqli, ulug' farzandidir.

Muhtaram jamoat!

Hammamiz yaxshi bilamizki, tarixda mashhur jahongirlar ko'p o'tgan. Lekin ayting, dunyoning qaysi yerida, qaysi zamonda Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek buyuk davlat arbobi, Amir Temurdek ilm-fan, ma'naviyat va ruhoniyat homiysi bo'lgan?!

Bugun – hayotimizning barcha jabhalarida adolat va haqiqat qaror topayotgan tarixiy bir davrda shu fikrni alohida ta'kidlashni istar edim:

Amir Temur – bizning sha'n-shavkatimiz, g'urur-iftixorimizdir.

Amir Temur – xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir.

Aziz do'stlar!

Biz hazrati Temurni buyuk bunyodkor, deb boshimizga ko'taramiz. Ro'yi zaminning sayqali bo'lmish Samarqandda, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent va Sohibqiron qurgan bepoyon saltanatning boshqa hududlarida bunyod etilgan nodir me'moriy obidalar, tengsiz bog'-u rog'lar Temurbek bobomizga xos amaliy shijoat samarasidir.

U benazir zotning o'smirlik yillari mo'g'ul istibdodi avjiga chiqqan yillarga to'g'ri keldi. Bu paytda Movarounnahrday gullab-yashnagan poydor yurt tarixiy nomini ham yo'qotib, mustamlaka o'lkasiga – Chig'atoy

ulusiga aylanib qolgan edi. Masjid-u madrasalar, kutubxonalar vayron qilingan, sug'orish inshootlari ishdan chiqqan, son-sanoqsiz soliqlar, kelgindi va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi xalqning sillasini quritgan edi.

Bu kabi cheksiz adolatsizlikdan yosh Temurbekning qanchalar iztirob chekkanini bizning avlodimiz – siz bilan biz, ayniqsa, chuqur his etamiz. Chunki oradan olti asr o'tib, xuddi shunday ko'rguliklar bizning ham boshimizga tushdi.

Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini qovushtira bildi. Istiqlolchilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqlol bayrog'ini baland ko'tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi.

Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, axloqiy-ma'naviy mezonga aylandi.

Yigirma asrdan ortiq tarixga ega bo'lgan Toshkent Amir Temurning muqaddas qadamjolaridan biridir. Jannatmakon bobomiz qadim Shoshga alohida e'tibor bilan qaragan. Shu zaminda o'tgan Shayx Zayniddin bobo, Zangiota singari ko'plab mo'tabar zotlarning maqbaralarini obod qilib, ularning ruhlarini shod etgan.

Olti yuz yildan so'ng biz – Amir Temurning bugungi vorislari sohibqironning tabarruk nomlarini tiklash, ruhi poklarini shod etishdek savobli va sharafli ishga qo'l urib, shahri azim Toshkentning qoq markazida bobokalonimizga haykal o'rnatdik.

Bugun zo'r shodiyona bilan ochilayotgan temuriylar tarixi davlat muzeyi Sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir.

Aytish mumkinki, Amir Temur xiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir.

Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening bu so'zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi.

Kimki, O'zbek nomini, o'zbek millatini kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Aziz yurtdoshlarim!

Fursatdan foydalanib, barchamizning nomimizdan, el-yurtimiz nomidan shu oliy imoratni bunyod etishda jonbozlik ko'rsatgan barcha insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Qadrli vatandoshlar!

Amir Temurning bashariyat oldidagi o'lmas xizmatlarini ma'rifatli jahon munosib baholab kelmoqda. Sohibqiron yubileyining YuNESKO tomonidan xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani ana shu e'tirofning yorqin dalilidir.

Shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot nasib bo'lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirimizda Amir Temur shijoati jo'sh urayotganini o'ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixor tuyg'ulari qamrab oladi.

Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma'nosi – Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat degan oliy qadriyatlardan iboratdir.

Sohibqiron bobomizning ruhiyati istiqlol va hurlik, erkinlik g'oyalari bilan tabiiy va go'zal bir ravishda uyg'unlashib ketgan. U hatto umrining so'nggi onlarida ham zurriyodlariga qarata **«Istiqlol bilan mulk-u millat, lashkar va ra'iyatni boshqaringiz»,** deb vasiyat qilgan.

Chuqurroq o'ylab qarasak, bu vasiyat aynan bizlar uchun – buyuk sohibqironning bugungi avlodlari uchun aytilgan.

Hamisha el g'amini, yurt g'amini o'ylab yashagan sohibqiron yovlar ostida toptalgan o'lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do'stlar, barchamiz yakdil bo'lib, halol mehnatimiz, aql-u zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O'zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik! Bu yo'lda bobokalonimizning: «Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin», degan dono o'gitlari doimiy shiorimiz bo'lsin!

Muhtaram jamoat!

Bugungi marosim ham hademay tarix mulki bo'lib qoladi. Oradan yillar, asrlar o'tadi, ammo Xudoning marhamati bilan, adolat bilan tiklangan ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlari abadiy yashaydi.

Shu bois mening iymonim komilki:

Sohibqiron dahosi yo'lchi yulduz kabi charaqlab, bizni doimo olijanoblik va bunyodkorlikka chorlaydi!

Bu dunyoda xalqimiz, millatimiz, O'zbekistonimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayot!

Ilohim, hazrati Amir Temur e'zozlagan g'oyalar – shijoat va mardlik, adolat va qat'iyat har birimizga hamisha hamroh bo'lsin!

Jahonga Amir Temurdek buyuk dahoni bergan xalq mangu yashasin, baxt-u saodati ziyoda bo'lsin!

Barcha ezgu ishlarimizda tangrimizning o'zi madadkor bo'lsin!

Temuriylar tarixi Davlat
muzeyining ochilishi marosimida
so'zlangan nutq, 1996-yil 18-oktabr

Azaliy buyuklik maskani

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Qadrli samarqandlik birodarlar!

Avvalo, bugungi fayzli va tarixiy bir kunda shahri azim Samarqandga, barcha viloyat ahliga beqiyos hurmatimni, farzandlik mehrimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Ajdodlarni xotirlash, ularning ruhini shod etish xalqimizning azaliy udumidir. Bu muqaddas an'ana avlodlarni ezgulikka, o'tganlar oldidagi vorislik burchini ado etishga chorlaydi.

Bugun siz bilan ana shunday qutlug' daqiqalarda uchrashib turibmiz. Fursatdan foydalanib, iymon-e'tiqodli faxriylarimizga, Samarqand ahliga, ulug' bobokalonimiz Amir Temur arvohini shod etish uchun yig'ilgan barcha insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Qachonki, biz Amir Temur hazratlarini yod etar ekanmiz, sohibqiron saltanatining poytaxtini ham ehtirom bilan tilga olamiz.

Chunki Amir Temur va Samarqand tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Samarqand – xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan, ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskanimizdir.

Samarqand – o'tmishi sharafli, buguni saodatli, kelajagi abadiy shahardir.

Samarqandning ana shu olamshumul shuhratiga, tengsiz salobatining yuksalishiga, shonli tarixiga beqiyos hissa qo'shgan zot bobomiz Amir Temurdir.

XIII asrning birinchi yarmida Samarqand bosqinchilar zulmi tufayli xarobalikka yuz tutgan, qal'alar, masjidlar, madrasalar qarovsiz qolgan edi. O'sha zamonda yurtimizga kelgan bir arab sayyohining shohidlik berishicha, Samarqand shunday huvillab yotardiki, avvalgi aholisining chorak qismi qolgan, me'moriy obidalar vayronaga aylangan, ariqlar ko'milib ketgan, shahar suvsiz, bog'lar qurib bitgan edi.

Sohibqiron bobomiz ana shunday murakkab bir davrda taxt tepasiga keldi.

U Samarqandning gullab-yashnashi uchun butun umrini sarf etdi.

Bobokalonimiz Samarqandni jahondagi eng katta va qudratli davlatning poytaxti sifatida buyuk nufuz kasb etishini, mislsiz go'zal va obod bo'lishini har tomonlama taraqqiy topishini orzu qilgan edi. Bu ezgu niyat Samarqand qiyofasida o'z ifodasini topdi.

Hazrati Temur butun dunyodan va o'z yurtimizdan mohir me'morlarni, qo'li gul hunurmandlarni o'z poytaxtini barpo etishga jalb qildi, ularni ana shu olijanob maqsad yo'lida birlashtirdi. Ularning salohiyat va aql-zakovatini safarbar etib, ijodlariga ilhom bag'ishlab, olamda tengi va o'xshashi bo'lmagan me'moriy mo'jizalarni bunyod qildirdi.

Samarqandning moviy gumbazlari, osmono'par minoralari, ulardagi betakror ranglar, olam-olam mazmunga ega naqsh-u nigorlar bizni yerga qarab emas, boshimizni baland ko'tarib qadr-qimmatimizni bilib yashashga undaydi.

Bugun biz Amir Temur bobomiz buyuk bunyodkorlik rejalarini noyob obidalarda bekam-u ko'st mujassam etib, Samarqandni yer yuzining mo'jizasiga aylantirgan Badriddin ibn Shamsiddin usta Ali Nasafiy, Olim Nasafiy, Mavlono Ubaydulloh, Pirmuhammad Bog'ishamoliy, Mavlono Junays singari yuzlab-minglab me'mor-u muhandis ajdodlarimizni, hunarmand ustalarimizni ham eslab, ularning san'atiga tasannolar aytamiz.

Sohibqiron bobomiz dahosining sharofati bilan shahri azim Samarqand **yer yuzining sayqaliga** aylandi.

Bu oliy unvon shunchaki aytilgan chiroyli gap emas. Temuriylar saltanatining markazi, temuriylar qudratining timsoli bo'lmish bu tabarruk maskan olamning yetti iqlimida ma'lum-u mashhur bo'ldi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi ne-ne odamlar Samarqandni bir bor ko'rishni, uning muqaddas tuprog'ini tavof etib, aziz-aziz avliyolarning xoki poylarini ziyorat qilishni o'zlari uchun ulug' sharaf deb bilganlar. Jahonning barcha hududlaridan ilmtalab, ma'rifattalab insonlar Samarqand sari intilganlar. Chunki dunyoning eng katta va boy kutubxonalari, o'sha zamonning eng ulug' dorilfununlari – madrasalar, eng mashhur allomalar aynan shu yerda, mana shu zaminda faoliyat ko'rsatar edi.

Xalqimiz, shu jumladan, Samarqand ahlining bugungi hayotimiz va ertangi istiqbolimiz yo'lida qilayotgan mehnati, fan va madaniyat namoyadalarining izlanishlari sohibqiron davridagi o'sha olamshumul ishlarning uzluksiz davomidir. Bularning barchasi Samarqandning shuhratiga shuhrat qo'shyapti, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Samarqand nafaqat muqaddas obidalari va betakror tarixiy mo'jizalari, balki zamonaviy ishlab chiqarish salohiyati bilan, eng qimmatli boyligi – bag'ri keng, qalbi go'zal mehnatkashlari bilan butun dunyoda mashhur.

Aziz birodarlar!

Bugun Amir Temur to'yini nishonlashimizning, unga haykallar tiklashimizning, temuriylar davri me'moriy yodgorliklarini ta'mirlab obod etishimizning, u zoti sharifga bo'lgan ehtirom va muhabbatimizning sababi bitta:

Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir.

Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir.

Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Muhtaram yurtdoshlar!

Samarqand – azaliy buyuk va daholik qudrati mujassam bo'lgan, Alloh nazari tushgan maskan. Uning jahon ilm-u fani, madaniyati va san'ati rivojiga qo'shgan katta hissasi, siz muhtaram shahar ahlining ko'p asrlik ma'naviy merosimizni asrab-avaylab kelayotganingiz va mustaqil O'zbekiston shon-shavkatini oshirishdagi g'oyat katta xizmatlaringiz uchun Samarqand shahri «Amir Temur ordeni bilan taqdirlangan edi.

Bugun men uchun sharafli vazifani ado etish – qadrdon va aziz shahrimiz bayrog'iga ana shu ordenni qadab qo'yish nasib etdi.

Bu quvonchli voqea Amir Temur bobomizning muborak tavallud kunlarini nishonlash paytida, u zotning muhtasham haykali fayz bag'ishlab turgan shu go'zal maydonda sodir bo'lmoqda. Bu albatta, teran ma'no va mazmunga ega.

Qadrli Samarqand ahli!

Ana shu oliy mukofot bilan barchangizni chin qalbimdan muborakbod etaman!

Sohibqiron bobomizning siymosi Samarqand osmonida yulduz kabi nur sochaversin!

Millatimizning faxr-u iftixori bo'lmish azim Samarqand ham, hazrati Amir Temurning tabarruk nomlari ham, ona O'zbekistonimiz ham dunyo turguncha tursin!

Buyuk Amir Temur va aziz ajdodlarimizning ruhi poklari bizni qo'llab-quvvatlasin, yurtimizga tinchlik va osoyishtalik, xalqimizga farovonlik va baxt-u saodat ato etsin!

Samarqand shahrida
Amir Temur haykalining ochilish
marosimida so'zlangan nutq,
1996-yil 18-oktabr

Sohibqiron kamolga yetgan yurt

Assalomu alaykum aziz vatandoshlar!

Muhtaram do'stlar!

Bugun Temurbek bobomizning qadimiy yurtida, mard va tanti, halol va shijoatli, oriyati baland, iymoni butun insonlar yurtida turib, avvalambor go'zal Shahrisabz ahliga, butun qashqadaryoliklarga ezgu tilaklarimni izhor etaman!

Qadimiy va tabarruk Shahrisabz zamini g'oyat qutlug' maskandir. Jahon madaniyati betimsol namoyandalarining zuvalasi mana shu tuproqdan olingan. Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib kabi allomalarning ota-bobolari xuddi shu joyda kamol topganlar. Lekin bu el-yurtni butun jahonga mashhur etgan, dong'ini taratgan zot, shubhasiz, sohibqiron Amir Temur bobomizdir.

Hazrati Amir Temurning butun suronli umri, uning bunyodkorlik bilan yo'g'rilgan faoliyati salkam yetti asrkim, xalqimiz, millatimiz nomini olamga yoyib kelmoqda. Bu nomni mustabid tuzum qanchalik toptashga urinmasin, dunyoning pok niyatli kishilari ulug' ajdodimizga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatishni o'zlariga sharaf, deb bilganlar.

Muborak istiqlol bobomizning nomini qaytib berdi, uning ruhini shod etdi.

Amir Temurday ulug' zotni kamolga yetkazgan ota makon – tabarruk Kesh yurtining millatimiz tarixida, shu zaminda yashayotgan el-ulusning boshini qovushtirishda o'rni beqiyosdir. Bobokalonimizning Turkiston diyorini bosqinchilardan xalos qilish yo'lidagi jasur harakatlari aynan shu mo'tabar yurtdan boshlangan.

Sohibqiron o'z ota makonini behad qadrlagan. Bu makon Amir Temur hazratlarining nainki ota-bobolari, balki pir-u ustozlari va farzandlarining ham xoki poklari bilan mukarram bo'lgan. Buyuk bobomizning to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzo xuddi shu yerda mangu uyquda yotibdi.

Hazrati Temur o'z oldiga ulug'vor maqsadlarni qo'yganida, avvalo o'z eliga, o'z ona yurti – Keshga ishongan va unga tayangan. U qaysi bir safaridan qaytmasin, dastavval Keshni ziyorat qilgan, aziz-avliyolarning qadamjolarini tavof etgan, hamyurtlarining duo va maslahatlarini olgan.

Hurmatli birodarlar!

Buyuk bobomiz haqida soatlab so'zlash mumkin. Ulug' zotlarning tarix osmoniga yuksaladigan manzillari bo'ladi. Bugun Sharq olamida «Ilm-u adab qubbasi» deya e'tirof etilgan Shahrisabz hazrat Amir Temur uchun ana shunday parvoz nuqtasidir. Biz sohibqiron bobomizning qutlug' to'yini o'tkazayotgan shu kunlarda eng avval bu zoti sharifni dunyoga keltirgan va voyaga yetkazgan el dahosiga va tabarruk zaminga ta'zim qilamiz.

Katta ishonch bilan shuni ta'kidlashim kerakki, bu yurtning farzandlari, Temurbekning nabiralari o'z qalblarida ulug' bobosiga xos go'zal fazilatlarni asrab-avaylab, bugungi hayotimizda ham namoyon qilmoqdalar.

Aziz do'stlar!

Ming afsuskim, ko'p yillar davomida mustabid bosqinchi mafkura davrida bizni Amir Temurdek buyuk bobomizdan, boy o'tmishimizdan ayirib, xalqimizning ma'naviyatini, g'ururini, iftixorini yerga urmoqchi bo'ldilar. Yurtimizda, jumladan, Shahrisabzda bevosita sohibqironning sa'y-harakatlari bilan bunyod etilgan tarixiy obidalar xarobaga aylantirildi. Hatto ul zot va avlodlarining qabr-maqbaralari ham «ilmiy tadqiqotlar» niqobi ostida talon-toroj etildi, toptaldi.

Lekin xalqimiz ulug' ajdodini hech qachon unutmadi. Uning xotirasini hamisha yuragida saqladi.

Qadrli Shahrisabz ahli!

Mana shu qarshimizda turgan Oqsaroy har birimiz uchun tariximizning aziz va mo'tabar yodgorligidir. Bu ulug' bino ham mustamlakachilar tajovuzining qurboni bo'lganini yaxshi bilasiz. Sohibqironning ulug'vor haykali aynan Oqsaroy oldida qad rostlagani bejiz emas. Buning o'ziga xos, o'ziga mos chuqur ramziy ma'nosi bor.

Jannatmakon Amir Temur bobomiz bu koshona peshtoqiga shunday bir hikmatni naqsh etib ketganlar. Uning mazmuni sizlarga ma'lum: **«Kimki bizning shon-shuhratimizni ko'rmoqchi bo'lsa, biz barpo etgan imoratlarga nazar solsin»**.

Bu ko'hna dunyoda jahongirlar ko'p o'tgan. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. U muborak zot aytganlarki: **«Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim»**.

Yana bir o'rinda esa shunday deganlar: **«Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetkazmaydigan tartib-intizom o'rnatdim»**.

Hali telefon, telegraf, kommunikatsiya vositalari bo'lmagan bir sharoitda Amir Temur Sharqni G'arb bilan tinchlik, tijorat, elchilik yo'li vositasida birlashtirishga harakat qilgan. Bizning bugungi siyosatimiz Amir Temurning bu borada olib borgan olijanob ishlarining davomidir.

Muhtaram do'stlar!

Karami ulug' Alloh xalqimizga, Vatanimizga shu qadar marhamat qilibdiki, millatimizga Amir Temurdek buyuk sohibqironni beribdi. Buning uchun yaratganga har qancha shukrona aytsak arziydi.

Insoniyat yangi asrga qadam qo'yayotgan bugungi kunda ham Amir Temur ma'naviyati va shijoati, adolatparvar siyosati yuksak ibrat namunasi bo'lib qolg'usidir.

Yana bir bor ta'kidlamoqchimanki, **kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.**

Bugungi qutlug' kunda Amir Temur bobomiz baland ko'targan va asrimiz oxiriga kelib bizning qo'limizda qaytadan mag'rur hilpirayotgan mustaqilligimiz bayrog'i ostida turib sizlarni, barcha xalqimizni shu ulug' shodiyona bilan muborakbod etaman.

Ma'lumki, Shahrisabz ahlining temuriylar davri ulkan madaniy va ma'naviy merosini, noyob tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodimizning munosib vorislari, ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib tarbiyalash ishiga qo'shgan alohida xizmatlarini e'tiborga olib, Shahrisabz shahri «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlangan edi.

Bugungi shu yuksak mukofotni sizlarga topshirishdan nihoyatda xursandman.

Aziz do'stlarim, yurtdoshlarim!

Buyuk sohibqironning mo'tabar nomi bilan ataluvchi orden sizlarga muborak bo'lsin!

Bu oliy nishon ulug' bobomizni voyaga yetkazgan mo'tabar beshikka tumor bo'lsin!

Iloyo, hammamizni sohibqiron Amir Temurning o'lmas ruhlari hamisha qo'llasin va barcha ishimizda madadkor bo'lsin!

Shahrisabz shahrida
Amir Temur haykalining
ochilish marosimida so'zlangan
nutq, 1996-yil 18-oktabr

Adolat va qudrat timsoli

Sohibqiron Amir Temurning 660 yillik tavallud to'yi mamlakatimizda zo'r shod-u xurramlik bilan davom etmoqda. 1996-yil 18-oktabr kuni Samarqand va Shahrisabz shaharlarida ulug' bobomizning muhtasham haykallari qad rostladi. Bundan uch yil muqaddam go'zal Toshkent markazida hazrati Temurning ulug'vor suvoriy haykali o'rnatilgan edi.

Endilikda bir-biri bilan uzviy bog'liq uch muazzam badiiy obida shavkatli ajdodimizning adolat va qudrat ramzi bo'lgan benazir siymosini yaxlit holda tasavvur etish imkonini beradi.

Samarqand va Shahrisabzdagi tantanalar chog'ida Sohibqiron timsolini mujassam etgan haykallar marosimga yig'ilgan jamoat, uzoq-yaqin mamlakatlardan kelgan mehmonlarning hayrat va hayajoniga sabab bo'ldi. O'zbekiston Milliy axborot agentligining muxbiri Prezident Islom Karimovdan Amir Temur obrazining mazkur badiiy talqinlari haqidagi taassurotlarini so'radi. Yurtboshimiz muxbirning savoliga ko'tarinki kayfiyat bilan javob berib, jumladan bunday dedi:

– Avvalo, bu haykallarga Amir Temurning salobatli va ulug'vor qiyofasi munosib tarzda yaratilgan, deb aytsak, mubolag'a bo'lmaydi. Shaxsan men Sohibqiron bobomizning siymosiga boqar ekanman, vujudimni ichki bir hayajon chulg'aydi. Diqqat bilan qarasangiz, hazrati Temurning nuroniy, shijoatli qiyofasida u zotning bu dunyoga kelib qilgan ishlaridan, kezgan yo'llaridan, suronli o'tgan umridan, tuzgan beqiyos davlatidan mamnunlik ifodasini uqish mumkin.

Haqiqatan ham, Samarqanddagi yodgorlikda Amir Temur buyuk saltanat taxtida sultonlar sultoniga mos viqor va salobat bilan o'tiribdi. Sohibqironning qaddi-qomati ham, savlati, chehrasi ham uning toza nasl-nasabidan, tangri yorlaqagan ulug' zot ekanidan dalolat beradi.

Amir Temur haykallarida e'tiborga molik yana bir ma'no o'z ifodasini topgan. Sohibqironning shafqat va ayni paytda qat'iyat bilan boquvchi

nigohi uning bepoyon saltanatini qamrab olgandek, bu ulkan hududdagi barcha xalqlar va elatlarning ahvol-ruhiyasidan ogoh bo'lib turgandek taassurot qoldiradi. Go'yoki bobokalonimiz: **«Men bor ekanman, mening ruhim barhayot ekan, el-ulusda omonlik va farovonlik mudom barqaror bo'lg'ay, menkim Amir Temur – tinchlik va osoyishtalik kafiliman»**, deb turgandek.

Mening nazarimda, Sohibqironning bu haykallari nafaqat badiiy, balki katta ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Amir Temur bobomizning bemisl shijoat, azm-u qaror va o'ktamlik fazilatlari namoyon bo'lgan qiyofasi yoshlarimizni, kelajak avlodimizni buyuk marralarga, ezgu, savobli ishlarga ruhlantirishi va safarbar etishiga ishonaman.

Bu go'zal va ulug'vor obidalarni ziyorat qilganda go'yoki Sohibqironning dil sadosi yuraklarimizda aks-sado berayotgandek tuyiladi. «Avlodlarim, unutmang: bizning nomimizni toptashga uringanlar, bizning millatimizni, xalqimizni kamsitmoqchi bo'lganlar bugun zavol topdilar, aksincha, kimki, bizning sha'n-u shavkatimizni, haq va xalq yo'lida qilgan xizmatlarimizni yod etgan bo'lsa, ularga Allohning marhamati va zafarlar yor bo'ldi va hamisha yor bo'lg'usidir. Zero, bizning yo'limiz – adolat va ozodlik yo'lidir, diyonat va haqiqat – bizning dasturimizdir».

Bu so'zlar, har birimizni Sohibqironga munosib zurriyodlar bo'lishga da'vat etadi.

Chindan ham, Amir Temurning yurtimizda mag'rur qad rostlab turgan ulug'vor haykallari, xalqimizning asriy orzulari, pok va muqaddas niyatlari ushalganidan, duoi fotihalari ijobat bo'lganidan yana bir dalolat beradi.

1996-yil 18-oktabr

Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz

Xonimlar va janoblar!

Konferensiyaning muhtaram ishtirokchilari!

Aziz do'stlar!

Barchangizni o'zbek zaminida qutlashga va Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan tantanalardagi ishtirokingiz uchun minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Xalqimiz nomidan Temur va temuriylar davriga yuksak ehtirom ko'rsatayotgan barcha davlat va jamoat arboblariga, olimlarga, san'at va madaniyat namoyandalariga, xorijdagi yurtdoshlarimizga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Qadrli konferensiya qatnashchilari!

Men bugun Amir Temur davri va bu buyuk tarixiy shaxs ma'naviy merosining hozirgi zamondagi ahamiyati xususida ba'zi fikrlarimni sizlarning e'tiboringizga havola qilmoqchiman.

Avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon

talablari, kerak bo'lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat – xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi. Bunday qonuniyatni ko'plab misollarda tasdiqlash mumkin. Shuning uchun ham Amir Temur shaxsi va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, dastlab shu davrdagi, shu asrdagi tarixiy vaziyat haqida alohida to'xtalib o'tishimiz lozim.

Amir Temur siyosiy sahnaga qadam qo'yganda endigina 24 yoshga kirgan edi. Mamlakatda boshboshdoqlik, mahalliy, siyosiy kuchlarning o'zaro qarama-qarshiligi avjiga chiqqandi. Bu ham kamdek asosiy qudrati tarixiy Mo'g'ilistonda mujassamlashgan chingiziylar tez-tez Movaro-unnahrga zug'um qilib turardilar.

Bir yarim asrga yaqin davom etgan bu muddat qaramlik jafosini har tomonlama chekib kelgan oddiy fuqarolardan tortib, ko'pchilik yirik siyosiy arboblar-u din peshvolarigacha barcha-barcha uchun nihoyatda og'ir davr bo'lgan. Jamiyat ozodlik va taraqqiyotga bo'lgan manfaatlarini o'zida mujassam etgan xaloskorga, yetakchiga mushtoq edi.

Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday xaloskor va yetakchi sifatida maydonga chiqdi.

Ikkinchi xulosa aslida birinchi fikrning mantiqiy davomidir. Kimki Amir Temur qadimiy Turkiston zaminida tasodifan paydo bo'lgan desa, xato qiladi. Nega deganda hech narsa to'satdan paydo bo'lmaydi. Hamma narsaning o'z qonuniyati bor.

Al-Xorazmiy, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy, Bobur va boshqa o'nlab-yuzlab daholarimiz ham to'satdan, yaydoq bir joyda paydo bo'lgani yo'q. Ular mana shu zaminda yuzaga kelgan muhitning hosili sifatida paydo bo'lgan. Ma'lumki, hosil paydo bo'lishi uchun zaminni oziqlantirish kerak. Tuproqni o'g'itlab, parvarish qilib, shundan so'nggina daraxt ekish kerak.

Ya'ni, men bu bilan demoqchimanki, bu zamin – qadimiy Turon va Turkiston zamini azaldan ma'naviy oziqlangan, madaniy qatlamga ega bo'lgan. O'zbek davlatchiligining tarixiy asoslari qaror topganiga Amir Temur zamonasida ikki ming yildan oshgan edi.

Yana ta'kidlab aytaman: yurtimizga Amir Temur bosh bo'lgan yillarda siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlar bo'm-bo'sh, huvillagan joyda yuzaga kelmagan. Balki shu makonda qadimdan rivojlanib, shakllanib kelgan tarixiy-madanıy an'analar asosida qaror topgan.

Yanada aniqroq aytsak, Amir Temur o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixiy ravnaqida tasodifiy shaxs, umuman temuriylar davridagi yuksalish esa shunchaki bexosdan yuz berib qolgan hodisa emas! U bir necha ming yillik tarixiy tajriba, buyuk an'ana, tom ma'noda shakllangan madaniy-ma'naviy jarayon mahsulidir!

Uchinchi mulohaza ham bildirgan birinchi va ikkinchi xulosa bilan uzluksiz bog'langan. Jahon madaniy va ma'naviy jamoatchiligi o'rta

asrlarda Amir Temur tuzgan davlat va uning butun dunyo e'tiborini o'ziga jalb qilgan olamshumul faoliyati, umumbashariyat xazinasiga qo'shgan hissasi bilan tanishar ekan, uni o'stirgan yurtga va mana shu hududda undan ko'p asr oldin o'tgan buyuk allomalarning ijodiy merosini, ularning tabarruk nomlarini ham yana bir bor kashf etishi va keng miqyosda o'rganishiga zamin va sharoit tug'ildi.

Shu ma'noda IX asrdayoq yevropaliklar keyinchalik «Algebra» deb atagan fanga asos solgan buyuk vatandoshimiz Al-Xorazmiyning;

Xristofor Kolumbdan qariyb besh asr oldin okean ortida quruqlik, ya'ni keyinchalik Amerika deb nom olgan qit'a borligini bashorat qilib, ilmiy asoslab bergan qomusiy bilim sohibi Abu Rayhon Beruniyning;

«Tib qonunlari» nomli mashhur asarining o'ziyoq lotin tilida 30 martadan ziyod nashr etilib, o'rta asrlarda butun dunyo, shu jumladan Yevropa tibbiyot institutlarida qo'llanma sifatida o'qitiladigan ulug' ajdodimiz Ibn Sino kabi ko'plab allomalarning nomlari va ilmiy ishlari bilan dunyo ahli aynan Amir Temur zamonida qaytadan va chuqurroq tanishgan, deb aytsak, menimcha mubolag'a bo'lmaydi.

Qisqacha aytganda, Amir Temurdek mislsiz yorqin shaxs tarix sahnasida tayyor bo'lib, o'zini tarbiyalagan, o'zga hayotbaxsh ma'naviy ozuqa bergan, uni buyuk ishlarga chorlagan el-yurtining nomiga va madaniyatiga jahon miqyosida katta qiziqish uyg'otganini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman.

To'rtinchi fikr. Biz Amir Temur tarixini har tomonlama chuqur o'rganishimiz va tadqiq qilishimiz kerak. Bugungi anjuman ana shu yo'ldagi muhim qadamdir. Sir emaski, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan sovet jamiyatida tarix fani ham ulug' davlatchilik, ulug' millatchilik g'oyalarining qurboni bo'lgan edi. Shu sababli bu davrda sobiq Sovet ittifoqi hududida yaratilgan tarixiy asarlarda Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan bir yoqlama baho berildi. Bu g'oya yer yuzining oltidan bir qismini egallagan ulkan hududda yashagan 250 million xalqqa zo'rlab singdirildi. Ana shunday noto'g'ri va g'ayriilmiy qarashlarga tanqidiy baho berib, Amir Temurga nisbatan tarixiy adolatni qaror toptirish bugungi temurshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Beshinchi fikr. Ming afsuski, biz boshimizdan o'tkazgan mustabid tuzum tufayli shunday bir ahvolga tushib qolgan edikki, ulug' ajdodimizning tarixi va faoliyatini, bashariyat rivojiga qo'shgan hissasini bugungi kunda xorijda – AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniyada, Hindiston, Turkiya, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlarda bizning o'zimizdan ko'ra ko'proq bilishadi. Bizlar – ya'ni Amir Temurning Vatani bo'lmish shu zaminda o'sgan odamlar uning faoliyatini juda oz bilamiz. Aytinglar, aziz do'stlar, bundan ham ortiqroq adolatsizlik, noinsoflik bo'lishi mumkinmi?!

Bu holat bizning mustamlaka zulmida yashaganimizning isboti, bizni buyuk tariximizdan butunlay judo qilishga bo'lgan intilishlarning oqibati emasmi?

Bugun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Temur va temuriylar davri haqida ko'plab kitoblar nashr etilmoqda.

Dunyo ilmiy jamoatchiligining Amir Temur shaxsiga bo'lgan yuksak e'tiborini hisobga olib, YuNESKO tashkilotining bugungi mo'tabar sanaga bevosita homiylik qilayotgani ham, bizning fikrimizcha, g'oyat adolatli bir ish bo'ldi.

O'tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqinni tashkil etadi.

Buyuk bobomizga bo'lgan bu qadar yuksak e'tiqod va ehtirom-ingiz uchun men mana shu minbardan turib sizlarga va sizlar orqali Amir Temurga izzat-ikrom ko'rsatgan barcha insonlarga, sizlardan oldin yillar davomida, asrlar mobaynida bizning ulug' ajdodimizning merosini xolisona o'rgangan va uning nomini abadiylashtirgan fidoyi olimlarga, ilmiy dargohlarga yana bir bor tashakkur bildiraman.

Bu olijanob ishga xorijdagi tarixchilarni hech kim da'vat etgan emas. Bu ishlar ular uchun katta boylik va nufuz orttirish manbayi ham bo'lmagan. Ammo bu olimlarning ilmiy vijdoni, kerak bo'lsa, insoniy vijdoni shuni taqozo qilgan. Biz bunday odamlarga, mana shu zalda o'tirgan uzoq va yaqin qo'shni davlatlarning vakillariga har qancha tasannolar aytsak arziydi.

Bizning bugungi asosiy vazifamiz shundan iboratki, asrlar davomida dunyoning turli mamlakatlarida Amir Temur merosiga bag'ishlab yirik ilmiy markazlarda haqiqatgo'y olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarni chuqur o'rganishimiz, sizlarning kitoblaringizni tarjima qilishimiz, xalqimizga, kelgusi avlodimizga tarixni xolis va haqqoniy o'rgatuvchi darsliklar sifatida, bizning faxr-u iftixorimiz sifatida taqdim qilishimiz kerak.

Ishonchim komilki, sizlar va sizlardan oldin o'tgan temurshunos do'stlarimizning ilmiy jasorati, mashaqqatli mehnati bugun biz uchun eng katta boylikdir.

Muhtaram konferensiya ishtirokchilari!

Yana **bir muhim masalaga** to'xtalib o'tmoqchiman.

Ozod va obod O'zbekiston uchun bugun Amir Temur shaxsiyati va merosi nima uchun kerak?

Buyuk ajdodimizning qaysi fazilatlari biz uchun aziz?

Birinchidan, Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi.

O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur o'z davlatini faqat kuchga suyanib boshqargani yo'q. Afsuski, ba'zi manbalar va tadqiqotlarda shunday fikrlar bayon qilinadi. Shaxsan men bu nuqtayi nazarga qarshiman. Agar bu davlat faqatgina kuchga tayangan holda tuzilgan bo'lsa edi, avvalambor, bunchalik uzoq davr turolmasdi.

Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi.

Uning **«Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim»**, degan so'zlari buning yorqin dalilidir.

Ikkinchidan, Amir Temur bundan 600 yil avvaloq hech qanday davlatning qo'shnilari bilan o'zaro aloqa tuzmasdan, ya'ni bugungi til bilan aytganda, **hamkorliksiz** istiqboli bo'lmasligini teran va yaxshi anglagan. Shu sababli, u Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan – Xitoy, Hindiston, bir tomondan – Fransiya va Angliya, yana bir tomondan – Rum, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga uringan.

Amir Temur faoliyatidagi biz uchun ibratli nuqtalardan yana biri shundaki, u savdo-iqtisod munosabatlari orqali xalqlar, mamlakatlar o'rtasida yagona makon barpo etish sohasida shunday yutuqlarga erishganki, bunga qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q.

Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o'z saltanatida qabul qilgan.

Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikri diqqatga sazovordir: **«Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak».**

Qarang, qanday oddiy va aniq fikr: **dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak!** Demak, Amir Temur tashqi siyosatida xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarini keng miqyosda yo'lga qo'yish, undan barchani, avvalambor, o'zining xalqini bahramand etish bosh g'oya bo'lib xizmat qilgan.

XXI asr bo'sag'asida siz bilan biz xalqaro miqyosda adolatli tarzda yaratmoqchi bo'lgan integratsiya makoni haqida Amir Temur bundan 600 yil burun bosh qotirgan va shu yo'lda siyosat yuritgan. U barpo etgan yagona iqtisodiy-savdo maydonida bugungi kun uchun ham, bugungi zamon uchun ham ibratli bo'lgan vaziyat mavjud edi. Amir Temurning mana bu so'zlari bunga dalildir:

«...Saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib intizom o'rnatdim».

Uchinchidan, Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari undan ham beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari sa'y-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, ko'priklar, yo'llar, bekatlar, hammomlar, kanallar, qal'alar va boshqa qator imorat-u inshootlarning son-sanog'i yo'q.

Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome' masjidi, Go'ri Amir va Ahmad Yassaviy, Zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zindadagi me'moriy mo'jizalar, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy-bog'lar va boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi. Bu obidalar, hech shubhasiz, inson tafakkuri va aql-zakovatining buyuk timsollaridir.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur **«Obodonchilikka yaraydigan biron qarich yerning ham zoye bo'lishini ravo ko'rmasdi»**.

Tarix bu ko'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan.

Uning **«Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim»**, degan so'zlari fikrimizning dalilidir.

Eng muhimi, mazkur qurilishlar geografiyasi birgina Turkiston bilan chegaralanib qolgan emas. Buning isboti sifatida Sohibqiron qadami yetgan joylardagi tarixiy obidalarni eslashning o'zi kifoya.

Amir Temur Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloq-larida, hatto Janubiy Ozarbayjon va Kobul kabi uzoq yerlarda ham obodonlik ishlarini olib borgan, sug'orish inshootlarini qurdirgan.

Shu ma'noda men buyuk bobomizdan qolgan har bir tarixiy yodgor-likni, u qayerda joylashgan bo'lmasin, xalqlarni bir-biriga bog'lab turuvchi beqiyos vosita, deb bilaman.

Bir o'ylab ko'raylik. Ahmad Yassaviy maqbarasi qurilganiga olti asr bo'ldi. Shu vaqt ichida bu maskan dunyoning turli burchaklaridan kelgan minglab-millionlab ziyoratchilarni ma'naviy jihatdan birlashtirib, ezgulikka da'vat etib kelmoqda.

«Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing», deganda Amir Temur, eng avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yangilishmagan bo'lamiz.

To'rtinchidan, har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etish, ilm toliblariga

nafaqalar tayinlash bilan bog'lagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin, Amir Temur eng avvalo o'sha yerlik olim-u fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.

Tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun bu tabiiy hol edi. Mazkur fazilat Sohibqironning avlodlari – ayniqsa, Mirzo Ulug'bekka o'tgani – shubhasiz. Mirzo Ulug'bekning davlat arbobi bo'lish bilan bir qatorda buyuk olim darajasiga yetishishida bobosi Amir Temurning ta'siri benihoya katta bo'lgan. U Ulug'bekdagi noyob iste'dodni boshdanoq payqab, safarlarda ham yonida olib yurib, dunyoning mashhur olimlari tarbiyasidan bahramand etgan.

Beshinchidan, Amir Temur o'z millati va el-yurtining taqdiri haqida ko'p o'ylagan. U qo'ygan har bir qadam nafaqat o'sha davr uchun, balki kelajak sari xizmat qilgan.

Tarixda hukmdorlar ko'p o'tgan. Ularning aksariyati o'z maishati va aysh-u ishratidan nariga o'tmaganligi ma'lum. Ularni bugun birov eslamaydi ham. Biroq, millat g'amida yongan, uning istiqboli va istiqloli yo'lida fidokorlik ko'rsatib yashagan arbobni kelajak va tarix hech qachon unutmaydi. Amir Temur ana shunday tarixiy va unutilmas shaxsdir.

Uning insoniy fazilatlariga bir yorqin misol: 1404 yilda Bibixonim jome' masjidi qurilishini nihoyasiga yetkazayotganida uning umridan bir yil qolgan edi, xolos.

Keksayib qolgan bir odamga, o'zi avval barpo etgan o'nlab va yuzlab inshootlar yoniga yana bir binoni qo'shish shart edimi? Uning shon-u shuhrati shusiz ham yetarli edi-ku?

Bu misol ham Amir Temurning doimo uzoq kelajakni, avlodlari iqbolini o'ylab yashaganidan, umr bo'yi ulug'vor rejalar va g'oyalar uni aslo tark etmaganidan dalolat beradi.

Oltinchidan, Amir Temur bir haqiqatni yaxshi anglagan – jamiyat e'tiqodsiz yashay olmaydi. Odamlarga din kerak, iymon kerak, ishonch kerak. U o'z «Tuzuklari»da shunday deydi: **«har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim»**.

Amir Temurning Qur'oni Karimni yod bilgani, diniy bahslarda yirik ulamolar bilan barobar so'z yuritgani uning ma'naviyati, iymon-u diyonati qanchalar pok va mukammal ekanini bildiradi.

Ma'lumki, diniy ta'limot va tarbiyatning jamiyat hayotidagi o'rni va xizmati nihoyatda katta.

Amir Temurning islom diniga bo'lgan munosabatidagi eng muhim qirra, bu – musulmonchilik aqidalarining jamiyat osoyishtaligi, ravnaqi, ijtimoiy adolat, iymon butunligi, ma'naviy poklik uchun xizmat qildirishga safarbar etilishidir.

Uning e'tiqodiga ko'ra, davlat **davlatligini, din esa dinligini qilishi kerak.** Bu g'oya bugungi zamonda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgan emas. Xuddi shu tufayli ham Amir Temur davrida islom dini ravnaq topdi, yuksaldi.

Shu bilan birga xalq dunyoqarashi, tafakkur tarzi ham ancha rivojlandi. Aholi va davlat o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda mutanosib tus oldi.

Buyuk jahongir Amir Temur Sohibqiron o'limi oldidan avlodlariga shunday vasiyat qilgan:

«... Men shundan taskin topamanki, podshohlik davrimda kuchlilarning ojizlarga ozor berishlariga yo'l qo'ymadim. Xalqlar osoyishtaligi borasida qaram fuqarolardan xabardor bo'lib turinglar, qat'iyatli va mardonavor bo'linglar. Ulkan davlatni menday uzoq yillar davomida boshqarish uchun qo'llaringdagi shamshirni sharaf va nomus bilan mahkam tutinglar...

Agar, sizlar mening vasiyatlarimga amal qilsalaringiz va boshqa ishlaringizda adolatga, shafqatga ko'ra ish tutsalaringiz, tinchlik-osudalik Turon zaminida uzoq vaqt saqlanadi.

Agarda o'zaro nizolarga yo'l qo'ysalaringiz, dushmanlar to'polon va tartibsizliklarni boshlaydilarki, ularni jilovlashning iloji qolmaydi. **«Sizlar bir jon, bir tan bo'lsalaringiz, hech kim mening so'nggi vasiyatlarimni bajarishlaringizga monelik qila olmaydi».**

Bu dono vasiyatlar asrlar osha bizning davrimizga qadar yetib keldi. Undan huddi hozirgi davrning nafasi sezilib turgandek. Ulug' bobokalonimiz bizni adolatga, sodiqlikka, birlikka chorlamoqda. O'zaro nizo adovatlardan xoli bo'linglar, deb, insof, shafqat va halollikka undamoqda.

Muhtaram konferensiya qatnashchilari!

Sizlarda shunday bir savol tug'ilishi mumkin: nima uchun bugun O'zbekistonda Amir Temur siymosiga bunday yuksak ehtirom, izzat-ikrom ko'rsatilmoqda?

Albatta, buning sabablari bor.

Agarki daraxtning ildizi qanchalar chuqur bo'lsa, u shunchalik baland, baquvvat, osmono'par bo'ladi. Yoki zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, bino qanchalik baland bo'lsa, uning poydevorini ham shunchalik chuqur va mustahkam qurish kerak.

Biz bugun mustaqil, adolatli, huquqiy davlat qurmoqdamiz. O'ylaymanki, bizning bu boradagi prinsiplarimiz – besh tamoyilimiz haqida bu zalda o'tirgan ko'pchilikning xabari bor. Binobarin, ularni takrorlab o'tirishning zarurati yo'q. Lekin men ikkita nuqtaga sizlarning e'tiboringizni qaratmoqchiman:

– **birinchidan**, biz o'z millatimiz, o'z xalqimiz xususiyatlariga, o'z milliy qadriyatlarimizga asoslanib;

– **ikkinchidan**, taraqqiy topgan davlatlarning tajribalariga va umumbashariy aqidalarga tayanib, mustaqil davlatimizni qurmoqdamiz va shu asosda jahon hamjamiyatidan o'z munosib o'rnimizni egallab olmoqchimiz.

Xulosa shuki, bizning tariximizda Amir Temurday ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, fan va o'gitlari bugungi hayotimizga ha-

mohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q.

Shuning uchun ham mana shu minbardan turib, butun O'zbekiston xalqiga, qolaversa, butun jahon ahliga qarata: «Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz!», deb aytsam, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'laman.

Xonimlar va janoblar!

Zamonamizning ko'pgina dolzarb muammolari insoniyatning o'tmishdagi tajribasini chuqurroq tushunishni taqozo etadi. Xuddi shu narsani bugungi konferensiyamizning muhim vazifa va maqsadlaridan biri, deb bilmoq kerak.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, o'zbek xalqining ko'p asrli tarixi ham ana shunday tajriba manbayidir.

Ishonchim komilki, sizning ma'ruza va axborotlaringiz, konferensiya davomida bo'lajak bahs va munozaralar Amir Temur va temuriylar davri saboqlarini chuqurroq anglab yetishga, bugungi kun oldimizga qo'yayotgan dolzarb savollarga javob izlashga salmoqli hissa qo'shadi.

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat, barchangizga salomatlik va baxt-u saodat tilayman.

E'tiboringiz uchun tashakkur.

Amir Temur tavalludining
660 yilligiga bag'ishlangan
xalqaro ilmiy konferensiyadagi
ma'ruza, 1996-yil 24-oktabr.

Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq.

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Xonimlar va janoblar!

Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan qadrli mehmonlar!

Bugun O'zbekiston hayotida buyuk bir sana – shon-u shavkati yetti olamni tutgan, qadimiy va hamisha navqiron Buxoroi sharifning 2500 yillik qutlug' to'yini nishonlamoqdamiz.

Mana shu tarixiy voqea bilan siz – bugungi tantana ishtirokchilarini, Buxoro ahlini, siz orqali butun xalqimizni muborakbod etishga ruxsat bergaysiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanalarda qatnashayotgan BMT, YuNESKO vakillariga, xorijiy davlatlar elchilari va vakillariga sizning nomingizdan chuqur hurmat va ehtiromimizni bildirmoqchiman.

Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, sharafli nomga sazovor bo'lgan muqaddas joylaridan biridir.

Buxoro **«qubbatul islom»**, ya'ni **«islom dinining gumbazi»** va buyuk ulamolar so'zi bilan aytganda, **«quvvati dini islom»,** deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo'tabar markazlaridan biri bo'lishidan e'tirofdir.

Buxoro tarixiga nazar tashlar ekanmiz, millatimizning yigirma besh asrlik yo'lini ko'ramiz.

Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilm-u ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'lidan darak beradi.

X asrning mashhur tarixchisi, asli buxorolik **Abu Bakr Muhammad Narshaxiy** naql qilishicha, Buxoroga turkiy qabilalar asos solgan bo'lib, bu yerda **«suv va daraxtlar, ov qilinadigan jonivorlar ko'p bo'lganidan kishilarga xush kelib, shu yerga joylashganlar»**. Narshaxiy shuni ham ta'kidlaydiki, eng qadimgi milliy qahramonlarimizdan bo'lmish Alp Erto'nga (Afrosiyob) ham aynan Buxoroda dafn etilgan.

Bu tabarruk tuproqqa miloddan oldingi VI asrda eronlik **Kayxusrav**, miloddan avvalgi IV asrda yunonistonlik Iskandar Zulqarnayn, milodiy VII asrda arablar, XIII asrda **Chingizxon**, XIX asrda esa rus istilochilarining tajovuzlari ne-ne kulfatlar keltirmadi.

Bu azim shahar, **Karmana, Boykent, Vobkent, Shofirkon, Romitan, G'ijduvon** kabi qadimgi kentlarni o'z bag'riga olgan Buxoro vohasida yashagan erksevar ajdodlarimiz har qanday istibdod va zulmga qaramay, el-yurt ozodligi yo'lida muttasil qahramonona kurashib keldilar.

Yovuz bosqinchilarga va istilochilarga qarshi ozodlik bayrog'ini ko'targan **Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, Tomir xotun (To'maris), malika Qabaj xotun** kabi ajdodlarimiz jasorati avlodlar uchun vatanparvarlik va shijoat timsolidir.

O'tgan ikki yarim ming yil davomida o'zbek davlatchiligini boshqargan qadimiy **xorazmshohlar, kushonlar, eftalitlar, ashinaliylar, somoniylar, qoraxoniylar, anushteginiylar, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, manqitlar** sulolalari tariximizda, xususan, Buxoroi azimda o'ziga yarasha nom va iz qoldirdilar.

Buxoro, ayniqsa, temuriylar zamonida gullab-yashnadi. Jahon maydonida eng mo'tabar shaharlardan biri darajasiga ko'tarilgan Buxoro ham diniy, ham dunyoviy ilmlar markazi sifatida nom chiqardi, hazrati Bahouddin Naqshband faoliyati aynan shu yillarda kechdi.

1417-yili Buxoroda Mirzo Ulug'bek qurdirgan madrasa darvozasiga «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun qarz-u farzdir», degan so'zlar o'yib yozilganida judda katta ma'no mujassam. Xuddi shuningdek, 1433-yili Ulug'bek tomonidan G'ijduvonda barpo etilgan madrasa ne-ne avlodlarga ilm-u ma'rifat ziyosini tarqatgan.

Bugun ham zamin uzra savlat ko'tarib turgan me'morchilik obidalari, masjid-u madrasalar, savdo va hunarmandlar timlari, shifoxonalar va

xonaqohlar, hovuzlar, maydonlar Buxoro boshdan kechirgan buyuk tarixning guvohlaridir.

Buxoro nafaqat yurtimiz, balki butun Sharqning ilm markazi bo'lib kelgan. Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mir Kulol, Boboi Samosiy, Faqnaviy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va boshqa shu kabi buyuk zotlar yetishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilm-u fan, ma'rifat va ijod beshigi bo'lib qolaveradi.

Xalqimiz buyuk ajdodlarimiz mo'tabar nomlarini, umuminsoniy ma'naviyatga va umuman bashariyat rivojiga katta hissa qo'shgan, go'zal Buxoroni bezab, unga betakror nafosat, shakl va salobat baxsh etib turgan imorat-u inshootlarni, masjid-u maqbaralarni, madrasalarni, islom dinining, Sharq falsafasining o'chmas qadriyatlarini bugungi avlodlarga meros qilib qoldirgan buyuk ajdodlar nomini abadul-abad saqlaydi.

Muhtaram do'stlar!

Aziz mehmonlar!

Bu yil Buxoro va Xiva shaharlari 2500 yillik muborak sanalarining Parijda keng nishonlanishi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazilishi, bugungi bayram tantanalarida ko'plab xorijlik aziz mehmonlarimiz – olimlar, faylasuflar, tarixchilar va din peshvolarining ishtirok etishi o'lkamizning ilmiy, me'moriy va madaniy merosiga xalqaro jamoatchilikning tobora oshib borayotgan katta qiziqishidan dalolat beradi.

Tarixini bilmaganning kelajagi yo'q, deydilar. Buxoroning bugungi qutlug' ayyomi, eng avvalo, o'tmishga ehtirom va buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmatimiz namoyishidir.

Elim deb, yurtim deb, kelajagini o'ylab zahmat chekkan, Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashgan, millatimiz ravnaqi uchun umrini bag'ishlagan, o'zidan obod shahar-u vohalar, betakror go'zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun, bugungi avlod uchun ham farz, ham qarzdir.

Buxoroning 2500 yilligi shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi.

Bu tantanalar biz bugun mustaqillikka erishgan yagona bir xalq sifatida buyuk kelajak sari intilayotganimiz shunchaki orzu-havas bo'lmay, balki xalqimizning tarixiy salohiyati, asrlar davomidagi davlatchiligi, madaniyati va qudratidan kelib chiqib qo'yilgan aniq maqsad ekanini tasdiqlaydi.

Bu masalaning yana bir tomoni borki, uni aytib o'tmasdan bo'lmaydi deb o'ylayman. Biz bugun istiqlol yo'lida, ozod va obod Vatanimizni qurish

yo'lida dadil qadam qo'yayotgan damlarda, bizning shu intilishlarimizni ko'rolmaydigan, yo'limizni to'sib olmoqchi bo'lgan yovuz kuchlar tariximizni chalg'itib ko'rsatishga, yolg'on gaplarni ko'tarishga, shu saxovatli yerda yashayotgan millat va elatlar orasiga adovat urug'ini sepishga harakat qilayotganlarning to'g'ri bahosini bermog'imiz darkor. Shuning uchun ham tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona yetkazish chuqur ma'noga ega.

Bu shunday haqiqatkim, ba'zi ashaddiy millatchilik yo'liga o'tib olgan, o'zgalarni ko'rolmaydigan, hasad bilan yashaydiganlarning kuchini qirqadi, boshqalarning tinchligini buzish niyatida osoyishta taraqqiyot yo'liga g'ov bo'ladiganlarning tomirini qirqadi. Farzandlarimizning ko'zini haqiqatga ochib beradi. Haqiqiy tarix **«Kuch – adolatda»** hikmatining naqadar to'g'riligini isbotlaydi.

Xalqimiz o'tmishining ajralmas qismi bo'lmish Buxoro tarixi shukuhli va muborak kunlar bilan bir qatorda juda og'ir va musibatli damlarga guvoh bo'ldi. Ko'plab bosqinlarni boshdan kechirdi, necha marta vayron etildi, o't ichida qoldi. Bu muqaddas tuproqda begunoh qonlar to'kildi, muhtasham obida, minora va aziz-avliyolarning qabrlari oyoqosti qilindi. Ammo buxoroliklar o'z ona shaharlarini mardonavor himoya etdilar va necha qayta qurdilar, tikladilar.

So'nggi mustamlaka zamonida Buxoroga bo'lgan munosabat hammamizga ma'lum. Inqilob bahonasida bu sharofatli shahar obidalari yana bir bor vayrona etildi, uning asl farzandlari qatag'on qilindi. Xalq va uning moddiy-ma'naviy merosiga ko'rsatilgan bunday munosabat sobiq sho'rolar tuzumining qanchalik g'ayriinsoniy va adolatsiz ekanligini ko'rsatadi.

Muhtaram jamoa!

Har bir xalq o'z yurtiga haqiqiy ega bo'lganda uning tarixi va salohiyati bo'y-bastini, uning go'zalligini dunyo ko'z o'ngida to'la-to'kis namoyon eta oladi. Bugun bu qadim shahar to'yi dunyo miqyosida keng nishonlanayotgan ekan, bu ham Istiqlolimiz sharofatidir.

Istiqlol ko'hna Buxoro hayotiga yangi bir nafas olib keldi. Buxoro viloyati va shahrida bugungi kunda zamonaviy sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat va san'at yangi yuksalish yo'liga kirdi. Buxoro yurtining qiyofasi yildan-yilga o'zgarmoqda, yangi shukuh topmoqda.

Buxoro neftni qayta ishlash korxonasining ishga tushgani dunyo ahli tarafidan muhim voqea sifatida e'tirof etildi. Shahar va viloyatda juda katta qurilish va obodonchilik ishlari olib borilmoqda.

Buxoro dehqonlari va mirishkorlari o'z saxovatli mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Buxoroning tengsiz zardo'zi liboslari, oltinga teng pillasi, qorako'l terilari jahon bozorida munosib bahosini olmoqda.

Sharq me'morchilik san'atining noyob namunalari bo'lgan barcha qadimiy obidalar mustaqillik sharofati bilan yana asl shakliga qaytmoqda.

Buxoroning va buxoroliklarning yana bir katta yutug'i shundaki, bugun bu tabarruk zaminda turli millat-u dinga mansub kishilar – tojiklar, turkmanlar, ruslar, yahudiylar, qozoqlar, koreyslar, armanlar va boshqa o'nlab millat vakillari o'zbeklar bilan birga qo'lni-qo'lga berib, do'stona, ahil, hamkor va hamjihat bo'lib yashamoqdalar.

Bugungi fursatdan foydalanib, mard va tanti, g'ururi baland, ilmparvar va mehnatsevar Buxoro ahliga xalqimiz nomidan, shaxsan o'z nomimdan minnatdorlik izhor etishni va ularga chuqur ta'zim qilishni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Aziz vatandoshlar!

Zamonlar o'tar, yillar, asrlar o'tadi. Hech shubha yo'qki, farzandlarimiz, nevaralarimiz, kelajak nasllar Buxoroga, uning qadim tarixiga qayta-qayta murojaat etadilar.

Vatanimizni ozod va obod qilish uchun kurashda qurbon bo'lganlarni, mustaqillik imorati poydevoriga birinchi g'isht qo'ygan ota-bobolarini sira unutmaydilar.

Yangi o'sib kelayotgan avlodlarimiz o'z tarixini, yurtini, aziz-avliyolarini, osori atiqalarini boshiga ko'tarib, shu tariqa milliy tuyg'u, milliy g'urur, milliy iftixor hissiyotini ko'kka ko'tarib, umumshabariy qadriyatlar xazinasiga o'zlarining munosib hissasini qo'shadilar.

Aziz do'stlarim, vatandoshlarim!

Sizlarni yana bir karra Buxoroi sharifning qutlug' to'yi bilan chin ko'ngildan tabriklayman!

Barchamizga ajdodlarimizga munosib, yana ming yillarga davomdor buyuk ishlar qilish baxti nasib etsin!

Yaratganning o'zi bizning barcha ezgu ishlarimizda madadkor bo'lsin!

1997-yil 19-oktabr

Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq

Xonimlar va janoblar!

Aziz vatandoshlar, muhtaram Xorazm va Xiva ahli!

Qadrli mehmonlar!

Shu kunlarda yurtimizda juda katta to'ylar va tantanalar davom etmoqda. Kecha Zarafshon vohasida ko'hna Buxoromizning muborak yoshini nishonlagan bo'lsak, mana bugun xalqimiz, millatimizning yana bir faxri va g'ururi bo'lmish, butun olamga mashhur go'zal Xivamizning 2500 yillik to'yini shod-u xurramlik bilan bayram qilmoqdamiz.

Sizlarning barchangizni, avvalombor siz – aziz Xorazm ahlini va butun O'zbekiston xalqini, uzoq-yaqindan kelgan qadrli mehmonlarni ana shu shonli sana munosabati bilan chin qalbdan samimiy muborakbod etishga ijozat bergaysizlar!

Imkoniyatdan foydalanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO vakillariga, xorijiy davlatlar elchilari va vakillariga, axborot vositalari vakillariga o'zimning alohida minnatdorligimni bildiraman.

Xiva – bizning jonli tariximiz, bu dunyoga kelib ketgan qancha-qancha saltanatlar guvohi, yurtimizning, xalqimizning, millatimizning mislsiz o'tmishidan, ota-bobolarimizning dahosidan, ma'naviy mulkimizning buyuk iqtidori va qudratidan dalolatdir. Bundan ikki ming yil avval yashagan rimlik tarixchi **Pompey Trog** turkiy xalqlarning eng qadimgi ajdodlari haqida shunday deb yozgan: **«Baqtiriyaliklar, so'g'dlar va xorazmliklar kelib chiqishining qadimiyligi bo'yicha misrliklar bilan bemalol bellasha oladi. Ular mehnatda ham, jang-u jadalda ham o'zlarini ayamaydilar. Jismonan haddan tashqari kuchlidirlar. O'zlariga tegishli biror narsani qo'ldan chiqarishni istamaydilar. Faqat g'alabaga intiladilar»**.

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir.

Aziz yurtdoshlarim!

Bugun milliy ozodlik uchun kurashimiz tarixidan so'z ketar ekan, birinchilar qatorida buyuk Xorazm o'g'lonlaridan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimizning nomlarini zikr etamiz.

Najmiddin Kubro Vatanimizni Chingizxon bosqinidan ozod qilish uchun jang qilib, qo'lida ozodlik bayrog'ini mahkam tutib jon taslim etgani tarixiy manbalardan ma'lum.

Xorazmshohlar sulolasining eng mashhur vakili Jaloliddin ham o'n bir yil davomida mo'g'ullarning g'arbiy o'lkalarga bostirib kirishlariga to'siq bo'lib turdi. G'anim oldida bosh egmadi, tiz cho'kmadi, Vatan deya halok bo'ldi.

Xorazm va Xiva tarixi xalqimizning yovuz, ilm-fan, san'at, madaniyat va ma'naviyat sohalaridagi yuksalish bosqichlarini o'zida mujassam etadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ham aynan Xorazmda yaratilgani fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugun bolalarimiz maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'rganadigan algebra, algoritm kabi kashfiyotlarga asos solgan Muhammad Muso al-Xorazmiy bu go'zal voha nomini dunyoga mashhur etgan.

Atlantika ummoni ortida Amerika qit'asi borligini Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin bashorat etib, hattoki uning xaritasini chizib qoldirgan buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy mana shu muqaddas zaminda tug'ilgan.

Makkai mukarrama amiri ibn Vaqqos XII asrda yashab o'tgan yana bir buyuk vatandoshimiz – arab tilining mukammal gramatikasini yaratgan

insonni ulug'lab: **«Dunyodagi barcha qishloqlar jamlanib, Xorazmning birgina Zamahshar qishlog'iga fido bo'lsa arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta kelishi mumkin bo'lgan buyuk Mahmud az-Zamahshariydek allomani dunyoga keltirdi»**, deb tasanno aytgan edi.

Bundan ming yil muqaddam odamzod tarixidagi ilk Akademiyalardan bo'lmish – **Ma'mun Akademiyasi** Xorazm zaminida tashkil topgani bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta. O'ylaymanki, biz Ma'mun akademiyasini Xorazm zaminida qaytadan tashkil etsak, ko'p ulug' ish bo'lur edi.

Xorazm va Xiva zaminida yashagan **Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Bog'irg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Ali Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoniy, Safo Mug'anniy, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi** kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoirlar va san'atkorlar nomini biz – bugungi avlod vakillari cheksiz ehtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz.

Biz bugun Xivaning 2500 yillik tarixiga nazar solar ekanmiz, tarixning eng suronli davrlarida ham ajdodlarimiz ozodlikka, ma'rifatga, yaratuvchilikka intilib yashaganlariga guvoh bo'lamiz. Bugun salobat bilan ko'kka bo'y cho'zib turgan tarixiy yodgorliklar, nodir obidalar va osori-atiqalar shundan dalolatdir.

Zero, qadim zamonlarda Sharq va G'arbni tutashtiruvchi Buyuk Ipak yo'li mana shu makondan o'tgan. Bu yo'l nafaqat savdo ko'prigi vazifasini bajargan, balki uzoq asrlar davomida turli millat va mazhablarga mansub kishilarni o'zaro yaqinlashtirgan, turli xalqlarning ilm-u fanini, madaniyatlarini o'zaro boyitgan.

Har qanday millat ham Xivaday maskanni yaratgan va asrlar mobaynida e'zozlab saqlagani uchun g'ururlanishga haqlidir. Chunki Xiva yurtimizni ziynati bo'lib qolmay, umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qilgan, bundan buyon ham xizmat qiladi. Ichanqal'a va Dishanqal'a majmui, xususan, Sherg'ozixon, Muhammad Rahimxon, Isfandiyorxon madrasalari xalqimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yuksak salohiyati, nafis mahoratiga, milliy madaniyatimizga qo'yilgan bebaho yodgorlikdir.

Aziz vatandoshlar!

Fursatdan foydalanib, yana bir masalaga diqqatingizni qaratishni istardim. Mustamlakachilik yillarida xalqimizning siyosiy tarixi har tomonlama yerga urib kelindi, ta'qib ostiga olindi. Butun jahonga nomi ketgan allomalarni va mutafakkirlarni savodsiz, johil, ilm-u ma'rifat dushmani deb tahqir etishga urindilar.

Barchamizga yaxshi ma'lum: Xivaning madrasalarida ilm-fan cho'qqilarini zabt etgan, mana shu ziyo va bilim maskanlarida ta'lim

olgan olim-mutafakkirlar, din peshvolari nafaqat O'zbekiston va O'rta Osiyo tarixida, dunyoning uzoq-uzoq yurtlarida ham o'z mo'tabar nomlarini, o'chmas izlarini qoldirgandir. Buni hech kim inkor qila olmaydi, deb o'ylayman.

Ming bora shukronalar bo'lsinkim, adolat yana qaror topdi. Buyuk ajdodlarimizning nomlari yana tiklandi.

Vatanimiz tarixida siyosiy jihatdan qudratli, iqtisodiy farovon saltanatlar bo'lganiga va ularda ilm, madaniyat-ma'rifat keng rivoj topganiga bugun hech kim shak keltirolmaydi.

Shu ma'noda, xorazmshohlardan Otsiz, Tekish, El Arslon, Sulton Muhammad, Xiva xonlaridan Abulg'oziy Bahodirxon, Muhammad Rahimxon (Feruz) va boshqalarning fozil insonlar, ma'rifatli va yetuk siymolar bo'lganlarini eslab o'tishimiz joizdir.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi tantanalar – qadimiy Xivaning 2500 yillik to'yini nishonlashimiz ma'naviy islohotlarimizning uzviy bir qismidir.

Xivaning to'yi yosh avlod qalbida o'zligini anglash, bebaho merosimizga vorislik, xalq yaratuvchilik dahosiga hurmat, bunyodkorlik ishlariga rag'bat tuyg'ularini uyg'otishiga ishonaman. Xivaning to'yi xalqimizning o'z o'tmishiga, milliy qadriyatlarga samimiy izzat-ehtiromini yanada kuchaytirmog'i muqarrar.

Biz bugun har bir intilish – tashabbusimizda, oldinga qo'yilgan har bir qadamimizda ajdodlarimizning uyg'oq va madadkor ruhini sezib turibmiz.

Shu nuqtayi nazardan, Xivaning to'yi faqatgina tariximizning bebaho sahifalarini tiklash, madaniyatimizni boyitish yo'lida xizmat qilib qolmay, balki bevosita oliy maqsadimiz – kelajagi buyuk davlatimiz poydevorini shakllantirib, o'zimizning milliy an'analarimizga suyangan dasturlar asosida taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatorida jahon hamjamiyatiga kirib borishiga xizmat qilajak.

Men shuni alohida g'urur va mamnuniyat bilan aytamanki, asriy va betakror obidalar, ming yillik an'analar bilan bir qatorda, Xorazmning yana bir ulug' va ulkan boyligi bor. Bu boylik – shu muqaddas zaminda yashab kelayotgan oq ko'ngil, bag'rikeng, mehmondo'st, lafzi halol insonlardir. Xorazmni Xorazm qilib, uning shuhratiga shuhrat qo'shib, dovrug'ini dunyoga taratayotgan shu elning aql-zakovati, omilkorligi, bilim va tajribasi, sabot-matonatidir.

Qadimdan dehqonchilik madaniyatini gurkirab rivojlantirgan Xorazmning mirishkor dehqonlari salohiyati to'g'risida alohida to'xtashni istardim.

O'zingiz o'ylang, miloddan avvalgi VIII-VII asrlardayoq uzunligi 60–70 kilometr, eni 35–40 metr bo'lgan kanallardan iborat murakkab va ulkan sun'iy sug'orish tizimlarini yaratib, dehqonchilik qilgan ko'hna Xorazm ahli zakovati va matonatiga qoyil qolmay bo'ladimi!

Qush uchsa qanoti kuyadigan Qoraqum sahrosi bilan yil o'n ikki oy mardona olishib, har bir tomchi suvni gavhardek avaylab mo'l hosil yetishtirish har qanday dehqonning ham qo'lidan kelavermaydi. Bunga faqatgina dehqonchilik ilmining piri bo'lib ketgan xorazmlik mirishkorlargina qodir.

Agar mendan haqiqiy qahramonlik namunasi nima deb so'rashsa, xorazmlik oddiy dehqonning har kunlik mehnati qahramonlikdir, deb javob bergan bo'lardim.

Mana, bu yil ham Xorazm ahli paxta tayyorlash bo'yicha yillik rejani mamlakatimizda birinchi bo'lib ado etdi. Bu g'alaba haqiqatan ham Vatanimiz nishoni bo'lmish go'zal Xivaning 2500 yillik to'yiga munosib tuhfa bo'ldi.

Bugungi fursatdan foydalanib, siz – aziz Xorazm dehqonlarini, barcha Xorazm ahlini mana shu to'yona bilan yana bir karra muborakbod etishga ruxsat bergaysiz.

Buyuk ajdodlar xotirasiga cheksiz hurmat-ehtirom xorazmliklar tabiatining o'ziga xos jihatidir. Voha ahli mustaqillik yillarida yana bir ezgu va savob ish bilan mamlakatga namuna bo'ldi: viloyatda xalqimizning atoqli namoyandalari sharafiga 20 dan ziyod bog'lar bunyod etildi. Navoiy bog'i, Qodiriy bog'i kabi jozibador go'shalar ijod va yaratuvchilik tuyg'usiga oshno bo'lgan har bir insonni bag'riga chorlamoqda.

Iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham xorazmliklar shaxdam qadamlar qo'ymoqda. Mamlakatimizdagi eng yirik qand zavodi qurilishi jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda, qancha-qancha yangi korxonalar ishga tushmoqda. Urganch aeroporti qayta ta'mirlandi. Urganchdan to Xivaga qadar 34 kilometrli trolleybus yo'li ishga tushdi.

Xiva shahri ta'mirlanib, yangi chiroy va sayqal kasb etdi. Bu xayrli ishlari uchun Xorazmning saxovatli quruvchi va me'morlariga, barcha mehnatkashlariga samimiy tashakkur bildirib, ularga sihat-salomatlik, ezgu ishlarida omad tilamoqchiman.

Muhtaram do'stlar!

Aziz mehmonlar!

Biz, O'zbekiston ahli, shuni yaxshi anglaymizki, dunyodagi barcha xalqlarning kelajagi bashariyat o'zining butun tarixi davomida yaratgan buyuk umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, avaylab asrash va yanada rivojlantirishga bog'liqdir.

Yangi ming yillikka qadam qo'yar ekan, ulug' madaniy va ma'naviy an'analarning vorisi bo'lmish bizning xalqimiz o'z istiqbolini dunyo hamjamiyatiga kirish, butun sayyoramizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bilan chambarchas bog'langan holda ko'radi.

Bugun o'tkazilayotgan tantanalar ham, bu tantanalarda jahonning turli mintaqalaridan kelgan buyuk olimlar, tarixchilar, davlat va jamoat tashkilotlari arboblari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNESKO

rahbariyatidan vakolatli mehmonlar qatnashayotgani ham buning yaqqol dalolati va isboti, deb bilaman.

Xivadagi mangulikka daxldor obidalar o'zbek xalqining nasl-nasabi qadimiy va mo'tabar ekanligini dunyoga ko'z-ko'z qilib turibdi. Biz bundan g'ururlanish bilan bir qatorda, zimmamizda chuqur ma'naviy mas'uliyat yukini ham his etmog'imiz darkor.

Bu mas'uliyat – otameros yurtimizni jon-dildan sevish, asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yanada go'zal, yanada obod qiyofada yetkazish burchidir.

Shunday muqaddas va mo'tabar diyorda tug'ilishning o'zi katta baxt.

Komil ishonch bilan ayta olamanki, bizning ozodligimiz, hurriyatimiz qudrati bilan butun mamlakatimiz, jumladan, Xorazm vohasi ham hademay o'z taraqqiyotining yangi va yuksak davriga kiradi.

Bu tabarruk zamindan yetishib chiqadigan yuzlab xorazmiylar, beruniylar, zamahshariylar o'zlarining tengsiz salohiyati bilan jumlai jahonni hayratga soladi. O'zlariga qanot bergan Xorazm diyori shon-shuhratiga munosib hissalarini qo'shadilar.

Bizning bugungi bunyodkorlik ishlarimiz, hayotning barcha sohalarida amalga oshirayotgan islohotlarimiz, buyuk tariximiz, beqiyos ma'naviy merosimiz ana shu ishonchga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Aziz vatandoshlarim, do'stlarim!

Xivaning qutlug' to'yi bilan har biringizni yana bir karra chin dildan qutlab, barchangizga eng ezgu tilaklarimni izhor etaman!

Ona O'zbekistonimiz, muqaddas Xorazm zamini gullab-yashnasin, fayz-u barakaga to'lsin!

O'tmishi sharafli, buguni saodatli, kelajagi abadiy shahar – millatimizning faxr-u iftixori bo'lmish go'zal Xivamiz dunyo turguncha tursin!

Xalqimizning, millatimizning shon-shuhrati yanada ziyoda bo'lsin!

Baxt, omad – yorimiz, Alloh – madadkorimiz bo'lsin!

1997-yil 20-oktabr.

Buyuk allomaga yuksak ehtirom

Bismillohir rohmanir rohim.

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlarim!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun yurtimiz va xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldiradigan muborak va munavvar kundir.

Bugun ulug' ajdodimiz Imom al-Buxoriy hazratlarining ruhini shod etish, bobokalonimiz tavallud topgan muqaddas zaminda ul zoti sharifning xotirasini yod etish kunidir.

O'ylaymanki, bu yerga yig'ilgan jamoat, al-Buxoriyning mo'tabar xokini ziyorat qilish sharafiga muyassar bo'lgan mo''min-musulmonlar, tom ma'noda baxtiyordirlar.

Aziz do'stlar!

Bu kabi tantanalarni o'tkazishdan ko'zlangan niyat va maqsadlarimiz haqida, muqaddas qadamjolarni obod qilishimiz sabablari to'g'risida ikki og'iz so'z aytishga ijozat bergaysizlar.

Eng avvalo, bu ishlarni amalga oshirish zamirida savob degan olijanob tushuncha yotadi. Savob – ulug' insoniy fazilat, yuksak islomiy qadriyatlardan biridir. Mening komil ishonchim shuki, savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak.

Savobli amallar qilish esa xalqimizga xos azaliy xislatdir.

Savobli ishlarni qilgan odamga, uning el-u yurtiga albatta Ollohning rahmatlari yog'iladi. Muqaddas qur'oniy oyatda ta'kidlanganidek, «Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir». Biz ezgu ishlarni qancha ko'p qilsak, ulug' ajdodlarimizning izzat-ikromini joyiga qo'ysak, ularning tabarruk nomlarini butun dunyoga tarannum etsak, Yaratganimizning o'zi bizni balo-qazolardan asraydi, bizga kuch-qudrat ato etadi, yo'limizni ochib beradi.

Aziz yurtdoshlarim!

Biz muhim savolga javob izlab ko'raylik: Olloh taolo qaysi yurtda, qaysi tuproqda mana shunday ulug' zotlarni dunyoga keltiradi?

Parvardigori olam buyuk zotlarni O'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa yer yuzida sanoqli. Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki, ona Vatanimiz Ollohning nazari tushgan ana shunday muqaddas diyordir.

Yurtning muqaddasligi nima bilan belgilanadi?

Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi.

Qadrli do'stlar!

Nima uchun biz kelajagimizning yorug' va farovon bo'lishiga qat'iy ishonamiz?

Xalqimizni, ayniqsa, o'sib kelayotgan navqiron avlodimizni nega aynan shu e'tiqod asosida tarbiya etmoqdamiz?

Bu murakkab va qaltis zamonda yo'limizda og'ir sinov va to'siqlar duch kelganda, ular qarshisida chorasiz qolganda, mislsiz mashaqqatlar holdan toydirganda ham biz kuch-qudratni qayerdan olamiz?

Eng avvalo Olloh taoloning bizga ko'rsatayotgan marhamatidan olamiz.

Mana shunday vaziyatlarda bizga metin iroda, sabot-matonat, g'ayrat va jasorat baxsh etadigan buyuk va cheksiz yana bir manba bor.

Bu manba – ulug' ajdodlarimizning qonimizda jo'sh urayotgan azm-u shijoatidir.

Bu manba – al-Buxoriydek mumtoz bobolarimiz dahosining hayotbaxsh qudratidir.

Bu manba – ularning bizga hamisha madadkor bo'ladigan o'lmas ruhi poklaridir.

Ana shu haqiqat, ana shu e'tiqod vatandoshlarimiz, aziz farzandlarimiz yuragiga, ong-u shuuriga, tafakkuriga tobora teran singib bormoqda.

Biz komil ishonch bilan, O'zbekistonning istiqloli boqiy, istiqboli buyuk, der ekanmiz mana shunday mustahkam asolarga tayanamiz.

Muhtaram jamoat!

Qadrli mehmonlar!

Biz musulmon dunyosining uzviy qismimiz. Tariximizning eng fojiali, eng og'ir davrlarida ham, mustabid tuzum changalida bo'lgan paytimizda ham, bizni dinimizdan ayirishga, unga xiyonat etishga majbur qilganlarida ham xalqimiz hech qachon o'z islomiy e'tiqodidan qaytmagan. Boshiga qilich kelganda ham ota-bobolarining muqaddas dini bo'lmish musulmonchilikka hamisha sodiq qolgan.

Biz, shioriy ezgulik bo'lgan butun dunyodagi ahli islom qatori, dinimizni doimo pok va sof saqlashga intilib kelganmiz. Va bu yo'ldan aslo qaytmaymiz. Shuning uchun ham dinimizdan har xil g'arazlik va nopok maqsadlar yo'lida foydalanishga mutlaqo qarshimiz.

Men ilohiy dinimizning olijanob intilishlarimizga xizmat qiladigan, xayrli ishlarimizda bizga madad beradigan bitmas-tuganmas kuch-qudrat manbayi bo'lib qolishiga ishonaman.

Aziz birodarlarim!

Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir.

Olti buyuk muhaddisning ikkinchisi hisoblangan Imom Muslimning al-Buxoriyga qarata: «Ey, ustozlarning ustozi, muhaddislarning sultoni, hadislarning tabibi! Poyingizni o'pishga ijozat bering!» deya qilgan xitobi ahli islomning ulug' bobomizga hurmat va e'tirofi naqadar yuksakligini ko'rsatadi.

Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'naviy meros qoldirib ketdi. Bu merosning gultoji – eng ishonchli hadislar to'plami – «Al-Jome' as-Sahih» islom dinida Qur'oni Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi manbadir. Butun dunyo musulmonlarining e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idir.

Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va ezgulik yo'liga chorlab kelmoqda.

Yaratganimizga shukurlar bo'lsinki, ozodligimiz sharofati bilan al-Buxoriydek ulug' ajdodlarimiz el-yurti bag'riga qaytmoqda. Allomaning o'lmas merosi har bir yurtdoshimiz xonadoniga kirib, ong-u tafakkurimizni

ravshan etmoqda. Qalblarimizni iymon nuri va mehr-oqibat tuyg'ulari bilan musaffo etmoqda.

Muhtaram birodarlarim!

Biz eski tuzum, eski mafkura tuzumidan xalos bo'lgach, o'zligimizni, qanday ulug' insonlarning avlodi ekanimizni, qanday boy va betakror ma'naviy meros vorislari ekanimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklash yo'lida tarixda iz qoldiradigan ko'pgina xayrli ishlarni amalga oshirdik.

Shular qatorida ozodligimizning dastlabki yillaridanoq biz Imom al-Buxoriy maqbarasini ul zotning sha'n-shavkatiga munosib, yon-atrofi munavvar go'shaga, ziyoratga kelgan mo'min-musulmonlarga ruhiy-ma'naviy kuch ato etadigan qadamjoga aylantirishni niyat qilgan edik.

Ollohning inoyati bilan ezgu niyatimiz ijobat bo'lgan shu qutlug' kundan men bu muazzam yodgorlik majmuining shunchaki ziyoratgoh emas, balki go'zal O'zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, yosh avlodimizni ezgulik ruhida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o'ylantiradigan aziz maskan bo'lib qolishiga ishonaman.

Keyingi yillarda yurtimizda qad rostlayotgan muhtasham imorat va inshootlarni bunyod qilishda milliy an'analarimizga, me'morchilik san'atimizning o'ziga xos va o'ziga mos uslub va naqsh-u ziynatlaridan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz ko'rkiga ko'rk qo'shadigan bunday betakror va ko'rkam binolar har bir yurtdoshimizni mamnun etishi, yuragida g'urur uyg'otishi tabiiydir.

Istiqlol davrida mana shunday loyihalarni tuzish va amalga oshirishda bosh bo'lib turganimdan, shu olijanob ishlarga hissa qo'shish nasib etganidan ko'pchilik qatori men ham benihoya mamnunman. Ayniqsa, al-Buxoriy majmui loyihasining tashabbuskori bo'lganimdan, uning shu shaklda, shu mazmunda barpo etilishida hissam borligidan umrim boricha faxrlanib yuraman.

Bu Olloh taolo oldida, ajdodlar ruhi oldida, xalqim oldida mening insoniy burchim edi.

Bu qutlug' maskanni bunyod etgan ustalarimizning mehnati har qancha tahsinga arziydi. Bu ulug'vor majmua Samarqandu Buxoro, Xiva-yu Toshkent, Andijon-u Namangan, Shahrisabz-u Qo'qon va Marg'ilon shaharlaridan, mamlakatimizning turli viloyatidan kelgan fidoyi insonlar mehnatining samarasidir.

Bir so'z bilan aytganda, uning bunyodkori butun O'zbekistondir.

Fursatdan foydalanib, ushbu ziyoratgohni obod qilishda jonbozlik ko'rsatgan quruvchilarga, qo'li gul ustalarimizga, mohir me'morlarimizga, shu ulug' obidaga g'isht qo'ygan, naqsh-u jilo bilan unga sayqal bergan har bir vatandoshimizga, ulug' bobomizga ehtirom bildirib, uzoq-yaqindan yurtimizga tashrif buyurgan aziz mehmonlarga xalqim nomidan cheksiz minnatdorlik izhor etaman.

Muhtaram jamoat!

Ma'lumki, Islom dinining bosh g'oyasi – bu «Lo iloha illallohu, Muhammadun rasulilloh» kalimasidir. Mana shu iymon kalimasini ro'yi zamindagi har bir musulmon qalbiga singdirishda al-Buxoriy beqiyos jasorat ko'rsatdi. Shu sababli ham ul hazratning muborak nomi abadul-abad insoniyat xotirasidan o'chmagay, inshoolloh.

Ushbu saodatli damlarda Imom al-Buxoriy bobomizning ruhi poklari shod bo'lib, qabrlari nuri ilohiyga to'lgan bo'lsin!

Ul muborak zotning poyida duogo'y bo'lib turganlarning, butun xalqimizning, jamiki ahli islomning xayrli va savobli ishlarida Robbimizning o'zi madadkor bo'lsin!

Samarqand
1998-yil 23-oktabr.

Al-Farg'oniy dahosiga ta'zim

Qadrli yurtdoshlar!

Aziz mehmonlar!

Bugun yurtimizning qadimiy va so'lim go'shalardan biri Farg'onada muborak bayram. Kecha biz tabarruk Samarqand zaminida islom olamida yuksak obro'-e'tibor qozongan ulug' vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni, buyuk alloma Imom al-Buxoriyning tavallud to'yini o'tkazib, g'oyat savobli ishni ado etdik.

Bugun esa xalqimizning yana bir buyuk o'g'loni, o'rta asrlar jahon ilm-fani asoschilaridan biri, qomusiy olim Ahmad al-Farg'oniyning xotirasini yod etib turibmiz. Ushbu tarixiy voqealar butun dunyo ilm-u ma'rifat, ma'naviyat ahlining diqqat markazida bo'lib, el-yurtimiz obro'-e'tiborini jahonga tarannum etmoqda.

Aziz yurtdoshlar!

Kishilik taraqqiyotiga o'zining o'chmas ulushini qo'shib, mamlakatimiz shuhratini olamga taratib, tarix sahifalariga abadul-abad muhrlagan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari ulug' siymolarni yetishtirgan millat har qancha g'ururlansa arziydi.

O'zbek diyorida parvarish topgan minglab alloma-yu adiblar, olim-u mutafakkirlar qatoridan o'rin olgan Burhoniddin Marg'inoniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maxdumi A'zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Nodirabegim kabi fozillar dunyoga kelgan Farg'ona vodiysi ushbu aqidani yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, bu maskan ham ko'hna tariximizda, davlatchilik, ilm-u ma'rifat, madaniyat, me'morchilik an'analarimiz taraqqiyotida benazir o'ringa ega.

Aziz do'stlar!

Bir haqiqatni barchamiz anglab olishimiz zarur. O'zbek zaminida asrlar davomida fan va madaniyatning turli sohalarida buyuk iste'dodlarning parvarish topgani bejiz emas, albatta.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi.

Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmoqi kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik va ma'rifat sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo'sh urishi lozim.

Buning uchun eng avvalo mana shu qadimiy va betakror yurtga Ollohning nazari va e'tibori tushishi kerak.

Aziz do'stlar, birodarlarim!

Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi millatimiz uchun katta siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Biz bu sanani davlatchiligimiz va ilm-u madaniyatimiz tarixini, mustabid tuzum yillarida nohaq unutilgan buyuk ajdodlarimizning muborak nomlarini qayta tiklashdek olijanob ishning uzviy bir qismi, deb bilamiz.

Ahmad al-Farg'oniyning olamshumul merosi dunyo madaniyati va ma'rifati xazinalaridan biri bo'lib, milliy salohiyatimiz, milliy tafakkurimiz ko'lami va qudratining isbotidir.

Ahmad al-Farg'oniy kishilik tarixidagi ilk uyg'onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o'z zamonasi fundamental fani asoschilaridan edi.

Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi, butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Farg'onalik bu fozil zotning «Astronomiya asoslari» nomli shoh asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgan edi.

Yevropada kitob nashr yetish boshlangan XV asrda esa bu asar Italiyada, keyinchalik Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi mamlakatlarda qayta-qayta chop qilingani uning naqadar yuksak ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Inson tafakkurining bebaho mahsuli bo'lgan bu kitob asrlar davomida astronomiya fani bo'yicha o'ziga xos qomus vazifasini o'tagan. Dunyoning eng nufuzli dorilfununlarida undan asosiy darslik sifatida foydalanib kelingan.

Ahmad al-Farg'oniyning Yerning sharsimon shaklga egaligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb, Yer meredianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniy hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim, degan dastxat qoldirgan.

Bu e'tirof bobokalonimiz, yanada kengroq aytsam, millatimiz ilmiy salohiyatiga berilgan munosib bahodir.

Ahmad al-Farg'oniyning astronomiya fani rivojidagi nufuzi shu qadar ediki, alloma bobomizning nomi yer kurrasidagina emas, samoda ham abadiy shuhrat topdi. O'n oltinchi asrdayoq Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgan edi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-

yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz– Ahmad al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi.

Muhtaram do'stlar!

Bugun ozod yurtimizda Ahmad al-Farg'oniy kabi zotlar yoqib ketgan ilm mash'ali yangitdan porlay boshladi. Biz o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini, ularning zamonaviy ilg'or bilimlarga ega bo'lgan holda ulug' bobokalonlarimiz merosiga munosib bo'lishlarini davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb bilamiz. Shu maqsadda mamlakatimizda yagona ta'lim-tarbiya tizimi maxsus Milliy dastur asosida tubdan isloh qilinmoqda.

Minglab farzandlarimiz yuksak taraqqiy topgan davlatlardagi eng nufuzli bilim dargohlarida tahsil olayotgani, buyuk ajdodlarimizning izdoshlari sifatida aql-zakovat, ilmga chanqoqlik, tirishqoqlik namunalarini ko'rsatayotgani jamiyatimizni ertangi kuni yanada yorug' bo'lishidan darak beradi.

Ahmad al-Farg'oniyga bag'ishlangan tantanalar o'zligimizni, qadr-qimmatimizni, millatimizning dunyoda tutgan o'rnini anglash yo'lida yana bir muhim vositadir. Ayniqsa, bu sananing YuNESKO qarori bilan xalqaro miqyosida keng nishonlanishi Ahmad al-Farg'oniy ilmiy merosini o'rganish borasidagi yangi-yangi tadqiqotlarga asos bo'ladi, deb ishonaman.

Qadim Qubo tuprog'ida bunyod etilgan muhtasham yodgorlik majmui, Ahmad al-Farg'oniyning qarshingizda qad ko'tarib turgan bu ulug'vor haykali vatandoshlarimizning ulug' bobokalonimizga hurmat-ehtiromi hamda ezgu maqsadlarimiz ramzi bo'lib qolishi tabiiydir.

Mana shu fursatdan foydalanib buyuk ajdodimiz xotirasini abadiylashtirish, ko'hna Qubo shuhratini tiklash, Farg'ona shahrini vodiy tarovatiga xos ravishda obod etishda sidqidildan mehnat qilib, bor mahoratlarini ishga solgan quruvchilarga, me'morlarga samimiy minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun Ahmad al-Farg'oniy bobomizning to'yini nishonlar ekanmiz, u qoldirgan merosning olamshumul ahamiyati haqida so'zlar ekanmiz, biz Farg'ona zaminiga, Quva tuprog'iga, shu yerdan o'tgan odamlarning ruhi oldida va bugun yashayotgan avlodlar qarshisida ta'zim qilamiz.

Bu zotning shu yerda tug'ilgani, tarbiya topib voyaga yetgani bu yurtni barchamiz uchun yanada aziz va mukarram qiladi.

Bu zot qayerda yashagan bo'lmasin, xoh Bag'dodda, xoh Damashqda, xoh Qohirada o'z ilmiy kashfiyotlari bilan shuhrat topgan bo'lmasin, ishonamanki, u hamisha tug'ilgan yurtini sog'inib yashagan. Ona-Vatanining muhabbati va sog'inchini bir umr qalbida saqlab yurgan. Bu tuyg'u nafaqat ulug' insonlarga, balki iymonli, diyonatli har bir odamga xos xususiyatdir.

Muhtaram vatandoshlarim!

Yillar o'tadi, asrlar o'tadi, yangi avlod dunyoga keladi, lekin bu zotning nomi, buyuk merosi xalqimiz uchun shon-sharaf ramzi bo'lib abadul-abad saqlanib qoladi.

Yana bir bor barchangizni bugungi qutlug' tantana bilan chin qalbimdan muborakbod etaman. Olloh taolodan hammangizga omonlik-farovonlik, ezgu va xayrli ishlaringizda madad tilayman. Ulug' bobomiz ruhi xonadoningizni nurafshon, qalbingizni munavvar etsin.

Farg'ona – Quva 1998-yil 24-oktabr.

Xotira chirog'i o'chmaydi

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Qadrli urush va mehnat faxriylari!

Bugun o'lkamizda ilk bor Xotira va Qadrlash kuni nishonlanmoqda.

Men barchangizni – jafokash, mehnatkash, ko'pni ko'rgan, katta-kichik janglarda mardlik va jasorat ko'rsatgan xalqimizni mana shu qutlug' sana bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Biz nima uchun 9 may bayramini Xotira va Qadrlash kuni, deb e'lon qildik.

Ijozatingiz bilan shu to'g'rida yana ikki og'iz aytib o'tsam.

Xotira deganda biz bu foniy dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir.

Xotirasi bo'lmagan, tarixini unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatni kishilik tarixi isbotlab turibdi.

Qadrlash degani – bu asrlar davomida ona diyorimizni, xalqimizning ozodlik va istiqlolini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi vatandoshlarimizni yodga olmoq, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatmoqdir.

Hayotning ko'p-ko'p sinovlarini, azob-uqubatlarini boshidan kechirgan, Vatan uchun, el-yurt uchun, mana shu sof osmonimiz uchun jon olib jon bergan, bugun ham saflarimizda yurgan mehribon ota-bobolarimizni, olijanob insonlarni e'zozlashdir.

Xotira va Qadrlash kuni degan tushuncha g'oyat teran ma'noga ega. Bu faqat fashizm balosiga qarshi jang-u jadallarda qatnashgan, ona-yurt himoyasi uchun umrini baxsh etgan kishilarni sharaflash degani emas.

Bu muborak kunda, xalqimizning asrlar davomida orzu-niyat qilib, intilib kelgani – hurriyat va ozodlik yo'lida hayotini qurbon qilib shahid ketgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Namoz botir kabi xalq qahramonlarini, Qodiriy, Behbudiy,

Munavvarqori, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir singari millatimiz fidoyilarini eslashimiz ham qarz, ham farzdir.

Xotira va qadrlash deganda biz, avvalo, o'zimizni inson sifatida anglashni, odamiylik fazilatlarimizni ulug'lashni nazarda tutamiz. Eng muhimi, bu hayajonli va iztirobli sana o'rnimizga keladigan yosh avlodni mana shu ruhda tarbiyalashga, ular qalbida Vatan va yurt uchun g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi.

Bu hayotning go'zal va nurafshon, yurtimizning ozod va obod bo'lishida shu muqaddas zaminda yashayotgan qo'li qadoq, niyati pok million-million yurtdoshlarimizning beqiyos hissasi bor. Bugungi Xotira va Qadrlash kunida men ko'pchilik qatorida ana shu kamtar va kamsuqum, oddiy, zahmatkash insonlarni bag'rimga olib, barchasiga ta'zim qilaman.

Muhtaram do'stlar, yurtdoshlarim!

Bugun poytaxtimiz markazida bunyod etilgan muazzam Xotira maydoni ochilmoqda. Bu ham mustaqillik tafakkurining yana bir bor namoyon bo'lishi, xalqimizning tabiatiga yot bo'lgan eski qolip va soxta g'oyalardan voz kechganimizning yana bir tasdig'idir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda «noma'lum askar» degan tushuncha nimani anglatar edi?

O'zingiz o'ylang, inson ona yurti, xalqining baxt-saodati uchun omonsiz janglarda jonini fido etsa-yu uning nomi noma'lum bo'lsa!

Axir, urushga ketgan har bir askarning nomi, nasl-nasabi uning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, farzandlarining qalbida bir umr armon bo'lib yashaydi-ku! Axir, ularning har biri shu xalqimiz, shu millatimizning jondan aziz farzandlari, bizning jigarbandlarimiz emasmi?!

Biz uchun urushlarda qurbon bo'lgan yuz minglab yurtdoshlarimizning nomi ham, jasorati ham ma'lum va hech qachon unutilmagay, inshoollo!

Shuning uchun biz ularning nomlarini mana shu maydondagi muhtasham Xotira kitobiga zarhal harflar bilan mangu muhrlab qo'ydik.

Toki bu muqaddas ziyoratgohga qadam qo'ygan har bir inson, nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo ahli ajdodlarimizga, fidoyi jangchilarimizga bo'lgan buyuk ehtiromimizni ko'rsin, ularning xotirasi qarshisida ta'zim bajo etsin.

Aziz birodarlar!

Mana shu maydon markazida urush va ayriliqlardan behad qayg'u-jafo chekkan, farzandlari dog'ida qaddi dol bo'lgan Motamsaro ona haykali o'rnatilgan.

Bu haykal uzoq tarixi davomida ne-ne balo-qazolarni, jabr-u zulmlarni, qirg'in-qatag'onlarni boshidan kechirgan, ayni paytda o'z erkinligi, insoniy haq-huquqlari uchun tinimsiz kurashgan ona-Vatanimizning yorqin timsolidir.

Inson bolasini Ona yorug' dunyoga keltiradi, oq yuvib oq taraydi. Uni beg'araz mehri bilan ulg'aytiradi. Inson qalbida neki olijanob tuyg'ular va odamiylik xususiyatlari mavjud bo'lsa, barchasi ona mehridan, ona tarbiyasidandir.

Vatanga muhabbat tuyg'usi ona suti, ona allasi bilan qon-qonimizga singadi, ongimizga kiradi.

Shu bois Ona – Vatan, Vatan – Ona, demakdir. Biz mehr va muhabbatni, sadoqat va fidoyilikni munis onalarimizdan, bebaho Vatanimizdan olamiz. Va bizning ham jamiki ezgu niyatlarimiz, xayrli ishlarimiz Ona-Vatanga atalgandir.

Motamsaro onaning mahzun qiyofasi har birimizni hushyorlikka chorlaydi. Urush va qirg'inlarga yo'l qo'ymaslikka, bugungi yorug' va dorilomon kunlarimizning qadriga yetib yashashga da'vat etadi.

Biz muqaddas Ona haykali poyiga bitilgan «Sen doimo qalbimdasan, jigarim» so'zlari millatimizning, xalqimizning qurbon bo'lgan farzandlariga cheksiz ehtiromini anglatib, qalblarimizda doimo aks sado berib turadi.

Mangu olov tegrasiga zikr etilgan «El-yurtimizning erki va ozodligi, baxt-u saodati uchun hayotini qurbon qilgan vatandoshlarimiz xotirasi hamisha barhayotdir», degan so'zlar esa uzoq va yaqin tariximizda bugungi ozodlik va mustaqilligimiz uchun kurashib jon fido etganlar xotirasi yuraklarimizda abadiy yashashini anglatadi.

Aziz vatandoshlar!

Biz mustaqillik yillarida o'zligimizni anglash, tarixiy-milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida nimaiki ish qilayotgan bo'lsak, ularning barchasini yagona maqsad-ko'pmillatli xalqimizni birlashtirish uchun qilmoqdamiz.

Ishonchim komilki, Xotira va qadrlash kuni xalqimizni yanada birlashtiradi, uning ruhiga malham bo'ladi, irodasini baquvvat, iymonini butun qiladi.

Fursatdan foydalanib, mana shu muazzam obidani bunyod etishda sidqidildan mehnat qilgan quruvchi va ustalarga, me'mor-u muhandislarga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchilik bildirishga ijozat etgaysizlar.

Shunday xayrli va olijanob ishga hissam qo'shilganidan men ham g'oyat baxtiyorman.

Aziz yurtdoshlarim!

Barchangizni bugungi ulug' ayyom bilan yana bir bor tabriklayman.

Hammangizga uzoq umr, sihat-salomatlik, farzandlarimiz baxtini ko'rish nasib etsin.

Xotira va Qadrlash kuniga
bag'ishlangan tantanali
marosimdagi so'z,
1999-yil 9-may

Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq

Assalomu alaykum, aziz, vatandoshlar!

Qadrli mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, barchangizni qadimiy va muqaddas Xorazm zaminida turib, Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi bilan muborakbod etaman.

Vatanimizning ko'pming yillik tarixi el-yurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan himoya qilish, millatimizning erkinligi va or-nomusini asrash yo'lidagi buyuk voqealarni, bu kurashlarda jasorat va mardlik ko'rsatgan buyuk shaxslarning nomlarini asrlar davomida o'zining yorqin xotirasida saqlab kelmoqda.

Jaloliddin Manguberdi – ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir.

Jaloliddin Manguberdi – bor-yo'g'i o'ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida el-u yurt uchun, xalq ozodligi uchun so'nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug' ajdodimizdir.

Aziz do'stlar!

Jaloliddin Manguberdining beqiyos jasoratini anglash uchun, avvalo, shu davrlarning mashaqqatli va beshafqat sahifalarini o'zimizga tasavvur qilib ko'raylik.

Shu paytgacha hech qaysi davlat, hech qaysi el bas kelolmagan, Xitoy va bepoyon Sibir yerlaridan boshlab bugungi Kaspiy va Qora dengiz bo'ylarigacha bo'lgan o'lkalarni zabt etgan, yo'lida uchragan shahar-qishloqlarni yondirgan, dahshati o'zidan oldin yetib, ne-ne shoh-u shahanshohlar, amir-u sultonlar, sarkardalar yuragiga vahima solgan Chingizxon lashkarining Xorazm ustiga balo-qazoday yopirilib kelayotganini ko'z oldingizga keltiring.

Bir tomondan, boy-badavlat, ikkinchi tomondan, parokanda bo'lib yotgan yurtimizning o'sha paytdagi ahvolini ham bir o'zingizga tasavvur qilib ko'ring.

Chingizxon shunday bir mash'um kuch ediki, dunyodagi manaman degan qancha zotlar uning qarshisida tiz cho'kib, qullug' qilib yashashga tayyor edi.

Muhammad Xorazmshoh atrofidagi ko'plab beklar ham yov qo'liga taslim bo'lishni afzal ko'rganlarida, Jaloliddin bu fikrga qarshi chiqib, o'zining beqiyos jasorati va qat'iyatini namoyon etdi. Shu paytgacha mag'lubiyatga uchramagan mo'g'ul lashkariga qarshi o'n bir yil muttasil jang qildi. Va g'animlarga shunday qaqshatqich zarbalar berdiki, hatto Chingizxonday makkor va beshafqat, dunyoning yarmini zabt etgan fotih ham unga tan berishga majbur bo'ldi.

Aytinglar, aziz do'stlar, ana shunday qaltis vaziyatda o'zi kabi fidoyi, botir insonlarni jipslashtirib, Xorazm zaminini toptashga shay turgan yovuz dushmanga qarshi chiqish uchun odamda qanday jur'at, qanday yurak, qanday iroda, qanchalar baquvvat imon-e'tiqod bo'lishi kerak?

Aytinglar, buning uchun insonda Vatanga muhabbat, el-u yurtga sadoqat, fidoyilik, ozodlikka intilish tuyg'usi nechog'li bo'lishi kerak?

Qani, aytinglar, do'stlarim, qadrdonlarim, oldindan o'zini qurbon bo'lishini bilaturib, lekin Vatan uchun, uning or-nomusi, uning tarixi va istiqboli uchun, zimmasiga shunday og'ir qismatni olgan zotlarni tarixda ko'p uchratish mumkinmi?

Aminman, bunday shijoatli va mard o'g'lonni dunyoga keltirgan, voyaga yetkazgan xalq har qancha hurmat-ehtiromga, har qancha tasannolarga munosibdir.

Hurmatli mehmonlar!

Qadrli do'stlar!

Sulton Jaloliddin Manguberdi o'z elining baxt-u saodati uchun hayot-mamot janglarida jon fido etdi. Lekin dunyoda hech qanday xayrli ish beiz ketmaydi. Millat ruhi, odamzodning ozodlik sari intilishi abadiydir.

Oradan bir asr o'tib, sohibqiron Amir Temur Jaloliddin Manguberdi boshlagan ozodlik kurashini yangi sharoit va ulkan miqyoslarda davom ettirdi. Ona yurtimizni bosqinchilardan xalos qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi.

Muhtaram jamoat!

Jaloliddin Manguberdining hayot yo'lini tahlil qiladigan, o'sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho beradigan bo'lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq xulosalarni chaqirishga undaydi.

Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi.

Bu – hayot. Bu – hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etmaydi. Buni nafaqat o'z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko'rish mumkin.

Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o'zining tug'ilib o'sgan, ota-bobolaring xoki yotgan, ertaga farzandlaring kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko'ra, o'z ichidan chiqadigan sotqin, imonsiz, o'zining manfaatini hammo narsadan ustun qo'yadigan, kerak bo'lsa, eng yaqin kishilarni ham sotadigan, o'zini o'stirgan, voyaga yetkazgan Vataniga qo'l ko'taradigan qabih kimsalardan nihoyatda

ehtiyot bo'lishi kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kib-ru havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko'rib turibmiz.

Takroran aytaman, bu nafaqat kechagi tariximiz, balki bugungi hayotimiz bilan hamohang achchiq saboqdir.

Yana bir saboq shuki, el-yurt va davlat uchun, uning taqdiri va kelajagi uchun qayg'uradigan, odamlarning ezgu niyatlarini o'ziga oliy maqsad qilib qo'ygan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, har qanday vaziyatda ham xalqni birlashtirib, turli balo-qazolardan asrash uchun safarbar eta oladigan shaxslargina tarixda o'chmas nom qoldiradi. Bu – haqiqat.

Jaloliddin Manguberdi ana shunday mardlarning yorqin timsoli va ibratli namoyandasidir.

Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan **yana bir da'vati shuki,** u barchamizni ona yurtimizning beg'ubor osmonimizni va osuda hayotini qadrlashga, o'sib kelayotgan, ertaga bizning o'rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan farzandlarimizning kelajagini, baxt-saodatini himoyalashga, yorug' istiqbolga intilib yashashga chorlaydi.

Qadrli vatandoshlar!

Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani, «Avesto»dek o'lmas asar yaratilgan tabarruk tuproq– Xorazm zamini butun dunyoga ma'lum va mashhur.

Bu yurt tengsiz allomalar, aziz avliyolar, podshoh-u sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi.

Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekiston-tonning faxr-u g'ururidir. **U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir.**

Bu bahodir zotning muborak nomi, uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga, tarixiy xotira oldida boshimizni mag'rur tutib yashamog'imiz uchun to'la huquq beradi.

Aziz yurtdoshlarim!

Aziz qadrdonlarim!

Shu hayajonli, unutilmas lahzalarda dunyoga Manguberdi kabi qahramon o'g'lonlarni bergan Xorazm eliga, butun xalqimizga ta'zim qilaman.

Biz bugun yurtimizda Jaloliddin Manguberdi xotirasini hurmatlab, muazzam yodgorlik majmuini bunyod etdik. Ko'rib turganingizdek, bu ulug'vor haykal timsolida mard va jasur sarkarda, zo'r iroda, beqiyos matonat sohibi bo'lgan buyuk insonning so'nmas shijoati mujassam topgan.

Bu go'zal yodgorlik obidasini barpo etishdek xayrli ishga hissa qo'shgan muhandis va me'morlarga, mohir ustalarga, quruvchi va bog'bonlarga chin qalbimdan samimiy tashakkurlar bildirishga ruxsat bergaysizlar.

Bizning buyuk ajdodlarimizga ko'rsatayotgan hurmat-ehtiromimizdan, ozod va obod Vatan, farovon jamiyat qurish borasidagi ezgu ishlarimizdan, jamiki aziz bobolarimiz qatori, Jaloliddin Manguberdining ham ruhi pokı shod bo'lg'ay, inshoollo.

Ishonchim komilki, ularning o'lmas ruhi bilan charog'on xonadonlarimizda bugun voyaga yetayotgan minglab jaloliddinlar yurtimizga mehr-u sadoqat bilan xizmat qilib, uni dunyoga tarannum etadi.

Ishonchim, komilki, Manguberdining beqiyos jasorati yurtimiz tinchligi, xalqimiz omonligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan dovyurak askarlarimiz, el-yurt posbonlari, jasur o'g'lonlarimiz siymosida davom etaveradi.

Ishonchim komilki, dunyoga buyuk farzandlarni bergan, kindik qoni tomgan zaminni, ajdodlarining muqaddas mozorlarini jonidan ham ortiq ko'radigan, o'z vataniga butun borlig'ini baxsh etishga hamisha tayyor turadigan, qadoq qo'llari bilan tuproqdan oltin undirayotgan bunday xalqning obro'-e'tibori va hurmati oshaveradi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Vatan va xalq ozodligi yo'lida jon fido etgan qahramonlarga shon-sharaflar bo'lsin!

Ana shunday bahodirlarni kamolga yetkazgan Ona xalqimiz mangu yashasin!

Aziz do'stlar!

Bugun Xorazm zaminida qo'shaloq bayram. Viloyat dehqonlari, butun Xorazm ahli lafzi halolligini yana bir bor isbotlab, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini, Vatanimiz uchun «oq oltin» bo'lmish paxta tayyorlash rejalarini sharaf bilan bajardi. Mana shu ulkan g'alaba bilan siz azizlarni, siz orqali butun Xorazm ahlini chin qalbimdan tabriklashga ruxsat bergaysizlar.

1999-yil 5-noyabr,
Urganch shahri

«Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Kechagina biz xalqimiz ozodligi yo'lida jon fido etgan milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini keng nishonladik.

Bugun esa ajdodlarimiz badiiy dahosining bebaho yodgorligi – «Alpomish» dostonining 1000 yilligi bayramida siz azizlar bilan diydor ko'rishib turganimdan g'oyat mamnunman.

Har qaysi millatning o'z afsonaviy bahodiri, sevgan pahlavoni bor. Alpomish nomi ham bizning shuurimizga munis onalarimiz aytgan allalar bilan kirgan. Ajdodlar yodi, faxr-u g'ururi bizning xotiramizga Alpomish timsolida jo bo'lgan.

«Alpomish» – o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir.

Xalqimiz azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo'lmoqqa intilib yashadi. O'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab keldi.

«Alpomish» dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Muhtaram birodarlar!

«Alpomish» dostoni – butun o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir. Lekin nima uchun biz uning to'yini aynan Termiz shahrida, Surxon vohasida o'tkazyapmiz?

Negaki, Surxon vohasi, avvalo, «Alpomish» dostoni tug'ilgan qutlug' maskan. Alpomish mana shu bepoyon yaylovlarda, baland tog' daralarida gumburlatib ot chopgan, shu yurtning zilol ko'llaridan suv ichgan, shu mag'rur elga munosib pahlavon bo'lib yetishgan.

Shuning uchun ham Barchinoy dushmanlarga qarata g'urur bilan: «Mening yorim bilsang Boysun sultoni», deb aytadi.

Surxon jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklari – miloddan avvalgi Kushon va Baqtriya davlatlariga zamin bo'lgani bilan olamga mashhur, Vohadagi Dalvarzintepa, Xolchayon, Tillatepa, Zarautsoy, Teshiktosh, Fayoztepa singari ko'hna makonlar, u yerlarda topilgan arxeologik ashyolar ko'pming yillik tariximizning noyob yodgorliklaridir.

Bu tuproq azaldan ilm-u hunar, hikmat va san'at ruhi bilan yo'g'rilgan. Imom At-Termiziy, avliyo Hakim ota kabi ulug' zotlarning o'lmas ruhi, hayotbaxsh o'gitlari barkamol avlodlarni voyaga yetkazdi. Shubha yo'qki, «Alpomish»dek buyuk obidalar, «Alpomish»dek mard pahlavonlar aynan mana shunday muhitda dunyoga keladi.

«Alpomish» to'yining Termiz shahrida o'tayotganida men yana bir ramziy ma'no ko'raman.

Qachonki o'lkamizga janub tarafdan yov hamla qilgan bo'lsa, Termiz uning qarshisida metindek qo'rg'on bo'lib kelgan. Termiz bugun ham ona yurtimizning janubiy sarhadlarida mustahkam qal'a bo'lib turibdi.

Mana shu chegara hududlarida ko'ksini qalqon qilib tabiatan og'ir-vazmin, ammo Vatan boshiga sinov tushsa, jon fido etishga ham tayyor oriyatli xalq yashaydi.

Bu dovyurak va o'ktam xalqning – Surxon ahlining yuragida Alpomish kabi pahlavonlardan meros qolgan shijoat yashaydi.

Bu yurtda dunyoning kurash maydonlarida kuragi yerga tegmasdan zafar qozonib, o'zbek nomini butun olamga tarannum etayotgan yuzlab polvonlar yashaydi.

Ishonchim komilki, bunday qudrat sohibi bo'lgan xalqni hech qanday yovuz kuch yengolmaydi.

Hurmatli mehmonlar, aziz vatandoshlar!

Bugun biz sizlar bilan «Alpomish» dostonining 1000 yillik to'yini nishonlayapmiz. Lekin bu dostonda tasvirlangan voqealar yurtimizning necha-necha ming yillik shonli tarixidan darak beradi.

Asardagi kichik bir dalilga murojaat qilaylik. Xalqimizning qadimiy tasavvurlariga ko'ra, o'q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshda o'n to'rt botmon birichdan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, «alp» degan unvonga ega bo'ladi. Alp degani – hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Aslida, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa «Alpomish» ana shu dostonning shohbaytidir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib o'zligini yo'qotmagan xalqimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugungi muborak ayyomda biz «Alpomish»dek so'z durdonasini yaratgan, uni asrlar osha avlodlarga yetkazib kelgan ijodkor xalqimiz dahosi oldida bosh egamiz.

Bugun biz ming yillar davomida bu dostonni kuylab, gavharday asrab-avaylab, boyitib kelgan, nomlari bizga noma'lum bo'lgan yuzlab xalq baxshilarining iste'dodi qarshisida ta'zim qilamiz.

Agar iloji bo'lsa, men ana shu insonlarning nomlarini ma'naviyatimiz tarixiga oltin harflar bilan yozgan bo'lur edim.

Muhtaram jamoat!

Baxshi-shoirlar o'z xalqining biyron tilidir. Ular yurtimizda doimo «Baxshili el – yaxshili el» deb ulug'langan.

Bugun biz Yodgor baxshi va Tilla kampir, Jossoq shoir va Amin baxshi, Sherna baxshi va Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh va Po'lkan shoir, Islom shoir va Abdulla shoir, Saidmurod panoh va Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Berdi baxshi va Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir shoir va Shoberdi baxshi kabi dostonchilarning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz. Ularning noyob qobiliyati, yuksak mahorati tufayli «Alpomish» bor salobati va nafosati bilan yashab kelmoqda.

Bugun biz bu o'lmas asarni yozib olish, nashr etish, ilmiy o'rganish, tarjima va targ'ib qilish ishiga ulkan hissa qo'shgan Hodi Zarif, Hamid Olimjon, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov kabi zahmatkash insonlarni, ko'plab xorijiy olimlarni ham minnatdorlik bilan eslaymiz.

Muhtaram Vatandoshlar.

Yillar, asrlar o'tadi, ona O'zbekistonmizda yangi-yangi avlodlar voyaga yetadi.

Ishonaman, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi.

Ishonaman, xalqimiz bugungi shodiyonadan ruhlanib, qadr-qimmatini yanada chuqurroq anglaydi, o'zining beqiyos jasoratini, bukilmas irodasini, mustahkam iymon-e'tiqodini namoyon etib, yorug' kelajak sari qat'iyat bilan boraveradi.

Ishonaman, har qaysi qishloq, har qaysi shahar, har bir xonadonda yangi-yangi alpomishlar dunyoga keladi, vatanga sadoqatli, jasur va yengilmas insonlar bo'lib ulg'ayadi.

Surxon vohasining betakror tabiati, Bobotog', Boysun, Vaxshivor singari baland tog'lar, Oltinsoy, Sangardak, Sayrob, Xonjizza kabi go'zal go'shalarini bir bor ko'rgan odam beixtiyor qoladi.

Bu zaminda yashab, fidokorona mehnati bilan uning ko'rkiga ko'rk, chiroyiga chiroy qo'shayotgan insonlarga, ayniqsa, yosh o'g'il-qizlarimizga mening havasim keladi.

Har qanday inson bu yuragi ochiq, mard va tanti, ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom odamlar bilan chin ko'ngildan yaqin bo'lishni istaydi.

Shu unutilmas, hayajonli damlarda Alpomishdek bahodirlarni kamolga yetkazgan ona xalqimga yana bir bor ta'zim qilaman.

Yurtimiz osmoni doim musaffo, xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

1999-yil 6-noyabr.
Termiz shahri

Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq

Bismillohir rahmanir rohim.

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Qadimiy va betakror Samarqand zaminida, mana shu muborak kunda siz, aziz yurtdoshlarimni, uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarni yana bir bor chin qalbimdan samimiy qutlab, barchangizga o'z hurmatimni bildirib, bag'oyat mamnun bo'lganimni izhor etmoqchiman.

Qadrli do'stlar!

Kuni kecha biz ko'hna Marg'ilonda buyuk bobomiz Burhoniddin Marg'iloniyning tavallud ayyomini o'tkazib, ul zotning ruhi poklarini shod

etgan bo'lsak, bugun yana bir ulug' alloma – Imom Abu Mansur Moturidiy hazratlarini xotirlab, bu benazir siymo oldidagi insoniy burchimizni ado etmoq uchun bu yerga yig'ildik.

Diyorimizda Imom Moturidiy va Burhoniddin Marg'inoniyning tavallud ayyomlari bir paytda o'tayotganida chuqur ramziy ma'no bor.

Bu ma'no, avvalambor, bu aziz insonlarning ibratli taqdirida, ularning ilm-ma'rifat va ezgulikka bag'ishlangan hayotida, muqaddas dinimizni asrab-avaylash va rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalarida mujassamdir.

Hayotining mazmuni, olijanob intilishlari mushtarak bo'lgan bu ikki ulug' zotning mana shu muqaddas makon – Chokardiza qabristonida mangu orom topgani, xoki poklari yonma-yon yotganini ham Yaratganimizning qudrati va marhamati, deb bilamiz.

Va nasib etsa, Burhoniddin Marg'inoniy bobomizga, u zot tavallud va kamol topgan Rishton va Marg'ilonda barpo qilingan muhtasham majmui singari, shu muqaddas joyda ham yodgorlik bunyod etamiz.

Qadrli do'stlar, aziz mehmonlar!

Bugungi marosimdan foydalanib, Alloh taoloning nazari tushgan shu tabarruk zamında yashab o'tgan, islom falsafasi, islom aqidalarini ilmiy asoslash, muqaddas dinimizni sof va pok saqlash, uni ulug'lash va targ'ib-u tashviq etishga beqiyos hissa qo'shgan vatandoshlarimizni, shu tuproqda unib-o'sgan aziz avliyolarni yana bir bor yod etsak, ularning xotirasiga yana bir bor ta'zim qilsak, o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Islom dunyosining ustunlari bo'lgan Imom Zamahshariy, Imom Termiziy, Imom Nasafiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, Shayx Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori valiy kabi ko'plab mumtoz zotlarning hayoti va faoliyati bizning yurtimizni nafaqat musulmon olamida, balki Mag'rib-u Mashriq dunyosida mashhur etganidan haqli ravishda g'ururlanamiz.

Bu ulug' zotlar qatorida buyuk ajdodlarimiz bo'lmish hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmining sultoni Imom Moturidiy, o'lmas «Hidoya» asarining muallifi shayxulislom Burhoniddin Marg'iloniy bobolarimiz alohida o'rin tutadi.

Muhtaram birodarlar!

Imom Moturidiyning faoliyati va ta'limoti haqida gapirar ekanmiz, avvalo, bir masalani aniqlab olish lozim: uning merosini nima uchun ulug'laymiz, nima uchun qadrlaymiz, nima uchun bugun ham bu merosning hayotiy ta'sirini sezamiz?

Shuni alohida ta'kidlash joizki, agar biz islom tarixiga nazar tashlasak, bu ilohiy dinni anglash, uni tushunish, tushuntirish, targ'ib qilish va pokligini saqlash borasida asrlar mobaynida ko'p-ko'p bahs-munozara va tortishuvlar, hatto jang-u jadallar ham bo'lib o'tganini ko'ramiz.

Uzoq tariximiz davomida ba'zi bir razil kuchlar mo'min-musulmonlarni chalg'itib, o'zlarining g'arazli maqsad va manfaatlariga erishmoq uchun ularni tanlagan yo'lidan qaytarishga ne-ne harakatlar va zo'ravonliklar qilib kelganiga ham guvoh bo'lamiz.

Shuning uchun ham musulmon jamiyati islom dinimizni asrab-avaylab, uning ma'no-mazmunini odamlarga to'g'ri va xolis yetkazib beradigan, ularni hidoyat yo'liga boshlaydigan fozil shaxslarga doimo katta ehtiyoj sezib kelgan.

Aytish mumkinki, Imom Moturidiy hazratlari ana shunday tarixiy zarurat natijasida maydonga chiqqan mumtoz siymo, ulug' allomadir. Buyuk bobomiz yashagan davrda har turli diniy firqa va oqimlar o'rtasida g'oyaviy qarama-qarshiliklar, ziddiyat va nizolar kuchayib, qonli mojarolar avj olgan edi.

Mo'min-musulmonlar uchun bag'oyat xatarli va tahlikali ana shunday bir vaziyatda hazrati Moturidiy zo'r matonat, avlodlarga ibrat bo'ladigan fidoyilik namunasini ko'rsatdi.

Ul zot Alloh taolo o'ziga ato etgan beqiyos aql-zakovat va ilm bilan to'g'ri yo'ldan adashgan oqimlarga qarshi kurash olib bordi.

Lekin bu kurashda u g'animlarga qarshi kuch ishlatib, qilich yalang'ochlab jang qilgani yo'q.

Alloma bugungi kunda ham o'z ahamiyati va ta'sirini yo'qotmagan hayotbaxsh kuch, ya'ni g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat yo'lini tanladi va umrining oxiriga qadar shu yo'lda sobit qoldi.

U johil kuchlarning tahdid va tajovuzlaridan qo'rqmay, hidoyat yo'lini yo'qotgan firqalarga qarshi keskin raddiyalar bitdi. Hazrat Moturidiyning asarlaridagi ilmiy asos va mantiq qudrati shu qadar kuchli ediki, uni hatto allomaning muxoliflari ham oxir-oqibatda tan olishga majbur bo'ldilar.

Shuning uchun ham Moturidiy bobomiz islom olamida «Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo'ldi.

Mana shu ma'noda, bu mo'tabar zot o'zining teran ilmi, pok e'tiqodi, sabot va matonati bilan islom dinining sofligi uchun kurashar ekan, kelajak avlodlar manfaatini, siz-u bizni ham himoya qilgan, deb ishonch bilan aytishga haqlimiz.

Buyuk bobomizning butun islom olami, o'z xalqi, o'z Vatani oldidagi yana bir ulkan xizmati shundan iboratki, ulug' vatandoshimiz e'tiqod ilmi – muqaddas dinimizni qanday tushunish va unga qanday amal qilish ta'limotini yanada rivojlantirdi. Islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqning milliy urf-odatlari, asriy an'analari bilan uyg'unlashtirdi.

Hazrati Moturidiyning o'ninchi asrdayoq diniy g'oyalari g'arazli maqsadlar yo'lida qurolga aylantirish, mutaassiblik va johillik botqog'iga botib qolish qanchalik xatarli ekanini asoslab bergani biz uchun ayniqsa muhimdir.

Alloma bobomiz: «Din yo'lidagi barcha adashuvlarning bosh sababi – riyokor kimsalarga ko'r-ko'rona ergashishdadir», degan edi.

Bu so'zlarning naqadar haqqoniy ekanini, hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmaganini bugun dunyoda ro'y berayotgan yuzlab voqealar misolida yaqqol ko'rib turibmiz.

O'zingiz o'ylang, aziz do'stlar, birodarlar, jahonning turli burchaklarida diniy nizolar asosida sodir etilayotgan qonli to'qnashuvlarning aksariyati aqidaparastlik, soxta g'oyalarga ko'r-ko'rona ergashish, nodonlik va johillik oqibati emasmi?

Muhtaram vatandoshlar!

Imom Abu Mansur Moturidiy qoldirgan merosning yana bir ibratli tomoni shundaki, u diniy e'tiqod borasida ashaddiylik, toqatsizlikni rad etadi, mo'tadillik va bag'rikenglikni yoqlab chiqib, bu muhim tamoyilni jamiyat hayotining mezoniga aylantirishga intiladi.

Alloma, har bir insonning hayoti Yaratgan tomonidan belgilanadi, lekin odamzodga yo'l tanlash ixtiyori ham berilgan, binobarin, u o'z xatti-harakatlari va qilmishlari uchun avvalo Parvardigor oldida, xalq va jamiyat oldida mas'uldir, degan fikrni qat'iy turib himoya qiladi.

Imom Moturidiy ta'limoti ana shu insonparvarlik mohiyatiga ko'ra, insoniyat hayoti va taraqqiyotini yaxshilik va poklik sari, adolat sari yo'naltirishga, odamlarni millati, tili, dinidan qat'i nazar, o'zaro ahil, bahamjihat, mehr-oqibatli bo'lib yashashga da'vat etadi.

Bu mo'tabar siymo o'zining «Kitob ut-tavhid», «Kitob ul-ta'vilot» kabi o'lmas asarlarida xalqimizga mansub bag'rikenglik, olijanoblik va taraqqiyparvarlik kabi ulug' fazilatlarni yorqin namoyon etgani bilan ham bizga ayniqsa qadrlidir.

Ul zot asos solgan diniy ta'limot – Moturidiyya maktabi Sharq mamlakatlarida katta shuhrat topishiga bo'lgan sabab shuki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning mohiyatini to'g'rilik, ezgulik, insoniylik, deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarashlari va intilishlari bilan hamohang edi.

Shu bois Moturidiyya maktabida ta'lim olgan turli millat vakillari bo'lmish olimlar, Hazrat Moturidiyning minglab izdoshlari, ma'naviy shogirdlari uning ta'limoti va merosini dunyoning ko'p-ko'p mamlakatlarida targ'ib-u tashviq etib, yanada rivojlantirdilar.

Hurmatli birodarlar!

Bugungi kunda, yigirma birinchi asr bo'sag'asida, bashariyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda diniy bag'rikenglik, turli dinlarga mansub xalqlar o'rtasida muloqot va amaliy hamkorlikni kuchaytirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, Imom Moturidiy bobomizning: «Agar odamlar yaxshilik yo'lida birlashsa, Yaratganimiz ulardan o'z marhamatini darig' tutmaydi», degan hikmatli so'zlarida bizning zamonamiz uchun ham ibratli saboqlar bor, desak, xato bo'lmaydi.

Bugun bobomiz Imom Moturidiyning faoliyati va qoldirgan benazir merosi haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda bu merosni yanada

chuqurroq o'rganish, bu zotga katta ehtirom bilan qarab, tadqiqotlar olib borayotgan xorijiy olimlarning, birodarlarimizning ko'mak va yordami bilan allomaning hozircha topilmagan bebaho asarlarini nafaqat O'zbekiston, balki barcha musulmon mamlakatlarida izlash, ularni tahlil etish, zamondoshlarimiz va yosh avlodlarga yetkazish barchamiz uchun ham farz, ham qarz ekanini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Shu fursatdan foydalanib, Imom Moturidiy bobomizni ziyorat qilmoq niyatida o'z qimmatli vaqtlarini ayamasdan uzoq-yaqin o'lkalardan yurtimizga tashrif buyurgan, ushbu marosimda ishtirok etayotgan aziz mehmonlarimizga butun xalqimiz nomidan, Imom Moturidiyning bugungi avlodlari nomidan beqiyos hurmat va ehtiromimizni izhor etishdan baxtiyorman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Aziz mexmonlar!

Buyuk ajdodlarimizning bebaho merosini tiklash, qadr-qimmatini joyiga qo'yish, ularning qadamjo va ziyoratgohlarini obod qilishdek baxt siz bilan bizga nasib etganidan har birimiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Qadimiy zaminimizdan o'tgan bu ulug' zotlarning yana bir xosiyati shundaki, ularning sharofati bilan tabarruk maqbaralar, tarixiy obidalargina emas, balki milliy tafakkurimiz, ma'naviyatimiz, milliy g'ururimiz, eng muhimi, xalqimizning tarixiy xotirasi qayta tiklanmoqda.

Muhtaram do'stlar! Birodarlar!

Samarqand ahli o'z qadimiy tarixiga ixlos qo'ygan, o'zidan o'lmas meros qoldirgan ulug' mutafakkirlari, alloma va aziz-avliyolarining muborak nomlarini e'zozlab, ularning xotirasini tiklash yo'lida savob ishlari bilan o'rnak bo'lib kelayotgan saxovatli xalqdir.

Samarqand tuprog'ini aziz bilib, uni sevib-ardoqlab, bir umr shu yerda muqim yashagan, o'zining mislsiz faoliyati bilan shu muqaddas zaminni butun dunyoga mashhur etgan, ezgu duolari bugun ham bizga kuch-quvvat bag'ishlab turgan Abu Mansur Moturidiy bobomizga ko'rsatayotgan hurmat-ehtiromimiz ana shu buyuk ixlosning yana bir dalolatidir.

Mana shu muhtasham yodgorlik majmuining g'oyat qisqa fursatda – to'rt oy davomida bunyod etilgani ham ul tabarruk zotga bo'lgan xalqimiz mehr-oqibatining ifodasi, deb bilamiz.

Fursatdan foydalanib, Imom Moturidiy bobomizning muborak maqbarasini qaytadan tiklab, bu joyni qutlug' ziyoratgohga aylantirish yo'lida sidqidildan mehnat qilgan me'mor va muhandislarimizga, qo'li gul usta va quruvchilarimizga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz zotlarning nomlarini ulug'lab, maqbaralari va qadamjolarini tiklab, asrab-avaylab obod etaversak, Samarqand nafaqat sayyohlar makoniga, balki butun dunyodan ziyoratchilar intilib keladigan qutlug' bir maskanga aylanishi muqarrar.

Hamisha olijanob ishlarning bunyodkori bo'lgan, o'zining mehnati, qalb saxovati bilan mana shunday savob ishlarga munosib hissa qo'shib

kelayotgan Samarqand ahli bilan, siz qadrli hamshaharlarim bilan har qancha g'ururlansam arziydi.

Aziz vatandoshlarim!

Bugungi shukuhli daqiqalarda Imom Moturidiy bobomizni xotirlab, yana bir bor farzandlik hurmatimizni izhor etar ekanmiz, ul zotning ruhi poklari shod bo'lsin, yurtimiz doimo tinch, xalqimiz doimo omon bo'lsin, deya tilak qilamiz.

Bu tabarruk zamindan qut-baraka, mehr-oqibat arimasin!

Barchamizni Parvardigorimiz o'z panohida asrasin!

2000-yil 11-noyabr

Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq

Bismillohir rahmonir rohim.

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Uzoq-yaqindan kelgan muhtaram mehmonlar!

Avvalambor, siz, azizlar bilan qadimiy va go'zal Marg'ilon zaminida, muborak ramazon arafasida ko'rishib turganimdan g'oyat baxtiyor ekanimni izhor etmoqchiman.

Qadrli do'stlar!

O'tgan ota-bobolarimizni eslash, ularning ruhi poklarini shod etish xalqimizga xos ezgu fazilat, xayrli va savob ishdir.

Bugun biz ko'p-ko'p mumtoz zotlarning ona shahri bo'lgan, ne-ne avliyo, alloma-yu fozillar qadami tekkan ko'hna Marg'ilonda bashariyat ma'naviy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk faqih Burhoniddin Marg'inoniy hazratlarining tabarruk xotirasini yod etib, ul zoti sharifga bo'lgan farzandlik hurmat-ehtiromini bajo keltirish uchun to'plandik.

Islom huquqshunosligining ulkan namoyandasi, shayxulislom Burhoniddin Marg'inoniyning nomi Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori valiy singari ulug' siymolar qatorida turadi.

Nafaqat musulmon olami, balki butun dunyo e'tirof etgan, Alloh taolo bergan aql-zakovati bilan islom huquqshunosligi ilmida o'ziga xos maktab yaratgan, bebaho merosi bilan mana shu Farg'ona diyorini jahonga tarannum etgan ul zotning tariximizdagi o'rni va obro'si beqiyosdir.

O'z hayotini din-u diyonat pokligi, iymon-e'tiqod ustuvorligi, ilm va adolat tantanasi yo'lida safarbar etgan bu mo'tabar allomaning Sharq olamida «Burhonuddin va milla», ya'ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Qadrli birodarlar!

Hammamizga ma'lumki, yer yuzida musulmonchilik paydo bo'lganidan buyon asrlar davomida dunyoning turli mamlakatlarida yuzlab olim-u ulamolar islom huquqshunosligi bilan mashg'ul bo'lib kelganlar.

Lekin bu sohada o'zi yaratgan buyuk asarlari va maktabi bilan islomiy huquq asoslarini belgilab bergani va shu ilmning har tomonlama rivoj topishiga qo'shgan hissasi bilan shu zamindan yetishib chiqqan bizning buyuk vatandoshimiz Marg'inoniy hazratlariga teng keladigan boshqa alloma kamdan-kam topiladi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Burhoniddin Marg'inoniy yashagan zamon – Sharq Uyg'onish davrining birinchi bosqichi bo'lmish X–XII asrlarda Movarounnahr zaminida ilm-u fan gurkirab rivojlangan, jamiyat taraqqiyoti uchun islom huquqini to'g'ri anglash va amal qilish muhim ijtimoiy zaruratga aylangan edi.

Ul zot o'z asarlarida o'sha zamonlarda mo'min-musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas'uliyatlariga taalluqli ko'p-ko'p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtayi nazaridan hal etib bergan.

Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasida ham «Hidoyat yo'lining sarboni» deya katta hurmat-e'tibor topgan.

Marg'iloniyning o'lmas merosi, xususan, «Hidoya» – «To'g'ri yo'l» deb atalgan kitobi, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e'tirof etib kelinayotganining boisi ham ana shunda.

Ayniqsa, bu mumtoz asarning yevropa tillariga ham tarjima qilingani, butun dunyoda katta qiziqish bilan o'rganilayotgani, unga turli tillarda ko'plab sharh va izohlar bitilgani Marg'inoniy merosining umumbashariy ahamiyatidan dalolat beradi.

Agar biz allomaning zamondoshlaridan biri aytgan «Ey aql egasi, «Hidoya»ni o'qib, mag'zini chaqqin, chunki u seni hidoyat yo'liga boshlab, eng oliy maqsadlarga yetkazgay», degan so'zlarini eslasak, o'ylaymanki, u zoti sharifning avlodlar oldidagi tarixiy xizmatlarini yana bir bor yaqqol tasavvur qilgan bo'lamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Aziz mehmonlar!

Burhoniddin Marg'inoniyning bizga qoldirgan ulkan merosi erishgan shon-shuhrati zamirida avvalo uning ibratli hayoti, pok e'tiqodi, olijanob insoniy fazilatlari mujassam.

Bu zahmatkash alloma hayotining mazmuni bo'lmish ellik yetti kitobdan iborat «Hidoya»dek ulkan asarni bunyod etgani, o'z asarlarida biror marta ham «men» degan so'zni ishlatmagani, balki «Bu zaif banda aytadi», deya kamtarona izoh berishi har qanday odamni bugun ham hayratga soladi.

Va uning ulug' e'tiqodi, ilm-u urfon yo'lidagi fidoyiligi, kamtarlik va xokisorlik fazilatlari bu zotga nisbatan barchamizda buyuk hurmat va ehtirom uyg'otadi.

Hurmatli yurtdoshlarim!

Ko'p asrlik tariximiz shundan dalolat beradiki, eng murakkab davrlarda ham xalqimizning mushkul sinovlardan o'tishi, hayotning turli to'fon va bo'ronlariga mardona bardosh berib, qaddi-qomatini tik tutib yashashiga katta madad baxsh etadigan kuch – yuksak ma'naviyat va adolatga intilish tuyg'usi bo'lgan.

Bamisoli qushning parvozi uchun qo'sh qanot qanchalik zarur bo'lsa, insoniyatning hayoti va taraqqiyoti uchun mana shu ikki buyuk tamoyil hamisha tayanch va suyanch bo'lib keladi.

Buyuk ajdodlarimizning hayot yo'lini, ilmiy merosini o'rganar ekanmiz, ana shu haqiqat ular faoliyatining bosh mezoni bo'lib kelganiga ishonch hosil qilamiz.

Shubha yo'qki, «Kuch – adolatdadir» degan g'oyani o'z hayotining mazmuni, deb bilgan Amir Temur bobomizdek ulug' ajdodlarimizning kamol topishida ham «Hidoya» singari qomusiy asarlarning ta'siri va ahamiyati beqiyos bo'lgan.

Shu ma'noda, bizning adolatli jamiyat barpo etish yo'lida amalga oshirayotgan ishlarimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Burhoniddin Marg'inoniy asarlarining mohiyati bo'lmish adolat tuyg'usi, o'z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo'lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma'naviy hayotimiz asoslarini tashkil etadi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Alloma bobomizning boy ilmiy merosiga ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, uni har tomonlama chuqur o'rganish va tegishli xulosalar chiqarib, zamonaviy bilimlar, bugungi hayot talablaridan kelib chiqadigan tajribalar bilan boyitish zarur. Va bu ulug' merosni avvalo o'zimiz uchun, kelajak avlodlar tarbiyasi uchun beqiyos ma'naviy oziq, deb bilmog'imiz darkor.

Eng muhimi, qanday o'lmas meros egalari ekanimizni hech qachon unutmaslik, ana shu boylikni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, bir so'z bilan aytganda, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lish – shu saxovatli va go'zal zaminda yashayotgan har qaysi inson uchun ham qarz, ham farzdir.

Muhtaram jamoat, aziz vatandoshlarim!

Insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk shaxslar avvalo Alloh taolo aziz tutgan muborak zaminda dunyoga keladi. Bu ko'hna haqiqat hayotda ko'p bor o'z isbotini topgan.

Buyuk bobomiz Burhoniddin Marg'inoniyning kindik qoni tomgan ko'hna Rishton tuprog'i, ul zoti sharif kamolga yetgan qadimiy Marg'ilon ham ana shunday tabarruk maskanlar qatoriga kiradi.

Marg'ilon deganda, betakror tabiati, bog'-rog'lari, kamalakdek serjilo atlaslari, o'zligimiz ramziga aylanib ketgan rang-barang do'ppilari bilan

yetti iqlimga mashhur bo'lgan go'zal bir makon ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Bu zamin azal-azaldan odob-andishali va bag'rikeng, mehnatkash va tadbirkor, mehmondo'st xalqi, mohir hunarmandlari, usta bog'bonlari, xushovoz hofizlari bilan shuhrat qozonib keladi.

Farg'ona vodiysining marvaridi bo'lmish Marg'ilonning bunday yuksak obro'-e'tibor topishida, avvalambor, mana shunday fazilatlarga ega bo'lgan xalqning mehnati va shu muqaddas zaminda unib-o'sib, voyaga yetgan, o'z yurti dovrug'ini butun dunyoga taratgan mo'tabar zotlarning hissasi beqiyos.

Bu borada umr bo'yi Marg'ilon nomini ulug'lab yashagan Burhoniddin Marg'inoniy bobomizning xizmatlari cheksizdir.

Men bugun siz, marg'ilonlik muhtaram yurtdoshlarimga qarata shu yuksak minbardan turib aytmoqchiman: shunday ulug' bobomizning aziz nomini ko'ksingizga tumor qilib olsangaz arziydi, albatta.

Ishonamanki, bu tabarruk tumor, Yaratganimizning marhamati bilan, nafaqat Marg'ilon ahlini, balki har bir vatandoshimizni, butun el-u yurtimizni yomon ko'zlardan, turli balo-qazolardan asraydi.

Biz bugun hazrati Marg'inoniyning xizmatlarini butun dunyo tan olishini, jahondagi ko'plab nufuzli ilm dargohlarida allomaning merosi har tomonlama o'rganilishini, hozir ham uning asarlari asosida qanchadan-qancha talaba yoshlarga saboq berilayotganini g'urur va iftixor bilan tilga olamiz.

Bularning barchasini biz ulug' bobomizning muborak siymosi bugungi kunda ham mamlakatimiz, xalqimiz obro'siga obro' qo'shayotganidan dalolat, deb bilamiz.

Shu fursatdan foydalanib, alloma Marg'inoniyning ilmiy merosini o'rganayotgan, u boshlagan ishning davomchilari bo'lgan olim va mutaxassislarga, ul zotning xotirasiga hurmat bajo keltirib, ziyorat etish maqsadida uzoq-yaqindan kelgan barcha aziz mehmonlarimizga xalqimiz nomidan minnatdorchilik bildirishga va o'z ehtiromimizni izhor qilishga ijozat bergaysiz.

Aziz do'stlarim!

Ilm va iste'dodini, butun borlig'ini millat uchun, xalq uchun bashariyat baxt-saodati uchun baxshida etgan hazrat Marg'inoniy kabi buyuk insonlarning tarix oldidagi, kelajak oldidagi xizmatlari aslo unutilmaydi. Marg'inoniy yoqqan ilmu ma'rifat mash'alasi hech qachon so'nmaydi, avlodlarning ong-u tafakkurini doimo munavvar etib turadi. Bu haqiqat bugungi qutlug' ma'rakalar misolida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Ulug' bobomizning muborak tavallud to'yi sharofati bilan qadimiy va betakror Marg'ilon shahri o'zgacha chiroy va tarovat kasb etgani, qo'li gul quruvchilarimiz, mohir ustalarimiz, me'mor-u muhandislarimiz, bunyodkor xalqimiz mehnati bilan mana shu muazzam yodgorlik majmui qad ko'targani hammamizning hazrat Marg'inoniyga bo'lgan cheksiz ehtiromimiz ifodasidir.

Bu muhtasham yodgorlik majmuini bunyod etishda qatnashgan barcha yurtdoshlarimizga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman, umringizdan baraka toping, qo'llaringiz aslo dard ko'rmasin, deyman. Kelinglar, aziz do'stlarim, birodarlarim, buyuk bobomiz tavallud topgan mana shu muqaddas Farg'ona zaminida turib, u mo'tabar zotning ruhi poklari shod bo'lsin, muborak qabrlari ilohiy nurga to'lsin, deya tilak qilaylik.

Bugungi hayajonli, unutilmas lahzalarda Burhoniddin Marg'inoniy bobomiz xotirasini yana bir karra yod etib, mana shunday aziz-avliyolarimizga beshik bo'lgan yurtimizga Allohdan tinchlik-omonlik, xalqimizga baxt-u saodat, farovonlik ato etishini so'raylik. Ilohim, barcha xayrli ishlarimizda Yaratganimizning o'zi madadkor bo'lsin! Shu qutlug' kunda qilgan jamiki ezgu tilaklarimiz ijobat bo'lsin!

2000-yil 16-noyabr

Jayhun sohilidagi boqiy shahar

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Bugun siz azizlar bilan xalqimiz hayotidagi yana bir unutilmas voqea – qadimiy Termiz shahrining 2500 yillik to'yi munosabati bilan shu qutlug' zaminda diydor ko'rishib turganimdan behad baxtiyorman.

Go'zal yurtimizda bahor nafasi kezib yurgan mana shunday yorug' va fayzli kunlarda ushbu tantanali marosimga uzoq-yaqindan tashrif buyurgan yurtdoshlarimizni, muhtaram mehmonlarimizni, bag'rikeng Surxon ahlini, barcha-barchangizni shu tarixiy sana bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi tantanada ishtirok etayotgan YuNESKO xalqaro tashkiloti hamda diplomatik korpus namoyandalariga, xorijiy mamlakatlarning olimlari va ommaviy axborot vositalarining vakillariga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysizlar.

Aziz do'stlar!

Bugun biz yashayotgan O'zbekiston tuprog'i dunyodagi eng ko'hna va betakror maskanlardan biridir. Bu haqiqatni ko'p-ko'p misollar, tarixiy va ilmiy dalillar asosida isbotlab berish mumkin.

O'zbekiston zaminining qaysi hududiga murojaat qilmaylik, ming-ming yillar qa'ridagi ilk hayot nishonalarini, eng qadimiy madaniyat va san'at namunalarini har qadamda topish, shu orqali bu yerlarda qanday buyuk sivilizatsiya mavjud bo'lganini ko'rishimiz muqarrar.

Bu haqda gapirganda, biz Farg'ona vodiysidagi Selungur, Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq, Qashqadaryodagi Uzunqir kabi dastlabki odamzod manzilgohlarini, Samarqanddagi Afrosiyob, Xorazm zaminida yaratilgan

nodir «Avesto» kitobi, Buxorodagi zardushtiylik ibodatxonalari singari ko'plab yodgorliklarni nazarda tutamiz.

Muxtasar qilib aytganda, mana shu mo'tabar yurtimizdagi yer osti xazinalaridan, asrlar davomida sukutga cho'mib yotgan shahristonlardan topilgan arxeologik ashyolar, noyob tasvirlar va hali ochilmagan, o'z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho'l-u biyobonlar, hech shubhasiz, bugun biz yashayotgan tuproqda qadim-qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san'at rivojlanganini tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, ulug' ajdodlarimizning umumjahon va umumbashariyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini hozirgi kunda dunyoda hech kim inkor qilolmaydi. Bunday xulosani yuzlab bebaho topilmalar, osori atiqalar va buyumlar isbotlab beradi.

Lekin, afsuski, insoniyat boshidan kechgan davr to'fonlari, urush-qirg'inlar, tabiiy ofatlar oqibatida bu beqiyos tarixiy madaniyat tasvirlarining mingdan bir qismigina bizga qadar yetib kelgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Agar o'sha – eng qadimiy davrlarga mansub yodgorliklarimizni, so'nggi ikki asr mobaynida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan noyob oltin va kumush buyumlar, bebaho osori atiqalarimizni – barcha nodir boyliklarimizni boshqa davlatlar kabi misqollab, asrab-avaylab saqlab kelib, bu eksponatlar bir joyga yig'ilsa, hech ikkilanmay aytish mumkinki, dunyoda tengi yo'q muzey vujudga kelgan bo'lur edi.

Bugun biz YuNESKO xalqaro tashkiloti qaroriga binoan Termiz shahrining 2500 yillik to'yini o'tkazar ekanmiz, Vatanimizning janubiy sarhadlaridan topilgan mana shunday dalillar asosida Surxon vohasida yashagan odamlarning qanday buyuk, ulug' tarixni boshidan kechirgani, kerak bo'lsa, qanday betakror madaniyatga ega bo'lganini katta g'urur va iftixor bilan ta'kidlaymiz.

Haqiqatan ham, bu ko'hna o'lkadagi Teshiktosh va Zarautsoy, Jarqo'ton va Sopollitepa, Xolchayon va Dalvarzintepa kabi o'nlab manzillardan topilgan ibtidoiy odam makonlari, qadimiy yodgorliklar, antik san'at asarlari shundan dalolat beradi.

Haqiqatan ham, mana shu bepoyon hududlarda, azim Jayhun bo'ylarida miloddan avval va uning ilk davrlaridayoq Baqtriya va Kushon kabi ulkan davlatlarning mavjud bo'lganini o'zimiz tasavvur etganda bunga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Haqiqatan ham, azaldan Mag'rib-u Mashriqni o'zaro bog'lab kelgan, qadim savdo karvonlari o'tadigan Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu tuproqda necha ming yillar mobaynida turli din va madaniyatlar – zardushtiylik va buddaviylik, nasroniylik va musulmonlik an'analari yonma-yon yashab kelganini hisobga olsak, bu zaminning tarixi naqadar ko'hna ekaniga iqror bo'lamiz.

Hatto, bir zamonlar Termiz shahri buddaviylik markazlaridan biri bo'lgani, bu ta'limot Xitoy va Yaponiyaga ayni shu yerdan tarqalgani haqida ilmiy qarashlarning mavjudligi ham bejiz emas.

Bugungi qutlug' sana munosabati bilan bunyod etilgan, sobiq ittifoq hududida yagona bo'lgan muhtasham Arxeologiya muzeyidagi ko'plab tarixiy ashyolar, me'morlik va haykaltaroshlik san'ati namunalari, devoriy rasmlar, uy-ro'zg'or buyumlari, turli-tuman taqinchoqlar ham ana shu haqiqatning tarixiy tasdig'i bo'la oladi.

Aziz do'stlar, birodarlar, shu o'rinda e'tiboringizni bir masalaga qaratmoqchiman.

Ya'ni, bu qadimiy vohaning, Termiz shahrining ko'hna va beqiyos kechmishini isbotlab, tasvir qilib beradigan dalillarni ko'rganda, odamda beixtiyor shunday savol tug'iladi: nega shunchalik uzoq tarixga ega bo'lgan bu shaharning yubileyi sho'ro zamonida biron marta ham nishonlanmagan?

Buning sababi bitta: u ham bo'lsa, mustabid tuzum davrida hukm surgan, bizning boy tariximizni tan olmaslik, mensimaslik, uni shu tarixning haqiqiy egalaridan yashirishga bo'lgan urinishlardir.

Bir so'z bilan aytganda, bu holni tarixiy adolatsizlik, asrlar davomida bizning xalqimiz, milliy madaniyatimizga nisbatan olib borilgan g'arazli siyosatning natijasi, deb baholash lozim.

Bunga yana bir sabab shuki, janubiy chegaralarda joylashgan Termiz shahriga, avvallari Rossiya, keyinchalik esa SSSR imperiyasining olis va chekka bir hududi deb, bu yerda qanday madaniyat, qanday taraqqiyot izlari bo'lishi mumkin, deb bepisand qarab kelindi.

Faqat biz ozodlik va erkinlikka erishgandan keyingina Surxonning haqiqiy tarixini ochib berish, tiklash va o'rganish masalasiga tom ma'noda katta e'tibor qaratildi.

Har qarich tuprog'i qancha sir-sinoatga, betimsol boyliklarga ega bo'lgan bu zaminning nafaqat yurtimiz tarixiga, balki dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini yoritib berish maqsadida olib borilayotgan ulkan ishlarni endilikda butun jahon ahli tan olmoqda.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, asrlar qa'rida ko'milib yotgan ana shu haqiqatni yuzaga chiqargan, Termiz shahri, butun Surxon vohasining tarixini aks ettiradigan osori atiqalar va yodgorliklarni izlab topish, ularni har tomonlama o'rganish, jahon bo'ylab targ'ib etish borasida sidqidildan mehnat qilgan zahmatkash olimlarimizga, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi mamlakatlardan kelib, bu yerda tadqiqot ishlari olib borayotgan arxeologlarga, ularni qo'llab-quvvatlagan tashkilotlarga, avvalo, YuNESKO xalqaro tashkilotiga o'zimizning chuqur minnatdorligimizni bildiramiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Termiz deganda, avvalo, uning shonli voqealarga boy kechmishi, qahramonlik tarixi ko'z o'ngimizga keladi.

Necha asrlar mobaynida Termiz harbiy-mudofaa qal'asi bo'lib, g'oyatda mas'uliyatli bir vazifani o'tab kelgani barchamizga ayon. Yurtimizga janub tomondan kimki bostirib kelmasin – Doro yoki Makedonskiy bo'ladimi,

Chingizxon yoki arab istilochilari bo'ladimi – Termiz qal'asi hamisha yov yo'liga qalqon bo'lgan, dushmanga qarshi mardona kurashgan.

«Avesto»da «bayrog'i – tug'i baland erlar yurti» deb ta'riflangan Surxon vohasi, bu qal'a shahar o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida kimlarni ko'rmagan, qanday sinov va to'fonlarni boshdan kechirmagan?

Uning bosqin-u istilolar tufayli necha bor vayronaga aylanib, kultepalar uzra necha bor qayta tiklangani tarixdan ma'lum.

Lekin, qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, shu yerni muqaddas makon deb, ona yurt deb bilgan mard va jasur ajdodlarimiz yovlarga hech qachon bo'yin egmagan.

Shu ma'noda, «Alpomish»dek qahramonlik dostonining aynan shu yerda yaratilgani ham aslo tasodif emas.

Ana shu kurashlar, jang-u jadallar natijasida bu shaharning nomi necha bor o'zgargani, hatto bir zamonlar u bosqinchi hukmdorlar nomi bilan atalganini ham yaxshi bilamiz.

Afsuski, «Termiz» so'zining lug'aviy ma'nosi va kelib chiqishi hali-hanuzgacha noma'lum bo'lib kelmoqda. Lekin, bu xususda turli fikr va qarashlar mavjudligini ham aytib o'tishimiz kerak.

Qadimiy yodgorligimiz «Avesto»da u «Tarmida» deb atalsa, arab manbalarida «Tarmiz», ya'ni «daryo bo'yidagi shahar» ma'nosini anglatadi.

Buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy esa o'ninchi asrda shaharni uning bugungi nomiga yaqin shaklda – «Tirmiz» deb tilga oladi.

Ammo, bizning faxr-u g'ururimiz boisi shundaki, qanday nom bilan atalgan bo'lmasin, qanday bosqin va ofatlarga duch kelmasin, Termiz elining, Surxon xalqining o'zligi, iymon-e'tiqodi, iroda va matonati, eng muhimi, o'z yurtiga sadoqati aslo o'zgarmadi.

Buyuk muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining mashhur «Zafarnoma» asarida Termiz aholisining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashini tasvirlar ekan, bu shaharni «Madinat ur-rijol», ya'ni «Mardlar shahri» deb ataganida ham teran ma'no mujassam.

Takror aytaman, tarixning o'zi Termiz shahri, uning qahramon xalqi zimmasiga asrlar davomida yurtimiz tinchligi va ozodligi yo'lida metin qal'a-qo'rg'on bo'lishdek og'ir va mas'uliyatli vazifani yuklagan.

Bugun biz iftixor bilan e'tirof etamizki, Termiz shahri bu muqaddas vazifani hamisha va hozirgi murakkab, tahlikali davrda ham sharaf bilan ado etib kelmoqda.

Muhtaram do'stlar!

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lgan bu shavkatli shaharni yetti iqlimga ma'lum-u mashhur etgan uning shonli tarixi, qadim-qadimdan shakllanib kelayotgan boy madaniyati, beqiyos obidalari, desak, xato bo'lmaydi, albatta.

Lekin Termizni Termiz qilgan, uning shuhratini olam uzra ziyoda etgan, bu vohaning har qarich tuprog'ini oltinga aylantirgan – mana shu yurtning mard va tanti, olijanob odamlaridir.

Bu qadimiy diyorda yashab o'tgan benazir alloma Hakim Termiziy, islom dunyosida olti buyuk muhaddisdan biri sifatida tan olingan Imom Iso Termiziy, mumtoz shoir Sobir Termiziy, muarrix Samandar Termiziy kabi o'nlab ulug' ajdodlarimiz, aziz-avliyolarimizning mo'tabar nomlarini xalqimiz hurmat-ehtirom bilan tilga oladi.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning aynan mana shu Termiz atrofida o'zining piri buzrukvori Sayyid Baraka hazratlaridan hokimiyat ramzi bo'lgan bayroq va jangovar nog'orani qabul qilib olgani ham bu tuproqning nechog'li xosiyatli ekanini ko'rsatib turibdi.

Bugungi kunda ham shu tabarruk tuproqni ulug'lab, quyosh jazirama-si, garmsel shamollariga bardosh berib, qiyinchiliklarni yengib mehnat qilayotgan, Vatanimizning janubiy sarhadlarida afg'on mojarosi tufayli yigirma yildan ziyod davom etgan notinch va tahlikali vaziyatda ham mardlik va matonatini namoyon etib, tom ma'noda shu yurtning fidoyisi bo'lib yashayotgan Surxon eli, Surxon xalqiga har qancha tasannolar aytsak arziydi.

Aziz yurtdoshlar!

Bu voha tuprog'i, Surxon yeri nainki qadimiy, ayni paytda g'oyat unumli, serhosil va barakali ekanida ham o'ziga xos hikmat bor.

Men bu zaminning xosiyatlarini ilgari ham ko'p marta aytganman, lekin bugungi tantanada yana bir bor bu haqda to'xtalib o'tsak, o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Bu yerda ko'p-ko'p qishloq xo'jalik ekinlarini – paxtadan tortib subtropik mevalargacha, g'alladan tortib sabzavot va poliz mahsulot-larigacha – barcha-barchasini o'stirish mumkin.

Ayniqsa, bu zaminning so'lim tabiati, Vaxshivor va Bobotog', Sangardak va Xonjizza, Boysun va Oltinsoyning fusunkor manzaralari har qanday odamni maftun etadi.

Yoki Surxon vohasining bag'riga jo bo'lgan noyob tabiiy boyliklarni, ravon yo'llar, aloqa tarmoqlari, muxtasar aytganda, samarali ishlash uchun asos bo'ladigan shart-sharoit va imkoniyatlarni olaylik.

Endi o'zingiz ayting, aziz birodarlar, bu vohada shunday boy tarix, shunday unumdor yer bo'lsa, shunday go'zal va betakror tabiat, shunday mehnatkash, mard va olijanob xalq bo'lsa, bu yurtning kelajagi buyuk bo'lmasligi mumkinmi? Bu yerda odamlar baxtli, erkin va farovon yashamasligi mumkinmi?

Ishonchim komilki, butun xalqimiz qatori Surxon eli ham ana shunday hayotga nihoyatda munosib va shunday turmush darajasiga albatta erishadi.

Bunga ishonch bildirish uchun barcha asoslarimiz bor.

Bu asoslardan biri shundan iboratki, butun yurtimiz kabi Termiz shahriga ham Ollohning nazari tushgan, uni doimo o'z panohida saqlab, yomon ko'zlardan, balo-qazolardan o'zi asrab keladi.

Bu yerga musulmon dunyosining ulug‘ allomalari va piri buzrukvorlarimizning muborak poyqadamlari tekkan va ularning barchamiz uchun tabarruk xoklari shu tuproqqa ko‘milgan.

Yana bir asos shundan iboratki, bu zaminda yashayotgan barcha insonlarning o‘z yurti, o‘z eliga bo‘lgan mehr-muhabbati, sadoqati cheksiz va mustahkam.

Bugun biz yangi jamiyat qurish yo‘lida qanday jarayonlarni boshimizdan kechirayotgan bo‘lsak, qanday qiyinchilik, g‘ov-to‘siqlarni yengib, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga yetish, buyuk kelajagimizni qurish uchun qanday mehnat qilayotgan bo‘lsak, bu ishlar zamirida Surxon ahlining ham g‘ayrat va shijoati, mardlik-matonati, fidoyiligi mujassam ekani shubhasiz.

Hurmatli do‘stlar!

Biz bugun shod-u xurramlik bilan nishonlayotgan Termiz shahrining muborak to‘yi, avvalambor, tariximiz va buyuk ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan qalblarimizdagi hurmat va ehtirom tuyg‘usining yana bir bor namoyon bo‘lishi bilan ibratlidir.

Bunday tantana, bunday marosimlar yurtimizda yashayotgan har bir inson, ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlash, asrab-avaylashga, bu bebaho boylik bilan chin yurakdan iftixor qilishga o‘rgatadi.

Eng muhimi, bizlarning qanday qadimiy tarix, qanday o‘lmas madaniyatga ega ekanimizni, kimlarning avlodlari, qanday ulug‘ zotlarning vorislari ekanimizni anglashga da’vat etadi.

Mana shu unutilmas lahzalarda, shu maydonda turib atrofimizga, Termizning bugungi go‘zal qiyofasiga bir nazar tashlaylik.

Bu qadimiy shaharda keyingi yillarda barno etilgan muhtasham binolar, yangi uy-joylar, zamonaviy litsey va kollejlar, sport inshootlari, obod va ravon yo‘llar, so‘lim bog‘-rog‘lar, ko‘rkam favvoralar – bularning barchasi bunyodkor elimizga xos yuksak fazilatlarning, mustaqillik bizga bergan cheksiz imkoniyatlarning amaliy namoyoni emasmi?

Ayniqsa, mana shu ulug‘ to‘y sharofati bilan ko‘hna Termizning har tomonlama yashnab-yasharib, navqiron bir shaharga aylanib ketganini ko‘rib quvonmaydigan odam bormi?

Ishonchim komilki, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Sulton Saodat, Qirqqiz yodgorlik majmualarining tubdan qayta ta’mirlangani, Temir yo‘l bekati, Birja markazi, Arxeologiya muzeyi, amfiteatr, yangi stadionlar va suzish havzalari, boshqa o‘nlab inshootlar nafaqat Termiz shahri, balki butun Surxon vohasining chiroyiga chiroy qo‘shib turibdi, desam, bu fikrni sizlar ham qo‘llab-quvvatlaysizlar.

Men, fursatdan foydalanib, mana shu savobli ishlarni amalga oshirgan mohir quruvchi va ustalarimizga, muhandis va me’morlarga, Termizning obod bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shgan barcha insonlarga chin qalbimdan tashakkur bildiraman.

Qadrli do'stlarim, vatandoshlarim!

So'zimning oxirida ilgari ham aytgan bir gapimni takrorlamoqchiman: men go'zal Surxon vohasini, uning ko'rkam bog'lari, baland tog'larini, yashil archazorlari, bepoyon dasht-u dalalarini, shu zaminda yashayotgan aziz yurtdoshlarimni, butun Surxon ahlini yaxshi ko'raman, sizlarga o'zimning eng ezgu tuyg'ularimni izhor etishdan hamisha baxtiyorman.

Mardlar, bahodirlar na polvonlar diyori bo'lgan bu tabarruk tuproqdan hech qachon fayz-u baraka arimasin.

O'tmishi sharafli, kelajagi buyuk Termiz dunyo turguncha tursin.

Termiz shahrining
2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali
marosimda so'zlangan nutq,
2002-yil 2-aprel

Qashqadaryo vohasining zumrad gavhari

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun qadimiy Kesh vohasida katta bayram, katta tantana.

Alloh nazari tushgan Vatanimiz tarixining eng ko'hna va teran ildizlaridan biri bo'lgan qadimiy va doimo navqiron Shahrisabz bugun o'zining 2700 yillik qutlug' to'yini nishonlamoqda. Dunyoga o'zining ko'rk-u kamoli, qaddi-bastini namoyon qilmoqda.

Bu go'zal shahar bugun mana shu zaminning umrboqiy qadriyatlarini, O'zbekiston deb atalmish yurtimizning naqadar qadimiy va muqaddasligini butun jahonga namoyon etmoqda.

Qadrli do'stlar!

Shahrisabz deganda, biz, avvalo, olis zamonlarda ajdodlarimiz yashagan, tarixda goh Gava So'g'da, goh Nautaka, goh Kesh deb nom olgan qadimiy makonni tasavvur qilamiz.

Bu shahar o'zining uzoq o'tmishi davomida ne-ne kunlarni ko'rmadi. Tarix to'fonlari, bosqinlar oqibatida necha bor vayronaga aylanib, kultepalar ustidan necha bor qayta tiklandi.

Ammo na zamonning murakkab sinovlari, na istilo-yu urushlar, na tabiiy ofatlar bu shaharni tarix sahifasidan o'chira olmadi.

Shu tabarruk zaminda dunyoga kelib, uning tarbiyasini olib voyaga yetgan, doimo mag'rur bo'lib yashagan insonlar ming yillar davomida mardlik va bunyodkorlik namunalarini dunyoga namoyon etib keldi.

Shahrisabz deganda, dastavval, xayolimizda o'zining aql-zakovati, beqiyos salohiyati bilan jahonni hayratga solgan Amir Temur bobomizning o'lmas siymosi jonlanadi.

Shahrisabz bu ulug' zotning beshigini tebratgan, uni kamolga yetkazgan mo'tabar maskandir. Bobokalonimizning el-ulusni

birlashtirish, ona diyorimizni bosqinchilardan ozod qilishida, jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk va qudratli davlat qurishida aynan shu zamin unga kuch-quvvat va madad bergan. Amir Temur bobomiz Shahrisabz va Kesh vohasini joni-dilidan sevgan, qadrlagan, hatto o'z saltanatining poytaxti qilmoqchi bo'lgan. Bu yerda qanchadan-qancha go'zal va betakror inshootlarni barpo etib, shaharni qayta qurib, butun dunyoga tanitgan, uning rivojiga cheksiz hissa qo'shgan.

Sohibqironning: «Kimki bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsa, biz qurgan imoratlarni kelib ko'rsin», degan so'zlari bugun ham o'z ma'no-mazmunini yo'qotgan emas.

Shahrisabz deganda, tasavvurimizda, avvalo, mangu yashil shahar, yulduzlarga to'la beg'ubor osmon, yuksak Hisor tog'lari namoyon bo'ladi.

Va, tabiiyki, Shahrisabz deganda, biz «Ilm-u adab qubbasi» deb e'tirof etilgan ilm-fan, madaniyat va nafosat maskanini anglaymiz. Bu shahar qadim-qadimdan o'zining qo'li gul ustalari, mohir hunarmandlari bilan shuhrat qozongan.

Mana shu zaminda qad ko'targan, yetti iqlimga ma'lum va mashhur Oqsaroy, Dorus-saodat, Dorut-tilovat, Ko'kgumbaz kabi muhtasham obidalar va boshqa betakror me'moriy yodgorliklar, shu tuproqdan topilgan noyob osori-atiqalar bu haqiqatni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu muborak yurt farzandlari bo'lgan Abu Muhammad Keshiy, Shamsiddin Kulol va Hazrati Bashir kabi aziz-avliyolar, Firoqiy va Xiromiy, Ravnaqiy va Faqiriy singari shoir-u allomalar Shahrisabz dovrug'ini dunyoga taratgan.

Jahon madaniyati xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib kabi mumtoz siymolarning nasl-nasabi Shahrisabz zaminidan chiqqani ham bu tuproqning ilohiy xosiyatidan dalolat beradi. Shu o'rinda, aziz do'stlarim, sizning e'tiboringizni sirli bir alomatga qaratmoqchiman.

Jahongir Mirzo maqbarasi yonida bugun ham yashnab turgan qadimiy chinorlarni ko'pchiligimiz ko'rganmiz. Men har gal bu yerda bo'lganimda, bunday daraxtlar faqat muqaddas joylarda o'sadi, degan fikr beixtiyor ko'nglimdan o'tadi. Balki bu chinorlarning niholini bir paytlar Amir Temur bobomiz o'z qo'li bilan ekkan bo'lsa, ajab emas, deb o'ylayman.

Va Shahrisabzning muqaddas timsollari bo'lmish bu azamat daraxtlarni ilohiy bir kuch asrab, bugungi va kelajak avlodlarga yetkazib kelayotgandek tuyiladi.

Aziz do'stlar!

Bugun Shahrisabz fayz-u tarovati bilan ko'zlarni qamashtirib, jahon e'tiborini o'ziga qaratib turibdi. U jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy shaharlaridan biri sifatida nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish YuNESKO tomonidan e'tirof etilgan va Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Hech shubhasiz, Shahrisabz va Qashqadaryo vohasining naqadar katta tarixiy va madaniy merosga ega ekani, uning betakror yer osti va yer usti boyliklari haqida gapirishimiz bugun albatta o'rinlidir. Bugun bu haqiqatni nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo tan olmoqda.

Lekin mendan bu yurtning eng haqiqiy boyligi haqida so'rasa, hech ikkilanmasdan, Yaratganning nazari tushgan bu yurtning asosiy boyligi mana shu zaminda yashayotgan bag'rikeng, mard va oriyatli, ko'p-ko'p qiyinchilik va sinovlarda toblangan, yaxshilikni hech qachon unutmaydigan Qashqadaryo eli va xalqi, deb javob bergan bo'lur edim.

Men siz, Qashqadaryolik qadrdonlarim bilan yelkama-yelka, hamfikr bo'lib mehnat qilgan, hayotimning aziz damlariga aylangan kunlarimni hech qachon unutmayman. O'sha murakkab davrda sizlar menga bildirgan hurmat va ishonchni, ta'bir joiz bo'lsa, menga qanot berganingizni umrbod minnatdorlik bilan eslayman.

Qadrli vatandoshlar!

Bizning istiqlol yillarida Shahrisabz markazida sohibqiron Amir Temur bobomizning muazzam haykalini tiklaganimiz, bu muborak zaminda yotgan buyuk zotlarning maqbaralarini obod qilib, ajdodlarimiz ruhi oldidagi farzandlik burchini ado etganimiz yangi tariximizdagi katta unutilmas voqeadir.

Bu yurtning chiroyiga chiroy, salohiyatiga yana salohiyat qo'shadigan ibratli ishlarni davom ettirishimizga hech qanday shubha yo'q. Va Shahrisabz nafaqat dehqonchilik, sanoat, hunarmandchilik va madaniyat maskaniga, balki butun dunyodan ziyoratchi va sayyohlar oqib keladigan go'zal va zamonaviy shaharga aylanishi muqarrar.

Bu yil Shahrisabz, butun Qashqadaryo ahlining barcha sohalarda omadi keldi. Men fursatdan foydalanib, qishloq xo'jaligi uchun tabiiy sharoit og'ir bo'lgan mana shu mavsumda belni mahkam bog'lab, fidokorona mehnat qilgan, mamlakatimizda eng ko'p – 684 ming tonnadan ziyod g'alla, 420 ming tonnadan ortiq paxta hosili yetishtirgan azamat dehqonlarni, siz lafzi halol qashqadaryoliklarni qo'lga kiritgan ulkan g'alabangiz bilan chin qalbimdan tabriklayman va o'zimning cheksiz hurmatimni bildiraman.

Hurmatli do'stlar!

Mana shu unutilmas, quvonchli kunda mening suyanchim, tayanchim bo'lgan siz, Qashqadaryo yoshlariga, sizning timsolingizda butun O'zbekiston yoshlariga bir da'vat bilan murojaat qilmoqchiman.

Aslida bu mening da'vatim emas, balki ulug' ajdodlarimizning bizga qoldirgan o'lmas ma'naviy o'gitlaridir. Men shu da'vatni sizlarga yana bir marta eslatmoqchiman.

G'urur-iftixorimiz timsoli bo'lmish Amir Temur bobomizning xuddi shu zaminda turib, kelgusi nasllarga qarata aytgan «Biz kimmiz,

kimlarning avlodimiz?» degan so'zlari hech qachon yodingizdan chiqmasin.

Toki yuragingizda o't, bilagingizda kuch-qudrat bor ekan, O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallab borayotgan bugungi kunda ana shu da'vatga hamisha munosib bo'ling.

Biz dunyoda hech kimdan kam bo'lmaymiz, deb ko'targan istiqlol bayrog'ini, hurriyat bayrog'ini sizlar yanada baland ko'tarasiz, deb ishonaman.

Aziz vatandoshlarim!

Men ushbu hayajonli lahzalarda Shahrisabz elini, butun xalqimizni bugungi shodiyona bilan yana bir bor qutlar ekanman, sizlarning ochiq chehrangizga boqib, mana shunday yorug' kunlarimiz ko'p bo'lsin. Qashqa vohasining zumrad gavhari – Shahrisabz dunyo turguncha tursin, deyman.

Ikki ming yetti yuz yillik tarixni o'z yelkasida ko'tarib turgan bu afsonaviy shahar qoshida bosh egib, uning shuhratini dunyoga tarannum etayotgan siz, aziz yurtdoshlarimga ta'zim qilaman.

Men noyob asriy obidalarimizni ko'z qorachig'idek saqlab kelayotgan, keng ko'lamdagi ta'mirlash va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgan, yangi-yangi inshootlar barpo etayotgan mohir quruvchi va ustalarimiz, muhandis va me'morlarimizga, mana shu savobli ishlarga munosib hissa qo'shayotgan barcha insonlarga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Bugungi shodiyonamizda ishtirok etayotgan YuNESKO xalqaro tashkiloti va xorijiy elchixonalar vakillariga chin dildan tashakkur aytaman.

Hammangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka yor bo'lsin.

Shahrisabzning 2700 yilligiga
bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'z,
2002-yil 1-noyabr

Jayhun sohilidagi gavhar

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun biz qoraqalpoq elining go'zal poytaxti, yurtimizning shimoliy darvozasi bo'lmish Nukus shahrining 70 yillik to'yini bayram qilmoqdamiz.

Mana shu qutlug' sana munosabati bilan siz, azizlarni, sizlarning siymongizda butun Qoraqalpog'iston ahlini chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning hurmat-ehtiromim va samimiy tilaklarimni bildirishga ijozat bergaysiz.

Qadrli do'stlar!

Bugun biz navqiron Nukus shahrining katta to'yini nishonlar ekanmiz, bu shahar timsolida Qoraqalpog'iston diyorida ro'y berayotgan yangilanishlar, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, odamlarning turmush tarzida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqida gapirishimiz tabiiy, albatta.

Bu o'zgarishlar, avvalambor, qoraqalpoq xalqining mashaqqatli mehnati va g'ayrat-shijoati bilan erishilayotgan katta yutuqlarda, shahar va qishloqlar, ovullarning tobora obod bo'lib, respublika ishlab chiqarish salohiyatining yuksalib borayotganida, yangi-yangi inshootlarning ishga tushirilayotganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bular qatorida mintaqamizda yagona bo'lgan Qo'ng'irot soda zavodi, Xo'jayli shisha zavodi, «Markaziy Osiyo bezak toshlari» qo'shma korxonasi, Qo'ng'irotdagi karbid, Nukusdagi marmar va kabel zavodlari, O'rga gaz koni, «Eltsks» va «Kateks» kabi zamonaviy ishlab chiqarish majmualarini misol keltirish mumkin.

O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, O'zbekistonning, jumladan, Qoraqalpog'istonning ham eng zaif nuqtasi – bu kommunikatsiya masalasi ekanini men doimo ta'kidlab kelaman. Ana shu o'ta muhim muammoni yechish bo'yicha mamlakatimizda ko'p ishlar qilingani va qilinayotganidan sizlar yaxshi xabardorsiz.

Ayniqsa, 345 kilometrli Navoiy – Nukus temir yo'li, Nukus bilan Xo'jaylini bog'laydigan ulkan ko'prik, Qo'ng'irot avtomobil yo'li kabi muhim strategik inshootlar bu zamindagi behisob tabiiy zaxiralarni o'zlashtirishga, ulardan, avvalambor, qoraqalpoq xalqining, butun yurtimizning farovonligi yo'lida foydalanishga xizmat qiladi.

Ana shunday, odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilgan ishlarimiz haqida gapirganda, birinchi galda, aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash masalasini alohida aytib o'tishimiz o'rinlidir.

Oxirgi yillar davomida foydalanishga topshirilgan 243 kilometr uzunlikdagi Tuyamo'yin – Nukus, 112 kilometr uzunlikdagi Nukus – Taxtako'pir suv uzatish tarmoqlari bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda murakkab ekologik hududlarda yashayotgan odamlarga zarur sharoit yaratish maqsadida Chimboy va Taxtako'pir, Qo'ng'irot va Qanliko'l tumanlarining olis qishloq va ovullariga, jami 390 ta aholi punktiga ichimlik suvi yetkazib berish bo'yicha qilgan salmoqli ishlarimiz barchamizni quvontiradi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Albatta, qo'lga kiritgan bunday yutuqlarimiz, ulkan loyihalarni o'zlashtirish yo'lida qilayotgan mehnatimiz va harakatlarimiz xalqimizning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlaydi va kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shadi.

Ayni paytda oldimizda hali-beri o'z yechimini kutayotgan, shu tuproqda yashayotgan odamlarni qiynayotgan dolzarb muammolar ham

borligini esdan chiqarmasligimiz va bu masalalar doimo e'tiborimiz markazida turishi zarurligini anglab olishimiz darkor.

Shu o'rinda men, avvalo, barcha rahbarlarni – ular Toshkentda yoki Nukusda bo'ladimi – ogohlantirib, alohida ta'kidlab aytmoqchiman:

Katta-katta loyihalar ustida ishlash bilan birga, odamlarimizning kundalik hayotiy muammolarini yechish, tashvishlarini yengillashtirish, ularga so'zda emas, amalda g'amxo'rlik ko'rsatish, bu masalada loqaydlik va to'rachilik kabi noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik, bir so'z bilan aytganda, el-ulusning dardini o'z yuragi, o'z qalbidan o'tkazib yashash va ishlashni bugungi kunda hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Aziz do'stlar!

Qoraqalpoq deganda, bu zahmatkash xalqning o'ziga xos xususiyatlari, elni el, yurtni yurt qiladigan fazilatlari haqida gapirganda, avvalo, bizning ko'z oldimizda o'zining uzoq tarixi davomida ko'p azob-uqubat, qirg'in-qatag'onlarni boshidan kechirgan, qancha-qancha og'ir yo'llarni bosib o'tgan, chidamli va bag'rikeng, mard va matonatli bir xalq siymosi paydo bo'ladi.

Agar biz ona zaminga, Vatanga mehr va sadoqat haqida so'z yuritadigan bo'lsak, birinchi galda, sahro quyoshi, garmsel va izg'irin shamollarida toblangan, og'ir tabiiy sharoitda ham o'z yurtining tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilib, kelajakka ishonch bilan yashayotgan qoraqalpoq eli haqida gapirishimiz ham qarz, ham farz deb bilaman.

Kimki bu jafokash xalqning beg'ubor qalbini, asriy orzu-armonlari, intilishlarini bilmoqchi, anglab yetmoqchi bo'lsa, uning aql-zakovati bilan yaratilgan «Qirqqiz» va «Shahriyor» kabi o'lmas dostonlarga, Kunxo'ja, Ajiniyoz va Berdax singari ulkan shoirlarning ta'sirchan asarlariga murojaat qilsa, o'ylaymanki, o'zi uchun ko'p-ko'p ma'no topadi.

Qoraqalpoq xalqi azaldan o'zining bilimga tashnaligi, san'atga bo'lgan yuksak muhabbati, o'z diyorining boshqalar anglab yetolmaydigan go'zalligi va jozibasini kashf etishdek noyob iste'dodi bilan barcha-barchani maftun etib keladi.

Shu borada birgina misol keltirmoqchiman. Kuni kecha mustaqilligimizning 12 yilligiga bag'ishlangan tantanali bayram tomoshasida Qoraqalpog'iston san'at ustalarining yorqin mahorati, ta'sirchan kuy-qo'shiqlari shaxsan menga benihoya manzur bo'ldi.

Agar shu tomosha yakuni bo'yicha qandaydir tanlov o'tkazilsa, boshqalar xafa bo'lmasin-u, men hech ikkilanmasdan birinchi o'rinni qoraqalpoq san'atkorlariga bergan bo'lur edim.

Qoraqalpog'istonning ana shunday katta iqtisodiy, ilmiy va ma'naviy salohiyatini asrab-avaylab, uni yanada boyitishga munosib hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston Qahramonlari Anisiya Saidova, Allaniyoz O'teniyozov, To'lepbergen Qaipbergenov, ular qatorida Alimbay Mamutov, Tursunbay Yeshjanov, Sobir Kamolov, Ibrayim Yusupov,

Jo'ldasbek Quttimuradov, Muyassar Razzoqova, Kenesbay Serjanov, Gulxaticha Ayimbetova, Eliza Aytniyazova kabi o'nlab ishlab chiqarish sohasi, ilm-fan va madaniyat namoyandalarining nomlarini hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz.

Muhtaram yurtdoshlarim!

Biz bugun betakror qiyofa kasb etib borayotgan ko'pmillatli Nukus shahrini yirik sanoat, ilm-fan va madaniyat markazi, do'stlik va birodarlik shahri, deb ta'riflaymiz. Va albatta, bu ta'riflarning barchasi mustahkam hayotiy asos va zaminga ega.

Buni hozirgi vaqtda Nukusda Fanlar akademiyasi va Badiiy akademiyaning filiallari, Qoraqalpog'iston davlat universiteti, qator institutlar, qirqqa yaqin akademik litsey, o'nlab kasb-hunar kollejlari, teatr va muzeylar xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi yo'lida xizmat qilayotgani ham tasdiqlaydi.

Butun xalqimiz singari qoraqalpoq eli ham nafaqat bugungi hayot, balki ertangi kunimiz, istiqbol orzusi bilan, barchamizning tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan jondan azız farzandlarimizning taqdiri va kelajagini o'ylab yashamoqda.

Shu ma'noda, Nukus shahrining o'ziga xos va o'ziga mos yana bir xususiyati haqida gapirishni o'rinli, deb bilaman. Bugungi kunda shahar aholisining 65 foizini 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi.

Bu yerda har o'n nafar fuqaroning biri, ta'bir joiz bo'lsa, talaba bo'lib hayot kechirmoqda. Va bunday holat bu navqiron shaharning kelajagidan, katta imkoniyatlarga ega ekanidan dalolat beradi.

Shu zaminga xos, barchaning hayrat va hurmatini, zavqini uyg'otadigan yana bir belgi – alomat borki, u ham bo'lsa, mana shunday og'ir va murakkab, har qanday odam ham bardosh berolmaydigan bir sharoitda qoraqalpoq yoshlarining bilimga, yetuk inson bo'lib voyaga yetishga qat'iyat bilan intilayotgani, xalqaro fan olimpiadalari va nufuzli jahon musobaqalarida qatnashib, yuksak marralarni egallab kelayotganidir.

Istiqbolimiz timsollari bo'lgan Alisher Sanetullayev, Rustam Sultonov, Ruslan Urgenchbayev kabi bilimdon yoshlarimiz, Anifa Ortiqova, Ziyoda Sharipova, Maxset Utemuratov kabi iqtidorli san'atkorlarimiz, Baurjon Kazdayev, Erkin Qutiboyev, Bahrom Ermatov singari mard va jasur sportchilarimiz nafaqat qoraqalpoq eli, butun O'zbekiston xalqining faxri va umidi, desak, aslo xato bo'lmaydi.

Qadrli do'stlar!

Men bugun sizlarning huzuringizga kelayotib, bayram arafasida Nukus shahrida amalga oshirilgan yangi qurilish va obodonchilik ishlari bilan tanishdim. Shuni mamnuniyat bilan aytishim lozimki, qoraqalpoq xalqining bunyodkorlik salohiyati tobora ortib borayotganiga yana bir karra ishonch hosil qildim.

Ayniqsa, yangi qurilgan shinam turarjoy binolari, go'zal maydon va xiyobonlar, teatr va muzey, sport majmualari, bozorlar, zamonaviy talablarga javob beradigan aeroport, temir yo'l vokzali va boshqa qator inshootlar ko'zlarni quvontirib, shahar chiroyiga chiroy qo'shib turibdi.

Fursatdan foydalanib, ana shu ezgu ishlarda faol qatnashgan qo'li gul ustalarimizga, quruvchi va muhandislarga, loyihachi va pudratchi tashkilotlarning ishchi-xizmatchilari, barcha mutaxassislariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Muhtaram vatandoshlar, qadrdonlarim, qoraqalpoq diyori, qoraqalpoq elini ulug'laydigan alomat va xususiyatlar haqida ko'p gapirish mumkin.

Lekin bularning hammasini bir so'z bilan ifoda etadigan bo'lsak, qoraqalpoq maqolida aytilganidek, xalqning baxt-u taxti – uning tug'ilib o'sgan yeridir, uning jipsligi, ahilligi va og'iz birligidir.

Bugungi unutilmas lahzalarda siz, azizlarning ochiq chehrangizga boqib, avval ham aytgan bir fikrimni yana takrorlamoqchiman: o'zimni nafaqat o'zbek, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandi, deb hisoblash menga har doim kuch-quvvat va qanot bag'ishlaydi.

Shuning uchun men ushbu go'zal oqshomda katta quvonch va iftixor bilan:

– o'z elim – qoraqalpog'im omon bo'lsin, o'z qal'am – Nukusim dunyo turguncha tursin, deyman.

Ishonaman, qoraqalpoq diyorining kelajagi, albatta, yorug' bo'ladi, qoraqalpoq eli butun xalqimiz qatori o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga, albatta, yetadi.

Hammangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka yor bo'lsin!

Yaratganimizning o'zi barchamizni panohida asrasin!

Aziz do'stlar!

Endi menga sharafli bir vazifani bajarish uchun ijozat etgaysiz.

Xabaringiz bor, Nukus ahlining mamlakatimiz rivojiga qo'shayotgan katta hissasini, iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida qo'lga kiritayotgan salmoqli yutuqlarini, millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasidagi xizmatlarini inobatga olib, hamda 70 yillik to'yi munosabati bilan Nukus shahri «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi.

Ushbu qutlug' va hayajonli lahzalarda Vatanimizning ana shu yuksak mukofotini siz, hurmatli, aziz yurtdoshlarimizga topshirish menga cheksiz quvonch bag'ishlaydi.

Bu yuksak mukofot barchangizga muborak bo'lsin, Nukusning shon-shuhrati yanada ziyoda bo'lsin.

Nukus shahrining 70 yilligiga
bag'ishlangan tantanali
marosimdagi so'z,
2003-yil 12-sentabr

Muazzam va mukarram shahar shodiyonasi

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Xonimlar va janoblar!

Aziz mehmonlar!

Bugun O'zbekiston xayotida unutilmas kun, ulkan tantana. Qashqadaryo eli, butun xalqimiz go'zal va betakror diyorimiz tarixidagi qutlug' sana – qadimiy Nasaf – navqiron Qarshi shahrining 2700 yillik to'yini katta xursandchilik bilan nishonlamoqda.

Mana shu quvonchli ayyom munosabati bilan siz, aziz yurtdoshlarimni, sizlarning timsolingizda Qashqadaryo ahlini, butun o'zbek xalqini chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga o'zimning hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Fursatdan foydalanib, bugungi bayramga uzoq-yaqindan tashrif buyurgan qadrli mehmonlarimizni, YuNESKO tashkiloti, xorijiy davlatlar elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini, chet el ommaviy axborot vositalari xodimlarini bag'rikeng va mehmondo'st xalqimiz nomidan samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Har bir qarich yeri muqaddas bo'lgan ona O'zbekistonimiz tuprog'ida joylashgan va butun jahon ahliga o'zini tanitgan, yoshi asrlar, ming yillarga teng keladigan mashhur shahar va maskanlar, bebaho moddiy va ma'naviy meros yodgorliklari bilan xalqimiz, barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Birgina saxovatli Qashqadaryo zaminida 2700 yillik tarixga ega, nufuzli YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan e'tirof etilgan Shahrisabz va Qarshi kabi shaharlarning mavjudligi ham bizning tarixiy ildizlarimiz naqadar chuqur va naqadar qadimiy ekanidan yaqqol dalolat beradi.

O'zining uzoq va boy o'tmishi davomida goh Nikshapa, goho Naxshab, keyinchalik Nasaf degan nomlar bilan atalgan ko'hna Qarshi shahri tarix va bashariyat uchun avvalo betakror sivilizatsiya va madaniyat beshigi sifatida, ko'p-ko'p ulug' siymolar, buyuk mutafakkir zotlar, aziz-avliyolarning vatani sifatida qadrli va mukarramdir. Bu yurt o'z tarixida kimlarni, qanday og'ir va mashaqqatli sinovlar, to'fon va suronlarni ko'rmagan. Bu yerga kimlar kelib ketmagan. Aleksandr Makedonskiy bosqini, sosoniylar xujumi, arab istilosi, Chingizxonning qonli yurishlari, tabiiy ofatlar oqibatida Qarshi shahri necha bor yakson bo'lib, vayronaga aylangan. Bu yurt ne-ne xonlar, amirlar, chor istilosining zulm va zo'ravonliklarini boshidan kechirgan.

Yaqin o'tmishda, mustabid tuzum davrida ham shu betakror yerda yashayotgan, o'z qadr-qimmatini chuqur anglaydigan elni qatag'on qilish, tazyiq ostiga olish, uning ustidan turli bo'hton va uydirmalarni to'qish, sha'ni va g'ururini toptash kabi qanday azob-uqubatlarni Qashqadaryo ahli boshidan kechirgani, jabr tortgani hali-beri yodimizda.

Lekin, har qanday qirg'in va fojialarga qaramasdan, bu vohaning, Qarshidek umri boqiy shaharning hayot va davr sinovlaridan omon o'tib, mana shu yorug' kunlarga yetib kelgani shu zaminda yashab o'tgan ajdodlarimiz, bugun hayot kechirayotgan avlodning mustahkam irodasi, erkinlik va ozodlikka intilish tuyg'usi naqadar kuchli ekanining tasdig'idir, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda Qarshi shahrining nafaqat ko'hna tarixiy maskan, balki har qanday odamning ham e'tiborini o'ziga tortadigan navqiron, zamonaviy shaharga aylanib turgani istiqlolimizning beqiyos qudrati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining amaliy isbotidir.

Aziz do'stlar!

Qadimiy Nasaf shahri nafaqat o'zining muhtasham asriy obidalari, balki ilm-u fan, hunarmandchilik, adabiyot va san'at, muqaddas islom dini, islom falsafasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk farzandlari bilan tariximizda alohida o'rin tutadi. Uning o'z davrida musulmon olamidagi madina, ya'ni muazzam shahar maqomiga ega bo'lgan sakkiz shaharning biri sifatida tarixiy manbalarda e'tirof etilishi ham bu fikrning yorqin dalilidir.

Ayniqsa, bu tabarruk maskanda shakllangan yuksak madaniyat, ilmiy-ma'naviy muhit tufayli bu yerdan Nasafiy taxallusi bilan nom qozongan yuzlab fozil insonlar yetishib chiqqan va ular o'z ona yurti shuhratini butun dunyoga tarannum yetgan. Ana shunday betakror siymolar qatorida hadis ilmining bilimdonlaridan Abul Abbos al-Mustag'firiy, Abu Turob Naxshabiy, yetuk shoir va olimlar Ziyoviddin Naxshabiy, Muyididdin Nasafiy, Sayido Nasafiy, huquqshunos alloma Najmiddin Nasafiy, kalom ilmining namoyandasi Abul Mu'in Nasafiy, faylasuf Aziziddin Nasafiy, mohir me'morlar Ali Nasafiy, Olim Nasafiy va boshqa ko'plab ulug' zotlarning mo'tabar nomlarini bugun hurmat va ehtirom bilan tilga olamiz. Ularning boy ilmiy va ijodiy faoliyati, qoldirgan merosini har tomonlama chuqur o'rganish, bu bebaho boylikni kelgusi avlodlarimizga yetkazish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Taassufki, yurtimizda istilochi va mustabid tuzumlar, qadriyatlarimizni yo'q qilishga qaratilgan zo'ravon mafkura hukmronlik qilgan yillarda bizni ana shunday buyuk madaniy meros, ma'naviy boyliklardan, o'zligimiz, din-u diyonatimizdan judo qilish, xalqimizning milliy g'ururini sindirish maqsadida Qarshi shahridagi ko'plab qadimiy va betakror obidalar buzib tashlandi, Abdulaziz va Qilichbek madrasalari, Odina masjidi kabi omon qolgan ayrim me'moriy obidalar esa qamoqxonalarga aylantirildi. Allaqanday, «Ardom», «Damzah» degan mudhish nomlar bilan ataldi.

Mana shuning uchun buyuk tariximizni har tomonlama chuqur o'rganish, undan zarur saboq chiqargan holda yo'l tutish, boshqacha aytganda, moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir. Bugungi dorilamon kunlarda erkin va ozod nafas olib yashar ekanmiz, yaqin o'tmishimizda

yuz bergan ana shunday mash'um kunlarni, ularning saboqlarini hech qachon unutmasligimizni istardim.

Qadrli vatandoshlar!

Biz Qarshi shahrining 2700 yillik to'yini nafaqat milliy tariximiz, balki umumbashariy taraqqiyot tarixida beqiyos o'rin egallaydigan ulug' ajdodimiz, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning 670 yillik tavallud ayyomi bilan birga nishonlamoqdamiz. Buning zamirida teran ramziy ma'no, o'ziga xos tarixiy bog'liqlik bor, albatta. Nega deganda, o'z timsolida millatimiz, xalqimizga mansub bo'lgan aql va zakovat, bag'rikenglik va Vatanga sodiqlik, qat'iyatlik va bunyodkorlik salohiyatini mujassam etgan va dunyoga namoyish qilgan Amir Temurning hayoti va faoliyatini, uning milliy ozodlik uchun, mustaqil va qudratli davlat barpo etish uchun olib borgan kurashini Qarshi shahrisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Sohibqiron hazratlarining xalqimizni mo'g'ul zulmidan xalos etish, parokanda el va elatlarni birlashtirish, diyonat va adolatni qaror toptirish, ilm-fan, ma'rifat va madaniyatni yuksaltirish yo'lidagi buyuk orzu-niyat va intilishlariga mana shu Qarshi zamini mustahkam qanot bergan, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ayni Qarshi diyoridan yetishib chiqqan tabarruk zot piri murshid Shamsiddin Kulolning oq fotihasini olib, Amir Temur ezgu maqsadlar yo'lida ilk qadamlar qo'ygani, Sohibqiron bobomizning oqilona siyosati va sa'y-harakatlari tufayli ushbu shahar Movarounnahrning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangani haqida ko'hna tariximiz guvohlik beradi.

Mana, qariyb yetti asrdirki, Amur Temur bobomizning o'lmas nomi, so'nmas shon-shavkati, bunyodkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqish butun dunyoda tobora kuchayib bormoqda. Buni birgina shu yilning o'zida Ispaniya, Belgiya, Fransiya kabi mamlakatlarda ulug' ajdodimizning tavallud ayyomiga bag'ishlab o'tkazilgan qator ilmiy anjuman va ma'rifiy tadbirlar, xususan, kuni kecha Parijda mashhur olim Lusyen Keren tomonidan «Samarqandga – Amir Temur davriga sayohat» nomli fundamental asarning nashr etilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, o'z davrining yengilmas qahramoni, millatning haqiqiy yetakchisi, favqulodda buyuk shaxs, buyuk inson bo'lgan Amir Temurning betakror hayoti va faoliyati, jasorati va ibrati bugungi kunda bizning yorug' kelajagimizga ishonch bag'ishlaydi, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun cheksiz kuch-quvvat, qat'iyat va shijoat baxsh etadi.

Hurmatli do'stlar!

Taqdir deymizmi, tuz-nasiba deymizmi, hayotimning uzviy bir qismi, hech unutilmas davri mana shu Qashqadaryo zaminida kechdi. Shu bois, men bu go'zal yurtga nisbatan qalbim to'rida mehr-muhabbat tuyg'usini saqlab, qizg'in mehnat, ezgu orzu-niyat va intilishlar bilan o'tgan o'sha yillarni doimo minnatdorlik bilan eslayman. O'sha murakkab

paytlarda og'ir muammolar girdobida qolib ketgan Qashqadaryo viloyatida mavjud bo'lgan nochor ahvolni o'nglash, yurtni obod etish yo'lida siz, azizlar bilan qanday harakatlar, qanday katta maqsad va rejalarni amalga oshirishga erishganimiz, o'ylaymanki, barchamizning xotiramizda yorqin sahifa bo'lib qolajak.

Shaxsan men umrimning eng qizg'in, suronli va baxtli damlarini Qashqa vohasida o'tkazganimni, shu yurtda o'zim uchun hayotiy maktab, katta tajriba topganimni, sizlarning quvonch va tashvishlaringizga sherik bo'lib, mehr-oqibat ko'rganimni hech qachon unutmayman.

Oradan yillar o'tib, istiqlolga erishib, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olganimizdan so'ng, Qashqa vohasining qadimiy tarixi, yuksak nufuzini qayta tiklashga, Qarshi shahrini o'z salohiyati va avvalo, shu yurtda yashayotgan mard va tanti xalqning mehnati bilan mamlakatimizning eng go'zal va ko'rkam shaharlaridan biriga, yirik sanoat va madaniyat markaziga aylantirishga muyassar bo'ldik. Qarshi shahrining qutlug' to'yi munosabati bilan viloyatda faqat so'nggi ikki yil davomida ko'plab obyektlarda amalga oshirilgan qurilish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya ishlariga qariyb 50 milliard so'm mablag' sarflanganining o'ziyoq bajarilgan ishlar ko'lami qanchalik ulkan ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bu haqda gapirganda, avvalambor, bu qadimiy shaharning tarixiy qiyofasini tiklash maqsadida qilingan ishlarni, xususan, eski shahar qismining, Registon maydoni, o'nlab me'moriy obidalarning tubdan qayta tiklanib-ta'mirlangani, yangicha ko'rk-u salobat kasb etgani barchamizga mamnuniyat bilan birga, beixtiyor xalqimizning ruhini ko'taradigan bunday bunyodkorlik ishlarini davom ettirishga ishonch bag'ishlaydi.

Ayni paytda Mustaqillik maydoni, Markaziy va Bolalar istirohat bog'i, amfiteatr maydoni, ko'plab yangi turarjoylar, tibbiyot va madaniyat muassasalari, keng va ravon ko'chalar, obod bozor va ko'rkam xiyobonlar misolida Qarshi shahrining zamonaviy qiyofasini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bizning oliy maqsadimiz bo'lmish sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ishiga xizmat qiladigan zamonaviy litsey va kollejlar, yangi maktablar, Olimpiya zaxiralari sport kolleji, yengil atletika maneji va yopiq suv sporti havzasi, yangi markaziy stadion, xotin-qizlar sport majmuasi nafaqat viloyatda, balki butun mamlakatimizda alohida o'rin egallaydi.

Qadrli do'stlar, birodarlar, menga buyursa, mana shunday hayajonli daqiqalarda Sohibqiron Amir Temur bobomizning yuksak g'urur va iftixor to'la so'zlarini davom ettirib, shunday degan bo'lardim: kimki bizning kuch-qudratimizni, xalqimizning azm-u shijoatini, qanday buyuk ishlarga qodir ekanini ko'rmoqchi bo'lsa, mana shu Qarshi shahrida, butun O'zbekistonda amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlarimizni kelib ko'rsin.

Azizlarim, «Qarshi» degan so'zning «qasr, saroy» degan ma'noni anglatishini ko'pchiligingiz yaxshi bilasiz. Men bugungi xursandchilik

kunida qadimiy Qarshi shahrini saroydek go'zal shaharga aylantirish uchun kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan sidqidildan mehnat qilgan qo'li gul quruvchi va ishchilarga, muhandis va me'morlarga, pudratchi va homiy tashkilotlarga, respublika vazirliklari va hokimiyat idoralari mutasaddilariga, bu olijanob ishga o'z hissasini qo'shgan barcha insonlarga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman. Fursatdan foydalanib, qariyb 700 ming tonna g'alla, 435 ming tonnadan ziyod ulkan paxta xirmonini bunyod etib, bugungi bayramni yorug' yuz bilan kutib olayotgan Qarshi vohasining mirishkor va fidoyi dehqonlarini, barcha mehnatkashlarini qutlab, bag'rimga bosib, qalbimdagi eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Ishonchim komilki, yosh avlodimiz, kelgusi nasllar biz boshlagan mana shu ishlarning munosib davomchilari bo'lib, ona yurtimiz, bebaho tariximiz, ulug' ajdodlarimiz, qadimiy shaharlarimiz bilan hamisha g'ururlanib yashaydi. Ulardan kuch va ruhiy quvvat olib, jonajon O'zbekistonimiz dovrug'ini butun olamga tarannum etadi.

Go'zal Qarshi shahrining qutlug' to'yi bilan sizlarni yana bir bor muborakbod etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat tilayman.

Ona zaminimiz doimo gullab-yashnasin, fayz-u barakaga to'lsin!

El-yurtimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Qarshi shahri, Qashqadaryo ahli hamisha omon bo'lsin!

Qarshi shahrining 2700 yilligiga
bag'ishlangan tantanali
marosimdagi so'z,
2006-yil 27-oktabr

7-§. Yoshlarni Vatanni sevish ruhida tarbiyalash — kelajagi buyuk jamiyat qurishning muhim sharti

Ta'lim va tarbiyaning bosh vazifalaridan biri jamiyatdagi barcha toifa kishilarini, xususan O'zbekiston aholisining qariyb 65 foizini tashkil qiluvchi yoshlarni Ona-Vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashdir. Bu o'z navbatida zamonaviy bilimlar orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo qiladi.

«O'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», — deb uqtiradi Prezident I.A.Karimov. Bu boradagi fikrini davom ettirib: **«Har qanday qal'a ichidan olinadi. Demak, biz ichkarini mustahkam qilishimiz kerak. Buning uchun yoshlar qalbiga yurtga sadoqat, kattalarga hurmat, tarixga mehr, kelajakka umid tuyg'ulari urug'ini sochishimiz lozim»**, — deb ta'kidlaydi.

Bunday dolzarb vazifaning kun tartibiga qo'yilishi bejiz emas edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida ham yoshlar dunyoqarashida eskicha

tafakkur, jahon taraqqiyotidan orqada qolgan bilimlar, o'z qiymatini yo'qotgan qarashlar saqlanib qolmoqda edi. Masalan, yaqin-yaqinlargacha oliy ta'limning vazifasi muayyan miqdorda ilmiy texnikaviy bilimlarga ega bo'lgan, ongiga mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni singdirgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat qilib qo'yilgan edi.

Sir emas, KPSS tarixi, ilmiy kommunizm, dialektik va tarixiy materializm, siyosiy iqtisod, tarix, huquq, adabiyot va boshqa fanlar mafkuraviy jihatdan juda ham jilovlab qo'yilgan bo'lib, ular yoshlarda yuzaki, maddohlik yo'nalishida fikrlashga o'rgatar edi.

Tabiiyki, bunday hol yoshlarda yangi zamonga munosib barkamol ma'naviyatni shakllantirishni taqozo qilardi. Bu borada respublikada ko'rilgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishi ta'limni gumanitarlashtirish bo'ldi. Bu borada mamlakatda 1991-yil 17-sentabrda e'lon qilingan mamlakat Prezidentining «Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini, hamda, xalq ta'limi sistemasini partiyadan xoli etish to'g'risida»gi Farmoni muhim qadam bo'ldi. Ushbu Farmonda: «Belgilab qo'yilsinki, respublika davlat apparati idoralarida va xalq ta'limi sistemasida siyosiy partiyalar va harakatlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga bundan buyon yo'l qo'yilmaydi», – deb alohida ta'kidlandi. Farmonning ana shunday talabidan kelib chiqadigan xulosa shunda ediki, maorif va xalq ta'limini jahon amaliyotiga yaqinlashtirish ma'nosida uni yakka hukmron partiya g'oyalari yo'lini asoslashga xizmat qiluvchi mafkura ta'siridan xoli qilish edi. Darhaqiqat, respublikada avvalgi kommunistik partiya mafkurasi uchun nazariy, ilmiy bilimlar manbayi hisoblanmish ijtimoiy fanlarning oliy ta'lim tizimidagi roli va o'rniga yangicha munosabat vujudga keldi. Masalan, O'zbekiston respublikasining «Ta'lim haqida»gi Qonunini amalga oshirish uchun respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi «Oliy ta'lim islohoti» Dasturini ishlab chiqdi. Ushbu Dasturning muhim qoidasi oliy ta'limni gumanitarlashtirishdan iborat edi. Jumladan, ushbu Dasturda «gumanitar ta'lim berish ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismidir va u o'zbek xalqining ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, o'zbek xalqi milliy ruhining asosi bo'lmish insonparvarlikni tarbiyalashga asoslanadi» – deb alohida qayd qilindi.

Ta'limni gumanitarlashtirish, uni partiyaviy mafkuradan xoli qilish borasidagi muhim qoidalardan biri yurt tarixini o'rganishga katta e'tibor berilishi bo'ldi.

Bu boradagi muhim amaliy qadam shunda ediki, oliy o'quv yurtlarida sobiq KPSS tarixi kafedralari o'rnida O'zbekiston xalqlari tarixi kafedralari tashkil etildi. Umumta'lim maktablarda O'zbekiston tarixi avvalgi yillarga nisbatan 3 barobar chuqurroq o'qitila boshlandi. Demak,

yurt tarixini o'rganish keng qamrov olib, o'zining amaliy samarasini bera boshladi.

Tarixiy bilimlar yoshlarni ko'p narsaga ongli ravishda qarashga undadi. Ularning har biri qalbida Vatanga mehr tuyg'ularini, bugungi kun qadriga yetish hissini shakllantira boshladi. Masalan, Namangan Davlat Universiteti biologiya fakultetining ikkinchi kurs talabalariga «Hozirgi yoshlarning mas'uliyati nimadan iborat?», deb berilgan savolga ko'pchilik talabalar «O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi mas'uliyati», – deb javob berdilar. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, yoshlarda Vatanga mehr hissini tarbiyalashda, ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda O'zbekiston Madhiyasi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ni xalq ta'limi tizimida o'rganish ham, shu mavzularga bag'ishlab maxsus murabbiylik soatlarining o'tkazilishi ham katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. Shu bilan birga «mustaqillik kunlari»ning bayram qilinishi ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti o'n birinchi sessiyasida Mustaqillik kuniga tayyorgarlik ko'rish haqida qaror qabul qilingan edi.

1992-yil 22-avgustda «O'zbekiston o'quv yurtlarida har yili 1-sentabrda «Mustaqillik kuni»ni o'tkazish to'g'risida» Prezident Farmoni e'lon qilindi. Unda davlatimiz tarixida yangi sahifa ochgan O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bayram qilinishi munosabati bilan va uning yoshlarni ma'naviy kamol toptirishda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini nazarda tutib, o'quv yurtlari jamoalarining istaklarini hisobga olib:

1. Har yili 1-sentabrda barcha maktablarda, hunar texnika bilim yurtlarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida «Mustaqillik kuni» mavzuida maxsus mashg'ulotlar, darslar, ma'ruzalar, tantanali yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkazish:

2. Qaramog'ida o'quv yurtlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, hokimliklar:

– turli shakllardagi, ijodiy izlanish va bayram vaziyati ruhidagi mashg'ulotlar va tadbirlarni o'tkazishga oid zarur tashkiliy choralarni ko'rsinlar:

Respublika hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlardan o'quvchilar va talabalarni keng xabardor qilinishini ta'minlasinlar, uni erkin va yuksak vatanparvarlik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalasinlar:

– o'quv yurtlarida mustaqillik kunini bayram qilishda yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini ochishga ko'maklashuvi hamda bir xillik va rasmiyatchilikni istisno etuvchi tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazsinlar;

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari o'quv yurtlarida Mustaqillik kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chog'ida respublika oqsoqollari, deputatlar, fan, madaniyat va san'at arboblarini, ijodiy va boshqa jamoat tashkilotlarining vakillarini, korxonalar va muassasalarning rahbarlarini qatnashishga keng jalb qilishlari» kabi muhim vazifalar belgilandiki, bu farmonning joylarda bajarilishi xalqimizga mustaqillik tushunchasini yetkazishda, ularni istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu borada Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida ibratli ishlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, 1992-yil 1-sentabrdan O'zbekiston aholisi tomonidan birinchi marta mamlakat mustaqilligining bir yilligini keng bayram qilinishini aytish mumkinki, xalqni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va unga e'tiqod tuyg'ularini kuchaytirishda muhim qadam bo'ldi. Shu yilning 30-avgustida Toshkentda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali majlis bo'ldi. Unda Prezident I.Karimov tabrik nutqi so'zlab butun aholini milliy bayram bilan qizg'in tabrikladi. Tantanalar mamlakatning barcha viloyat, shahar, tuman va qishloqlarida, tashkilot, muassasa, korxona, jamoalarda va mahallalarda bo'lib o'tdi. Butun xalq O'zbekistonning kelajagi qo'lga kiritilgan mustaqillik tufayli amalga oshirilishini chuqur his qila boshladi. Bir so'z bilan aytganda, dastlab istiqlol e'lon qilingan kunlarda kishilardagi sarosimalik o'rnini, endi mustaqillikka ishonch va e'tiqod egallay boshladi.

Prezident Farmoni asosida O'zbekistondagi barcha o'quv yurtlarida 1-sentabrda «Mustaqillik kuni» keng nishonlandi. Masalan, Toshkent Davlat Texnika Universitetida shu kuni tantanali mitingdan so'ng birinchi darslar «Mustaqillik darslari» sifatida o'tkazildi. Bunda professor-o'qituvchilar, faxriylar, xalq deputatlari qo'lga kiritilgan mustaqillikning ahamiyati va afzalliklari haqida talabalarga keng tushuntirish berdilar.

O'zbekiston mustaqilligiga bag'ishlangan bunday tadbirlar faqat Oliy o'quv yurtlaridagina emas, balki barcha o'rta maxsus o'quv yurtlari va umumiy ta'lim maktablarida ham katta tayyorgarliklar bilan muntazam ravishda o'tkazilib turibdi.

«Oltin meros», «Amir Temur», «Ulug'bek», «Shahidlar xotirasi», «O'zbekmuzey» kabi bir qator jamg'armalar, Tarixchilar, Ma'rifatparvarlar, Faylasuflar milliy jamiyatlari milliy-madaniy merosimizni o'rganish, an'analarimizni saqlash va rivojlantirish, allomalarimiz, fidoyi ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash, ularning asarlarini yosh avlodga tanishtirish yo'lida barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

«Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi tariximiz va bugunimiz mazmun-mohiyatini keng ochib berish, mustaqillik bergan buyuk ne'matlarni

ko‘rgazmali vositalar bilan targ‘ib etish, milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish ishida alohida natijalarga erishmoqda.

Xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy hayotida «Ma’naviyat va ma’rifat» respublika kengashi va uning tarkibidagi jamoatchilik markazi o‘zining munosib o‘rnini egalladi.

Prezident I.A.Karimovning 2006-yili e’lon qilingan mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan farmoniga muvofiq respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Ma’naviyat targ‘ibot markaziga aylantirildi. Uning faoliyat mezonlari yanada kengaytirilib, yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.

Yosh iste’dodlar o‘z ijodlari bilan o‘zbek san’atini dunyoga namoyish etmoqdalar. Yaqinda toshkentlik litsey o‘quvchisi, yosh rassom Oybek Islomov o‘z asarlari bilan Hindistondagi Butunjahon bolalar san’ati qo‘mitasi o‘tkazgan «Shankar» ko‘rgazmasida ishtirok etib, Javoharla’l Neru nomidagi oltin medal bilan taqdirlandi.

Sakkiz yoshli toshkentlik o‘quvchi Diyora Hasanova «Bolalar san’ati — 2000» xalqaro festivalining eng yosh qatnashchisi bo‘lishiga qaramasdan, bu festivalning Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan final bosqichida o‘zining yuksak rassomlik iste’dodini namoyon qila oldi. 50 ga yaqin mamlakat bolalari rasmlari orasidan u ishlagan «Yer sharida festivalga boramiz» nomli rasmning xalqaro festival emblemasi sifatida tanlab olinishi va unga Bosh sovrinning berilishi ham farzandlarimizning qanchalik yuksak iqtidor egasi ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Yosh iste’dodlarni izlab topish va tarbiyalash, professional rassomlarning boshini qovushtirish, ularning samarali ijod qilishlari uchun qulay sharoit yaratish, milliy tasviriy, amaliy, miniatura san’atimizning noyob an’analarini boyitish, dunyoga tanitish maqsadida tashkil etilgan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi uch yildan buyon jiddiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatimizda iste’dodli rassomlarning ko‘plab ko‘rgazmalarini tashkil etdi. O‘zbek rassomchilik maktabining bugungi rivojini dunyoga ko‘rsatish maqsadida 2000—2006-yillar mobaynida Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya kabi ko‘plab mamlakatlarda o‘zbek rassomlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazdi.

Badiiy Akademiyaning a’zolari tomonidan katta mahorat bilan ishlangan Sohibqiron Amir Temur, Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi, Alpomish haykallari, Mustaqillik maydonidagi majmua kabi haykaltaroshlik san’atining go‘zal namunalari xalqimiz milliy g‘ururi va iftixorini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Turkiston miniatura maktabining asoschisi, buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning bu yil nishonlanadigan 550 yilligiga qizg‘in

tayyorgarlik olib borilmoqda. Kamoliddin Behzod memorial bog'ini barpo etish ishlari boshlab yuborilgan.


Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash dolzarb bo'lib qolayotgan bir paytda yoshlar bilan yakka tartibda ishni yo'lga qo'yish, ularda axloqiylik fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki azaldan odoblilik, axloq inson uchun eng zarur ziynatlardan hisoblangan. Odamzodni yuksaklarga ko'taradigan ham, uning qadr-qimmatini oshiradigan ham ana shu axloqiy barkamollikdir. Shu o'rinda qadimgi Rim faylasuflaridan Epikratning «barcha kashfiyotlar ichida go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir», degan o'gitini hamisha yodda tutish o'rinlidir. Yoshlarda ana shunday fazilatlarni tarbiyalashda joylarda, maktab va o'quv yurtlarida olib boriladigan ishga e'tibor berilmoqda. Maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshqa o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida va turarjoylarda maxsus «Odobnoma» soatlari joriy etildi. Bundan tashqari, mamlakat televideniyesi va radiosi orqali, jumhuriyat gazetalari sahifalarida esa maxsus «Odobnoma» ko'rsatuv va eshittirishlar beriladigan, sahifalar chiqadigan bo'ldi. Bu ish mehnat va pedagogika jamoalari hamda ota-onalar kengashlarining amaliy hamkorligi asosida ham tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994-yil 13-iyunda yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirishning Kompleks Dasturini qabul qildi. Unda respublikada huquqiy ta'limni takomillashtirish, yoshlarning huquqiy madaniyati darajasini oshirish, hamda O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat qurish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari ko'zda tutildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ijodkor yoshlarining «Iste'dod» xayriya jamg'armasi, O'zbekiston ijodkorlar jamg'armasi, madaniyat jamg'armasi va boshqa qator jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. Ular aholi turli tabaqasi intellektual salohiyatini oshirish, ularni o'z vaqtida rag'batlantirib turish, ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash borasida qator tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi fan-texnika, san'at va madaniyatni yanada rivojlantirish maqsadida qator qarorlar qabul qildi. Ayniqsa, mamlakat istiqboli va millat kelajagini ta'minlash, har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish maqsadida 1993-yilda Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Yoshlar jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi yoshlarning intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirish, salohiyatli yoshlar kuchini birlashtirish, ularni asrab-avaylash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga bo'lgan intilishlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat.





O'zbekiston hukumati aholi aqliy imkoniyatlarini kengaytirish va ma'naviy yetukligini ta'minlash asosida mustaqillikning sof insonparvarlik mazmunini chuqurlashtirish hamda uning jamiyatning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilishiga katta umid bog'lagan. Shu bois amalga oshirilgan tadbirlarga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Boy berilgan imkoniyatlar yo'l-yo'lakay o'rganib, tuzatib boriladi. Ijodiy va ilmiy kuchlarga ko'maklashuvchi qator jamoat tashkilotlari faoliyatiga ana shu nuqtayi nazardan baho berildi. Natijada uning kuch va imkoniyatlarini birlashtirish maqsadida 1996-yil 17-aprelda yosh ijodkorlarga, olimlarga va tadqiqotchilarga ko'maklashuvchi, umuman yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi «Kamolot» jamg'armasi ta'sis etildi. «O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilim, kasb egallashi, o'zlarida yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlari hosil qilishi, ularning istiqlol ishining davomchilari bo'liby yetishishlarida ko'p qirrali yordam ko'rsatishni o'zining dasturiy vazifasi qilib belgiladi va bu borada bir qator ishlarni amalga oshirdi. Keyinchalik jamg'arma «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi. Uning faoliyatini yanada takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-oktabrda qabul qilgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi Qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-oktabrdagi qaroridan

1. Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ma'naviy-ma'rifiy sohaga daxldor bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan yoshlar

masalalarini, avvalambor ularning dolzarb muammolarini yechish, jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirishda yo'l qo'yilayotgan sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bu borada «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga suyanish va tayanish vazifasi mazkur davlat tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishi, deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda tashkilotning Dasturi va Nizomiga tegishli o'zgartishlar kiritish, uning tarkibiy tuzilmasini yangitdan tasdiqlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

3. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Maslahat kengashining Harakatning navbatdagi II qurultoyini 2006-yil noyabr oyining oxirida o'tkazish va uning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturni kun tartibining asosiy masalasi sifatida belgilash haqidagi taklifi qabul qilinsin.

4. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining navbatdagi qurultoyiga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bo'yicha boshlang'ich va quyi tashkilotlarning takliflari asosida tayyorlangan chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq ma'qullansin va qurultoyni o'tkazish hamda yoritishda Harakat faoliyatini chuqur tahlil qilib, tanqidiy baho berish, mamlakatimiz yoshlari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarni hal etishga alohida e'tibor qaratish tavsiya etilsin.

* * *

2006-yil 29-noyabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining II Qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan 600 nafar delegat ishtirok etdi.

Anjuman qatnashchilari Markaziy Kengash raisi Akrom Alimovning hisoboti hamda joylardagi Konferensiyalar davomida bildirilgan ko'pdan-ko'p taklif va fikr-mulohazalarga asoslanib, yoshlarning talab va istaklaridan kelib chiqib tayyorlangan dastur va Nizom loyihasi bo'yicha ma'ruzani muhokama qildilar. Qizg'in muhokamalardan so'ng «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Dastur va Nizomi loyihasi bildirilgan fikr va takliflarni hisobga olgan holda tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 10-oktabrdagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi qarorining joylarda bajarilishini o'rganish, joylarda yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar

darajasini, yoshlarning mavjud muammolari va ularni hal etish ahvolini tahlil etish maqsadida tashkil etilgan Ishchi guruhlari 2007-yilning 12–25-fevral kunlari Respublikamizning barcha viloyatlarida bo'lishib, joylarda yoshlar bilan ishlash darajasini, bu boradagi mavjud muammolarini (ularning yechimini ham) tahlil etishdi, pirovardida yoshlarning mamlakat miqyosida yechimini kutayotgan muammolari, jumladan, harakat oldida turgan dolzarb masalalarni o'rganib, joylarda tegishli tashkilotlar bilan bu borada hamkorlikda faoliyat yuritish chora-tadbirlari belgilandi.

84 kishidan iborat maxsus komissiya har biri 6 kishidan iborat bo'lgan ishchi guruhlarga bo'linib, barcha viloyatlarga xizmat safariga chiqishdi. Joylarda ularga viloyat boshqarmalari, tashkilotlari, muassasa va korxonalari vakillari biriktirildi. Ishchi guruhlari a'zolari uchun tegishli savolnomalar ishlab chiqilib, o'rganishlar mobaynida asosiy e'tibor quyidagi uch yo'nalishga qaratildi.

Tashkil etilgan ishchi guruhlari 2007-yilning 12–25-fevral kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahrining 199 tumanida bo'lishib, joylarda yoshlar bilan ishlash darajasini, bu boradagi mavjud muammolarini (ularning yechimini ham) tahlil etishdi, pirovardida yoshlarning mamlakat miqyosida yechimini kutayotgan muammolari, jumladan, harakat oldida turgan dolzarb masalalarni o'rganib, joylarda tegishli tashkilotlar bilan bu borada hamkorlikda faoliyat yuritish chora-tadbirlarini belgilashdi.

Harakat muassisligidagi yoshlar va bolalar nashrlari

- «Turkiston» gazetasi
- «Молодёж Узбекистана» gazetasi
- «Yosh kuch» jurnali
- «Sirli olam» jurnali
- «Yoshlik» jurnali
- «Tong yulduzi» gazetasi
- «Класс» gazetasi
- «Sinfdosh» jurnali
- «G'uncha» jurnali
- «Gulxan» jurnali

* * *

Iste'dodli yoshlarni saralash, tanlash va ularga yordam berib, xorijiy mamlakatlarda o'qib, dunyoviy tajribalarni, jahon taraqqiyotini o'rganishlari maqsadida 1997-yil 7-yanvarda «Umid» jamg'armasi tuzildi.

Albatta, yoshlarni yangilanayotgan demokratik, insonparvar jamiyatga munosib qilib tarbiyalash o'z navbatida ular ijtimoiy kafolatini ham ta'minlashni taqozo qiladi. Bu borada O'zbekiston istiqlolga erishgandan so'ng respublikada yoshlarning ijtimoiy kafolati uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosat ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 20-noyabrda bo'lib o'tgan sessiyasida «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Bu qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi belgilanib «Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijtimoiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkon boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan sharoitlar yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir», – deyiladi. Shuningdek, ushbu hujjatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan tashkiliy tadbirlar ham ko'zda tutildi. Qonun esa 1992-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Korxona, muassasa va tashkilotlar bu borada aniq amaliy tadbirlar belgiladilar. Respublikada qonunning bajarilishiga katta e'tibor berildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respublika Prezidenti birgina 1992-1993-yillarda yoshlar ijtimoiy kafolatini ta'minlash va ular iste'dodini kamol toptirish maqsadida 14 ta Farmon qabul qildi. Ularda o'quvchi-yoshlar va talabalarning moddiy ahvolini yaxshilashdan tortib, yoshlar iste'dodini ham moddiy, ham ma'naviy rag'batlantirishgacha bo'lgan tadbirlar ko'zda tutildi. Masalan, Prezidentning 1993-yil 5-fevralda qabul qilgan «O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmonida «o'quvchilarning iste'dodlarini namoyon qilish va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda mustaqil O'zbekiston fuqarosining yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga muhim ahamiyat berib, oxirgi yil o'qiyotgan talabalar va aspirantlar – butun o'qish davridagi a'lochilar hamda tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari ta'sis etilsin», – deyiladi.

Bugungi kunda ko'plab talaba va aspirantlar ana shunday mukofotga sazovor bo'lmoqdalar. Yoshlar ijtimoiy kafolatiga doir joylarda ma'lum tajribalar to'plandi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil yanvar oyida Yoshlar siyosati bo'yicha Qonun qabul qildi. Viloyat hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1992-yil 4-dekabrdagi 568 sonli Qarori asosida viloyatlarda va tumanlarda yoshlar ishlari bo'yicha hokimlar raisligida Kengashlar tuzildi. Hokimliklar tomonidan davlatning yoshlar siyosatini ro'yobga chiqarishda bir qator

ishlarni amalga oshirdilar. Masalan, Toshkent viloyatida yoshlar siyosatiga oid Dastur qabul qilindi. Yosh ijodkorlarning uy-joy sharoitini yaxshilash uchun hokimlik 82 xonali uyni yosh ijodkorlarga foydalanishga berdi.

Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, va Buxoro viloyatlarida ham yosh ijodkorlarga uy-joy berildi.

Xorijda o'qib kelgan yosh mutaxassislarning har ikki yilda o't-kaziladigan ilmiy konferensiyasi an'anaga aylanib qoldi. Birgina 2006-yili «Istc'dod» jamg'armasi homiyligida o'tkazilgan ilmiy anjumanda 500 ga yaqin yosh mutaxassis o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. 5 ta yo'nalishda o'tkazilgan ushbu anjumanda g'oliblar 5 ta amaliy mukofot bilan taqdirlanishdi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonday yoshlar mamlakatida yoshlar siyosati, ularga katta ishonch sifatida qaralishi millat istiqboliga yuksak ishonch borligidan dalolat beradi.

Jismoniy tarbiya va sport

Jismoniy tarbiya kishilik jamiyati tarixining barcha bosqichlarida xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi bo'lib kelgan. Xususan, unga O'zbekiston hududida yashayotgan xalqlar ma'naviy va jismoniy barkamollik mezoni sifatida qarashgan. Jismoniy tarbiya va harbiy san'at XIV-XV asrlarda ham ancha rivoj topgan. Amir Temur olib borgan siyosat jamiyatning hamma sohalarida bo'lgani kabi jismoniy tarbiyaning mohiyatini yuqori bosqichga ko'targan. Temuriylar davrida harbiylarni jismoniy tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. Kurash, kamondan otish, ot sporti o'yinlari bo'yicha ko'pgina musobaqalar o'tkazilgan.

O'zbekiston qadimdan milliy o'yinlarga boy. Ayniqsa, «Arg'imchoq», «Bekinmachoq», «Qilichbozlik», «Oq terakmi-ko'k terak», «Ololmaydi-yo, shuginani-yo», «Tortishmachoq», «Chillak» va hokazolar keng tarqalgan.

Lekin, O'zbekistonda mustamlakachilik davrida jismoniy tarbiya katta yo'qotishlarga uchradi. Kuch, tezkorlik, chiniqish bilan birga ma'naviyatni yetuklikka, axloq va odobni kamolga yetkazishga e'tibor susaydi. Bu mahalliy aholining jismoniy tarbiyadan uzoqlashishiga olib keldi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida 1992-yili 14-yanvarda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risi»da Qonun qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasi esa O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993-yili 18-martda «O'zbekiston Respublikasi futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 1996-yil 17-

yanvarda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» maxsus Qaror qabul qildi.

Mamlakatda «Sog'lom avlod» Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Ushbu dasturga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi milliy ma'naviyatni tiklashga katta e'tibor berildi. Milliy o'yin va sport turlari bo'yicha har yili musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy sport turlarining qayta tiklanishiga va ularning sport turi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. 1992-yildayoq Termiz va Shahrisabz shaharlarida milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Keyinchalik Milliy kurashning unutilayozgan nazariy jihatlari qayta tiklanib, uning asosiy qoidalari mukammal ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan tan olindi. Shunday qilib milliy kurashimiz xalqaro sport turlaridan biriga aylandi. 1999-yil 1-2-may kunlari Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilari ishtirokida Birinchi jahon chempionati o'tkazildi. O'zbekistonlik kurashchilar ushbu chempionatning 3 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza, hammasi bo'lib 10 ta medalini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Ayniqsa, 73 kg gacha bo'lgan vaznda Akobir Qurbonovning (Buxoro sh.,), 90 kg gacha bo'lgan vaznda Kamol Murodovning (Buxoro sh.,) va mutlaq vazn toifasida Toshtemir Muhammadiyevning (Termiz sh.,) kurash bo'yicha birinchi jahon chempionlari bo'lganliklarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Yurtboshimizning maxsus farmoni bilan Xalqaro «Kurash» Assotsiatsiyasi tuzilganligi, Islom Karimovning ushbu Assotsiatsiyaning faxriy Prezidenti etib saylanganligi milliy sport turlariga sog'lom avlodni tarbiyalovchi asosiy omillardan biri sifatida davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilayotganligining yorqin namunasidir.

1992-yildan Termiz va Shahrisabz shahrida milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazila boshlandi. 1994-yilda Toshkentda Tennis saroyi qurilib, unda «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini» uchun tennis bo'yicha katta xalqaro musobaqa o'tkazilmoqda. 1992–1996-yillarda O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari sport turlari bo'yicha bir qancha jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib keldilar. Jumladan, 1994-yili O'zbekiston Respublikasi sportchilari birinchi marta Yaponiyaning Xirosima shahrida o'tkazilgan XII Osiyo o'yinlarida ishtirok etdilar va ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular 42 ta medalni, jumladan 10 ta oltin, 12 ta kumush, 20 ta bronza medalini qo'lga kiritdilar. O'zbekiston futbol terma komandasi Osiyo o'yinlari chempioni bo'ldi. 1994-yilgi qishki Olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik L.Cheryazova oltin medalga sazovor bo'ldi. Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan

«Xalq o'yinlari» II Respublika Olimpiadasi 1996-yil 10-11-mayda bo'lib o'tdi.

1996-yil O'zbekiston sporti tarixida alohida o'rin tutadi. O'zbekiston boks federatsiyasi sport bo'yicha yo'riqchisi Artur Grigoryan o'z vazni bo'yicha Germaniyada o'tkazilgan jahon chempionatida qatnashib katta yutuqlarga erishdi. U mutlaq chempion «Oltin kamarini» qo'lga kiritdi. Uning sport sohasida yutuqlari mamlakat Prezidenti tomonidan yuksak baholandi.

Umuman, mamlakatda O'zbekiston sporti sharafini himoya qilayotganlar munosib taqdirlana boshladi. Masalan, 1998-yil mustaqillik bayrami arafasida bir guruh sportchilarimizni «O'zbekiston iftixori» Faxriy unvoni bilan mukofotlanganliklari fikrimiz dalilidir.

Hozirgi paytda O'zbekistonda aholi bilan jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish ishini amalga oshiradigan 15085 birlamchi tashkilotlar – jismoniy tarbiya jamoalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 9501 tasi umumta'lim maktablarida, 710 tasi kollej va litseylarda, 62 oliy o'quv yurtlarida, 4812 tasi mehnat jamoalarida, 12092 tasi qishloq joylarida ishlamoqda.

Respublikada sport-sog'lomlashtirish klublari soni tobora o'sib borayapti. Hozirgi paytda ularning soni 500 dan ortiqni tashkil etadi.

Respublikada yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan 536 ta bolalar-o'smirlar sport maktablari, 5 ta olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, 8 ta respublika oliy sport mahorati maktablari faoliyat ko'rsatayapti.

2000-yilda respublikada 6 million 420 ming kishi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, ulardan 5,5 million kishi umumta'lim maktablarida, 390 ming kishi kollejlar, litseylar va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, 82 ming kishi oliy o'quv yurtlarida, 500 ming kishi mehnat jamoalarida shug'ullangan edi.

O'zbekistonda 2000-yilda jami 1,5 milliondan ortiq kishi, shu jumladan bolalar-o'smirlar sport maktablarida 270 ming kishi 70 dan ziyod sport turi bilan shug'ullandi. Bu ko'rsatkich yangi ochilgan sport majmualari, yangi qurilgan litsey va kollejlar, maktablar tufayli keskin oshdi.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportning moddiy bazasi muttasil mustahkamlanib bordi. Respublikada 233 stadion, 5040 sport zali, 135 suzish havzasi, 32 865 sport maydonchasi, 4841 futbol maydoni, 1883 otish turi, 13139 voleybol, 7196 basketbol maydonchasi, 168 tennis korti, «Yoshlik» sport arenasi, «Paxtakor» markaziy stadioni, «Yunusobod» va «JAR» sport majmualari, Tennis saroyi va boshqalar sportchilar ixtiyorida. O'zbekiston sporti tarixida milliy olimpiya Qo'mitasining tashkil topishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1993-yilning sentabrida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi to'la-to'kis tan olindi. Qo'mita xalqaro sport va olimpiya harakatining rivojlanishiga yordam

bermoqda. U O'zbekistonda olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish, Olimpiya o'yinlarida respublika vakillari ishtirokini ta'minlash, jahon sportchilari bilan do'stona aloqalar o'rnatish va rivojlantirishdek sharafli vazifa bilan shug'ullanmoqda. Milliy Olimpiya Qo'mitasining 127 a'zosi, 11 faxriy a'zosi bor.

1996-yil yanvarda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining qaroriga muvofiq, jahon sportini rivojlantirishdagi xizmatlari va olimpiya g'oyalariga sadoqati uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Olimpiya Oltin ordeni bilan mukofotlandi.

Toshkentda 1996-yil 14-avgustda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov bilan birga tantanali ravishda ochib berdi. X.A.Samaranchning O'zbekiston sportini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti F a r m o n i

Xuan Antonio Samaranchni «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida

Olimpiya harakatini rivojlantirish, davlatlararo hamkorlikni, tinchlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashdagi xizmatlari hamda O'zbekiston sportini qo'llab-quvvatlayotgani va uning xalqaro maydonda o'z o'rnini egallashiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio Samaranch «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti **I.Karimov.**

Toshkent shahri,
1996-yil 29-avgust.

* * *

O'zbekistonda mustaqillikning keyingi 10 yili mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirishda alohida davr bo'ldi. Bu borada bolalar sportini rivojlantirish respublika jamg'armasining tashkil qilinishi, 2000-yildan boshlab oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida **«Universiada»**, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari o'rtasida **«Barkamol avlod»**, umumta'lim maktablar o'quvchilari o'rtasida **«Umid nihollari»** sport musobaqalarining uyushtirilishi muhim ahamiyatga ega voqealardir. Shu yillar mobaynida nafaqat sportning xalq o'rtasidagi ommaviyligini ta'minlash, balki ayrim sport turlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Jumladan, O'zbekcha kurash, tennis, shaxmat, boks bo'yicha O'zbekiston sporti jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'ldi. Tennis bo'yicha Iroda To'laganovaning, boks bo'yicha Ruslan Chagayev va Muhammadqodir Abdullayevlarning dunyo sport arenalaridagi yutuqlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, Rustam Qosimjonovning shaxmat bo'yicha jahon chempioni unvoniga ega bo'lishi o'zbek sportini, umuman, O'zbekistonning jahon miqyosida obro'-e'tiborining oshishiga olib kelgan tarixiy voqea deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

R.Qosimjonovni Amir Temur ordeni bilan mukofotlash to'g'risida

Shaxmat bo'yicha 2004-yil jahon birinchiligida g'oliblikni qo'lga kiritib, xalqimizga xos yuksak intellektual salohiyat, mardlik va jasorat namunasini amalda namoyon etgani, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirish, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etishga qo'shgan ulkan hissasi uchun Rustam Qosimjonov Amir Temur ordeni bilan mukofotlansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti **I.Karimov**

Toshkent shahri,
2004-yil 14-iyul.

* * *

Keyingi yillarda sportning eng ommaviy turi – futbolga e'tibor katta davlat siyosatiga ko'tarilganini aytish joizdir. Bu borada «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 1-maydagi 338-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu farmonda ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida bir qator amaliy ishlar qilindi.

Jumladan, Futbol bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi O'zbekiston futbol Federatsiyasining tasarrufiga o'tkazildi. Futbol bo'yicha murabbiylar va hakamlar respublika maktabi tashkil etildi.

Bolalar va o'smirlar futbol maktablarining hamda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan futbol klublarining ish faoliyatini rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish masalalari bo'yicha O'zbekistonda futbolni rivojlantirish kompleks Dasturi ishlab chiqildi va uning ijrosi nazorat qilib borilmoqda. Shunday qilib yuqorida sanab o'tilgan muhim amaliy chora-tadbirlar o'z samarasini bera boshladi. Shu o'rinda birgina 2006-yil natijalarini keltirish o'rinlidir. Ushbu 2006-yil Ommaviy

sport tadbirlarining taqvim rejasiga asosan sportchilarimiz 300 ta xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etib, 325 ta oltin, 325 ta kumush, 405 ta bronza, jami 1055 ta medallarni qo'lga kiritdilar.

2006-yil mobaynida 346 ta respublika musobaqalari va 150 ta o'quv-mashg'ulot yig'inlari o'tkazildi. Mazkur taqvim reja 2006-yil 28-noyabr – 15 dekabr kunlari Doxa shahrida (Qatar) bo'lib o'tgan XV Yozgi Osiyo o'yinlarida ishtirok etishi, Turino shahrida (Italiya) XX qishki va 2008-yil Pekin shahrida (Xitoy) XXIX Yozgi Olimpiya o'yinlariga munosib qatnashish uchun eng muhim bosqich hisoblandi.

O'zbekistonda sportchilarning yutuqlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

№	Tadbir nomi	2005-yil mobaynida	2006-yil mobaynida
1	Respublika musobaqalari	283	346
2	Xalqaro musobaqalar	178	300
3	O'quv-mashg'ulotyig'inlari	79	150

№	Medallar	2005-yil mobaynida	2006-yil mobaynida	2006-yil 2005-yilga nisbatan foizda
1	Oltin	227	325	143 %
2	Kumush	184	325	176 %
3	Bronza	176	405	230 %
	Jami:	587	1055	179 %

11–22 avgust kunlari Pekin shahrida (Xitoy) bo'lib o'tgan yengil atletika bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida Svetlana Radzivil balandlikka sakrashda 1 o'rinni egallab, oltin medalga sazovor bo'ldi. 24–30 sentabr kunlari Guanjou shahrida (Xitoy) bo'lib o'tgan erkin kurash bo'yicha jahon chempionatida Artur Taymazov 120 kg vazn toifasida 1 o'rinni egallab, oltin medalga sazovor bo'ldi.

28-noyabr – 15-dekabr kunlari Doxa shahrida (Qatar) XV yozgi Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Ushbu o'yinlarda O'zbekiston sport delegatsiyasi 31 sport turidan 336 kishi ishtirok etdi. Mamlakat sportchilari XV yozgi Osiyo o'yinlarida 11 ta oltin, 14 ta kumush va 14 ta bronza medallarni qo'lga kiritib, 45 ta davlatlar o'rtasida 7-o'rinni egalladilar.

2007-yil 14-aprel kuni jahon sportida ulkan tarixiy voqea yuz berdi. Mutloq og'ir vazndagi boks bo'yicha musobaqada o'zbekistonlik Ruslan Chagayev jahon chempioni bo'ldi. U o'zidan 28 santimetr baland va 41 kilogramm og'ir bo'lgan afsonaviy bokschi Nikolay Valuyev ustidan yuksak mahorat bilan g'alaba qozonib, o'zbek milliy boks maktabining qudratini dunyoga namoyon etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

R.Sh.Chagayevni «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida

Professional boks bo‘yicha o‘ta og‘ir vazn toifasida jahon chempioni unvonini qo‘lga kiritib, mardlik va jasorat namunasini namoyon etgani, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini va nufuzini oshirish, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘zbek boks maktabi an’analarini yanada yuksaltirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Ruslan Shamilovich Chagayev «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti **I.Karimov**

Toshkent shahri,
2007-yil 17-aprel.

* * *

Yana bir narsani qayd qilish lozim. O‘zbekistonlik sportchilar nafaqat jahonning turli sport arenalarida o‘zbek sporti nomini ulug‘layapti, balki O‘zbekistonning o‘zi yildan yilga xalqaro sport musobaqalari o‘tkaziladigan sport mamlakatiga aylanib bormoqda.

Umuman, aholining keng qatlamlari orasida jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda ommaviy sport tadbirlar o‘tkazilishi ham e’tiborga olindi. Xususan an’anaviy respublika xotin-qizlar spartakiadasi, oilaviy jamoalar o‘rtasida o‘tkaziladigan «Sog‘lom bola» oilaviy sport musobaqalari ana shunday hamkorlik samarasidir.

Sakkizinchi bob.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI

1-§. Mustaqil O'zbekistonning BMTga qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati

Tariximizning ana shu o'tgan davrini aniqrog'i 16 yillik mustaqil taraqqiyotimiz sarhisob qilinar ekan, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni ham alohida qayd qilish lozim.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik davrigacha respublika Tashqi ishlar vazirlgi apparatida bor yo'g'i 10 —15 nafar xodim bo'lib, ular nomigagina vazifasi hisoblangan ishlar, ya'ni protokol majburiyatlari va turli tadbirlar, asosan chet ellik mehmonlarni qabul qilish bilan shug'ullanardi, xolos. O'sha davrda tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan bir amaldor ayni paytda kommunal sohasini ham boshqarganining o'ziyoq bu masalaga qanday yuzaki qaralganini ko'rsatib turibdi.

Istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab o'ta muhim tashqi siyosiy masalalarni hal qilishga, davlatlararo siyosiy va iqtisodiy munosabatlar sohasida eng maqbul yo'llarni topishga to'g'ri keldi.

G'oyat qisqa fursatda bu sohada Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar qo'mitasi, keyinchalik esa, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va boshqa qator davlat boshqaruv organlari tuzildi, diplomatik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yaratildi.

Mustaqillikka qadar yurtimizda birorta ham xorijiy davlat elchixonasi yo'q edi. Hozirgi vaqtda chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi bor. O'zbekistonda esa 86 ta elchixona va savdo vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan.

Mamlakatimizning qulay geosiyosiy o'rni, uning birinchi navbatda o'z milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o'ylangan, mustaqil va izchil tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi, xalqaro maydonda obro'-e'tiborining ortib borishini ta'minladi.

Keyingi davrlarda o'ziga obro' topmoqchi bo'lgan «ko'p vektorlik siyosati» olib borish degan turli qarash va yondashuvlar haqida chiqishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz olib borayotgan tashqi siyosatning tag-tomirida hech kimga sir bo'lmagan bir sir turibdi — O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaati. Bizning bu

sohadagi barcha qadam va harakatlarimiz faqat ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan, desam, ayni haqiqat bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda.

* * *

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar, hech qachon o'z qobig'iga o'ralib rivojlanmagan. Aksincha, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlashi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish orqali o'z taqdirini belgilagan. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgach jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tutdi. Bu borada mamlakatda olib borilgan amaliy ishlarni tasavvur qilishdan oldin XXI asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayon va xalqaro vaziyatga qisqagina nazar tashlash lozim.

Ma'lumki, ilgari jahonda ikki qarama-qarshi sistema – SSSR va AQSH yetakchi bo'lgan g'oyaviy jihatdan qarama-qarshi ikki tizim, ikki blok mavjud edi. Dunyoning xavfsizlik tizimi ham xuddi shu ikki blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi.

1991-yilda Sovet Ittifoqi tarqalib ketgach, yangi – g'oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat edi.

Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo'lsa, endilikda o'z taqdirini o'zi belgilash orqali ichki imkoniyatlarni ishga solish, har kim o'z aravasini o'zi tortish zarurati tug'ildi.

Ikkinchidan, jahonda mulkiy tengsizlik kuchaydi. Ya'ni sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaya boshladi.

Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko'rinadi. Ya'ni, tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblanadi. Lekin sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o'z qo'llariga olishga intila boshladilar.

Uchinchidan, dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud bo'lib qoldi. Ya'ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar tahdidi hamon tahlikali holatda saqlanib qolmoqda edi.

To'rtinchidan, jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri sezildi. Davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur bo'ldi.

Turli davlatlararo va hukumatga daxli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning ahamiyati oshib, dunyo yangi tizimga o'tishi davrida ularning faoliyatini qayta qurish va isloh etish ehtiyoji tug'ildi.

Bu o'z navbatida nega shunday qilish kerak, degan haqli savolni tug'diradi. Buning javobi oddiy: ko'pchilik xalqaro tashkilotlarning faoliyatlari asosan davlatlarning o'zaro murosasini ta'minlashga qaratilgan edi, xolos.

Bugungi ahvol xalqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni, jarayonlar ichiga kirib borishni, ta'sir doirasini kengaytirishni, hech bo'lmaganda, hammaga barobar odilona va xolisona munosabatda bo'lishni talab etadi.

Beshinchidan, rivojlanishning hozirgi bosqichida har qanday mamlakatning nufuzi, avvalo, uning eng yangi texnologiyalarni qabul qilish va foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadigan bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilinsa, O'zbekistondagi o'tish davri boshqa yosh mustaqil mamlakatlarga nisbatan samaraliroq bo'ldi. Natijada O'zbekiston jahon iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tezroq kirib bordi va o'z salohiyatini aniq-ravshan ko'rsata oldi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun asosiy shart-sharoitlar bu – uning jug'rofiy-siyosiy jihatdan qulay mintaqada ekanligidir.

Ma'lumki, O'zbekiston geosiyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay makonda joylashgan. Ya'ni u, **birinchidan**, Markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan.

Ikkinchidan, O'zbekiston aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilardan ma'lum darajada ustun turadi.

Uchinchi tarafdan, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bu yerda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xomashyo resurslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, jumladan paxta tolasini yetishtirish va eksport qilishga imkoniyati katta. Shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda yetkazib berishga qodir.

To'rtinchidan, davlatimiz nafaqat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki chetga chiqarishga neft, neft mahsulotlari, gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo'lmish muhim tarmoqlarga ega. O'zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari, deylik, mikroradioelektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkoni bor.

Beshinchidan, O'zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Yurtimiz ma'naviy-tarixiy merosga boy. U oldindan nafaqat mintaqada, balki dunyoda ham turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga, jahon sivilizatsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib kelgan.

Shu jihatlarni hisobga olsak, O'zbekiston o'zining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha jahondagi madaniy, ilmiy texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemalol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin.

Albatta, bu yo'lda qator qiyinchiliklar ham mavjud. Bular quyidagilar:

Birinchidan, agar geografik-strategik tarafdan olib qarasak, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari ancha buzilganligini ko'ramiz.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Orol dengizi bilan bog'liq ekologik falokat ta'siri seziladi.

Uchinchidan, mintaqada xavfsizlik tizimi alohida e'tiborni taqozo etadi. Bu yerda atrofdagi kuchli davlatlar va siyosiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta'sir etish istaklari borligini ham hisobga olmasdan bo'lmaydi.

To'rtinchidan, musulmon dunyosidagi ba'zi mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari ham ayni bizning xotirjam bo'lishimizga yo'l bermaydi.

Beshinchidan, atrofimizda turli etnik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolar ichida qolgan «uchinchi dunyo» davlatlari ham mavjud. Jumladan beqarorlik va xavf-xatarning bugungi kundagi o'chog'i – Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari ham shu mintaqada.

Bayon etilgan bu muammolarni kuchaytirib va ma'lum darajada ko'p ishlarni ijobiy hal qilishga to'siq bo'lib turgan yana bir masala bor. Sho'ro tizimidan qolgan meros – bu shu mintaqada Turkiston atalmish yagona zaminda yashayotgan millat va elatlarni sun'iy ravishda bo'lib tashlash va shundan foydalanib, o'z siyosatini o'tkazish, ularga hukmronlik qilish asoratlari hali-beri yo'qolmagan.

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. XX asrning so'nggi o'n yilligi har qanday zo'ravonliklar, tazyiqlar va g'oyaviy xurujlarni aql-idrok va ochiqdan-ochiq munosabatlar orqali hal etish sari dadil qadam qo'yilgan davr bo'ldi. O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o'z maqeyi va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo ahlini jahon siyosatini isloh qilishga da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi.

Geografik-siyosiy o'rni jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Mustaqillikning tarixan qisqa davrida u o'zining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qudratini to'la-to'kis ko'rsata oldi. Ayni ana shu mintaqa taqdirini hal qilishga qodir bo'lgan kuchli davlat sifatida o'zini namoyon etdi.

Birgina bu emas: O'zbekiston Osiyo va Yevropa qit'alari o'rtasida munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, siyosiy iqlimni mo'tadillashtiruvchi G'arbu Sharq o'rtasidagi azaliy raqobatni aql-idrok, donolik, tafakkurga asoslangan munozaralar va muzokaralar orqali uyg'unlashtirishga da'vat etgan shu mintaqadagi yagona davlat bo'lib maydonga chiqdi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston Pokiston, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston muammolari bilan birga Rossiya va umuman Yevropa mamlakatlari munosabatlarini ma'lum bir o'zanga solishga da'vat qilayotgan, uni o'zining amaliy faoliyati bilan yaxshilik sari burishga katta ta'sir ko'rsatayotgan davlatdir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo muammolarini hal qilishning eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarini o'rtaga tashlar ekan, u mintaqaviy mojarolar va qo'shni mamlakatlarni o'zaro kelishmovchilik muammolaridan tortib butun yer shari va insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan juda ulkan masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Bu ayniqsa, xalqaro terrorizm va narkobiznes, diniy aqidaparastlik va ekstremizm bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Ayni ana shu muammolar bugun dunyo ahli hayotiga tahdid solayotgan eng og'ir fojia ekanligini, u bilan murosa qilib bo'lmasligini, bu illatlarni barbod qilishda juda katta qat'iyat, siyosiy iroda va ichki qudrat kerakligini O'zbekiston o'z timsolida ko'rsatdi.

Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq XIV sessiyasida qilgan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasida xuddi ana shu muammolarni keskin qilib qo'ydi. Xalqaro terrorizm va narkobiznesning o'zaro uzviyligi, bir-biriga bog'liqligi, uning tarqalishiga ba'zan diniy niqoblardan foydalanilayotganligi, natijada diniy aqidaparastlik va ekstremizmning rivojlanib borayotganligi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan. O'zbekiston rahbarining ana shu har ikki asari davlatimizning yangi yuz yillik va yangi ming yillikdagi siyosiy strategiyasini belgilaydi. Mazkur kitobning dunyoning bir necha o'nlab mamlakatlarida tarjima qilib bosilganligi, jahon siyosatdonlari va davlat arboblarining bu kitobda ko'tarilgan masalalarga bergan yuksak baholari, jahon jamoatchiligining katta qiziqish bilan unga qarayotganligi fikrimizning dalilidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlardan muhimi uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olganidir.

1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Bayonot»da O'zbekistonning tashqi siyosatdagi yo'li aniq qilib belgilangan edi. Jumladan unda: «Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi, uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o'z hududini qurol-yaroqlardan xoli qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish, suveren davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo'l qo'ymaslikdan iborat», – deb qayd qilindi.

Oradan ma'lum muddat o'tgandan so'ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida bu yo'l yana bir bor ta'kidlanib davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va me'yorlariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin», – deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida.

Mamlakat tashqi siyosatiga doir bunday qoidalar Prezident I.A.Karimovning nutq, maqola va risolalarida yanada oydinlashtirildi. U o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida: **«O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir»,** – deb alohida uqtirdi.

Hukumatimiz o'zining tashqi siyosatida mana shu ko'rsatmalarga amal qilib keldi. O'zbekistonning tashqi siyosat borasida tutgan yo'li davlatimiz biron bir buyuk davlat ta'sir doirasiga tushib qolmasligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va mezonlariga asoslanadi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.

O'zbekiston Prezidentining asosli mulohazalari bu nufuzli tashkilot tomonidan inobatga olinib, 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ta'sis etilib, ish boshladi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili qilib yuborildi.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BMTning taraqqiyot Dasturi, Sanoat taraqqiyoti Dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha vakillari Oliy Komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha Dastur, Bolalar jamg'armasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston 1992-yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining majlisida ishtirok etishi, nutq so'zlashi va uning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o'tkazishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. 1993-yil sentabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning ishtiroki va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida tanitdi.

O'zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. Bo'lg'usi jahon Parlamentining timsoli bo'lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirdi.

Mamlakatimiz Parlamentlararo Ittifoqning 93- va 94-konferensiyalarida hamda EXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyasida muntazam qatnashmoqda. Oliy Majlis Raisi YXHT Parlament Assambleyasining Vitse-prezidenti etib saylandi. Ana shu va boshqa xalqaro anjumanlarda O'zbekiston vakillari ma'ruza va axborotlar bilan chiqdilar, qator takliflarni o'rtaga tashladilar. Shu tariqa respublika Parlamenti a'zolarining

ovozi xalqaro maydonda baralla yangramoqda. Davlatimizning obro'-e'tibori mustahkamlanib, xalqaro miqyosda tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Mustaqillikning ilk damlaridayoq Oliy Majlis Raisi E.X.Xalilovning Avstriya, Germaniya, Ispaniya, Shveysariya, Belgiya, Bolgariya, Pokiston, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa bir qancha mamlakatlarning davlat boshliqlari, parlament va vakolatxonalar boshliqlari bilan uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Oliy Majlisda o'n uchta parlament delegatsiyasi, shu jumladan GFR, Yaponiya, Quvayt, Litva, Latviya, Pokiston, Bolgariya va Turkiya mamlakatlarining parlament delegatsiyalari, Shveysariya, Xitoy, GFR va Litvaning rasmiy hukumat delegatsiyalari, turli xalqaro tashkilotlarning o'n uch nafar vakili, xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi elchilari va elchixonalari hamda vakolatxonalari xodimlaridan 28 kishi, shu jumladan, Fransiya, GFR, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Pokiston, Turkiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Hindiston namoyandalari qabul qilindi. O'z navbatida O'zbekiston parlamenti a'zolarining delegatsiyalari bir qancha davlatlarda, shu jumladan, AQSH, GFR, Turkiya kabi mamlakatlarda bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar – Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Osiyo va Tinch okean havzasi bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxonalar hamkorligi Kengashi, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YuNESKO) va boshqa tashkilotlar a'zosidir.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'plab xalqaro Konvensiyalarga va BMT, YXHT, XMT kabilarning protokollariga qo'shildi. Shu yillar mobaynida O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida avvalo jahonning taraqqiy etgan mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlar bilan o'rnatilgan aloqalar o'z natijalarini bera boshladi. Turkiya bilan abadiy do'stlik shartnomasi O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos yangilikdir.

1995-yil 15-16-sentabrda Toshkentda Markaziy Osiyo Xavfsizlik va Hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar Kengashi bo'ldi. Bu Kengashda ishtirok etish uchun 31 mamlakat, 6 Xalqaro Tashkilotlar vakillari qatnashdilar. Mintaqa xavfsizligi va mojarolarning oldini olish masalalari ko'rib chiqildi.

1995-yil oktabrda nishonlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 50 yilligi va uning yubiley sessiyasi O'zbekistonning xalqaro siyosat

borasidagi yangidan yangi imkoniyatlarini ko'rsatishga sharoit yaratdi. Prezident I.Karimovning ana shu mo'tabar minbardan turib so'zlagan nihoyatda qisqa va lo'nda nutqi jahon hamjamiyatining tamoyilga aylangan qarashlarini o'zgartirishga, xalqaro tashkilotlar faoliyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitishga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, u mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni chuqurlashtirish, har bir mintaqada vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishidan oldindan ogoh bo'lish, ularni o'z vaqtida o'rganish va zarur xulosalarga kelish, shu asosda umumbashariy muammolarni chigallashtirmasdan hal etish masalalarini ko'tardi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Islom Karimov janobi oliylariga
Muhtaram Prezident janoblari!

Siz bilan vitse-prezident A. Gorr o'rtasida g'oyat foydali suhbat bo'lib o'tgani menga ma'lum. Sizning Qo'shma Shtatlar bilan yaqin aloqada mustaqil, ishonchli va ravnaq topuvchi mamlakatni barpo etish uchun faol ishlashga tayyor ekaningiz bizda katta taassurot qoldirdi. Vazir U. Perri ham shu yil aprel oyida O'zbekistonga safaridan keyin menga xuddi shunday zo'r taassurot olganini aytgan edi. Uning fikricha, mudofaani ancha foydali tijorat faoliyatiga – konversiyalashga intilayotgan O'zbekiston korxonalari bilan birgalikdagi hamkorlik aniq bir yo'l – islohotlarni amalga oshirish va aloqalarimizni chuqurlashtirish borasidagi Sizning kuch-g'ayratlaringizni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Men savdo vaziri o'rinbosari Perri Karter, chet ellarda xususiy sarmoyalar bo'yicha korporatsiyaning (OPIK) vitse-prezidenti Deniel Riordan hamda Mudofaa vazirligining bosh maslahatchisi Jefri Mur rahbarligidagi mudofaa sanoatini konversiyalash bo'yicha delegatsiyani Amerika savdo-sanoat doiralarining yuqori martabali 16 vakili bilan birga ana shu maqsadlarga erishishda yordam berish uchun yuboryapman. AQSH hukumatining uchta Mahkamasi qatnashayotgani to'siqlarni bartaraf etishda, amaliy hamkorlikni rivojlantirishda va konversiyaning muvaffaqiyatli o'tishida birga ishlash borasidagi majburiyatimiz jiddiyligini tasdiqlaydi. Sizning madadingiz va ishtirokingiz mana shu kuch-g'ayratlarda hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mazkur delegatsiyada Amerika biznesining ishtiroki to'g'risida bir necha og'iz so'z aytishga ijozat bergaysiz. O'zbekistonning ishonchli sherik sifatidagi obro'si, uning tabiiy resurslarga boyligi va yuqori malakali ishchi kuchini yetkazib bera olishi Amerikadagi eng yaxshi kompaniyalar rahbarlarining e'tiborini mana shu safarda qatnashishga jalb etdi. Safar mudofaa sanoatini konversiyalash bo'yicha loyihalarni muhokama etish uchun Sizning rasmiy vakillaringiz va korxonalarning rahbarlari bilan

uchrashish hamda O'zbekistonning imkoniyatlarini ilk manbadan bilib olish ajoyib imkonini yaratadi.

Umid qilamanki, bu uchrashuvlar mamlakatlarimizning iqtisodiy farovonligiga o'z hissasini qo'shadi, xalqlarimiz o'rtasidagi savdo aloqalarini chuqurlashtiradi va o'rtamizdagi munosabatlarni taraqqiy ettiradi.

Samimiyat bilan,
Bill Klinton,
AQSH Prezidenti.

«Xalq so'zi», 8-dekabr 1995-yil.

* * *

I.A.Karimov asosli va ahamiyati jihatidan dolzarb nutqi zamin va zamon taqdiriga, olam-u odamlar tashvishiga daxldor bo'lgan har bir siyosiy arbob, har bir davlat rahbari va ayniqsa, xalqaro tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish, ularni hushyorlikka chaqirish, olamga sergakroq va tiyrakroq qarash zarurligiga diqqatni qaratadi.

Darhaqiqat, XXI asr har bir davlat rahbarining faqat o'z mamlakati va xalqi doirasida o'ylashi kabi hodisalarni unchalik ham xush ko'rmaydi. Yangi yuz yillik o'z tabiati va ehtiyojiga ko'ra endi tor «mahalliy» doiralardan keng dunyoviy maydonga chiqishni, mamlakatning kundalik tashvishlariga o'ralashib qolmasdan, olam minbarlaridan turib dunyo kengliklariga nazar tashlashni va shu asosda umumbashariy muammolar hamda xalqaro masalalarni hal etishning umuminsoniy va Yer kurrasining istiqboliga daxldor bo'lgan keng miqyosli fikrlash tarzini taqozo etadi. Bularning bari yangi dunyoning va yangi yuz yillikning jahon siyosatiga olib kirayotgan g'oyat insonparvar, hayotiy va ezgulikka tayangan, dunyo siyosatining yangi madaniyat darajasini belgilaydigan omillardir.

Prezident Islom Karimov dunyoviy jarayonlarni doimiy ravishda kuzatadi. Olis istiqbolga katta umid va ishonch bilan qaraydi. Ayni paytda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini, ularning kelib chiqish manbalarini ancha oldindan kuzatadi va ularning natijalarini, salbiy yo ijobiy xulosalarini ko'plardan oldinroq ilg'aydi, oldinroq qarorga keladi. Bularning bari uning keng qamrovli tafakkur egasi ekanligini, voqealarga donishmandlik bilan yondashishini yaqqolroq ko'rsatadi.

O'zbekiston rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida ko'targan dolzarb masalalari butun jahon siyosatdonlari va ulkan davlat arboblarini jiddiyroq o'ylashga, masalalar mohiyatini ancha chuqurroq anglashga, yangi asr ostonasida turib, yuz yilliklar ortini yorqinroq va ravshanroq ko'rishga da'vat etayotgani bejiz emas. Prezident I.Karimov bu ulkan minbardan turib, **birinchidan**,

davlat arboblari va siyosatdonlar diqqatini milliy xavfsizlik masalasini hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nuqtayi nazardan qaytadan ko'rib chiqishga qaratdi. Chunki hozirgacha Xavfsizlik Kengashiga doimiy a'zo bo'lgan besh davlat Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga kirgan 187 davlat tashvishlarini, ularning muammolari va taqdirini hal etishga qodir emasligini, keng dunyoning bir-biriga o'xshamagan, bir-birini takrorlamaydigan va hatto bir-biriga zid muammolarining barchasini qamrab olishga kuchi yetmasligini, bu keng miqyosli ishga qodir emasligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun ham Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolari doirasini, ularning faoliyat maydonini kengaytirish va mazmunini chuqurlashtirish zarur ekanligiga hamjamiyat a'zolarining e'tiborini qaratmoqda. Ana shu kengash a'zoligiga Yaponiya va Germaniya mamlakatlarini ham qo'shish zarurligini aytdi va ularning nomzodini ko'rsatdi.

Haqli savol tug'iladi. «Nima uchun aynan shu ikki mamlakat a'zo bo'lishi kerak?» Prezident I.Karimov buni aniq dalillar bilan asoslab berdi. Jumladan, Yaponiya fan-texnika taraqqiyoti, jahon siyosatida tutgan o'rni, dunyo rivojlanishidagi mavqeyi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mehnat resurslari jihatidan allaqachon XXI asrga qadam qo'ygani va ana shunday ilg'or davlat dunyo muammolarini hal etishga siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qodir ekanligini ko'rsatib berdi.

Germaniya esa, ikki qarama-qarshi dunyo – Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashganidan so'ng bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy muhitida tub sifat o'zgarishi yuz berganida jahon siyosatida ham yangicha, yoqimli «ob-havo» iqlimini yaratgani bilan alohida qadrlanadi. Bu mamlakatdagi mavjud yuksak ishlab chiqarish madaniyatidan tortib, ulkan xalqning ulkan an'analari, jahon taraqqiyotida tutgan o'rni, tobora oshib borayotgan xalqaro obro'-e'tibori, dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining takomillashib borishida qo'shayotgan hissasigacha bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqib baholansa, u ayni Xavfsizlik Kengashiga a'zo bo'lishi kerak ekanligi ko'zga yaqqolroq tashlanadi.

Prezident I.Karimov ko'targan **ikkinchi** masala Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirish, uning jahon mamlakatlari taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidan kelib chiqib, o'z maqomini kuchaytirish masalasidir. Bosh kotibga ko'proq imkoniyat berilsa, uning dunyoviy muammolarga ko'proq aralashib, samarali ishlashiga sharoit yaratiladi. Masalalarni hal etishda xalqaro tashkilotlar mavqeyini kuchaytirish mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklarga Bosh kotib ta'sirini kuchaytirish, ularni umuminsoniy va umumjahon manfaatlari tomonga burib yuborishdagi rolini oshiradi. Oila boshlig'i qanchalik katta imkoniyatga ega bo'lsa, moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkam bo'lsa, siyosiy va huquqiy jihatdan vakolatlari keng bo'lsa, oilada barqarorlik, tinchlik, farovonlik ta'minlanishi shubhasiz. Yagona zamin, yagona makon

hammamiz uchun najot maydoni. Uning qaysidir burchagida tutun burqsishi yoki qon to'kilishi boshqa biron bir burchagida tinchlikni kafolatlay olmasligini chuquroq anglagan va hammadan oldinroq sezgan Prezident I.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga – ulkan dunyoviy oila boshlig'iga ana shunday keng imkoniyat berish masalasini ko'ndalang qo'ydi.

Uchinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti olti milliarddan ortiq aholining butun tashvishini nazoratga olishi ancha murakkab ish. Bu osonlik bilan ko'chmaydi. Buning uchun qator mamlakatlararo va mintaqalararo faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar maqomini biroz o'zgartirib, uni Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish zarur. Ana shunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining umumiy faoliyat maydoni yanada kengayadi, u shug'ullanadigan masalalar konkretlashadi. Joylarda unga bo'ysunuvchi xalqaro tashkilotlarning mintaqaviy muammolar va mamlakatlararo munosabatlarda yuz berayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish imkoniyati tug'iladi. BMTning turli mintaqalardagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi vakolatxonalari imkoniyatlarini kengaytirish ularning maqomini oshirish zarurati haqida gapirar ekan, Prezident I.Karimov **«Birlashgan Millatlar Tashkiloti qayerda? Amerikada, Nyu-Yorkda joylashgan. O'zbekiston qayerda? Markaziy Osiyoda! Shuning uchun bu yerdagi tashkilotning tarkibi, albatta, kengroq bo'lishi kerak. Unga hali ko'proq huquq berish va iqtisodiy nuqtayi nazardan imkoniyatlarini kengaytirish kerak»** – deydi, O'zbekiston televideniyesi muxbiri savollariga javob bera turib.

Ayni paytda turli mintaqalarda, turli doiralarda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ancha-muncha. Jumladan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, arab davlatlarida Islom Tashkiloti, Janubiy-Sharqiy Osiyoda Tinch okeani mintaqasi davlatlarining Kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Yana bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy doirada ish olib borayotgan xalqaro tashkilotlar mavjudki, ana shularning hammasini birlashtirib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasiga kiritish, xalqaro tashkilotlar yagona tizimini vujudga keltirish XXI asr taqdirini belgilaydigan muhim omil ekanligini ko'rsatib berdi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Islom Abdug'aniyevich Karimov
janobi oliylariga

Muhtaram Prezident janoblari!

Mintaqangizda tinchlik va xavfsizlik hamda uni iqtisodiy rivojlantirish muammolari, shuningdek, bu sohalarda va Birlashgan Millatlar

Tashkilotida O'zbekistonning tutgan o'rni xususida fikrlashuvimizni davom ettirish uchun BMT taraqqiyot dasturi ma'muri Gustav Snetning mamlakatingizga tashrifidan foydalanib, Sizga quyidagilarni bayon qilmoqchiman.

Avvalo, Sizga shu yilning boshida Kopengagenda bo'lib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot masalalari bo'yicha oliy darajadagi uchrashuvda qatnashganingiz uchun minnatdorlik bildirmoqchiman. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganining ellik yilligi bayrami munosabati bilan oktabr oyida Nyu-Yorkda Siz bilan bo'ladigan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutaman.

Sizning Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha doimiy seminar tashkil etishga doir tashabbusingizni mintaqadagi tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash ishiga qo'shilgan muhim va ijobiy hissa, deb bilaman. Seminar tobora rivojlanib, mintaqada mojarolarning oldini oladigan siyosiy choralarning ta'sirchan doirasini barpo etishda yordam bergan va shu tariqa, BMTning bu sohadagi sa'y-harakatlariga qo'shimcha kuch-quvvat bag'ishlagan bo'lur edi.

Men O'zbekiston va uning qo'shnilari – Qozog'iston hamda Qirg'izistonning shu mamlakatlarning harbiy xodimlaridan iborat bo'lgan va BMTning tinchliksevar operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadlariga xizmat qiladigan qo'shma organini tuzish g'oyasini tabriklayman. Bu organ bosh kotib tasarrufidagi vositalar zaxirasini yana bir qimmatli vosita bilan to'ldirgan bo'lur edi.

Afg'oniston va Tojikistondagi vaziyatning beqarorligi hammamizni tashvishga solmoqda. Men bu mamlakatlardagi mojarolarni tinch hal etish yo'llarini izlashda O'zbekistonning mustahkam hamkorligini juda qadrlayman. Shuningdek, men Siz hamda boshqa mamlakatlar hukumatlari Tojikistonga berayotgan ezgulik yordamini yuqori baholayman.

Prezident janoblari, bu xavfli mojarolarni siyosiy vositalar orqali hal etishda O'zbekiston hukumatining xalqaro tashkilotlar bilan uzoq hamkorlik qilishiga ishonchim komil.

Pirovardida Sizning rahbarligingizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturi muhimligini ta'kidlab o'tmoqchiman. Janob Snetning tashrifi bu dasturni amalga oshirishda, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa sohalarida BMT tashkilotlarining Sizning hukumatingiz bilan hamkorlik qilishga qat'iy niyat qilganini tasdiqlaydi.

Prezident janoblari, Sizga bo'lgan kamoli ehtiromimni qabul etgaysiz.

Samimiy istaklar ila,

Butros G'oliy,

BMT Bosh kotibi.

1995-yil, 26-iyul.

«Xalq so'zi» 16-avgust 1995-yil.

* * *

Albatta, O'zbekiston rahbarining BMT faoliyatini yana ham jonlashtirish, uningy yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va hamkorlikni kuchaytirish borasida olib borayotgan ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflari hamjamiyatga a'zo bo'lgan davlatlarning vakillari orasida katta qiziqish uyg'otdi. Chunki, keyingi paytda BMT tizimida islohotlar o'tkazish lozimligi haqida ko'p gap-so'z bo'layapti-yu, ammo biror bir aniq taklif, asosli rejani hech kim ko'tarib chiqmagan edi. Shu boisdan ham jahonning ko'p mintaqalarida yuz berayotgan qurolli to'qnashuvlarni tugatishda BMTning roli sezilmayapti. Ayniqsa, Yevropaning markazidagi, Bosniya – Gersogovinadagi qonli fojialarning uzoq davom etishi BMTning nufuzini ancha tushirib yubordi. Ana shu nuqtayi nazardan olganda I.Karimovning takliflari katta ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati xalqaro maydonda ma'lum salmoqqa ega bo'lib, nufuzi tobora ortib bordi. Ayniqsa, 1996-yilda bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishildi. 21-22-iyun kunlari Italiya Respublikasining Florensiya shahridagi «Fortezza de basso» qal'asida Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuvi – Sammit bo'lib o'tdi.

Unda mazkur Ittifoq bilan O'zbekiston o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Bu, aytish mumkinki, respublika siyosiy hayotida tarixiy ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlari ishtirokida imzolangan bu bitim nafaqat g'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan respublikamiz o'rtasidagi aloqalar ravnaqining muhim huquqiy asosi, balki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarning tan olinishi va yosh mustaqil davlat mustaqilligining xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishidir.

Masalaning yana bir jihati shundaki, tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari bo'lmish dunyo siyosati va iqtisodiyotiga integratsiyalanish uchun muhim poydevor yaratilayotganidan dalolat beradi.

Islom Karimov erishilgan bitimni O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarda **«yangi turmush nuqtasi»** deb baholadi.

O'zbekiston o'z taraqqiyotida, shuningdek, tashqi siyosiy aloqalarida Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlikka katta e'tibor berdi. Mustaqillik yillarida ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalardagi hamkorlik aloqalari o'zining rivojlanish bosqichiga chiqqan. Bu borada 1992-yilda Toshkent va Vashingtonda elchixonalar ochilishi, 1995-yilning aprel oyida AQSH mudofaa vaziri Uilyam Perrining yurtimizga safari, shundan so'ng O'zbekiston Mudofaa vazirining AQSHdagi uchrashuvlarini va o'tgan yilning avgust oyidagi mamlakatimiz

Qurolli Kuchlarining alohida vzvodi Amerika tomoni hamkorligida Luiziana shtatida joylashgan Fort-Polk harbiy istehkomida o'tkazgan NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasidagi harbiy o'quv mashg'ulotlarini, shuningdek, 1995-yilning oktabr oyida mamlakatimiz Prezidenti bilan AQSH vitse-prezidenti Albert Gorr o'rtasida Oq uyda bo'lib o'tgan uchrashuvlarni alohida ta'kidlamoq joiz.

O'zbekistonda 1996-yil boshlarigacha amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o'zbek-amerika qo'shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQSHning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi qo'shma korxonasi bor. Amerikaning 28 ta kompaniya, firma va banki Toshkentda o'z vakolatxonalarini ochgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil 23–28-iyun kunlari Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrif bilan bordi. 25-iyun kuni I.Karimov AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Bu uchrashuv ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar rivojida, mustaqil mamlakatimizning jahon hamjamiyati integratsiyalashuvi yo'lida va, aytish mumkinki, mintaqa taraqqiyotida ulkan imkoniyatlar kashf etdi.

Mavzuga doir material

Klinton AQSH va O'zbekiston
aloqalari xususida

26-iyun kuni Oq uyda Prezident Islom Karimov bilan bo'lgan uchrashuvimiz ikki tomonlama mustahkam munosabatlarning rivojlanishiga yangicha kuch berdi va men Amerika xalqi nomidan Prezident Islom Karimovga va O'zbekiston xalqiga eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekistonning suvereniteti, demokratik taraqqiyot va gullab yashnashidan to'g'ridan-to'g'ri va moddiy manfaatdordir. Biz O'zbekistonni O'rta Osiyodagi yetakchi davlat deb bilamiz, chunki u – bozor munosabatlari taraqqiyoti va hamkorlikning mintaqada harakatlantiruvchi omili bo'lishga qodir imkoniyatga ega mamlakat. Shu bois O'zbekiston bilan hamkorligimizni Yevroosiyodagi siyosatimizning eng muhim qismi sifatida ko'zda tutamiz.

Ikki tomon ham turli masalalarda hamkorligimizdan kelib chiqadigan yutuqlarni yuqori baholaydi. Biz O'zbekiston hukumatining inson huquqlari hurmatga sazovor bo'lgan ochiq jamiyat qurish yo'lida yaqinda qo'ygan ijobiy qadamlarini ma'qullaymiz. Demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish yo'lidagi harakatlar barqarorlik va iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydi. Bu hamkorligimizni yanada mustahkamlashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Biz bundan keyin ham mana shu jarayonni qo'llab-quvvatlash istagidamiz.

Biz xavfsizlik sohasida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama, masalan, «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida aloqalarimiz rivojlanib borayotganidan xursandmiz. O'zbekistonning Qozog'iston va Qirg'iziston bilan birgalikda O'rta Osiyo tinchlik batalyonini tuzishda ishtirok etishi sizning mamlakatingizga nisbatan bu yerda ishonch-e'tiborni oshirdi. Bu tashabbus O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlik tarafdori ekanligidan dalolat beradi, deb hisoblaymiz va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining kelgusi mashqlarida O'zbekiston bilan yaqin aloqalarni davom ettirishga intilamiz.

Biz Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi mintaqaviy masalalar bo'yicha yaqin hamkorligimizni yuqori baholaymiz. Mamlakatingiz rahbariyatining Afg'onistonga qurol-yaroq yetkazib berishni taqiqlashni ko'zda tutgan amaliy tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va Afg'onistonda boshlangan fuqarolar urushi mazkur taklifni ilgari surish bilan bog'liq bizning harakatlarimizga qanday ta'sir etishi mumkinligi xususida Xavfsizlik Kengashining boshqa a'zolari bilan o'tkazajak maslahatlashuvlarimiz natijalaridan sizlarni xabardor etib turamiz. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotini mustahkamlash borasida olib borayotgan ishlarimiz doirasida O'zbekiston bilan yanada yaqinroq maslahatlashuvlar o'tkazish tarafdorimiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 51-sessiyasi oldidan biz barcha masalalarda O'zbekiston bilan bundan ham qalin aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qilamiz.

Men, shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasida barqaror savdo va investitsiya aloqalarining muhimligini ta'kidlamoqchiman. Amerika Qo'shma Shtatlari Umumjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga intilayotgan O'zbekiston bilan o'zaro mustahkam hamkorlikni davom ettirishga tayyor. Biz bugungi Amerika sarmoyalarining muvaffaqiyatini, shu jumladan, energetika va tog'-kon sanoatidagi muvaffaqiyatlarni har ikki tomonlama munosabatlarimiz rivojining yorqin namoyishi, deb hisoblaymiz va investitsiya shart-sharoitlari yanada yaxshilanishiga katta ishtiyoq bildiramiz».

«Toshkent haqiqati», 1996-yil 30-iyun

* * *

Aniqrog'i, mazkur safar O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi, siyosiy, iqtisodiy va insonparvar aloqalarni yanada rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. «Ayniqsa, Islom Karimovning Oq uyda AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashuvini alohida ta'kidlamoq lozim», — deydi AQSHning O'zbekistondagi elchisi Stenli Eskudero.

Mazkur uchrashuv ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib borayotganining dalilidir. Prezidentlar siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik

sohalarida hamkorlikning hal qiluvchi masalalarini, shuningdek, Markaziy Osiyodagi vaziyatga doir bir qator masalalarni muhokama qildilar. Unda Bill Klinton Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida O'zbekistonning yetakchi o'rinda turganligini e'tirof etib, O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish niyatida ekanligini alohida ta'kidladi.

* * *

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti
Bill Uilyam J. Klinton janobi oliylariga

Janob Prezident!

O'zbekiston xalqi va shaxsan o'z nomimdan Sizni, barcha Amerika xalqini tarixiy Mustaqillik kuni bilan tabriklash imkoniyatidan baxtiyorman.

Biz Amerika Qo'shma Shtatlarining buyuk yutuqlarga ega bo'lgan mamlakat sifatida yosh mustaqil davlatlarga demokratik an'analar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda berayotgan texnikaviy va insonparvarlik yordamini yuksak baholaymiz.

O'zbekiston – jahon sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri – o'z ma'naviy qayta tiklanishida chinakam ozodlik va demokratik qadriyatlariga intilmoqda. Istiqlolga erishgan respublikamiz huquqiy va dunyoviy jamiyat qurish, ochiq iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidan bormoqda. Bunda biz boshqa mamlakatlar tajribasiga, jumladan, AQSH davlat taraqqiyotiga katta e'tibor bilan qaramoqdamiz. O'zbekiston Amerika Qo'shma Shtatlari kabi terrorizm va ekstremizmning har qanday shakllarini keskin qoralamoqda, xalqaro kelishmovchiliklarning tinch-totuv yo'l bilan hal qilinishini qo'llab-quvvatlamoqda.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston hukumati xalqaro mezonlar asosida mamlakatlarimiz o'rtasida do'stona, teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish muddaosida ekanini ta'kidlashni istardim. Biz xalqlarimiz bir-biri bilan yaxshiroq tanishishi, keng ko'lamda bilim, tajriba va yuqori darajadagi rasmiy delegatsiyalar bilan doimiy tarzda almashib turishi tarafdorimiz.

Amerika xalqiga taraqqiyot va ravnaq tilab eng yaxshi istaklarimni yo'llashdan nihoyatda mamnunman.

Islom Karimov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

* * *

1997-yil 5-fevral kuni Prezident I.Karimov AQSH davlat kotibini qabul qildi. Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, jumladan, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni kengaytirish bilan bog'liq masalalar muhokama etildi.

Ulkan siyosiy, iqtisodiy, harbiy texnik, intellektual salohiyatga ega bo'lgan jahonning yetakchi davlati Amerika Qo'shma Shtatlari bilan uzoq muddatli va keng ko'lamda munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston uchun tashqi siyosatning ustuvor strategik yo'nalishidir.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda O'zbekistonning AQSH bilan tashqi savdo munosabatlari ortib bormoqda. Masalan, 1998-yilda O'zbekistondan AQSHga 63.6 mln. dollarlik mahsulot chiqarilgan bo'lsa, shu davr mobaynida AQSHdan 242.9 mln. dollarlik mahsulot import qilib olindi.

O'zbekiston Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatishga jiddiy e'tibor berdi. Xususan, Prezident I.Karimovning 1994–1996-yillardagi GFR, Fransiya, Buyuk Britaniyaga tashriflari tufayli Yevropaga yo'l ochildi. Bu mamlakatlar bilan iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar kengaydi.

1999-yil may oyida Bolgariya Prezidenti Petr Stoyanov rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi.

Shu kuni shahar tashqarisidagi Do'rmon qarorgohida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bilan Bolgariya Prezidenti Petr Stoyanovning yakkama-yakka uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda xalqaro hayotdagi dolzarb voqealar, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ahvoli, o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar va boshqa masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezidentlarning o'zaro muloqoti oxiriga yetgach, ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Muzokaralarda asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalasiga qaratildi. O'zbekiston bilan Bolgariya o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan har ikki tomon ham birdek manfaat ko'radi, – dedi O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov. – Janob Petr Stoyanovning Bolgariya rahbari sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelgani ham bejiz emas. Shu o'rinda bir gapni aytish kerak – O'zbekiston Bolgariya uchun hamisha ochiqdir.

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik haqida gapirganda, avvalo, kommunikatsiya va tranzit masalasiga to'xtalish kerak bo'ladi. Bu borada asosiy dastur TRASEKA loyihasi hisoblanadi. Sharq va G'arbni bir-biriga birlashtiradigan mazkur transport yo'lagini to'la quvvatda ishga tushirish uchun u o'tadigan mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Negaki mazkur yo'lak bu yo'nalishdagi barcha davlatlarga bir xil foyda keltiradi. Xususan, nafaqat Bolgariya, balki Yevropa bozoriga chiqishimiz uchun ham Bolgariyaning Varna shahri portlaridan foydalanishimiz mumkin. Bolgariya esa O'zbekiston orqali

nafaqat Markaziy Osiyo balki butun Osiyo bozoriga chiqishi mumkin. Ayni mavzuda gap ketganda shuni aytish kerakki, bugungi kunda Gruziyaning Poti porti bilan Bolgariyaning Varna porti o'rtasidagi aloqa yo'lga qo'yilgani TRASEKA loyihasini hayotga tatbiq etishdagi muhim ishlardan biri bo'ldi.

O'zaro hamkorlikdan ko'zlagan maqsadimiz bitta – xorijiy sarmoyaning mamlakatimizga oqib kelishi uchun qulay sharoit yaratish, – dedi Bolgariya Prezidenti ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik haqida o'z fikrlarini bayon qilar ekan – shuning uchun o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirish kerak. Shunda bizga Sharqqa, O'zbekiston uchun esa G'arbga chiqish oson kechadi. Qolaversa, yaratilajak transport yo'lagi tufayli mamlakatimizga kirib keladigan sarmoya ham ko'payadi.

Muzokaralarda Bolgariya tomoni Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkentda o'z elchixonasini ochajagini ma'lum qildi. Shuningdek, yaqin kelajakda Sofiyada O'zbekiston elchixonasini ham ochish rejalashtirilayotgani aytildi. Yana bir gapni aytib o'tish kerakki, muzokaralar chog'ida o'zbekistonlik bolalarni Qora dengiz sohilidagi dam olish maskanlariga jo'natish borasida muayyan kelishuvga erishilgani ham muhim ish bo'ldi.

Muloqot chog'ida shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarni, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida ham so'z bordi.

Muzokaralar nihoyasida ikki tomonlama qo'shma hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi. O'zbekiston va Bolgariya hukumatlari o'rtasida belgilangan hududlar hamda ulardan tashqarida o'zaro havo aloqasini yo'lga qo'yish to'g'risida hamda jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o'rtasida imzolangan do'stona munosabatlar va hamkorlik to'g'risida shartnoma ratifikatsiyalangani haqida yorliqlar almashish to'g'risidagi protokolga ham imzo chekildi.

O'zbekiston keyingi yillarda Boltiq bo'yi respublikalari bilan ham do'stona hamkorlikni saqlab qolish va uni yangi sharoitda yanada rivojlantirishga harakat qildi.

1995-yil 6-iyun kuni Prezident Islom Karimov davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasiga bordi. Shu kuni Latviya Prezidenti Guntas Ulmanis bilan Islom Karimov o'rtasida muloqot bo'lib, har ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma chunonchi, transport, havo aloqalari, sayyohlik va ilmiy-texnik aloqalar yuzasidan bitimlar tuzildi.

7-iyun kuni u Riga birjasi binosida Latviya ishbilarmonlari bilan uchrashdi. So'ng Latviya seymiga tashrif buyurib, uning raisi Anatoliy Gorbunov bilan muloqotda bo'lib parlamentlararo munosabatlarni yanada yaxshilash yuzasidan kelishib olindi.

1995-yil 7-8-iyun kunlari Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Litva Respublikasida bo'ldi. Vilnusdagi Prezident saroyida Islom Karimov va Angirdis Brazauskas o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Ikki mamlakat o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida Qo'shma Deklaratsiya, ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat sohalarida hamkorlik qilish to'g'risida hukumatlararo bitimlar imzolandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi siyosatining geografiyasi kengayib bordi. Yaqin va O'rta Sharq hamda Arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga intilish ham O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Misrda bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari tuzdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 14–17-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan Isroilda bo'ldi. Xo'sh, tashrifdan muddao nima edi? Avvalo, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik sarhadlarini yanada kengaytirish va buning uchun zarur huquqiy asoslarni mustahkamlash. Isroil davlatining bugungi iqtisodiy taraqqiyoti, aqliy salohiyati, yuksak texnologiyasi, ilmiy-texnikaviy yutuqlari haqiqatan ham katta e'tiborga molik. Shu bois ham Isroil bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish bizga foydalidir.

Hamkorligimizning asosiy – iqtisodiyot bilan bog'liq masalalar haqida to'xtalishdan oldin bir gapni aytib o'tish lozim: Islom Karimovning Isroil davlatiga tashrifi mamlakat siyosiy doiralari tomonidan ham, keng jamoatchilik tarafidan ham qizqin kutib olindi. Isroil Prezidenti Ezer Veysmanning qarorgohida bo'lib o'tgan davlatimiz rahbarini rasmiy kutib olish marosimida mamlakat Bosh vaziri Benyamin Netanyahu ham ishtirok etgani buning dalillaridan biridir. Chunki, odatda bunday marosimlarda Bosh vazir ishtirok etmasdi.

Tashrifning ikkinchi kunida ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralarida asosiy e'tibor ham shu o'zaro hamkorlikning huquqiy asosini mustahkamlash masalasiga qaratildi. Muzokaralar yakunida ushbu maqsadga xizmat qiluvchi muhim hujjatlar imzolandi. Jumladan, Prezident Islom Karimov hamda Bosh Vazir Benyamin Netanyahu mamlakatlarimiz hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama soliq solmaslik, daromad va kapitalga soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish, shuningdek, o'zaro savdo va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi Bitimlarga imzo chekdilar. Qolaversa, ikki davlat o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilishda hamkorlik, qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik qilish, o'zaro texnik hamkorlik, soliq hamda soliqni saqlash sohalarida hamkorlik qilish, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy

banki bilan Isroilning tashqi savdo sug'urta korporatsiyasi «IFTRIK» o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi. Bularni birma-bir izohlab o'tirishning hojati yo'q. Ular qanday ahamiyatga ega ekanini hujjatlarning nomlaridan ham anglab olish qiyin emas. Eng muhimi, shunday keng qamrovli hujjatlar imzolanganining o'ziyoq tashrifning samarali bo'lganini aytib turibdi.

Muzokaralar so'ngida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida mamlakatimiz rahbari O'zbekiston bilan Isroil iqtisodiyotida bir-birini to'ldiruvchi omillar talaygina ekanini ta'kidladi. Ya'ni, tabiiy resurslarimizdan unumli foydalanish uchun bizga zamonaviy texnologiya kerak. Xususan, Isroilning qishloq xo'jaligi, chorvachilik, dehqonchilik, urug'chilik, oziq-ovqat va parrandachilik kabi yo'nalishlarda katta foyda keltiradigan minitexnologiyasiga bizda ehtiyoj bor. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston, qolaversa Markaziy Osiyo bozorida Isroilning faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Telekommunikatsiya va farmatsevtika sohalari ham o'zaro hamkorligimizda asosiy yo'nalishlardan sanaladi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikda O'zbekistonning qiziqishlari nimalarda ko'rinadi? Bilamizki, Isroil qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan mamlakat. Suv tanqis, boshdan oyog'i tosh va biyday daladan iborat zaminda paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, dehqonchilik bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuqlar kishini mulohazaga chorlaydi. Mamlakatda 5,6 million aholi istiqomat qiladi. Uning mehnatga yaroqli qismi esa 40–42 foizni tashkil etib, shundan atigi uch foizigina qishloq xo'jaligi bilan band. Ana shu uch foiz odam butun mamlakatni qishloq xo'jalik mahsuloti bilan ta'minlabgina qolmasdan, o'z mahsulotini chetga eksport ham qiladi. O'z-o'zidan ayonki, hammasining siri texnologiyada, mavjud imkoniyatdan oqilona foydalana bilishda.

Tashrif chog'ida Islom Karimov Isroildagi «Zeraim Gedera» nomli ilmiy ishlab chiqarish va yangi navlar yaratish majmui bilan tanishdi. Mutaxassislarning fikricha, «Zeraim Gedera» paxta navlari bilan hosildorlikda katta ko'rsatkichlarga erishish mumkin. Tajriba uchastkasidagi g'o'zapoya naqd odam bo'yi keladi. Bitta tupda 19-20 tagacha ko'sak bor. Har bir ko'sakdagi paxtaning og'irligi 8 grammgacha tosh bosadi. Vaholanki, bizda bitta ko'sakdagi paxtaning og'irligi ikki barobar kam – 4 grammni tashkil etadi. Tomchilab sug'orish borasida ham «Zeraim Gedera» texnologiyasi bizga qo'l kelishi mumkin. Masalan, bu yerda bir gektar dalani sug'orish uchun 3–5 ming metr kub suv sarflanadi. Bizda esa shuncha maydonga 11 ming kub metr suv ketadi. Isroilning yutuqlari e'tiborga molik. Bu yerda gektaridan 70 sentnergacha hosil ko'tarilsa, bizda bu ko'rsatkich o'rtacha 26-27 sentnerni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarni taqqoslayotganimizning boisi bor. Yerimiz Isroil yerlaridan unumdorroq, baquvvatroq. Demak, biz ulardan ham ko'proq hosil

olishimiz mumkin. Xalqimizning aqliy salohiyati, iqtidori va qobiliyati ham o'zgalardan ortiq bo'lsa ortiq, lekin zinhor kam emas. Dunyoda yerni o'zbek dehqonichalik sevadigan, ardoqlaydigan odamni topish ham amri mahol. Faqat qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyani kiritish zarur. Shu ma'noda, Isroildagi bu kabi firmalar bilan hamkorlik biz uchun ayni muddao. Bu bitta paxtachilik misolida ko'rganimiz, holbuki, Isroilda chorvachilik, parrandachilik kabi sohalarda ham shunday imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimiz rahbari shu yerning o'zidayoq O'zbekiston «Zeraim Gedera» bilan ikkita loyiha bo'yicha hamkorlik qilishga tayyor ekanini ma'lum qildi: biri paxtachilik texnologiyasining to'la kompleksi, ikkinchisi – turli sharoitda chigitni sinab ko'rish bilan bog'liq. Paxtachilik texnologiyasining to'la kompleksi degani navni tanlashdan tortib to paxtani yig'ishtirib olgunga qadar qilinadigan ishlarni anglatadi. Ikkinchi loyiha o'z-o'zidan tushunarli. Islom Karimov irrigatsiya va tomchilatib sug'orish, chorvachilik, urug'chilik, parrandachilik kabi sohalar bo'yicha tashkil etilgan kichik ko'rgazmani tomosha qildi. Davlatimiz rahbari Isroil minitexnologiyalarini O'zbekistonda qo'llash, o'zaro hamkorlik uchun zarur omillar haqida gapirar ekan, jumladan, shunday dedi:

– Bu texnologiyalarni bizda qo'llash uchun nimalar kerak? Avvalo, biz Isroilga tashrifimiz chog'ida buning uchun zarur huquqiy zamin yaratdik. Kafolat kerak va biz bu kafolatni bera olamiz. O'zaro ishonch kerak. O'ylaymanki, o'zaro ishonchimiz ilgaridan mustahkam, u bugun yangicha shakl kasb etayapti. Isroil qo'lga kiritayotgan natijalarga biz ham erishmog'imiz kerak.

O'zbekiston Isroil bilan samolyotsozlik sohasida ham ikki tomonlama manfaatli hamkorlik qilishi mumkin. O'zbekiston jahonning yirik samolyotsozlik kompaniyalari bo'lmish «Boing», «Yevropa Eyrbas Indastriz» bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. O'z navbatida Isroil samolyotsozlik zavodi – «Isroil eyrkraft indastriz LTD» korporatsiyasi ham jahonda o'z nufuziga ega. Unda fuqaro aviatsiyasi uchun hamda harbiy sohalar bo'yicha samolyotlar, ularning ehtiyot qismlari ishlab chiqariladi. Qolaversa, zavodning elektronika sohasidagi faoliyati ham e'tiborga molik. Uni 1998-yilgi savdosi 2 milliard AQSH dollari miqdorida baholanayotir. Bu hazilakam ko'rsatkich emas.

Turkiya, Eron, Pokiston, Hindiston davlat va hukumat boshliqlarining O'zbekistonga rasmiy safari paytida imzolangan hujjatlar esa davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

1992-yil 28-noyabrda O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi.

1992-yil 10-mayda Ashxobodda O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va hukumat rahbarlari «Trans-

Osiyo» temir yo'lini vujudga keltirish maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad temir yo'li qurilishi haqidagi bitimni, bojxona xizmatini tashkil qilish, shu soha uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash haqidagi hujjatlarni imzoladilar.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 10-11-may kunlari EKO – Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining beshinchi uchrashuvida qatnashish uchun Almati shahriga tashrif buyurdi.

Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotini 1977-yili Pokiston va Turkiya davlatlari birgalikda tashkil etgan edi. 1992-yili O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon va Afg'onistonning qo'shilishi bilan mazkur tashkilotning hududiy qamrovi kengaydi, unga a'zo bo'lgan davlatlarning iqtisodiy, madaniy sohalarda hamkorlik qilishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

Shu o'rinda aytish lozimki, Prezident Islom Karimov doimo EKO – iqtisodiy tashkilot ekanligi, binobarin, uning faoliyatini siyosiylashtirish va mafkuralashtirishga yo'l qo'yib bo'lmasligini qat'iyat bilan ta'kidlab keladi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonning EKO faoliyatida qatnashishidan ko'zda tutilgan maqsadlar haqida ham to'xtaldi. **Birinchidan**, bu tashkilot ishida ishtirok etish bizga qo'shni davlat bilan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun zarur. Bu o'z navbatida mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. **Ikkinchi** maqsad esa, mintaqadagi gumanitar muammolarni birgalikda hal etish, tarixiy zamini bir bo'lgan xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir. **Uchinchidan**, eng muhim vazifa – bu mavjud tabiiy salohiyatimizni dunyoga olib chiqish uchun kommunikatsiya tarmoqlarini vujudga keltirishdan iboratdir. Chunki bu muammoni hal etmay turib, 300 million aholi yashaydigan ulkan hududda iqtisodiy taraqqiyotga erishish qiyin.

So'ng sammit qatnashchilari – Afg'oniston, Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston davlat va hukumat boshliqlarining, shuningdek, EKO Bosh kotibi hamda bir necha nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillarining nutq va ma'ruzalari tinglandi.

Notiqlar EKO doirasidagi hamkorlik berayotgan ilk samaralar haqida to'xtalib, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiyot, madaniyat, kommunikatsiya sohalarida birgalikda amalga oshirajak loyihalari taraqqiyotimizni tezlashtirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladilar. Tashkilot faoliyatini kengaytirish va takomillashtirish yo'llarini muhokama qildilar.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari har qanday xalqaro tashkilotning, jumladan, EKO

va uning ijroiya qo'mitalarining faoliyati ham baholashda amaliy ishlar asosiy mezon bo'lishi lozimligiga sammit qatnashchilarining e'tiborini qaratdi. Xalqlarimizga quruq va'dalar, balanparvoz shior va tashabbuslar emas, balki amaliy, aniq ishlar kerak. Hech kim bunday yuksak minbarlardan siyosiy obro' orttirish, boshqalarga o'z qarashlarini tiqishtirish maqsadida foydalanmasligi lozimligini ta'kidladi.

Sammit qatnashchilari mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, EKOning kelgusi faoliyatini takomillashtirish yo'llari belgilangan Almati Deklaratsiyasini tasdiqladilar. Shuningdek, a'zo mamlakatlar o'rtasida yuk tashish borasidagi to'siqlarni bartaraf etishga, kontrabandaga qarshi birgalikda kurashishga qaratilgan hukumatlararo hujjatlar ham qabul qilindi.

1999-yil 15-mart kuni Turkiya Prezidenti Sulaymon Demirel Toshkentga keldi. Shu kuni Prezidentlar o'zaro munosabatlarning bugungi ahvoliga doir qator masalalarni ko'rib chiqdilar. Tomonlarni qiziqtirgan xalqaro ahamiyatga molik muammolar xususida ham o'zaro fikr almashildi. Prezidentlarning yakkama-yakka suhbatida terrorchilik, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yaroq va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurashda hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi.

Shundan so'ng Prezidentlar ishtirokida ikki mamlakat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Unda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalar bo'yicha ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Prezident Islom Karimov O'zbekiston – Turkiya munosabatlariga to'xtalar ekan, bu borada O'zbekiston ustuvor, deb qaraydigan sohalar o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992-yilda 75 million AQSH dollarini tashkil etgan edi. O'tgan yili bu ko'rsatkich 275 millionga yetdi. Samarqandda ochilish marosimi o'tkazilishi mo'ljallanayotgan «Sam-Kochavto» qo'shma korxonasi iqtisodiy hamkorlik yuqori pog'onada ekanini yana bir tasdiqlaydi. Umuman, Turkiya O'zbekistonga eng ko'p sarmoya kiritgan mamlakat hisoblanadi. Lekin shunday bo'lsa-da, ko'proq e'tibor qaratadigan ayrim jihatlar ham mavjud. Masalan, ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyaning faoliyati so'nggi paytlarda susaydi. Muzokaralarda bunday masalalarni hal etish yuzasidan ham fikr almashildi.

Muzokaralarda transport kommunikatsiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Islom Karimov O'zbekiston Turkiyaning erkin iqtisodiy zonalarida joylashgan Istanbul, Trabzon, Adana, Mersin kabi shaharlaridagi portlardan, omborlardan foydalanish tarafdori ekanini

va bu masala bo'yicha muzokaralar boshlashga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun yanada keng imkoniyatlar ochishini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, muzokaralarda ilm-fan, madaniyat, ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari – Xitoy, Janubiy Koreya, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Chunonchi, Janubiy Koreyaning olamga mashhur DEU korporatsiyasi bilan hamkorlikda Asaka shahrida «O'zDEUavto» O'zbekiston – Koreya qo'shma avtomobil zavodi qurishga kelishilgani olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. 1996-yilning 19-iyulida ushbu zavodning ishga tushishi bugungi kunda O'zbekistonni jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakat qatoriga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 6-aprel kuni «Do'rmon» qarorgohida Yaponiyaning «Keyzay Doyukay» korporativ rahbarlar uyushmasi prezidenti Koichi Minaguchi rahbarligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

O'zbekiston Prezidenti Yaponiya bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor beradi. 1995-yildan buyon Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir milliard AQSH dollaridan oshib ketdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi esa 1998-yilda 117 million AQSH dollarini tashkil qildi. Bu 1997-yildagiga nisbatan 27 foiz ko'p.

O'zbekiston – Yaponiya iqtisodiy hamkorligi ulkan loyihalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Ko'kdumaloq va Sho'rtandagi neft-gaz sanoati inshootlarini shular jumlasiga qo'shish mumkin. Yaponiyaning O'zbekistonga imtiyozli kreditlar berayotgani ham diqqatga sazovor. Ayni paytda Yaponiyaning o'nlab firma va kompaniyalari O'zbekistonda ana shunday turdagi kreditlar bo'yicha ishlamoqda.

Uchrashuvda yaponiyalik mehmonlarga xususiylashtirish, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish taklifi ilgari surildi. Xususan, mamlakatimizga tashrifi chog'ida Yaponiya delegatsiyasi a'zolariga xususiylashtirilayotgan yirik korxonalar ro'yxati taqdim qilindi. Prezidentimiz qurilishi boshlab yuborilgan Andijon-O'sh-Qashqar temir yo'li va shu yo'nalishdagi avtomobil yo'li haqida ham so'zlab, Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash doirasida amalga oshirilayotgan bu loyiha O'zbekistonni Xitoy portlari orqali Yaponiya bilan bog'lashini ta'kidladi.

O'zbekiston BMT minbaridan turib, birinchi bor ushbu tashkilotning Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zoligiga Yaponiyani doimiy a'zo sifatida qabul qilish tashabbusini ilgari surgan davlatdir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston – Yaponiya iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida «Keyzay Doyukay» muhim o'rin tutadi. Masalan,

mamlakatdagi eng yirik kompaniya va korporatsiyalarning rahbar xodimlaridan tashkil topgan bu uyushma tashabbusi bilan O'zbekiston Yaponiya hukumati imtiyozli kreditlar ajratishni ko'zda tutadigan davlatlar sirasiga kiritilgan. Uyushmaning o'ziga xosligi va mamlakatdagi boshqa ishbilarmonlar tashkilotlaridan farqi shuki, uning a'zolari garchi yirik firma va kompaniyalar rahbari bo'lishiga qaramay, oddiy tahlilchi-iqtisodchi sifatida ishlaydi. Ular faqat iqtidoriga qarab qabul qilinadi. Hozirgi kunda Yaponiya korporativ rahbarlar uyushmasi tarkibida 1600 ga yaqin a'zo bor. Yana bir jihati shuki, uyushma hech qanday siyosiy masalaga aralashmaydi. Uning a'zolari yirik ishbilarmonlarning siyosiy maydonidagi o'rnini yaxshi anglasa-da, faqat iqtisodiy tahlil va tadqiqotlardan kelib chiqqan holda hukumat vakillariga taklif va tavsiyalar berish bilan cheklanadi.

Uchrashuvda Prezident Islom Karimov mamlakatimizda chet ellik ishbilarmonlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoit, O'zbekistonning iqtisodiy siyosati, xorijdagi moliyaviy muassasalar bilan hamkorligi borasida so'zladi.

«Keyzay Doyukay» delegatsiyasi rahbari 1997-yilda O'zbekistonni ziyorat etganidan so'ng, bu yerda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lganini ta'kidladi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy inqirozni boshdan kechirayotgan bo'lishiga qaramay, O'zbekiston iqtisodiy yutuqlarga erishayotgani amalga oshirayotgan islohotlaringizga ishonchimizni yanada oshiradi, – dedi mehmon.

Yaponiya delegatsiyasi tarkibida ushbu mamlakatning sobiq davlat iqtisodiy rejalashtirish vaziri, ayni paytda parlament a'zosi Taro Aso ham bor. Prezidentimiz bilan uchrashuvda u Yaponiya hukumatining yangi imtiyozli kreditlari haqida ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, mamlakatimiz viloyatlarida telekommunikatsiya sohasini zamonaviylashtirish uchun 12,7 milliard, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza uchun 670 million iyen miqdorida kredit ajratildi. Ayni paytda O'zbekistonda Yaponiya markazini ochish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

Muloqot chog'ida O'zbekiston bilan Yaponiya korporativ rahbarlar uyushmasi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan boshqa ko'plab masalalar ham muhokama qilindi.

E'tirof etmoq kerakki, so'nggi besh yil davomida mamlakatimiz xalqaro huquqning eng asosiy tamoyillariga BMT ustaviga sodiqligini mustahkamladi.

Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olayotganligi ham bejiz emas.

O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi, insonparvarlik, oshkoralik, qadr-qimmat o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishdir. Shu bois ham o'tgan

besh yil davomida mamlakatimiz 120 dan ortiq davlatlar bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochdi, 19 xorijiy davlat elchisi O'zbekistonda o'rindoshlik yo'li bilan ishlab turibdi. Bular shubhasiz, O'zbekiston o'tgan besh yil ichida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashga muvaffaq bo'lganligidan dalolatdir.

Mavzuga doir material

Madaniyat va barqaror rivojlanish BMTning doimiy muvofiqlashtiruvchisi janob Xolid Malikning 1996-yil Buxoroda bo'lib o'tgan «Buyuk Ipak Yo'lini, Madaniy Sayyohlikni qayta tiklash va O'zbekistonda Qadimgi merosni tiklash» bo'yicha Xalqaro Konferensiyada so'zlagan nutqidan ko'chirma.

«Madaniyat Insoniy taraqqiyot konsepsiyasidagi o'zak jihatlardan biridir. Insoniy taraqqiyot odamlar uchun yetishish oson bo'lgan tanlashni, birinchi navbatda daromadlarga daxldor bo'lgan tanlashni, shuningdek, odamlar yashayotgan atrof-muhitni tanlashni, ularning bir qismi bo'lgan madaniyatga o'z hissalarini qo'shish va unda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish jarayonidan iboratdir. O'z navbatida tanlash imkoniyatlarini kengaytirish insoniy qobiliyatlarni va odamlarda mavjud bo'lgan o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishni talab etadi.

Agar madaniyat deganda biz turmush tarzini tushunsak va rivojlantirish uchun uning BMT dagi insoniy qobiliyatlarini rivojlantirish degan ta'rifini qabul qilsak, ana shu ikki tushuncha o'rtasidagi muhim aloqa madaniyat insoniy imkoniyatlarini qanchalik kengaytirishi mumkinligida namoyon bo'lishi mumkin.

Odamlar va madaniyatlar o'rtasidagi dialog hamda o'zaro hamkorlik, hamjihatlik o'z nomi bilan qadriyat hisoblanadi. U to'g'ridan-to'g'ri insoniy qobiliyatlarni yaxshilaydi. Qadriyatlar va g'oyalarni almashish, u mahalliy yoki xalqaro darajada amalga oshirilishiga qaramay, agar u madaniyatlarni o'zaro hurmat qilishga asoslangan bo'lsa, ijtimoiy uyg'unlik va taraqqiyotga olib kelishi mumkin.

Jamiyatda uyg'un bo'lib yashash uchun tegishli yakka tartibdagi va jamoa ko'nikmalariga ega bo'lish kerak, ular tarbiyalanishi va rivojlantirilishi kerak.

Odamlarning bir-birlari bilan o'zaro hamjihatligi, turli nuqtayi nazarlarni hurmat qilishi va hamkorlik qilish masalalari shunday nomoddiy aktivlar hisoblanadiki, ular jamiyatning yaxlitligini saqlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bog'lovchi vositaning bir qismini tashkil etadi. Odamlarning tabiatga va atrof-muhitga qanday munosabatda bo'lishlarini belgilovchi madaniyat ham ana shunday bog'lovchi vosita hisoblanadi.

Keyingi ikki asrda keng mintaqaviy va xalqaro hamjamiyatlardan ajralib yashayotgan joyda vujudga kelgan Markaziy Osiyoning Yangi davlatlari

uchun madaniyat va madaniy o'z-o'zini ifodalashi insoniy qobiliyatlarini kuchaytirish uchun qudratli vosita hisoblanadi, bular esa o'z navbatida jamiyat integratsiyasiga hamda tinch holda o'z g'oyasini ifodalashi, bunyodkorlik va barqarorlik rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishga ta'sir ko'rsatadi. Madaniyatini tinch holda ifodalash odamlarni birlashtiradi va milliy hamda mintaqaviy hamjamiyatlarda birlashtiruvchi, mazmunli aloqalarni vujudga keltiradi.

YuNESKOning ustavida ma'noli va to'g'ri yozilganidek, jahon odamlarning aqlida mujassamdir. Madaniyat kayfiyatni belgilaydi, agar u to'g'ri yo'naltirilsa, boshqa millatlarga hurmatga va boshqa madaniy erkinliklarga hurmatga o'z hissasini qo'shadi. 100 dan ortiq millat istiqomat qiladigan mamlakatda madaniy xilma-xillik mavjud bo'lib, u o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qudratli kuch bo'lishi mumkin. Bu shunday kuchlarki, ular jamiyatni uzoq muddatga ilg'or va jo'shqin qilishi mumkin.

* * *

Buyuk Ipak yo'li Sharq-u G'arbni bog'lab turgan, siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan voqelikdir. Uning tarixiy ahamiyatini hisobga olib birinchi marta Brussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan «Yevropa-Kavkaz-Osiyo» transport yo'lagi – TRASEKAni barpo etish masalasi ko'rib chiqildi va shu bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk Ipak yo'lini tiklash borasidagi dastlabki amaliy qadam bo'ldi. Darvoqe, tarixda Mashriqdan Mag'ribga, Mag'ribdan Mashriqqa o'tgan yo'llar ko'p bo'lgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra turlicha nomlangan. Jumladan, «Lazurit yo'li», keyinroq «Shoh yo'li», «Buyuk Ipak yo'li»... Bugun esa – TRASEKA deb atalmoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1998-yil 8-sentabr kuni Ozarbayjon poytaxtida ish boshlagan Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nafaqat unga ishtirokchi mamlakatlar, balki jahondagi boshqa davlatlar ham katta qiziqish bilan qaramoqda. Mazkur anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki kabi o'ndan oshiq nufuzli xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdi.

1996-yil Saraxsda Markaziy Osiyo bilan Eron temir yo'l tarmoqlarining tutashtirilgani TRASEKA loyihasini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo'lgan edi. Xuddi o'sha, 1996-yil 13-may kuni O'zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o'rtasida o'zaro erkin tranzit to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Buyog'i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho'zilgan ushbu qadim karvon yo'lining muhim

bo'lagidan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarf-xarajati kamayadi.

Birgina O'zbekiston uchun mazkur shartnoma kuchga kirganidan so'ng paxta tashishga ketadigan xarajatning 12 million dollari iqtisod qilinadi. Chunki TRASEKA shimoliy yo'nalishga nisbatan 2 ming kilometr qisqadir. Qolaversa, mintaqa iqlimi undan yil – o'n ikki oy to'xtovsiz foydalanish imkonini beradi. Yana bir misol: O'zbekiston o'z paxtasini, Qozog'iston va Rossiya orqali Ukraina portlariga yetkazish uchun tonnasiga 100 dollardan ziyod mablag' sarflaydi. TRASEKA orqali tashilganda esa ushbu ko'rsatkich 55 dollarni tashkil etadi, xolos.

TRASEKA loyihasining amalga oshishi O'zbekistonni Yevropa va Osiyo transport tarmoqlariga tutashtiribgina qolmasdan, uning eksport imkoniyatlarini oshiradi, loyihada ishtirok etuvchi mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yanada kengaytiradi. 1996-yil Transkavkaz yo'lagi bo'yicha O'zbekistonga keltirilgan va olib chiqib ketilgan mahsulot hajmi salkam 140 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil bu ko'rsatkich 285 ming tonnaga yetdi.

O'zbekiston bugun TRASEKA dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etish bilan cheklanib qolmay, transport kommunikatsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish borasida boshqa loyihalarni ham amalga oshirayotir. O'zbekiston qo'shni Qirg'iziston hamda Xitoy bilan Toshkent – Andijon – O'sh – Irkeshtom yo'lini qurish va ta'mirlash bo'yicha yaqindan hamkorlik qilayotir. Buyuk Ipak yo'lining bir qismi hisoblanmish bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarini Osiyo davlatlari bilan bog'laydi.

Konferensiyada ishtirok etgan davlatlar rahbarlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari TRASEKA yo'lagini rivojlantirish, transport infratuzilmalarini yanada takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, TRASEKA doirasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida o'z nuqtayi nazarlarini bayon qildilar. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning takliflari konferensiya ishtirokchilari tomonidan qizg'in kutib olindi.

Islom Karimov TRASEKA loyihasini amalga oshirish, umuman, qadimiy Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash zarurati ayrim kishilarning xohishidan emas, balki vaqt, sharoit, dunyoviy taraqqiyot talablari natijasida paydo bo'layotganini alohida ta'kidladi.

Qadim zamonlardayoq hayotning o'zi odamlarni o'zaro hamkorlik uchun qisqa va qulay yo'llarni qidirishga majbur qilgan, dedi Islom Karimov. Bunga faqatgina savdo-sotiq ehtiyoji emas, balki mustahkam iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarni o'rnatish zaruriyati ham sabab bo'lgan.

Ayrim kuchlar TRASEKA doirasidagi hamkorlikka siyosiy tus berishga harakat qilmoqda. Ularning maqsadlari aniq: o'zlaricha go'yoki dunyoning

yangidan bo'linishi va shunga o'xshash «o'yin»larni o'ylab topib, mamlakatlar, xalqlar o'rtasiga nifoq solish, taraqqiyotga to'siq bo'lish. Mamlakatimiz rahbari masalaning shu jihatiga e'tibor qaratib, bunday harakatlarga mutlaqo barham berish kerakligini aytdi. Shuningdek, Islom Karimov Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport yo'lagi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish, mazkur yo'nalishda joylashgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, qolaversa, millatlararo hamda davlatlararo muammolarni yechishda katta samara berajagini ta'kidladi.

Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. Mazkur loyihaga qo'shilishni istovchi mamlakatlar soni ham tobora oshib borayapti. TRASEKA dasturini amalga oshirishda Yevropadagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar yaqindan yordam ko'rsatyapti. Xo'sh, bularning hammasi nimadan dalolat beradi? Mazkur yo'lakdan Sharq ham, G'arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo'l ochiladi. Yevropa mamlakatlari uchun esa o'z mahsulotlarini Kavkaz va Markaziy Osiyo bozorlariga kiritish, mazkur mintaqalarda o'zlarining moliyaviy ishtirokini kuchaytirish imkoniyati tug'iladi.

Boku konferensiyasida TRASEKA loyihasini amalga oshirish bo'yicha hukumatlararo komissiyani tashkil etish, uning doimiy kotibiyatini ta'sis qilish va bosh qarorgohini Bokuda joylashtirish bo'yicha o'rtaga tashlangan taklif ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi. TRASEKA loyihasini amalga oshirishda uni mablag' bilan ta'minlash masalasi ham ishtirokchilar tomonidan atroflicha ko'rib chiqildi va TRASEKA banki tashkil etish taklifi bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Anjuman nihoyasida Yevropa – Kavkaz – Osiyo yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risidagi ko'p tomonlama Bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish, transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, anjumanda Boku Deklaratsiyasi hamda Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'yicha yakuniy Kommyunike qabul qilindi.

1998-yil 6-noyabr kuni Toshkentdagi «Interkontinental» mehmonxonasining Amir Temur zalida YuNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi.

155-sessiya 19-oktabr kuni Parijda ochilgan edi. Uning asosiy mavzusi «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi, eslamoq burchi va hushyorlik zaruriyati – qullikdan inson qadr-qimmatining tiklanishi sari», deb belgilangan edi. Sessiyada YuNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan qabul qilingan YuNESKO faoliyat dasturlarining bajarilishiga oid hisobot ma'ruzasi va turli tashkiliy masalalardan tashqari, dunyoviy madaniyat ravnaqiga bag'ishlangan uchta hujjat qabul qilinishi mo'ljallangan

edi. Birinchi hujjat BMT uchun mo'ljallangan dunyoviy madaniyat haqidagi jamlanma ma'ruza, ikkinchisi – «Dunyoviy madaniyat yo'lida» deb nomlangan sohalararo loyihaning baholanishi haqida edi va ular Parijdagi yig'ilishda qabul qilindi.

Uchinchi hujjat esa O'zbekiston tomonidan taklif qilingan «Dunyoviy madaniyat va YuNESKOning a'zo mamlakatlaridagi faoliyati» deb nomlangan qaror loyihasi bo'ldi.

O'zbekiston hukumatining taklifiga binoan Ijroiya Kengash qarorlari ro'yxatiga kiritilgan bu hujjat loyihasi 155-sessiyaning Toshkentda o'tadigan yakuniy yig'ilishida qabul qilinishi mo'ljallangan edi.

Sessiyaning yakuniy yig'ilishini YuNESKO Ijroiya Kengashi raisi Pal Pataki ochdi. Rais sessiya kun tartibiga O'zbekiston tomonidan kiritilgan hujjatning ahamiyati haqida gapirar ekan, uning dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib qolishini ta'kidladi. Shuningdek, hujjat muhokamasini O'zbekistonda o'tkazish taklifi ko'pchilik tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinganini qayd etdi.

Sessiyada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi.

YuNESKOning o'sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor sessiyaning yakuniy yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazish taklifini bildirgani uchun Prezident Islom Karimovga anjuman qatnashchilari va tashkilot nomidan minnatdorchilik izhor qildi.

«Men, – deb ta'kidladi o'z so'zida F. Mayor, – O'zbekiston xalqi boshidan kechirayotgan bugungi murakkab o'tish davrida fan va madaniyat, ma'naviyat ravnaqiga qo'shayotgan ulkan xizmatlaringiz uchun Sizga minnatdorchilik bildiraman. Chunki Siz ma'naviyatni tiklashdagina emas, uni yosh avlodga singdirishda ham katta xizmat qilmoqdasiz».

F. Mayor YuNESKO faoliyati haqida gapirib, uning tinchlikni saqlashda fan, ta'lim va madaniyatni asos qilib olgani O'zbekiston hukumati olib borayotgan siyosat bilan hamohang ekaniga e'tibor qaratdi. Prezident Islom Karimovning «Biz kelajakning poydevorini qo'ymoqdamiz», degan so'zlarini esladi va bunga misol qilib O'zbekistonda ta'lim, fan va ma'naviyat sohasida erishilgan yutuqlarni keltirdi. O'zbekiston tajribasi dunyoviy madaniyat shakllanishida muhim bo'g'inlardan biri bo'lishini qayd etdi.

YuNESKO bosh direktori tashkilotning Abu Ali ibn Sino nomidagi oltin medaliga sazovor bo'lgani bilan Islom Karimovni qutladi va oltin medalni O'zbekiston Prezidentiga topshirdi.

YuNESKOning Vatanimizda o'tkazilgan nufuzli xalqaro anjumani ham shu asosiy maqsad yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib qolishi, shubhasiz.

Zotan, ikkinchi jahon urushi olovining tafti hali bosilmagan olis 1945-yilning 16-noyabrida tuzilgan YuNESKO tashkiloti o'shandan buyon

ona sayyoramizda tinchlikni saqlash yo'lida samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu yo'lda YuNESKOning asosiy quroli ta'lim, fan va madaniyat sohasida insoniyat aql-zakovati erishgan yutuqlarni dunyo bo'ylab yoyishdan iborat bo'ldi.

Tabiiyki, ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti bo'lgan YuNESKO sessiyasi ishtirokchilarining aksariyati olimlardir. Ular Prezident Islom Karimov kitoblarini o'qib, uni shu mahalgacha faqat nazariyotchi sifatida bilganlarini, endi O'zbekiston bilan tanishib, bu yerda o'tkazilayotgan islohotlar va ularning ilk natijalaridan boxabar bo'lib, O'zbekiston Prezidenti faqat nazariyotchi emas, balki izchil amaliyotchi ham ekanligini e'tirof qiladilar.

Sessiya ishtirokchilaridan biri «O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovni kelgusi ming yillikning kishisidir, deya ishonch bilan ta'kidlayman», dedi.

Barcha ma'ruzalarda O'zbekiston qadimiy madaniyat beshiklaridan birigina emas, ayni chog'da xalqlarning tinch-totuv yashashi, ma'naviy merosga munosabat nuqtayi nazaridan bugungi zamon davlatlarining ko'piga o'rnak bo'larli jamiyat ham ekani qayd etildi.

Mavzuga doir material

O'zbekiston Prezidenti kotibi Varshavada taqdim etildi

O'zbekiston Respublikasining Polshadagi elchixonasida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning polyak tilida nashr etilgan «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi» kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Marosimda Polshaning rasmiy doiralari, ilmiy tadqiqot muassasalari, Varshavada akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy diplomatiya vakolatxonalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etdi.

Taqdimot davomida uning qatnashchilari «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi» asari bilan atroflicha tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Tadbirda so'zga chiqqanlar davlatimiz rahbarining ushbu kitobi yuzasidan o'zlarining mufassal tahliliy fikr-mulohazalarini bildirishar ekan, O'zbekistonda barqaror bozor munosabatlari va ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini tadrijiy ravishda hamda bosqichma-bosqich barpo etish maqsadida amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarning hozirgi holati va istiqbollarini yuqori baholashdi. Marosimda O'zbekiston rivojlanishi strategiyasiga muvofiq, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash bo'yicha maqsad va vazifalar birinchi darajali bo'lib qolaverishi yo'lining to'g'ri ekanligi bir necha bor ta'kidlandi.

Varshava universiteti huzuridagi Siyosiy fanlar institutining eksperti, siyosatshunoslik fanlari doktori A.Vejbitskiy o'z chiqishida ushbu kitobda bayon etilgan dalillar Markaziy Osiyodagi murakkab mintaqaviy vaziyat manzarasini yaqqol namoyon etishini aytdi. «Men xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasida O'zbekistonni Yevropa Ittifoqi hamda Polshaning muhim sherigi, deb bilaman. Bundan tashqari, O'zbekiston madaniyatning tarixiy beshiklaridan biri hisoblanadiki, bu gumanitar hamkorlikni mustahkamlashda muhim omildir», dedi polshalik olim.

Sharq tadqiqotlari markazining Kavkaz va Markaziy Osiyo bo'limi rahbari K.Straxota Polsha tahlilchilari doirasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur kitobidan mintaqaviy xavfsizlik, narkotik xavf-xatar hamda diniy ekstremizm bilan bog'liq barcha savollarga javob topishi mumkinligini alohida ta'kidladi.

* * *

BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil sentabr oyida o'tgan «Mingyillik sammiti»da davlatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko'plab takliflarni bildirdi. Xalqaro jamoatchilik e'tiborini yana bir bor Orol muammosiga qaratdi. Ta'kidlamoq joizki, Oroldagi vaziyat nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo mamlakatlarining ekologik muammosidir. Shundan kelib chiqqan holda, davlatimiz rahbari «Mingyillik sammiti»da ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, ushbu xayrli ishlarga xalqaro tashkilot va donor mamlakatlardan moliyaviy vositalar jalb etish maqsadida BMTning Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini tuzishni taklif qildi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999-yilgi Istanbul sammitida Prezident Islom Karimov BMT huzurida terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bu g'oyaning amaliy natijasi bo'ldi.

O'zbekiston ayni vaqtda BMTning mavjud 12 aksilterror konvensiyasiga hamda narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashga oid konvensiyalariga qo'shilgan. Bu yo'nalishdagi hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida 2000-yil 19-20-oktabr kunlari Toshketda BMT va VOSG bilan hamkorlikda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: giyohvand moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda umumiy yondashuv» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

2006-yilning sentabrida esa Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to'g'risida»gi shartnomani imzoladilar.

O'zbekiston rahbari Islom Karimov g'oyasining amaliy natijasi bo'lgan bu shartnoma mintaqamizda tinchlikni mustahkamlash va ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishdagi, pirovardida dunyoda yalpi yadroviy xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimiz BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan turli yo'nalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Bunda davlatimiz rahbari Islom Karimovning xalqaro integratsiyani kuchaytirish, barqarorlikni mustahkamlash va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan hamda tinchlikparvarlikka asoslangan izchil siyosati muhim omil bo'lmoqda.

Ayniqsa, YuNISEF va YuNESKO bilan aloqalar ko'lami keng. YuNISEF bilan hamkorlikda bolalar salomatligini mustahkamlash,

jumladan, ular orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, emlash, maktablar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tibbiy madaniyatni oshirish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etishni ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda.

YuNESKO – O'zbekiston madaniy hayotida yuz berayotgan jarayonlarning faol a'zosi. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, qadimiy shaharlarimiz va buyuk ajdodlarimizning yubiley tadbirlari bu xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda o'tkaziladi. O'tgan yili Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000, Qarshi shahrining 2700 yillik yubileylari nishonlangani bunga yorqin misoldir.

O'zbekiston – BMTning faol a'zolaridan. Zero, mamlakatimiz butun dunyoda tinchlikni qaror toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ko'plab xayrli ishlarning tashabbuskorlaridandir. Tashkilotning o'sha paytdagi Bosh kotibi Kofi Annan 2002-yil oktabrida yurtimizga tashrifi chog'ida O'zbekistonning jahonda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlariga yuqori baho berdi. Bu mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi yuksalib borayotganining yana bir tasdig'idir.

2-§. O'zbekiston va Rossiya munosabatlari: taraqqiyotining yangi bosqichi

O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi tomonidan 1992-yilning 20-martida tan olingan va o'sha kundan e'tiboran ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

Rossiya O'zbekiston munosabatlari, albatta, yaqin qo'shnichilik, bir necha asrlik yaqinlik an'analariga ega. Bu munosabat SSSR parchalanib ketgandan so'ng saqlanib qolindi, rivojlantirildi.

V.V.Putinning hokimiyat tepasiga kelishi bilan har ikki davlat munosabatlari yana ham chuqurlashdi. E'tiborli jihati shundaki, V.Putin davlat rahbari sifatidagi ilk rasmiy tashrifini O'zbekistonga amalga oshirgan edi. Bu hol Rossiya O'zbekistonni Markaziy Osiy mintaqasidagi strategik sherigi sifatida tan olganidan dalolatdir. Albatta, ikki tomonning milliy hamda mintaqaviy xavfsizlik masalalari borasida qarashlar yaqinligining ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Prezidenti Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ta'kidlaganidek, **«Rossiya bilan tarixan qaror topgan iqtisodiy, madaniy, do'stlik aloqalarimiz O'zbekiston uchun, qolaversa, butun mintaqamiz uchun hamisha muhim ahamiyat kasb etib kelgan.**

Shuni ta'kidlashni istardimki, tenglik, o'zaro manfaatdorlik asosiga qurilgan, ikki davlat orasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, strategik sheriklikni kuchaytirish uchun bugun yangi imkoniyatlar paydo

bo'layotgani har ikki tomon – Rossiya va O'zbekiston manfaatlariga ham mos keladi» (Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000, 347-bet).

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar quyidagi eng muhim hujjatlarga asoslangan – Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma (2005-yil 14-noyabr); Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risidagi Shartnoma (2004-yil 16-iyun); 1998-yil 12-oktabrda imzolangan 1998–2007-yillarda Iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Shartnoma. 1991-yildan hozirgi vaqtgacha ikki davlat o'rtasida 171 ta xalqaro shartnoma hamda 33 tadan ziyod boshqa hujatlar imzolangan.

2004-yildan boshlab ikki tomonlama munosabatlar jadal rivojlana boshladi.

2004-yilning 15-16-aprelida Prezident Islom Karimovning Rossiyaga amaliy tashrifi chog'ida ikki tomonlama munosabatlar, dolzarb xalqaro masalalar yuzasidan oshkora hamda samimiy muloqot bo'lib o'tdi.

2004-yil 16-iyunida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Toshkent sammiti doirasida I.A.Karimov va V.V.Putin o'rtasida bo'lib o'tgan ikki tomonlama uchrashuv chog'ida Strategik sherikchilik to'g'risidagi Shartnoma imzolandi.

O'zbekiston – Rossiya o'rtasida oliy darajadagi muloqot Prezident Islom Karimovning 2004-yil 2-3-iyulida Rossiyaga qilgan safari, MDH davlat boshliqlari Kengashining 2004-yil 16-sentabrdagi Ostona shahridagi hamda prezident V.Putin rahbarligidagi Rossiya delegatsiyasi to'laqonli a'zo sifatida ilk bor ishtirok etgan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashkilotining 2004-yilning 18-oktabrida Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan sammitlari chog'ida davom ettirildi.

2005-yilning 7-8-may kunlari Prezident I.A.Karimov MDHning Moskva shahrida bo'lib o'tgan norasmiy sammitida ishtirok etdi.

2005-yilning 27–29-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi bo'lib o'tdi.

2005-yilning 26-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov MHD davlat rahbarlari Kengashining yig'ilishi hamda Qozon shahrining 1000 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan anjumanda ishtirok etdi.

2005-yilning 6-7-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Markaziy Osiyo davlatlari tashkiloti davlat rahbarlari Kengashining Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan yig'ilishida ishtirok etdi.

O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan Yevroosiyo makonida iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish hamda taraqqiyotga ko'maklashish maqsadida Yevroosiyo hamkorligi tashkilotini Yevroosiyo

iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzES) bilan qo'shish to'g'risida qaror qabul qilindi. Sammit doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Federatsiya Prezidenti V.V.Putin bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston – Rossiya munosabatlarining istiqbollari muhokama etildi. Rossiya rahbari O'zbekistonning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutayotganini ta'kidlab o'tdi. O'zbekiston rahbari, o'z navbatida, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik tamoyillari asosida rivojlanib borayotgani va «do'st musibatda sinaladi» xalq maqoliga tayangan Rossiya siyosatini O'zbekiston yuksak qadrlashini uqtirdi. Uchrashuv chog'ida tomonlarni qiziqtirgan xalqaro hamda mintaqaviy masalalar bo'yicha fikr almashildi.

2005-yilning 14-15-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif chog'ida ikki tomonlama aloqalarni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma imzolandi.

Ushbu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasiga ko'tarilganining ifodasi bo'ldi. Boshqacha aytganda, endilikda sho'rolar amaliyoti davridagidan tubdan farq qiladigan yangi falsafiy yondashuvga, jumladan, strategik istiqbolga ega bo'lgan umumiy manfaatlarning inobatga olinishiga asoslangan ittifoqchilik munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratdi.

So'nggi yillarda Rossiya – O'zbekiston munosabatlari ikki davlat rahbari – Islom Karimov va Vladimir Putinning siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli jadal va izchil rivojlanib bormoqda. Bunday tendensiya nafaqat siyosiy muloqot, balki savdo-iqtisodiy, harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorlik, gumanitar hamda madaniy sohalarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, ittifoqchilik shartnomasini tayyorlash bo'yicha amaliy faoliyat bir necha yil ilgari boshlanib, 1999-yilning 11-dekabrida Harbiy va harbiy-texnikaviy sohada har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi Shartnoma hamda 2004-yilning iyunida imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnoma ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yanada yaqinlashuvida muhim bosqich vazifasini o'tagan edi. Jumladan, strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomada global tahdidlar, birinchi galda, terrorizm va diniy ekstremizm kabi xavf-xatarlarni nazarda tutgan holda strategik sheriklikni amalga oshirish zarur ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, ushbu hujjatda harbiy hamkorlik to'g'risida ham batafsil so'z yuritiladi. Chunonchi, unda har ikki mamlakat yoki birining manfaatlariga tahdid soladigan vaziyat vujudga kelgan taqdirda, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilab qo'yilgan. Bir so'z bilan

aytganda, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida imzolangan mazkur ittifoqchilik shartnomasi ikki mustaqil davlat va xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi jarayonining mantiqiy bosqichidir.

Yangi shartnoma tufayli Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar tom ma'noda ittifoqchilik mazmuniga ega bo'lmoqda. Endilikda O'zbekistonga nisbatan agressiv xatti-harakatlar dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri – Rossiyaga qarshi tajovuzni anglatadi. Masalan, ittifoqchilik haqidagi shartnomaning 2-bandida ta'kidlanishicha, «taraflardan biri qarshi muayyan davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan sodir etilgan agressiya har ikki tomonga sodir etilgan tajovuz hisoblanadi». Ushbu hujjatda tinchlikka xavf solishi yoki taraflardan birining xavfsizligiga raxna qilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini kelishgan holda birgalikda amalga oshirish zarurligi haqidagi qoidalari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zidan ayonki, bu o'rinda so'z, avvalo, terroristik tahdidlar haqida bormoqda. Bu xatar qanchalik jiddiy ekanini Andijon shahrida yuz bergan qonli voqealar, xususan, xorijdan moliyalashtirilgan bir guruh teroristlar tomonidan O'zbekistondagi konstitutsion tuzumni ag'darib, o'rta asr xalifaligini o'rnatishga urinishlarini yaqqol namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ushbu voqealar munosabati bilan bergan intervyusida **«Andijondagi fojiani amalga oshirgan kuchlar ko'zlagan maqsadidan qaytmayotgani, xalqaro maydonda biz haqimizda turli mish-mishlarni tarqatayotgani, buzg'unchi g'oyalarni ilgari surayotgani – barchamizdan atrofdagi voqealarga loqayd bo'lmaslik va ogoh bo'lishni taqozo etmoqda»** («Народное слово», 2005-yil 17-noyabr).

Rossiya Prezidenti V.Putin, o'z navbatida ta'kidlaganidek, «Shartnoma ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni mutlaqo yangi sifat darajasiga ko'taradi. Rossiya va O'zbekiston mintaqada barqarorlik va taraqqiyotga erishish yo'lida kuchlari, zaxiralari, ulkan gumanitar salohiyatlarini birlashtirmoqda» («Народное слово», 2005-yil 23-noyabr).

Shartnomaning iqtisodiy jihatlari ham e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalar yanada yuqoriroq bosqichga ko'tarildi, ikki mamlakat tadbirkorlariga qo'shimcha imtiyozlar yaratildi, o'zaro hamkorlikning turli sohalaridagi to'siqlar bartaraf etildi. Ta'kidlash joizki, Moskvada imzolangan mazkur shartnoma har ikki tomon uchun teng huquqli va o'zaro foydalidir. Masalan, uning O'zbekiston xavfsizligini ta'minlash, mahalliy korxona va tadbirkorlarning ulkan Rossiya bozoriga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgani uning naqadar katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Binobarin, Rossiya Federatsiyasi uchun ham ushbu shartnomaning ahamiyati beqiyosdir. Deylik, chegarani tan olmaydigan tez tarqalib borayotgan terrorizmga qarshi birgalikda kurashish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at,

sog'liqni saqlash, ta'lim va fan kabi sohalarda ikki tomonlama aloqalarning rivojlanishidan Rossiya ham shubhasiz manfaatdordir.

Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi oliy darajadagi aloqalarning, ayniqsa, parlamentlararo munosabatlar rivojiga ijobiy ta'sir etdi. Hozirgi davrda ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi aloqalar, birinchi galda, qonunchilik faoliyati, delegatsiyalar almashuvi sohasida izchil rivojlanib bormoqda. 2005-yilning 18–20-mayida Rossiya Davlat Dumasining MHD hamda vatandoshlar bilan aloqalar qo'mitasi raisi A.Kokoshin rahbarligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida parlament maslahatlashuvlarini ortiqcha rasmiyatchiliksiz jadallashtirish masalasi muhokama etildi.

2005-yilning noyabrida Rossiya Federal Majlisi Federatsiya Kengashining MHD ishlari bo'yicha qo'mitasi raisi V.Gustov O'zbekistonga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 14-15-noyabrida RF qilgan rasmiy tashrifi mamlakat siyosiy doiralari, Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi hamda Federatsiya Kengashida katta qiziqish uyg'otganini e'tirof etdi. U strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasi o'laroq, ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnomaning imzolanishi Rossiyada ijobiy baholanganini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiya Federatsiyasiga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakatning yoqilg'i-energetika sohasida hamkorligini rivojlantirish masalalari muhokama etildi («Народное слово», 2005-yil 22-noyabr). Mamlakatimizda ish yuritayotgan «Газпром» OAJning Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi operatori – «Зарубежнефтегаз» YAJ faoliyati ana shunday hamkorlikning yorqin namunasidir. Ittifoqchilik shartnomasining sakkizinchi bandida ta'kidlanganidek, tomonlar mavjud xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish borasida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bunday huquqiy me'yorning mavjudligi O'zbekiston va Rossiya ishbilarmon sheriklar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, ularni yanada samarali o'zaro foydali bo'lishiga xizmat qiladi.

Ana shunday hamkorlikka misol tariqasida 2004-yilning aprelida «O'zbekneftegaz» xolding kompaniyasi hamda «Зарубежнефтегаз» va «Gaz Projekt Developmen Central Asia AG» kompaniyasidan iborat konsorsium o'rtasida «Shaxpaxti» konida qo'shimcha qidiruv ishlari bo'yicha mahsulotni bo'lib olish haqidagi Bitimga binoan tashkil etilgan «Зарубежнефтегаз – GPD – Markaziy Osiyo» kompaniyasini keltirish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, ushbu kompaniya mamlakatimiz parlamenti tomonidan «Mahsulotni bo'lib olish bitimlari to'g'risida»gi

Qonun qabul qilingandan keyin paydo bo'lgan dastlabki kompaniya hisoblanadi. «Shaxpaxti» konida mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha loyiha 15 yilga mo'ljallangan. Shunday qilib, bir vaqtdan to'xtatib qo'yilgan gaz konida jadal ish boshlanib ketdi: 2005 yilning noyabrigacha 230 million kubometrdan ko'proq gaz ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari, «Зарубежнефтегаз» kompaniyasi «Gazprom» OAJ boshqaruvi raisi A.Millerning 2005-yil sentabrida O'zbekistonga qilgan tashrifi chog'ida imzolangan 2006–2010-yillarga mo'ljallangan O'rta muddatli bitim doirasidagi kelishuvlarga ko'ra, gazni to'xtovsiz yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida mamlakatimizdagi 3000 kilometr gaztransport tizimlarida kompleks diagnostika ishlarini amalga oshirdi, «O'zbekneftegaz» kompaniyasiga asbob-uskuna yetkazib berdi, «Markaziy Osiyo – Markaz» gazoprovodini modernizatsiya qilish, qayta jihozlash va kengaytirish uchun uning holatini baholash ishlarida ishtirok etib kelmoqda. Ushbu kelishuvlarning hayotga tatbiq etilishi, xususan, Ustyurt mintaqasida investitsiya hajmi qariyb bir milliard dollarni tashkil etgan yirik gaz konini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali «Gazprom» va «O'zbekneftegaz» o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishga keng imkoniyat tug'ilmoqda. Bitimning mahsulotni bo'lib olish haqidagi shartlariga ko'ra, tabiiy gazning bir qismini O'zbekiston tasarruf etadi. Investitsiyalar hamda mazkur konni o'zlashtirilishi tufayli mintaqada zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi aholi punktlari, minglab yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Mazkur loyihalarga jalb etiladigan ko'plab korxona va tashkilotlar qo'shimcha ish hajmiga ega bo'ladi. Muhimi shundaki, loyiha muddati tugagunga qadar, uning doirasida qurilgan va tashkil etilgan barcha moddiy boyliklar O'zbekistonda qoladi. Bundan tashqari, ushbu loyihalarni amalga oshirish borasidagi faoliyat mahalliy budjetlarga mintaqani rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan majburiy soliq va to'lovlar evaziga qo'shimcha daromad keltiradi («Народное слово», 2005-yil 22-noyabr).

Ekspertlarning taxminiga ko'ra, yaqin 15 yilda energiya iste'moli dunyo miqyosida uchdan biriga, 2025-yilda esa – 45 foizga ko'payadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilga borib neftga bo'lgan talab 42 foizga, gazga esa 60 foizga oshishi mumkin ekan. Ma'lumki, bu iqtisodiy masaladan ko'ra ko'proq siyosiy masaladir. Chunki energetika zaxiralariga egalik qilganlar nafaqat jahon bozorlarida, balki siyosiy munosabatlar sohasida ham hukmronlik qiladi. Shu bois rivojlangan yoqilg'i-energetika, neft va tabiiy gaz zaxiralariga ega mamlakatlar bilan(xususan, O'zbekiston bilan) o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari ham geoiqtisodiy, ham geosiyosiy jihatdan g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya va O'zbekiston o'rtasida energetika sohasida hamkorlikning rivojlantirilishi, neftegaz sektoriga investitsiyalar, yangi texnologiya va ilg'or tajribaning jalb etilishi har ikki mamlakat milliy iqtisodiyotini taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko'tarilishiga xizmat qilishi shubhasizdir. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda mazkur sohani rivojlantirishda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Eng muhim yutuqlardan biri shundaki, 1995-yildayoq mamlakatimiz neft mustaqilligiga erishdi. Bugungi kunga kelib, respublikada yiliga 60 milliard kubometr tabiiy gaz hamda 6 million tonnaga yaqin suyuq uglevodorodlar ishlab chiqarilmoqda. Mamlakat ichki ehtiyojlarini to'liq qondirayotgan mazkur tarmoqning eksport salohiyati tobora mustahkamlanib bormoqda. Masalan, 2005-yilda «O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasi 770 million AQSH dollari hajmida mahsulot eksport qildi. 477,15 million dollarlik tabiiy gazdan tashqari, xorijiy buyurtmachilarga qariyb 95 million dollarlik neft mahsulotlari, 10 million dollarga yaqin suyultirilgan gaz, 73 million dollarlik polietilen yetkazib berildi. Mamlakatimizda magistral gaz quvurlarining keng tarmog'i mavjud bo'lgani tufayli (13 ming kilometrdan ziyod) faqat 2005-yilning o'zida tabiiy gaz tranziti uchun 118 milliondan ortiq AQSH dollari olishga muvaffaq bo'lindi.

Albatta, tarmoqni yanada rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish neft va gaz ishlab chiqarilishini, jumladan, yangi konlarni ochish va o'zlashtirish evaziga ko'paytirishni taqozo etadi. Masalan, hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 190 uglevodorod xomashyosi konlarining 90 tasida mahsulot ishlab chiqarilmoqda, 67 tasi o'zlashtirishga tayyorlangan, 33 ta konda esa geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Boshqacha aytganda, bu tarmoqdagi ulkan imkoniyatlarni mamlakat va xalq manfaatlariga yo'naltirish uchun imkon boricha tezroq yangi konlarni ishga tushirish zarur. Albatta, buning uchun katta sarmoya kerak. Bu o'rinda «O'zbekneftegaz» kompaniyasining hissasidan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-mayda qabul qilgan farmoniga binoan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot Fondi mablag'larining bir qismi ham shu sohaga yo'naltiriladi. Mazkur fond iqtisodiyotning yetakchi sohalari, jumladan, neftegaz tarmog'ini modernizatsiya qilish va texnologik jihatda qayta jihozlash maqsadida tashkil etilgan. Tabiiyki, bu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti, shuningdek, «Gazprom» va «Lukoyl» kabi yirik kompaniyalar bilan ijobiy hamkorlik tajribasi (bu ikki kompaniyaning O'zbekistondagi investitsiyalari ikki milliard AQSH dollari miqdorida baholanmoqda) bu sohaning istiqboli porloq ekanidan dalolat beradi.

O'zbekistondagi foydali qazilmalar zaxirasi qariyb 11 trillion dollar miqdorida baholanmoqda. Jahon tajribasi qazilma boyliklarni ishlab chiqarishda o'zaro manfaatli hamkorlik katta samara berishidan dalolat beradi. Zero bu xomashyoni ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish imkonini yaratadigan ham investitsiya, ham zamonaviy asbob-uskuna, ham yangi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi («Народное слово», 2006-yil 23-may).

O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi ittifoqchilik shartnomasining imzolanishi arafasida va undan keyingi davrda, ayniqsa parlamentlararo munosabatlarda jadal rivojlanmoqda. Rossiya senatorlarining fikricha, bunday aloqalar zamonaviy tahdidlarga birgalikda kurash olib borishga ko'maklashadi.

2006-yilning 13-14-fevral kunlari Rossiya Federal Majlisi Davlat Dumasi raisi Boris Grizlov rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. 2006-yilning 12–16-martida Rossiya Davlat Dumasining MDH va vatandoshlar bilan aloqalar qo'mitasi raisi A.Kokoshinning O'zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. O'sha yilning aprel oyida Rossiya Federal Majlisi Federatsiya Kengashi raisi Sergey Mironov rahbarligidagi delegatsiya O'zbekistonda mehmon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yil may oyida Rossiyada bo'lgan chog'ida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratilgan edi. «Ko'pgina mamlakatlarda bunday obyektlar allaqachon xususiylashtirilgan, – dedi Prezident Islom Karimov. – O'zbekistonning boshqa davlatlardan farqi shundaki, bizda xususiylashtirish masalasida shoshqaloqlikka yo'l qo'yilmadi. Shu bois Rossiya kompaniyalari mamlakatimizdagi xususiylashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishi mumkin».

Bo'lib o'tgan muzokaralarda Markaziy Osiyoda xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama etildi. Bu haqda Prezident Islom Karimov shunday deydi: «Mintaqadagi barqarorlik shunchaki diqqat-e'tiborni emas, jiddiy fikr almashishni talab etadi. Mintaqadan tashqaridagi turli maqsadlarni ko'zlab harakat qilayotgan ayrim kuchlarning ishtiroki bilan paydo bo'layotgan tahdidlar mintaqaviy integratsiyalashuv masalalarining dolzarblashuviga sabab bo'layotir». Mamlakatimiz rahbari Rossiya prezidentining Federal Majlisga taqdim etgan maktubi haqida to'xtalib, uning mazmuni boy ekanini ta'kidladi.

Prezident Islom Karimov 2006-yil 9-may kuni Toshkentdagi Xotira maydonida jurnalistlar bilan suhbatda O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida tuzilgan ittifoqchilik shartnomasi mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, deb ishonch bildirdi.

Darhaqiqat ushbu hujjat ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qilib, tinch-osoyishta hayot kafolati bo'ladi, kelajakka ishonch bilan boqish imkonini yaratadi. Prezident Islom Karimov 2006-yil 6-martda «O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ittifoqchilik shartnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi Qonunga imzo chekdi. O'z navbatida, Prezident V.Putin ham Sochidagi uchrashuv arafasida mazkur ratifikat-siya qilish to'g'risidagi qonunni imzoladi. Shundan e'tiboran qonun to'liq kuchga kirdi.

Markaziy Osiyo mintaqasi va uning atrofida ro'y berayotgan jarayonlar xavfsizlik va barqarorlikni, siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashni taqozo etmoqda. Shu ma'noda, yuqorida tilga olingan shartnoma O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur shartnoma Rossiya uchun ham g'oyat ahamiyatlidir. Zero u ikki tomonlama hamkorlik negiziga tayanib, Rossiyaning janubiy chegaralari xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi («Народное слово», 2006-yil 13-may). Shu bilan birga, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan tashqi siyosiy faoliyatda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Pokiston bilan do'stona aloqalar o'rnatishga harakat qilayotgani O'zbekistonning umumiy xavfsizlik va barqarorlikka intilayotganidan dalolat beradi.

Ushbu shartnoma ko'plab masalalarni qamrab olgan. U siyosiy, harbiy, harbiy-texnikaviy hamkorlik, Qurolli Kuchlarni modernizatsiya va isloh etish bilangina cheklanib qolmaydi. Unda ikki tomonlama hamkorlikning boshqa jihatlari ham aks ettirilgan. Ular qatorida savdo-iqtisodiy munosabatlar, telekommunikatsiya, energetika, sug'urta va bank-moliya sohasi, xalqaro transport infratuzilmalaridan o'zaro samarali foydalanish kabi sohalarni keltirish mumkin. 2005-yil natijalari Rossiya savdo sohasida O'zbekistonning asosiy sherigiga aylanganini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz dunyodagi ko'plab davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ygan bo'lsa-da, umumiy mahsulot ayirboshlashning 21 foizi Rossiya ulushiga to'g'ri keladi.

2005-yilda ushbu mamlakatga eksport hajmi 41,6 foizga oshib, 1.026,5 AQSH dollarini tashkil etdi. Rossiyadan import hajmi esa 12,7 foizga oshib, 1.034 million dollarni tashkil qildi. O'zbekiston gaz ishlab chiqarish bo'yicha MHD orasida uchinchi, dunyo miqyosida esa o'nta eng yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan.

Ta'kidlash joizki, ikki tomonlama savdo aloqalarida ijobiy o'zgarishlar, xususan, so'ngi olti yil mobaynida mahsulot ayirboshlash ko'rsatkich-larining uzluksiz oshib borishi 1998-yilda Rossiyada ro'y bergan iqtisodiy inqiroz bartaraf etilgandan keyin ko'zga tashlana boshladi.

2004-yilda ikki mamlakat o'rtasida mahsulot ayirboshlash 2003-yilga nisbatan 42,9 foizga oshib, 1641,9 mln. AQSH dollarini, O'zbekistondan Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmi 57,8 foizga oshib, 724,8 mln. AQSH

dollarini, Rossiyadan import esa 33,7 foizga ko'payib, 917,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

2004-yilda savdodagi ijobiy saldo tufayli 2003-yildagi salbiy saldoni qariyb 38 mln. AQSH dollari miqdorida qisqartirilishiga erishildi.

O'zaro savdodagi eksport va import tarkibi asosan mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat qilmaydigan mahsulotlardan tashkil topgan(odatda ichki bozorlarda talab yuqori bo'lgan avtomobillar bundan mustasno).

Yuqoridagilardan xulosa qilib, ikki tomonlama savdo istiqbolda savdo to'siqlariga yo'l qo'ymaydigan o'zaro manfaatli asosda amalga oshirilayotganini qayd etish mumkin.

Mamlakatimizda Rossiya sarmoyasining ishtirokida tashkil etilgan korxonalar hamda Rossiya kompaniya va firmalarining akkreditatsiya qilingan vakolatxonalari soni ko'payib bormoqda. Masalan, 2003-yilda Rossiya sarmoyasi ishtirokida mamlakatimizda 309 ta korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2004-yilda ularni soni 390 taga yetgan. Ulardan 54 tasi yuz foiz Rosssiya investitsiyasi asosida faoliyat yuritadi, 295 tasi esa – qo'shma korxonalardir.

O'zbekiston mintaqalari nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, faoliyat yuritayotgan korxonalar asosan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon hamda Farg'ona viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagi sohalarni qamrab oladi: oziq-ovqat, tekstil, yog'ochni qayta ishlash, kimyo-farmatsevtika, metallurgiya, mashinasozlik, avtomobilsozlik, yoqilg'i-energetika, qishloq xo'jaligi hamda O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida birgalikda mahsulot ishlab chiqarish, savdo-vositachilik faoliyati.

Keyingi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida kooperatsiyani mustahkamlash jarayonlari ko'zga tashlanmoqda. Ayni paytda bu sohada «Baltimor», «Cherkizovo» va boshqa mashhur Rossiya kompaniyalari bilan tashkil qilingan to'qqizta qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. «Bim Bill Dan» kompaniyasi «Toshkentsut» birlashmasining 77 foiz aksiyasini sotib olish to'g'risidagi shartnomani imzolab, sut mahsulotlari va meva sharbatini ishlab chiqarishga 20 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni mo'ljallagan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida o'zbekistonlik rezidentlar tomonidan Rossiyada tashkil etilgan 276 ta korxona ro'yxatga olingan. Shuningdek, ushbu vazirlikda 83 ta Rossiya kompaniya va firmalarining O'zbekistondagi vakolatxonalari ochilgan.

Bundan tashqari, doimiy asosda MPKning yig'ilishlari o'tkazilib turibdi. 2005-yilning 10–12 oktabrida MPKning Toshkentda bo'lib o'tgan navbatdagi 8-yig'ilishida ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirish masalalari muhokama etildi.

2005-yilning 9-10-yanvarida Rossiya Federatsiyasining Sanoat bo'yicha federal agentligi boshlig'i B.S.Alyoshin rahbarligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Muzokaralar chog'ida asosan aviasozlik va neftegaz sanoati sohasida ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokama etildi. Shuningdek, tashrif chog'ida 2005-yil natijalariga ko'ra, ikki tomonlama mahsulot ayirboshlash hajmi so'nggi o'n yil mobaynida eng yuksak ko'rsatkich — 2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgani alohida ta'kidlandi.

Rossiya Federatsiyasida «O'zbekiston» savdo uyining ochilishi ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. 2005-yilning 19-dekabrida Toshkentda Rus Savdo uyining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Uning asosiy faoliyati RF Sibir mintaqasining iqtisodiy salohiyatini O'zbekistondan keltirilayotgan mahsulotlar bilan o'zaro manfaatli jihatlarini namoyish etishdir.

Mamlakatimizning Rossiya bilan yoqilg'i-energetika sohasidagi investitsion hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. 2005-yilda Rossiya O'zbekistondan 8,115 milliard kubometr gaz sotib olgan. «O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniya hamda «Gazprom» va «Lukoyl» OAJ bilan imzolangan hujjatlarda mamlakatimiz neftegaz sohasiga 2,5 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritish ko'zda tutilgan. «Техспессталинжиниринг» (Sankt-Peterburg) hamda Chkalov nomidagi Toshkent avisozlik ishlab chiqarish birlashmasi o'rtasida 2008-yilgacha 30 ta IL-114 samolyotlarini import qilish to'g'risida kontrakt tuzilgan. E'tiborli jihati shundaki, Rossiya Harbiy-dengiz kuchlari va «Виборг» aviakompaniyasi dunyodagi eng yirik beshta samolyotsozlik majmualari qatoridan o'rin olgan «TAPOICH» DAJ tomonidan ishlab chiqarilgan bir necha samolyotdan samarali foydalanib kelmoqda.

2006-yilning birinchi choragida mahsulot ayirboshlash hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 foizga oshgan va 402 mln. AQSH dollarini tashkil etgan («Народное слово», 2006-yil 16-may).

Ikki mamlakat o'rtasida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ham o'nlab oliy o'quv yurtlari o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, bunday hamkorlik iqtisodiyot, servis, tibbiyot, boshqaruv, tilshunoslik, pedagogika, qishloq xo'jaligi, informatika va yangi sanoat texnologiyalari sohasida yuksak malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlanmoqda. Ayni paytda Toshkentda MDU hamda Plexanov nomidagi Moliya akademiyasining filiallari tashkil etilib, muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 676 maktabda rus tilida dars olib boriladi, ularda 250 ming o'quvchi ta'lim olmoqda.

Mustaqillik yillari respublika kutubxonalari yangi adabiyotlar bilan boyitildi. Respublikada har yili rus tilida 1,0—1,2 mln. adadda 40—45

nomda darslik va qo'llanmalar nashr qilinadi. Rus tilida 85 ta gazeta va 52 ta jurnal chop etiladi.

Ikki mamlakat fan, madaniyat va jamoat arboblarining tashabbusi bilan 2004-yilning mart oyida Moskvada o'zbek xalqining boy madaniy-tarixiy merosini targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan «O'zbekiston madaniyati va san'ati Fondi»ning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ikki mamlakatning taniqli san'at va madaniyat arboblarining uchrashuvlari, milliy teatrlar gastrollari hamda musavvirlar ko'rgazmalari doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hamda Rossiya Federatsiyasi o'rtasida gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantirish Kompleks dasturi loyihasi tayyorlanmoqda.

Toshkentda Rossiya hukumati huzuridagi xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik Rossiya markazining vakolatxonasi («Росза-рубецентр») faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston bu sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan turli tadbirlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Shu ma'noda, 2005-yilning noyabrida O'zbekiston – Rossiya madaniy hamkorligining 2005-2006-yillarga mo'ljallangan Dasturining imzolangani bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi.

Bundan tashqari, ikki mamlakat Fanlar akademiyalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo'mitasi bilan birgalikda Suffa platosida radiastronomiya observatoriyasini qurish rejalashtirilayotgani ham e'tiborga loyiqdir.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalarga tayanib, O'zbekiston–Rossiya munosabatlari har qachongidan mustahkamlanib borayotganini ta'kidlash mumkin. Ittifoqchilik shartnomasi ikki mamlakat o'rtasidagi yaqin hamkorlik munosabatlarining ishonchli kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli rus siyosatshunosi A.Migranyanning ta'kidlashicha, Rossiya bilan ittifoqchilik aloqalari O'zbekiston xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini yuqori darajada ta'minlaydi («Правда востока», 2005-yil 23-noyabr). Uning fikricha, ikki mamlakatning o'zaro yaqinlashuvi postsovet makonida bir talay omillar bilan belgilangan taraqqiyot tendensiyalarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berayotganidan dalolat beradi. Olimning ta'kidlashicha, postsovet makonda integratsiya jarayonlarining yangi bosqichi ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada (YevrAzES), jumladan, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida sifat jihatidan mutlaqo yangi munosabatlar vujudga kelayotgani anglab yetilayotganidan darak berayotir.

3-§. O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi o'rni va mavqeining oshib borishi

O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi mamlakatlar bilan o'zaro teng manfaatli aloqalarni mustahkamlash bo'ldi. Chunki sho'ro tuzumi sharoitida hukm surgan boshqaruvning markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik usuli, mustabidlik siyosati sobiq ittifoq tarkibiga kirgan mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga shunday bog'lab qo'ygan ediki, natijada ular o'zaro qaramlik domiga tushib qolgan edilar. Shuning uchun sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlar buni chuqur his qilar va mavjud qiyinchiliklar hamda iqtisodiy inqirozdan chiqishning, mustabid siyosat asoratidan qutulishning birdan-bir yo'li bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilish edi. Ana shu nuqtayi nazardan ham O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi g'oyasini qo'llab-quvvatladi.

1991-yil 21-dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina davlatlari boshliqlari Almatida uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos soldilar. Shu tariqa XX asrning muhim voqealaridan biri sodir bo'ldi – MDH ixtiyoriy iqtisodiy uyushma yuzaga keldi. Shundan buyon MDHning bir necha yig'ilishlari o'tkazildi, ko'p hujjatlar qabul qilindi. Ularning bari uzoq yillar bir davlat bo'lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda – mustaqil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi.

Hamdo'stlik davlatlari orasida eng qudratli, katta salohiyat va ulkan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmish Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. Shuning uchun ham Prezident I.Karimov **«Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhimdir. Va biz bu maqsadimizga erishish uchun bor kuchimiz va imkoniyatlarimizni ayamaymiz»**, – degan edi.

1992-yil 25-mayda Toshkentda MDHga a'zo davlatlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Hamdo'stlik doirasida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbusi bilan chiqdi va ana shu muhim masalaga doir shartnoma imzolandi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lib kirgan mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada 1992-yil 30-mayda Rossiya

Prezidenti B.N.Yelsin taklifiga binoan O'zbekiston rasmiy delegatsiyasining Moskvaga qilgan tashrifi, muzokaralar, uchrashuvlar, imzolangan hujjatlar – o'zaro hurmat va bir-birini qo'llab-quvvatlash siyosatining timsoli bo'ldi. Bu kechagina mustamlaka, tayyor va beminnat xomashyo bazasi bo'lgan mamlakat bilan bugungi munosabatning naqadar o'zgachaligi, jiddiy siyosiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu kuni Prezidentlar B.Yelsin va I.Karimovlar ikki mamlakat o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Ushbu uchrashuv yakuni haqida mulohaza yuritar ekan, Islom Karimov «eng quvonchli jihati shuki, bu muhim voqeani ham rus, ham o'zbek xalqi katta xursandchilik va mamnuniyat bilan kutib oldi.

O'zbekiston – Rossiya o'rtasidagi teng huquqli hamkorlik, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar istiqlolning keyingi yillarida ham davom etadi», – dedi.

1995-yil 27-28-iyun kunlari Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Viktor Chernomirdinning O'zbekistonga rasmiy tashrifi, Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri, keyinchalik Rossiya Hukumati Raisi bo'lib ishlagan Yevgeniy Primakovning respublikamizga ketma-ket tashriflari, 1998-yil 11-12-oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Boris Yelsinning davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'lishi yoki 1999-yil 10-11-dekabr kunlari Rossiya Hukumati raisi, hozir Rossiya Federativ Prezidenti Vladimir Putinning mamlakatimizga rasmiy tashrifi Rossiyaning O'zbekiston bilan teng huquqli sherik sifatida hamkorlik qilishga qaratilgan siyosat olib borayotganligidan dalolat berib turibdi.

O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari ichida Ukraina va Belorus respublikalari bilan ham hamkorlik va do'stona munosabatlar o'rnatishga alohida e'tibor bermoqda. Chunki, bu har ikki davlat ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy imkoniyatlari, tarixiy tajriba va zamonaviy taraqqiyot omillari bilan MDH doirasidagi davlatlar o'rtasida katta nufuzga ega.

1994-yil 10-noyabrda Kiyev shahrida O'zbekiston respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik sanoat (shu jumladan samolyotsozlik, yengil sanoat) energetika, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, mineral xomashyo qazib olish va uni qayta ishlash, fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlarida, shuningdek, turizm va ekologiya sohalarini o'z ichiga oladi. O'sha kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Unga ko'ra har ikki tomon bir-birini madaniyati bilan tanishish uchun imkon yaratib beradi, O'zbekiston va Ukraina xalqlarining ko'p asrlik va madaniy aloqalariga tayanib, ular o'rtasidagi madaniyat va san'at sohasidagi

hamkorlikni bundan keyin ham rivojlantirishga ko'maklashadilar, deb ta'kidlandi. Ayni chog'da, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'rtasida daromadlar va mulklarga ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ham bitim imzolandi.

O'zbekiston – Ukraina munosabatlari yanada rivojlana bordi. 1995-yil 20-iyunda Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keldi. Do'rmon Qarorgohida bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston va Ukraina o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari Xalqlar Do'stligi saroyida davom ettirildi. Bu yerda O'zbek – Ukrain hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'z munosabatlarini uzoq muddatli umumiy manfaatdorlikka ega do'st davlatlar tarzida rivojlantirishni mo'ljallaydi», deb yozib qo'yildi. Shuningdek, muzokaralar davomida O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaning 1-moddasida «tomonlar iqtisodiy islohotlarni o'tkazish jarayonida harakatlarni muvofiqlashtiradilar, O'zbekiston Respublikasi va Ukrainaning hamma shakldagi mulkchilik xo'jalik subyektlari, viloyatlari hamda mintaqaviy tuzilmalari o'rtasida o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolishi va rivojlanishiga ko'maklashadilar», – deb aniq aytildi.

21-iyun kuni har ikki davlat munosabatlarini yanada yaxshilashga qaratilgan hujjatlar qabul qilingandan so'ng Leonid Kuchma Samarqandga tashrif buyurdi, shaharning diqqatga sazovor joylarini ko'rdi. Registon maydonida Leonid Kuchma o'zbekistonlik bir guruh ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga «Ukraina ozod etilganligining 50 yilligi medali» va esdalik sovg'alarini topshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil 27-may kuni rasmiy tashrif bilan Ozarbayjonga keldi. Prezident Saroyida I.Karimov va Ozarbayjon Prezidenti H.Aliyev ikki mamlakat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma, ikki mamlakat o'rtasida sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, soliq, bojxona, havo yo'llari, avtomobil va temir yo'llar aloqalari, yuk tashish va boshqalar haqida 20 ga yaqin hujjat imzoladilar. I.Karimov Boku Davlat Universitetiga tashrif buyurdi. Bu yerda u talabalar bilan uchrashdi. O'zbekiston Davlat rahbariga iqtisodiyot, fan, maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Boku Universiteti doktori degan faxriy unvon berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov shu yili 28-may kuni rasmiy tashrif bilan Gruziyaga bordi. Islom Karimov va Gruziya Respublikasi sobiq Prezidenti Eduard Shevardnadze o'rtasidagi muzokaralarda har

ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy va xalqaro vaziyat, MDH doirasidagi hamkorlik bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. So'ng Prezidentlar ishtirokida kengaytirilgan muzokaralar bo'ldi va unda Trans-Kavkaz yo'lining Gruziyadan o'tadigan qismini jadal barpo etish, uning keng imkoniyatlaridan samarali foydalanish bosh mavzu bo'ldi. Muzokaralar nihoyasida O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo aloqalariga doir 15 ga yaqin hujjat imzolandi.

1999-yil 8-mart kuni Gruziya Respublikasi Prezidenti Eduard Shevardnadze amaliy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Do'rmon qarorgohida ikki mamlakat davlat rahbarlarining yakkama-yakka uchrashuvi bo'ldi. Unda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlik ko'lamlarini kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik, jahonda yuz berayotgan dolzarb voqealar bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi va Gruziya Respublikasi Prezidentlarining yakkama-yakka uchrashuvi davom etayotgan bir paytda qarorgohning majlislar zalida ikki mamlakat delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Savdo-iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish, transport kommunikatsiyasi sohasidagi hamda ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muloqotning asosiy mavzusi bo'ldi. Ikki mamlakat o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi yil sayin ortib borayotgani singari bugungi kunda har tomonlama o'zaro ishonchga asoslangan aloqalar ham tobora rivoj topib, strategik ahamiyat kasb etayotgani muzokaralarda alohida ta'kidlandi. Mehmonlar O'zbekiston ulkan iqtisodiy imkoniyatlar mamlakati ekanini qayd etishdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq amaliy takliflar ham ishtirokchilar e'tiboriga havola qilindi.

Muzokaralar nihoyasiga yetgach, amaliy uchrashuvga oid Protokol imzolandi. Hujjatga Islom Karimov va Eduard Shevardnadze imzo chekdilar.

Shundan so'ng Prezidentlarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvi bo'ldi. Matbuot anjumanida ikki mamlakatning TRASEKA dasturi doirasidagi ishtirok xususidagi savolga javob berar ekan, mamlakatimiz rahbari Transkavkaz koridori O'zbekiston uchun ulkan ahamiyatga molik, ta'bir joiz bo'lsa, strategik ahamiyat kasb etadigan masala ekanini ta'kidladi. Buyuk Ipak yo'lini tiklash, TRASEKA doirasida bugun amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat savdo-iqtisodiy, balki katta siyosiy ahamiyat ham kasb etadi, dedi Islom Karimov. Birgina o'tgan yili Gruziyaning Poti porti orqali qariyb 725 ming tonna yukning

mamlakatimizga tashib keltirilganining o'ziyoq uning beqiyos ahamiyatga ega ekanidan dalolatdir. Zero, Yevropa Ittifoqi tarkibidagi deyarli barcha davlatlar mazkur loyihada bajonidil ishtirok etish istagini bildirayotgani ham bejiz emas.

1995-yil 25-26-may kunlari Islom Karimov MDHga a'zo davlat boshliqlari bilan navbatdagi uchrashuvda qatnashish uchun Minskka keldi. 26-may kuni MDHga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Unda davlatlararo Valyuta Qo'mitasini tuzish, MDH chegaralarini mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish kabi masalalar muhokama qilindi. Ayni paytda hukumat rahbarlari turli sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir 20 dan ziyod masalalarni muhokama qildilar.

Istiqlol yillarida O'zbekiston o'zining qat'iy mustaqil taraqqiyot yo'lidan borish, o'zgalarga tahdid qilmaslik, boshqalar suverenitetini hurmat qilish bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida o'zining munosib va qat'i nuqtayi nazariga ega bo'ldi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ldi.

Birinchidan, O'zbekiston avval boshdan MDH tarafdori bo'lib chiqdi. Chunki sobiq Ittifoq davridagi respublikalararo an'anaviy munosabatlar yangi vaziyatga mos ravishda davom ettirilishi kerak edi.

Ikkinchidan, bunday Hamdo'stlik mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmasligi lozim. MDHga a'zo barcha davlatlar o'tish davrining qariyb bir xil murakkabliklarini boshdan kechirdi. Shuning uchun iqtisodiy bo'hronlarni bartaraf etish, bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida yillar mobaynida bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq ishlab chiqarish va xo'jalik munosabatlarini yanada yaxshilash zarur edi. MDH Nizomining qabul qilinishi munosabati bilan unga a'zo davlatlar rahbarlarining Bayonotida ham shu narsa ko'zda tutilgan. 1993-yil sentabrda imzolangan MDH davlatlari o'rtasidagi «Iqtisodiy Ittifoq» haqidagi shartnoma ham ana shu maqsadlarni nazarda tutdi. Bu me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etishda O'zbekiston alohida o'ringa ega bo'ldi.

Uchinchidan, O'zbekiston MDHga a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki taraf uchun ham foydali hamkorlik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib kelyapti. MDHga a'zo ko'p mamlakatlar bilan ana shunday hamkorlikda ish olib borilyapti.

O'zbekiston MDHdagi barcha mamlakatlarning o'z mustaqilligini mustahkamlash yo'lidagi intilishlarini qo'llab-quvvatlamoqda va bu sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi har taraflama hamkorlikni yanada kuchaytiradi, deb hisoblaydi. O'zbekiston barcha mustaqil davlatlar hududiy butunligini va ularning chegaralari daxlsizligini tan oladi. Ichki hududiy janjallarga aralashmaydi va bularga o'sha mamlakatlarning ichki

ishlari, deb qaraydi. Bundan tashqari, u MDHga a'zo ikki davlat o'rtasidagi munosabatlardan chetga chiqadigan masalalarni MDH miqyosida ko'rib chiqish tarafdori. O'zbekistonning yana bir nuqtayi nazari shundan iboratki, MDH ichida hech bir davlatning qo'li baland kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu O'zbekiston hukumati, uning rahbariyatining qat'iy yo'li, O'zbekiston xalqining xohish-irodasi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining vujudga kelishi tabiiy va ayni chog'da tarixiy hodisa. U yangi mustaqil davlatlar suverenitetini saqlagan holda yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish, sobiq ittifoq davrida bir-biriga chirmashib ketgan, o'rgimchak inidek chuvalashgan ishlab chiqarish tizimini saqlagan holda teng huquqli hamkorlar sifatida jahon bozori me'yorlari va qonun-qoidalari bo'yicha hisob-kitob qilishni taqozo etadi. Bu dunyo tan olgan haqiqatga tayangan mezon bo'lib qolmog'i kerak.

Biroq, ayrim mamlakatlar allaqanday nufuz va ortiqcha imtiyozlarga erishishni orzu qilib qolishdi. Teng huquqli mustaqil davlatlar hamkorligi tamoyillaridan chekinish, o'zlariga ko'proq va kengroq imkoniyat yaratish, aniqrog'i, katta og'achilik singari yaqin o'tmishdagi nufuzlarni yo'lga qo'yishga intilishlar bo'ldi. Bularga erishishning turli-tuman yo'llarini izlashdi. Jumladan, mustaqillikning endigina ikkinchi yili nishonlanayotgan paytdayoq Rossiyaning ayrim siyosatdonlari ikki fuqarolik muammosini ko'tarib chiqdilar. Emishki, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarda rus millatiga mansub aholi yashayotgan ekan, ularga o'z mamlakati qatorida Rossiya fuqaroligi ham berilishi zarur emish. Vaholanki, jahon davlatchiligi tarixi, xalqaro inson huquqlari tajribasi bunday hodisani ko'rmagan. Bu bevosita ma'lum bir davlat mustaqilligini mensimaslik, uning Konstitutsiyasini tan olmaslik, qolaversa, ichki ishlariga aralashish hamda millatlararo nizolarni keltirib chiqarishdan boshqa narsa emas.

Baxtga qarshi Markaziy Osiyodagi ayrim mamlakatlar mavjud iqtisodiy tanglik va yuz berayotgan qiyinchiliklarni osonlik bilan hal etish maqsadida ikki fuqarolik singari betayin siyosatni ochiqdan-ochiq qo'llab-quvvatladilar. Jumladan, Qirg'iziston va Qozog'iston shu yo'l bilan mamlakatdagi iqtisodiy tanglikni bartaraf etmoqchi bo'ldilar. Mazkur siyosat oqibatlari naqadar og'ir va ayanchligini aniq his qilgan Islom Karimov bunday g'oya asossiz va bir hovuch siyosiy lo'ttibozlarning nayranglari ekanligini aytib, «Agar fuqarolik milliy tamoyilga qarab belgilansa, insonga millatiga qarab turli xil huquqiy maqom berilsa, bu oxir-oqibatda jamiyat barqarorligining buzilishiga olib keladi. Ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bevatanlik bilan barobardir», – deb masalaning ham siyosiy-huquqiy, ham ma'naviy-ruhiy jihatlarini lo'nda qilib ochib berdi. U O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning bir yilligi munosabati bilan 1993-yil 6-dekabrda bo'lib o'tgan

tantanali yig'ilishda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida so'zlagan nutqlarida ham o'z munosabatini aniq-ravshan bildirdi. Jumladan, u «Ikki davlat fuqarosi qaysi Vatanga, qaysi zamin, qaysi tuproqqa o'z mehrini, sadoqatini, vatanparvarligini izhor etishi kerak? Agar vaziyat talab qilsa, qaysi mamlakatga jonini ham fido etmoqqa tayyor bo'lishi kerak? Eng yaxshisi – O'zbekistonda yashayotgan fuqarolar o'zlarining nasl-u nasabi, irqi, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqli bo'lishi kerak», – dedi.

Bu O'zbekistonning qat'iy siyosatidan, Hamdo'stlik doirasidagi qat'iy faoliyatidan dalolat beradi. O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridanoq teng huquqli hamkorlik yo'lini tutdi va bu yo'lda qat'iy turdi.

2006-yil O'zbekiston tashqi siyosatida muhim voqealar davri bo'ldi. Prezident I.A.Karimov YevrAzES doirasida Minsk Sank-Petrburg shaharlarida, MDH doirasida Moskva va Minsk shaharlarida, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti doirasida Sochida ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi. MDHga a'zo davlatlar rahbarlari bilan uchrashuvlarda ikki tomonlama va ko'ptomonlama hamkorlik, tinchlik va xavfsizlik masalalariga doir qator bitimlarga imzo chekdi, diniy fundamentalizm, aqidaparastlik, xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi kurashda hamda buyuk davlatchilik shovinizmning turli ko'rinishlariga barham berishda kuchlarni birlashtirishga doir qator takliflarni o'rtaga tashladi. Shuningdek, Ukraina Prezidenti V.Yushchenko (2006-yil 28-noyabr) va Ukraina Bosh vaziri V.Yanukovich (2006-yil 16-avgust) bilan muzokaralar olib borildi.

Shunday qilib O'zbekistonning tashqi siyosati 2000–2007-yillarda XXI asrning global muammolarini qamrab olgan odam va olam Yer shari va butun insoniyat taqdiriga bog'liq bo'lgan butun muammolarini qamrab oldi. O'zbekiston o'zini jahon hamjamiyatining eng faol, eng hozirjavob subyekti sifatida namoyon qila bildi. Bu holat MDH doirasida ayniqsa aniq, lo'nda, dadil va qat'iyatli siyosat qudratini ko'rsata oldi.

4-§ O'zbekiston va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti

Hozirgi davrda O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilot (1996-y. Shanxayda chegara hududlarida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida imzolangan Bitim doirasida) Xitoy bilan qo'shni davlatlar o'rtasida chegaralarga doir masalalarni hal etishga qaratilgan norasmiy forum sifatida tashkil etilgan edi.

SHHT – submintaqaviy xalqaro tashkilotga oltita davlat – Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston a'zo bo'lgan. SHHT tarkibiga kiradigan davlatlarning umumiy hududi

Yevroosiyo hududining 61 foizini, umumiy demografik (nufusiy) jihatdan dunyo aholisining to'rtdan bir qismini tashkil etadi, iqtisodiy salohiyati nuqtayi nazaridan AQSHdan keyingi eng qudratli – Xitoy iqtisodiyotini qamrab oladi. Rasmiy tillari – rus va xitoy tili. Qarorgohi Pekinda joylashgan. SHHTga a'zo davlatlar hududining umumiy maydoni 30 mln. kv. km. yoki Yevroosiyo qit'asi maydonining beshdan uch qismini tashkil etadi. Ushbu davlatlar aholisining soni – 1,455 milliard kishi yoki dunyo aholisining taxminan to'rtdan bir qismini tashkil etadi.

SHHT tashkil etilishi tarixan umumiy chegaralarda qurolli kuchlar va qurol-aslahalarni qisqartirish to'g'risida Bitim qabul qilingan Moskva sammiti bilan uzviy bog'liqdir. 1998-yildan Markaziy Osiyo mintaqasi, mintaqaviy xavfsizlik va ko'ptomonlama hamkorlik masalalari «Shanxay beshligi»ning diqqat markaziga aylana boshladi. Terrorizm, separatizmga qarshi kurashish, mintaqa doirasida iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish «Shanxay beshligi»ning asosiy maqsadlari sifatida e'lon qilinadi.

1998-yilning 3-iyulida «beshlik»ning Olmaotada bo'lib o'tgan uchinchi sammitida tashqi ishlar vazirlarining Qo'shma bayonoti yakuniy hujjat sifatida qabul qilindi. Unda tomonlar xavfsizlik masalalari yuzasidan maslahatlashuv jarayonini rivojlantirish va «bunga mintaqaning barcha manfaatdor davlatlarini jalb etishga» kelishib oldi. «Shanxay beshligi» doirasida hamkorlikni rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab olindi: xavfsizlik, muhim xalqaro muammolar yuzasidan doimiy maslahatlashuvni amalga oshirish; xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi; vaziyat talab etgan hollarda Markaziy Osiyo, umuman, Osiyo qit'asida xavfsizlikni ta'minlash, hamkorlikni kengaytirish, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha ekspertlar, tashqi ishlar vazirlari doirasida uchrashuvlarni tashkil etish.

«Shanxay beshligi»ning 2005-yil iyulida Dushanbeda bo'lib o'tgan beshinchi sammitining tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Zero, unda ilk bor kuzatuvchi sifatida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, XXR Raisi Szyan Szemin bilan uchrashgan edi. Uchrashuv natijalariga ko'ra, «Dushanbe dekloratsiyasi» qabul qilindi. Bu hujjatning ahamiyati shundaki, unda taraflar xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, qurol-yarog' va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi birgalikda kurashish, uzoq yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini ishlab chiqish hamda bu borada tegishli kelishuvlar tuzishga kelishib olish bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

2001-yilning iyun oyida bo'lib o'tgan sammitda «Shanxay beshligi» unga a'zo bo'lgan davlat – O'zbekiston Respublikasi ishtirokida Shanxay Hamkorlik tashkilotiga aylantirildi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi ma'qullangach, mamlakatimiz shakllantirilayotgan yangi tashkilotning maqomi va ahamiyati, maqsad hamda vazifalarini aniqlashtirish, jumladan, SHHT hech qachon harbiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotga aylantirilmasligiga oid takliflarni ilgari surdi.

O'sha davrda ommaviy axborot vositalarida ta'kidlanganidek: Shanxay sammitining ahamiyati shundaki, unda ikki masala – xavfsizlik va hamkorlik masalalarida yakdillikka erishilgan edi. Aynan shular yangi tashkilotning «hamkorlik orqali xavfsizlik» shiorida ifodalangan faoliyatining asosiy tamoyillariga aylandi. Terroristik xatti-harakat va shunga o'xshash tahdidlar vujudga kelganda o'zaro yordam va maslahatlashuvga huquqiy asos mavjudligi ham ushbu tamoyil mazmun-mohiyatiga mos keladi. Umuman olganda, qaysi sohalarda hamkorlikning rivojlanishidan qat'i nazar, u milliy, mintaqaviy, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Tashkilotning 2002-yil iyun oyida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan sammitida uning ustav hujjati – SHHT Xartiyasi qabul qilindi. Unda tashkilotning maqsadlari, vazifalari va tamoyillari hamda hamkorlik yo'nalishlari aks ettirilgan, Mintaqaviy antiterroristik tuzilma (MATT) haqidagi Bitim imzolandi. SHHT doimiy ravishda ishlaydigan organi bo'lgan ushbu tuzilma huquq-tartibot idoralari va maxsus xizmatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

2003-yilning mayida SHHT Mokvadagi sammitida davlat boshliqlar Kengashi, hukumat boshliqlari Kengashi, tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, ministrlik va idoralar rahbarlari Yig'ini, Kotibiyat, shuningdek, MATT hamda SHHT kotibiyati qoshidagi a'zo davlatlarning doimiy vakillari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi.

Davlat boshliqlari tomonidan Mintaqaviy antiterroristik tuzilma Ijroiya qo'mitasi qarorgohini Bishkekdan (Qirg'iziston) Toshkent shahriga ko'chirish, shuningdek, 2004-yil 1-yanvaridan tashkilotning doimiy faoliyat yurituvchi organlari – SHHT Kotibiyatining Pekin shahrida, MATT Ijroiya qo'mitasining Toshkent shahrida ish boshlashi haqida qaror qabul qilindi.

SHHT tashqi ishlar vazirlari Kegashining 2003-yil sentabrida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish Shanxay Konvensiyasi, SHHT Xartiyasi, a'zo davlatlar o'rtasidagi MATT to'g'risida Bitimga o'zgartirish kiritish protokoli imzolanib, tegishli kommyunike qabul qilindi.

SHHT asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash;

– mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy hamda iqtisodiy xalqaro tartibni shakllantirishga ko'maklashish maqsadida turli yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish;

– terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurash olib borish, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

– siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquq-tartibotni saqlash, tabiatni muhofaza etish, madaniy, ilmiy-texnikaviy ta'lim, energetik, transport, moliya-kredit va boshqa sohalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;

– a'zo davlatlar xalqlari turmush darajasi va sharoitlarini uzluksiz yaxshilash maqsadida teng sherikchilik asosida mintaqada har tomonlama va barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyotga ko'maklashish;

– jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda yondashuvlarni muvofiqlashtirish;

– a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari hamda milliy qonunchiligiga mos ravishda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga ko'maklashish;

– boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

– xalqaro nizolarni oldini olish hamda ularni tinch yo'l bilan hal etilishida o'zaro aloqalarni mustahkamlash;

– XXI asrda vujudga keladigan muammolarning yechimini birgalikda izlab topish.

SHHTga a'zo davlat quyidagi tamoyillarga tayanadi:

– davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, davlat chegaralarining daxlsizligini hurmat qilish, tajovuz qilmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch bilan tajovuz qilish, chegara hududlarda bir tomonlama ustunlikdan voz kechish;

– barcha a'zo davlatlarning teng huquqliligi, har birining nuqtayi nazarini e'tirof etish va hurmat qilish asosida yagona yondashuvlarni izlash;

– umumiy manfaatlar doirasida birgalikdagi xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

– a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'llar bilan hal etish;

– SHHT boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotga qarshi qaratilmagani;

– Xartiya hamda SHHT doirasida qabul qilingan boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni to'liq hamda vijdonan bajarilishi.

SHHT doirasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– mintaqada tinchlikni saqlash, xavfsizlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash;

– barcha a'zo davlatlar umumiy manfaatlari mos bo'lgan tashqi siyosiy masalalar yuzasidan xalqaro tashkilot va xalqaro forumlarda yaxlit nuqtayi nazarni izlab topish;

– terrorizm, separatizm va ekstremizm, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi hamda transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari, jumladan, noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– qurolsizlanish va qurol-yarog' ustidan nazorat qilish masalalarida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish;

– mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning turli shakllarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mahsulot, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakat qilishini ta'minlaydigan savdo hamda investitsiyalar uchun qulay shart-sharoit yaratilishiga ko'maklashish;

– transport va kommunikatsiya sohasidagi infratuzilmadan samarali foydalanish, a'zo davlatlar tranzit imkoniyatlarini takomillashtirish, energetika tizimini rivojlantirish;

– tabiatdan, xususan, mintaqa suv zaxiralaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, tabiatni muhofaza etish borasida maxsus dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish;

– tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda o'zaro yordam ko'rsatish;

– SHHT doirasida hamkorlikni rvojlantirishga xizmat qiladigan huquqiy ma'lumotlar bilan almashish;

– fan, texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohalarida o'zaro munosabatlarni kengaytirish.

SHHT a'zo davlatlar o'zaro kelishuv asosida hamkorlik sohalarini kengaytirishi mumkin. O'z maqsad hamda vazifalarini bajarish uchun SHHT doirasida davlat rahbarlari Kengashi, hukumat rahbarlari (Bosh vazirlar) Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, vazirlik va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, mintaqaviy antiterroristik tuzilma (MATT), Kotibiyat faoliyat yuritadi.

SHHT mustahkamlash, uning doirasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda 2003-yilning sentabrida Pekinda davlat rahbarlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan SHHT a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli Dasturi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatda oltita davlatning 2020-yilgacha amaliy faoliyatining yo'nalishlari, maqsad hamda vazifalari qayd etilishi bilan birgalikda, ularni amalga oshirish yo'llari va usullari ham aks ettirilgan.

O'zbekiston SHHT doirasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm hamda mintaqaviy barqarorlikka tahdid solayotgan boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashishga qaratilgan hamkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy sohada, shu jumladan, mintaqada transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni istiqbollari porloq.

O'zbekiston SHHT ochiqlik, boshqa davlatlar va uyushmalarga qarshi bo'lmaslik, xalqaro hamkorlikni keng rivojlantirishga tayyor bo'lish kabi tamoyillarini izchil amalga oshirish tarafdori bo'lib kelmoqda.

SHHT 2004-yilning 17-iyunidagi Toshkent sammiti ushbu tashkilot shakllanishining yakuniy bosqichi bo'lgani ham yangi tashkiliy tuzilmalar va institutlar faoliyati muayyan ma'no-mazmun kasb etayotgani qayd etildi. Chunonchi, Pekinda Kotibiyat faoliyat yurita boshladi, Toshkentda mintaqaviy antiterroristik markaz shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirlari Kengashi qo'yilgan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirmoqda. Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi muhim amaliy ishlarni bajarmoqda. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish fondi hamda SHHT ishbilarmonlar fondini shakllantirish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlar boshlab yuborildi.

Ushbu anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimiz tashqi siyosati konstitutsion konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonning muhim tashabbuslarini bayon etdi. Avvalo, davlatimiz rahbari mintaqa mamlakatlari barqarorligiga tahdid solayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizm kuchlarining faollashib borayotgani katta xavotir uyg'otayotganini ta'kidladi. Bundan tashqari, kommunikatsiya va transport sohasidagi loyihalarni amalga oshirish borasidagi xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish, suv-energetika, xomashyo zaxiralari hamda inson salohiyatidan har bir davlat hamda mintaqa manfaatlari yo'lida oqilona foydalanish; mintaqaga tashqi investitsiya va sarmoyalarni jalb etish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar kun tartibiga qo'yildi. Forumda xavfsizlik va iqtisodiyot SHHT asosini tashkil etishi lozim ekani uqtirildi. Prezidentimiz fikricha, aynan ana shu ikki asosga tayanib, SHHT faoliyatining samaradorligi va xalqaro obro'-e'tibori, shuningdek, uning dunyodagi o'zgaruvchan vaziyatga moslashuvchanligi ta'minlanishi zarur.

O'zbekiston xalqaro terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkotrofikka qarshi kurash SHHT faoliyatini ustuvor yo'nalishi etib belgilanganini shak-shubhasiz qo'llab-quvvatlaydi. Mintaqaviy antiterroristik markaz faoliyati aynan xuddi shu masalalarning hal etilishiga qaratilgan. Birinchi galda, nafrat va terrorizm g'oyalarini targ'ib etayotgan turli radikal va ekstremistik markazlarga qarshi kurashish zarur ekani ta'kidlandi.

SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish haqida to'xtalib, Prezident Islom Karimov ushbu masalani hal etishning asosiy yo'li sifatida Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirish zarurligiga e'tibor qaratadi. Zero, bu masalaning hal etilishi mintaqa mamlaktlari va xalqlar tub manfaatlariga mos keladi. Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarning faol sheriklik ishtirokida umumiy bozorning tashkil etilishi tor milliy doiradan tashqarida yagona yondashuv va muvofiqlashtirilgan qonuniy me'yorlar amal qiladigan mahsulot va xizmatlar, mehnat va kapitallar yirik bozorini shakllantirishga imkon beradi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo hududidan o'tadigan hamda SHHT a'zo davlatlarning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Yevropa Ittifoqi (YI), Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish va mustahkamlashga xizmat qiladigan yirik transport-kommunikatsiya loyihalari, yo'lak va marshrutlarni amalga oshirishga qaratilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi Qarorida tasdiqlangan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy sohadagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish Konsepsiyasiga binoan SHHT doirasida o'zaro aloqalar faollashmoqda. Bu o'rinda erishilgan natijalar qatorida faoliyati man qilingan terroristik, ayirmachilik va ekstremistik tashkilotlar ro'yxati va shunday jinoyatlari uchun qidirilayotgan shaxslar ro'yxatini tuzish to'g'risidagi O'zbekiston tashabbusining amalga oshirila boshlangani, terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi SHHT a'zo davlatlarning hamkorlik Konsepsiyasining tasdiqlanganini ta'kidlash mumkin. Ushbu tashkilot bilan munosabatlarda kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida O'zbekistonda SHHT masalalari bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish komissiyasini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Bundan tashqari, «Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi 2007–2009-yillarga mo'ljallangan hamkorlik Dasturi» qabul qilingan. A'zo davlatlarning «Sharq – antiterror – 2006» terrorizmga qarshi birgalikdagi mashg'ulotlari, terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi simpoziumlar o'tkazib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda SHHT xalqaro hamkorlikning qudratli instituti, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm, separatizm va

ekstremizm, giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish kabi zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashishning chinakam tayanchiga aylanib bormoqda.

Ayni paytda mintaqaning boy zaxiralaridan foydalanishga qaratilgan yirik savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsion va gumanitar loyihalarni amalga oshirish borasida mavjud barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

5-§. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan qardoshlik munosabatlarining yanada rivojlanishi

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratildi. Bu, beshta davlatlar tarixi, madaniyati, tili va dilining birligidan, tomirlarining tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'li edi. Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov keyingi besh yillar mobaynida bu mintaqadagi davlatlar, xalqlar o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatib uni mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini qadam- baqadam amalga oshirib kelmoqda.

Ma'lumki, bir necha ming yilliklar mobaynida joni-joniga, qoni-qoniga payvand bo'lib ketgan Markaziy Osiyo – qadimiy Turon xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa markazga qaram sovet respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzlari, ruhiy va ma'naviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar•o'zbeg-u qozoqqa, tojig-u qirg'iz, turkmanga bo'lib yuborildi.

Albatta, mazkur xalqlar o'tgan 70 yildan ko'proq vaqt mobaynida millat sifatida shakllandi. Ularning o'z tili, madaniyati bor. Endi ularni butunlay birlashtirib yuborish milliy qadriyatlarini toptash bilan barobar. Biroq, masalaning boshqa tomoni ham bor. Ya'ni, yagona Turkiston zaminida sobiq SSSR tarqalgach vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarining boy o'tmishi, ma'naviy va ruhiy ehtiyojlari nuqtayi nazaridan o'zaro yaqinlashishga hayotiy zarurat sezishlari tabiiy holdir.

Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va axloqiy munosabatlari uyg'unlashib ketgan, yashash tarzlari va urf-odatlari mushtarak bo'lib, yagona, ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondosh-u jondoshlik, bir butunlik an'analari tarkib topgan. Kishilik tarixida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu diyorda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Shuning uchun ham Mavlono Rudakiy: «Dunyoning shodligi yig'ilsa butun,

Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun», deb bejiz aytmagan. Mustaqillik sharoitida millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy merosi, etnik muammolari, jug‘rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlar o‘zgardi. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi o‘ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. Zero, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, tarixan bir muhitda yashab, o‘tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq, ayni paytda mustaqil davlat bo‘lib yashayotgan mamlakatlar o‘z tarixiy ildizlarini qidirib topishini, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklashini hayotning o‘zi zarurat, deb hisoblamoqda.

1993-yilning yanvarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo‘stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo‘stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo‘r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo‘llab-quvvatladilar.

Shu tariqa jahon siyosiy so‘zligida «Markaziy Osiyo» degan yangi atama paydo bo‘ldi. Albatta, bu hodisaga turli toifa va qarashdagi siyosatchilar, huquqshunoslar, iqtisodchilar turlicha baho berdilar. Ayrimlari hatto, mintaqadagi mamlakatlar birlashib, yagona davlat bo‘larmish, deyishgacha bordilar. Mintaqa rahbari kim bo‘ladi? Qaysi til davlat tili bo‘ladi, ko‘pmillatli mintaqa milliy madaniyatlari muammolari qay yo‘sinda hal etiladi, qabilidagi savollar tug‘ildi. Prezident Islom Karimov Markaziy Osiyo Hamdo‘stligini vujudga keltirish tashabbuskori sifatida uning maqsad va mohiyatini aniq-ravshan ko‘rsatib berdi. Ya’ni, Mustaqil Davlatlar suvereniteti daxlsizdir. Hamdo‘stlikka a’zo bo‘lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to‘la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish, faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, yagona bozor, mol ayirboshlash imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona va chegaralardagi sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rib chiqildi. Oradan ko‘p o‘tmay ana shu Hamdo‘stlikka amaliy poydevor qo‘yildi. 1995-yilning yanvar oyida Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev Toshkentga keldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka doir qator hujjatlarga imzo chekildi. Tez orada bu bitimga Qirg‘iziston ham qo‘shildi. Natijada uch mamlakat o‘rtasida yagona bozorni vujudga keltirish, mahsulot ayirboshlash imkoniyati yaratildi.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi nafaqat bugungi o'tish davri mahsuli, balki jug'rofiy, tarixiy-etnik va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojdir. Chunonchi, bu mamlakatlar jug'rofiy jihatdan bir-biriga yaqin va zich joylashgan. Suv, elektr energetikasi va boshqa tabiiy omillar ham ularni bog'lab turadi. Qariyb 50 millionli aholi tarixan yagona o'tmishga, yagona taqdirga, bir-biriga uyg'unlashib ketgan dunyoqarash va an'analarga ega. Ularning har qanday siyosiy va iqtisodiy Hamdo'stlikdan ham baland turadigan qadimiy qadriyatlari bor. Ming yilliklar mobaynida shakllangan ma'naviy, madaniy, axloqiy, diniy va lisoniy mushtaraklik ham mavjud.

Dunyoviy muammolar, insoniyat taqdiriga daxldor masalalar yechimini topishda mamlakatlar va xalqlar, milliy manfaatlari hamda ehtiyojlaridan qat'i nazar, birgalikda o'zaro hamkorlik yo'llarini izlaydilar. Biroq, hech qanday hamkorlik, turmush tarzlari, urf-odatlari, ruhiyatlari uyg'unlashib ketgan yaqin qo'shni xalqlarning do'stligiga teng kelolmaydi. Chunki bu yerda ajdodlar ruhi bilan kelajak avlodlar bog'liqligi, bir butun zamin – Ona Vatan yaxlitligi kabi muqaddas tuyg'u doimo barqarordir. Prezident Karimov Markaziy Osiyo xalqlari birligini mustahkamlashning mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish siyosatining insonparvarlik mazmuni ana shunda, deb bildi.

Ayni paytda Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlarda o'ziga xos tabiiy ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Sobiq SSSR davrida qazib olingan ko'mirning qariyb 20 foizi, gazning 18 foizi, oltinning 33 foizi, o'simlik yog'ining 26 foizi, paxtaning 92 foizi ana shu mintaqa hisobiga to'g'ri kelardi. Shu masalaning o'zidanoq boy, dehqonchiligi taraqqiy topgan, ma'dan xazinalari behisob bo'lgan mamlakatlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish qanchalik samarali ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Biroq, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligining samarali ishlashi uchun to'siq bo'layotganlar ham oz emas. Bular, birinchidan, yetmish yillik yaqin o'tmishda shakllangan, soxta millatparvarlik hissiyoti, aholi bir qismi tushunchasi va dunyoqarashining ma'lum darajada cheklanganligi, mintaqaviy hamkorlik mazmun-mohiyatini to'la va chuqur tushuna olmayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatlarimizning o'zaro yaqinlashuvidan tahlikaga tushayotgan kuchlarning mavjudligidir. Bu yo'ldagi yutuq va kamchiliklarni, mavjud ziddiyatlarni o'z vaqtida anglagan Karimov masalaga real qaraydi va xolis baholaydi.

1993-yilning iyul oyida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida 1994–2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi. 1994-yilning yanvarida yagona iqtisodiy hududni barpo qilish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga 1994-yil aprel oyida Qirg'iziston Respublikasi qo'shildi. Uch davlat o'rtasidagi

hamkorlikni muvofiqlashtirib turuvchi Ijroiya qo'mita tuzildi, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki ta'sis etildi. Ana shu organlarning ishi natijasida Bishkekda Respublikalar Bosh vazirlari Kengashi qarori imzolandi. Unda tomonlar 2000-yilga qadar respublikalarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirishning yo'nalishlari belgilandi.

1994-yil 8-iyulda Islom Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari davlat va hukumat boshliqlari uchrashuvida ishtirok etish uchun Almatiga bordi. Qozog'iston Prezidenti qarorgohida uch mamlakat rahbarlarining yakkama-yakka suhbati bo'lib o'tdi. So'ng delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari boshlandi. Muzokaralar nihoyasida Prezidentlar Islom Karimov, Nursulton Nazarboyev va Asqar Akayev birgalikda bayonot hamda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston xalqlariga Murojaatnoma qabul qildilar. Shuningdek, aholi migratsiyasi sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum hamda uchala mamlakat o'rtasida Markaziy Osiyo Hamkorlik va taraqqiyot bankini ta'sis etish to'g'risida bitim imzolandi. Hukumat rahbarlari esa davlatlar o'rtasida harbiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot sohasidagi hukumatlararo bitim va shartnomalarni, shuningdek, axborot bilan ta'minlash sohasidagi bitimlarni imzoladilar.

Mavzuga doir material

MDH davlatlarining boshliqlariga murojaatnoma

Keyingi vaqtlarda MDH mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarga, ularning hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirish ishiga behuda ziyon yetkazilmadi. Iqtisodiyotni birlashtirish sohasida kuch-g'ayrat sarflash, MDH doirasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchi davlatlararo tuzilmalarni barpo etish sohasida amaliy ishlar qilish o'rniga, ayrim davlatlarning mintaqaviy ayirmachiligi, yakkalanishi tobora avj olib bormoqda. Ular qo'shni davlatlarning iqtisodiy manfaatlariga ziyon yetkazib bo'lsa ham tanglikdan mustaqil ravishda chiqib olishga intilmoqdalar. Ne mashaqqatlar bilan erishilgan ahdlashuvlar biryoqlama harakatlar bilan tez-tez buzilmoqda. Jumladan, davlatlararo bank tuzish to'g'risida bir qancha parlamentlar tomonidan tasdiqlangan shartnomaga o'rinsiz ravishda halaqit berilmoqda va oqibatda bu shartnoma bajarilmay turibdi. Birgalikdagi xavfsizlikka oid shartnoma, moliya-kredit siyosatining kelishib olingan qoidalari pisand qilinmayapti.

Mana shularning hammasi MDH davlatlarining turli-tuman sohalaridagi bahamjihat harakat maydonini buzib, ularga bevosita iqtisodiy zarar yetkazmoqda, buning ustiga odamlarning xafsalasini pir qilmoqda,

hokimiyatga ishonchsizlik tug'dirmoqda, ijtimoiy keskinlikni xatarli ravishda kuchaytirmoqda.

Biz voqealarning shu tarzda rivojlanib borishidan tashvishlanib, sizlarga Hamdo'stlik davlatlari boshliqlarining yig'ilishini hech kechiktirmay o'tkazishni, unda quyidagi masalalarni muhokama etishni taklif qilamiz:

1. Muvofiqlashtiruvchi – maslahat komiteti tegishli shartnoma loyihasini uzil-kesil ishlab chiqqanini e'tiborga olib, iqtisodiy ittifoqni va uning muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarini tuzishga oid qaror qanday amalga oshirilayotgani haqida;

2. Davlatlararo bank to'g'risidagi bitimni, eng avvalo MDHning to'lov ittifoqini yaratish asosida davlatlararo ko'p tomonlama hisob-kitoblarni darhol amalga kiritish haqida;

3. Birgalikdagi xavfsizlikka oid shartnomani amalda ro'yobga chiqarish va MDHning strategik kuchlari to'g'risidagi bitimlarning bajarilishi haqida.

Davlat boshliqlarining uchrashuvini avgust oyining boshlarida Moskva shahrida yoki boshqa shaharda o'tkazish mumkin, deb hisoblaymiz.

Qozog'iston Respublikasining Prezidenti **Nursulton Nazarboyev.**

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti **Islom Karimov.**

(«O'zbekiston ovozi», 1993-yil 30-iyul.)

* * *

Shu yillarda ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalari, xususan, ilm-fan, madaniyat sohasida O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlari yanada kengayganligini alohida uqtirish lozim. Xususan, 1996-yilgacha ilm-fan va texnologiyalarning 16 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 107 ta qo'shma loyiha tayyorlandi.

1994-yili O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi Kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston – Qozog'iston Markazini tashkil qilish xususida kelishib olindi. Tenglik asosida axborot va tahririyat materiallari almashadigan bo'ldi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham O'zbekiston Qozog'iston munosabatlari yanada kengaya bordi. Xususan, madaniy aloqalar an'anaviy tus oldi.

Cho'qon Valixonov, Abay, Jambul, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Anvar Olimjonov, O'ljas Suleymonov va boshqa qozoq ijodkorlarining asarlari O'zbek va Qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Ayni chog'da Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir asarlari qozoq tilida ommaviy nusxalarda nashr qilinib, kitobxonlarga yetkazildi.

Hozirda Qozog'istonda bir million o'zbek, O'zbekistonda esa bir milliondan oshiq qozoq istiqomat qilayotganligi uchun ham madaniy

aloqalarga katta e'tibor berildi. O'zbekistonda 605 ta qozoq maktabi bo'lib, unda 15 ming bola o'qiydi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy pedagogika institutlarida qozoq tilida o'qish olib boriladigan bo'limlar ishlay boshladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida qozoq adabiyoti Kengashi, Jizzax viloyatida «Kok-tem» qozoq teatr studiyasi tashkil etildi. O'zbekistonda 1992-yildan boshlab qozoq tilida «Nurli jol» respublika gazetasi nashr qilina boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Orol dengizini saqlab qolish, mintaqadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida kuchlarni birlashtirish, bahamjihat hamkorlikda faoliyat ko'rsatish mumkinligini tushunib yetdilar. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yil 26-martida Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahrida, 1994-yil 11-yanvarda Nukus shahrida, 1995-yil 3-martda Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz shahrida, 1995-yil 20-sentabrda yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar.

Ayniqsa, 1999-yil 8-aprel kuni Turkmaniston Prezidentining saroyida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining majlisi haqida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Unda Jamg'arma Prezidenti – O'zbekiston rahbari Islom Karimov Jamg'armaning 1997–1999-yillardagi faoliyati haqida so'zladi va kelgusida jamg'armani rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini bayon qildi.

Majlisda ekologik falokat mintaqasidagi vaziyatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Mintaqamiz mamlakatlari davlat rahbarlarining Ashxabod sammiti, albatta, faqat bir mavzu bilan cheklanib qolgani yo'q. Sammitning birinchi kunidayoq kun tartibidan Orol muammolaridan tashqari, boshqa masalalar ham joy oldi. Bular orasida mintaqa miqyosidagi integratsiya jarayonlari, davlatlararo munosabatlar ham ko'rib chiqildi. Prezidentlar o'zaro manfaatli hamkorlik rivojiga turtki beradigan, davlatlarimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashuvini faollashtiradigan mintaqaviy loyihalarini muhokama qildi. Ushbu loyihalar Kaspiy dengizi energetika zaxiralarini jahon bozoriga yetkazish, elektr energiyasi eksportini kengaytirish, telekommunikatsiya, temir yo'l va avtomobil yo'li aloqasiga taalluqlidir. Uchrashuvda mintaqaviy miqyosdagi va davlatlararo savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Sammitda O'zbekiston rahbari – Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi Prezidenti Islom Karimov Jamg'armaning 1997–1999-yillar

davridagi faoliyati haqida so'zlab, o'tgan vaqt mobaynida Orol muammosi ijobiy tomonga o'zgarayotganini kuzatish mumkinligini, masalan, Orolbo'yida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, ichimlik suvi bilan ta'minlashning yaxshi yo'lga qo'yilganligini, Orol dengizi sathining pasayishi to'xtatilganligini, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham katta loyihalarni moliyalashtirish qiyin kechayotganligini inobatga olib, kelgusida esa ko'proq imkoniyatlar darajasidagi loyihalarga e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidladi.

Sammit kun tartibi doirasida Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining nizomiga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish, Jamg'arma va uning qoshida ochilgan tashkilotlar mavqeyini belgilash masalalari ham ko'rib chiqildi. Uchrashuv yakunida O'rta Osiyo mamlakatlari va Qozog'iston rahbarlarining Qo'shma bayonoti hamda Orol muammolari bo'yicha uchrashuv yakunlariga doir Ashxabod Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Markaziy Osiyo davlatlari qardoshlik munosabatlarida O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, tojik va o'zbek xalqining o'tmishi, ularning o'zaro bog'liqligi va hozirgi munosabatlari turli davrlarda turlicha munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayrim mafkurasi buzuq ig'vogarlar ana shu har ikki millatning nozik jihatlaridan foydalanib, ularning hissiyoti va sha'niga tegishmoqda. Har ikki millat o'rtasiga nifoq solishga urinishlar bo'ldi. Aslini olganda mintaqa xalqlarining shakllanish jarayoni asosan bir zamin va bir xil tarixiy sharoitda vujudga kelgan. Ular bir xil hayotiy, ruhiy kechinmalar jarayonini boshdan kechirishgan. Dunyoqarashlari, ong va tushunchalari ana shu umumiy yaxlitlik, umumiy uyg'unlik doirasida paydo bo'lgan. Tillaridagi turli lahjalar va shevalar ularning bir butunligini, yaxlit va umumiyligini inkor etmaydi. Aksincha o'zaro yaqinligini, qardosh va qarindoshligini tasdiqlaydi. Ular o'rtasida kim qaysi tilda gaplashayotgani bilan emas, kim qanday umumiy manfaat, umumiy qadriyat xususida o'ylayotgani va unga intilayotgani bilan munosabatlarini baholashgan.

Novatorlar esa tojiklar va o'zbeklar o'rtasida turli g'aliz fikr va mulohazalarni tarqatishga harakat qilayotirlar. Istiqlol yillarida O'zbekiston va Tojikiston munosabatlaridagi asosiy tamoyil bir-birlarining suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlariga aralashmaslik, ayni chog'da o'zaro hurmat bo'ldi.

Shuning uchun ham keyingi 10 yilliklarda Tojikistonda yuz berayotgan notinch voqealarga o'zbek xalqi, O'zbekiston rahbariyati befarq qaramadi. Tinchligi buzilgan tojik xalqiga o'zbek xalqi muntazam insonparvarlik yordamini berib turdi. Prezident Islom Karimov bir qator xalqaro minbarlarda, jumladan, BMT, YXHT va MDH davlat rahbarlari bilan

uchrashuvda Tojikistonda vaziyatni normallashtirishga, uni tinch, siyosiy yo'l bilan hal qilishga qaratilgan takliflarni o'rtaga tashladi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.

Mavzuga doir material

Tojikiston muammosi yechimining besh muhim jihati

Almati shahrida oliy maqom uchrashuvidan so'ng jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda muxbirlar tojik-afg'on chegarasida yuzaga kelgan tanglik va O'zbekiston hamda Qozog'iston rahbarlarining bu muammoga munosabati xususida savollar berishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu savollarga javob berarkan, muammoning besh jihatiga mufassal to'xtalib o'tdi.

Birinchidan, dedi u, Tojikiston bilan Afg'oniston chegarasida ro'y berayotgan ziddiyatni hech qachon katta kuch to'plab, zo'rlik yo'li bilan hal qilib bo'lmaydi. Zo'rlik ishlatish ahvolni battar chigallashtirib yuborishi mumkin. Bu muammoni faqat tinch yo'l bilan, muzokaralar vositasida hal etish zarur.

Masalaning ikkinchi muhim jihati shuki, – dedi Islom Karimov, Tojikiston – mustaqil davlat, uning rahbariyati mamlakatning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan, o'z xalqining tub manfaatlariga xizmat etuvchi siyosat yurgizishi tabiiy. Hozir Tojikiston rahbariyati mamlakat boshiga tushgan katta fojiadan chiqib olish yo'llarini axtaryapti. Biz qo'shni davlat vakillari, tojik xalqi tezroq o'z diyorida, tinch va farovon hayot qurishini istaymiz. Tojikiston rahbariyatining o'z yurtida tezroq tinchlik va totuvlik o'rnatish yo'lidagi mustaqil sa'y-harakatlarini qo'llagan holda, ba'zi bir masalalarda tavsiya tarzida o'z mulohazalarimizni bildirsak, ular to'g'ri qabul etiladi, deb umid qilamiz. Shu nuqtayi nazardan qarasak, muammoni, yana ta'kidlab aytaman, aslo zo'rlik yo'li bilan yechilmaydigan muammoni hal etishda Tojikiston tarafi birinchi navbatda Afg'oniston rahbariyati bilan, agar kerak bo'lsa, Pokiston, Eron va shu mintaqadagi boshqa qo'shni davlatlar bilan muzokara yo'liga o'tsa, vaziyatni qay tarzda va qanchalik tez barqaror etish yo'llari haqida o'zaro fikr almashsa, ayni muddao bo'lur edi.

Muammoni hal etishga yordam beruvchi uchinchi jihat xususida gapirar ekan, Prezident Islom Karimov shunday dedi: Tojikiston rahbariyati o'z yurti kelajagini o'ylaydigan, mamlakatda demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlagan sog'lom kuchlar bilan tezroq muloqotga o'tgani ma'qul bo'lardi.

Bugungi kunda sobiq SSSR hududida qad rostlayotgan mustaqil davlat o'z Konstitutsiyasini, – jamiyatning, davlatchilikning huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqayapti va demokratik me'yorlarga moslayapti. Chunonchi, demokratik saylov tizimini ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan qonunlar tayyorlash hamda shu qonunlarni hayotga tatbiq qilish bugungi zamon talabiga javob beradigan ish bo'lur edi. Agar shu nuqtayi nazardan yondashsak, Tojikistondagi ijtimoiy tanglikni bartaraf etishning to'rtinchi jihatiga kelamiz. Buning mohiyati shuki, Tojikistondagi vaziyatni barqaror etish uchun kun sayin o'zgarib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan qonunlar ishlab chiqishni tezlashtirish zarur. Yangi jamiyat qurish va yangi demokratik saylov o'tkazish yo'lida turli siyosiy kuchlarning boshini qovushtirish, jamoatchilikni ana shu olijanob maqsadlarga jalb etish, bizning fikrimizcha, g'oyat ma'qul ish bo'lur edi.

Albatta, bizlar tojik-afg'on chegarasiga ikki davlat o'rtasidagi chegara deb emas, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining chegarasi sifatida qaraymiz, dedi O'zbekiston Prezidenti. Muammo yechimining beshinchi jihati shundaki, yalpi Xavfsizlik shartnomasiga imzo chekkan mamlakatlar chegarani mustahkamlashga ko'maklashishi kerak. Lekin har bir davlat, eng avvalo, o'zining ham moddiy, ham ma'naviy, ham siyosiyva ham diplomatik kuchlariga tayanib, muammoni hal etishga harakat qilgani ma'qul.

Prezident Islom Karimov Tojikiston xalqi va rahbariyati vujudga kelgan muammolarni bosiqlik va aql-zakovat bilan, tinchlik va adolat yo'li bilan hal etishga qodir, deb ishonch bildirdi.

«O'zbekiston ovozi», 1993-yil 30-iyul

* * *

1992-yil 8-oktabrda Tojikiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi Imomali Rahmonov rahbarligidagi shu mamlakat delegatsiyasi rasmiy amaliy tashrif bilan Toshkentga keldi. Xalqlar Do'stligi saroyida har ikki mamlakat rahbarlarining yakkama-yakka suhbati bo'lib o'tdi. So'ng rasmiy delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibda muzokaralari bo'ldi.

Islom Karimov Tojikistondagi vaziyat xususida so'zlar ekan, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi uchun kurashuvchi barcha siyosiy kuchlarning 1994-yil noyabr oyida bo'lib o'tadigan Prezident saylovida teng ishtirokini ta'minlash va xalqning barcha qatlamlari bu dolzarb masalaga o'z munosabatini xolis bildirishiga imkoniyat yaratish nohoyatda muhimligini ta'kidladi. Imomali Rahmonov qardosh O'zbekistonning tojik xalqiga insonparvarlik yordamini Prezident Islom Karimovning mintaqada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash borasidagi tashabbuslarini yuksak baholadi. Bu yilgi hosilni nes-nobud qilmay terib olish va kelgusi ish hosili uchun zamin yaratish hamda qishning talofatsiz o'tishi uchun

gaz va yoqilqi yetkazib berish haqidagi iltimosi qondirilgani uchun O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorchilik izhor etadi.

1991–1996-yillarda O'zbekiston va Turkmaniston munosabatlarida ham o'zaro qardoshlik, do'stlik, birodarlik, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda hamkorlik tamoyiliga amal qilindi.

Qardosh xalqlar va qo'shni mamlakatlar umumiy xonadonini tashkil etish, yagona zamin, yagona makonni qaror toptirish, belgilashning ma'naviy poydevori – bu olis o'tmish mushtarakligini, shu asosda shakllangan urf-odatlar, an'analar va turmush tarzini chuqur o'rganishdir.

Prezident I.Karimov tomonidan 1995-yil 5-mayda Oliy Majlis II sessiyasida «Turkiston – umumiy uyimiz» shiorini ilgari surilishi, uning mazmuni, ko'zlangan maqsad va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka ko'proq asoslanadi. Chunki bu hududda asrlar mobaynida ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya va madaniyat uyg'un holda turmush tarziga aylangan. Axloq har qanday sharoitda ham insoniylik va insoniy barkamollikning bosh prinsipi sifatida tan olingan. Qolgan barcha harakatlar va mezonlar, jumladan, iqtisodiy hamkorlik, o'zaro yordam, bozor munosabatlari, savdo-sotiq, mol ayirboshlash ham qadimdan yuksak axloq va odobga tayangan madaniy munosabatlarning bir qismi hisoblangan. Bu ming yillar mobaynida shakllanib, jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ulug' allomalar hayoti va ijodida, ularning insoniyat tarixida burilish yasagan asarlarida ham o'ziga xos tarzda ifodasini topgan. Shu bois Sharq allomalari dunyoviy fanlarning qaysi sohasida ijod qilishmasin, axloq kategoriyasiga qattiq suyanishgan, unga katta e'tibor bilan qarab, qomusiy xulosalari bilan boyitib borishgan.

Yuqorida aytilganidek qadimiy Turonda axloqqa katta e'tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat'i nazar barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va yetuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan.

Xalqlarimiz dunyoqarashi, maqsad va intilishlarini ifoda etgan xalq og'zaki ijodi namunalari ana shu zamin ahlining butun ruhiyatini qamrab olgan. Jumladan, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlarida «Alpomish», Turkmaniston, Ozarbayjon va O'zbekistonda «Go'ro'g'li» dostonlarining, qirg'izlarda «Manas» xalq eposining vujudga kelishi, ularda qariyb bir xil – ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik kurashida to'g'rilik va adolatning tantanasi, donishmandlik, aql-idrok, xushxulq va xushfe'llik asosiy g'oya qilib olinganligi ana shu xalqlar qarashlarining uyg'unligidan dalolat beradi. Yozma adabiyotda esa Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u

bilig» asaridagi singari falsafiy-axloqiy g'oyalar, forsiylarda Umar Xayyom, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, o'zbeklarda Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Alisher Navoiy, qozoqlarda Abay, turkmanlarda Maxtumqulilarning buyuk asarlari vujudga keldi va dunyo madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, mazkur xalqlar ma'naviy o'tmishi, tarixiy-etnik jihatlari tarixan birdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini vujudga keltirish, ularning suverenitetini hurmat qilgan holda, qadimdan hamkor-u hamfikr bo'lib kelgan xalqlarni yaqinlashtirish va shu asosda o'tish davri murakkabliklarini yengish eng hayotiy, eng ishonchli va eng samarali usuldir. Bu ayni paytda yuqorida tilga olingan ulug' ajdodlarimiz qarashlariga va mintaqa xalqlari maqsadlariga to'la mos keladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosiy yo'li aniq. Bu yo'l mintaqada yaxlit iqtisodiy hududni vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning 1995-yil 23-fevlardagi I sessiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni belgilab shunday degan edi:

«Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodining mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi.

Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, hal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q». O'z fikrini davom ettirib Prezident I.Karimov – «...birgalikda yashashimiz kerak. Yanada ochiqroq aytganda, agar Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston yoki Qozog'istondan ham tashabbus chiqadigan bo'lsa, men ularni qo'llab-quvvatlashga tayyorman. Men Markaziy Osiyo davlatlari orasida integratsiya barpo qilishning eng og'ir va eng ojiz tomoni bu xalqlar orasiga sovuqlik soluvchi, ularni bir-biridan uzoqlashtiruvchi sun'iy to'siqlar ekanini tushunaman» – deydi «Ozodlik» radiostansiyasi muxbiri A.Dubnov bilan suhbatda.

Markaziy Osiyo xonadoni – qadimiy xonadon. U o'z shonli tarixiga, buyuk an'analariga, dunyoviy madaniyatiga ega bo'lgan ulkan va fayzli oila. Ana shu mintaqada mavjud bo'lgan tarixiy an'analarni davom ettirish, ularni yangi tarixiy sharoitlarda boyitib borish, kelgusi avlodga har tomonlama yetuk, barkamol jamiyatni meros qoldirish hammamizning burchimiz. Shu ma'noda Prezidentimizning **«Yosh avlodga biz ozod va obod Vatanni meros qoldirmog'imiz kerakki, ular bobolarining ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirsinlar. Chunki yoshlarning ma'naviy uyg'oqligi g'aflatdan asrovchi asosiy omillardan biridir»,** – degan so'zlari bugun o'zbek xalqi ko'nglidagi fikrlar desak mubolag'a bo'lmas.

2001–2007-yillar Markaziy Osiyo taqdiri uchun alohida va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr sifatida tarixga kirdi. Bu bevosita xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning tazyiqi kuchaygan bir paytda Markaziy Osiyoda O'zbekistonning geosiyosiy ahamiyati tobora oshib borganini ko'rsatadi. Jumladan, 2001-yildagi terroristik harakatlar – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida, undan so'ng esa Toshkent shahrida va Buxoro viloyatida yuz bergan terroristik aktlar mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda o'zaro hamkorlik va ishonchni taqozo etganini ko'rsatadi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston bu borada yana bir bor tashabbuskor va yalovbardor bo'ldi.

O'tgan davr mobaynida Almatida, Ostonada, Toshkentda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida mintaqa davlatlari rahbarining uchrashuvlarida ayni ana shu mintaqa muammolari va uning yechimlari mintaqa xalqlarining istiqboliga tegishli qator masalalar muhokama qilindi.

2006-yilning yanvar oyida O'zbekiston rahbarining Qozog'istonda bo'lishi, xuddi shu yilning 19-20-mart va 3-noyabr kunlari Qozog'iston Prezidentining O'zbekistonga Davlat tashrifi har ikki mamlakat istiqboli yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

2006-yilning 3-4-oktabr kunlari esa Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Q.Bakiyev Toshkentda bo'lib, tegishli masalalar bo'yicha O'zbekiston rahbari bilan muloqotda bo'ldi. O'zbekistonning diqqatga sazovor joylarini, mustaqillik yillarida bunyod etilgan noyob inshootlarni ko'rib davlat qudratiga va xalq irodasiga yuksak baho berdi.

Umuman olganda O'zbekiston yaqin qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash yo'lidan borishdek strategik maqsadlarini amalga oshirishda 2001–2007-yillar muhim o'rin tutadi.

6-§. Toshkent – Sharq darvozasi

Dunyoning turli burchaklaridan yurtimizga tashrif buyurayotgan mehmonlar mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti haqida, avvalo, O'zbekiston ostonasi – poytaxtimizni ko'rib xulosa chiqaradilar. Zotan, har qanday poytaxt o'z mamlakatining qiyofasi, ko'zgusi. Davlatning obro'-e'tibori, qudrati va boy imkoniyatlari uning poytaxti qiyofasi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan ham o'lchanadi. Toshkent ham ana shunday millat va davlat ramziga aylangan Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar, bunyodkorlik ishlari bilan dastlab Toshkentda tanishadilar. Bu tabiiy, albatta. Chunki, har qanday mamlakatda poytaxt juda ko'p jihatlari bilan boshqa hududiy birliklarga qaraganda muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Toshkentdagi biri biridan go'zal bog'-rog'lar, zamonaviy inshootlar, keng va ravon yo'llar, qo'yingki, barchasi xalqimizning hozirgi farovonligidan dalolat berib turibdi.

Geografik jihatdan Toshkent har qanday poytaxt-shahar havas qilsa arziydigan qulay mintaqadan o'rin olgan. Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan Toshkentni asosiy xalqaro magistrallar, kommunikatsiya tarmoqlari kesib o'tadi. Betakror tabiatli diyorimiz kabi ham iqlimi, ham ko'rk-u jamoli bilan ajralib turuvchi bu shahar istalgan xalqaro tashkilot, muassasa va kompaniya vakillarining e'tiborini tortishi shubhasiz. O'zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa turli sohalarda munosabat o'rnatgan davlatlarning rahbarlaridan tortib, mamlakatimizga sarmoya olib kirib, tadbirkorlarimiz bilan hamkorlik qilayotgan biznesmenlargacha – hamma-hammasi eng avval Toshkentga qadam qo'yadi. Ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, yirik kompaniyalar o'z vakolatxonalari uchun joy sifatida aynan poytaxtimizni tanlagan. Albatta, bu bejiz emas. Chunki Markaziy Osiyoning yuragi deya nom qozongan Toshkent o'ziga xos mavqeyi bilan ham, o'z infratuzilmaviy afzalliklari bilan ham bu borada yuksak ahamiyat kasb etadi. Yildan yilga ko'payib borayotgan turli vakolatxonalar, yirik korporatsiyalarning bo'limlari, xalqaro tashkilotlarning qarorgoh hamda turli-tuman anjumanlar, uchrashuv va sammitlar, xalqaro musobaqalar uchun jonajon Toshkentimizning tanlanishi qalblarimizda cheksiz iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ba'zan dunyo siyosiy xaritasida tenglar ichra teng bo'lib turgan poytaxtimiz nomini ko'rib har bir fuqaro ich-ichidan quvonadi.

Toshkent – respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy markazidir. Mamlakatning barcha boshqaruv organlari, respublika miqyosidagi tashkilot va idoralar poytaxtda joylashganligi uning siyosiy mavqeyini belgilab bersa, aholi soni, yuksak salohiyatli kadrlarning shu yerda to'planganligi va hududning iqtisodiy jihatdan ilg'or taraqqiyot zonasiga aylangani Toshkentning iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi.

Ba'zan o'ylab qolasan kishi. Biz – bir necha ming yillarga borib taqaladigan hayratomuz tarixga ega bo'lgan zamin farzandlari mana shu diyorda mustaqil O'zbekiston davlatining bunyod bo'lishini ko'rishga, istiqlol yo'lining boshida turishga muyassar bo'lgan avlodmiz. Bu bizga taqdir tomonidan in'om etilgan yuksak sharafdir. Ammo bu ayni paytda juda katta mas'uliyat ekanligini ham har bir zamondoshimiz allaqachon tushunib yetdi. Biz mustaqillik yo'li u qadar oson emasligini, butun millatning ezgu maqsadlar, buyuk g'oyalar ostida jipslashishigina haqiqiy taraqqiyot sari yetaklashini ko'rdik. Butun dunyo O'zbekiston xalqining mana shu 1991–2007-yillar oradagi mashaqqatli mehnatlari va bu mehnat natijasi bo'lmish ulkan bunyodkorlik jarayonlari, yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy o'zlikni anglash va butun

mamlakatda keng quloch yozgan madaniy yuksalishga guvoh bo'lib turibdi. Keling, ana shu 15 yillik intilish va harakatlarimizga Toshkentimiz misolida nazar tashlaylik.

Albatta, tom ma'noda ozod, hur bo'lish uchun birinchi navbatda iqtisodiy jihatdan mustaqillik bo'lishi zarur. Qisqa davrda mamlakatimizda, qolaversa, poytaxtimiz Toshkentda g'oyat muhim iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Yurtimiz iqtisodiyotining rivojlanishi ko'pgina ko'zga ko'ringan xorijlik iqtisodchilarni hayratga solish darajasida kun sayin yuksalib bormoqda. Toshkent esa haqli ravishda ana shu taraqqiyotning o'ziga xos ramzi, ko'zgusiga aylana oldi.

Xususan 2000–2007-yillarda shahar iqtisodiyotining barcha tarmoqlari izchil rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Yalpi hududiy mahsulot hajmi so'nggi o'n yil ichida o'rta hisobda 4-5 foizga ortib bordi. 2005-yili esa bu ko'rsatkich 11,4, joriy yilning olti oyi yakunlariga ko'ra, 8,5 foizga o'sdi. Bugunga kelib yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoat ulushi 16,1, qurilish sohasi ulushi 7,2, xizmat ko'rsatish sohasi ulushi 60,8 foizni tashkil etdi. Erkin iqtisodiy muhit yaratilganligi, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l berilganligining samarasi o'laroq yalpi hududiy mahsulot hajmida kichik biznes va tadbirkorlar ulushi 47,1 foizga yetdi. 2006-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent shahridagi 4934 ta ishlab chiqarish korxonalarining 4750 tasi yoki 96,2 foizi kichik biznes subyektidir.

Ma'lumki, iqtisodiy o'sish salmog'i va sur'ati avvalo sanoat sohasining rivojiga chambarchas bog'liq. O'tgan besh yilda bu sohada keskin o'sish boshlanganligiga nafaqat poytaxt ahli, balki butun mamlakat iqtisodchilari guvoh bo'lib turibdi. Sanoat sohasiga yuqori texnologiyalarning kirib qolishi, tarmoqda uddaburon va tavakkalchilikdan cho'chimaydigan, yangilikka intiluvchan ko'p sonli xususiy tadbirkorlar qatlamining shakllanishi ushbu jarayonning boshlanishiga kuchli turtki berdi. O'sish sur'ati har yili o'rtacha 10 foizni tashkil etayotgani fikrimiz dalilidir. 2000-yilda 561 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2005-yilda bu ko'rsatkich 1164,2 milliard so'mga yetdi.

Bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotimizning ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda investorlarning barqaror faoliyat yuritishi uchun ham huquqiy, ham iqtisodiy jihatdan barcha sharoitlar yaratilgan. Shubhasiz, Toshkent shahrining sarmoyaviy reytingi ham, kirib kelgan mablag'larni iqtisodiyotga yo'naltirish imkoniyatlari ham juda baland. Va bu qulaylikdan imkoniyat darajasida foydalanilayotganligini ham e'tirof etish kerak. O'tgan yil yakunlariga ko'ra poytaxtimizda mulkchilikning barcha shakllaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 741,6 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, o'sish sur'ati 2004-yilga nisbatan 111,9 foiz deya baholandi. Jumladan, shahrimizning tashqi iqtsodiy aloqalari ko'lami kengayayotgani erishilayotgan yutuqlarda

muhim omil bo'lmoqda. Hozirda shahrimizda 120 dan ortiq mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan.

Shahrimizda 13879 ta savdo va 3687 ta maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat yuritayotgani ham aholiga ko'pgina qulayliklar yaratmoqda. Savdo aylanmasi hajmiga ko'ra bu soha respublikada birinchi o'rinda turadi. Shu o'rinda ta'kidlashim joiz, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojiga katta e'tibor berilayotgani ayni muddao bo'ldi. Chunki bu ish odamlarning og'irini yengil qilish bilan birga kishilarimizning daromadini ko'paytirish, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Endilikda yalpi hududiy mahsulotda mazkur soha ulushining yanada ortishi kutilmoqda. Shahar jamoatchiligi bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi. Negaki, sohada yana 76,7 mingta ishchi o'rinlari tashkil etish va xizmat turlarini kengaytirish imkoniyatlari bor.

Iqtisodiy islohotlarda, ayniqsa, aholini ijtimoiy muhofaza qilishdek muhim vazifa katta e'tibor talab qiladi. Zotan, bu Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidan biridir.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Toshkent shahrida 2006-yilning 6 oyi ichida 4956 nafar kam ta'minlangan oilaga 1062,5 million so'mlik, 18 yoshgacha farzandi bo'lgan 16158 nafar oilaga 2436,4 million so'mlik va oilasida 2 yoshgacha farzandi bo'lgan 8927 nafar ishlamayotgan ayollarga 2251,6 million so'mlik moddiy yordam berildi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlari ustunlik qilib borishi bilan davlat budjeti orqali milliy daromadni nomoddiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlari va mamlakat hududlari o'rtasida qayta taqsimlanishida mahalliy budjetlarning ahamiyati tobora ortib boradi. Ya'ni mahalliy budjet mablag'laridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish orqali islohotlarni amalga oshirishdagi ko'zlangan maqsadlarga erishiladi.

Bu borada Toshkent shahar budjetining xarajatlariga to'xtalib, mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga alohida g'amxo'rlik qilinayotganini ta'kidlash lozim. Ushbu e'tiborni mazkur sohalarga yo'naltirilishi rejalashtirilayotgan mablag'lar miqdoridan ham ko'rish mumkin. 2006-yilda Toshkent shahri bo'yicha ta'lim sohasiga 78,7 mlrd. so'm yoki mahalliy budjet jami xarajatlarining 32,8 foizi miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning «2004—2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni va mazkur Farmon ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari natijasida maktablar zamonaviy tus olmoqda.

Shu asosda hozirgi kunda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning zamonaviy sharoitlarda bilim olishi, kasb-hunar sirlarini puxta o'rganishiga mukammal imkoniyatlar yaratib berilayapti. Barcha tuman xalq ta'limi

bo'limlari qoshida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, pedagogik-psixologik Tashxis markazlari tashkil etildi. Markazlar psixodiagnostik qo'llanmalar, test va anketa savollari bilan ta'minlandi.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida 16807 nafar pedagog faoliyat ko'rsatayotir. Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida yetuk kadrlarni izlab topish va ular ishini ommalashtirishda «Yil tarbiyachisi», «Yil o'qituvchisi», «Yil maktabi», «Yilning eng yaxshi maktab kutubxonasi» kabi tadbirlar yaxshi samara bermoqda. Bundan tashqari «Prezident asarlari bilimdoni», «Sen qonunni bilasanmi?», «Sen tarixni bilasanmi?», «O'yla, izla, top» kabi ko'rik-tanlovlari o'quvchilarimiz orasida allaqachon ommalashib ketdi. «Umid nihollari» sport musobaqalarida shahrimiz maktablari o'quvchilari g'oliblikni qo'ldan bermasdan kelmoqda.

Albatta, bunda maktablardagi shart-sharoitlarning ahamiyati katta. Jumladan, 2006-yilning birinchi yarmida bir maktab yangi qurilgan bo'lsa, 3 tasida kapital rekonstruksiya, 16 ta maktabda kapital ta'mirlash ishlari tugallandi. 19 ta maktabda joriy ta'mirlash ishlari ham belgilangan muddatlarda tugatildi.

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarda asosiy e'tibor qaratilgan yana bir bosqich – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidir. Ilgari mutlaqo e'tiborsiz qolgan, hozirga kelib esa O'zbekiston ta'lim tizimida o'zining mustahkam o'rnini topishga ulgurgan akademik litseylar va kollejlar tarmog'i umumiy o'rta ta'lim bilan uyg'un ravishda rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Hozirda jahon talablari darajasida jihozlangan, muhtasham ko'rinishga ega bo'lgan 115 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey faoliyat yuritmoqda. Ularda 98857 nafar o'g'il-qiz 180 dan ortiq mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olishmoqda.

Poytaxtda sog'liqni saqlash doim namunali bo'lib kelgan. Hozirda bolalar, kattalar, ayollar poliklinikalari o'rniga yagona va mukammal oilaviy poliklinikalar yo'lga qo'yilayaptiki, bunday muassasalar Toshkentdek aholisi ko'p va zich joylashgan shahri azimda sog'liqni saqlash tizimida muhim rol o'ynaydi. Poliklinikalarda faoliyat yuritayotgan 974 nafar umumiy amaliyot vrachlarining har biriga 300–350 oila biriktirilgan bo'lib, bu barcha aholi qatlamlarini qamrab olishga imkon berdi.

Moddiy-texnik bazani rivojlantirish maqsadida barcha davolash-profilaktika muassasalarida kapital va joriy ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Shayxontohur tumanidagi 14 va 55-sonli, Sobir Rahimov tumanidagi 4, 42-sonli, Uchtepa tumanidagi 8-oilaviy poliklinikalar xalqaro andozalarga mos ravishda qurilib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Talabalar shaharchasidagi 32-poliklinikaga 232 milllion so'm miqdorida homiylar mablag'i ajratildi va to'liq ta'mirdan chiqarildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mavqeyi va jamiyatimizdagi ahamiyatini oshirishga ham jiddiy e’tibor berildi. Mahallalar nufuzini aholi orasida yanada oshirish maqsadida fuqarolar yig‘ini tarkibiga «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi hamda diniy ma’rifat va ma’naviy axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimlari kiritildi, hozirgi kunda shahrimizdagi 474 ta fuqarolar yig‘ini tarkibida 1896 nafar xodim faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2006-yilda shahar budjetida mahallalar fuqarolar yig‘ini faoliyatini moliyalashtirish uchun 1 mlrd. 426,3 mln. so‘m ajratilishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga asosan 2002–2006-yillarda Toshkent shahrida 3647 ta 1991-yilgacha qurilgan ko‘p qavatli uy-joylarni, umumiy foydalanish joylarini va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital ta’mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, 2006-yil 1-iyun holatiga 3302 ta uy ta’mirlandi. Yil oxirigacha qolgan 345 ta uy ham to‘liq ta’mirdan chiqarilishi rejalashtirilgan.

Toshkentdagi bunyodkorlik ishlari natijasida shahrimiz jamoli yil sayin emas, balki kun sayin o‘zgarib, dunyoning rivojlangan davlatlari poytaxtlari qatoriga kirib borayotganligi har bir fuqaro qalbida faxr va iftixor hissini uyg‘otadi. Ayniqsa, yangi ravon ko‘chalar, obod mahallalar, so‘lim xiyobonlar, yodgorlik majmualari, ko‘rkam va maftunkor favvoralar va salobatli ko‘priklarning qurilishi go‘zal shahrimiz ko‘rkiga yanada ko‘rk qo‘shmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, jonajon Toshkentimizdagi o‘zgarishlar xuddi bir mo‘jizaga o‘xshaydi, lekin aslida bu mo‘jiza emas, balki, Ona yurtimizga, xalqimizga mustaqillik berayotgan bebaho ne’matning mevasidir.

XULOSA

Dunyoda ikki hokimi mutlaq bor – qilich va aql-idrok; oxir-oqibatda har doim aql-idrok qilich ustidan g'alaba qozonadi, degan edi mashhur donishmandlardan biri. Darhaqiqat, har qanday yovuz kuch aql-zakovat, tafakkur va ilm oldida ojizdir. Zakovatning qudrati uning bunyodkorligida, eng og'ir paytda ham yaxshilik va ezgulik yo'lini – g'alaba yo'lini topa bilishida. Zakovat va tafakkur tayanchi esa ma'rifat va ma'naviyat hisoblanadi. Tarixni bilish, ajdodlar tajribasini o'zlashtirish, o'tmishdan saboq olish ana shu buyuk qadriyatning sarchashmasidir. O'zligini anglagan, uzoq o'tmishini bilgan kishi olis istiqbolni ham ravshanroq ko'radi, aniqroq idrok etadi. Demakki, hayotda o'z o'rnini topa biladi. Hech qachon qadr-u qimmatini yo'qotmaydi. Demak, tarix tafakkur va fikrga da'vat etuvchi qudrat! Demak, bu ma'rifatli inson va ma'rifiy jamiyatning **birinchi** fazilati. O'tmishi buyuk xalq kelajagi ham buyuk bo'lishiga ishonadi.

Ikkinchi fazilati shundan iboratki, ma'rifatli xalq izlanuvchan va bunyodkor bo'ladi. Har qanday qiyinchiliklardan cho'chimaydi, kuch-quvvat, katta iroda sohibi bo'ladi. To'siqlarni yengib yashaydi. Eng og'ir va ziddiyatli paytlarda ham istiqbolini aniq ko'ra oladi. Unga yetishmoq yo'llarini topa biladi.

Uchinchidan, ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli xalq milliy birlik, milliy yaxlitlik namunasini ko'rsatadi. Jamiyat qarama-qarshiliklarini, turli ziddiyatli kuchlarni yenga oladi. Millat yaxlitligi orqali manfaatlar yaxlitligiga erishadi. Bunday xalqni yengib o'tadigan kuch bo'lmaydi.

Mustaqillikning o'tgan davri – tarix bilan qiyoslaganda bir lahza. Biroq istiqlolning murakkab, dolg'ali, ziddiyatli bir paytida xalqimiz boy ma'naviyatini, bunyodkorlik iqtidorini, beqiyos irodasini yaqqol namoyon qildi. Ayni ana shu muddatda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, sobiq ittifoq bir-biriga ulab tashlagan moddiy zanjirlar uzilgach, ularning o'rnini qoplaydigan yangi imkoniyatlarni izlab topish lozim edi. Eng mushkul paytlarda aholini ijtimoiy muhofazalash bilan birga jahon hamjamiyatiga yo'l qidirish,

dunyoni o'rganish, o'z imkoniyatlarini olam ahliga ko'rsatish singari tajribamizda ko'rilmagan, mashaqqatli vazifalarni ham uddalash kerak edi. Ma'lumki, mustaqil taraqqiyot o'z qobig'iga o'ralib yashash emas, aksincha, jahon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlash, dunyodagi rivojlangan, taraqqiy topgan mamlakatlar bilan tengma-teng turib gaplashish, o'z mavqeyi va nufuzini topa bilish kabi og'ir masalalar yechimini ham taqozo etar edi.

Hukumatimiz ana shunday bir vaziyatda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik yo'lini tanladi va bu borada sobitqadamlik bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Natijada qisqa fursatda xorijda O'zbekiston haqida, o'zbek xalqi to'g'risida to'la tasavvur shakllandi. Yurtboshimizning beqiyos siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy imkoniyatlari tan olina boshlandi. Chet eldagi hamkorlar O'zbekiston bilan o'zaro manfaatli munosabatlarini yo'lga qo'yish mumkin va zarurligini tushunib yetdilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlarni sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlar bilan qiyoslaganda uning miqyosi va ko'lami yana ham yorqinroq ko'zga tashlanadi. Boshqacha qilib aytganda xalqimiz bosh islohotchi – davlatimiz rahbarligida eng to'g'ri yo'lni tanlay olganiga va unda sobitqadamlik hamda kelajakka qat'iy ishonch bilan borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston ahli bu yo'ldagi g'ovlarni, turli-tuman qiyinchiliklarni, tabiiy va sun'iy to'siqlar, qarama-qarshiliklarni katta sabot va iroda kuchi bilan yengmoqda. Bu xalqimizning ma'naviy qudratidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar xususida gapirar ekanmiz, jahonning hozirgi eng rivojlangan mamlakatlari boshidan kechirgan o'tish davriga nazar tashlasak, qo'lga kiritgan yutuqlarimiz naqadar ulug'vor ekaniga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Qolaversa, mustaqilligining 40, 50 yillik sanalarini nishonlayotgan Osiyo va Afrikadagi ayrim davlatlar hamon rivojlanish yo'llarini aniq-ravshan tanlab olganlaricha yo'q. Ularda jamiyat taraqqiyotining aniq konsepsiyalari va tamoyillari mavjud emas. Hamon ishlab chiqarishda beqarorlik, iqtisodiy hayotda parokandalik yuz bermoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlariga o'tish, jamiyatni tubdan isloh qilish, mustaqil taraqqiyotni bir maromda ta'minlashning evolutsion jarayoni hozirgi zamon davlatchiligi va boshqaruvi tajribasiga **«O'zbek modeli»** sifatida kirdi va uni yangi mazmun bilan boyitdi.

Hamma vaqt bo'lgani kabi o'tish davrida barcha tarixiy jarayonlar, voqeliklar va yangilanishlar bevosita unga rahbarlik qilayotgan, uni boshqarayotgan shaxs nomi bilan bog'liq.

Ana shu tarixiy haqiqatdan kelib chiqib aytish mumkinki, Prezident I.A.Karimovning jamiyatni tubdan yangilash nazariyasini va keng miqyosli

faoliyatini insoniyat tarixining turli davrlarida, turli mamlakatlarida yuz bergan tub o'zgarishlar, keskin burilishlar hodisasiga qiyoslash mumkin.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston jamiyatni tubdan yangilash nazariyasi va ko'p qirrali islohchilik faoliyati jihatidan Amerika Qo'shma Shtatlari davlatining asoschisi va uning birinchi Prezidenti Jorj Vashington, Amerika iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ilmiy-nazariy va amaliy ta'sir ko'rsatgan islohotchi, Prezident Avraam Linkoln, jamiyatni erkinlashtirish va demokratiya nazariyasining asoschilaridan biri, Prezident Tomas Jeferson, Indoneziyada mustamlakachilikka qarshi kurashgan, milliy birlik va mamlakat taraqqiyotining turli bosqichlari to'g'risida qator asarlar yozgan Ahmad Sukarnolar bilan bir qatorda turadi. Fransiyada Sharl de Goll, Hindistonda Javoharla'l Neru, Mahatma Gandi, Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk, Seylonda Salomon Bandaranakiye, Misrda Jamol Abdul Nosir va boshqalar o'zining siyosiy faoliyati, yangilanishlar konsepsiyasini ishlab chiqishi bilan jahon taraqqiyotida qanchalik kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Prezident I.A.Karimovning davlat siyosatini inson manfaatlariga xizmat qildirish, tinchlik madaniyatini qaror toptirish, ijtimoiy hamkorlik doiralarini kengaytirish borasidagi qarashlari, amaliy konsepsiyalari dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining insoniylashuvi tendensiyalarini mustahkamlashda shunchalik muhim hissa bo'lib qo'shilmoqda.

O'zbekistonda davlat tuzumi va jamiyatni tubdan yangilash jarayoni o'tgan davrda dinamik tarzda rivojlanib, takomillashib bordi. Tub islohotlar nazariyasi **davlat – jamiyat – inson** tizimida vujudga keldi va ravnaq topdi. Bu tizim quyidagi yangilanishlar hosil etuvchi yo'nalishlarni qamrab oladi:

– o'tish davrida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy xaotik holatlarni tartibga solish, anomiya holatlarini jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy me'yorlarga keltirish;

– yangi davlatchilik tizimini vujudga keltirish;

– iqtisodiy sohada tarkibiy o'zgarishlarni tadrijiy amalga oshirish;

– ijtimoiy himoya tizimining inson va oila manfaatlariga eng maqbul va samarali xizmat qildirish;

– milliy xavfsizlik va mudofaa konsepsiyasini tinchlik va barqarorlikka xizmat qildirish;

– ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy muhitni erkinlashtirish;

– qadriyatlar ustuvorligi;

– ma'naviy-ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini asoslash;

– tarixiy xotirani tiklash va istiqlol tarixini yaratish;

– o'zgarayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqelikni anglash va ogohlikka da'vatning yalpi idrok etilishi;

– milliy istiqlol g'oyasining ishlab chiqilishi va uning jamiyatni ulug' maqsadlar yo'lida uyushtiruvchilik rolining asoslanishi;

– jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, diniy, e'tiqodiy va siyosiy maslakdagi fuqarolar o'rtasida ijtimoiy murosa muhitini shakllantirish;

– tolerantlik va ijtimoiy hamkorlik vaziyatni vujudga keltirish va boshqalar.

Buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur «Kuch-qudratimizga shubhangiz bo'lsa, biz qurgan binolarga boqing», degan edilar. Darhaqiqat, mamlakatni obod qilgan, yurtini fayziyob etgan, Vatanini ulug'lagan millat ma'naviy jihatdan barkamol, istiqboliga qat'iy ishongan xalq bo'ladi. Bunday xalq o'z tarixini shon-u shavkatga burkaydi.

Mustaqillikning qiyin va mashaqqatli davrida kelajakka qat'iy ishonch bilan qaragan xalqgina bunday keng miqyosdagi vazifalarni amalga oshirishi mumkin. O'tish davrining o'ziga xos qiyinchiliklarini yengib, har kuni kutilmagan muammolar paydo bo'lib turgan bir paytda mayda yumushlar va kundalik tashvishlar girdobida qolib ketmay, istiqbol yo'lini tanlagan xalqning kelajagi buyuk bo'lishi tabiiy. Bunday millat dunyo xalqlari bilan tengma-teng muloqot qila oladi, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallaydi. Bunday xalqni aslo yengib bo'lmaydi! Zotan, ma'rifat, madaniyat, ma'naviyat nuri bilan yo'g'rilgan vatanparvarlik hissi, Vatan tuyg'usi har qanday kuchdan g'olib kelguvchi mo'jizakor qudratdir.

M U N D A R I J A

KIRISH.....3

B i r i n c h i b o b. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi

1-§. Mustaqillik – o'zbek xalqining azaliy orzu-intilishi.....8
2-§. O'zbekiston davlat suverenitetining e'lon qilinishi.....18
3-§. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining umumxalq tomonidan ma'qullanishi.....36
4-§. Islom Karimov – mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti.....41
5-§. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.....50
6-§. O'zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi.....67

I k k i n c h i b o b. Jamiyatni modernizatsiyalash davrida siyosiy islohotlar

1-§. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi.....88
2-§. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi.....105
3-§. Mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar.....119
4-§. O'zini o'zi boshqarish organlarining yanada rivojlantirilishi.....124
5-§. Kadrlar siyosatida yangicha yo'l tutilishi.....134

Uchinchi bob. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi

1-§. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti.....146
2-§. Iqtisodiy taraqqiyot.....150
3-§. Ijtimoiy sohaning rivojlanishi.....156
4-§. Xalq ta'limi, fan va madaniyat.....158

To'rtinchi bob. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi. Fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi

1-§. Demokratiyani yanada chuqurlashtirish. Ko'ppartiyaviylik.....163
2-§. Soxta demokratlarning ekstremistik yo'l bilan hokimiyat uchun kurashi, ularning xalq tomonidan badnom qilinishi.....183
3-§. Jamiyatni erkinlashtirishning yangi bosqichi.....200
4-§. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi....209
5-§. Sud hokimiyati islohotlari.....223
6-§. Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalari rolining ortib borishi.....232

Beshinchi bob. Siyosiy, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi

1-§. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash – davlat siyosatining bosh yo'nalishi.....243
2-§. Millatlararo totuvlikni ta'minlash choralarining amalga oshirilishi.....270
3-§. Milliy xavfsizlikni ta'minlash.....276

Oltinchi bob. Iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos tamoyillari

1-§. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish.....332
2-§. Pul-kredit siyosatining ishlab chiqilishi. Milliy valyuta qadrining oshishi.....352
3-§. Xususiylashtirishning amalga oshirilishi, mulkdorlar sinfining shakllantirilishi.....379
4-§. O'zbekistonning zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoriga qo'shilishi.....394
5-§. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida qishloqning o'rni va uni rivojlantirish chora-tadbirlari.....399

Yettinchi bob. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi

1-§. Milliy g'oya.....411
2-§. Ma'naviy inqirozdan chiqish.....421
3-§. Milliy istiqlol va Amir Temur omili.....432
4-§. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi.....447
5-§. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiya.....461
6-§. Madaniy hayot.....480
7-§. Yoshlarni Vatanni sevish ruhida tarbiyalash – kelajagi buyuk jamiyat qurishning muhim sharti.....564

Sakkizinchi bob. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi

1-§. Mustaqil O‘zbekistonning BMTga qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati....581
2-§. O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari: taraqqiyotning yangi bosqichi....615
3-§. O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi o‘rni va mavqeyining oshib borishi....627
4-§. O‘zbekiston va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti....633
5-§. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan qardoshlik munosabatlarining yanada rivojlanishi....640
6-§. Toshkent – Sharq darvozasi....651
Xulosa....657

Narzulla Jo'rayev, Tursunboy Fayzullayev

MUSTAQIL O'ZBEKISTON TARIXI

To'ldirilgan, qayta nashr

Nashr uchun mas'ullar:
L.X.Tangriyev, I.B.Zoyirov.

Muharrir *Ilhom Zoyir*
Musavvir *Akrom Bahromov*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhih *Dono To'ychiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *Abduhalim Kamolitdinov*
Rasmlar mualliflari *Abduvohid To'rayev, Abdug'ani Jumayev*

IB № 4811

Bosishga 29.05.09-y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$
Tayms garniturasi. Ofset bosma 41,5+2,0 vkl. shartli bosma toboq.
45,0+2,5 vkl. nashr tobog'i. Adadi 3000 nusxa. 168 raqamli buyurtma.
30-2009 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning internet manzilimiz: www.iptdgulom.uz
Email: fop-iptd@rambler.ru

Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlab olish uchun avvalo tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan. Tarix insonning ko'zini ochar ekan. Shunda ko'p xatolarning oldini olish mumkin bo'lar ekan.

O'tgan davr tarix uchun bir lahza bo'lsa-da, biz uchun butun davr hisoblanadi. Zero, mana shu davr ichida biz boshqa mamlakatlar o'n–yuz yillar mobaynida o'tadigan yo'lni bosib o'tdik.

O'tgan davrning har bir yilini ahamiyati jihatidan tariximizning o'n yilliklariga, hatto asrlariga tenglashtirish mumkin, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Islom Karimov






ISBN 978-9943-03-216-3